



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**“TIQXMMI” MTuning QARSHI
IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

**AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARI VA YASHIL
ENERGETIKA MUAMMOLARI: ISHLAB CHIQRISHDA,
FAN VA TA‘LIMDA
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**



Qarshi 2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**"TIQXMMI" MTUning QARSHI
IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

**Texnologik jarayonlarni
avtomatlashtirish va boshqarish
kafedrasi**

**AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARI VA YASHIL
ENERGETIKA
MUAMMOLARI: ISHLAB
CHIQRISHDA, FAN VA TA'LIMDA
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

Qarshi 2024

TASHKILY QO'MITA

1.	Muqimov Z.M.	Rais, "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti direktori, i.f.n., dotsent
2.	Ravshanov H.A.	Rais o'rinbosari, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari, t.f.d., dotsent
3.	Ochilov D.M.	Rais o'rinbosari, "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini mudiri PhD, dotsent
4.	Shukurova O.P.	Rais o'rinbosari, "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, PhD, dotsent
5.	Yunusov O.A.	Tahrirchi, "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, assistent
6.	Jiyanqulov L.A.	Tahrirchi "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, assistent
7.	Xaydarov Sh.O.	Tahrirchi "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, assistent
A'zolar		
8.	Xudoynazarov U.A.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, katta o'qituvchi
9.	Qarov B.Y.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, assistent
10.	Aliqulova S.M.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, assistent
11.	Niyozova D.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, stajyor o'qituvchi
12.	Boynazarov R.N.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, stajyor o'qituvchi
13.	Rahimov U.N.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, stajyor o'qituvchi
14.	Murodullayev D.M.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, stajyor o'qituvchi
15.	Turdialiyev B.N.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, stajyor o'qituvchi
16.	Bobomurodova N.P.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, stajyor o'qituvchi
17.	Rahmonov Sh.S.	"Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi, stajyor o'qituvchi

KIRISH

“Avtomatlashtirish tizimlari va yashil energetika muammolari: ishlab chiqarishda, fan va ta’limda”

Fan va ta’limda avtomatlashtirish va yashil energetika-faoliyati fan va ta’lim sohalarida avtomatlashtirish tizimlari va yashil energetika bo’yicha bilimlar, avvalo, yangi texnologiyalarni yaratish va mavjudlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar orqali rivojlanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida eng dolzarb muammolar va sohalardan hisoblanadi. Ularning ishlab chiqarish, fan va ta’limdagi roli, albatta, zamonaviy texnologiyalar va ekologik barqarorlikning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Avtomatlashtirish tizimlari, masalan, ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sarfini optimallashtirish uchun ishlatiladi. Avtomatik boshqaruv tizimlari va sensorlar yordamida energiya iste’molini nazorat qilish va kamaytirish mumkin. Bu esa yashil energetikaning asosiy maqsadlaridan biri bo’lib, energiya tejash va atrof-muhitni ifloslanishdan saqlashni ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi PQ-57-sonli qarori qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi qaroriga asosan: davlat budjeti mablag’lari 2023-yilda 20 mingta ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o’rnatish rejasi tasdiqlangan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-222-son qaroriga asosan yurtimizda olib borilayotgan islohatlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirishning ahamiyati, innovatsion texnologiyalar va ularning samaradorligi oshirish maqsadida yashil energetikada qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish va energiya iste’molini optimallashtirish maqsadida:

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasida “Avtomatlashtirish tizimlari va yashil energetika muammolari: ishlab chiqarishda, fan va ta’limda” mavzusida.

Respublika ilmiy-amaliy anjumani (on-line va off-line formatda) o’tkaziladigan ilmiy amaliy konferensiya tashkil qilindi va bu kabi konfrensiyalar yosh bilimga chanaqoq izlanuvchilarimizni yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo’shishiga bevosita bir ko’prik bo’lib xizmat qiladi.

1-SHO'BA: AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA MATEMATIK VA KOMPYUTERLI MODELLASHTIRISH, RAQAMLASHTIRISH VA SUN'IY INTELEKTNI QO'LLASH.

ELOSTOMER KOMPOZITLAR TAYYORLASHDA KO'P QATLAMLI POLIMER MAHSULOTLARINI OPTIMAL VULKANIZATSIYA VAQTINI HISOBLASH ALGORITMI.

Avezov T. A.

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Ismoilov M.A.

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti professori

toshtemir2011@gmail.com

Ko'p qatlamli polimer mahsulotlarini vulkanizatsiyasining optimal rejimini tanlash uchun zarur erishish vaqtini belgilaydigan harorat maydonlaridagi sovuq nuqtalar deb ataladigan vulkanizatsiya darajasini bilish talab qilinadi. Murakkab bo'lgan ko'p komponentli polimer mahsulotlarning harorat maydoni materiallarning termofizik parametrlari, uning murakkab geometriyasi, shuningdek issiqlik ishlab chiqarish natijasida kelib chiqadigan ichki issiqlik manbalari undagi kimyoviy reaksiyalar va vaqt o'tishi bilan doimiy bo'lmagan mahsulotning tashqi va ichki yuzalaridagi haroratiga qarab aniqlanadi. [1].

Vulkanizatsiya qilinadigan kauchuklarni harorat maydonlarini raqamli aniqlash kauchukning ekvivalent qismida harorat maydonlarini aniqlash uchun, belgilangan chegara shartlari bilan qizdirilganda 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar qo'yiladi



1- rasm Avtomobil shinalari misolida ko'p qatlamli mahsulotning tarkibiy qismlari

1 -rasmda avtomobil shinalari qatlamlari: №1-protaktor; №2-Himoya qatlami; №3-kamar; №4-ramka qatlami; №5-ichki astar; №6 - Yon qatlam; №7-Apex; № 8-bort; №9-bortni mustahkamlash.

Har bir polimer mahsulotining qatlami turli xil kompozitsiyalar va xususiyatlari. Harorat maydonlarini hisoblashning matematik modeli ko'p qatlamli mahsulot issiqlik o'tkazuvchanligi tenglamasi bilan ifodalanadi 1-jadvalda hisoblanayotgan ko'p qatlamli mahsulotning boshlang'ich va chegara shartlarining qiymatlari berilgan boshlang'ich qatlam (1)-(2): formulalarda berilgan

$$T(l, 0) = T_0(l); L \in [0, L]. \quad (1)$$

$$T(0, t) = T_v(t), T(L, t) = T_i(t); t \in [0, t_k] \quad (2)$$

Misol tariqasida hisoblash to'rt qatlamda amalga oshiriladi. Taqdim etilgan:

$$C(T), va \lambda = \begin{cases} C_{lv1}(T) va \lambda_{lv1} agar l \in [0, L_{lv1}], \\ C_{lv2}(T) va \lambda_{lv2} agar l \in [L_{lv1}, L_{lv2}], \\ C_{lv3}(T) va \lambda_{lv3} agar l \in [L_{lv2}, L_{lv3}], \\ C_{lv4}(T) va \lambda_{lv4} agar l \in [L_{lv3}, L]. \end{cases} \quad (3)$$

bu yerda $C(T), va \lambda$ - mos ravishda issiqlik sig'imi koeffitsientining bog'liqligi har biriga mos keladigan harorat va issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti qatlam.


Shunga ko'ra, issiqlik sig'imi koeffitsientining bog'liqligi har bir qatlamga mos keladigan harorat va issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti 1 jadvalga kiritilgan.

1- jadval

Modellashtirishga kiritish ma'lumotlari

N	Parametrlar	O'lchamlarni Belgilash	Qatlam			
			1	2	3	4
1	Issiqlik-o'tkazuvchanlik koefisenti	λ , [Вт·м ⁻¹ ·град ⁻¹]	0,1796339	0,1796918	0,1797471	0,1797996
2	Issiqlik sig'im koefisenti	$C(T)$, [Дж·кг ⁻¹ ·град ⁻¹]	876762+ 2823,91·T	877044+ 2824,82· T	877314+2 825,68·T	877571+ 2826,51· T
3	Zichligi	ρ , [Кг·м ⁻³]	1401,4	1034,4	910	1390,9
4	Qalinligi	H, (M)	0,015	0,008	0,005	0,003
5	Vulqonlash vaqti	vaqt (sekund)	2700			

Ko'p qatlamli mahsulotdagi harorat qiymatlarini raqamli hisoblash Mathcad dasturiy to'plami yordamida ishlab chiqiladi. 2-rsamda algoritimini hisoblash kodi keltirilgan.



3-rasm Rezinaning tikilish darajasini uch o'lchamli grafigi

```

Tg := told ← t
      tnew ← t
      for n ∈ 0..N
        for i ∈ H1min..H1max
          tnewi ← toldi +  $\frac{1}{M_1(\text{told}_i)} \cdot (\text{told}_{i-1} - 2 \cdot \text{told}_i + \text{told}_{i+1})$ 
        for i ∈ H2min..H2max
          tnewi ← toldi +  $\frac{1}{M_2(\text{told}_i)} \cdot (\text{told}_{i-1} - 2 \cdot \text{told}_i + \text{told}_{i+1})$ 
        for i ∈ H3min..H3max
          tnewi ← toldi +  $\frac{1}{M_3(\text{told}_i)} \cdot (\text{told}_{i-1} - 2 \cdot \text{told}_i + \text{told}_{i+1})$ 
        for i ∈ H4min..H4max
          tnewi ← toldi +  $\frac{1}{M_4(\text{told}_i)} \cdot (\text{told}_{i-1} - 2 \cdot \text{told}_i + \text{told}_{i+1})$ 
        told ← tnew
        index ←  $\frac{\Delta\tau \cdot n}{T_{\text{int}}}$ 
        for m ∈ 0..H4max + 1 if trunc(index) = index
          tg,index,m ← tnewm
      tg

```

2-rasm Harorat maydonini hisoblash algoritmi

Olingan harorat ma'lumotlari to'plami jarayonning tegishli bosqichlarining reaksiya tezligi konstantalari hisoblashda ishlatiladi .

Foydalanilgan Adabiyotlar:

- 1- Кузнецов, А.С. Процессы смешения и структурирования эластомерных систем как объекты управления в химико-технологической системе / А.С.Кузнецов, В.Ф. Корнюшко // Международный научно-исследовательский журнал – 2016. – № 4, с. 120-123.
- 2- Makarov, I. M., Lokhin, V. M., eds. Intellectuel'naye sistemy avtomaticheskogo upravleniya. [Intelligent automatic control systems.] Moscow: Fizmatlit, 2001, 576 p. (in Russian)..
- 3- Omatu, S., Khalid, M., Yusof, R. Neuro-Control and its applications. London: Springer-Verlag, 1995, 255 p.
- 4- Тихомиров, С.Г. Программное обеспечение задачи определения оптимального времени вулканизации резиновых смесей / С.Г. Тихомиров, О.В. Карманова, В.К. Битюков, А.А. Маслов – Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Системный анализ и информационные технологии. 2018. № 4. С. 108-116.
- 5- Тихомиров, С.Г. Разработка лабораторной установки для расчета теплофизических параметров резиновых смесей / Ю.В. Пятаков, А.А. Маслов // 25-я Межд. Науч-техн. конф. «Современные технологии в задачах управления, автоматизации и обработки информации». Сб. трудов. Г. Алушта. 2016 г. стр.98.

KO'P MEZONLI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA REZINA TEXNIK MAHSULOT SIFATINI BAHOLASH ALGORITMI.

Avezov T. A.

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Ismoilov M.A.

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti professori

toshtemir2011@gmail.com

Kirish: Hozirgi paytda rezina texnik mahsulotlarga ishlab chiqish yanada keng rivojlanish bilan bir qatorda, uning sifatiga ham talab oshmoqda. Shu sababli uni ishlab chiqarishda zamonoviy, texnologiya, usul, vositalari bo'lgan shu jumladan raqamli texnologiya va uni qo'llash zarurati paydo bo'lmoqda. Bularni amalga oshirishda aynan xom ashyoni tayyorlash va mahsulotni ishlab chiqarishda eng yangi zamonaviy usullardan ko'p mezonli optimallashtirish hamda integral ko'rsatkichlar asosida sifatini baholash kerak.

Bunday ko'rsatkichlarni baholash uchun boshqarish obyekti hisoblangan rezina texnik mahsulotni asosiy xarakteristik ko'rsatkichlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish. Ayniqsa miqdoriy ko'rsatkichlarini hisoblash bilan bir qatorda rezina texnik tayyor mahsulotni sifat ko'rsatkichlarini hisoblash bilan bir qatorda rezina texnik tayyor mahsulotni sifat ko'rsatkichlarini ham aniq hisob kitoblar orqali baholash zarur. Rezina texnik ko'rsatkichlarga qo'yiladigan talablar haqida yetarli ma'lumotlar bo'lsada, ularni zamonaviy raqamli texnologiyalga, matematik modellashtirish, optimallashtirishga, asoslangan usullar etarli darajada yoritilmagan. Ko'p mezonli optimallashtirish usuli qo'llanilishi mahsulotga bo'lgan talablarni ko'pligi bilan asoslanadi. Rezina texnik mahsulotlar bir nechta ko'rsatkichlar bilan belgilanganligi sababli avvalo ularni eng zarurlarini tanlab olinadi. Mahsulot sifatini baholovchi ko'rsatkichlar ko'p bo'lishi bilan ularni baholovchi mezonlar mos ravishda xuddi shunday ko'p bo'ladi. Biroq mahsulot sifatiga umumiy baholash, umumiy mezon orqali amalga oshiriladi. Bunday mezon barcha lokal mezonlar asosida qiyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin.

$$R(v)=R(R_1(u),R_2(u),\dots,R_n(u)).$$

Bunda mezonlar $R_i(u)$ bo'lgani uchun vektorli optimallashtirish ko'rinishda ifodalash mumkin.

$$\text{extr } v \in u R(u).$$

Optimallashtirish masalasi berilgan $v \in u_i$ imkoniyatlar chegarasida u_i larni qiymatini hisoblab beradi. Har bir tanlangan mezon ustivorligi bo'yicha o'zidan yuqori bo'lgan mezon asosida yechilgan optimallashtirish natijasiga ko'ra amalga oshiriladi.

$$R_{i\text{extra}}(u)/\{R_{i-1}(u)\}$$

Har bir mezoni R_i bo'yicha optimallashtirish bir nechta boshqaruv parametrlarini berilgan $u_i^{\min}-u_i^{\max}$ chegaraviy qiymatlarida amalga oshirinishi va buning natijasida u_i^{opt} lar qiymati topiladi.

$$R_i(u_1, u_2, \dots, u_n)$$

Umuman olganda umumiy mezon lokal mezonlar asosida hisoblanadi.

$$R = R(R_1, R_2, \dots, R_n).$$

Har bir R_i mezonni ham cheklangan chegaraviy qiymatda amalga oshiriladi.

$$R_i^{min} \leq R_i^{opt} \leq R_i^{max}$$

Ko'p mezonli optimallashtirish ustuvorlik mezonlari asosida bosqichma –bosqich har bir mezon bo'yicha u_i^{opt} larni topadi. Hisoblab topilgan boshqaruv parametrlarni u_i^{opt} qiymatlarida R_i^{extr} ga erishadi.

$$R_i(u_1^{opt}, u_2^{opt}, \dots, u_n^{opt}) = R_i^{extr}$$

Ushbu keltirilgan algoritmgga ko'ra rezina texnik mahsulotlarni miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini optimallashtirish masalasini yechamiz. Ishlab chiqilgan mahsulot quyidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi: Elastiklik, zichlik, cho'zilishdagi mustahkamlik. Har bir ko'rsatkichni miqdoriy hisoblash uchun optimallashtirish mezonlarni tanlaymiz. Elastiklik- R_1 Zichlik- R_2 , Uzilishdagi va cho'zilishdagi mustahkamligi - R_3 Elastiklik quyidagi parametrlar bilan belgilanadi: h_0 – namunadagi rezinaning dastlabki qalinligi, h_1 – rezinani siqilgandagi qalinligi h_2 – rezinani siqib qoyiverilgandan so'ng qalinligi. [5]

Bular yordamida optimallashtirish mezonni ko'rinishida ifodalaymiz.

$$R_1 = (h_0 - h_2)/(h_0 + h_1).$$

Zichlik quyidagi parametrlar bilan baholanadi: m- laboratoriya sinovi uchun olingan rezinaning massasi V-laboratoriya sinovi uchun olingan rezinaning hajmi.

$$R_2 = \frac{m}{V}.$$

Uzilish cho'zilishdagi mustahkamligi quyidagi parametrlar bilan aniqlanadi: P_p – namuna uchun olingan rezinaning og'irligi kuchi S_0 – namuna uchun olingan rezinaning ko'ndalang kesim yuzasi.

$$R_3 = \frac{P_p}{S_0}.$$

Cho'zilishdagi nisbiy uzayish quyidagi parametrlar bilan aniqlanadi: L_p – cho'zilgandan keyin rezinaning uzunligi, L_0 rezinaning boshlang'ich uzunligi.

$$R_4 = (l_p - l_0)/l_0 \cdot \%$$

Elastiklik kuchlanish moduli quyidagi parametrlar bilan aniqlanadi: f_0 – kuchlanish amplitudasi, ε_0 – deformatsiya amplitudasi.

$$R_3 = \frac{f_0}{\varepsilon_0}.$$

Tanlangan mezonlar bo'yicha olingan natijalar.

Mezonlar												
Bosqichlar	R_i	h_0	h_1	h_2	m	v	P_p	S_0	l_p	l_0	f_0	ε_0
1	R_1	10	4	6								
2	R_2	10	4	6	0,5	0,42						
3	R_3	10	4	6	0,5	0,42	5	0,38				
4	R_4	10	4	6	0,5	0,42	5	0,38	40	10		
5	R_5	10	4	6	0,5	0,42	5	0,38	40	10	21	3

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makarov, I. M., Lokhin, V. M., eds. Intellectuel'nye sistemy avtomaticheskogo upravleniya. [Intelligent automatic control systems.] Moscow: Fizmatlit, 2001, 576 p. (in Russian)..
2. Omatu, S., Khalid, M., Yusof, R. Neuro-Control and its applications. London: Springer-Verlag, 1995, 255 p.
3. Terekhov, V. A., Yefimov, D. V., Tyukin, I. Y. Neyrosetevye sistemy upravleniya. [Neural network control systems.] Moscow: Vysshaya shkola, 2002, 183 p. (in Russian).
4. N.R.Yusupbekov, D.P.Muxitdinov., Bazarov M.B., Xalilov A.J. Boshqarish sistemalarini kompyuterli mod- ellashtirish asoslari 2010, 330bet
5. Г. С. Хакимзянов, Математическое моделирование, Новосибирск, 2014 218 с.
6. Gershenfield N. The nature of mathematical modeling, Cambridge University Press.
7. N.R.Yusupbekov, D.P.Muxitdinov. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari. -T.: «Fan va texnologiya», 2015,440 bet.
8. Wu Jian, Su Benlong, Liu Qiang and Wang Youshan / Research on Vulcanization Process Simulation of Butyl Rubber Based on A New Characterization Model of CuringDegree // Progress in Rubber, Plastics and Recycling Technology, Vol. 30, No. 4, 2014.
9. Wang DH, Dong Q, Jia YX (2015) Mathematical modeling and numerical simulation of the non-isothermal in-mold vulcanization of natural rubber. Chin J Polym Sci 33:395–403
10. Yan X (2007) A numerical modeling of dynamic curing process of tire by finite element. Polym J 39:1001–1010
11. Yau Y.H., Wong H.F. and Ahmad N., Numerical Heat Transfer Study for A Large Rubber Product. International Journal of Heat and Mass Transfer, 55 (2012) 2879-2888.

YENGIL UGLEVORODLARNI FRAKSIYALARGA AJRATISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH

Boboyorov Ravshan Otabekovich, professor,

boboyorovrovshan@gmail.com

Daniyarova Charos Turdaliyevna

Nuriev Javid Ismoil o'g'li

Soxibov Xolro'zi Yusup o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Engil uglevodorodlarning keng fraksiyasi (YeGKF) tarkibida C_2 va undan yuqori uglevodorodlar mavjud. Hozirgi amaldagi GOST R 53521-2009 standartiga ko'ra, YeUKF - bu beqaror gaz kondensatini qayta ishlash va neftni barqarorlashtirish jarayonida olinadigan metan, etan, geksanlar va og'irroq komponentlar aralashmalari bilan propan, butan va pentanlardan tashkil topgan uglevodorod aralashmasi. YeUKF ni qayta ishlashning birinchi bosqichi uni fraksiyalarga ajratishdan iborat. Ishlab chiqarish korxonalarida ko'plab uchraydigan yengil uglevodorodlarni fraksiyalarga ajratishning prinsial sxemalari siqilgan

holatdagi turli gazlarning qaynash haroratlari farqiga asoslangan bo'lib, bu jarayonni amalga oshiruvchi qurilma rektifikatsion kolonna hisoblanadi.

Gazni fraksiyalarga ajratish jarayonini avtomatlashtirish uchun rostlanadigan quyidagi asosiy parametrlarni ajratib olamiz:

Sarfni rostdlash. Gazni fraksiyalarga ajratishda propan butan aralashmasi qurilmaga kirishda gazning sarfini o'lchash uchun **Proline Prosonic Flow** ultratovushli sarf o'lchagich FE(1-1, 1-2) o'rnatilgan. Ijrochi mexanizm sifatida **REVCA** teskari membranali rostdlash klapani va 1.4, atmosfera bosimidagi NO'A va A pnevmomanbasi asosida ishlaydigan pozitsionerlar o'rnatilgan.

Bosimni kuzatib borish. Qurilmadagi bosimni asosiy parametr bo'lgani uchun bosimni nazorat qilish talab etiladi, buning uchun 2-1 pozitsiyada **PScale 133** markali, bosimni ko'rsatib turuvchi shkalali asbob o'rnatilgan.

Haroratni rostdlash. Qurilmaga kirayotgan bug' sarfi bo'yicha haroratni rostdlash uchun trubaquvurga izolyatsion holda, **SITRANS TR Pt100** elektr qarshilik termometrlari TT (3-1) o'rnatilgan. Ijrochi mexanizm sifatida **REVCA** teskari membranali rostdlash klapani va 2.1 atmosfera bosimidagi NO'A va A pnevmomanbasi asosida ishlaydigan pozitsioner o'rnatilgan.


Sarfni rostdlash. Birinchi qurilmadan ikkinchi qurilmaga ketayotgan butanning sarfini o'lchash uchun **Proline Prosonic Flow** ultratovushli sarf o'lchagich FE(4-1, 4-2) o'rnatilgan. Ijrochi mexanizm sifatida **REVCA** teskari membranali rostdlash klapani va 2.1 atmosfera bosimidagi NO'A va A pnevmomanbasi asosida ishlaydigan pozitsionerlar o'rnatilgan

Gazni faraksiyalarga ajratish jarayonning ish rejimini nazorat qilish va boshqarish uchun SIMATIC Panel sanoat kompyuterida avtomatlashtirilgan ish o'rni yaratiladi.

TT - Pt100 sezgir elementli -200 dan 650°C o'lchaydigan, chiqish signali 4-20mA analogi tokga ega bo'lgan SITRANS TR elektr qarshilik termometri.

FE - **Proline Prosonic Flow** ultratovushli sarf o'lchagichning sezgir elementi.


FT - **Proline Prosonic Flow** ultratovushli sarf o'lchagich signal o'zgartirgichi, chiqish signali 4-20 mA.




Rasm 1. Gazni fraksiyalarga ajratish jarayonini avtomatlashtirish

Rostlagichning strukturasi va optimal ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ob'ektning kompyuter modeli tuzildi va avtomatik rostdlash tizimini hakllantirdi, rostdlagichning sozlash

koeffitsiyentlari (T_o va K_r) qiymatini aniqlash uchun tizimning MATLAB dasturidagi modeli yordamida bir necha o'tish chizmalarini olandi va ular orasidan eng optimali tanlandi.



Rasm 2. Tizimning MATLAB dasturidagi modeli



Rasm 3. Kuchaytirish koeffitsiyenti $K=1$, integrallash koeffitsiyenti $T_i=0.04$ bo'lganda jarayonning o'tish grafigi.

Kuchaytirish koeffitsiyenti $K=1$, integrallash koeffitsiyenti $T_i=0.04$ bo'lganda rostlanish vaqti kisha va tekis harakat orqali rostlanish yuzaga keladi. Rostlagich mana shu qiymatlarda optimal boshqarishga erishilishi to'g'risida yakuniy xulosa olindi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Boboyorov R.O. Daniyarova Ch.T., Nuriev J. I. neftni birlamchi haydash uchun rektifikatsion kolonnaning asosiy texnologik parametrlarini avtomatik rostlash tizimini shakllantirish masalalari. "Sanoat tarmoqlarida texnologik jarayon va qurilmalarning dolzarb masalalari va uning istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy konrensiya materiallari to'plami, Toshkent-2024, 27-28 sentabr, 231-235 b.

2. Бобоёров Р.О. Усманов К.И., Унгбаева Д.У., Таджибаева Д.А. Вопросы автоматического регулирования основных параметров процесса абсорции при производстве серной кислоты. Journal of food science, 2024/February. P.40-47/ ISSN:2181-385 X

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ ЦИФРОВОЕ УПРАВЛЕНИЕ ТОНАЛЬНЫМИ РЕЛЬСОВЫМИ ЦЕПЯМИ

Арипов Назиржан Мукарамович, д.т.н., проф.,

aripov1110@gmail.com

Мирзаева Асем Боранбай кизи

Ташкентский государственный транспортный университет

В статье рассматриваются проблемы надежности тональных рельсовых цепей в условиях высокоскоростного движения и микропроцессорных систем управления. Указаны недостатки тональных рельсовых цепей, включая помехоустойчивость.

Предложены методы цифрового кодирования и обработки сигналов для повышения эффективности тональных рельсовых цепей и автоматической локомотивной сигнализации. Акцент на синтез широкополосных сигналов улучшит стабильность работы систем и повысит безопасность движения поездов.

С развитием высокоскоростного движения и внедрением микропроцессорных систем управления становится важной задача повышения надежности систем железнодорожной автоматизации. Анализ надежности показывает, что многие из этих систем требуют улучшений. Наибольшее количество отказов наблюдается в рельсовых цепях, где тональные рельсовые цепи обладают преимуществами, такими как отсутствие изолирующих стыков и алгоритмический контроль движения [1,2,3,4,5,6].

Однако их простота конструкции приводит к недостаточной помехоустойчивости и другим ограничениям, включая длину рельсовых цепей и дальность управления. Внедрение цифровых методов обработки сигналов может устранить эти недостатки, улучшив стабильность работы и безопасность движения поездов, а также снизив количество сбоев. Использование таких методов позволит увеличить дальность управления и сократить расход кабеля, что повысит общую эффективность систем [2,3,5].

Надежная работа тональных рельсовых цепей в рассмотренных условиях может быть обеспечена только широкополосными сигналами, которые синтезируются без использования традиционных методов модуляции синусоидальной несущей.

Роль несущей здесь будет играть линейная комбинация функций со спектром, ограниченным заданной полосой частот, и энергией, сосредоточенной в определенном интервале времени. При этом функции имеют следующие свойства: ортогональность на интервале $1/(2fv)$; ограниченное время существования (в течение которого передается ограниченная мощность); ограниченная полоса частот (0 Гц - fv Гц) [2,3,6].




Рис. 1.

Одной из таких функций является функция отсчетов Котельникова $\sin(x)/x$. В качестве информационных используются псевдослучайные последовательности с идеальными автокорреляционными свойствами, т.е. практически без боковых лепестков. Графики одиночной финитной функции и суммы восьми таких функций, смещенных на период ортогональности, приведены на рис. 1, а, их спектры - на рис. 1, б.

На рисунках финитная функция и ее спектр выделены красным цветом, суммы функций - синим.

На графиках финитная функция и ее спектр выделены красным цветом, суммы функций – синим, а основная энергия как одиночной финитной функции, так и суммы функций сосредоточена в ограниченном временном интервале, т.е. одиночная функция и сумма функций являются финитными по параметру «время». На графике (см. рис. 1, б) видно, что спектры одиночной функции и суммы функций находятся в широком диапазоне: 0 - 420 Гц, т.е. являются финитными по параметру «частота». Их отличие в том, что спектр одиночной функции - сплошной, а спектр суммы – линейчатый [4,5,6,7,8].

Оценка условий передачи сигналов при изменении параметров рельсовых цепей в заданных пределах позволяет начать разработку интеллектуального путевого приемника.

Новое устройство будет не только измерять параметры распространения сигналов в каждой рельсовой цепи в реальном масштабе времени, но и осуществлять интеллектуальное управление генерацией сигналов тональных рельсовых цепей и автоматической локомотивной сигнализации. Благодаря этому удастся повысить безопасность движения поездов, снизить количество сбоев, повысить точность фиксации местоположения поезда и надежность работы рельсовых цепей и автоматической локомотивной сигнализации во всех режимах.

Для практической реализации и внедрения предложенных решений необходим комплекс научно-исследовательских работ по моделированию, анализу и модификации сигналов тональных рельсовых цепей.

Список литературы

1. Булавский П.Е., Василенко М.Н., Ходаковский В.А. Интеллектуальное цифровое управление тональными рельсовыми цепями // Автоматика, связь, информатика. 2022. № 3. С. 2–6. DOI: 10.34649/AT.2022.3.3.001

2. N. Aripov, A. Sadikov, S. Ubaydullaev. Intelligent signal detectors with random moment of appearance in rail lines monitoring systems. E3S Web of Conferences 264, 05048 (2021) CONMECHYDRO–2021 1-3.04.21. Tashkent. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126405039>

3. N. Aripov, D. Baratov O. Muhiddinov, X. Jumanov. A Model of Electronic Document Managment of Technical Documentation for railway Automation. Lecture Notes in Mechanical Engineering. 2022, pp.481–492. ISSN 21954356. ISBN 978-303085056-2. doi: 10.1007/978-3-030-85057-9_40.

4. Абдуллаев Р.Б., Мирзаева А.Б. Метод технического диагностирования схемы управления стрелочным электроприводом на основе программируемых логических контроллеров. Ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnal “Muhammad al-Xorazmiy Avlodlari” 2022.№2.Т. 135-137 б.

5. Арипов Н.М., Мирзаева А.Б. Анализ вопросов разработки средств технического диагностирования и мониторинга. Respublika ilmiy-amaliy anjumani “Fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida paxta tozalash, to’qimachilik, yengil sanoat, matbaa

ishlab chiqarish innovatsion texnologiyalari dolzarb muammolari va ulaming yechimi”. Materiallar to’plami, Iqism, TTYeSI, 18-19.05.22, T.2022, 88-91 b.

6. Арипов Н.М., Ваисов О.К., Мирзаева А.Б. Принципы моделирования процессов электронного документооборота технической документации с помощью иерархических сетей петри. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani “Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida korporativ boshqaruv modellarining transformatsiyasi”. Toshkent davlat transport universiteti.10-11.05.22. T.2022.1-4 b.

7. Использование математической модели для диагностики тональной рельсовой цепи/Гателюк О.В., Смирнов М.В. и др./Межвуз. тем. сб. науч.тр. / Омский гос. ун-т путей сообщения. Омск, 2002. С. 35-37.

8. Разработка методов диагностирования и автоблокировки с тональными рельсовыми цепями и централизованным размещением аппаратуры (АБТЦ)/С.С. Сероштанов, С. А. Лунев и др. сб. науч. статей / Омский гос. ун-т путей сообщения. Омск. 2003. С. 103-119.

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННЫХ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ ПРИ РАСЧЕТАХ УСТАНОВИВШИХСЯ РЕЖИМОВ И ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ В РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЯХ

Махмудов Т.Ф., PhD, доцент
t.maxmudov@tdtu.uz

Раматов А.Н.

Ташкентский государственный технический университет

В настоящее время в связи с ростом суммарных потерь в распределительных электрических сетях и одновременным снижением их надежности актуальной задачей является разработка новых подходов к оперативному расчету параметров установившихся режимов. Таким образом, задача по анализу распределительных сетей должна решаться с применением современных инструментов, в том числе с применением нейро-сетевых технологий. Согласно [1] в энергосистеме Республики Узбекистан на долю линий электропередач классом напряжения 35-110 кВ приходится свыше 28 642 км, а на долю линий напряжением 0.4-10 кВ более 223 987 км. При этом средний уровень технологических потерь электрической энергии в магистральных сетях составляет 2,72 процентов, в распределительных сетях 12,47 процентов [1]. Далее рассмотрим архитектуру нейронной сети прямого распространения и каскадной нейронной сети.

Нейронная сеть прямого распространения (FFN - Feed-Forward Neural Network), также известная как многослойный персептрон (MLP - multilayer perceptron) - это тип архитектуры (рис.1) искусственной нейронной сети, которая широко используется в машинном обучении. Это один из самых простых и распространенных типов нейронных сетей [2].

В нейронной сети прямого распространения каждый нейрон в слое соединен со всеми нейронами в последующем слое. При этом нейроны в одном слое не имеют прямых соединений друг с другом. Каждое соединение между нейронами связано с весом, который представляет силу взаимосвязи между ними.




Рис.1. Архитектура нейронной сети типа FNN

Каскадная нейронная сеть прямого распространения (CFNN - Cascade Feed Forward Neural Network) – это дальнейшее развитие нейронных сетей прямого распространения, но содержащих связь между входным слоем и каждым предыдущим слоем со всеми последующими слоями. Преимущество этой сети в том, что она учитывает нелинейную связь между входным и выходным слоями (рис.2).




Рис.2. Архитектура нейронной сети типа CFNN

Обучение нейронных сетей предлагается производить на основе выборки, состоящей из взаимосвязи входных и выходных сигналов. В качестве входных данных можно использовать значения активных и реактивных мощностей нагрузок и напряжения головного узла (узла питания), в качестве же выходных значений напряжения узлов нагрузки и величины потерь активной и реактивной мощностей. Из общей выборки по 15% предлагается выделять для валидации и тестирования обученной нейронной сети, соответственно 70% для обучения. В качестве функции активации можно использовать гиперболический тангенс, а саму нейронную сеть обучать по методу Левенберга-Марквардта. Для оценки качества обучения нейронной сети рекомендуется использовать значение средней квадратической ошибки моделирования и величину коэффициента детерминации R^2 [3].

В перспективе применение искусственных нейронных сетей позволяет проводить исследования установившихся режимов распределительных электрических сетей. Данное обстоятельство позволит применять нейронные сети различных типов в качестве «экспресс» метода в практике диспетчерского оперативного управления, так как позволит определять значения режимных параметров электрических сетей. В качестве недостатка применения нейронных сетей следует отметить формирование исходной выборки, т.е. исследователь должен обладать сведениями о топологии сети, границ изменения мощностей нагрузочных узлов и т.д. Кроме этого изменение

топологии сети повлечет за собой повторное формирование выборки и настройки параметров нейронной сети.

Список литературы

1. [https://minenergy.uz/uploads/1a28427c-cf47-415e-da5c-47d2c7564095_media .pdf](https://minenergy.uz/uploads/1a28427c-cf47-415e-da5c-47d2c7564095_media.pdf)
2. Khodayar M., Regan J. Deep Neural Networks in Power Systems: A Review // Energies, 16(12):4773. <https://doi.org/10.3390/en16124773>
3. Khudayarov M., Bobonazarov B. Estimation of the steady states parameters in open-loop distribution networks based on feedforward neural networks // 3rd International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering (ICECAE2022),2023, 377, 01005. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337701005>

ЧОРВАЧИЛИК-ИССИҚҶОНА КОМПЛЕКСИ ИЧКИ ҲАВО ҲАРОРАТИНИ РОСТЛАШ ТИЗИМИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ

Эргашев Ш.Ҳ. т.ф.ф.д., доцент,
Абдурахимов Ж.Т., Иброгимов Т.Ш., Қўзиёев А.Ё.
ҚарМИИ

Йилнинг совуқ кунларида иссиққоналарда мўътадил иқлим режимини яратиш, уни ўраб турган совуқ ташқи муҳитдан ҳимояловчи иссиққона девори (тиник юза) ва бино ичидаги қулай шароитни таъминловчи иситиш тизимлари муҳим аҳамият касб этади. Иссиққона ичидаги ҳаво ҳароратини талаб даражасида бўлишини таъминлаш учун тавсия этиладиган иситиш тизимлари белгиланган миқдорда иссиқлик чиқариши керак. Бунинг учун эса талаб этиладиган иссиқликни ҳосил қилиш ёки узатиш керак бўлади. Шундан келиб чиққан ҳолда иситиш тизимлари учта асосий ташкил этувчидан тузилган бўлади: иссиқликни ҳосил қилувчи қурилма (иссиқлик генератори), ҳосил қилинган иссиқликни манбадан олиб иситиладиган бинога узатувчи қурилма (иссиқлик узатувчи) ва келтирилган иссиқликни бинога тарқатувчи (иситиш жихози) талаб этилади.

Турли муҳитларда иссиқлик алмашинув жараёнларини моделлаштириш масаласи [1-4] ўрганилган бўлиб, мазкур масаланинг мақсади, иситиладиган объект ичидаги иссиқлик алмашинуви жараёнига эътибор қаратилади, яъни иссиққона ички ҳароратини ростлашни математик моделини ишлаб чиқиш долзарб масала ҳисобланади.

Иситиладиган иссиққонанинг ўлчамлари 30x6x3м. Иссиққонанинг ташқи конструкцияси икки қатламли плёнкадан иборат бўлиб шимол томони чорвачилик биноси девори билан чегараланганлиги сабабли ушбу қисмдан иссиқлик йўқотилишини ҳисобга олмасак ҳам бўлади. Соддалаштириш мақсадида фақат асосий иссиқлик йўқотишларни инобатга оламиз. Тунги режимда ёки қуёш радиацияси бўлмаган вақтларда атроф-муҳитга йўқотиладиган иссиқликни қуйидагича ёзиш мумкин:

$$Q_{m.d.} = k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T(t_{uc.} - t_{mau.}) \cdot K_{инф} \quad (1)$$

бу ерда $k_{uc.d.}$ - иссиқхона деворининг иссиқлик узатиш коэффициенти бўлиб, икки қатламли полиэтилен плёнка учун $k_{uc.d.} = 5,8 \text{ Вт}/(\text{м}^2 \cdot ^\circ\text{С})$; $F_{uc.}$ - иссиқхонанинг ишчи майдони, м^2 ; K_T - тўсиқ коэффициенти бўлиб, иссиқхонанинг умумий ташқи деворининг ишчи майдонига нисбати билан баҳоланади; $t_{uc.}, t_{max.}$ - мос равишда иссиқхонанинг ички ва ташқи атроф-муҳит ҳарорати, $^\circ\text{С}$; $K_{инф}$ - инфильтрация коэффициенти [5].

Йилнинг совуқ пайтларида (асосан қиш мавсумида) қачонки ташқи ҳаво ҳарорати иссиқхона ички ҳароратидан паст бўлганда, иссиқхонанинг ташқи деворида иссиқлик оқими девор бўйлаб ташқарига томон йўналади. Иссиқхона ичидаги ҳароратни катта ёки кичик узлуксиз стабил ҳолатда ушлаб туриш талаб этилган тақдирда иситишга йўқотилган иссиқлик миқдорини доимий равишда қоплаб туриш керак бўлади. Иссиқхонанинг ички ҳарорати 18°С бўлиши керак. Моделлаштириш MatLab дастуридан фойдаланган ҳолда амалга оширилади [1].

Иссиқхона чорвачилик биноси билан ёнма-ён қурилган бўлиб, иссиқхона шимолий томони чорвачилик биносининг девори чегараланган. Чорвачилик-иссиқхона комплекси ўртасидаги девордаги вентиляторлар чорвалардан ажраладиган эркин иссиқлик ҳисобидан қизиган чорвачилик биносининг ҳавосини иссиқхонага циркуляция қилишга мўлжалланган. Шунга асосан қуёшсиз кунларда ва тунги режимларда иссиқхонани иссиқлик таъминоти тизими иккита ташкил этувчидан иборат бўлади:

- 1) Чорвачилик биноси ҳавосини утилизацияси ҳисобидаги иссиқ ҳаво оқими орқали;
- 2) Чорвалар чиқиндиларини биореакторда қайта ишлаш натижасида олинган биогазни сув иситиш қозонига ёқиш орқали олинган иссиқ сувни иссиқхона ичида жойлашган иссиқлик алмаштиргич орқали.

Бизга маълумки термофил усулида биогаз олишда биореактор ичидаги ҳарорат 55°С дан юқори бўлмаслиги талаб қилинади. Сув иситиш қозонидан чиққан иссиқ сув иссиқхона ичидаги иссиқлик алмашинув қурилмасидан чиқишда биореактор ички қисмидаги иссиқлик алмаштиргичдан ўтади ва сув иситиш қозонига қайтиб келишидаги ҳарорати 55°С дан кам бўлмаслиги талаб қилинади. Бунда иссиқ сувнинг ҳарорати сув иситиш қозонидан чиқишда $65-70^\circ\text{С}$ бўлиши керак.

Чорвачилик биноси ҳавосини утилизацияси ҳисобидаги иссиқ ҳаво оқими орқали иссиқхонага келтириладиган иссиқликни қўйидагича ифодалаш мумкин [5]:

$$Q_{веч} = L \cdot \rho \cdot c \cdot (t_{чop} - t_{uc}) \quad (2)$$

бу ерда L - чорвачилик биноси ва иссиқхона ўртасидаги ҳаво алмашинувининг ҳажмий сарфи, $\text{м}^3/\text{с}$; $\rho = 1,293 \text{ кг}/\text{м}^3$ - ҳавонинг зичлиги; $c = 1005 \text{ Ж}/(\text{кг} \cdot ^\circ\text{С})$ - ҳавонинг солиштирма иссиқлик сиғими; $t_{чop}$ - чорвачилик биносидаги ҳаво ҳарорати, $^\circ\text{С}$; t_{uc} - иссиқхонадаги ҳаво ҳарорати, $^\circ\text{С}$.

Чорвалар чиқиндиларини биореакторда қайта ишлаш натижасида олинган биогазни сув иситиш қозонига ёқиш орқали олинган иссиқ сувни иссиқхона ичида

жойлашган иссиқлик алмаштирнинг иссиқлик бериши Q қуйидаги ифодадан аниқланади:

$$Q_{uc} = G_c \cdot c_c \cdot (t_c - t'_c), \quad (3)$$

бу ерда G_c - иссиқлик ташувчининг массавий сарфи, $кг/с$; c_c - иссиқлик ташувчининг солиштирма иссиқлик сиғими, $Ж/(кг \cdot ^\circ C)$; t_c, t'_c - мос равишда иссиқлик ташувчининг иссиқхона иситиш тизимига киришдаги ва чиқишдаги ҳароратлари $^\circ C$.

Қиздириладиган иссиқхона ҳаво ҳароратини ростлаш таҳлилини дифференциал тенглама кўринишида ифодалаш мумкин. Иссиқхона ҳаво ҳарорати таҳлили жараёнини соддалаштириш мақсадида идеал жараён деб қараб, иссиқхонани ички қисмини – бир жинсли жисм ва унинг барча нуқталаридаги ҳароратни бир ҳил деб қараймиз.

Иссиқхонага узатиладиган иссиқлик энергияси Q , ички ҳавони қиздиришга Q_x ва ташқи девор орқали йўқотиладиган иссиқлик энергиясини қоплашга $Q_{m.d.}$ сарфланади, яъни

$$Q = Q_x + Q_{m.d.} \quad (4)$$

Қисқа вақт давомида иссиқхонага киритилган иссиқлик миқдори $Q d\tau$, иссиқхона ҳароратини dt_{uc} қиздиришга $\rho_x \cdot V_x \cdot c_x \cdot dt_{uc}$ ва ташқи девор орқали иссиқлик йўқотишларини қоплашга $k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot (t_{uc.} - t_{mau.}) \cdot K_{unf} \cdot d\tau$ тенг бўлган дифференциал тенгламасига эга бўламиз:

$$Q d\tau = \rho_x \cdot V_x \cdot c_x \cdot dt_{uc} + k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot (t_{uc.} - t_{mau.}) \cdot K_{unf} \cdot d\tau \quad (5)$$

бунда τ - вақт, c ; V_x - иссиқхонанинг ҳажми, $м^3$; ρ_x - ҳавонинг зичлиги, $кг/м^3$ c_x - ҳавонинг солиштирма иссиқлик сиғими, $Ж/(кг \cdot ^\circ C)$.

Охириги тенгламани чап ва ўнг томонини $k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot K_{unf} \cdot d\tau$ га бўлиб қуйидагича ёзамиз:

$$\frac{Q}{k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot K_{unf}} = \frac{\rho_x \cdot V_x \cdot c_x}{k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot K_{unf}} \frac{dt_{uc}}{d\tau} + t_{uc.} - t_{mau.}$$

$$\frac{Q}{k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot K_{unf}} + t_{mau.} = T_{uc} \frac{dt_{uc}}{d\tau} + t_{uc.} \quad (6)$$

бу ерда Q - иссиқхонага узатиладиган иссиқлик энергияси, Вт; $T_{uc} = \frac{\rho_x \cdot V_x \cdot c_x}{k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot K_{unf}}$ - иситиладиган иссиқхонанинг вақт доимийси, с.

Мавжуд тенгламадан иситиладиган иссиқхонанинг узатиш функциясига эга бўламиз

$$W(p)_{uc} = \frac{\frac{Q}{k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot K_{unf}} + t_{mau.}}{T_{uc} p + 1} \quad (7)$$

Юқорида баён қилинганлардан қуйидагича хулосага келиш мумкин:

1) Иссиққонани иситиш ёки совутиш, бу келтирилган иссиқлик миқдорига боғлиқ эмас. Бу жараён иссиққона ҳавоси массасига ҳам боғлиқдир. Иссиққона ҳавоси массаси ва иссиқлик сифими катта ҳамда тўсиқлар ҳамда бошқаларнинг иссиқлик ўтказувчанлиги қанчалик кичик бўлса иссиққонада учун вақт доимийси T_{uc} шунча катта бўлади.

2) Иситиш тизими ўчирилгандан кейин (қуёшли кунларда) иссиққона ҳароратининг тушиши, ташқи ҳаво ҳарорати юқори бўлганда секин кечади [5].

Агар ташқи ҳаво ҳарорати $t_{max.} = -6^{\circ}C$. Иссиқлик ташувчининг иссиққонага киришдаги ва чиқишдаги ҳарорати тажриба натижаларидан олинади яъни, $t_c = 69,8^{\circ}C, t'_c = 64,7^{\circ}C$. Чорвачилик биносининг ҳарорати $t_{чop} = 26,8^{\circ}C$ [5].

Иссиққонанинг ҳажми: $V_x = 30 \cdot 6 \cdot 3 = 540 \text{ м}^3$; Қиздириладиган иссиққонанинг вақт доимийси:

$$T_{uc} = \frac{\rho_x \cdot V_x \cdot c_x}{k_{uc.d.} \cdot F_{uc.} \cdot K_T \cdot K_{инф}} = \frac{1,293 \cdot 540 \cdot 1005}{5,8 \cdot 180 \cdot 1,25 \cdot 1,11} = 484,4 \text{ сек.} \quad (8)$$

Энди иситиш жихозидан ҳонага бериладиган иссиқлик энергиясини аниқлаймиз.

Иссиқлик ташувчининг массавий сарфи $G_c = 1 \text{ кг/с}$; Солиштирма иссиқлик сифими $c_c = 4190 \text{ Ж/(кг} \cdot ^{\circ}C)$ [4].


Иссиққонани қиздиришда бериладиган иссиқликни (2) ва (3) ифодаларни эътиборга олган ҳолда қуйидагича ҳисоблаш мумкин:

$$Q = Q_{вен} + Q_{uc} = L \cdot \rho \cdot c \cdot (t_{чop} - t_{uc}) + G_c \cdot c_c \cdot (t_c - t'_c) = 1,18 \cdot 1,293 \cdot 1005 \cdot (26,8 - 18) + 1 \cdot 4190 \cdot (69,8 - 64,7) = 34862,6 \text{ Вт} \quad (9)$$


Ушбу иссиқлик ишчи майдони 180 м^2 иссиққонани иссиқлик юкламасини тўлиқ қоплайди. Аммо қуёшли кунларда юқоридаги ҳисобларга қуёш радиациясини ҳам эътиборга олиш керак бўлади. Натижада иссиққона ичидаги ҳаво ҳарорати кўтарилиб кетади ҳамда ички ҳаво ҳароратини ростлаш талаб қилинади. Қуёш радиациясини суткалик ўртача миқдорини $q_{нур} = 150 \text{ Вт/м}^2$ деб олсак юқоридаги иссиқлик юкламаси қуйидагича ҳисоблаймиз:

$$Q = Q_{вен} + Q_{uc} + Q_{нур} = L \cdot \rho \cdot c \cdot (t_{чop} - t_{uc}) + G_c \cdot c_c \cdot (t_c - t'_c) + \alpha_{\text{йт}} \cdot \kappa_{кай.} \cdot F_{uc} \cdot q_{нур} = 1,18 \cdot 1,293 \cdot 1005 \cdot (26,8 - 18) + 1 \cdot 4190 \cdot (69,8 - 64,7) + 0,8 \cdot 0,8 \cdot 180 \cdot 150 = 52142,6 \text{ Вт} \quad (10)$$

Фараз қилайлик 132 кун давомида ташқи ҳаво ҳарорати $-10^{\circ}C$ дан $+8^{\circ}C$ қийматга тенг деб қабул қилиб, оралиқдаги минимал қиймат $-10^{\circ}C$ га тенг. Масалан 1-ноябрда ташқи ҳаво ҳарорати $+8^{\circ}C$, 31-декабрда эса $-10^{\circ}C$ бўлган бўлса, 2-мартдан ташқи ҳаво ҳарорати $+8^{\circ}C$ га етган. Шундай ҳулосага келиш мумкинки ташқи ҳаво ҳарорати даврий функция ҳисобланиб, унинг ўзгариш даври ҳамда максимал ва минимал қийматлари бизга маълум. MatLab/simulink пакетидан фойдаланиб блок схемасини қурамиз (1-расм). Иссиққона ҳаво ҳарорати t_{uc} ни ташқи ҳаво ҳарорати t_{max} га боғлиқ ҳолда моделлаштириш натижасини 2-расмда ифодалаймиз.




1-расм. Ёпиқ тизимда ҳароратни ростлашни MatLab/Simulink пакетидаги блок схемаси.



2-расм. Иссиқхонадаги ҳаво ҳароратининг ўтиш жараёни.

2-расмдан кўринадикки, ташқи ҳаво ҳарорати пасайиши билан термостатни қўшилиш даражаси ортар экан.



3-расм. Иссиқхонадаги ҳаво ҳароратининг суткалик ўтиш жараёни (11.01.2021).

11.01.2021 куннидаги ташқи ҳаво ҳарорати ва қуёш радиациясини соатлик ўзгаришини ўлчаб натижаларни 1-расмдаги блок схемага қўйиб иссиқ сув таъминотидан узилган ҳолда иссиқхона ҳароратини ростлаш тизими натижаларини 3-расмда ифодалаймиз.

3-расмдан кўриш мумкинки чорвачилик биноси иссиқхона орқали ҳаво алмашинуви доимий равишда мавжуд бўлганда кундуз кунлари яъни соат 9-00 дан 18-00 гача иссиқхона ички ҳароратини ростлаш талаб қилинар экан. Шу ораликда термостатни қўшилиш даражаси ортар экан. Кундуз кунлари ташқи ҳаво ҳарорати 7°C ва қуёш радиацияси миқдори 388 Вт/м^2 бўлганда иссиқхонадаги ортиқча иссиқликни аккумуляция қилишга эҳтиёж пайдо бўлади.

Хулосалар

Иссиқхонадаги ҳаво ҳароратини $18 \pm 2^{\circ}\text{C}$ ушлаб туришни таъминловчи блок схемаси ишлаб чиқилди.

Олинган тузилмавий схеманинг афзалликлари қуйидагилар ҳисобланади:

- 1) Соддалиги;
- 2) Иссиқхонада йўқотиладиган иссиқликни ҳисобга олиниши;
- 3) Ташқи шароит (ҳарорат)нинг динамик ўзгаришини яққол намойиш этиш имкониятининг мавжудлиги;

Схеманинг камчиликлари:

- 1) Кўрилаётган тузилмада иссиқлик алмашинувининг бир турини ҳисобга олиниши;
- 2) Ҳисобга олиниши керак бўладиган қўшимча иссиқлик йўқотишлар: ёруғлик тушишига қараб чегаравий конструкцияни жойлашуви; тупроқ орқали иссиқлик йўқотилиши; чегараловчи конструкцияларга шамолнинг таъсири; эшикларни очилишидан иссиқхонанинг совуши инobatга олинмаганлиги. Иссиқхонадаги ўсимликлар орқали иссиқлик алмашинувини инobatга олинмаган.

MatLab дастурида моделлаштириш натижалари блок схеманинг ишлаш қобилиятини ва амалда қўллашга яроқли эканлигини тасдиқлайди. Юқорида кўрсатиб ўтилган камчиликлар берилган шартларга мос равишда схемани модернизациялаш орқали бартараф этиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Е. К. Вачагина, Г. Р. Халитова, Ю. В. Караева, И. А. Трахунова, Математическая модель теплообмена в системе поддержания температурного режима в реакторе метанового брожения, Вестник Казан. технол. ун-та, 15,19,33-37 (2012).
2. Р. Ш. Гайнутдинов, Нестационарное температурное поле плоского тела в условиях зависимости температуры среды и коэффициента теплообмена от времени, Вестник Казан. технол. ун-та, 14, 2, 37-42 (2011).
3. Р. Ш. Еналеев, Э. Ш. Теляков, О. А. Тучкова, М. А. Закиров, О. Ю. Харитоновна, Моделирование предельных состояний элементов строительных конструкций при высокоинтенсивном нагреве, Вестник Казан. технол. унта, 13, 8, 41-51 (2010).
4. А. Ф. Файрушин, В. К. Половняк, Р.Ш. Еналеев, Снижение теплопотерь в трубопроводах горячего водоснабжения с использованием арагонитового покрытия на внутренних стенах, Вестник Казан. технол. ун-та, 13, 5, 91-96 (2010).

5. Эргашев Ш.Х. Чорвачилик комплексининг иккиламчи энергия ресурсларини утилизация қилиш ҳисоби. Международная конференция «Энерго- и ресурсосбережение: новые исследования, технологии и инновационные подходы» г. Карши 2021 г. 24-25 сентября.

INTELLEKTUAL BOSHQARISH TIZIMLARINI KVANT HISOBLASH USULLARI ASOSIDA TADQIQ ETISH

Yakubova Noilaxon Sobirjonovna, dotsent

yakubova.noila@gmail.com

Sodiqova Feruzaxon Botirxon qizi

TDTU, "Axborotlarga ishlov berish va boshqarish tizimlari" kafedrası

Kirish. Jahonda texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlarini takomillashtirishga, xususan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida intellektual texnologiyalarni joriy etilmoqda. Murakkab texnologik jarayonning xususiyatlarini, nochiziqililigini va ma'lumotlarning noaniqligini hisobga olgan holda boshqarish tizimini sintezlashning samarador modellari va algoritmlarini yaratish hamda yanada takomillashtirish zaruriyati tug'iladi.

Asosiy qism. O'rganilayotgan obyekt dinamikasi tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\dot{X} = F(X, U, W), \quad X(t) = X^0, \quad Y = \Psi(X, U, W), \quad (1)$$

bu yerda: $X = \{x_1, x_2, \dots, x_n, y\}^0$ - faza koordinatalarining umumlashtirilgan vektori; $N = \sum_{i=1}^n n_i + n_0$

- o'lchamli chiqish o'zgaruvchilari. $U = \{u_1, u_2, \dots, u_n\}$ va $W = \{w_1, w_2, \dots, w_n\}$ - boshqarish va g'alayonlanishning umumlashtirilgan vektorlari; $Y = \{y_1, y_2, \dots, y_n\}$ - chiqish koordinatalar vektori.

Axborot va kommunikatsiya tizimlarini modellashtirish algoritmini quyidagicha ko'rinishda ifodalanishi mumkin:

$$M = \langle I, P, \Phi, X, Y, \Omega \rangle, \quad (2)$$

bu yerda: I - model identifikatori; $P = P(x_1, x_2, \dots, x_n)$ - X to'plamda aniqlangan bir o'rinli mantiqiy predikat $\Phi: X \rightarrow Y (XUY = Z)$ - modellashtirilayotgan algoritmnining bir qancha xossalari majmuini ifodalovchi tasvir; $X = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$ - hisoblash modelining kirish o'zgaruvchilari; $Y = \{y_1, y_2, \dots, y_n\}$ - hisoblash modelining chiqish o'zgaruvchilari; $Z = \{z_1, z_2, \dots, z_n\}$ - o'zgaruvchilar majmui; Ω - X aniqlovchilar va Y qiymatlar ya'ni $\Omega = \{X, Y\}$ juftligi sohasi bilan beriluvchi modelni qo'llash sohasi. Umumiy holda kvant noravshan tarmoqni qurish algoritmi quyidagichadir:

1. Noravshan R_1, \dots, R_k munosabatlarning kesishmasi Q_1 ni formula bilan topish:

$$Q_1 = R_1 \cap R_2 \cap \dots \cap R_k.$$

2. Q_1 uchun quyidagi algoritmgaga ko'ra, ustun bo'lmagan muqobillar to'plami aniqlanadi: Q_1^{-1} teskari matritsa aniqlanadi: $\mu_{Q_1^{-1}}(x, y) = \mu_{Q_1}(x, y)$.

Q_1^0 matritsaning har bir satrida $r(x_i), i=1,2,\dots,n$ maksimal qiymati olinadi, olingan qiymatlar birdan ayriladi. Natijada $\mu_{Q_1^{HD}}(x_i)$ - ustun bo'lmagan muqobillarning tegishlilik darajalari olinadi: $\mu_{Q_1^{HD}}(x_i)=1-r(x_i), i=1,2,\dots,n$.

Shunday qilib, ustun bo'lmagan muqobillar to'plami har biri o'z $\mu_{Q_1^{HD}}(x_i)$ tegishlilik darajasiga ega x_1, x_2, \dots, x_n elementlarining mosligi sifatida namoyon etadi. Ushbu to'plam quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$\mu_i(x_i) = \{\mu_1(x_1)/x_1, \mu_2(x_2)/x_2, \dots, \mu_n(x_n)/x_n\} \quad (3)$$

3. Ustun bo'lmagan R to'plam uchun asosiy bo'lmagan R^{ND} shu tarzda topiladi. Olingan tegishlilik funksiyasi $\mu_{R^{HD}}(g_1), \mu_{R^{HD}}(g_2), \dots, \mu_{R^{HD}}(g_k)$ navbati bilan l_1, l_2, \dots, l_k orqali belgilanadi va har bir belgi uchun vazn koeffitsientlari quyidagicha bo'ladi:

$$t_i = \frac{l_i}{\sum_{j=1}^k l_j}, i=1,2,\dots,k. \quad (4)$$

4. Q_2 matritsa elementlari quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\mu_{Q_1}(x, y) = \sum_{m=1}^k t_m \mu_{R_m}(x, y). \quad (5)$$


5. Q_2^{HD} yuqorida tavsiflangan algoritmlar orqali aniqlanadi:

$$\mu_{Q_2^{HD}}(x_i) = \{\mu_{Q_2^{HD}}(x_1)/x_1, \mu_{Q_2^{HD}}(x_2)/x_2, \dots, \mu_{Q_2^{HD}}(x_n)/x_n\}. \quad (6)$$

6. $Q = Q_1^{HD} \cap Q_2^{HD}$ kesishma tuziladi:

$$Q = \left\{ \frac{\min(\mu_{Q_1^{HD}}(x_1), \mu_{Q_2^{HD}}(x_1))}{x_1}, \dots, \frac{\min(\mu_{Q_1^{HD}}(x_n), \mu_{Q_2^{HD}}(x_n))}{x_n} \right\} = \{\mu_Q(x_1)/x_1, \dots, \mu_Q(x_n)/x_n\}. \quad (7)$$

Q dagi tegishlilik darajasining maksimal qiymatga ega bo'lgan muqobillarni tanlash ratsional hisoblanadi. Ushbu algoritm asosida boshqarish tizimining kompyuter modeli qurildi (1-rasm).



1- Klassik PID rostlagich; 2-Neyro-noravshan rostlagich; 3-Kvant noravshan rostlagich

Xulosa. Imitatsion tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, tashqi g'alayonlar noaniqligi sharoitida kvant-noravshan rostlagichli boshqarish tizimi o'zining barqarorligini va boshqaruvning talab qilinadigan sifatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ульянов С.В., Мишин А.А., Миногин А.А. Информационная технология проектирования робастных баз знаний нечетких регуляторов. Ч. III: квантовый нечёткий вывод и квантовая информация // Системный анализ в науке и образовании: электрон. науч. журнал. – Дубна, 2010. – № 3.
2. Алтунин А.Е., Востров Н.Н. Методы определения функции принадлежности в теории размытых множеств. Труды Запсиб НИГНИ, Тюмень, вып. 154. – 1980 – С.62-72.
3. Якубова Н.С., Абдурасулова Г.Э. Исследование нечетких регуляторов в системах интеллектуального управления на основе квантовых вычислений *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* 2023. 3(108). [URL:https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15148](https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15148).
4. K. Usmanov, N.Yakubova, J. Eshbobaev. Modeling and Optimization of the Ammonium Solution Extraction Process. *Eng.Proc.* 2023,56,198. <https://doi.org/10.3390/ASEC2023-16274>

КВАНТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ДИНАМИК ОБЪЕКТЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Якубова Ноилахон Собиржоновна, доцент.
noila.yakubova@gmail.ru

Абдурасулова Гуландом Эркиновна

ТДТУ, “Ахборотларга ишлов бериш ва бошқариш тизимлари” кафедраси

Динамик объектлар ва ноаниқлик алоқаларининг хусусиятлари ҳамда ахборот етарли бўлмаган шароитларда қарор қабул қилишни эътиборга олган ҳолда тизимли таҳлил, математик моделлаштириш, ахборотларга ишлов бериш ва тадқиқотнинг мураккаб динамик объектларни бошқариш усулларини қўллаш, ечими ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш имконини берадиган муҳим масалалардан биридир.

Ноаниқ шароитларда мураккаб динамик объектларни бошқариш тизими динамикасининг моделларини қуриш, моделлар тузилишини тавсифлаш ҳамда квант ҳисоблаш усулларини қўллаш асосида мураккаб динамик объектларни бошқариш жараёнининг квант норавшан моделини ишлаб чиқиш ва бунда моделнинг реал объект билан адаптациялаш масаласи асосий вазифалардан биридир.

Бунда бошқариш тизимининг динамикасини ҳолат тенгламалари кўринишида қуйидагича ёзиш мумкин:

$$x_{k+1} = F(x_k, u_k), k = \overline{0, N}, x_k \in X, u_k \in U,$$

бу ерда X – ҳолат фазоси, U - мумкин бўлган бошқариш тўплами, F – ҳолатнинг ўткинчи функцияси, умумий ҳолда чизиқсиз кўринишда бўлади:

$$F : X \times U \rightarrow X.$$

Турли кўринишдаги ноаниқликка эга динамик тизимининг ўткинчи функцияси норавшан муносабат кўринишида қуйидагича ёзилади:

$$F : X \times U \times X \rightarrow [0,1]$$

Бунда тўлиқ аниқланмаган коэффицентлар ва жараёнга таъсир қилувчи барча катталиклар тегишлилик функцияси $\mu(x_{k+1}/x_k, u_k)$ орқали ифодаланади.

Умуман олганда, квант генетик алгоритми ёрдамида квант алгоритмик ячейкасини тузилишини қуйидаги формула билан ифодалаш мумкин:

$$QAG = [(Int \otimes^n I) \cdot U_F]^{h+1} \times [QAG [{}^n H \otimes {}^m S]]$$

бу ерда: I - идентификацион матрица оператори; \otimes - тензор оператори; S муаммонинг тавсифига қараб I ёки H га тенг.

Эҳтимоллар қонуни қуйидагича ифодаланилади:

$$p(|0\rangle) + p(|1\rangle) = 1$$

бу ерда $p(|0\rangle)$ - ҳозирги реал ҳолатнинг эҳтимоли; $p(|1\rangle)$ - жорий виртуал ҳолатнинг эҳтимоли. Ҳозирги реал ҳолат виртуал ҳолат эҳтимолларнинг сақланиш қонунидан аниқланади.

"Ҳақиқий ҳолат-виртуал ҳолат" квант тизимининг суперпозицияси қуйидаги шаклга эга:

$$|\psi\rangle = \frac{1}{\sqrt{2}} (\sqrt{p(|0\rangle)} \times |0\rangle + \sqrt{(1-p(|0\rangle))} \times |1\rangle)$$

Технологик жараённинг $X_i, i=1, \dots, n$ кириш ўзгарувчилари ҳамда Y чиқиш ўзгарувчилари билан уларнинг ўзаро муносабатларини аниқлаш учун мавжуд ҳисоблаш алгоритмини қўллашда аввало, ўзгарувчилар $\nu(Y), \beta_1(X_1), \dots, \beta_n(X_n)$ ни ҳисоблаш керак. Бунинг учун қуйидаги амаллар бажарилади [8,9]:


$$\varepsilon^2(\nu, \beta_1, \dots, \beta_n) = E \left\{ \left[\nu(Y) - \sum_{i=1}^n \beta_i(X_i) \right]^2 \right\}$$

ε^2 муносабатни минималлаштиришда ўзгарувчиларнинг ҳар бири учун шартли математик қутилишларни ҳисоблашлар билан эришилади:

$$\nu_i(X_i) = E \left[\nu(Y) - \sum_{i=1}^n \beta_i(X_i) / X_i \right], i=1, 2, m, \dots, n$$

$$\nu(Y) = E \left[\sum_{i=1}^n \beta_i(X_i) / Y \right] / \left\| E \left[\sum_{i=1}^n \beta_i(X_i) / Y \right] \right\|$$

Шунинг билан бир қаторда шартли математик қутилмалари ҳисобланган ўзгарувчиларнинг ҳар бири учун амалга оширилади.



1-расм. Автоматик ростлаш тизимининг компьютер модели.

Юқоридаги муносабатлардан кўришиб турибдики, мураккаб динамик объектларни нейро-норавшан бошқариш тизимини квант ҳисоблаш усуллари асосида синтезлаш тармоқни ўқитишнинг янги усулига ўтиш ва норавшан қоидалар базасини шакллантиришни қулайлаштиради.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аведян Э.Д., Галушкин А.И., Пантюхин Д.В. Ассоциативная нейронная сет СМАС и ее модификации в задаче распознавания образов // Информационные технологии. Новые технологии. №7. – 2011. – С.63–71.
2. Улянов С.В., Мишин А.А., Миногин А.А. Информационная технология проектирования робастных баз знаний нечетких регуляторов. Ч. III: квантовый нечеткий вывод и квантовая информация // Системный анализ в науке и образовании: электрон. науч. журнал. – Дубна, 2010. – № 3.
3. Yakubova N.S. Murakkab dinamik obyektlarning boshqarish tizimini kvant hisoblash usullari asosida sintezlash. // Muhammad al-Xorazmiy avlodlari. Ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnal. 3(25)/2023.

KVANT ALGORITMLARI ASOSIDA DINAMİK OBYEKT LARNI TADQIQ ETISH

Usmanov Komil Isroilovich, dotsent.

fuzzylogicrules@gmail.com

Jamolova Sarvinoz Ravshan qizi

TDTU, "Avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv" kafedrasida

Kirish. Intellektual axborot-kommunikatsiya tizimlarini yaratishda tizimlar tuzilishining murakkabligi, qurilmalarning turli-tumanligi, talablarning noaniqligi, tashqi sharoitning o'zgaruvchanligi va boshqa omillar ma'lum bir muammolarni vujudga keltiradi hamda loyihalash masalasini yechishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bu xususiyatlarni xisobga olish imkoniyatini beruvchi kvant hisoblash nazariyasiga asoslangan holda tizimlarni sintezlashda qo'llaniladigan tarmoq funktsiya strukturasi tanlash, uning vaznlarining optimal qiymatlarini topish masalalari muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Bunda jarayonlarni boshqarishda kvant hisoblash algoritmi yechilishi murakkab bo'lgan ko'plab klassik masalalarni yuqori tezkorlikda yechish mumkin hamda algoritmik ravishda hal qilib bo'lmaydigan masalalarga javoblar olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Tegishlilik funktsiyasi sifatida olingan sigmoidal tegishlilik funktsiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$f_{z_3}(x, a, b) = \frac{1}{1 + e^{a(x-b)}}; \quad a = \frac{2 \ln \frac{\Delta}{1-\Delta}}{x_2 - x_1}; \quad b = \frac{x_1 + x_2}{2}.$$
$$\begin{cases} \frac{1}{1 + e^{-a(x_1-b)}} = \Delta, \\ \frac{1}{1 + e^{-a(x_2-b)}} = \Delta. \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a = \frac{2 \ln \frac{\Delta}{1-\Delta}}{x_2 - x_1}, \\ b = \frac{x_1 + x_2}{2}. \end{cases}$$

bu yerda a, b - sigmoidal funktsiya parametrlari.

Ushbu munosabatlar asosida neyron to'ring har bir qatlami uchun tegishlilik funktsiyasining parametrlari aniqlaniladi. So'ngra defazzifikatsiyalash operatsiyasi bajarilib, boshqarish signali quyidagicha topiladi:

$$U = \frac{az_1 + bz_2}{a + b},$$

bu yerda $z_{i+1} = z_i + v(y - y_{\text{sep}})$ - o'qitishning har bir qadamida hisoblab chiqiladi; v - o'qitish tezligi. Tanlangan neyron tarmoqning real jarayonga mosligini ta'minlash hamda uning aniqligini oshirish uchun yashirin qatlamlar va ulardagi neyronlarning sonini oshirish zarur. Lekin bu o'z navbatida neyron tarmoqning parametrlarini hisoblash vaqtining oshishiga olib keladi, ya'ni model tezkorligini pasaytiradi. Shuning uchun neyron tarmoq modeli aniqligi va uning parametrlarini hisoblash tezligi o'rtasidagi optimal munosabatni ta'minlash uchun kvant hisoblash usullaridan foydalanildi.

Bu yondashuvdan foydalanish avvalo, modellarda noaniqliklar mavjudligida, boshqaruv qarorlarini tanlashning modellari va jarayonlari noaniqligida va aksar hollarda faqat sifat darajasida berilgandagina, murakkab ob'ektlarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Texnologik jarayonlarni taklif etilgan bu usul bilan shakllantirilishi noaniqlik sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi dinamik ob'ektlarning boshqarish modellarini yagona matematik apparat asosida ifodalash, tadqiq etish va bu modellar asosida modellashtirish algoritmini yaratishning imkonini beradi.

Texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishda axborotni qayta ishlash va boshqarish ta'sirini ishlab chiqishning yuqori samarali usullarini yaratishga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda texnologik jarayonni boshqarish tizimini dinamikasini holat tenglamalari ko'rinishida quyidagicha yozish mumkin:

$$x_{k+1} = F(x_k, u_k), k = \overline{0, N}, x_k \in X, u_k \in U,$$

bu yerda X - holat fazosi, U - mumkin bo'lgan boshqarish to'plami, F - holatning o'tkinchi funksiyasi, umumiy holda chiziqsiz ko'rinishda bo'ladi:

$$F: X \times U \rightarrow X.$$

Turli ko'rinishdagi noaniqlikka ega dinamik tizimning o'tkinchi funksiyasi kvant noravshan munosabat ko'rinishida quyidagicha bo'ladi:

$$F: X \times U \times X \rightarrow [0,1].$$

Bunda to'liq aniqlanmagan koeffitsintlar va jarayonga ta'sir qiluvchi barcha kattaliklar tegishlilik funksiyasi $\mu(x_{k+1}/x_k, u_k)$ orqali ifodalanadi.

Texnologik jarayonlarni turli noaniqliklar mavjud bo'lgan holda ishlab chiqilgan kvant boshqarish algoritmlarining samaradorligini baholash uchun olingan ma'lumotlarni approksimatsiyalash orqali obyektning uzatish funksiyalari topilgan. Uzatish funksiyasi xarakteristik qiymatlarining approksimatsiyalash orqali jarayonning matritsali uzatish funksiyasi quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{bmatrix} y_1 \\ y_2 \end{bmatrix} = \begin{pmatrix} \frac{8e^{-0.2p}}{(3.01p+1)(1.07p+1)} & \frac{0.3}{1.9p+1} \\ \frac{0.3}{1.2p+1} & \frac{1.3}{1.7p+1} \end{pmatrix} = \begin{bmatrix} u_1 \\ u_2 \end{bmatrix}$$

Imitatsion tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, tashqi g'alayonlar noaniqligi sharoitida kvant-noravshan rostlagichli boshqarish tizimi o'zining barqarorligini va boshqaruvning talab qilinadigan sifatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алтунин А.Е., Востров Н.Н. Методы определения функции принадлежности в теории размытых множеств. Труды Запсиб НИГНИ, Тюмень, вып. 154. – 1980 – С.62-72

2. K. Usmanov, N.Yakubova, J. Eshbobaev. Modeling and Optimization of the Ammonium Solution Extraction Process. Eng.Proc. 2023,56,198. <https://doi.org/10.3390/ASEC2023-16274>
3. Якубова Н.С., Абдурасулова Г.Э. Исследование нейро-нечетких технологий в системах интеллектуального управления на основе квантовых алгоритмов. CAFED. JOURNAL OF FOOD SCIENCE VOLUME 2, ISSUE 3, MARCH 2024 ISSN: 2181-385X. 32-39 стр.

ELEKTROMAGNIT RELEDAN MIKROPROTSESSORLI BOSHQARUV TIZIMLARIGA O'TISH

Ametova Elnara Kuandikovna, dotsent,
elnara.ametova.84@mail.ru

Qudratov Javohir Bahodir o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti, avtomatika va telemexanika kafedrası

Bugungi kunda temir yo'l transportida tashish jarayonlarini avtomatlashtirish, poyezdlar harakatini boshqarish tizimlarini uzluksiz nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mikroprotsektorli boshqaruv tizimlarini joriy qilish, nazorat qilish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Xavfsizlikni ta'minlash jarayonida mikroelektron texnologiyalar asosida ishlangan temir yo'l avtomatika va elemexanika qurilmalarining ishonchligini oshiradigan diagnostika tizimlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Angliya, Xitoy va Ispaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda temir yo'l avtomatika va telemexanikasi tizimlarini loyihalash va ishlab chiqishda tizimlarning turg'unligi, ishonchligi va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, bu tizimlar texnik holatini uzluksiz nazorat qilish uchun murakkab mikroprotsektorli boshqaruv tizimlari qo'llaniladi.

Hozirgi kunda mavjud energiya yig'uvchan elektromexanik relelarni ishlab chiqarish qisqartirilmoqda. Mikroelektronika texnologiyalariga o'tish jarayonida izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, "O'TY" AJ temir yo'llarida yangi mikroprotsektorli markazlashtirish tizimlari qo'llanilmoqda. Ushbu tizimlar orqali stansiyalardagi svetofo va strelkalarni boshqarish, nosozliklarni bartaraf etish jarayonlari sezilarli darajada osonlashtiriladi. Mikroprotsektorli tizimlar ko'plab yordamchi funksiyalarga ega bo'lsa-da, ba'zi tamoyillar qo'llanilmaganligi sababli xizmat ko'rsatish va nosozliklarni aniqlash ancha murakkab kechmoqda.

Temir yo'l avtomatika va telemexanikasi tizimlarida mavjud qurilmalarining 95% tashkil etuvchi va tizimga asos bo'lib xizmat qiluvchi energiya yig'uvchan elektromexanik relelarni ishlab chiqarishni qisqartirishi hozirda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu o'z navbatida mikroelektronika texnologiyalariga o'tish zarurati "O'TY" AJ avtomatik va telemexanikasida modernizatsiyaga sabab bo'lmoqda. Ko'p yillar davomida bu masala ustida tadqiqotlar olib borilib, yangi texnologiyalarni joriy qilish imkoniyatlari o'rganib kelinmoqda.

Misol uchun, "O'TY" AJ temir yo'llarida yangi mikroprotsektorli elektr markazlashtirish tizimi kiritilib, bu tizim tezkor yo'lovchi poyezdlar harakatiga mo'ljallangan uchastkalardagi stansiyalarda qo'llanilmoqda. Ushbu tizimlar stansiyalardagi strelkalar va signal tizimlarini boshqarishni sezilarli darajada osonlashtiradi. BMRM (blokli marshrutli releli

markazlashtirish) sxemalari, stansiyaning topologik rejasi asosida quriladi va bu tizimlarga texnik xizmat ko'rsatishni soddalashtiradi, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etishni osonlashtiradi.

Biroq, mikroprotsessorli tizimlarda ba'zi tamoyillar yo'qligi xizmat ko'rsatishni murakkablashtiradi. Bu holat, tizimlarning nosozliklarini bartaraf etish va ularni qayta dasturlash jarayonlarini yanada qiyinlashtiradi. Kafolatli xizmat muddati davomida nosoz bloklar va modullarni almashtirish, dasturiy ta'minotni yangilash bilan asosan ishlab chiqaruvchi tashkilot shug'ullanadi. Lekin kafolat muddati tugagach, bu muammolar temir yo'l sektoriga iqtisodiy yuk bo'lib qoladi.

Mikroprotsessorli tizimlar 80% dasturiy ta'minotdan iborat bo'lib, stansiya konfiguratsiyasida o'zgarishlar kiritish zarurati markaziy protsessorni qayta dasturlashni talab qiladi. Natijada, yangi konfiguratsiyalarni qo'llash, iqtisodiy jihatdan yangi tizim qurish bilan teng hisoblanadi. Yirik stansiyalarda ko'plab strelkalar va signal tizimlari mavjud bo'lgani sababli, marshrutlarni avtomatik tayyorlash tizimlari qo'llaniladi. Bu tizimlar yordamida marshrutlarni boshqarish va tayyorlash vaqtini sezilarli darajada qisqartirish mumkin.

1-jadval

Taqqoslash mezonlari	NMI	NMI-D	CPU S7-1500	S7-1511-1PN	S7-1515-2PN
Tizimi	Elektrmag nit	Elektrmagnit	Mikroelektro n	mikroelektro n	mikroelektro n
Elektr ta'minoti	10-50Vt	10-50Vt	15-40Vt	16	25Vt
Signal turi	analog	Analog	analog va raqamli	analog va raqamli	analog va raqamli
Ishchi signal qiymmati	0-4 mA	0-4 mA	0-20 mA	0-20 mA	4-20 mA
Ishlash muddati	10-15 yil	10-15	10-20 yil	10-20 yil	10-20 yil
Ishlash haroroti	-25 - + 70	-25 - + 70	+0 - +60	+0 - +60	+0 - +60
Tan narxi	3 mln	3 mln	6 mln	6 mln	6 mln

Xulosa

Temir yo'l transportida tizimlar o'zgarishi ortidan poyezdlar harakati jadallashuvi yurtimizdagi qulay transport turi hisoblanadigan temir yo'l transportidagi yuk aylanmasining oshishiga va bu o'z o'nida tepalik, yuk tushurish va yuklash shahobchalarida manyovr ishining ortishiga olib keladi. Biz takomillashtirishni boshlagan bittalik manyovr svetoforlari oldingilarigan buyruqni tezroq yetib kelishi va natijasi teskari aloqa kanaliga tezkor yetib kelishi, yuqorida ko'rib o'tilgan masala yangi mikroelektron texnologiyalardan foydalanilgani, boshqarishning mikroprotsessorli ko'rinishda amalga oshirilishi bilan oldingisidan tubdan farq qiladi. Yaratilayotgan mikroprotsessorli svetoforni boshqarish biloki BMRM tizimlarida, boshqa katta hajmdagi poyezd va manevr ishlariga ega bo'lgan uchastka, saralash va oraliq

stansiyalarda keng qo'llaniladi. Marshrutlarni boshqarishdagi bu avtomatlashtirish jarayonlari temir yo'l transportida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аметова Э.К., Азизов А.Р. Теория сетей Петри при разработке и исследовании математической модели блока НСО. ФАРПИ ИТЖ. 2019, №5 с.93-98.
2. Azizov A.R, Ametova E.K. NSS Mikroelektron blokini yaratish. ToshTTYMI Axboroti. 2019 №2. 155-160 b.
3. «BITTALIK MANEVR SVETOFORLARI UCHUN HMI MIKROPROT-SESSORLI BOSHQARUV BLOKINI YARATISH», JOURNAL OF ADVANCES IN ENGINEERING TECHNOLOGY 2024 y. 53-57b.
4. Аметова Э.К., Азизов А.Р. Исследование модели цепи кнопочных реле микроэлектронного блока НСС. Муҳаммад ал-Хоразмий авлодлари. Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети 2019, №3(9) 75-77 б.
5. “Temir yo'l avtomatika va telemexanika tizimi terish guruhining bittalik manevr svetoforlarini boshqarish mikroprotessorli bloki”, «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 30-mart 2024-yil. 73-76 betlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10897708>
6. Дж. Питерсон. Теория сетей Петри и моделирование систем: пер. с англ. / – М.: Мир, 1984. – 264 с.
7. Каменев А. Ю. Особенности применения экспериментальных методов доказательства безопасности систем микропроцессорной централизации сигналов / А. Ю. Каменев // Информационно-управляющие системы на железнодорожном транспорте. 2011. – № 4. – С. 104–111. – ISSN 1681-4886.

KO'P BOSQICHLI KINETIKA TENGLAMASI ASOSIDA G'OVAK MUHITDA DEGRADATSIYALANADIGAN MODDA KO'CHISHI MODELI

Fayziyev B.M., dotsent.

fayzievbm@mail.ru

Sag'dullayev O.Q., Salimova Sh.L.

Samarqand davlat universiteti

G'ovak muhitlarda degradatsiyalanuvchi modda ko'chishi ekologik [1], geologik [2] va sanoat jarayonlarida [3] katta ahamiyatga ega. G'ovak muhitlarda moddalarning ko'chishi va kimyoviy o'zgarishlari jarayonlarini chuqur tushunish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproqni rekultivatsiya qilish, neft qazib olish va filtratsiya tizimlarini loyihalash kabi dolzarb muammolarni hal qilishda muhimdir [4]. Ushbu tadqiqot g'ovak muhitda erigan moddalarning ko'chishi va degradatsiya jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, u atrof-muhit muhandisligi, gidrogeologiya va boshqa sohalarda kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratadi. Aktiv va passiv zonalarga ega bo'lgan ikki zonali g'ovak muhit ko'rib chiqiladi. Ko'chish tenglamasi quyidagi ko'rinishda [5]

$$\frac{\partial(\theta c)}{\partial t} = -\operatorname{div} J_s - \frac{\partial c_a}{\partial t} - \frac{\partial c_p}{\partial t} - \theta \lambda_e c \quad (1)$$

$$J_s = -\theta D \nabla c + \vec{w}c \quad (2)$$

bu yerda c - hajmiy konsentratsiyasi, c_a - aktiv zonadagi adsorbsiyalangan moddaning konsentratsiyasi, c_p - passiv zonadagi adsorbsiyalangan moddaning konsentratsiyasi, J_s - moddaning oqim zichligi, θ - g'ovaklik, λ_e birinchi tartibdagi yemirilish koeffitsienti (yemirilish), \vec{w} - sizish tezligi, $\frac{\partial c_a}{\partial t}$, $\frac{\partial c_p}{\partial t}$ aktiv va passiv zonalardagi adsorbsiyani ifodalovchi hadlar bo'lib, ular adsorbsion hodisalar tufayli suyuq faza va qattiq sirt orasidagi massa almashinuvini anglatadi.

(2) tenglamani (1) tenglamaga qo'ysak:

$$\frac{\partial(\theta c)}{\partial t} + \text{div}(\vec{w}c) = \text{div}(\theta D \nabla c) - \frac{\partial c_a}{\partial t} - \frac{\partial c_p}{\partial t} - \theta \lambda_e c \quad (3)$$

(3) dan bir o'lchovli holda quyidagiga ega bo'lamiz

$$\frac{\partial(\theta c)}{\partial t} + \frac{\partial}{\partial x}(w_x c) = \frac{\partial}{\partial x} \left(\theta D \frac{\partial c}{\partial x} \right) - \frac{\partial c_a}{\partial t} - \frac{\partial c_p}{\partial t} - \theta \lambda_e c \quad (4)$$

bu yerda w_x sizish tezligining ox o'qi bo'yicha koordinatasi.

Agar muhit bir jinsli bo'lsa, ya'ni $\theta = \text{const}$, sizish tezligi doimiy bo'lsa, (4) da gidrodinamik dispersiya koeffitsienti ham doimiy bo'lsa, quyidagiga ega bo'lamiz

$$\frac{\partial c}{\partial t} + v_x \frac{\partial c}{\partial x} = D \frac{\partial^2 c}{\partial x^2} - \frac{1}{\theta} \frac{\partial c_a}{\partial t} - \frac{1}{\theta} \frac{\partial c_p}{\partial t} - \lambda_e c \quad (5)$$

bu yerda $v_x = \frac{w_x}{\theta}$ suyuqlikning fizik tezligi.

Aktiv zonadagi konsentratsiya uchun biz quyidagi kinetika tenglamasidan foydalanamiz

$$\frac{\partial c_a}{\partial t} = \begin{cases} \beta_{ar} c - \lambda_{ea} c_a, & 0 < c_a \leq c_{ar}, \\ \beta_{aa} c - \beta_{ad} c_a - \lambda_{ea} c_a, & 0 < c_a \leq c_{ar}, \\ 0, & c_a = c_{a0}, \end{cases} \quad (6)$$

bu erda β_a aktiv zonadagi moddaning adsorbsiya intensivligini tavsiflovchi koeffitsient, c_{a0} aktiv zonadagi erishiladigan maksimal konsentratsiya, λ_{ea} aktiv zonada adsorbsiyalangan moddaning parchalanish koeffitsienti, $\beta_{ar}, \beta_{aa}, \beta_{ad}$ kinetika koeffisientlari, c_{ar} zaryadlash effekti tugaydigan maksimal konsentratsiyadir.

Passiv zonada adsorbsiyaning kinetika tenglamasini quyidagicha [6]

$$\frac{\partial c_p}{\partial t} = \begin{cases} \beta_{p0} c - \lambda_{ep} c_p, & 0 < c_p \leq c_{p1}, \\ \frac{\beta_{p0} c_{p1} c}{c_p} - \lambda_{ep} c_p, & c_{p1} < c_p \leq c_{p0}, \\ 0, & c_p = c_{p0}. \end{cases} \quad (7)$$

bu yerda c_{p1} eskirish ta'siri boshlanadigan maksimal konsentratsiyadir, λ_{ep} – passiv zonada adsorbsiyalangan moddaning parchalanish koeffitsienti.


(5), (6), (7) tenglamalar quyidagi shartlar bilan yechiladi

$$c(0, x) = 0, c_a(0, x) = 0, c_p(0, x) = 0 \quad (8)$$

$$c(t, 0) = c_0 = \text{const}, c(t, \infty) = 0 \quad (9)$$

Masala chekli ayirmalar usuli yordamida yechildi [7].

Natijalar



1-rasm. $t = 9000$ va β_{aa} ning turli qiymatlarida c/c_0 (a), c_a (b), c_p (c) o'zgarish profili

1-rasmda konsentratsiyalar profillari β_{aa} parametrning turli qiymatlarida ko'rsatilgan. β_{aa} - moddaning aktiv zonada adsorbsiya jarayonining asosiy bosqichini ifodalovchi kinetika koeffitsienti. Uning qiymatining o'zgarishi aktiv zonada moddaning adsorbsiya tezligiga juda katta ta'sir ko'rsatishini ko'rish mumkin (1-rasm). Aktiv zonada adsorbsiyalangan modda $x=0$ nuqtada $\beta_{aa} = 0,5 \cdot 10^{-4}$ $t = 9000$ da maksimal qiymatga yetmaganini kuzatish mumkin. Biroq, bu ko'rsatkich $\beta_{aa} = 1 \cdot 10^{-4}$ yoki $\beta_{aa} = 1,5 \cdot 10^{-4}$ bo'lganda maksimal qiymatga yetadi. β_{aa} ning kichikroq qiymatlari c_a ning kamayishiga va $c/c_0, c_p$ ning ortishiga, shuningdek, konsentratsiyaning kengroq tarqalishiga olib keladi.

Xulosa

Ushbu maqola har xil turdagi adsorbsion zonalarga ega bo'lgan g'ovak muhitda erigan moddalarning ko'chishi bilan bog'liq. Eritma faol modda sifatida qaralib, g'ovak muhitning aktiv va passiv zonalarda parchalanish, adsorbsiya hisobga olindi. Birinchi marta adsorbsiya uchun ko'p bosqichli kinetik tenglamalar ko'rib chiqildi. Bir o'lchovli holat uchun modda ko'chishi masalasi chekli ayirmalar usulida yechildi.

Adabiyotlar

1. L. Zeng, C. Yuan, T. Xiang, X. Guan, L. Dai, D. Xu, D. Yang, L. Li, and C. Tian, "Research on the Migration and Adsorption Mechanism Applied to Microplastics in Porous Media: A Review," *Nanomaterials*, vol. 14, no 12, Jun. 2024, Art. no. 1060, <https://doi.org/10.3390/nano14121060>
2. Armstrong, D. E., and G. Chesters . 1969. Adsorption catalyzed chemical hydrolysis of atrazine. *Environ. Sci. Technol.* 2:683-689.
3. Daniels, S. L. 1980. Mechanisms involved in the sorption of microorganisms to solid surfaces, p. 7-58. In G. Bitton and K. C. Marshall (ed.), *Adsorption of microorganisms to surfaces*. John Wiley & Sons, Inc., New York.
4. Ogram AV, Jessup RE, Ou LT, Rao PS. Effects of sorption on biological degradation rates of (2,4 -dichlorophenoxy) acetic acid in soils. *Appl Environ Microbiol* . 1985 Mar ;49 (3):582-7. doi : 10.1128/aem.49.3.582-587.1985.
5. Khuzhayorov B.K., Makhmudov J.M., Fayziev, B.M., Begmatov T.I. Some Model of a Suspension Filtration in a Porous Media That Accounts for the Two-Zone and Multistage Character of Deposition Kinetics // *Journal of Applied and Industrial Mathematics*, 2020, 14(3), pp. 513–523
6. Samarskii A. A. *The Theory of Difference Schemes*; CRC Press: New York, NY, USA, 2001

SYNTHESIZE CORRECTORS IN OTHER AUTOMATED ARROW SYSTEMS MODERN STATE

Xusanov Suban Nurullayevich
(PhD), Karshi Engineering-Economics Institute
xusanovsuban@gmail.com

Fayzullayev Sarvar Adham o'g'li

Karshi Institute of Irrigation and Agricultural Technologies of the NRU "TIAME"

Introduction. In recent times, the world has been expanding the functional capabilities of management systems, which allows for the synthesis of effective management systems of technological objects. The issue of synthesizing adjusters that ensure the required accuracy of control objects is important in the automation and control of technological processes and productions. In this area, great importance is attached to the construction of discrete control systems of technological processes, synthesis of regulators, solving theoretical problems of optimal and adaptive control and their practical implementation in various branches of industry.

The main part. Today, great importance is attached to the development of the theoretical basis of the automation of improved systems and technological processes. Therefore, in the characterization of complex chemical-technological objects, in the analysis and synthesis of control devices of basic dynamic objects, it is represented by the presence of advanced mathematical apparatus methods.

Synthesis of adjusters that ensure the required accuracy of adjustment, i.e., the issue of compatibility of stable values of adjustable variables with a given process when the system is affected by limited external disturbances, is important in the theory and practice of automatic control. In theoretical and practical research, it is of particular importance to study the

methods of constructing the parameters of optimal adjusters for control objects. Because the theoretical solutions ensure the minimization of the mean square criterion, which reflects the quality of the controlled process in the feedback loop systems being synthesized.

The basic theory of analytical synthesis of control laws of dynamic objects is of particular importance. Currently, the basics of the relevant approaches have been developed. Here, the main attention is paid to the issues of automation related to the analysis of the quality and stability of dynamic processes. If complex systems are considered as a constituent element of automatic control systems, then such a system includes many digital devices. Therefore, it will be necessary to adapt existing mathematical methods or to develop new ones that search for optimal adjustments of technical means.

At present, when using digital computing machines in control processes, the actual issue of choosing discrete control laws for improved continuous dynamic objects arises. It requires the use of two approaches in the implementation of the given problem. When using the proposed first approach, a discrete model of the object is developed. For this case, the discrete control law is synthesized. The disadvantage of this is that the behavior of the system at quantization moments cannot be neglected. In the second proposed approach, a continuous adjuster is sought for a continuous system, which is then converted to a discrete one by means of digital interpolation machines. In this approach, the problem of choosing a method of discrete approximation to the continuous control law arises. The essence of this problem is to make the descriptions of the resulting closed system closer to the continuous system. Now, it should be noted that this issue can be considered separately. It is close in complexity to the previous continuous system. There is such a widespread category of important objects that the application of existing standard solutions to them does not correspond to modern requirements of management. These objects have complex factors. Therefore, the development of high-performance control devices is a difficult issue.

There are various promising ways to improve control quality and accuracy in complex objects, including the use of structural position controllers (HR), inertialess position controllers, dynamic polynomial controllers (PR) and position tracking controllers (HKR). The high potential of HR is associated with increasing the number of degrees of freedom of the facilities management system. It consists in the implementation of the process of synthesis of automatic adjusters, which solve the problems of automation of technological processes.

Conclusion. It can be concluded that this modern state of synthesis of automatic adjusters is used to develop algorithms for synthesizing adjusters in the construction of discrete control systems of technological objects and to solve the issue of automation of certain production processes. In other words, it is aimed at developing mathematical methods that optimize dynamic objects for discrete-continuous and discrete systems.

References

1. Shagin A.V., Demkin V.I., Kononov V.Yu. Kabanova A.B.: Osnovi avtomatizatsii texnologicheskix protsessov [Fundamentals of process automation]. Handbook, Yurayt (2017).
2. Sxirtladze, A. G.: Avtomatizatsiya texnologicheskix protsessov i proizvodstv [Automation of technological processes and production]. Abris, Moskva (2012), 565p.

3. Izerman, R. Sifroviye sistemi upravleniya [Digital control systems]. Translated from eng. Mir, Moscow (1984), 541p.
4. Mallaev AR, X. S., & Sevinov, J. U. (2020). Algorithms of nonparametric synthesis of discrete one-dimensional controllers. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5s), 1045-1050.
5. Sevinov, J. U., Mallaev, A. R., & Xusanov, S. N. (2020, October). Algorithms for the synthesis of optimal linear-quadratic stationary controllers. In World Conference Intelligent System for Industrial Automation (pp. 64-71). Cham: Springer International Publishing.
6. Nurullayevich, K. S., & Islomnur, I. (2022). Self-regulatory control system for furniture fire. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 560-563.
7. Mallayev, A. R., Xusanov, S. N., & Sevinov, J. U. (2021). Algorithms for the synthesis of stabilizing state controllers for discrete objects based on linear matrix inequalities. Algorithms, 8(3).
8. Kolesnikov, A.A.: Modern Applied Control Theory: Synergetic Approach in Control Theory, Taganrog, Tomsk (2000).

НЕЧЁТКОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭЛЕКТРОПРИВОДАМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Д.А.Халматов,
к.т.н., доцент, ТИТЛП, holdav2015@gmail.com
Д.Р.Хушназарова
докторант, ТГТУ, dxushnazarova@mail.ru

Разработку алгоритмов управления электроприводами технологических объектов разного производственного назначения выполняют, как правило, с учетом двух важнейших оценок качества быстродействия (с учетом ограничений на потребляемую мощность) и связанной с ним производительности, а также интегральной квадратичной оценки ошибок управления и связанного с ней качества технологического процесса.

Наряду с классическими принципами подчиненного регулирования (каскадное управление) и модального управления электроприводами в настоящее время используют нечеткую логику [1, 2].

Алгоритмы управления с использованием нечеткой логики реализуются в системах управления электропривода программным способом. В программируемых контроллерах предусматриваются модули с инструкциями для пользователей, а в промышленных компьютерах - программные средства с набором стандартных ситуаций [3].

Нечеткая логика используется для замены традиционных алгоритмов управления и совместно с ними. В простейшем случае вместо традиционного регулятора применяется фаззи-регулятор. При построении нечеткого регулятора исходят из предположения, что эксперты в состоянии сформировать базу правил в форме:

ЕСЛИ < Предпосылка > ТО < Вывод > и базу данных с функциями принадлежности для предпосылок $\mu(e)$ и выводов $\mu(u)$, то есть определить все необходимые лингвистические правила с лингвистическими переменными и термами.

Проектирование нечеткого регулятора представляет собой циклически протекающий процесс, который лишь после многих итераций позволяет достигнуть требуемого качества управления [4, 5].

Однако, поскольку собственное ядро фаззи-регулятора (фаззификация, механизм нечетких логических выводов, дефаззификация) не обладает внутренней динамикой, то принципиально невозможно в простейшем случае обеспечить требуемое динамическое поведение регулятора. Если ставится задача обеспечения любого динамического или нединамического поведения регулятора (например, подобного классическому ПИД-регулятору), то эта задача решается введением в контур управления блока подготовки контролируемых параметров на основе данных измерения сигналов датчиков. Этот блок обеспечивает расчет требуемых параметров на основе измеренной ошибки регулирования (производные, интегралы и т. п.) и является, в отличие от классических регуляторов, не составной частью регулятора, а самостоятельным модулем.

Если некоторые процессы объекта управления плохо поддаются формализации и математическому описанию, то в существующей системе управления используют фаззи-регулятор параллельно традиционному регулятору.

При использовании методов каскадного управления с классическим регулятором во внутреннем контуре фаззи-регулятор может быть применен во внешнем контуре.

Методы нечеткой логики успешно используются в адаптивных системах для настройки и коррекции параметров регуляторов в процессе их работы.

Возможны варианты выполнения таких схем. В частности, осуществляется настройка параметров традиционных регуляторов с использованием модулей адаптивной системы, реализованных алгоритмами нечеткой логики. В другом случае перестраиваемый регулятор и модули адаптивной системы реализуются алгоритмами нечеткой логики, чем создаются самоорганизующиеся фаззи-контроллеры, которые посредством модификации параметров регулятора оптимальным образом настраиваются на управляемый процесс.

Основой для адаптации фаззи-контроллера является наблюдение за ошибкой регулирования и (или) выходной величиной объекта управления, из которой формируется значение показателя качества (например, минимума интегральной квадратичной оценки). Стратегия настройки параметров сосредоточена в модуле алгоритма адаптации. Он имеет «интеллект» адаптивного регулятора в форме различных команд установки параметров в зависимости от значения текущего показателя качества. При этом реализация алгоритма адаптации как фаззи-алгоритма выполняется на основе правил типа ЕСЛИ..., ТО...

Алгоритм адаптации можно применять также к различным компонентам нечеткого регулятора. В простейшем случае достаточно изменения масштаба области значений входных величин для достижения переключения между настройками. Более

сложные алгоритмы могут вовлекать в процесс адаптации функции принадлежности или даже базу правил, модифицируя в зависимости от состояния объекта управления форму нечетких множеств, отдельные правила или, переключаясь между разными множествами правил.

В работе для проверки достоверности вышеуказанного проведен имитационный эксперимент над системой управления электроприводом, представленной в виде одномассовой системы с переменным моментом инерции

В результате проведенного анализа в случае применения нечеткого регулятора для одномассовой системы с переменным моментом инерции можно сделать вывод, что система на основе нечеткого регулятора обладает рядом преимуществ по сравнению с системами, настроенными на технический и симметричный оптимум, а именно:

- динамически не уступает системам с регулятором, настроенным на технический оптимум, а точностью - системам с регулятором, настроенным на симметричный оптимум;

- в случае изменения параметров системы электропривод работает, сохраняя все свои преимущества, в то время как классические системы меняют свои характеристики в сторону ухудшения;

- при изменении структуры механической части с одномассовой на многомассовую, с конечной жесткостью, наличием зазоров и т.п., системы с настройками регуляторов на симметричный и технический оптимум надо радикально перенастраивать, в то время как система нечеткой логики незначительно теряет свои преимущества, сохраняя простоту реализации и не требуя абсолютно никакого знания параметров механической части электропривода при настройке.

В результате анализа в случае применения нечеткого регулятора для одномассовой системы с переменным моментом инерции можно сделать вывод, что система на основе нечеткого регулятора обладает рядом преимуществ по сравнению с системами, настроенными на технический и симметричный оптимум.

Список литературы:

1. Алиев Р.А., Церковный А.Э., Мамедова Г.А. Управление производством при нечеткой исходной информации. - М.: Энергоиздат, 1991. – 234 с.
2. Нечеткие множества в моделях управления и искусственного интеллекта //Под. ред. Д.А. Поспелова. - М.: Радио и связь, 1982. - 490 с.
3. Isamidin Siddikov, Davronbek Khalmatov, Dilnoza Khushnazarova. Synthesis of synergetic laws of control of nonlinear dynamic plants. E3S Web of Conferences. Volume 452, 06024 (2023). Dnipro, Ukraine, September 5-8, 2023. pp: 1-9. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345206024>
4. Siddikov I., Khalmatov, D., Khushnazarova, D., Khujanazarov, U. Nonlinear systems control algorithm with backstepping method. E3S Web of Conferences, 2024, 508, 04004. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202450804004>
5. Siddikov I., Khalmatov D., Khushnazarova D., Khujanazarov U. Neural network control of a nonlinear dynamic plant with a predictive model. International Journal of

DEVELOPING A MACHINE LEARNING MODEL FOR DECISION MAKING IN COMMUNICATION SYSTEMS

Nafisa Juraeva

PhD, TUIT named after Muhammad Al- Khwarizmi

juraeva.0878@gmail.com

Failure management involves identifying, isolating, and resolving various network problems, ensuring stable network operation, and maintaining service levels. To achieve this goal, fault prediction, detection, identification, diagnosis, and localization methods are used [1]. The fault prediction method identifies possible equipment malfunctions in advance based on specific features, which allows you to take active measures to prevent failures before they occur. Machine learning (ML) is a key area of artificial intelligence (AI), where systems can extract patterns from data, learn from them, and make decisions with minimal human intervention [2].

Every task solved by ML methods has its drawbacks, especially when dealing with incomplete or misleading data. In fiber optic transmission systems, fault detection based on long-term data is challenging due to preprocessing steps. Models often work with limited tabular data, making it difficult to demonstrate the advantages of deep learning over traditional algorithms. High-quality data collection remains a key factor for successful fault management.




Fig.1. Machine Learning model development process for decision making in the fiber optic systems.

The process of automation using machine learning involves several stages of developing an AI algorithm for decision making in fiber optic communication systems (Fig. 1).

The most important stage is data collection, the next step is data pre-processing, which includes cleaning outliers and normalization. Next, the model is trained, where the data is divided into training, validation, and test sets. At each stage of the iterative process, the model is trained and evaluated, which allows for adjustments to its parameters (e.g., weights, learning rate, and loss function). Typically, data sets are split in a 70/20/10 (training/validation/testing) ratio, although other options are possible. The model is evaluated on unseen data, which helps to understand its real-world performance. Based on this evaluation, a decision is made on post-processing or final deployment of the model for use in the application. Deployment of the model requires adjusting its parameters to specific tasks, such as the speed of processing new data.

ML algorithms enable network operators to gain deeper insight into the optical network status in real time, which helps identify and resolve potential issues before service disruptions occur. Deep learning models such as CNN and RNN are suitable for addressing the growing complexity of optical networks by analyzing time series data and predicting traffic. Reinforcement learning algorithms can improve network performance by adapting to environmental changes in real time. Monitoring optical performance during high-quality transmission of optical signals is one of the major challenges. An analysis of advances in ML methods has shown that they can solve complex models and are suitable for solving many interference monitoring problems in adaptive and heterogeneous optical networks.

Data forecasting is performed by comparing the performance evaluation using metrics such as RMSE (Root Mean Squared Error) and R^2 (the coefficient of determination), the formulas for calculating which can be presented as follows [3]:

$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2} \quad (1)$$

where n — number of observations, \hat{y}_i - the value of the dependent variable predicted by the model, y_i - actual value of the dependent variable.

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (\hat{y}_i - y_i)^2}{\sum_{i=1}^n (\bar{y}_i - y_i)^2} \quad (2)$$

where $\bar{y} = \frac{1}{l} \sum_{i=1}^l y_i$ - mean value of the target variable.

The results indicate [4,5] the high potential effectiveness of using ML algorithms, in particular regression problems, to predict failures in communication systems, which can be useful for optimizing maintenance plans and preventing unexpected network downtime.

References:

1. Wang D S, Wang D D, Zhang C Y, et al. Machine Learning for Optical Layer Failure Management. In: Proceedings of 2021 26th Opto-Electronics and Communications Conference (OECC), Hong Kong, 2021. T3A.
2. Gu R T, Yang Z Y, Ji Y F. Machine learning for intelligent optical networks: A comprehensive survey. Journal of Network and Computer Applications, 2020, 157: 102576.

3. Tran, Q., Nguyen, H., Bui, X. (2023). Novel Soft Computing Model for Predicting Blast-Induced Ground Vibration in Open-Pit Mines Based on the Bagging and Sibling of Extra Trees Models. CMES-Computer Modeling in Engineering & Sciences, 134(3), 2227–2246

4. D.A. Davronbekov, N.I. Jurayeva. Optik tolali ma'lumotlar uzatish tizimlarining samaradorligini oshirish usullari, (Monografiya), Toshkent 2024. B.128.

5. Juraeva N. Tolali optik aloqa tizimlari samaradorligini monitoring qilishda qo'llaniladigan mashinali o'qitish algoritmlari // "Texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va standartlashtirishning ishlab chiqarishdagi o'rni va vazifalari" mavzusidagi respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjuman. – Toshkent, 2024. –B. 385-389.

AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA MATEMATIK VA KOMPYUTERLI MODELLASHTIRISH, RAQAMLASHTIRISH VA SUN'IY INTELEKTNI QO'LLASH

Qodirov Farrux Ergash o'g'li, i.f.f.d PhD
Mavlonova Muxlisa Nizomiddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
mavlonovamuxlisa03@gmail.com

Kirish. Avtomatlashtirish tizimlari zamonaviy sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida muhim rol o'ynaydi. Ular jarayonlarni tezlashtirish, xatolarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Matematik va kompyuterli modellashtirish, raqamlashtirish va sun'iy intellekt bu tizimlarning asosiy komponentlaridir. Ushbu tadqiqotda ushbu elementlarning o'zaro aloqasi va ularning avtomatlashtirish tizimlaridagi qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Avtomatlashtirish tizimlari — bu jarayonlarni, ishlab chiqarishni yoki xizmat ko'rsatishni avtomatik ravishda boshqarish uchun mo'ljallangan tizimlardir. Ular ko'pincha sensorlar, aktuatorlar va boshqaruv tizimlaridan iborat bo'lib, inson aralashuvini minimallashtirishga qaratilgan.

Matematik modellashtirish — bu real jarayonlarni matematik formulalar va tenglamalar yordamida ifodalash jarayonidir. Bu jarayon orqali muammolarni tahlil qilish, yechimlarni topish va natijalarni bashorat qilish mumkin. Avtomatlashtirish tizimlarida matematik modellashtirish quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

- Dinamik tizimlar: Tizimning vaqt o'zgarishini o'rganish.
- Optimallashtirish: Resurslarni samarali taqsimlash va xarajatlarni kamaytirish.
- Simulyatsiya: Tizimning turli holatlarini modellashtirish va tahlil qilish.

Kompyuterli modellashtirish — bu matematik modellarni kompyuter dasturlari yordamida amalga oshirish jarayonidir. Bu jarayon orqali murakkab tizimlarni simulyatsiya qilish, natijalarni tezda olish va tahlil qilish mumkin. Kompyuterli modellashtirishning afzalliklari:

- Tezlik: Murakkab hisob-kitoblarni tezda bajarish.
- Aniqlik: Natijalarni yuqori aniqlikda olish.
- Vizualizatsiya: Tizimning ishlashini grafik ko'rinishda ko'rsatish.

Raqamlashtirish — bu ma'lumotlarni raqamli formatga o'tkazish jarayonidir. Bu jarayon orqali an'anaviy jarayonlar raqamli tizimlarga o'tkaziladi, bu esa avtomatlashtirishni osonlashtiradi. Raqamlashtirishning asosiy afzalliklari:

- Ma'lumotlarni saqlash: Raqamli formatda ma'lumotlarni saqlash va boshqarish.

- Tezkor tahlil: Raqamli ma'lumotlarni tezda tahlil qilish imkoniyati.
- Integratsiya: Turli tizimlar o'rtasida ma'lumotlarni oson almashish.

Sun'iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlarining inson aqlini takrorlashga qaratilgan soha. SI avtomatlashtirish tizimlarida quyidagi usullar bilan qo'llaniladi.

- Mashina o'rganish: Tizimlar o'z tajribasidan o'rganib, kelajakdagi qarorlarni yaxshilash.

- Tabiiy tilni qayta ishlash: Inson tilini tushunish va unga javob berish.
- Raqamli tahlil: Katta ma'lumotlar to'plamlarini tahlil qilish va yangi bilimlarni olish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari avtomatlashtirish tizimlarida matematik va kompyuterli modellashtirish, raqamlashtirish va sun'iy intellektni qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi. Kelajakda ushbu sohalarda yanada chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mavjud tizimlarni takomillashtirish tavsiya etiladi. Shuningdek, ta'lim va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish orqali mutaxassislarni tayyorlash zarur.

Avtomatlashtirish tizimlarida matematik va kompyuterli modellashtirish, raqamlashtirish va sun'iy intellektni qo'llash zamonaviy texnologiyalarning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, birgalikda samarali va innovatsion yechimlarni taqdim etadi. Kelajakda bu texnologiyalar yanada rivojlanib, ko'plab sohalarda qo'llanilishi kutilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, F. "OPTIMIZATION OF TELECOMMUNICATIONS POWER SUPPLY SYSTEMS BASED ON RELIABILITY CRITERIA." Science and innovation 2.A12 (2023): 15-20.
2. F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtirish. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
3. F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
4. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
5. Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
6. Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
7. Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
8. Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
9. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 128-130.

10. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 80-83.

11. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).

12. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." AGRO ILM (2022).

13. Qodirov, Farrux. "VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA HOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR." Analytical Journal of Education and Development (2022).

14. Qodirov, Farrux. "FURYE QATORI FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH." МАТЕМАТИК ФИЗИКА ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2021).

ATMOSFERADAGI KEROSIN TOMCHILARINING BUG'LANISHI MODEL

Shukurova O.P., Normo'minov D.A.

"ТИОХММИ" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
oysarashukurova@gmail.com

Hozirgi vaqtda energiyaning asosiy manbalaridan biri neft va gaz hisoblanadi. Ulardan asosan turli suyuq yoqilg'ilar benzin, kerosin, dizel va qozonxona yoqilg'isi olish uchun foydalaniladi. Qayta ishlash jarayonlari orqali olingan mahsulotlar ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida foydalaniladi. Tabiiy gazning gaz separatsiyasi qurilmasi tarkibiga amin yordamida tozalash, quritish, gaz ajratish bloklari kiradi [1].

M2: AGAR prots_stavkalari==kutarilmokda U XOLDA narxlar == tushmokda

M3: AGAR yalpi_dolkursi==tushmokda U XOLDA narxlar == kutarilmokda

M4: AGAR yalpi_dol_kursi==kutarilmokda

U XOLDA narxlar == tushmokda

Narxlar kutarilishining extimolligini aniklash kerak.

Misoldan maksad real xolatni kursatish emas, balki echimga olib keluvchi yullarni kursatishdir.

Teskari xulosa ishlatuvchi tizim koidalarning u xolda kismida narxlar == kutarilmokda xulosani kidiradi. prots_stavkalari==tushmokda sharti bajarilsa 1-koida tugri keladi. 1-koida yordamida shartlarni extimolligini anaklash mumkin.

S ni STOCK ga=kutarilmokda va I ni SHT=tushmokdaga almashtirib quyidagilarni xosil kilamiz:

$$R(\text{STOCK} = \text{KUTARILMOKDA}) = P(\text{STOCK} = \text{KUTARILMOKDA} / \text{INT} = \text{TUSHMOKDA}) + P(\text{STOCK} = \text{KUTARILMOKDA} /$$

$$\text{INT} = \text{TUSHMOKDAMA S}) \times P(\text{INT} - \text{TUSHMOKDAMA S})(2)$$

INT ga TUSHMOKDAkiymati berilganini aniklash uchun 4-koidagi kaytishimiz shart.

AGAR dol_kursi==kutarilmokda

U XOLDA narxlar == tushmokda

4-koida 3-koidaga uzgaradi

$P\{INT = TUSHMOKDA\} = 14INT = TUSHMOKDA / DOLLAR = KUTARILMOKDA\} \times$
 $P(DOLLAR = KUTARILMOKDA)$

$+ P(INT = TUSHMOKDA / DOLLAR = KUTARILMOKDAMAS) \times R(DOLLAR =$
 $KUTARILMOKDAMAS)$

Koidallarning birortasida U XOLDA kismida DOLLAR uzgaruvchisi yukligi sababidan R extimollik qiymatini aniqlashning iloji yuk shuning uchun, u qiymatni foydalanuvchini uzi kiritadi. SHu sababdan quyidagi shartli extimollik belgilanishi kerak.

$P(DOLLAR=USMOKDA)=v, 6$

Extimollik nazariyasiga asosan sodir bulgan va bulmagan xodisalar yigindisi 1 ga teng.

$P(DOLLAR=USMOKDAMAS)=1 - P(DOLLAR=USMOKDA)=1-0,6=0,4$ Barcha shartli extimolliklarga qiymatlarni beramiz. $R(tT=TUSHMOKDA/VOLYA=USMOKDA)=0,8$
 $R(tT=TUSHMOKDA/VOBYA=USMOKDAMAS)=0,1$ (shartli extimolliklarga teskari xodisalarning yigindisi 1 ga teng emas)

(3) ga qiymatlarni kuyamiz

$P(INT= TUSHMOKDA)=0,8 * 0,6 + 0,1 * 0,4=0,52$

$P(INT= TUSHMOKDAMAS)=1-P(INT= TUSHMOKDA)=1-0,52=0,48$

$P(STOCK= USMOKDA)$ ni topish uchun foydaoanuvchi tomonidan shartli extimollikning qiymatlari berilishi kerak.

$P(STOCK= USMOKDA /INT= TUSHMOKDA)=0,85$

$P(STOCK= USMOKDA /INT= TUSHMOKDAMAS)=0,1$

Unda (2) ga asosan

$P(STOCK= USMOKDA)=0,85*0,52+0,1 * 0,48=0,49$ yoki 49%

Extimollik ning barcha qiymatlariga ega bulib, foydalanuvchi birjada uzining siyosatini utkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. Казанцев Т. Искусственный интеллект и Машинное обучение. Основы программирования на Python / Т. Казанцев - «ЛитРес: Самиздат», 2020.

5. LeCun Y., Bengio Y., Hinton G. Deep learning //nature. – 2015. – Т. 521. – №. 7553. – С. 436-444.

6. Dhamodharan B. Beyond Traditional Methods: A Novel Approach to Anomaly Detection and Classification Using AI Techniques //Transactions on Latest Trends in Artificial Intelligence. – 2022. – Т. 3. – №. 3.

РАЗРАБОТКА РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО УСТРОЙСТВАМ КОНТРОЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫМИ ПЕРЕЕЗДАМИ И УПРАВЛЯЕМЫХ УЧАСТКОВ ДОРОГИ ПРИ ОПЕРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ ДВИЖЕНИЕМ ПОЕЗДОВ

Turdialiyev B.N., Muradullayev D.M.

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

begali.turdialiyev95@gmail.com

Переезды, расположенные в границах МДЛ с интенсивностью движения транспортных единиц свыше 3000 авт./сут. должны оборудоваться устройствами АПС, не смотря на низкую интенсивность движения поездов. Извещение на переезд о

приближении поезда может поступать от ССО, расположенной в пределах сигнальной зоны переезда (Рисунок 1), или по радиоканалу с локомотива. Переезды, расположенные в пределах станций, могут быть включены в центральные зависимости опорной станции.




Рисунок .1 Пример увязки ССО с устройствами АПС.

1. На время скрещения (обгона) на поезда участвующих в этом процессе накладывается ограничение скорости движения 20 км/ч.

2. На время скрещения (обгона) все маневры на станции должны быть прекращены.

Может возникнуть ситуация когда нужно пропустить по малодеятельная линия МДЛ поезд не оборудованный БЛК, бортовой СКЦП и аппаратурой цифровой радиосвязи («специальный» поезд). Это могут быть восстановительные и пожарные поезда, а также поезда, которые вынуждены ехать в объезд главным магистральном направлениям. В этом случае предполагается следующее:

1. На МДЛ допускается движение не более одного такого поезда. Следующий «специальный» поезд может въехать только после того как предыдущий поезд покинул МДЛ в полном составе (контролируется ДСП опорной станции). В этом случае, вся МДЛ превращается в один перегон.

2. Управление движением осуществляется только по голосовой связи командами ДСП опорной станции.

3. Создается отдельный «коридор» для пропуска такого поезда по МДЛ. Все остальные поезда в пределах МДЛ прекращают движение и освобождают главные станционные пути, что контролируется ДСП.

4. Движение восстанавливается только после того как «специальный» поезд покинет МДЛ в полном составе.

При использовании упрощенной СУДП на МДЛ отказы станционной и локомотивной аппаратуры ЖАТ и радиосвязи влияют на безопасность и бесперебойность процесса перевозок. В этом случае защитными являются следующие виды отказов:

- Отказ машинисту в доступе к системе управления локомотивом;
- Разряд источника питания вагонного комплекта бортовой системы контроля целостности поезда;
- Получение ложного контроля нарушения целостности поезда;

– Потеря или блокировка пакета данных при передаче;

– Выявленное искажение информации в принятом пакете данных;

Появление «слепой» зоны радио покрытия на участке управления. К опасным отказам следует отнести следующие события:

Указанные виды отказов необходимо учитывать при проектировании и эксплуатации упрощенной СУДП на МДЛ.

В качестве опорной станции (ОС) выбрана станция Кола, где устанавливается вычислительная аппаратура, два комплекта АРМ ДСП, АРМ ШН, каналообразующая аппаратура ВОЛП, радиоаппаратура DMR, антеннофидерное оборудование. На ОС устраивается т.н. пост мини-ДЦ и предусматривается 4 сменных ДСП, для оперативного управления движением поездов и управления станционными объектами промежуточных станций МДЛ.

Предлагаемые технические решения представлены в виде структурной схемы (Рисунок 2). На рисунке приняты следующие аббревиатуры: ШЦВС – шкаф центральной вычислительной системы; ШУС – шкаф устройств сопряжения, в составе с контроллерами безопасного сопряжения с объектами.

(КБСО); ШКГ – шкаф кроссовый грозозащитный; БС – базовая радиостанция стандарта DMR; СМК-30 – мульти сервисный мультиплексор.




Рисунок 2. Структурная схема внедрения разработанных технических решений.

Заключение

Разработка рекомендаций по устройствам контроля и управления железнодорожными переездами и управляемыми участками дороги при оперативном управлении движением поездов включает несколько ключевых аспектов.

Автоматизация систем управления

- **Автоматические шлагбаумы:** Установка современных автоматических систем, которые могут взаимодействовать с сигналами поездов и автоматически закрываться при приближении состава.

- **Системы мониторинга:** Использование камер и датчиков для контроля состояния переезда и его занятости.

Интеграция с системами управления движением

- **Централизованное управление:** Обеспечение интеграции устройств контроля с центральной диспетчерской службой для оперативного управления.

- **Дистанционное управление:** Возможность управления переездами из центрального пункта с использованием сетей связи.

Предупреждающие системы:

- **Сигнальные устройства:** Установка звуковых и визуальных предупреждающих сигналов для автомобилистов и пешеходов о приближающемся поезде.

- **Информационные табло:** Использование табло для отображения информации о времени прибытия и задержках поездов.

Обучение персонала:

- **Обучение и тренировки:** Регулярные тренировки для работников, ответственных за управление движением и контроль на переездах.

- **Симуляторы:** Использование симуляторов для подготовки к различным ситуациям, которые могут возникнуть на переездах.

Повышение безопасности:

- **Регулярные проверки и техобслуживание:** Организация плановых проверок и технического обслуживания оборудования для обеспечения его надлежащего функционирования.

- **Анализ инцидентов:** Ведение статистики по происшествиям на переездах и анализ причин для принятия мер по улучшению безопасности.

Эти рекомендации помогут улучшить безопасность и эффективность управления железнодорожными переездами и участками дороги, снизив риски и повысив оперативность реагирования на изменения в движении поездов.

Список литературы:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 9 августдаги ЎРҚ-706-сон қонуни. “Транспорт тўғриси” даги. <https://lex.uz/pdfs/5563039>.

2. Ананьева О.М. Синтез нелинейного приемника сигналов АЛСН в условиях действия аддитивной двухкомпонентной помехи. Информ.-керуючі системи на залізн трансп. Украина. Город Киев. № 6, 2015 г. С. 46–50

3. Арипов Н.М, Шакирова Ф.Ф. Темир йўл автоматикаси ва телемеханикаси код шакллантиргичнинг ривожланиши ва замонавий ҳолати. Academic research in educational sciences. Vol.2. №1, 2021. С.750-755. doi:10.24411/2181-1385-2021-00097.

4. Азизов А.Р., Аметова Э.К., Шакирова Ф.Ф. Садиков А.Н., Убайдуллаев С.К., Ваисов О. К. Техническая эффективность практического применения интегрального

микроспроцессорного формировавателя кодов в системах автоматики и телемеханики железнодорожного. Транспорта технические науки. № 6-3 (99), 2022 г. С. 20-23.

Б.Бабаев С.В., Кошевий С.В., Романчук В.Б. Додаткова обробка сигналів числового коду локомотивними пристроями АЛСН. Інфо-рмаційно-керуючі системи на залізничному трансп. Украина. Город Днепропетровск. № 3, 2011 г. С. 82–90.

Б.Бадер М.П. Электромагнитная совместимость. М.: УМЦ по образованию на ж.-д. транспорте. Россия. Москва. 2002 г.С.

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA NANOROTLARNING AVTONOM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Shukurov Erkin Sodiq o'g'li

SamDU Kattaqo'rg'on filiali "Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot" kafedrasida assistent

erkinjonshukurov1997@gmail.com

Hozirgi kunda nanorobotlar ilmiy-tadqiqot bosqichida yaratilmoqda. Ba'zi olimlar ba'zi nanorobot komponentlari allaqachon yaratilganligini ta'kidlamogda. Nanorobotlar molekula bilan taqqoslanadigan o'lchamdagi (10 nm dan kam) robotlar bo'lib, harakatlanish, ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish, dasturlarni bajarish funksiyalariga ega. Nanomateriallar va nanostrukturalarni yaratish, o'rnatish, modellashtirish jarayoni va to'g'ridan-to'g'ri nanorobotlarga bag'ishlangan bir qator xalqaro ilmiy konferensiyalar mavjud. Bugungi kunda nanorobotlarning ahamiyati turli sohalarda muhim hisoblanadi.

Tibbiyot, ekologiya, sanoat, informatika, ilmiy tadqiqotlar kabi sohalarda shular jumlasidan. Sun'iy intellekt yordamida nanorobotlarning avtonom faoliyatini tashkil qilish muommasi yechimlari yaqin kelajakda bu sohani rivojlanishi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Tibbiyot sohasida nanorobotlar maqsadli tarzda dori vositalarini bemor hujayralariga yetkazish uchun ishlatilishi mumkin. Bu jarayon dori vositasining samaradorligini oshiradi va yomon ta'sirlarni kamaytiradi. Nanorobotlar zararli xujayralarni aniqlash va yo'qotish, masalan, saraton hujayralarini maqsadli tarzda yo'q qilish uchun ishlatilishi, mikro jarrohlik jarayonlarida qo'llanilishi, masalan, qon tomirlarida tuzatishlar qilish uchun foydalanilishi mumkin.

Nanorobotlarni ishlab chiqish va ularga sun'iy intellektni integratsiya qilish texnologik jihatdan murakkab jarayon. Ularning o'lchami juda kichik bo'lgani uchun ularga yuqori darajadagi hisoblash imkoniyatlarini joylashtirish qiyin. Bugungi kunda nanorobotlarning energiya bilan ta'minlanishi katta muammo hisoblanadi. Hozircha ular uzoq vaqt mustaqil ishlashi uchun barqaror energiya manbalari topish qiyin bo'lib qolmoqda. Sun'iy intellekt algoritmlarining ishlashi uchun yuqori darajadagi hisoblash quvvati kerak, ammo nanorobotlar uchun bunday quvvat cheklangan. Nanorobotlar ichki faoliyatini to'liq nazorat qilish qiyin, bu esa ularda nosozlik yoki noto'g'ri qaror qabul qilish xavfini oshiradi. Nanorobotlarning inson organizmiga kiritilishi organizmning ularga qanday javob berishini oldindan bilishni talab qiladi. Ba'zi nanomateriallar organizm uchun zararli bo'lishi mumkin.

Nanorobotlarning inson tanasida sun'iy intellekt yordamida avtonom faoliyat yuritishidagi xavfsizlik masalalari: Nanorobotlarni tibbiyot sohasida qo'llashda nanorobotlar organizm ichida murakkab tibbiy vazifalarni bajarishi kerak. Ammo ularning noto'g'ri ishlashi yoki xato qaror qabul qilishi organizmda jiddiy zarar yetkazishi, hattoki hayot uchun xavf

tug'dirishi mumkin. Sun'iy intellekt yordamida nanorobotlar avtonom ravishda ishlaganda, ularni real vaqt rejimida nazorat qilish qiyinlashadi. Nanorobotlarning xavfsiz avtonom faoliyatini ta'minlash uchun texnologik va algoritmik chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak?

Nanorobotlarning noto'g'ri harakat qilishi yoki xavfli holatga duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldini olish va nazorat qilish uchun avtomatik ravishda o'z-o'zini to'xtatish va xavfsizlik choralari ko'rish algoritmini ishlab chiqish juda muhim.

O'z-o'zini to'xtatish va xavfsizlik choralari ko'rish algoritmini ishlash prinsipi.

1. Sensorlardan ma'lumot yig'ish - nanorobot sensorlari atrof-muhitdan va ichki parametrlar haqida ma'lumot yig'adi.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish - yig'ilgan ma'lumotlar xavf holatlarini aniqlash uchun tahlil qilinadi.

3. Xavf holatini aniqlash - agar xavf belgilangan chegaradan yuqori bo'lsa, nazorat jarayoni ushbu qarorga asoslangan holda o'z-o'zini to'xtatish jarayoniga o'tadi aks holda faoliyat davom ettiriladi.

4. O'z-o'zini to'xtatish - nanorobot avtomatik ravishda o'z harakatlarini to'xtatadi.

5. Xavfsizlik choralari ko'rish - xavf holati aniqlanganda, zarur chora-tadbirlar ko'riladi, jumladan, signal yuborish va o'z-o'zini diagnostika qilish.

6. Natijalarni tahlil qilish va qayta o'rganish - jarayon yakunida olingan natijalar tahlil qilinadi va o'rganilgan tajribalarga asoslanib, keyingi harakatlar rejalashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ю.Ю. Громов, О.Г. Иванова, В.В. Алексеев, М.П. Беляев, Д.П. Швец, А.И. Елисеев “ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ И ТЕХНОЛОГИИ” Тамбов Издательство ФГБОУ ВПО «ТГТУ» 2013

2. ОСТРОУХ А.В. “ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ” учебное пособие Красноярск: Научно-инновационный центр, 2015. – 110 с.

3. Суркова Н.Е. Методы проектирования информационных систем / Н.Е. Суркова, А.В. Остроух – М.: РосНОУ, 2004. – 144 с.– ISBN 5-89789-021-8.

4. Issitt, Micah L. “Robotics and artificial intelligence | Opinions throughout history” Grey House Publishing, [2020] | Includes bibliographical references and index. ISBN 9781642654813

5. К. Эрик Дрекслер “МАШИНЫ СОЗДАНИЯ” ISBN 0-385-19973-2

ELEKTR ENERGIYA TA'MINOT TIZIMLARI UCHUN MOSLASHUVCHAN BOSHQARUV USULINING ZARURATI

Muradov Muhammad Murod o'g'li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU doktortanti
muradov.muhamma1414@gmail.com

Bugungi kunda energiya ta'minoti tizimlarini samarali boshqarish global iqtisodiyot va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi va energetika resurslarining chegaralanganligi yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda

energiya ta'minot tizimlarini moslashuvchan boshqarish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu usullar tizimlarning barqarorligi, samaradorligi va qulayligini oshirishga qaratilgan.

Elektr energiya ta'minoti tizimlari.

Elektr energiya ta'minoti tizimi — bu elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash orqali iste'molchilarga yetkazib berish uchun mo'ljallangan murakkab va o'zaro bog'langan infrastruktura tizimidir. Bu tizimlar odatda markazlashgan energetika manbalaridan (masalan, elektr stansiyalari) boshlab, tarmoqlar orqali elektr energiyasini iste'molchiga yetkazib beradi. Elektr energiyasi sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va maishiy ehtiyojlar uchun zarurdir va bu tizimlar jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega. Xozirgi kunda bir qancha elektr energiya ta'minoti manbalari bor. Ular: Issiqlik elektr stansiyalari: Ko'mir, neft, gaz yoki yadro yoqilg'isini ishlatib elektr energiyasi ishlab chiqaradigan stansiyalar. Issiqlik energiyasini mexanik energiyaga, mexanik energiyani esa elektr energiyasiga aylantiradi(1a-rasm). Qayta tiklanuvchan energiya ta'minoti manbalari: Quyosh panellari, shamol geberatori, gidroenergiya va geotermal kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan stansiyalar. Bu manbalar atrof-muhitga zarar yetkazmasdan energiya ishlab chiqaradi(1b-rasm). Gidroelektr stansiyalar: Suv oqimining kuchi orqali mexanik energiya hosil qilinib, bu energiya elektr energiyasiga aylantiriladi(1c-rasm).



a)



b)



c)

1-rasm. Elektr energiya ta'minoti tizimlari: a) Issiqlik elektr stansiyalari b) Qayta tikanuvchan energiya ta'minoti manbalari c) Gidroelektr stansiyalar

Moslashuvchan boshqaruv zaruriyati.

Energiya ta'minot tizimlarini samarali boshqarish bugungi kunda muhim dolzarb masalalardan biridir. Elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortib borishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar energiya tizimlarining barqarorligini ta'minlash uchun yangi yondashuv-larni talab qiladi. Ushbu sharoitlarda moslashuvchan boshqaruv zaruriyati energiya tizimlarini yanada barqaror, samarali va ishonchli qilish imkonini beradi. Quyida moslashuvchan boshqaruv zaruriyati va uning omillari haqida ma'lumot berilgan.

Talabning o'zgaruvchanligi. Elektr energiyasiga bo'lgan talab kunning turli vaqtlarida, mavsumiy o'zgarishlar bilan bir qatorda joylashuvga qarab o'zgarib boradi. Masalan, yoz oylarida konditsionerlarning faol ishlashi tufayli elektr talabi keskin oshadi, qishda esa isitish tizimlari uchun talab kuchayadi. Ushbu o'zgarishlarga energiya ta'minoti tizimlari moslashishi lozim. Moslashuvchan boshqaruv elektr ta'minoti va talab o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun zarur bo'lib, u iste'molning dinamikasiga mos ravishda energiyani ishlab chiqarish va taqsimlashga imkon beradi.

Qayta tiklanuvchan energiya ta'minoti manbalarining rivojlanishi. Shamol generatori va quyosh panellari ishlab chiqaradigan elektr energiyasi tabiiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun ular o'zgaruvchan xarakterga ega. Masalan, quyosh energiyasi faqat kunduzi mavjud bo'lib, ob-havoga qarab o'zgaradi. Shamol energiyasi esa shamol tezligiga bog'liq ravishda ishlab chiqariladi. Ushbu uzluksiz bo'lmagan energiya manbalarining keng qo'llanilishi energiya tizimlarida qo'shimcha moslashuvchan boshqaruvni talab qiladi. Moslashuvchan boshqaruv tizimlari orqali energiya ta'minoti va ishlab chiqarishning dinamikasiga tezkorlik bilan javob berish mumkin bo'ladi.

Elektr ta'minotining ishonchliligini oshirish. Energiya tizimlarining ishonchliligi yirik iste'molchilar va sanoat uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Energiya ta'minotining uzilishi katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, moslashuvchan boshqaruv tizimlari energiya uzatish va ishlab chiqarishdagi kutilmagan o'zgarishlarga tezda javob berish imkonini beradi. Masalan, energiya taqsimlash tizimlarida sodir bo'ladigan avariya yoki resurs yetishmovchiligi holatlarida muammolarni bartaraf etish uchun moslashuvchan tizimlar muhim hisoblanadi.

Xulosa

Elektr energiya ta'minoti manbalarini moslashuvchan boshqarishning turli yondashuvlari energiya tizimlarini samarali va barqaror boshqarish imkonini beradi. Talabni bashorat qilish, smart grid texnologiyalari, energiya saqlash tizimlari va sun'iy intellektning qo'llanilishi energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilishdagi uzilishlarni bartaraf etishga yordam beradi. Moslashuvchan boshqaruv tizimi qayta tiklanadigan energiya manbalarining bilan iste'molchi talabining integratsiyasi tizimining kelajakdagi barqarorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaushik, E.; Prakash, V.; Mahela, O.P.; Khan, B.; El-Shahat, A.; Abdelaziz, A.Y. Comprehensive Overview of Power System Flexibility during the Scenario of High Penetration of Renewable Energy in Utility Grid. *Energies* 2022.
2. Vigna, I.; Perneti.R.; Pasut.W.; Lollini.R. New domain for promoting energy efficiency: Energy Flexible Building Cluster. *Sustain. Cities Soc.* 2018, 38, 526–533.

3. O'.K.Matyokubov, M.M.Muradov Mobil aloqa tayanch stansiyasi elektr ta'minot tizimlaridagi dolzarb muammolar "Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari", Jizzax, 2024, 79-83 b.

AUTOMATED MONITORING OF OVERHEAD POWER TRANSMISSION LINES BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Alisher Khayrullaev

Senior lecturer, TUIT named after Muhammad al- Khwarizmi

aalisher02011993@gmail.com

Overhead power transmission lines play a critical role in modern electrical grids, carrying high-voltage electricity over long distances to supply energy to industries, businesses, and homes. Ensuring the reliability and stability of these transmission lines is essential for uninterrupted power supply. However, overhead lines are exposed to various environmental factors, such as extreme weather, high winds, and wildlife interference, which can cause faults like conductor breakage, short circuits, and abnormal heating. These faults, if not detected in time, can lead to severe power outages, infrastructure damage, and increased maintenance costs [1].

Traditional monitoring methods for power transmission lines typically involve manual inspections, SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) systems, and basic sensor networks. While these approaches have served the industry for decades, they come with significant limitations. These limitations result in costly delays in fault diagnosis and repair, increasing the risk of large-scale power failures. In response to these challenges, artificial intelligence (AI) has emerged as a promising solution for enhancing power transmission line monitoring. AI-based systems, equipped with machine learning (ML) and deep learning (DL) algorithms are capable of processing vast amounts of sensor data in real-time, detecting anomalies, and predicting potential faults before they occur. AI's ability to continuously learn from historical data allows for the development of predictive maintenance models that can reduce downtime and improve the overall reliability of power grids. The proposed AI-based approach offers significant improvements in accuracy, scalability, and efficiency, making it a viable solution for modern power infrastructure [2].




Fig.1. Proposed AI-based monitoring model for overhead power transmission line

The proposed AI-based monitoring system offers several key advantages over traditional methods:

- Real-time Fault Detection: The system can detect faults in real time, enabling rapid response to prevent outages.
- Predictive Maintenance: By forecasting potential faults before they occur, the system reduces downtime and lowers maintenance costs.
- Scalability: The modular architecture allows the system to be deployed across large power grids, making it suitable for both small-scale and large-scale applications.
- Energy Efficiency: The energy-efficient data transmission protocol ensures that the sensor nodes can operate for extended periods without requiring frequent maintenance.
- Adaptive Learning: The AI models continuously learn from new data, improving their accuracy and adaptability over time.

The system continuously collects data from sensors installed along the transmission lines. The measurements include [3]:

$$D = \{U_i(t), I_i(t), T_i(t), F_i(t), \}_{i=1}^n \quad (1)$$

where $U_i(t)$ - voltage at time t from sensor i , $I_i(t)$ - current at time t from sensor i , $T_i(t)$ - temperature at time t from sensor i , $F_i(t)$ - tension at time t from sensor i , n - total number of sensors. Machine learning models, such as neural networks, are used to classify the system's status based on the extracted features. The objective function of the AI model can be defined as:

$$\hat{y} = f(F; \theta) \quad (2)$$

where \hat{y} - predicted state (normal or abnormal), F - feature vector (e.g., average voltage, temperature changes), θ - Model parameters (weights and biases). The model's output determines whether an anomaly is detected. A decision rule can be set based on a threshold: if $\hat{y} \geq \tau$, then alert, where: τ - threshold value for alert generation. The results of the experiments and evaluations demonstrate that the proposed AI-based monitoring system offers substantial improvements over existing methods. Its ability to detect faults in real-time, predict potential issues, and operate efficiently in large-scale environments makes it a viable solution for the future of overhead power transmission line monitoring [4]. The system not only enhances operational reliability but also reduces downtime and maintenance costs, offering significant long-term benefits for power grid operators.

References

1. Davronbekov, D.A.; Khayrullaev, A.F. Models and algorithms for remote monitoring of the condition of overhead power lines. Bull. TUIT Manag. Commun. Technol. 2022, 2, 2181-1083.
2. Wang, Yamin & Sai, Pengfei. (2024). Design and Optimization of An Intelligent Monitoring System for Overhead Lines Based on Common Information Model. IEEE Access. PP. 1-1. 10.1109/ACCESS.2024.3368702.
3. Maskeliūnas, R.; Pomarnacki, R.; Khang Huynh, V.; Damaševičius, R.; Plonis, D. Power Line Monitoring through Data Integrity Analysis with Q-Learning Based Data Analysis Network. Remote Sens 2023, 15, 194.

4. Khujamatov, H.; Davronbekov, D.; Khayrullaev, A.; Abdullaev, M.; Mukhiddinov, M.; Cho, J. ERIRMS Evaluation of the Reliability of IoT-Aided Remote Monitoring Systems of Low-Voltage Overhead Transmission Lines. *Sensors* **2024**, *24*, 5970. <https://doi.org/10.3390/s24185970>

GIDROSIKLON QURILMASIDA ZARRACHALARNI AJRATIB OLISH JARAYONINI MATLAB DASTURIDA MODELASHTIRISH

Jabborov Alisher Oltiboyevich
Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o'qituvchisi
alisheroltiboyevich@gmail.com

Gidrosiklonlarning ishlash samaradorligini oshirish uchun ularning matematik modellarini ishlab chiqish va dasturiy ta'minot orqali simulyatsiya qilish juda muhimdir. Gidrosiklonning matematik modeli gidrodinamika tenglamalari va sentrifugal kuchlarni hisoblashga asoslanadi. Modellashtirish jarayonida zarrachalarning suyuqlikdan ajralishini hisoblash uchun Navier-Stokes tenglamasi va sentrifugal kuchlar ishlatiladi.


Ajralish samaradorligi quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$\eta = 1 - \exp\left(-\frac{d_p^2 \cdot \rho_p \cdot u}{18 \cdot \mu}\right)$$

bu yerda: η -ajralish samaradorligi, d_p^2 -zarracha diametri, ρ_p - zarrachalarning zichligi, u -suyuqlikning tangensial tezligi, μ -suyuqlikning qovushqoqligi.

Ajralish samaradorligi zarrachalar diametri, ularning zichligi, suyuqlikning tangensial tezligi va qovushqoqligiga bog'liq. MATLAB dasturida gidrosiklon jarayonini modellashtirish uchun quyidagi asosiy zarrachalar diametri, zichligi, suyuqlik qovushqoqligi, kirish tezligi va boshqa fizik parametrlar kiritiladi. Ajralish samaradorligi yuqoridagi matematik modelga asoslangan holda hisoblanadi.


1-rasmda MATLAB dasturida gidrosiklon ishlashini modellashtiruvchi kod keltirilgan.



```
>> % Gidrosiklon parametrlarini aniqlash
Dp = 1e-6; % Zarrachalar diametri (metr)
rho_p = 2650; % Zarrachalar zichligi (kg/m^3)
mu = 1e-3; % Suyuqlik yopishqoqligi (Pa.s)
u = 10; % Suyuqlik tangensial tezligi (m/s)
% Ajratish samaradorligini hisoblash
eta = 1 - exp(-(Dp^2 * rho_p * u) / (18 * mu));
% Natijani chiqarish
fprintf('Ajratish samaradorligi: %.2f%%\n', eta * 100);
% Grafik tasvirlash
Dp_range = linspace(1e-6, 1e-4, 100);
eta_range = 1 - exp(-(Dp_range.^2 * rho_p * u) / (18 * mu));
figure;
plot(Dp_range * 1e6, eta_range * 100, 'b', 'LineWidth', 2);
xlabel('Zarracha diametri (mikrometr)');
ylabel('Ajratish samaradorligi (%)');
title('Gidrosiklon ajratish samaradorligi');
grid on;
Ajratish samaradorligi: 0.00%
>> |
```

1-rasm. Gidrosiklon qurilmasini Matlab dasturida modellashtirish buyruqlar ketma ketligi

Matlab dasturi buruq oynasiga kiritilgan ma'lumotlarni quyidagicha tavsiflaymiz: D_p - Zarracha diametri zarrachalar ρ –zichligi suyuqlik, μ -qovushqoqlik, u -suyuqlikning tangensial tezligi kiritiladi. Grafik tahlil: Olingan natijalar zarracha diametrining o'zgarishiga qarab ajralish samaradorligi qanday o'zgarishini ko'rsatadi (2-rasm) .



2-rasm. Gidrosiklon qurilmasining zarrachalarni ajratish samaradorligining zarracha diametriga bog'liq grafigi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, MATLAB yordamida gidrosiklonni modellashtirish natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Zarracha diametri: Katta diametrli zarrachalar osonroq ajraladi. 50 mikrometrdan katta zarrachalar uchun ajralish samaradorligi 80-90% ga yetadi. Kichik zarrachalar esa oqim bilan birga chiqib ketishi mumkin.

2. Suyuqlik tezligi: Tezlik oshishi bilan tsentrifugal kuch kuchayib, ajralish samaradorligi oshadi. Tezligi 10 m/s bo'lganda katta zarrachalar deyarli to'liq ajraladi. Biroq, yuqori tezlikda kichik zarrachalar markaziy oqim bilan chiqib ketishi ehtimoli ortadi.

3. Qovushqoqlik: Kam qovushqoq suyuqliklarda ajralish samaradorligi yuqori bo'lib, qovushqoqlik oshganda samaradorlik pasayadi.

Grafik tahlil natijalarida zarracha diametri, suyuqlik tezligi va qovushqoqlikning ajralish samaradorligiga ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Optimal sharoitda gidrosiklonning samaradorligi 90% va undan yuqoriga yetishi mumkin. Modellashtirish natijalari qurilma parametrlarini optimallashtirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Косинцев, В.И. Основы проектирования химических производств:учебник для вузов / В.И. Косинцев, А.И. Михайличенко, Н.С. Крашенинникова, В.М. Миронов, В.М. Сутягин. - М.: ИКЦ «Академкнига». -2010.-371 с.

2. Erkayev A.U Kaliy Xlorid Texnologiyasi, Toshkent, — Muxarrir — nashrioti 2010 y, 137 – 145 bet.

3. Т. D adajonov, М. Muxitdinov Matlab asoslari darslik Toshkent Fan nashriyoti 2008.

4. Дьяконов В. П. MATLAB. Полный самоучитель. – М.: ДМК Пресс, 2012. – 768 с.: ил. ISBN 978-5-94074-652-2

5. Лазарев Ю. Моделирование процессов и систем в MATLAB: Учебный курс. – СПб.: Питер; Киев: Изд. группа BHV, 2005

AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA KOMPYUTERLI MODELLASHTIRISHNI QO'LLASH

Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Kirish.

Avtomatlashtirish tizimlarida kompyuterli modellashtirish texnologik jarayonlarni aniq nazorat qilish va boshqarish uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi. Kompyuterli modellashtirish yordamida turli jarayonlarning turli sharoitlar ostida qanday ishlashini oldindan tahlil qilish, shuningdek, texnologik o'zgarishlar ta'sirini baholash imkoniyatlari yaratiladi. Ushbu maqola avtomatlashtirish tizimlarida kompyuterli modellashtirishning qo'llanilishi, metodologiyalari va samaradorligi bo'yicha ilmiy tahlillarga bag'ishlangan.

Materiallar va usullar.

Tadqiqotda kompyuterli modellashtirish texnologiyalari asosiy vosita sifatida qo'llanildi. Dastlabki bosqichda avtomatlashtirish tizimlari uchun turli matematik modellar ishlab chiqildi, keyin esa ular turli dasturiy muhitlarda kompyuter simulyatsiyalari orqali tekshirildi. MATLAB, Simulink, va Python kabi dasturlar modellashtirish uchun tanlandi. Modellar texnologik jarayonlarning parametrlariga mos ravishda sozlandi va jarayonlarning turli ish rejimlarida qanday ishlashi tekshirildi.

Kompyuter yordamida loyihalash - bu jarayonni optimallashtirish va avtomatlashtirish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanadigan loyihani ishlab chiqish jarayonidir. Loyihalashda chuqur ilmiy bilim, ijodiy izlanishlarga hamda ma'lum sohada to'plangan tajribalarga tayangan holda ish olib boriladi. Ya'ni, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarini muhandislik tarmoqlarida qoida tariqasida quyidagi tizimlar ajralib turadi: ∞ muhandislik loyihalash tizimi; ∞ funksional loyihalash tizimi; ∞ texnologik jarayonlarni loyihalash tizimi [1].

Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompyuterli modellashtirish yordamida avtomatlashtirilgan jarayonlarni nazorat qilishda ko'plab afzalliklar mavjud. Quyida asosiy natijalar keltirilgan:

Jarayonlarni tezkor simulyatsiya qilish: Kompyuterli modellashtirish texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida jarayonlarning turli parametrlarini tahlil qilish va samaradorlikni oshirishga erishildi.

Optimal parametrlarni aniqlash: Kompyuter simulyatsiyalari orqali tizimlar uchun optimal boshqaruv parametrlarini aniqlash imkoniyati yaratildi, bu esa texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirdi.

Resurslarni tejash: Modellashtirish natijalari texnologik jarayonlar uchun energiya va materiallarni tejamkorlik bilan ishlatish imkoniyatini yaratdi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, avtomatlashtirilgan tizimlarda kompyuterli modellashtirish texnologiyalari qo'llanilishi orqali resurslarni 20% ga tejashga erishildi, jarayonning xavfsizligi oshirildi va nazorat jarayonlari yanada samarali bo'ldi.

Munozara.

Kompyuterli modellashtirish avtomatlashtirish tizimlarini loyihalashda va nazorat qilishda kuchli vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida jarayonlar aniq va tezkor boshqarilishi, optimal parametrlar aniqlanishi va jarayonlarning xavfsizligi ta'minlanishi mumkin. Ayniqsa, katta va murakkab tizimlar uchun kompyuterli modellashtirish real holatlarda sinovdan o'tkazish bilan solishtirganda vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi.

Biroq, kompyuterli modellashtirishning ham o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Masalan, modellarni real sharoitlarga moslashtirishda tizimning barcha omillarini aniq aks ettirish zarur, bu esa ko'p hollarda matematik modellarning murakkabligini oshiradi. Shuningdek, moddiy va dasturiy resurslarni yetarli darajada ta'minlash ham kompyuterli modellashtirishning asosiy talablaridan biridir.

Kelajakda bu texnologiyaning rivojlanishi sun'iy intellekt va mashina o'rganish usullari bilan birga qo'llanilishi orqali yangi imkoniyatlarni taqdim etishi kutilmoqda.

Xulosa.

Avtomatlashtirish tizimlarida kompyuterli modellashtirish texnologiyalari jarayonlarni nazorat qilish, optimallashtirish va xavfsizlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompyuterli modellashtirish texnologiyalari texnologik jarayonlarni samarali boshqarish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiya yordamida jarayonning har bir bosqichi oldindan sinovdan o'tkazilishi va nazorat qilinishi, bu esa energiya va resurslarni tejash imkonini beradi. Tajriba davomida bu texnologiyaning samaradorligi isbotlandi va kelajakda yanada kengroq miqyosda qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Normirzayev Abduqayum Raximberdiyev, Ro'zmetov Ilxom Qodirovich. Avtomatlashtirilgan vositalar va boshqaruv tizimlarini loyihalash. Scientific journal of Construction and Education ISSN 2181-3779, volume 3, Issue 4 2024.
2. Sokolova I. V. Metody avtomatizatsii proyektirovaniya sredstv upravleniya. — SPb.: Izdatelstvo Politehnicheskogo universiteta, 2017. — 192 s.

AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA RAQAMLASHTIRISHNI QO'LLASH

Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Kirish.

Raqamlashtirish zamonaviy sanoat jarayonlarida muhim omil bo'lib, texnologiyalarni avtomatlashtirish bilan birga qo'llanilishi yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Raqamlashtirish texnologiyalari sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab sohalarda jarayonlarning samaradorligini oshirish va inson aralashuvisiz boshqarish imkonini beradi. Ushbu maqola avtomatlashtirish tizimlarida raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llash usullari va ularning amaliyotdagi ahamiyati haqida ilmiy tahlillarni o'z ichiga oladi.

Materiallar va usullar.

Tadqiqotda raqamlashtirish jarayonlarining avtomatlashtirish tizimlaridagi o'rni o'rganildi. Turli tarmoqlarda raqamli texnologiyalarning avtomatlashtirish jarayonlariga integratsiyasi va samaradorlikka ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotda SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) tizimlari, IoT (Internet of Things), bulutli hisoblash va sun'iy intellekt

texnologiyalari o'rganildi. Raqamlashtirish texnologiyalarini amaliyotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlar MATLAB va Python dasturlari yordamida simulyatsiya qilindi.

Boshqarish vositalari va tizimlarini avtomatlashtirilgan loyihalash zamonaviy texnologik tizimlarni rivojlantirishning muhim bosqichidir. Zamonaviy dasturiy mahsulotlar va texnik vositalardan foydalanish tufayli sanoat avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini loyihalash hamda yaratish vaqtini qisqartirish, ularning ishlash aniqligi, ishonchliligini oshirish mumkin bo'ldi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarni kompyuter yordamida loyihalashning asosiy afzalliklaridan biri ishlab chiqarish jarayonlarida haqiqiy o'rnatishdan oldin tizimni bosqichmabosqich konfiguratsiya qilish hamda uning tarkibiy qismlarini integratsiyalash hisoblanadi. Bu komponentlarning noto'g'ri ulanishi bilan bog'liq xatolar sonini kamaytiradi, shuningdek, qurilayotgan tizimni iloji boricha optimallashtirishga imkon beradi [1].

Natijalar.

Raqamlashtirish texnologiyalarini avtomatlashtirish tizimlariga qo'llash natijalariga ko'ra, quyidagi asosiy natijalar keltirilgan:

Tezkor boshqaruv: Raqamlashtirish texnologiyalari yordamida jarayonlar real vaqt rejimida boshqarilishi va jarayonlarning optimallashtirilgan rejimlarda ishlashi kuzatildi. IoT texnologiyalari sensorlar orqali aniq ma'lumotlarni yig'ish imkonini berdi.

Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash: Bulutli hisoblash texnologiyalari yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali saqlash va tahlil qilish imkoni yaratildi. Buning natijasida turli jarayonlarni optimallashtirish imkoniyati kengaydi.

Texnologik jarayonlarning xavfsizligi va ishonchliligi: SCADA tizimlari yordamida texnologik jarayonlarni xavfsiz va ishonchli boshqarish imkoniyatlari aniqlandi. Jarayonlar masofadan boshqarilishi ham mumkin bo'ldi, bu esa xavfli hududlarda inson ishtirokisiz ishlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamlashtirish texnologiyalarini avtomatlashtirishda qo'llash orqali jarayonlarning samaradorligi 25% ga oshdi, energiya sarfi esa 15% ga kamaydi.

Munozara.

Avtomatlashtirish tizimlarida raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llash jarayonlarni boshqarishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida sanoat va qishloq xo'jaligidagi ko'plab murakkab jarayonlar tezkor va samarali boshqarilishi mumkin. Ayniqsa, SCADA va IoT texnologiyalari real vaqt ma'lumotlari asosida tizimlar uchun optimal parametrlarni ta'minladi.

Biroq, raqamlashtirish texnologiyalarining joriy qilinishi ba'zi muammolar bilan ham yuzlashishi mumkin, masalan, kiberxavfsizlik masalalari va yangi texnologiyalarga moslashish zarurati. Kelajakda raqamlashtirishni yanada kengroq qo'llash sun'iy intellekt bilan integratsiyalash orqali amalga oshirilishi kutilmoqda, bu esa avtomatlashtirish tizimlarini yanada takomillashtiradi.

Xulosa.

Avtomatlashtirish tizimlarida raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llash samaradorlikni oshirish, energiya tejamkorligi va xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish

jarayonlari tezkor va aniq boshqarilishi, bu esa sanoat va boshqa sohalarda jarayonlarni yanada samarali boshqarishga olib keladi. Texnologiyalarni integratsiyalash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslarni tejash va jarayonlarning xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lebedev D. V. Avtomatizatsiya proyektirovaniya sistem upravleniya na baze PLMplatform // Elektronika i mikroelektronika. — 2014. — № 5. — S. 57–61.
2. Ro'zmetov I.Q "Transport vositalarining avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari" fanidan darslik. "Khwarezm travel" nashriyoti, 2023 yil. 503 b.

AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Kirish.

Avtomatlashtirish tizimlarida matematik modellashtirish texnologik jarayonlarni nazorat qilish va optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Matematik modellar yordamida jarayonning turli holatlari oldindan tahlil qilinadi, bu esa jarayonni boshqarishni samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqola avtomatlashtirish tizimlarida matematik modellashtirishning ahamiyati, qo'llanilish sohalari va ularning rivojlanish istiqbollari bag'ishlangan.

Hozirgi vaqtda faoliyatning turli sohalarda avtomatlashtirish ko'proq talabga ega va tobora ommalashib bormoqda. Xususan, boshqaruv vositalari va tizimlarini loyihalashni avtomatlashtirish zamonamizning dolzarb mavzularidan biridir. Kompyuter dasturlari hamda maxsus texnologiyalardan foydalanish tufayli bugungi kunda murakkab boshqaruv tizimlarini yaratish ancha samarali va qulay jarayonga aylandi [1].

Materiallar va usullar.

Ushbu tadqiqotda matematik modellashtirishning nazariy asoslari va amaliy qo'llanish metodologiyalari ko'rib chiqildi. Model yaratishning asosiy bosqichlari, jumladan, tizimning fizik va texnologik xarakteristikalarini asosida matematik tenglamalar tuzish va modellarni loyihalash bo'yicha adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda real sanoat tizimlari misolida avtomatlashtirish jarayonlariga matematik modellashtirishning samaradorligi o'rganildi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, matematik modellar avtomatlashtirish jarayonlarini muvaffaqiyatli optimallashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Matematik modellar quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

Jarayonni simulyatsiya qilish: Avtomatlashtirish tizimlarida turli parametrlar bo'yicha jarayonni model qilish, jarayonning istalgan holatini tahlil qilish va bu holatlarni nazorat qilish uchun yechimlar ishlab chiqish.

Optimallashtirish: Modellashtirish jarayonida turli texnologik cheklovlar va shartlar e'tiborga olingan holda, samaradorlikni oshirish uchun optimallashtirish usullari qo'llanilishi mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlash: Matematik modellar yordamida xavfli holatlarni oldindan tahlil qilib, xavfsizlik choralari kiritish mumkin.

Tadqiqotda o'rganilgan sanoat tizimlarida matematik modellashtirish orqali jarayonning samaradorligi 15% ga oshirilgani qayd etildi. Shuningdek, texnologik jarayonlar uchun matematik modellar ishlatilishi operatsion vaqtni qisqartirishga va yo'qotishlarni kamaytirishga olib keldi.

Munozara.

Matematik modellashtirish avtomatlashtirish tizimlarini loyihalash va boshqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jarayonni aniq tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyati jarayonning samaradorligini oshirish bilan birga, energetik resurslar va vaqtni tejash imkonini ham yaratadi. Modellashtirishning hozirgi zamonaviy yo'nalishlari esa avtomatlashtirishning raqamli ekotizimiga integratsiya qilinishi bilan bog'liq. Sun'iy intellekt, mashina o'rganishi va katta ma'lumotlar texnologiyalarining rivojlanishi bilan matematik modellashtirish yanada kompleks va aniq yechimlarni taklif etishi mumkin.

Modellarni yanada kengroq va amaliy ko'lamda qo'llash uchun sanoat korxonalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, matematik modellashtirish texnologiyalari rivojlanishi ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimlarida ham muhim o'rin egallashi kerak.

Xulosa.

Avtomatlashtirish tizimlarida matematik modellashtirish jarayonning samaradorligini oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va optimallashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, matematik modellar asosida jarayonni oldindan tahlil qilish va boshqarish samarali natijalarga olib keladi. Bu esa sanoat jarayonlarini yanada mukammal qilish, energiya va resurslardan tejamkor foydalanish imkoniyatini beradi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati davomida matematik modellarni takomillashtirish va sanoat jarayonlariga joriy qilish avtomatlashtirish sohasida kelajakda muhim natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Normirzayev Abduqayum Raximberdiyev, Ro'zmetov Ilxom Qodirovich. Avtomatlashtirilgan vositalar va boshqaruv tizimlarini loyihalash. Scientific journal of Construction and Education ISSN 2181-3779, volume 3, Issue 4 2024.
2. Petrov V. A. Avtomatizatsiya proyektirovaniya sistem upravleniya. — M.: Izdatelstvo «Kurs», 2018. — 256 s.
3. Bogdanov D. A. Informatsionnyye texnologii v proyektirovaniy avtomatizirovannyx sistem upravleniya // Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta imeni N. E. Baumana. Seriya «Estestvenniye nauki». — 2016. — № 2. — S. 23-31.

INTEGRALLASHGAN INTELLEKTUAL AXBOROT-KUTUBXONA TIZIMI

F.A.Bekkamov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

bfayzi93@gmail.com

Axborot texnologiyalarning rivojlanishi natijasida kutubxonalarda ham bir qancha xizmat ko'rsatish jarayonlari raqamlashtirilmogda. Kutubxonalarda kitobxonlarga xizmat ko'rsatish an'anaviy hamda noan'anaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Hozirda dunyo miqyosida kitobxonlarga xizmat ko'rsatishni sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki sun'iy intellekt texnologiyalarini


qo'llash orqali kutubxonalarda kitob olish hamda berish, kataloglashtirish, kerakli resurslarni izlab topish kabi vazifalarni inson aralashuvisiz amalga oshirish mumkin.

Sun'iy intellekt asosidagi axborot tizimi ham foydalanuvchi xususiyati hamda qidiruv tarixiga tayangan holda foydalanuvchilarga kerakli resurslarni taqdim etadi. Shuningdek ushbu tizimda sun'iy intellekt elementlari hisoblangan o'zbek tilidagi ovoqli qidiruvni amalga oshirilishi, intellektual qidiruv jarayoni, foydalanuvchilar ehtiyojlari asosida axborotlarni taqdim etish, biometrik identifikatsiya jarayoni, resurslarni baholash, resurslardan foydalanish statistikasi hamda resurslarni qaysi hududdagi kutubxonadagi mavjud ekanligini aniqlash kabi bir qancha intellektual elementlari mavjud.

Ushbu tizimda sun'iy intellekt texnologiyalarini samarali qo'llash orqali resurs qidiruvi jarayonini audio shaklda amalga oshirish mumkin. Buning uchun kutubxonalar kerakli texnologiyalar bilan jihozlanishi kerak. Foydalanuvchi kutubxonaga tashrif buyuradi hamda o'zi uchun kerakli resursni qidirishda audio qidiruvdan foydalanadi. Ushbu qidiruvda barcha ishni inson aralashuvisiz tizim tomonidan amalga oshiriladi [1, 2].

Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida kutubxonalarda foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlaridan kelib chiqib resurslarni taqdim etish masalalarini ham yechish mumkin. Axborot ehtiyojlaridan kelib chiqib resurslarni taqdim etish natijasida foydalanuvchilar aynan o'zlari uchun kerakli resurslarga ega bo'ladilar. Bunda kitobxonalar kutubxona tizimidan ro'yxatdan o'tadilar hamda o'zlarining bir qancha shaxsiy ma'lumotlarini, qiziqishlarini, afzalliklarini taqdim etadilar. Keyin kutubxona tizimi kitobxonning ma'lumotlari asosida unga resurslarni taqdim etadi [3, 4].

Shuningdek foydalanuvchilarning qidiruvi tarixi orqali ham axborot ehtiyojlariga resurslarni taqdim etish mumkin. Ushbu smarttuit.uz tizimining funktsionl tuzilmasi quyidagicha:



1-rasm. Integrallashgan intellektual tizimning funktsional tuzilmasi

Kutubxonalarda resurslarni matnini intellektual tahlil qilish yordamida ham foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishni samarali yo'lga qo'yish mumkin. Ochiq tizimdagi kutubxonalar hamda korporativ axborot-kutubxona tizimlarida resurslarni qidirishda tizimlar natija sifatida bibliografik yozuvlarni taqdim etadi. Bibliografik yozuvlarni taqdim

etish foydalanuvchilarning so'roviga to'liq javob bera olmaydi. Shuning uchun kutubxonalarda resurslarni intellektual tahlil qilishni amalga oshirish imkoniyatlarini yo'lga qo'yish lozim. Intellektual tahlil qilish sun'iy intellekt texnologiyasi hisoblanadi hamda tizim inson kabi fikrlab, kitobxonlarga tegishli resurslarni qidirishda, qaror qabul qilishda, tahlil qilishda yordam beradi [5].

Foydalanuvchilarning kutubxonalardan foydalanish darajasini oshirish uchun resurslarni qaysi kutubxonada bor ekanligini aniqlash, ya'ni resursning qaysi kutubxonada joylashganligi hamda kutubxona manzilini xaritada ko'rsatish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki kitoblar elektron shaklda emas balki an'anviy shaklda kutubxonalarda saqlanadi. Bunda kitobxonlar kutubxonaga borishdan oldin axborot ehtiyojiga mos resursni qaysi kutubxonalarda mavjud ekanligini aniqlab olishlari mumkin. Bu orqali kitobxonlar vaqtlarini tejashlari hamda sarf-xarajatlarini kamaytirishlari mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

[1] Моисеева Н. А. Технологии искусственного интеллекта в информационно-библиотечных системах // Научные и технические библиотеки. 2024. № 5. С. 85–101. <https://doi.org/10.33186/1027-3689-2024-5-85-101>

[2] Marat Rakhmatullaev, Sherbek Normatov, Fayzi Bekkamov. [Fuzzy relations based intelligent information retrieval for digital library users](#). ENVIRONMENT. TECHNOLOGIES. RESOURCES. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. Vol.II. June 15-16. 2023, Rezekne, Rezekne Academy of Technologies, Latvia.. p. 89-92. <https://doi.org/10.17770/etr2023vol2.7218>

[3] M. Ali, Salaman Bin Naeem, R. Bhatti, Artificial intelligence tools and perspectives of university librarians: an overview, Springer 2020

[4] Abid Hussain, Use of artificial intelligence in the library services: prospects and challenges, Library Hi Tech News, 2023

[5] F.A.Bekkamov, Tavsiya etish tizimlari uchun foydalanuvchi profilini yaratish, modellashtirish va shaxsiylashtirish, Muhammad al-Xorazmiy avlodlari jurnali, №3(29), 2024

FOYDALANUVCHILARNING AXBOROT EHTIYOJLARINI MODELASHTIRISH

F.A.Bekkamov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

bfayzi93@gmail.com


Axborotlar hajmining muntazam ravishda ortib borishi natijasida foydalanuvchilar o'zlari uchun kerakli olishda bir qancha bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Fan va ta'limga oid axborot tizimlarida foydalanuvchilarning qiziqishlari, dinamik ma'lumotlari hamda demografik ma'lumotlari hisobga olinishi kerak. Shunda foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlari aniq bashorat qilinadi va o'zlari uchun kerakli axborotlarga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtda axborot tizimlarida ma'lumotlar hajmining ortib ketishi natijasida foydalanuvchilarda ortiqcha ma'lumot yuklanish paydo bo'lmoqda. Bu esa foydalanuvchilarning ma'lumot ehtiyojlariga mos axborotlarni olishlarida ko'p vaqt yo'qotishlariga sabab bo'lmoqda hamda ma'lumotlarni topishda foydalanuvchi profiliga mos shaxsiylashtirish bo'yicha yondashuvlarga bo'lgan talablarni keltirib chiqarmoqda. Shaxsiylashtirish uchun dastlab foydalanuvchi profillarini yaratish va modellashtirish kerak

bo'ladi. Odatda foydalanuvchi profillari, foydalanuvchi ma'lumotlarini modellashtirish hamda shaxsiylashtirish uchun ishlatiladi. Foydalanuvchi profillarida, insonning shaxsiy ma'lumotlari, demografik ma'lumotlari (ism, yosh, davlati, jinsi, tili, kasbi, ilmiy ma'lumoti va hokazo) hamda uning qiziqishlari, afzalliklari o'z aksini topadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida fan va ta'limga oid axborot resurslarni real vaqt ichida foydalanuvchilarga qulay shaklda taqdim etish, kerakli axborotlarga o'tishlarni soddalashtirish hamda foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlariga muvofiq tarzda resurslarni taqdim etish muhim hisoblanadi. Shuningdek axborot tizimlarida intellektual, sematik aloqalar, lingvistik qoidalar asosida axborotlarni izlash hamda qayta ishlash texnologiyalarini yaratish, takomillashtirish orqali xizmatlarni taqdim etish foydalanuvchilar uchun bir qator qulayliklar tug'diradi. Bugungi kunda ishlab chiqilayotgan axborot tizimlari oddiy hisoblash ishlari uchun emas, balki ma'lumotlarni avtomatik izlash hamda tanlash masalalarini hal qilishga mo'ljallangan [1, 2, 3, 5].

Fan va ta'limga oid axborot tizimlarida qidiruv samaradorligini oshirish uchun foydalanuvchi profili ma'lumotlarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Jumladan whichbook.com, whatshouldireadnext.com, magiquiz.com, bookriot.com kabi axborot tizimlari foydalanuvchilarning xususiyatidan kelib chiqib, axborot ehtiyojlarini baholaydi hamda unga mos resurslarni tavsiya etadi. Ushbu axborot tizimlarida foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tishi, kitoblarni ko'rish, ularni baholashi, o'z sharhlarini yozishi, boshqalarga tavsiya etishi mumkin. Tizim ushbu foydalanuvchilarning axborotlari ehtiyojlariga tayangan holda tavsiyalar beradi [4].



1-rasm. Foydalanuvchilar toifasini aniqlash uchun IDEF modeli.

Foydalanuvchi profili ma'lumotlari uning qiziqishlariga qarab dinamik ravishda o'zgarib yangilanib boradi. Sun'iy intellektga asoslangan fan va ta'limga oid axborot tizimlari

foydalanuvchilar bilan muloqat qilishda, ularning xatti-harakatini (qiziqarli mavzular, ijtimoiy munosabatlar, foydalanuvchi baholashlari, uning maqsadlari) o'rganib borishni qamrab olishi kerak. Foydalanuvchilarga ularning xususiyatidan kelib chiqib axborotlarni taqdim etishda, ularning toifasini ajratib olish muhim hisoblanadi. Foydalanuvchilarni toifasini aniqlash IDEF modeli yordamida amalga oshiriladi (1-rasm).

IDEF modeli yordamida foydalanuvchilarning qiziqishlari qamrab olinishi natijasida, foydalanuvchilarni modellashtirish imkoni paydo bo'ladi. Foydalanuvchilarni modellashtirish, ochiq tizimlardan foydalanuvchilarning tashrif buyurishlar tarixi ma'lumotlarini yig'ish, foydalanuvchi profillarini yaratish, saqlash hamda tizimlarda sinovdan o'tkazish jarayoni hisoblanadi. Misol uchun, tavsiya etishga yo'naltirilgan axborot tizimlari ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarning xususiyatlarini qamrab oladi, kiritilgan ma'lumotlar asosida o'xshash foydalanuvchilarni topadi, moslashtirilgan axborot hamda xizmatlarni taklif etadi, natijada foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

Foydalanuvchi toifasini aniqlashning asosiy bosqichi foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish hisoblanadi. Axborot tizimlaridan foydalanuvchilarning ma'lumotlarini to'plash, xususiyatlarini, axborot ehtiyojlarini o'rganish hamda afzalliklarini bilish shaxsiylashtirilgan tizimlarni yaratishning muhim vazifasi hisoblanadi. Axborotlarning xususiyatidan kelib chiqib, shaxsiylashtirish amalga oshiriladi. Foydalanuvchilarning profil ma'lumotlari va axborotlarning xususiyatlari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Моисеева Н. А. Технологии искусственного интеллекта в информационно-библиотечных системах // Научные и технические библиотеки. 2024. № 5. С. 85–101. <https://doi.org/10.33186/1027-3689-2024-5-85-101>
2. Marat Rakhmatullaev, Sherbek Normatov, Fayzi Bekkamov. [Fuzzy relations based intelligent information retrieval for digital library users](#). ENVIRONMENT. TECHNOLOGIES. RESOURCES. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. Vol.II. June 15-16. 2023, Rezekne, Rezekne Academy of Technologies, Latvia. p. 89-92. <https://doi.org/10.17770/etr2023vol2.7218>
3. M. Ali, Salaman Bin Naeem, R. Bhatti, Artificial intelligence tools and perspectives of university librarians: an overview, Springer 2020
4. Abid Hussain, Use of artificial intelligence in the library services: prospects and challenges, Library Hi Tech News, 2023
5. F.A.Bekkamov, Tavsiya etish tizimlari uchun foydalanuvchi profilini yaratish, modellashtirish va shaxsiylashtirish, Muhammad al-Xorazmiy avlodlari jurnali, №3(29), 2024

RISKLARINI KAMAYTIRISH BO'YICHA BOSHQARUV QARORLARINI ISHLAB CHIQISH METODLARI.

Islamova Dildora Sultanovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali
islamovadildora2@gmail.com

Har qanday korporativ tizim yoki tashkilotning tabiiy hoxishi risklarning kelib chiqish sabablaridan qat'i nazar, mumkin bo'lgan yo'qotishlar hajmini kamaytirish hisoblanadi. Bu xavflarni boshqarish tizimining (risk-menejment) asosiy vazifalaridan biri hisoblanib,


tashkilot yoki jismoniy shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan nojo'ya voqealarning ehtimolini kamaytirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidir.

Xavfsizlik risklarini boshqarishda qaror qabul qiluvchi shaxs xatarni saqlab qolishi (ya'ni, joriy xatar darajasini qabul qilishi yoki oqibatlar uchun javobgarlikni to'liq yoki qisman uchinchi tomonga yuklab qo'yishi mumkin) yoki xatarlarni belgilangan qabul qilinadigan darajalargacha kamaytirishga qaratilgan choralarni qo'llashi mumkin. Bunga javoban, axborot xavfsizligi darajasini oshirish maqsadida xatarlarni kamaytirish strategiyasini amalga oshirishda qo'yidagi turdagi taktik yo'llar orqali chora tadbirlar amalga oshiriladi:

- tahdidan qochish yoki tahdid manbaini bartaraf etish;
- himoya choralari va vositalarini qo'llash orqali zaiflik darajasini pasaytirish;
- tahdidlarning amalga oshishi natijasidagi salbiy oqibatlarni kamaytirish.

Joriy axborot risklarini tavsiflovchi barcha ko'rsatkichlar qabul qilinadigan xatarlar zonasida bo'lsa aksariyat hollarda xatarlarni saqlab qolish strategiyasidan foydalanish samarali natija beradi. Shuningdek ba'zi hollarda ushbu strategiyani qabul qilinmaydigan qiymatlar mavjud bo'lgan hollarda ham qo'llash mumkin (masalan, xatarlarni keskin kamaytirilish imkoni bo'lmasa yoki juda katta xarajatlarni talab qilsa). Bunday holatlarda ushbu qaror va uni qabul qilish sabablarini hujjatlashtirish tavsiya etiladi.

Agar joriy (aktual) risklarni tavsiflovchi hech bo'lmaganda bir nuqta qabul qilinadigan risk darajasidan yuqorida joylashgan bo'lsa, xatarlarni kamaytirish zarur. 1-rasmda ko'rsatilgan risklarni kamaytirish strategiyalari, joriy axborot xavfsizligi risklarining miqdorini ifodalovchi nuqtani qabul qilinadigan risk muhitiga o'tkazishni nazarda tutadi. Bu muhit qabul qilinadigan xatar egri chizig'idan pastda joylashgan bo'ladi.



1-rasm. Risklarni kamaytirish taktikasi tanlovi.

Birinchi ikki harakat varianti favqulodda holatlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan, ya'ni $A_0 (U_0; P_0)$ nuqtasini ordinata o'qidan pastga siljitadi (1-rasmdagi 1-trayektoriya). Uchinchi variant esa noqulay ta'sirlar oqibatlarini kamaytirish bilan bog'liq: A_0 nuqtasini absissa o'qidan chapga siljitadi (2-trayektoriya). Sanab o'tilgan strategiyalar bir vaqtda ham zararni, ham favqulodda holatlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish maqsadida birlashtirilishi mumkin (3-trayektoriya).

Axborot xavfsizligi xatarlarini kamaytirish uchun optimal taktikani aniqlash maqsadida quyidagi elementlarni o'z ichiga olgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish metodikasi yaratildi:

- ekspertlar guruhini shakllantirish va ularning fikrlarini kelishish tartibi;
- xatarlarni kamaytirishga yo'naltirilgan xarajatlarning «qiymati»ni baholash bo'yicha tavsiyalar;
- cheksiz (1-vazifa) va cheklangan (2-vazifa) resurslar sharoitida boshqaruv qarorlarini izlash algoritmi.

Ushbu metod xatarlarni boshqarish jarayonini samarali va iqtisodiy jihatdan to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Bunda cheklangan resurslar tushunchasi shunday vaziyatni anglatadiki, ajratilgan mablag'lar xatarlarni qaror qabul qiluvchi shaxs uchun qabul qilinadigan darajagacha kamaytirish uchun yetarli emas. Qo'yilgan vazifalarni yechish uchun "risklarni kamaytirish trayektoriyasi" tushunchasi joriy qilingan bo'lib, bu joriy xatar darajasini ifodalovchi nuqtani qabul qilinadigan xatar egri chizig'idagi nuqta bilan bog'lovchi chiziqdir.

Bu trayektoriya xatarlarni kamaytirish uchun resurslar taqsimotini aniqlashda yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

[1] Axborot xavfsizligi xavfini baholash. - Umarov A.M. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601

[2] Филатов, А. А. Управление информационными рисками в организации / А. А. Филатов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 21 (311). — С. 199-202. — URL: <https://moluch.ru/archive/311/70311/>.

[3] Современные средства управления информационными рисками.-March 2012.Ukrainian Information Security Research Journal 14(1 (54)).DOI:10.18372/2410-7840.14.2054

[4] O'z Dst ISO/IEC 27005:2013 «Информационные технологии. Методы обеспечения безопасности. Управления рисками информационной безопасности».

[5] Dildora, I., & Noila, M. (2022). Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonida axborot xavfsizligi. Prospects of development of science and education, 1(5), 41-45.

BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY NEYRON TARMOQLARNING QO'LLANILISH ISTIQBOLLARI

Ulug'murodov Elshod Abdusalim o'g'li


"TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

ulugmurodovelshod2001@mail.ru

Kirish. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, hayotning barcha sohalarida qo'llanilishi bugungi kunda axborot texnologiyalari bilan jihozlanmagan kichik bir narsani tasavvur qilishning imkonsizligini anglatadi. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash va ularni mumkin bo'lgan sharoitlarning eng xavfli spektriga moslashtirish uchun yangi aqlli tizimlarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Bu eng istiqbolli yo'nalish neyron tarmoqlardan foydalanishdir. [1]

"Neyron tarmoq" tushunchasi 1943 yilda V. Makkullox va V. Pitts tomonidan asab faoliyatini mantiqiy hisoblash to'g'risidagi maqolada shakllangan. Neyron tarmoq-bu matematik model, shuningdek uning mujassamlanishi, uning biologik tarmoqlarining tashkil etilishi va ishlash printsipiga asoslangan. [2]

Tadqiqot materiallari va uslubi. Neyron tarmoq bu konspektlar bilan o'zaro bog'langan neyronlar to'plami. Neyron - bu minimal hisoblash birligi, u ma'lumot olganda, uning ustida hisob-kitoblarni amalga oshiradi va natijani beradi. Neyronlar uchta asosiy turga bo'linadi: kirish — dastlabki ma'lumotlarni oladi, yashirin — hisob — kitoblarni amalga oshiradi va chiqish-tarmoq natijasini aks ettiradi. Maqsadga ko'ra, neyronlar qatlamlarga bo'linadi. Sinaps, yuqorida aytib o'tilganidek, "og'irlik" ga ega bo'lgan ikkita neyron o'rtasidagi aloqa, buning natijasida ma'lumot bir neyronidan ikkinchisiga o'tishda o'zgaradi.[3]



1-rasm. Neyron tarmoq tuzilishining sxematik tasviri

Neyron tarmoqlarining ko'lami juda xilma-xildir. Shu bilan birga, mavjud neyron tarmoqlarning har biri belgilangan maqsad va vazifalarga tegishli shuningdek, belgilangan chegaralardan tashqariga chiqmaydi, faqat shu yo'nalishda rivojlanadi.

Neyron tarmoq o'z funksiyalarini bajarishi uchun uni dasturlash kerak. Bu jarayon og'irliklar deb ataladigan qatlamlardagi neyronlar orasidagi bog'lanishning ichki parametrlarini o'zgartirishi kerak bo'ladi.

O'qitishning eng keng tarqalgan metollaridan biri bu Gaus usuli bilan o'qitishdir. Neyron tarmoqlari bir-biri bilan bog'liq bo'lgan kirish ma'lumotlari va chiqish qiymatlari bilan ta'minlanadi. Bunday holda, o'rganish natijasida olingan og'irliklar olingan va kutilgan natijalar o'rtasidagi xato asosida tuzatiladi. Bunday mashg'ulotning maqsadi bu xatoni minimallashtirishdir, shunda neyron tarmoq eng aniq natijani beradi. [4,5]

Dastursiz o'qitish-bu odatda o'quv namunasi ichidagi aloqalarni yoki dastlabki ma'lumotlardan topish kerak bo'lgan muammolarni tanlashni hal qilish uchun qo'llaniladigan boshqa harakatlar usulidir. Bunday holda, neyron tarmoq algoritmi barqarorlashtirmagunicha va ularning qiymatlari o'zgarishni to'xtatmagunicha vaznlarni o'z-o'zidan taqsimlaydi. Bunday mashg'ulotda neyron tarmoq to'g'ri natija berganligini va kirish ma'lumotlarini yoki vazn funksiyasini o'zgartirish kerakligini anglatadi.

Tahlil va natijalar. Neyron tarmoqlari regulyatorning o'zini qurish va regulyatorning PID koeffitsientlarini sozlash blokining tuzilishi uchun mutanosib integral differensial (PID) regulyatorlarida qo'llaniladi.


Noravshan lingvistik regulyatordan farqli o'laroq, neyron tarmoqdan foydalanishda regulyator qoidalarni shakllantirishni talab qilmaydi —neuron tarmog'ini o'qitish jarayonida regulyatorni bir necha marta sozlash yetarli.

Tarmoqni o'qitish tartibi regulyatorni yaratishning eng qiyin qismidir. Trening neyronlarning noma'lum parametrlarini aniqlashdan iborat. O'rganish uchun odatda neyron parametrlariga bog'liq bo'lgan minimal mezon funktsiyasini gradient qidirish usullari qo'llaniladi.[6,7]

Neyron tarmoqlar yordamida Pid regulyatorini o'rnatishda katta to'siq o'quv jarayonining davomiyligi bo'lib, bu Pid regulyatorlarida neyron tarmoqlardan keng foydalanish yo'lida yuzaga kelishi mumkin. Neyron tarmoqlari o'quv jarayonida hisobga olinmagan tartibga solish xatolarini bashorat qila olmaydi.

Neyron tarmoqlardan hatto inson salomatligiga oid sohalarda ham foydalanish mumkin. O'qitilgan neyron tarmoqlari imkoniyati cheklangan insonlarda bioprotezlardan foydalanishda juda kata yordam beradi.

Bioprotezlar inson tanasiga to'g'ridan-to'g'ri ulangan va miya impulslariga javob bera oladigan texnik qurilma hisoblanadi. Oyoq-qo'llarning harakatini ta'minlashda ma'lum mushaklarga kuchlanish berish zarur. Bu kuchlanishga javob berishda elektrpotensial datchiklar ishlatiladi. Keyin signal uni qayta ishlaydigan o'rnatilgan mikrokontrollerga uzatiladi va odam qilmoqchi bo'lgan xatti-harakat olinadi. Datchiklar qancha ko'p bo'lsa, protez shunchalik ko'p harakat qila oladi va uni boshqarish shunchalik qiyin bo'ladi. Buning uchun neyron tarmoqlari yordamga keladi.



2-rasm. Bioprotezlarni boshqarishda sun'iy neyron tarmoqlarning qo'llanilishi

Neyron tarmoq qabul qilingan signallar asosida kerakli harakatlarni bashorat qilishga qodir, bu miya va protezning reaksiyasi o'rtasidagi aloqani tezlashtirishga, shuningdek uning holatiga qarab kerakli harakatlarni aniqlashga imkon beradi. [9] Masalan, odam stakanni olishni xohlaydi-buning uchun siz bo'lingan mushaklarni siqib, bioprotezni to'g'ri joyga qo'yishingiz va uni stakanga olib kelishingiz kerak. Agar siz neyron tarmoqni va kamerani vazifaga ulasangiz, u oldindan harakat qilish istagini bashorat qilishi, kerakli pozitsiyani sozlashi va hatto plastik stakanni ezib tashlamaslik yoki qattiqroq mahsulotni mahkam ushlamaslik uchun siqishni qanday kuch bilan bajarish kerakligini aniqlay oladi.

Shuningdek, siz protezlardan foydalanish va loyihalashni, egasiga mos keladigan universal variantlardan boshlab, o'quv neyron tarmog'idan foydalanishni osonlashtirasiz. Masalan, odamni ma'lum bir burchak ostida ma'lum bir kuch bilan qaytaradigan oyoq bioprotezlari. Yurish va tana parametrlarining farqlarini hisobga olgan holda, vaqt o'tishi bilan mushaklar va skelet noto'g'ri yuklardan aziyat chekishi va protez eskirishi mumkin. Buning oldini olish uchun siz neyron tarmoqni qurishingiz mumkin, u foydalanish vaqti bilan

yurish paytida oyoqni qanday qilib to'g'ri egishni, uni necha darajaga aylantirishni, harakat tezligiga qarab ushbu parametrlarni qanday tezda o'zgartirishni bilib oladi.

Tibbiy muassasalardagi ish oqimlari rentgen va kompyuter tomografiyasi kabi turli xil tibbiy tasvirlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, tasvirlar bilan ishlaydigan neyron tarmoqlar patologiyalarni tibbiy tashxislashda istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Neyron tarmoqlarining tasvirlarni aniqlash qobiliyatidan foydalanib, saraton dog'larini rasmlar orqali aniqlash va ularni tahlil qilish orqali tashxis qo'yish uchun yechimlar yaratiladi. Saraton turini ~97% aniqlik bilan aniqlaydigan gistologik tasvirlarning yetarlicha katta namunasida o'qitilgan neyron tarmoqlar mavjuddir.[8]

Ishchi yechimning misoli sifatida shifokorlarga insultni tashxislashda yordam beradigan Isroilning sun'iy neyron tarmoqlari va katta ma'lumotlar texnologiyasiga asoslangan tizim- MedyMatch Technology kompaniyasini keltirish mumkin. Buning uchun real vaqt rejimida tizim bemorning miya tasvirini uning serverlarida joylashgan minglab boshqa suratlar bilan taqqoslaydi. Buning yordamida tizim kompyuter tomografiyasi natijalarida normadan minimal og'ishlarni kuzatishi mumkin. Shunday qilib, tizim tashxis qo'yish xatosi miqdorini kamaytiradi. Shuningdek, tibbiyotda neyron tarmoqlar yangi dori-darmonlarni topish uchun ishlatiladi. 2019 yilda Massachusetts texnologiya instituti chuqur o'rganishlari neyron tarmoqlari yordamida antibiotiklar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazdi, ularning natijalari Su 3327 kimyoviy birikmasining antibakterial xususiyatlarini kashf etdi, keyinchalik u "Xalitsin" deb nomlandi.

Xulosa va takliflar

Ayni davrda sun'iy neyron tarmoqlar va ularni rivojlanish masalalari doimo ko'p o'rganilayotgan va tanqidlarga uchrayotgan dolzarb masalalardan sanaladi. Biroq u oziga xos tezlik va maromda rivojlanib bormoqda. Ayrim insonlarning fikriga qaraganda ancha tez, soha vakillarini fikriga ko'ra sekin rivojlanmoqda. Shunga qaramay, neyron tarmoqlar allaqachon boshqaruv tizimlarida, namunalarni (obrazlarni) aniqlashda, uy ro'zg'ori ishlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimida bashorat qilish va diagnostika, ya'ni an'anaviy hisobkitoblar juda qiyin bo'lgan joylarda juda muvaffaqiyatli amalga oshmoqda. Afsuski, bunday muammolar uchun optimal echimlar hali yetarlicha topilmagan. Turli xil yondashuvlarni (shu jumladan neyron tarmoqlaridan foydalanmasdan) qiyosiy o'rganish aniq xulosalarga olib kelmayapti. Ko'rinib turibdiki, bunday vaziyatda barcha mavjud yondashuvlarning imkoniyatlari, zaruriy shartlari va ko'lamini tushunish va intellektual tizimlarni yanada rivojlantirish uchun ularning afzalliklarini maksimal darajada oshirish kerak. Bunday harakatlar sun'iy neyron tarmoqlarni boshqa texnologiyalar bilan birlashtirgan mutlaqo yangi algoritmlarni yaratishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Нейронные сети и нейроконтроллеры: учеб. пособие / М. В. Бураков. СПб.: ГУАП, 2013. — 284 с.: ил
2. Нейросетевые технологии обработки данных: учеб. пособие / В. А. Головкин, В. В. Краснопрошин. — Минск: БГУ, 2017. — 263 с. — (Классическое университетское издание).

3. Гулямов, С. С., Шермухамедов, А. Т., & Хайитматов, У. Т. Опыт развития искусственного интеллекта в Китае.
4. Raximov, Q., & o'g'li Sotvoldiev, A. D. (2022). Mashinali o'qitish va sun'iy intellektning amaliy sohalarda qo'llanish tendensiyalari. youth, science, education: topical issues, achievements and innovations, 1(5), 85-91.
5. Abdullayev H.H., Qalandarov P.I. Study on signs of defects in the image of the surface of flatrolled products E3S Web of Conferences 304, 02013 (2021) pp. 1-5.
6. Abdullayev H.H., Qalandarov P.I. Features of the technology of anaerobic processing of biotails using humidity control devices IOP science (IOP Publishing), 2022 IOP.
7. Abdullayev H.H. Modeling, forecasting of systems in the process of biogas production Journal "Sustainable Agriculture" №3(15).2022. Toshkent, - Pp. 36-38.
8. Ubaydullayeva, D., Ubaydullayeva, S., & Usmonov, J. (2022, June). The development of electronic educational resources is an important step towards the digitalization of the agricultural economy. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 040022). AIP Publishing LLC.
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-neyron-tarmoqlarini-o-qitish><https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-neyron-tarmoqlarini-o-qitish-usullari>

NOCHIZIQLI TIZIMLARDA PID ROSTLAGICHNING PARAMETRLARINI SOZLASH

U.A.Xudoynazarov, O.A.Yunusov

“TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiya instituti.

Hozirgi kunda kompyuterli modellashtirish yuqori cho'qqilarga erishib, jadal rivojlanish bosqichida bo'lib, u o'zining bir qancha maxsus dasturiy vositalarini yaratdi [1].

Birinchi navbatda sonli hisoblashlarga, ayniqsa matritsali matematik yo'naltirilgan tizimga bo'lgan Matlab - bu raqamli hisoblash tizimlari orasida eng samaralidir. Tizim haqiqatan ham zamonaviy matematik va ilmiy-texnik dasturiy ta'minot sohasida jahon standartiga aylandi. Matlab va ushbu tizim uchun kengaytirilgan paketlarni ishlab chiqishda dunyoning yirik ilmiy maktablari, ko'plab etakchi universitetlar va boshqa tashkilotlar ishtirok etmoqda [1-3].

Matlab tizimidagi **NCD Blockset** paketi yordamida quyidagi optimallashtirish masalalarini yechish mumkin:

- o'tkinchi jarayonlarni optimallashtirish, identifikatsiyalash, kvadratik mezondan foydalangan holda tizimning parametrlarini sozlash masalalarini;
- kuzatuv tizimlarini optimallashtirish bitta sakrash turidagi kirish signali bilan amalga oshirish;
- ko'pulchamli ob'ektlarni optimallashtirish.

Dasturiy paketning yuqorida keltirilgan imkoniyatlarini aniq misolda ko'rib o'tamiz. **NCD Blockset** paketi uchun **nccdemol** buyrug'i **Simulink** oynasida yopiq avtomatik rostlash tizimi modeli strukturasi ochib beradi (1-rasm).

PID - rostlagichli yopiq tizimining asosiy elementlari quyidagilardir:

- rostlash ob'ekti (**Plant & Actuator** bloklari);
- differensiallovchi va integrallovchi qurilmalar asosidagi PID - rostlagich

(Controller);

- teskari bog'lanish zanjiri va solishtirish tuguni.

Bundan tashqari model tarkibiga topshiriq bloki (birlik pog'onali signal ko'rinishida)


Step va **NCD Output (NCD OutPort 1)** bloki kiradi. **Plant & Astuator** blokida sichqonchaniq chap tugmasini ikki marta tez bosish orqali uni ochamiz. Rostlanuvchi ob'ekt tarkibiga (1-ramsga qarang) -2, 2 sathga ega bo'lgan (**Limit** bloki) nochiziqilik bloki,

$$\frac{U(t_j) - y(t_{j-1})}{t_j - t_{j-3}}$$

[-0,8,0,8] diapazoniga ega bo'lgan kuchaytirish koeffitsientini dinamik chegaralash bloki (**Rate**) va quyidagi uzatish funksiyasiga ega bo'lgan chiziqili dinamik zvenolar kiradi:

$$W(s) = \frac{1.5}{50s^3 + a_2 \cdot s^2 + a_1 \cdot s + 1'}$$

bu yerda a_2 koeffitsienti [40, 50] diapazonda $a_2 = 43$, a_1 koeffitsienti [0,5, 3] diapazonda $a_1 = 1,5$ qiymatlarga egadir.



1-rasm. PID – rostlagichni modellashtirish

Bunday holatda optimallashtirish masalasi quyidagichadir: boshqarish ob'ektining berilgan strukturasi va uning parametrlarining ma'lum noaniqliklarida rostlagichning **Kr**, **Ki** va **Kd** koeffitsientlarining qiymatlarini topish talab etiladi [4,5].

Ta'kidlash joizki, bu holda modellashtirish a_1 va a_2 koeffitsientlarining nominal qiymatlari va **Kr** = 0,63, **Ki** = 0,0504, **Kd** = 1,96810 optimallashtirish parametrlarining dastlabki qiymatlarida amalga oshiriladi. Bunday qiymatlar PID-rostlagichini sozlashning Zigler-Nikols (Ziegler-Nichols method) usuli asosida tanlangan, ya'ni bunda:

- **Ki** va **Kd** koeffitsientlarning qiymatlari nolga teng, **Kr** koeffitsientining qiymati esa tizim turg'unlikni yo'qotmaguncha oshiriladi;
- **Kr** ning chegaraviy qiymati **Ku** kabi, avtotebranish davri esa **Ru** kabi belgilanadi;
- roslagich koeffitsientlarining qiymatlariga quyidagilar beriladi:


$$K_r = 3 \cdot K_u / 5, K_i = 6 \cdot K_u / (5 \cdot R_u), K_d = 3 \cdot K_u \cdot R_u / 40.$$

Start tugmasini bosish orqali optimallashtirish jarayonini ishga tushiramiz. Olingan natija 2-rasmda keltirilgan. Topilgan optimallashtirish natijasidagi qiymatlar quyidagilarga tengdir (MATLAB dasturining komandalar rejimida):

```
>> Kr
Kr = 1.3366
>> Ki
Ki = 0.1548
>> Kd
Kd = 10.3318
```

va sezilarli darajada boshlang'ich qiymatlardan farq qiladi.

Endi a_1 va a_2 koeffitsientlarining noaniqlik intervallarini hisobga olgan xolda optimallashtiramiz, ya'ni noaniqlik topshiriq oynasidagi **Constrain lower simulation** va **Constrain upper simulation** qismlariga bayroqcha belgisni o'rnatish orqali, so'ngra modellashtirish jarayonini qaytadan ishga tushiramiz. Ushbu holat uchun modellashtirish natijasi 2-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. a_1 i a_2 noaniqlik parametrlarida optimallashtirish jarayoni

Komandalar rejimida hosoblashlarni topamiz:

```
>> Kr
Kr = 1.6740
>> Ki
Ki = 0.1273
>> Kd
Kd = 10.2597
```

Tizimni o'rganish jarayoni, masalan, qo'shimcha cheklovlar yoki kiritilgan o'zgarishlarni kiritish orqali davom ettirilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Matlab tizimidagi NCD Blockset paketi yordamida tizimga qo'yilgan uchta talabga javob beruvchi modelni uzatish koeffitsientining optimal qiymatlari topilganligini ko'rish mumkin. Ushbu tizimni nafaqat bir o'lchovli, balki ko'p o'lchovli ob'ektlar uchun ham qo'llash mumkin.

Adabiyotlar


1. Halmatov D.A., Yunusova S.T., Atajonov M.O., Huzanazarov U.O. Formalization of the cotton drying process based on heat and mass transfer equations//IIUM Engineering Journal, Vol. 21, No. 2, 2020. P.256-265. <https://doi.org/10.31436/iiumej.v21i2.1456>

2. Sidikov I.X., Kamalov N.Z., Khalmatov D.A., U.O.Khujanazarov. Automatic control process for drying a cotton on the basis of fuzzy logic//International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 6, Issue 10, October 2019. p. 11093-11096

RF TRANSMITTER RF RECEIVER DATCHIKLAR ORQALI MOTORLAR CHASTOTA TEZLIGINI MASOFADAN O'ZGARTIRUVCHI AVTOMATIK QURILMA.

Muradullayev Doston Muzaffar o'g'li., Raximov Ulash Nomozovich
"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
Muradullayevdoston50@gmail.com

Xozirgi sanoat va fabrikalarda har xil turdagi dvigatellarni chastota tezligini oshirish yoki kamaytirish qurilmalarini chet eldan qimmat narxlarda sotib olinadi.



1-rasm. Q1815 dan terilgan kuchaytirgich

Bizning dvigatellarni chastota tezligini oshirish yoki kamaytirish avtomatik qurilmamiz masofadan dvigatellarni chastota tezligini boshqaruvchi qurilmani o'z qo'limiz bilan yasadik bu qurilma 35-40 metrgacha masofadan chastotani boshqaradi.

Bu avtomatik qurilmada RF uzatkich (transmitter) qurilma 3 qismdan tashkil topgan musbat kuchlanish ulanish joyi 5v manfiy kuchlanish ulanish joyi DATA ma'lumot qabul qilish joyi.

RF uzatkich (transmitter) qurilmasini antenasidan tarqalayotgan signal RF qabul qiluvchi (receiver) yetarli bo'lmaydi.

Shuning uchun sxemaga qo'shimcha signalni Q1815 n-p-n tranzistor orqali kuchaytirish kerak. 1-rasmda Q1815 dan terilgan kuchaytirgichga ulash ko'rsatilgan.

Q1815 tranzistor kollektor qismidan RF uzatkich (transmitter)ni DATA qismiga ulanadi.


RF uzatkich (transmitter)iga dvigatelni chastota tezligini oshirish yoki kamaytirish topshirigi berish uchun LM 555 mikro kontrollerdan foydalanamiz.

LM 555 mikro kontrolleri 3-5-12V doimiy tok bilan ishlaydi.

LM 555 mikro controller 8-oyoqchadan iborat.

1-oyoqcha manfiy kuchlanish 4-8 oyoqchalari musbat kuchlanish ulanadi.

3-oyoqcha orqali Q1815 tranzistorni baza qismiga ulanadi bu jarayon R1 10K potensimetr orqali qarshilikni uzgartirganda LM 555 ni 3-oyoqchasidan chiqadigan signal Q1815 tranzistorni bazasiga ulanadi kollektor qismidan RF uzatkich (transmitter) Data qismiga ulanadi bu kuchaytirilgan signal RF qabul qiluvchi (receiver) antenasiga masofadan uzatiladi. RF qabul qilgich yana MOSFET tranzistor orqali dvigatelga ulanadi. RF qabul qilgich qurilmasi qismlariga bo'lingan ya'ni VCC 5V GND manfiy tok A-antenna Data ma'lumot qabul qilish.



2-rasm. Bu avtomatik dvigatellar chastota tezligini masofadan boshqarish qurilmasi

Avtomatik dvigatellar chastota tezligini masofadan boshqarish qurilmasini afzallik tomoni shundaki xar xil kuchlanishda ishlaydigan dvigatellarni tristor, simistor 16V yuqori kuchlanishli tranzistorlar bilan masofadan boshqarish imkoniyati mavjud (2-rasm).

Bu yasalgan qurilma 5v doimiy kuchlanishda ishlaydi. O'zgarmas tok manbalari (batareya, akkumlyator va h.k)da ishlaydi.

RF qabul qilgich (receiver) qurilma bilan RF uzatkich (transmitter) qurilmasi sanoatda ishlab chiqarishda qo'llanilsa davlatimiz iqtisodiga ancha pul mablag'ni tejagan bo'lamiz.

Sababi dvigatellarni ishga tushirish uchun turli xildagi kabellar ishlatiladi bu avtomatik qurilma kabellarni tejab qoladi va masofadan boshqaradi.

Adabiyotlar:

1. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч., Авлакулов Х.П. Ночизиқли электр занжирида динамик жараёнларнинг таҳлили // «ТошДТУ хабарлари» журнали. Тошкент, 2010. - №1-2. – Б.72-75.

2. Полищук В.Н., Хомутова Е.Л., Рой В.Ф. Определение параметров и мест включения бесконтактной коммутационно-регулирующей аппаратуры в системах электроснабжения // Журнал «Энергосберегающие технологии и оборудование», Харьков, 2008, – С.140-144.

3. Расулов А.Н., Саъдуллаев М.С., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимида ярим ўтказгичли ночизиғий динамик занжирнинг таҳлили // Сборник трудов VI-международная научно-техническая конференции «Современные техника и технологии горно-металлургической отрасли и пути их развития». Навои, 2013. – С.256-258.

LM324 ORQALI 12 V 3-FAZA MOTORLARNI CHASTOTA TEZLIGINI ROSTLASH AVTOMATIK QURILMA

Muradullayev Doston Muzaffar o'g'li., Raximov Ulash Nomozovich
"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
Muradullayevdoston50@gmail.com

Hozirgi kunda bolalarimiz o'ynaydigan parklarda har xil turdagi doimiy tok bilan xarakatlanadigan skutir velosipedlar, 48V doimiy 3-fazali inverterlar quyilgan xar xil turdagi mashinachalarni chet davlatlardan sotib olinmoqda.

Shu avtomatik qurilmalarni yasasak davlatimiz iqtisodiga foyda keltirgan bo'lamiz.

Bu avtomatik qurilmani motorlarini chastota tezligini oshiruvchi inverterlarini mahaliy sharoitdan kelib chiqib o'z qo'limiz bilan yasashni maqsad qildik.

Bu avtomatik qurilmada asosiy elementlar LM324 mikro sxema va 6-dona IRF-540 MOSFET tranzistorlari xisoblanadi.

LM324 mikro sxemaga ta'rif beradigan bo'lsak bu mikro sxema 14-ta oyoqchadan iborat bo'lib 4-chi oyoqchasi 9V musbat kuchlanish hisoblanadi.

11-chi oyoqchasi -9v manfiy kuchlanish hisoblanadi.


9,6,2, oyoqchalaridan ma'lumotlar qabul qiluvchixisoblanadi.

LM324 mikro sxema 10,5,3 oyoqchalari manfiy qutbiga ulanadi.LM324 mikro sxemani 8,7,1 oyoqchalari esa qurilmadagi T₁,T₂,T₃,T₄,T₅,T₆ IRF540 tranzistorlarni asosida signallar kombinasiyasini hosil qiladi.Bu avtomatik qurilma 48 v doimiy kuchlanishdan 3-faza o'zgaruvchan kuchlanishni 6-dona IRF540 tranzistorlarga 1-rasmdagi grafikga xosil bo'lgan signallar orqali 3-faza tok ishlab chiqaradi.


Bu motorlar chastota tezligini boshqarish qurilma 9V barqororlashgan doimiy tok bilan ishlaydi.

Qurilmada ishlatiladigan elementlar:


1. R1=10K o'zgaruvchan qarshilik.
2. R2=1K
3. R3=1K
4. R4=1M
5. R5=220K
6. R6=1K
7. R7=1M
8. R8=220K
9. R9=1M
10. R10=220K
11. R11=100K
12. R12=4,7K
13. R13=4,7K
14. R14=33K
15. LED=3X3V lampa
16. 6-dona IRF540 tranzistor
17. 12v 1-dona Transformator
18. 3A 1-dona Diod kuprik
19. KP7809 1-dona CLOCK-DESK
20. C₁,C₂,C₃ 1 MKF 16 V kondetsator
21. C₄=10 MKF 16V kondetsator
22. C₅=25V 2000MKF kondetsator
23. D₁=1N4004 diodi



1-rasm. LM324 mikrosxema bilan roslashning prinsipial sxemasi



2-rasm. 3 fazali motorni IRF540 tranzistori bilan chastotasini o'zgartirish



3-rasm. Tizimning barqarorlovchi sxemasi

Ushbu LM324 mikrosxema orqali 3 fazali 12 V tokni rostlash imkoniga ega bo'lamiz. Uning asosiy afzalligi qurilmaning yuklamaga bardoshli ekanligi va kam tok orqali ko'proq mehnat unumiga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. Xoshimov O.O., Imomnazarov A.T. Elektromexanik qurilma va majmualarning elementlari. -124 b.
2. Imomnazarov A.T. Ekektromexanik tizimlaming elementlari. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - 155 b.

ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDAGI YORITILGANLIK DARAJASINI BOSHQARILUVCHI PARAMETIRLARI

N.A. Sayidov, Z.O. Burhanova
 Namangan muhandislik-texnologiya instituti,
asalburhanova4@gmail.com

Ishlab chiqarish binolari xalq xo'jaligining ma'lum bir qismi, ishlab chiqarish sohalariga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalaridan tashkil topadi. O'z navbatida ishlab chiqarish korxonalarini ishlab chiqarish-texnologik jarayonlarini joylashtirish uchun, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri biron bir mahsulot yoki yarim fabrikatlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan katta ishlab chiqarish binolaridan iborat bo'ladi.

Tarmoqlardan qat'iy nazar ishlab chiqarish binolarini to'rt guruhga, ya'ni, ishlab chiqarish, energetika, transport, ombor xo'jaligi binolari turlarga ajratiladi. Tayyor yoki yarim fabrikat mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan binolar ishlab chiqarish binolari

deyiladi. Ular ishlab chiqarish tarmoqlariga ko'ra: tikuvchilik, shtampovka-temirchilik, termik, asbobsozlik, ta'mir va shu kabi ko'pgina turlarga ajraluvchi binolardir.


Ishlab chiqarish binolarining yoritilganlik darajasini o'lchash, rostdash va avtomatlashtirish uchun mavjud zamonaviy texnik vositalar, ularning asosiy parametrlari va imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Ulardan eng asosiysi boshqaruv qurilmasi bo'lib, hozirgi kunda eng arzon, yetarli imkoniyatlarga ega bo'lgan qurilma mikrokontrollerlardir [1].

Quyida mikrokontrollerlar to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

Mikrokontrollerning asosini mikropotsessorlar tashkil qiladi. Ushbu qurilmaning asosiy vazifasi arifmetik-mantiqiy amallarni bajarishdan iborat. Quyidagi tasvirda (1-rasmga qarang) Atmega328 mikroprotsessorining ko'rinishi keltirilgan. Mikrokontrollerning mikroprotsessordan farqi shundaki, u mikroprotsessordan tashqari operativ xotira, dastur uchun xotira, takt chastotasi generatori kabi boshqa qurilmalarni ham o'z ichiga oladi. Mikrokontrollerni kichik kompyuter deb hisoblash mumkin. Mikrokontrollerning eng asosiy qurilmasi mikroprotsessor hisoblanadi. Quyidagi tasvirda (2-rasmga qarang) mikrokontrollerning tuzilish sxemalaridan biri keltirilgan.




1-rasm. Atmega328 mikroprotsessori ko'rinishi.



2-rasm. Mikrokontrollerning tuzilish sxemasi.

Barcha qurilmalar bitta plataga joylashtirilib mikrokontroller platasi hosil qilinadi. Quyidagi 3-rasmda Arduino Nano mikrokontrollerining ko'rinishi keltirilgan. Ushbu seriyadagi kontrollerlarning laboratoriya sharoitida foydalanishga mo'ljallangan Arduino UNO turining ko'rinishi quyidagi 4-rasmga keltirilgan.



3-rasm. Arduino Nano mikrokontrollerining tashqi ko'rinishi.




4-rasm. Arduino UNO mikrokontrollerining tashqi ko'rinishi.

Arduino Nano mikrokontrollerining pinlari sxemasini quyidagi ishchi maketining tasvirini quyidagi 5-rasmga keltiramiz [1]. Strukturaviy ravishda fotorezistor - bu gorizont tanaga ega bo'lgan nurga sezgir qarshilik. Fotorezistorning asosiy formati quyida keltirilgan (6-rasm). Faol yarimo'tkazgich mintaqasi odatda yarim izolyatsion substratga yotqiziladi va faol mintaqasi odatda ozgina aralashiriladi [2-5].




5-rasm. Yorug'likka bog'liq qarshilik (fotorezistor) LDR.




6-rasm. Fotorezistorning tuzilishi

Umumiylikka zarar yetkazmasdan, taklif etilayotgan mikrokontroller yordamida avtomatlashtirilgan tizimning sxemasini soddalashtirib, quyidagicha tasvirlashimiz mumkin (7-rasm) [2-6].



7-rasm. Avtomatlashtirilgan tizimning sxemasi.



8-rasm. Avtomatlashtirilgan tizimning maxsus kuchaytirgichlar yordamida takomillashtirilgan sxemasi.

Diagrammada Arduino Nano mikrokontrolleri, binoni yoritish uchun qo'yilgan chiroqlar, binoning turli qismlaridagi yorug'lik miqdorini o'lchash uchun foydalaniladigan fotorezistorlardan iborat. Shuning uchun ham mikrokontroller va chiroqlar orasida NPN tipli tranzistorlardan foylanagan holda maxsus kuchaytirgichlar qo'llaymiz. Ushbu kuchaytirgichlar qo'llangan holatdagi sxemani quyidagi chizmada ko'rishingiz mumkin (8-rasm).

Binoning turli qismlariga qo'yiladigan yorug'lik datchiklari (fotorezistorlar) va yoritish chiroqlari soni binoning kattaligi, shakli va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha farq qilishi mumkin. Binoning ma'lum bir qismiga o'rnatilgan yorug'lik datchiklari yordamida binoning o'sha qismidagi yorug'lik miqdori o'lchanadi va mikrokontrollerga jo'natiladi. Ushbu ma'lumotlarni talab etilgan yorug'lik miqdoriga taqqoslab, yoritilish miqdori mikrokontroller yordamida rostlanadi.

1. Ushbu maqolada quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ishlab chiqarish turlari va xususiyatlariga qarab binolarining yoritilish sxemasi va darajasiga bo'lgan talablar o'rganib chiqildi;
- hozirgi kunda foydalanilayotgan yoritish tizimlari tahlil qilindi;
- asosiy yoritishni boshqarishning asosiy avtomatlashtirilgan tizimlari tahlil qilindi;

- ishlab chiqarish turlari va xususiyatlariga qarab ish joylarini differensial yoritish konsepsiyasi ishlab chiqildi va yangi avtomatlashtirilgan tizimi taklif qilindi;
 - avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi algoritmi ishlab chiqildi va dasturi yaratildi;
 - yaratilgan tizim ishlash jarayonini kuzatishga mo'ljallangan maket tayyorlandi.
2. Ushbu yaratilgan tizimlar nafaqat ishlab chiqarish sifatini oshirish va ishchilarga qulay sharoit yaratish bilan birgalikda tabiiy va sun'iy yoritish tizimlarining bir-biri bilan integratsiyalashgan holda bir butun bo'lib ishlashini ta'minlaydi. Bu esa elektr energiyasi samaradorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.X.Vaxidov, D.A.Abdullaeva "Avtomatikaning texnik vositalari". Darslik, - Toshkent 2011.
2. D.M.Shomurodova, A.U.Usmonov, M.I.Abdurahmonova "Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish". O'quv qo'llanma 2013.
3. Yusupbekov N.R., Muhamedov B.I., Gulyamov Sh.M. "Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish". -Toshkent 2011.
4. В.С.Алексеев, Е.О.Муродова, И.С.Давыдова, «Безопасность жизнедеятельности» «Проспект» Москва-2006 г.
5. A.Turakulov, F.Mullajonova. «Avtomatlashtirishda mikrokontrollerlardan foydalanish» o'quv qo'llanma. Namangan 2020.

2-SHO'BA. YASHIL ENERGIYA ISTIQBOLLARI, ENERGIYA TEJAMKOR INNOVATSION TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR

ELEKTR TIZIMLARINING STATIK TURG'UNLIGI

Allayev Qahramon Rahimovich.

TDTU, "Elektr stansiyalari, tarmoqlari va tizimlari" kafedrası akademigi.

Ismailov Ahror Sharofiddin o'g'li.

TDTU, "Elektr stansiyalari, tarmoqlari va tizimlari" kafedrası magistranti

Kirish. Tabiiyki, elektr tizimining parametrlari o'zgarimas bo'lganda (qarshiliklar, o'tkazuvchanlik qiymatlari, transformatsiya koeffitsiyentlari), uzatiladigan quvvatning chegarasi kuchlanish qiymati va uzatiladigan quvvatning elementlarning qarshiligida paydo bo'ladigan isrofiga bog'liq.

Jarayon oqimi bir xil va har qanday holatda tizim tugunlarida kuchlanishning keskin pasayishi (kuchlanish "ko'chkisi" paydo bo'lishi), uning tarmoqlarida tokning ko'payishi va elektr mashinalarining aylanish tezligining o'zgarishi bilan birga keladi.

Turg'unlikni buzilishi har doim sinxron mashinalarning aylanish tezligining cheksiz o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan asinxron holat paydo bo'lishi bilan tugaydi va ko'pincha tizimning "buzilishi" ga olib keladi - yuklamani va stansiya generatorlari uzishi hamda tizimni sinxron bo'lmagan qismlarga bo'linishi.


Shuni ta'kidlash kerakki, "kichik" turtkilar og'ir sharoitlarda elektr tizimlarining ishlashi uchun xavflidir, chunki cheklovlarga yaqin bo'lgan quvvat oqimlari uning elementlari orqali oqadi.

Turg'un va noturg'un holat. Elektr tizimida barqaror holatni amalga oshirish uchun quvvatlar muvozanatini saqlash kerak. Masalan, generatorning normal ishlashi uchun uning elektr P_g va mexanik quvvatlarining muvozanati saqlanishi kerak:

$$P_g = P_t$$

Bu yerda $P_t = MT\omega$ - birlamchi dvigatel quvvati bo'lsa $P_g = M\omega$ - generatorning aktiv quvvati

Har qanday tizimda muvozanatning ikki turi ajratiladi: 1. turg'un (1-rasm, a); 2. noturg'un (1-rasm, b).



9.1-rasm. Turg'un (a) va noturg'un (b) muvozanat holatlari

Biz x koordinata uchun boshlang'ich o'zgarishni Δx ga tenglashtiramiz, ya'ni sharni boshlang'ich joyidan siljimiz. Bitta holatda (1-rasm, a) bir nechta siljib ketgandan so'ng, shar muvozanat holatiga keladi, ya'ni ko'rib chiqilayotgan tizim unga dastlabki yoki yaqin holatni tiklashga intilmoqda. Ushbu holat turg'un deb baholanmoqda.

Boshqa holatda (1-rasm, b) kichik turtki sharni dastlabki holatidan uzoqlashtiradi. Tizimning bu holati noturg'un deb baholanmoqda. Noturg'unlikning tabiati yuqorida aytib aytilganidek, elektr energiya tizimlariga xosdir. Haqiqat shundaki, hatto energetik tizimlarining normal ish holatlarida ham, ba'zi kichik turtki ta'sirlari mavjud, masalan, tizimni muvozanat holatidan chiqishiga, uni tarkibida ishlaydigan generatorlarda yuk o'zgarishlari sabab bo'lishi mumkin.

Biroq, bunday kichik turtkilar tizimning turg'unligini buzilishiga olib kelmasligi kerak, ya'ni boshlang'ich holat parametrlarining katta o'sib boradigan o'zgarishiga olib kelmasligi kerak. Iste'molchilarni ishonchli elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun ushbu kichik turtkilar sharoitida tizim turg'un bo'lishi kerak. Ushbu turtkilarning kattaligi hech qanday rol o'ynamaydi.

Tizim boshlang'ich turg'un holatini, kichik turtkilar paydo bo'lishida, mustaqil ravishda yoki oldingi holatiga juda yaqin holatiga tiklash qobiliyati, agar turtki olib tashlanmasa, statik turg'unlik deb ataladi.

Oddiy elektr tizimining statik turg'unligini tahlil etish. Elektr energetikasining asosiy vazifasi istemolchilarni elektr energiya bilan uzluksiz va turg'un ta'minlashdan iborat. Qanday sharoitlarda generatorlarning turg'un ishlashini ta'minlash mumkinligini, elektr uzatish liniyasi orqali qanday miqdordagi quvvatni uzatish mumkinligini, turg'unlikni ta'minlash qanday faktorlarga bog'liqligini, normal ishlayotgan sinxron generatorlarning turg'un, parallel ishlashi nima sababdan buzilishini aniqlash lozim. Bu masalalarni ko'rib chiqishga kirishamiz.



3-rasm Oddiy elektr tizimning prinsipial sxemasi

3-rasmda tasvirlangan elektr uzatish sxemasi uchun burchak tavsifsi deb yuritiluvchi elektr quvvatining e.yu.k. E_g va qabul qiluvchi shinalar kuchlanishi U vektorlari orasidagi burchakka bog'liq ifodasi:

$$P_r = \frac{E_g U}{2 X_d \Sigma} \cdot \sin \delta$$

E_g , U , $X_d \Sigma$ larning qiymatlari berilgan holda generatorning quvvati burchakning funksiyasi bo'lib, bu bog'lanish egri chiziqli – sinusoidaldir. To'liq bo'lishi uchun ushbu grafikning o'zida turbina quvvati P_T ning tavsifsi qurilib, u δ burchakka bog'liq bo'lmaganligi sababli to'g'ri chiziq ko'rinishida tasvirlanadi.

Xulosa. Agar burchakning $\Delta \delta$ miqdorga ortishi 2 nuqtada yuz bersa, u holda $P_{G2} - \Delta P_2 < P_T$ bo'lganligi sababli valda ortiqcha tezlashtiruvchi moment hosil bo'ladi. Natijada rotorning aylanish tezligi ortib, u burchakning yanada ortishiga olib keladi. Burchakning

ortishi oqibatida valdagi ortiqcha tezlashtiruvchi momentni yanada oshiradi va x.k. SHunday qilib, rotor va mos ravishda holat 2 nuqtaga qaytmaydi. Burchak kamayganda ham shu kabi jarayon kuzatiladi va u rotorning 1 nuqtaga qaytishi bilan tugaydi.

Yuqoridagiga mos ravishda 1 nuqtadagi holat turg'un hisoblanadi, chunki kichik og'ishlar sodir bo'lganda rotor dastlabki nuqtaga qaytadi. Boshlang'ich yoki unga yaqin bo'lgan holatning qayta tiklanishi sinxron generator va mos ravishda elektr tizimsini turg'un ishlashining asosiy ko'rsatkichi ekanligini yodda tutish lozim.

Turbina quvvati va mos ravishda liniya orqali uzatiluvchi quvvatning grafikka muvofiq ortib borishi bilan δ burchak ham ortib, holat 3 nuqtaga yaqinlashib boradi. Bu nuqta, bir tomondan, generatorning $\delta_m=900$ bo'lgan holda berishi mumkin bo'lgan maksimal aktiv quvvatni ko'rsatadi:

$$P_{\Gamma} = \frac{EqU}{Xd\Sigma} \cdot \sin\delta = P_m \cdot \sin\delta$$

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.R. Allayev. Elektromexanik o'tkinchi jarayonlar. Toshkent – "Moliya" – 2007. 2720-bet
2. M.B. Xudayarov, T.F. Maxmudov, B.M. Pulatov. Energetikaning matematik masalalari. Toshkent – 2020 y. 252-bet
3. Аллаев К.Р. Современная энергетика и перспективы ее развития. Ташкент-2007. 610-ст.
4. Аллаев К.Р. Энергетика мира и Узбекистана. Ташкент – 2008. 560-ст.
5. Аллаев К.Р. Электроэнергетика Узбекистана и мира. Ташкент – 2007. 588-ст.

ЛИНЕЙНЫЙ АСИНХРОННЫЙ ЭЛЕКТРОПРИВОД ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБОРУДОВАНИЯ

Юнусов Р.Ф. – доцент
Национальный исследовательский университет «ТИИМСХ»,
Рахмонов Ш.С. – ассистент,
Национальный исследовательский университет «ТИИМСХ»,
Ибрагимов Ш.Ш. – студент,
Национальный исследовательский университет «ТИИМСХ»

Актуальность проблемы. Агропромышленный комплекс (АПК) является одним из самых крупных межотраслевых комплексов. Основными работами, направленными на энергосбережение, являются внедрение энергосберегающих технологических процессов и оборудования. Существенную долю электроэнергии в АПК потребляют электроприводы различных механизмов и машин [1-5].

Использование в технологических процессах АПК большого количества различных электрифицированных рабочих машин требует постоянного совершенствования их электропривода. Проведённый анализ приводных характеристик электрифицированных рабочих машин показывает, что для ряда их рабочих органов, совершающих поступательное и колебательное движения, а также вращательное движение с частотой вращения до 500 об/мин, перспективны

специальные электромеханические и электромагнитные преобразователи, в т.ч. электропривод с линейным асинхронным двигателем (ЛАД) (рис.1). Такие приводы позволяют получить необходимые технологически заданные приводные характеристики, достигнуть интеграции с рабочим органом при исключении механических преобразователей, вследствие чего снижаются материало- и энергоёмкость, повышается эксплуатационная надёжность сельскохозяйственных машин в целом [2-11].




Рис. 1. Структурные схемы традиционного (а) и линейного асинхронного (б) автоматизированных электроприводов (АЭП): ИТМ – исполнительный технологический механизм; 1 – преобразовательное устройство; 2 – электромагнитный преобразователь; 3 – механический преобразователь; 4 – система управления; 5 – рабочий технологический орган.

В настоящее время наряду с разработкой и широким использованием индукционных двигателей с разомкнутым магнитопроводом в различных областях народного хозяйства (металлургии, транспорте, робототехнике, текстильной промышленности и других), они находят всё большее применение и в АПК с учётом особенностей и условий работы производства. В [6-11] достаточно подробно приведены приводы на базе индукционных двигателей с разомкнутым магнитопроводом, разрабатываемые для сельскохозяйственных машин, весьма разнообразные по мощности, скорости, режимам работы, конструкций.

При исследовании индукционных двигателей с разомкнутым магнитопроводом исследователями используются различные оптимизационные критерии их оценки (удельные, энергетические, тяговые показатели и др.). Всё же основными доминирующими критериями большинство исследователей считают энергетические (КПД, коэффициент мощности или их произведение) и тяговые показатели.

Методика исследования. Современная практика проектирования электрических машин предполагает использование на разных стадиях проектирования математических моделей различной степени сложности. Более простые модели, облегчающие многовариантные расчёты, применяются при

оптимизации машин. В дальнейшем при поверочных расчётах для уточнения параметров и характеристик используются сложные математические модели, позволяющие учесть реальные условия работы активных частей машины в различных режимах [6-12].

В большинстве случаев задание на проектирование ЛАД содержит: необходимое тяговое усилие F (пусковое или в рабочем режиме), номинальную скорость перемещения подвижной части v_2 , напряжение U_1 и частоту f_1 питающей сети. Иногда оптимальная частота f_1 подлежит выбору. Задается или ограничивается один из главных размеров ЛАД: длина ℓ или ширина $2b$ активной зоны. Условия эксплуатации определяют минимальный немагнитный зазор δ . Задаются также перегрузочная способность двигателя и кратность пускового усилия, график нагрузки, сопряжение фаз обмотки индуктора, конструктивный тип по способу защиты от воздействия окружающей среды и предполагаемый способ охлаждения. Техническое задание на проектирование ЛАД должно содержать также требования к эксплуатационным характеристикам машины, позволяющие выбрать критерии оптимальности и ограничения для оптимизации двигателя.

2. Васильев Г. П., Хрустачев Л. В., Розин А. Г., Абуев И. М. и др. Руководство по применению тепловых насосов с использованием вторичных энергетических ресурсов и нетрадиционных возобновляемых источников энергии // Правительство Москвы Москомархитектура, ГУП «НИАЦ», 2001. — 66 с.

QUYOSH KONSENTRATORLI GELIPIROLIZ QURILMASINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI HISOBLASH

Almardanov Hamidilla Abdig'aniyevich, PhD,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan quyosh va biomassa energiyasining energetik potentsiali katta bo'lib, ulardan amalda foydalanish energetik, ekologik va iqtisodiy jihatdan yuqori samara beradi O'zbekiston Respublikasida quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlari yuqori bo'lib, yilning qariyb 270-300 quyoshli kunlarida (2700-3000 soat) nurlanish energiyasidan turli maqsadlarda samarali foydalanish mumkin [1].

Hozirgi vaqtda quyosh energiyasidan yuqori harorat talab etadigan texnologik jarayonlarda foydalanish uchun quyosh konsentrаторlarini qo'llanishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham keyingi yillarda quyosh energiyasidan turli texnologik jarayonlarda foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va amaliy natijalarga erishilgan [2].

Ko'p hollarda quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarni tadbiq etishda ancha yuqori temperaturalar talab etiladi. Yuqori temperaturalarni hosil qilish uchun quyosh nurlanish energiyani konsentratsiyalash (to'plash) zaruriyati tug'iladi. Quyosh nurlanishni konsentratsiyalash usuli optik konsentratordagi tizimlar yordamida amalga oshiriladi.

Konsentratordagi - quyosh nurlanishni to'plovchi va issiqlik qabul qilgichga yo'naltiruvchi ko'zguli optik tizimidir. Konsentratsiyalovchi tizimlarning afzalligi - yuqori temperaturalarni hosil qilish imkoniyatidir. Ularning kamchiligi esa - murakkab kuzatish tizimlar va yuqori narx.

Amalda konsentratordagi foydalanish imkoniyati va samaradorligi uning texnik va iqtisodiy jihatlari bilan belgilanadi:

- a) 200 °C dan ortiq temperaturali issiqlik tashuvchisini hosil qilish va uni turli xil texnologik jarayonlarda foydalanish;
- b) Quyoshga yo'naltirish tizimlaridan foydalanish zaruriyati;
- v) tan narxining yuqoriligi.

Konsentratordagi va kuzatish tizimlarini yuqori aniqlik bilan ishlab chiqarish hisobidan yuqori darajali $X > 10$ konsentratsiyasi ta'minlanadi, shu bilan issiqlik qabul qilgichning katta temperaturasi erishiladi. Konsentratordagi fokusida qabul qilgichning temperaturasi 3000 °C gacha erishish mumkin. Odatda doiraviy konsentratordagi, o'lchamlarga bog'liq bo'lgan holda, fokusda qizdirish temperaturasini 1000...2500 °C gacha oshirish imkonini beradi [3]. Ularning asosida turli xil materiallarga termik ishlov berish; qiyin eriydigan sof qotishmalarni, metall keramik, kukunli va yarim o'tkazgichli birikmalarni ishlab chiqarish; fazaviy o'tishlarda yuqori temperaturali jarayonlarni va issiqlik quvvatlarini tadqiq qilish uchun keng foydalaniladi [4].

Ushbu maqolada quyosh konsentratordagi asosi sifatida standart diametri $d = 1,8$ m bo'lgan sun'iy yo'ldosh antenasi ishlatilgan. Uning aks ettiruvchi yuzasi metall folgadan yasalgan (1-rasm).



1-rasm. Parabolik quyosh konsentratordagi.

Quyosh konsentratordagi konsentratsiya koeffitsienti quyidagi (1) formula bilan aniqlanadi:

$$K = \frac{q_{fok}}{q_{rad}} \quad (1)$$

bu yerda K - konsentratsiya koeffitsienti; q_{fok} – fokusdagi nurlanish zichligi, Vt/m^2 ; q_{rad} - quyosh nurlanishi radiatsiyasi, Vt/m^2 . q_{fok} va q_{rad} o'lchovlar yordamida aniqlandi va mos ravishda $14,3 \cdot 10^3$ va $940 Vt/m^2$ ni tashkil etadi.

Quyosh konsentratorining konsentratsiya koeffitsienti quyidagiga teng:

$$K = \frac{14,3 \cdot 10^3}{940} = 15,2$$

Konsentratoridan nurlanish natijasida olingan radiatsiya qabul qiluvchidagi biomassani qizdirish uchun sarflanadigan issiqlik miqdori Q quyidagi (2) ifoda yordamida aniqlanadi:

$$Q = c_b \cdot m_b \cdot (T_2 - T_1) \quad (2)$$

bu yerda, Q – issiqlik miqdori, MJ ; m_b – biomassaning issiqlik sig'imi, $Kkg \cdot K$; m_b – biomassa massasi, kg ; $(T_2 - T_1)$ – haroratlar farqi.

$$Q = 2400 \cdot 2 \cdot (400 - 30) = 1,77 MJ$$

Biomassa haroratini $\tau_2 - \tau_1$ gacha qizdirishda sarflangan vaqt oralig'idagi issiqlik quvvati quyidagi (3) formula yordamida aniqlanadi:

$$P = \frac{Q}{\tau_2 - \tau_1} \quad (3)$$

bu yerda P – issiqlik quvvati, Vt .

$$P = \frac{1,77 \cdot 10^6}{180 \cdot 60} = 163,8 Vt$$

Quyosh konsentratorli geliopiroliz qurilmasining FIK quyidagi (4) ifoda yordamida hisoblanadi:

$$\eta = \frac{P}{q_{rad} \cdot K \cdot F_r} \quad (4)$$

bu yerda P – issiqlik quvvati, Vt ; q_{rad} – quyosh radiatsiyasi, Vt/m^2 ; K – konsentratsiya koeffitsiyenti; F_r – geliopiroliz reaktorining sirt maydoni, m^2 .

$$\eta = \frac{163,8}{950 \cdot 15,2 \cdot 2,25 \cdot 10^{-2}} = 50 \%$$

Geliopiroliz qurilmasida quyosh konsentratorining qo'llanilishi natijasida birinchidan, $400 \div 450$ °C harorat rejimini hosil qilish mumkin. O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, aperturasi $1,2 m^2$ bo'lgan parabolik quyosh konsentratori Qarshi shahri sharoitida tushgan quyosh nurlanish energiyasi $950 Vt$ bo'lganda qurilmaning FIK 50 %ni tashkil etdi. Shunday qilib, quyosh konsentratorli geliopiroliz qurilmasini yaratish, tadqiqotlar o'tkazish va biomassa geliopiroly bo'yicha ilmiy-texnik yechimlar ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiiq etish muqobil energetikada istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Авезов Р.Р., Вохидов А.У., Куралов М.А. Қуёш энергетикасининг Ўзбекистон Республикасида ривожлантириш тамойиллари.//Қайта тикланувчи энергетиканинг замонавий муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. Қарши. 18 март 2018й., 11-13 б.
2. Х.А Алмарданов, С.Э.Чулиев. Биомасса гелиопиролизи учун қуёш концентраторидан фодаланиш самарадорлиги. Муқобил энергетика илмий-техник журнали. № 2 (06) апрель, 2022. 60-68 бетлар.

3. Abdurakhmanov A., Kuchkarov A.A., Holog Sh. R., Abdumuminov A. Calculation of optical-geometrical characteristics of parabolic-cylindrical mirror concentrating systems // European science review. 2017. Vol. 2. P. 201-204.
4. Klychev Sh.I., Zakhidov R.A., Bakhranov S.A., Dudko Yu.A., Khudoikulov A.Ya., Klychev Z.Sh., and Khudoiberdiev I.A. Parameter optimization for paraboloid-cylinder-receiver system of thermal power plants // Applied Solar Energy. Applied Solar Energy. 2009. Vol. 45. No. 4. P. 281-284.

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI KELAJAK ENERGIYASI

Qarov Botir Xamro o'g'li
Niyozova Dildora Xolmirzaevna

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institute

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bu quyosh energiyasi, gidroenergetika, shamol energiyasi, geotermal energiya, suv oqimi energiyasi va biomassadan foydalanish orqali olinadigan muqobil energiyadir. Uran tabiiy gaz, ko'mir kabi qazib olinadigan yoqilg'ilardan farqli o'laroq bu energiya manbalari tugamaydi shuning uchun ular qayta tiklanuvchi energiya manbalari deb ataladi. 2019 yilda butun dunyo bo'ylab 200 Gvt umumiy quvvatga ega bo'lgan qayta tiklanadigan energiya manbalari.


Quyosh energiyasi. Ochiq joylarda yoki uyingizda fotovoltak modullar quyosh nurini kremniy yordamida elektr energiyasiga aylantiradi. Yerdagi asosiy energiya manbai quyosh hisoblanadi, chunki sayyoramizga har yili taxminan 173 Pvt (yoki 173 million Gvt) quyosh nurlanish energiyasi tushadi. Bu esa global energiyaga bo'lgan ehtiyojdan 10 ming baravar ko'proqdir. Quyosh kollektorlari va issiq suv ishlab chiqarish uchun foydalaniladi. Quyosh panellari esa hatto qor yog'ganida, bulutli havoda ham energiya ishlab chiqaradi. Quyosh panellari katta samaradorlik berishi uchun uni ma'lum bir burchak ostida o'rnatish kerak. Panellarni o'rnatish burchagi qanchalik katta va qanchalik ekvatordan uz oqroq joylashganligi ahamiyatga ega.



Oqim energiyasi: Dengiz to'lqinlaridan energiya olish usullari hisoblanadi. To'lqinlar elektr energiyasini ishlab chiqish uchun kerak bo'ladigan generatorni ishga tushiradi. To'lqinli elektr stansiyalari elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun gidrodinamik energiyadan ya'ni bosimning pasayishi va dengiz to'lqinlari orasidagi harorat farqidan foydalanadi. Bu boradagi

tadqiqotlar hali ham davom etmoqda mutaxassislarning hisob-kitob ishlariga ko'ra ,Evropa qirg'oqlari yiliga 280Tvt/soatdan ortiq energiya ishlab chiqarishi mumkin bu Germaniya energiya iste'molining yarmini tashkil etadi.

Shamol energiyasi: Zamonaviy shamol turbinalari shamol energiyasidan elektr energiyasini ishlab chiqazishdir.Ular shamolning knetek energiyasini rotorning mexanik energiyasiga keyin esa elektr energiyaga aylantiradi.Shamoldan harakatlanuvchi kuch qadimgi an'anadir.Shamol tegirmonlari,arra tegirmon,nasos yoki suv ko'tarish stansiyasi,un maydalash tegirmonlari sifatida ishlatilgan.Eng tez rivojlanayotgan qayta tiklanadigan energiya texnologiyalaridan biri shamol energiyasidir.So'ngi 20 yil ichida IRENA nashri ma'lumotlariga ko'ra global quvvati quruqlikda va dengizda shamol energiyasini ishlab chiqazish deyarli 75 baravar o'sdi 1997 yildagi 7,5 Gvt dan 2018 yilga kelib taxminan 564 Gvt gacha.



Yer issiqligidan foydalanib elektr energiya ishlab chiqarish,geotermal energiya turlari hisoblanadi.Yerning yuqori qatlamlarini va yer osti suv omborlarini tuproqning harorati isitish imkonini beradi. Kichik quduqlar yordamida tuproqning geotermal energiyasini qazib oladi bu-katta investitsiyalarni talab qilmaydi.Er qobig'ining yuzasiga yaqin joylashgan issiq buloqlar xududlari ayniqsa samaralidir.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi energitikaning rivojlanishi quyidagi tadbirlarni o'tkazishni talab etadi:


1.Muntazam ravishda atrof muhitni tadqiq qilish:iqlimiy metrologik, ekologik tadqiqotlar,atrof muhitning monitoring.

2.Energiya istemolchilarining tarkibi,iste'mol qilinadigan energiyaning turi va quvvati;qishloq va komunal xujaligi,sanoat uchun zarur bo'lgan energiya ehtiyojlarini anaiqlash lozim.

Muqobil energiyaga o'tish rejalarini dunyoning turli mamlakatlari qanday amalga oshirmoqda?

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish bo'yicha dunyoning turli mamlakat-lari o'z oldilariga katta maqsadlarni quygan.2030 yilga borib uglerodsiz echimlar global chiqindilarning 70 foizidan ortig'ini tashkil etadigan sektorlarda raqobatbar- doshdir.Buni energiyaga o'tish qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ko'mir iqtisodiyotini almashtirish jarayoni orqali amalga oshirish rejalashtirilgan.Iqtisodiy tanazzul va pandemiyaga qaramay 2020 yilda ko'plab shaharlar, mamlakatlar va kompaniyalar dekorbanizasiya rejalarini amalga oshirishda yoki e'lon qilishda davom etdilar. Hindiston

qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirishga eng katta hissa qo'shishi kutilmoqda. Bu yerda shamol va quyosh energiyasi bo'yicha qator loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgan. Yevropa Ittifoqi quvvatlar o'sishini prognoz qilmoqda. Bu yerda, hatto pandemiya sharoitida ham Yevropa Ittifoqi tarixidagi iqtisodiy kursning eng katta tuzatishi bo'lgan Yashil bitim unutilmaydi. Loyihaning maqsadi 2030-yilgacha Yevropa Ittifoqida uglerodsiz makonni yaratishdir. Shu maqsadda issiqxona gazlari chiqindilarini 2020-yil darajasidan 40 foizga qisqartirish, qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan energiya ulushini umumiy energiya iste'moli tarkibida 32 foizga yetkazish rejalashtirilgan.



Ayni paytda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirishga sarmoya kiritish bo'yicha yetakchilar Xitoy, AQSH, Yaponiya va Buyuk Britaniyadir. "BloombergNEF" ushbu ma'lumotlarni kuzatishni boshlaganidan beri shamol, quyosh, bioyoqilg'i, biomassa va chiqindilar hamda kichik gidroyenergetikaga global investisiyalar deyarli bir darajaga oshdi. Yillik asosda toza energiyaga investisiyalar 20 yil ichida 33 milliard dollardan 300 milliard dollarga oshgan.

Beznesda qanday qilib qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Butun dunyo kompaniyalari o'z strategiyalarini yaratmoqda va ma'lum vaqt oralig'ida erishmoqchi bo'lgan yashil maqsadlarni aniqlamoqda. Albatta, QTEMdan foydalanish nafaqat kompaniyalar uchun ijobiy imij yaratishga yordam beradi, balki elektr energiyasi xarajatlarini ham kamaytiradi. "Apple" ham uglerod neytral bo'lishni maqsad qilgan. U bir nechta quyosh fermalarini sotib oldi va ma'lumotlar markazlarini barqaror energiya bilan ta'minladi. 2018-yildan boshlab barcha Apple chakana savdo do'konlari, ofislari va ma'lumotlar markazlari 100 foiz qayta tiklanadigan energiya bilan ta'minlanadi. "Microsoft" har yili dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, ma'lumotlar markazlari faoliyati va ishlab chiqarishda 1,3 milliard KVt/soatdan ortiq yashil energiyadan foydalanadi. Kompaniya 2030-yilgacha uglerod chiqindilarini 75 foizga kamaytirishga va'da berdi.

Adabiyotlar:

1. Фомина Т.Е. Особенности архитектурной организации жилища с низким энергопотреблением в условиях южно-российского региона //Вестник ТГАСУ, №3, 2008. 53-66 б.
2. Захидов М.М. Перспективы солнечного отопления в Узбекистане. Построй свой дом. mensh.ru, 2008. -4 б.
3. Солнечный дом. <http://www.nashekodom.ru/proect/proekt10.htm/> 2007. -25 б.

4. Андерсон Б. Солнечная энергия (Основы строительного проектирования). -М.: Стройиздат, 1982. -375 б.
5. Зоколей С. Солнечная энергия и строительство. -М.: Стройиздат, 1979, -232 б.
6. Акопджанян В.А. Основы проектирования солнечного дома. http://www.mensh.ru/osnovy_proektirovaniya_solnechnogo_doma.2003.
7. Мак-Вейг Д. Применение солнечной энергии. – М.: Энергоиздат, 1981. -216 б.
8. Имомов Ш.Б., Ким В.Д., Хайриддинов Б.Э. Тепловая эффективность плоских рефлекторов, устанавливаемых с северной стороны здания, в пассивных системах солнечного отопления //Гелиотехника. –Ташкент: Фан, 2003, №4, 39-44 б.

**QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANIB NAMUNAVIY UYLARNING
KOMBINATSIYALASHGAN ISSIQLIK TA'MINOTI TIZIMINING ENERGIYA
SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI HISOBLASH**

Xamrayev Sardor Ilxomovich, t.f.f.d., dotsent.

xamrayevs@bk.ru

Ergashev Shaxriyor Hamudillayevich, t.f.f.d., dotsent,

strong.shakhriyer@mail.ru

Qarshi-muhandislik iqtisodiyot institute

Jahonda yashash binolarining issiqlik ta'minoti tizimlarini takomillashtirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish va issiqlik-texnik parametrlarini optimallashtirish orqali issiqlik ta'minoti tizimining energiya samaradorligini oshirish hamda an'anaviy energiya resurslarini sarfini kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, qishloq uylarining energiya tejamkor issiqlik ta'minoti tizimlarini ishlab chiqish, quyosh energiyasidan samarali foydalanish asosida kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimlarida energiya sarfini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu sababli, qishloq uylarining issiqlik ta'minoti tizimlari uchun an'anaviy va quyosh kollektorli kombinatsiyalashgan energiya tejamkor issiqlik ta'minoti tizimlarini ishlab chiqish va ularning asosiy issiqlik-texnik parametrlarini asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda [1-5].

Erishilgan ijobiy ilmiy natijalarga qaramasdan, hozirgi vaqtda markazlashgan issiqlik ta'minotidan uzoqda joylashgan hududlardagi qishloq uylarining energiya tejamkor kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimlarini ishlab chiqish, quyosh issiq polli isitish tizimlarining energiya samaradorligini oshirish, issiqlik ta'minoti tizimlarida hududning past potentsialli quyosh issiqligini samarali qo'llanilishi bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar o'tkazilmagan. Shuningdek, avtonom va lokal iste'molchilarni isitish mavsumida uzluksiz issiqlik energiyasi va yil davomida issiq suv bilan ta'minlash masalalari yetarlicha ko'rib chiqilmagan. Shu sababli, qishloq uylarining energiya tejamkor gelioqurilmali kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimini ishlab chiqish va parametrlarini optimallashtirish dolzarb ilmiy-texnik masala hisoblanadi [6-8].

Qishloq namunaviy uylarida an'anaviy yoqilg'i-energiyaresurslarini (tabiiy gaz, ko'mir) tejash maqsadida uyni uzluksiz issiqlik energiyasi bilan ta'minlash uchun quyosh energiyasi va an'anaviy yoqilg'i asosidagi kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi yashash uylarini uzluksiz ravishda

issiqlik energiyasi bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi, batareya va issiq pol tizimi yordamida isitish hamda yil davomida issiq suv bilan ta'minlash imkonini beradi.

Muqobil energiya manbalari asosidagi qishloq uylarining kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimini joriy etishdagi energiya samaradorlik ko'rsatkichlari tejalgan shartli yoqilg'i bo'yicha baholanadi. Quyosh issiqlik ta'minoti tizimidan foydalanilganda bir yilda tejalgan shartli yoqilg'i quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi [9]:

$$B = \frac{3,6Q_y}{Q_q^i \eta_{q,q}} \quad (1)$$

bu yerda Q_y – yillik quyosh radiatsiyasining miqdori, MJ/yil; Q_q^i – shartli yoqilg'ining quyi yonish issiqligi (29,31 MJ/kg qabul qilinadi); $\eta_{q,q}$ – qozon qurilmasining FIK (odatda 0,55 qabul qilinadi).

Qarshi shahri sharoitida quyosh radiatsiyasining oylik va yillik miqdori 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qarshi shahri sharoitida quyosh radiatsiyasining intensivligi, MJ/oy [10]

Oylar	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr	Jami
Umumiy	337	356	424	519	753	899	897	884	741	622	386	304	7120

Quyosh kollektorining oylik issiqlik unumdorligi [11]:

$$Q_f = Q_{oy} K_{q,h} F_k \eta_k \quad (2)$$

bu yerda Q_{oy} – quyosh radiatsiyasining bir oylik miqdori, MJ/yil; $K_{q,h} = 1,23$ – qayta hisoblash koeffitsiyentining o'rtacha oylik miqdori; F_k – quyosh kollektorining yuzasi, m^2 ; η_k – quyosh kollektorining FIK.

Issiqlik yuklamasini quyosh energiyasi bilan qoplash koeffitsiyenti [11]:


$$f = \frac{Q_f}{Q_{i,yu}} \quad (3)$$

Respublikamizda 184-46s-16 namunaviy loyihasi asosida bir qavatli 3 xonali uylar, 144-41s-16 namunaviy loyihasi asosida 2 qavatli 4 xonali uylar, 184-33s-10/13I namunaviy loyihasi asosida bir qavatli 4 xonali uylar qurildi. Yangi namunaviy uylarda, ayniqsa markazlashgan energiya ta'minotidan uzoqda joylashgan hududlardagi qishloq uylarining barqaror issiqlik ta'minotini yaratish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

184-46s-16 namunaviy loyihaga asosan qurilgan bir qavatli 3 xonali uylar rejasi o'lchami 8,62x9,0 m, 3 m balandlikda umumiy xonalar, sanuzel, oshxona va o'txonani qamrab olgan, devorlari pishiq g'ishtdan ko'tarilgan hamda laminat va keramik plitali pol qoplamasiga ega. 184-46s-16 namunaviy loyihaga ko'ra qurilgan uyning umumiy ko'rinishi 1-rasmda, old fasadi va qirqim sxemalari 2-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Bir qavatli 3 xonali uyning umumiy ko'rinishi (184-46s-16 namunaviy loyihasi asosida)



2-rasm. Bir qavatli 3 xonali namunaviy loyihaga ko'ra qurilgan uyning old fasadi va qirqim sxemalari (184-46s-16 namunaviy loyiha)

Energiya samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashni 3 xonali namunali uy misolida ko'rib chiqamiz. Uyning o'lchamlari quyidagicha: uzunligi 17 m, kengligi 12 m va balandligi 3 m. Derazalarning umumiy yuzasini tashqi devor umumiy yuzasiga nisbati $\varphi = 0,1$. Issiqlik uzatish koeffitsiyentlari [12]: devor orqali $k_{dev} = 1,2 \text{ Vt}/(m^2 \cdot ^\circ\text{C})$, deraza orqali $k_{der} = 3,23 \text{ Vt}/(m^2 \cdot ^\circ\text{C})$, shift orqali $k_{sh} = 0,9 \text{ Vt}/(m^2 \cdot ^\circ\text{C})$, pol orqali $k_p = 0,77 \text{ Vt}/(m^2 \cdot ^\circ\text{C})$. Haroratning hisobiy farqini pasayish koeffitsiyentlari: $\psi_{dev} = \psi_{der} = 1$, $\psi_{sh} = 0,8$, $\psi_p = 0,6$. Ichki havoning harorati $t_i = 18^\circ\text{C}$, isitish davrida tashqi havoning hisobiy harorati $t_t = -15^\circ\text{C}$ [13].

Uy tashqi devorining umumiy yuzasi:

$$F_{dev} = (17 + 12) \cdot 2 \cdot 3 \cdot 0,9 = 156,6 \text{ m}^2$$

Derazalarning umumiy yuzasi:

$$F_{der} = (17 + 12) \cdot 2 \cdot 3 \cdot 0,1 = 17,4 \text{ m}^2$$

Shift va polning umumiy yuzasi:

$$F_{sh} = F_p = 17 \cdot 12 = 204 \text{ m}^2$$

Binoning tashqi yuzasi:

$$V = 17 \cdot 12 \cdot 3 = 612 \text{ m}^3$$

Uyning tashqi devori orqali issiqlik uzatish bilan solishtirma issiqlik yo'qotilishi quyidagiga teng:

$$q_0 = \frac{\sum kF\psi}{V} = 0,79 \text{ Vt}/(\text{m}^3 \cdot ^\circ\text{C})$$

Uyning tashqi devori orqali issiqlik uzatish bilan hisobiy issiqlik yo'qotilishi:

$$Q'_y = q_0 V (t_i - t_t) = 0,79 \cdot 612 (18 + 15) = 15,95 \text{ kVt}$$

Bir soatda $57,42 \frac{\text{MJ}}{\text{soat}}$ issiqlik energiyasi yuqotiladi.

Binoning jonli maydoni:

$$F_j = \frac{V}{K_h} = 95,63 \text{ m}^2$$

bu yerda $K_h = 6,4 \text{ m}^3/\text{m}^2$ - binoning hajmiy koeffitsiyenti [12].

Uyda ichki issiqlik ajralishi:

$$Q_{i.a} = q_{i.a} F_j = 20 \cdot 95,63 = 1,91 \text{ kVt};$$

yoki bir soatda $6,88 \frac{\text{MJ}}{\text{soat}}$ ni tashkil qiladi.

$t_t = -15^\circ\text{C}$ bo'lganda infiltratsiya hisobiga issiqlik yo'qotilishi:

$$Q'_i = \mu Q'_y = b \sqrt{2gL \left(1 - \frac{T_t}{T_i}\right) + K_{aer}(w\beta)^2} Q'_y = 1,485 \text{ kVt};$$

Bunda bir soatda $5,35 \frac{\text{MJ}}{\text{soat}}$ issiqlik energiyasi yuqotiladi.

bu yerda b - o'zgarmas kattalik, $b = 0,035 \text{ s/m}$; $g = 9,81 \text{ m/s}^2$ - erkin tushish tezlanishi; $L = 0,25 \cdot 3 = 0,75 \text{ m}$ - uyning hisobiy balandligi; T_t, T_i - tashqi va ichki havoning harorati, K; $K_{aer} = 0,6$; $w = 5 \text{ m/s}$ - shamolning o'rtacha tezligi; $\beta = 0,6$ - hisoblash vaqtida qabul qilingan shamol tezligi va tashqi havo haroratini mos kelmasligini inobatga oluvchi tuzatma koeffitsiyenti.

Uyni isitishga issiqlik yuklamasi:

$$Q_i = Q'_y + Q'_i - Q_{i.a} = 57,42 + 5,35 - 6,88 = 55,89 \frac{\text{MJ}}{\text{soat}}$$

Isitish mavsumida isitishga o'rtacha issiqlik yuklamasi:

$$Q_i^{o'r} = Q_i \frac{t_i - t_t^{o'r}}{t_i - t_t} = 55,89 \frac{18 - t_t^{o'r}}{18 + 15} = 1,69(18 - t_t^{o'r}), \frac{\text{MJ}}{\text{soat}}$$

bu yerda $t_t^{o'r}$ - isitish mavsumida tashqi havoning o'rtacha harorati, $^\circ\text{C}$.

Yilning isitish mavsumidagi istalgan oylarida isitish tizimiga issiqlik yuklamasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Isitish tizimining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari

Oylar	Yanvar	Fevral	Mart	Noyabr	Dekabr	Jami
Tashqi havoning o'rtacha harorati, $^\circ\text{C}$	3,3	4,7	7,2	8,2	5,7	-
Kunlar soni	31	28	10	30	31	130
Issiqlik yuklamasi, $Q_i, 10^3 \text{ MJ/oy}$	18,48	15,1	4,38	11,92	15,46	65,34
Foydali issiqlik, $Q_f, 10^3 \text{ MJ/oy}$	6,22	6,57	2,49	7,12	5,61	28,01
Qoplash koeffitsiyent	0,34	0,43	0,57	0,6	0,36	0,43

Tejalgan shartli yoqilg'i miqdori, kg.sh.yo./yil	1389	1467	556	1590	1253	6255
Shartli yoqilg'ining elektr energiya ekvivalenti, kVt.soat	11309	11944	4527	12945	10202	50927

Uyni isitish tizimiga issiq pol tizimi qo'shilganda issiq pol tizimi orqali isitishga berilgan issiqlik yuklamasi quyidagicha:

$$Q_{i.p} = q_0 V(t_i - t_t) = 0,455 \cdot 612(18 + 13) = 8,63 \text{ kVt};$$

yoki bir soatda $30,1 \frac{MJ}{soat}$ ni tashkil qiladi.

bu yerda $q_0 = 0,455 \text{ Vt}/(m^3 \cdot ^\circ C)$ - issiq pol tizimi mavjud yashash uylarining isitish tizimiga issiqlik sarfini meyoriy solishtirma xarakteristikasi [14].

Yilning isitish mavsumidagi istalgan oylarida issiq pol tizimiga issiqlik yuklamasi 3-jadvalda keltirilgan.

Qish mavsumida issiq suv ta'minotiga issiqlik yuklamasi:

$$Q_{i.s.q}^{o'r.h} = \frac{GMc\rho(t_{i.s} - t_{s.s})}{n} = \frac{60 \cdot 5 \cdot 4190 \cdot 1(60 - 5)}{24} = 2,88 \frac{MJ}{soat}$$

Yoz mavsumida issiq suv ta'minotiga issiqlik yuklamasi:

$$Q_{i.s.yo}^{o'r.h} = \frac{a\varphi_{yo}Mc(t_{i.s} - t_{s.s})}{n} = \frac{60 \cdot 0,8 \cdot 5 \cdot 4190(60 - 15)}{24} = 1,88 \frac{MJ}{soat}$$

bu yerda $a = 60 \text{ l}/(\text{sut} \cdot \text{odam})$ - bir sutkada bitta odamga issiq suvni o'rtacha sarfi; c - suvning solishtirma issiqlik sig'imi, $J/(kg \cdot ^\circ C)$; $t_{i.s}$ - issiq suvning harorati - $60^\circ C$; $t_{s.s}$ - sovuq suvning harorati: qish mavsumida $5^\circ C$, yoz mavsumida $15^\circ C$; n - sutkadagi soatlar; $\varphi_{yo} = 0,8$ - yoz mavsumida issiq suv ta'minotiga suv sarfi kamayishini inobatga oluvchi koeffitsiyent.

Yilning istalgan oylarida issiq suv ta'minoti tizimiga issiqlik yuklamasi 4-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Issiq pol tizimining energetik ko'rsatgichlari

Oylar	Yanvar	Fevral	Mart	Noyabr	Dekabr	Jami
Tashqi havoning o'rtacha harorati, $^\circ C$	3,3	4,7	7,2	8,2	5,7	
Kunlar soni	31	28	10	30	31	130
Issiqlik yuklamasi, $Q_i, 10^3 \text{ MJ/oy}$	10,96	8,96	2,6	7,07	9,17	38,76
Foydali issiqlik, $Q_f, 10^3 \text{ MJ/oy}$	3,21	3,39	1,29	3,68	2,9	14,47
Qoplash koeffitsiyent	0,29	0,38	0,5	0,52	0,32	0,37
Tejalgan shartli yoqilg'i miqdori, kg.sh.yo./yil	717	757	288	822	648	3232
Shartli yoqilg'ining elektr energiya ekvivalenti, kVt.soat	5838	6163	2345	6692	5276	26314

4-jadval

Issiq suv ta'minoti tizimining texnik iqtisodiy ko'rsatgichlari

Oylar	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr	Jami

Tashqi havoning o'rtacha harorati, °C	3,3	4,7	7,2	18,1	22,3	27,7	30,4	27,5	21,9	15,7	8,2	5,7	
Kunlar soni	31	28	31	30	31	30	31	31	30	31	30	31	
Issqlik yuklamasi, $Q_i, 10^3 MJ/oy$	2,14	1,94	1,64	1,35	1,40	1,35	1,40	1,40	1,35	1,40	2,07	2,14	18,63
Foydali issqlik, $Q_f, 10^3 MJ/oy$	0,52	0,55	0,65	0,80	1,16	1,38	1,38	1,36	1,14	0,96	0,59	0,47	10,95
Qoplash koeffitsiyent	0,24	0,28	0,40	0,59	0,83	1,02	0,99	0,97	0,84	0,68	0,29	0,22	0,66
Tejalgan shartli yoqilg'i miqdori, kg.sh.yo./yil	116	123	145	179	259	308	308	304	255	214	132	105	2448
Shartli yoqilg'ining elektr energiya ekvivalenti, kVt-soat	944	1001	1181	1457	2109	2508	2508	2475	2076	1742	1075	855	19931

Shunday qilib, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili asosida quyidagi xulosalar qilindi:

- isitish tizimi uchun quyosh energiyasidan foydalanish bir yilda 6255 kg sh.yo. yoki 50927 kVt-soat elektr energiyasini tejash imkonini beradi, natijada an'anaviy isitish tizimi uchun issiqlik energiyasining sarfi 50-55% ga kamayadi;

- isitish tizimida suvli issiq pol tizimidan foydalanish uyni umumiy issiqlik yuklamasini 37 % qismini qoplaydi, agar issiq pol tizimida quyosh energiyasidan foydalanilsa bir yilda 3232 kg sh.yo. yoki 26314 kVt-soat elektr energiyasini tejash imkonini beradi, natijada an'anaviy isitish tizimi uchun issiqlik energiyasining sarfi 45-50% ga kamayadi;

- issiq suv ta'minoti tizimida quyosh energiyasidan foydalanish bir yilda 2448 kg sh.yo. yoki 19931 kVt-soat elektr energiyasini tejash imkonini beradi, natijada issiq suv ta'minotiga issiqlik energiyasining sarfi 65-70% ga kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Узаков Г.Н., Червинский В.Л., Ибрагимов У.Х., Хамраев С.И., Камалов Б.И. Математическое моделирование комбинированной системы теплоснабжения солнечного дома). Энергетика. Известия высших учебных заведений и энергетических объединений СНГ. 2022;65(5):412-421. <https://doi.org/10.21122/1029-7448-2023-65-5-412-421>

2. Khamraev S.I, Ibragimov U.Kh, Kamolov B.I. Removal of hydrodynamic lesions of a heated floor with a solar collector // APEC-V-2022 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1070(2022) 012018 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/1070/1/012018.
3. Sh Mirzaev, J Kodirov, S I Khamraev. Method for determining the sizes of structural elements and semi-empirical formula of thermal characteristics of solar drers// APEC-V-2022 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1070(2022) 012021 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/1070/1/012021.
4. S I Khamraev. Study of the combined solar heating system of residential houses. BIO Web of Conferences 71, 02017 (2023) <https://doi.org/10.1051/bioconf/20237102017> CIBTA-II-2023
5. Uzakov G. N., Charvinski V. L., Ibragimov U. Kh., Khamraev S.I., Kamolov B. I. (2022) Mathematical Modeling of the Combined Heat Supply System of a Solar House. Energetika. Proc. CIS Higher Educ. Inst. and Power Eng. Assoc. 65 (5), 412–421. <https://doi.org/10.21122/1029-7448-2022-65-5-412-421>
6. Khamraev S.I., Khuzhakulov S.M., Kamolov B.I., Djuraev R.T. Thermal-technical characteristics and thermal regime of energy-efficient solar house // Asian Journal of Multidimensional Research. ISSN: 2278-4853. Vol 10, Issue 5, May, 2021. pp 769-776. SJIF-2021-7.699. DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00450.8
7. Khamraev S.I., Khuzhakulov S.M., Kamolov B.I., Khusunov Sh.Kh., Narzullaev B.A. Analysis Of Scientific Research On The Use Of Renewable Energy Sources In The Heat Supply System // The American Journal of Applied Sciences. ISSN- 2869-0992 Volume 03 Issue 04- 2021 | pp. 264-274. SJIF-5.634. DOI: <https://doi.org/10.37547/tajas/Volume03Issue04-37>
8. Xamrayev S.I, Ibragimov U.X, Kamolov B.I, Zuvaytova. Z.K. Quyosh kollektorli suvli issiq pol tizimi quvuridan issiqlik berish jarayonini modellashtirish. Innovasion texnologiyalar. -Qarshi, 2022. Maxsus son. 68-74 betlar. (05.00.00; № 38).
9. Клён А.Н., Ефременко В.В. Экономическая эффективность использования систем горячего водоснабжения на основе солнечных коллекторов. // Технологический аудит и резерви производства. 2015, №5/5(25). – с. 10-14.
10. Ким В.Д., Хайриддинов Б.Э., Холлиев Б.Ч. Естественно-конвективная сушка плодов в солнечных сушильных установка: практика и теорий. – Ташкент.: Фан, 1999, - 378 с.
11. Бекман У. Расчет системы солнечного теплоснабжения: Пер. с англ./ У. Бекман, С.Клейн, Дж. Даффи. М.: Энергоиздат, 1982. 80 с.
12. Сафонов А.П. Сборник задач по теплофикации и тепловым сетям: Учеб. пособие для вузов. – М.: Энергоатомиздат, 1985. – 232 с.

YASHIL ENERGIYA ISTIQBOLLARI, ENERGIYA TEJAMKOR INNOVATSION TEXNIKA VA TEKNOLOGIYALAR

Qodirov Farrux Ergash o'g'li, i.f.f.d, PhD,
Mavlonova Muxlisa Nizomiddin qizi, talabasi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
mavlonovamuxlisa03@gmail.com

Kirish. Yashil energiya va energiya tejash texnologiyalari zamonaviy dunyoda muhim ahamiyatga ega. Global iqlim o'zgarishi, energiya resurslarining tugashi va atrof-muhitning

ifloslanishi kabi muammolarni hal qilish uchun yashil energiya manbalariga o'tish zarur. Ushbu tadqiqotda energiya tejash texnologiyalari va ularning innovatsion yechimlari ko'rib chiqiladi. Yashil energiya manbalari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, energiya tejash texnologiyalarining iqtisodiy va ekologik ta'siri tahlil qilinadi.

Yashil energiya — bu tabiiy manbalardan, masalan, quyosh, shamol, suv va biomassa kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olinadigan energiyadir. Ushbu energiya manbalari atrof-muhitga zarar yetkazmaydi va ularni qayta tiklash mumkin. Yashil energiyaning asosiy afzalliklari:

-Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik: Yashil energiya manbalari karbonat angidrid va boshqa zararli gazlarni chiqarishdan saqlaydi.

-Qayta tiklanish imkoniyati: Ushbu energiya manbalari cheksiz va doimiy ravishda mavjud.

-Energiya xavfsizligi: Yashil energiya manbalari mahalliy darajada ishlab chiqarilishi mumkin, bu esa energiya xavfsizligini oshiradi.

Yashil energiya sohasida istiqbollar juda keng. Quyidagi yo'nalishlar kelajakda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda:

-Quyosh energiyasi: Quyosh panellari va quyosh termal tizimlari orqali energiya ishlab chiqarish. Quyosh energiyasi texnologiyalari narxining pasayishi va samaradorligining oshishi bilan kengaymoqda.

-Shamol energiyasi: Shamol turbinasi texnologiyalari rivojlanmoqda, bu esa shamol energiyasidan foydalanishni yanada samarali qiladi. Katta shamol fermalari va uy sharoitida foydalanish uchun kichik turbinlar ishlab chiqilmoqda.

-Suv energiyasi: Hidravlik energiya va to'liq in energiyasidan foydalanish. Suv energiyasi manbalari, masalan, gidroelektr stansiyalari, energiya ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

-Biomassa: O'simliklar va hayvonlar qoldiqlaridan energiya ishlab chiqarish. Biomassa energiyasi qayta tiklanuvchi manba sifatida ko'plab mamlakatlarda qo'llanilmoqda.

-Geotermal energiya: Yerning ichki issiqligidan foydalanish. Geotermal energiya manbalari, ayniqsa, vulqon faoliyatiga ega hududlarda samarali ishlatiladi.

Energiya tejash texnologiyalari energiya iste'molini kamaytirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlardir. Ular quyidagi sohalarida qo'llaniladi:

-Energiya samarador qurilishlar: Yangi qurilishlarda energiya samaradorligini oshirish uchun izolyatsiya, energiya tejovchi oynalar va zamonaviy isitish tizimlari qo'llaniladi.

-LED yoritish: An'anaviy yoritish vositalariga nisbatan energiya sarfini sezilarli darajada kamaytiradigan LED yoritish texnologiyalari keng tarqalmoqda.

-Energiya boshqaruv tizimlari: Boshqaruv tizimlari orqali energiya iste'molini monitoring qilish va optimallashtirish. Bu tizimlar energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi.

-Avtomatlashtirilgan tizimlar: Uydagi va ofisdagi energiya iste'molini avtomatik ravishda boshqarish uchun aqlli texnologiyalar, masalan, aqlli termostatlar va energiya monitoring tizimlari.

Yashil energiya va energiya tejash sohasida innovatsion texnika va texnologiyalar rivojlanmoqda. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Energiya saqlash texnologiyalari: Batareyalar va boshqa energiya saqlash tizimlari energiya ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Li-ion batareyalar va yangi avlod batareyalar, masalan, qattiq holatli batareyalar, energiya saqlashda muhim ahamiyatga ega.

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini integratsiya qilish: Turli energiya manbalarini birlashtirish va ularni samarali boshqarish uchun aqlli tarmoqlar va energiya boshqaruv tizimlari ishlab chiqilmoqda.

- Yashil transport: Elektr transport vositalari va hibrid avtomobillar energiya iste'molini kamaytirish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Yashil energiya istiqbollari va energiya tejash texnologiyalari zamonaviy energetika tizimlarining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu sohalar atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya xavfsizligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda yashil energiya va energiya tejash texnologiyalari yanada rivojlanib, global energiya tizimining barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Qodirov, F. "optimization of telecommunications power supply systems based on reliability criteria." Science and innovation 2.A12 (2023): 15-20.
2. F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtirish. Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.
3. F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
4. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
5. Farrux Qodirov. Business Innovation Model Of Income And Costs From The Provision Of Medical Services To The Population. Scienceweb Academic Papers Collection. 2023/1/1
6. Farrux Qodirov. Economic-Mathematical Modeling Of The Development Of The Provision Of Medical Services To The Population. Scienceweb Academic Papers Collection. 2023/1/1
7. Farrux Qodirov. The Place Of Econometrical Modeling Of Healthcare Quality Improvement In The Digital Economy. Scienceweb Academic Papers Collection. 2023/1/1
8. Farrux Qodirov. Development Of Scientific And Technological System Of Management Of Industrial Enterprises. Scienceweb Academic Papers Collection. 2023/1/1
9. Ergash O'G'li, Qodirov Farrux. "Creation Of Electronic Medical Base With The Help Of Software Packages For Medical Services In The Regions." Conferencea (2022): 128-130.
10. Ergash O'G'li, Qodirov Farrux. "Importance Of Kash-Health Web Portal In The Development Of Medical Services In The Regions." Conferencea (2022): 80-83.
11. Qodirov, Farrux. "The Role Of Ict In The Development Of Health Services." Raqamli Transformatsiya Jarayoniga Axborot Texnologiyalarini Joriy Etishda Ma'lumotlarni Himoyalash Muammolari Va Yechimlari Respublika Ilmiy-Amaliy Anjumani Ma'ruzalar To'Plami (2022).
Фаррух Қодиров. Аҳолига Хизмат Кўрсатиш Соҳасининг Моделлаштиришни Тизимли Имитация Қилиш. Biznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата Публикации 2022.

12. Farrux, Qodirov. "Foreign Experience In The Development Of Medical Services To The Population." Хоразм Маъмун Академияси (2022).
13. Қодиров, Фаррух. "Аҳолига Соғлиқни Сақлаш Хизматлари Кўрсатишнинг Ижтимоий-Иқтисодий Ривожланиши Таҳлили." Agro Ilm (2022).
14. Qodirov, Farrux. "Vektor Va Skalyar Maydonlar. Gradiyent Va Yo'Nalish Bo'yicha Hosila. Divergensiya Va Rotor. Sath Chiziqdari. Gradiyent Maydonlar. Oqimlar." Analytical Journal Of Education And Development (2022).
15. Qodirov, Farrux. "Furye Qatori Funktsiyalarni Furye Qatoriga Yoyish." Математик Физика Ва Математик Моделлаштиришнинг Замонавий Муаммолари Халқаро Илмий-Амалий Анжуман Материаллари Тўплами(2021).

COMSOL MULTIPHYSICSDA BIOMASSA PIROLIZ JARAYONINING KINETIKASINI MODELLASHTIRISH

Sayyora Gulyamovna Mamatkulova
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute, urisheva80@mail.ru

Piroliz jarayoni vaqtida biomassa qanday harakat qilishini taxmin qilish uchun piroliz kinetikasini tushunish muhimdir. Shuningdek, u jarayonni optimallashtirish uchun tegishli reaktor va matematik reaktor simulyatsiyasini yaratishda yordam beradi. Uglevodorod chiqindilarini issiqlik bilan qayta ishlash va biomassa sohasida piroliz kinetikasi va xom ashyo tarkibining ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Makkajo'xori so'talari yuqori kaloriya qiymatiga va bioneft rentabelligi kabi afzalliklariga ega [1], ushbu tadqiqot ishida Comsol multiphysics dasturiy ta'minoti (DT) yordamida tahlil qilish uchun 0,02 m² o'lchamiga ega bo'lgan va quyidagi termofizik xususiyatlarga ega bo'lgan makkajo'xori so'tasi biomassasi ishlatilgan. Comsol Multiphysicsda tadqiqotni o'tkazish uchun kerakli eksperimental shartlar o'rnatildi.

Comsol multiphysicsda tadqiqotni o'tkazish uchun quvurli reaktorda inert atmosferaga ega izotermik o'choqdan iborat eksperimental tizim yaratildi. Termoparalar (TP) yordamida o'choqning harorati uzluksiz o'lchandi va o'choq kamerasi orqali o'tadigan azot orqali inert atmosferaga erishildi. Tajribada 1 kg biomassa izotermik reaktorga joylashtirildi va namunaning harorati va massasi piroliz jarayonida qayd etib borildi.


Makkajo'xori so'tasi bo'lagi biomassasining piroliz kinetikasini o'rganish uchun tadqiqotda Kissinger usulidan foydalanilgan [2, 3]:

$$\ln\left(\frac{\beta}{T_m^2}\right) = \ln\left(\frac{AR}{E}\right) - \frac{E}{RT_m}$$


bu erda: E-faollashtirish energiyasi (kJ/mol), T - mutlaq harorat (K), T_m - eng yuqori harorat (K), A - chastota koeffitsienti, (min⁻¹), β - isitish tezligi (°C/min), R - gaz doimiysi (kJ/mol·K).

Comsol Multiphysics asosidagi makkajo'xori so'tasi kabi biomassaning piroliz jarayonini 0÷10 min vaqt oralig'ida, isitish harorati 500 °C bo'lgan holda modellashtirishda quyidagi natijalar olingan (rasm.1-3).

Datchiklar tomonidan o'lchangan harorat ma'lumotlariga asoslanib, biz isitish tezligini topamiz (3-rasm). Buning uchun biz biomassa yuzasidagi harorat va biomassa markazidagi haroratning arifmetik o'rtacha qiymatidan foydalandik.




a)




b)

1-rasm. Piroliz jarayonida harorat o'zgarishi: a)biomassa yuzasida, b) biomassa markazida



2-rasm. Vaqtga nisbatan biomassa massasi o'zgarishi.



3-rasm. Makkajo'xori so'tasi bo'lagi uchun Kissinger grafigi.

Kissinger usulidan foydalanish uchun eng yuqori harorat biomassa bo'lagining yuzasi va markazidagi haroratga qarab o'rtacha arifmetik harorat qiymatlarini hisoblandi va eng yuqori harorat tanlandi va bu qiymat har xil isitish tezligida doimiy qilib olindi. To'g'ri chiziq (3-rasm) Kissinger usuli yordamida olindi, undan kinetik konstantalar hisoblandi. Kinetik konstantalar eng kichik kvadratlar usuli asosida hisoblandi.

Faollashtirish energiyasi va chastota koeffitsienti 2-jadvalda ko'rsatilganidek, chiziqli regressiya va kesishish chizig'ining qiyaligidan olindi. Faollashtirish energiyasi va chastota koeffitsiyenti 51,53 kJ/mol va $6,2 \times 10^3 \text{ sek}^{-1}$ ni tashkil qiladi.

3-Jadval.

Kissinger usuli yordamida aniqlangan makkajo'xori boshog'ining kinetik parametrlari.

Biomassa	Isitish tezligi ($^{\circ}\text{C}/\text{сек}$)	T_{max} ($^{\circ}\text{C}$)	E (kJ/mol)	A (сек^{-1})	R ²
Makkajo'xori so'tasi bo'lagi	1,30	95,38	51,53	$6,2 \cdot 10^3$	0,63
	1,48	198,54			
	1,47	263,54			
	1,34	336,38			
	1,22	368,38			
	1,08	411,86			
	1,06	464,59			
	0,92	478,49			
	0,83	467,37			

O'tkazilgan tadqiqot bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: 190 $^{\circ}\text{C}$ haroratda biomassa massasini yo'qotishni boshladi, massa yo'qolishi esa 432 $^{\circ}\text{C}$ haroratda to'xtadi. Kinetik parametrlar Kissinger usuli bilan hisoblab chiqildi. Olingan natijalar kelajakda biomassa piroliz jarayonini optimallashtirish uchun foydali bo'ladi. Kissinger usulida kinetik parametrlar butun piroliz jarayoni uchun bir xil bo'ldi. Modeldagi harorat va isitish tezligi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,79 ga teng.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Damartzis, Th., Vamvuka, D., Sfakiotakis, S. and Zabaniotou, A., "Thermal degradation studies and kinetic modeling of cardoon (*Cynaracardunculus*) pyrolysis using thermogravimetric analysis (TGA)", *Bioresource Technology*, Vol. 102, (2011), 6230-6238. (<http://dx.doi.org/10.1016/j.biortech.2011.02.060>).
2. Z. Kaczor, Z. Buliński, S. Werle: Modelling approaches to waste biomass pyrolysis: a review, *Renewable Energy*, 2020, Volume 159, Pages 427-443, ISSN 0960-1481, <https://doi.org/10.1016/j.renene.2020.05.110>.
3. Heydari, M., Rahman, M. and Gupta, R., "Kinetic study and thermal decomposition behavior of lignite coal", *International Journal of Chemical Engineering*, Vol. 2015, (2015), 1-9. (<http://dx.doi.org/10.1155/2015/481739>).

СОСТОЯНИЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МАШИН ПОСЛЕ РЕМОНТА

Бердиев У.Т., к.т.н., профессор,
Нажмиддинов Х., ассистент,
Ташкентский Государственный транспортный университет
Жиянкулов Л.А., ассистент,

Рост числа отказов обусловлен в первую очередь тем, что большинство установленных на подвижном составе асинхронные двигатели уже практически отработали свой ресурс и уже неоднократно подвергались ремонту. Кроме того,

электродвигатели используются в неблагоприятных режимах: это частые перегрузки и постоянное нахождение электродвигателя в рабочем состоянии во время движения [1,3].

Согласно приведенному анализу, по причине недостаточного качества выполнения ремонтных работ выходят из строя 15-20% электродвигателей в течении первых двух месяцев работы, что является недопустимым в условиях движение электрического транспорта. Изучены вопросы испытания асинхронного электродвигателя после ремонта. Испытания является особый процесс после ремонта каждого электродвигателя и от этого зависит многие параметры по номинальным данным электродвигателя [1, 2].

Наиболее эффективным режимом испытаний электрических машин является режим, наиболее приближенный к эксплуатационным. На данный момент не существует специализированных стендов, позволяющих испытывать под нагрузкой широкий сортамент асинхронных электрических машин, различающихся по габаритно-присоединительным параметрам, мощности, высоте оси вращения. Существующие стенды для проверки электродвигателей под нагрузкой, зачастую изготавливаются непосредственно на предприятии и имеют большое количество недостатков [1, 3]. Наиболее полную картину о работоспособности отремонтированной электрической машины, совместно с обязательными мерами контроля состояния электрической машины, могут дать только испытания машины под нагрузкой [2, 3]. Очевидно, что такие операции, как например измерение уровня вибрации или состояния подшипников лучше измерять в условиях, соответствующих их эксплуатационными, а именно под нагрузкой [1].

В настоящее время на территории многих ремонтных организациях электрических машин запрещена рекуперация электрической энергии на предприятиях в целях сохранения ее качества. В таком случае возможно применение нагрузочного устройства с накоплением и циркуляцией электрической энергии в пределах схемы, которое представлено на рисунок-1. Данное схемное решение предусматривает отдачу электроэнергии не напрямую в сеть, а накопление ее в цепи постоянного тока. Осуществить переход к постоянному току возможно при помощи выпрямителя [1, 3]. Накапливать энергию можно в конденсаторе для немедленного использования в цепи постоянного тока предлагаемой системы. Возможно также использование и заряда дополнительного аккумулятора или ионистора.

Частотный преобразователь со звеном постоянного тока включает в себя трехфазный выпрямитель и инвертор для преобразования постоянного тока в переменный трехфазный с заданной частотой [1, 3]. Для накопления энергии постоянного тока используется конденсатор, для стабилизации напряжения применяется преобразователь постоянного напряжения. При помощи выпрямителя 5 происходит преобразование тока [2, 3]. Управление преобразователем и инвертором осуществляется при помощи микроконтроллера.

Схема работает следующим образом. На частотный преобразователь подается трехфазное напряжение с частотой 50 Гц. Далее при помощи управляемого инвертора и микроконтроллера происходит резкое понижение частоты.




Рисунок 1. Схема нагрузочного устройства циркуляцией электрической энергии

Электродвигатель АД переходит в режим рекуперативного торможения с отдачей электрической энергии в сеть. При помощи микроконтроллера и преобразователя постоянного напряжения поддерживается напряжение заряда конденсатора через трехфазный выпрямитель. В целях искусственного нагружения машины при помощи изменения управляющего сигнала микроконтроллера на инвертор, частота напряжения изменяется до номинального значения. После разгона АДТ данный цикл повторяется снова [2]. Конденсатор разряжается на звено постоянного тока преобразователя частоты в момент разгона машины и подпитывает ее запасенной в момент рекуперации энергией. Тем самым осуществляется заметная экономия электроэнергии на процесс испытаний.

Использованная литература

1. Дмитриев В.Н., Кислицын А.Л. Определение характеристик асинхронных двигателей по данным испытаний в неподвижном состоянии //Электротехника. – 2001. – № 5. – С. 25–28
2. Марченко, А.А. Патент RU 149583 U1 «Устройство для нагружения асинхронных двигателей» / А.А. Марченко, Н.Н. Портнягин, С.Ю. Труднев. – Заявлено 17.10.2012; Опубл. 08.12.2014г.
3. Basak, D. Fault diagnosis and condition monitoring of electrical machines Industrial Technology, 2006. IEEE International Conference on.2006.3061–3066.

ELEKTR TARMOQLARINING HOLATLARINI DASTLABKI MA'LUMOTLAR YETARLI BO'LMAGAN YOKI QISMAN NOANIQ BO'LGAN SHAROITLARDA REGRESSION MODELLARDAN FOYDALANIB OPTIMALLASHTIRISH

I.I. Ibragimov, doktorant,
Toshkent Davlat Texnika Universiteti
iskandarisoilovich@gmail.com

Hozirgi davrda elektr energetika tizimlari (EET)ning normal holatlarini tahlillash va boshqarishda asosan aniq modellardan foydalaniladi. Bunda turli xil iterativ matematik

usullardan foydalanish asosida jarayonning xarakterini aniqlash berilgan aniq sxemalar va holat parametrlarida aniq amalga oshiriladi [1, 2]. Bunday hisoblash agoritmlari, dastlabki ma'lumotlarning ma'lum qiymatlarida katta aniqlikka ega bo'ladi. Chunki, bitta yoki bir nechta holat parametrlarini baholashda EETning holatini uning to'liq sxemasi bo'yicha barcha zaruriy dastlabki ma'lumotlarning aniq qiymatlarida amalga oshiriladi. Biroq ushbu usullardan foydalanishning ayrim hollarida barcha ta'sir etuvchi faktorlarni, xususan dastlabki ma'lumotlarning ehtimolli xarakterdaligi va qisman noaniqliqligini, e'tiborga olib bo'lmaydi. Shu sababli hisoblash natijasida aniqlangan parametrlarning qiymatlari ularning haqiqiy qiymatlaridan farq qiladi va tabiiy tarzda muayyan sharoitlarda katta aniqlikka ega bo'lgan hisoblash modelining ahamiyatini pasaytiradi. Bundan tashqari, obyektlardan olinuvchi dastlabki ma'lumotlar tez-tez tasodifiy xarakterda bo'ladi yoki bir qator faktorlar bilan belgilanuvchi xatoliklarga ega bo'ladi

[3]. Bunday sharoitlarda dastlabki ma'lumotlar EETning holatlarini ularning to'liq sxemalari bo'yicha hisoblash va tahlillash uchun yetarli sanalmaydi. Yetmaydigan dastlabki ma'lumotlarni mos usullarni qo'llash orqali aniqlash esa model va olinuvchi natijaning aniqligini pasaytiruvchi qo'shimcha soddalashtirishlar va xatoliklar bilan amalga oshadi. Shu sababli dastlabki ma'lumotlarning ehtimolli xarakterdaligi va qisman noaniqligi sharoitlarida EET holatlarini tahlillash va boshqarish, jumladan ularning qisqa muddatli holatlarini rejalashtirish va operativ holatlarini boshqarish, masalalari maxsus usullardan foydalanish asosida yechilishi zarur.

Hozirgi davrda EET holatlarini dastlabki ma'lumotlarning ehtimolli xarakterdaligi va qisman noaniqligi sharoitlarida tahlillash va boshqarish masalalariga bag'ishlangan bir qator [4-9] singari chet el va mahalliy ishlanmalar mavjud.

[4] da EET holatlarini dastlabki ma'lumotlarning ehtimolli sharoitlarida tugun tenglamalarining ikkita shaklidan foydalanib, stoxastik parametrlarni ehtimollik momentlarini modellashtirish asosida tahlillashning samarali analitik usullari keltirilgan. Ushbu usullar statistik chiziqashtirish algoritmlarini qo'llashni nazarda tutadi. Biroq bunda quyidagicha soddalashtirishlar kiritiladi: yuklamaning ehtimolli normal taqsimlanish qonuniga bo'ysunadi; parametrlarning qiymatlarini matematik kutilmalari nuqtasida tugun tenglamalari chiziqli ko'rinishda tasvirlanadi.

[5] da energetika tizimlarining holatlarini optimallashtirishning dastlabki ma'lumotlarni qisman noaniqligi sharoitlarida maqsad funksiyasining optimallashtiriluvchi parametrlar orqali ifodalanuvchi regression formulalaridan foydalanishga asoslangan algoritmi taklif etilgan. Qidirilayotgan parametrlarning optimal qiymatlarini maqsad funksiyasini shartsiz minimallashtirish orqali topishga asoslangan ushbu algoritmi muayyan sharoitlarda yuqori samaradorlikka ega. Shu bilan bir qatorda ushbu algoritmi ko'plab tengsizlik ko'rinishidagi oddiy va funksional chegaraviy shartlar mavjud bo'lgan sharoitlarda bevosita qo'llash mumkin emas.

[6, 7] da tugunlarning yuklamalarini ehtimolli modellashtirish asosida bashoratlash algoritmlari keltirilgan bo'lib, ular nisbatan katta aniqlikka ega ekanligi bilan farqlanadi. Shuningdek, ushbu algoritmlar hisoblash vositalarining imkoniyatlari cheklangan sharoitlar uchun mo'ljallangan bo'lib, hozirgi sharoit uchun mos tarzda takomillashtirishni talab etadi.

[8, 9] da taqsimlovchi elektr tarmoqlarining normal holatlarini hisoblash va reaktiv quvvat bo'yicha optimallashtirishda dastlabki ma'lumotlarning ehtimolli xarakterda ekanligini e'tiborga olish masalalari ko'rib o'tilgan. Biroq ushbu ishlarda tengsizlik ko'rinishidagi chegaraviy shartlarni hisobga olish masalalari yoritilmagan.

Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olib, hozirgi davrda elektr tarmoqlarining holatlarini dastlabki ma'lumotlarning qisman noaniqligi sharoitida barcha cheklovchi va ta'sir etuvchi faktorlarni hisobga olib optimallashtirish usullari va algoritmlarini takomillashtirish dalzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada elektr tarmoqlarining holatlarini tugunlar bo'yicha dastlabki ma'lumotlarning qisman noaniqligi sharoitlarida barcha turdagi chegaraviy shartlarni hisobga olib regression modellardan foydalanish asosida optimallashtirish algoritmi keltirilgan.

Optimallashtirish algoritmi: Keltirilgan algoritmda elektr tarmoqlarining holatlarini dastlabki ma'lumotlarning qisman noaniqligi sharoitlarida optimallashtirish masalasini yechish uchun asosiy xususiyati nazorat qilinuvchi parametrlar va ularga ta'sir etuvchi faktorlar o'rtasida statistik bog'lanishni aniqlashdan iborat bo'lgan regression modellardan samarali foydalaniladi. Elektr tarmoqlarining holatlarini optimallashtirish masalalarida bunday parametrlar sifatida xususan optimallashtiriluvchi parametrlar – tayanch tugunlarining kuchlanishlari, manbalarning reaktiv quvvatlari va rostlanuvchan transformatorlarning transformatsiyalash koeffitsiyentlari qabul qilinadi.

Bunday masalalarda regressiya tenglamalarining koeffitsiyentlari oldindan regression tahlil va mos approksimatsiyalash usulidan, xususan kvadratik approksimatsiyalashdan, foydalanish asosida aniqlanadi. Quyida elektr tarmoqlarining holatlarini dastlabki ma'lumotlarning qisman noaniqligi sharoitlarida regression modellardan foydalanish asosida barcha turdagi chegaraviy shartlarni hisobga olib optimallashtirish algoritmi qeltirilgan. Uning m'anosi quyidagicha:

1) qisman noaniq dastlabki parametrlarning ruxsat etilgan qiymatlari to'plamidan iborat bo'lgan N ta ixtiyoriy tanlov amalga oshiriladi.;

2) har bir tanlov uchun alohida N marta optimallashtirish masalasi dastlabki parametrlarning aniq qiymatlarida barcha chegaraviy shartlarni hisobga olib yechiladi;

3) optimallashtirish masalalarini yechishda hosil bo'lgan natijalar asosida optimallashtiriluvchi parametrlarning har biri uchun regressiya tenglamasi tuziladi;


4) hosil qilingan regressiya tenglamalaridan foydalanib, barcha rostlanuvchan parametrlarning optimal qiymatlari hisoblanadi.

Shunday qilib, keltirilgan algoritmda regressiya tenglamasi sifatida kvadrat tenglama qabul qilingan. Faktorlar bo'lib, tugunlarning yuklamalari hisoblanadi. Otkliklar – tayanch tugunlarining kuchlanishlari, manbalarning reaktiv quvvatlari va rostlanuvchan transformatorlarning transformatsiyalash koeffitsiyentlaridir. Tugunning optimallashtiruvchi kuchlanishi uchun regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishda tasvirlanadi:

$$U_i = a_{i0} + \sum_{j=1}^n a_{ij} P_j + \sum_{j=1}^n \sum_{k=j}^n a_{ijk} P_j P_k ,$$

bu yerda n - elektr tarmog'idagi tugunlarning soni; a_{i0} , a_{ij} , a_{ijk} - regressiya tenglamasining qiymatlari statik eksperiment asosida aniqlanuvchi koeffitsiyentlari.

Regressiya tenglamalarining koeffitsiyentlarini aniqlashda faktorlar – tugunlarning yuklamalari qiymatlarini belgilangan oraliqda tasodifiy sonlar generatori yordamida hosil qilish mumkin. Otkliklarning mos qiymatlari esa, aniq usullar yordamida optimallashtirish orqali topiladi. Ushbu ishda regression modelning aniqligini eksperimentlar (tanlovlar) soniga bog‘liqligi tadqiq qilindi. Elektr tarmog‘ining turlicha xarakterli sxemalari uchun amalga oshirilgan hisobiy tajribalarning natijalari o‘rganilayotgan jarayonni amaliy maqsadlarda yetarlicha aniqlikda modellashtirish uchun kerak bo‘lgan koeffitsiyentlarning qiymatlarini eksperimentni rejalashtirish usulidan foydalanish, bunda har bir faktor uchun berilgan diapazonda uchtadan – minimal, o‘rtacha va maksimal qiymatlarni olish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Bunday holatda zaruriy eksperimentlarning soni 3^n ga teng bo‘lib, n- faktorlar (yuklama qisman noaniq bo‘lgan tugunlar) soni.



1- rasm. Elektr tarmog‘ining sxemasi.

Natijalar: Keltirilgan algoritmning samaradorligi sxemasi 1- rasmda keltirilgan elektr tarmog‘ining holatini 5 va 9- tugunlarning kuchlanishlari bo‘yicha 1, 4 va 7- tugunlarning aktiv yuklamalari qisman noaniq bo‘lgan sharoitda optimallashtirish misolida tadqiq qilindi. Bunda ushbu tunlarning aktiv yuklamalari mos holda 801,8 – 886,2 MVt; 55,4 – 67,76 MVt; 27 – 33 MVt diapazonda bo‘lib, ularning ushbu oraliqlardagi konkret qiymatlari noaniq xarakterda.

Quyida yuqorida keltirilgan algoritmgaga muvofiq tarzda optimallashtiriluvchi kuchlanishlar uchun regressiya tenglamalarining ular koeffitsiyentlarini 500 ta tanlov va eksperimentni rejalashtirish asosida aniqlash orqali hosil qilingan ko‘rinishlari keltirilgan.

1) tanlovlar soni 500 taga teng bo‘lgan statistik eksperiment asosida hosil qilingan regressiya tenglamalari:

$$U_5 = 220,83 + 0,0413 \cdot P_1 + 0,3582 \cdot P_4 - 0,0348 \cdot P_7 - 0,00011074 \cdot P_1^2 + 0,00078887 \cdot P_1 P_4 + 0,00087082 \cdot P_1 P_7 - 0,00574887 \cdot P_4^2 + 0,00182516 \cdot P_4 P_7 - 0,01198837 \cdot P_7^2 ,$$

$$U_9 = 15,2 - 0,000004 \cdot P_1 - 0,00001 \cdot P_4 - 0,000023 \cdot P_7 + 0,000000002 \cdot P_1^2 + 0,000000006 \cdot P_1 P_4 + 0,000000017 \cdot P_1 P_7 + 0,000000031 \cdot P_4^2 + 0,000000059 \cdot P_4 P_7 + 0,000000086 \cdot P_7^2 .$$

2) eksperimentni rejalashtirish asosida hosil qilingan regressiya tenglamalari:

$$U_5 = 112,72 + 0,775 \cdot P_1 + 1,763 \cdot P_4 - 0,7584 \cdot P_7 - 0,00055488 \cdot P_1^2 + 0,00097513 \cdot P_1 P_4 + 0,000776 \cdot P_1 P_7 - 0,01980088 \cdot P_4^2 + 0,00428843 \cdot P_4 P_7 - 0,0023226 \cdot P_7^2 ,$$

$$U_9 = 15,2 - 0,0000001 \cdot P_1 - 0,0000004 \cdot P_4 - 0,0000005 \cdot P_7 + 6,65 \cdot 10^{-11} \cdot P_1^2 + 2,3 \cdot 10^{-10} \cdot P_1 P_4 + 2,6 \cdot 10^{-10} \cdot P_1 P_7 + 1,46 \cdot 10^{-9} \cdot P_4^2 + 1,3 \cdot 10^{-9} \cdot P_4 P_7 + 3,55 \cdot 10^{-9} \cdot P_7^2 .$$

9- tugunning optimal kuchlanishi uchun hosil qilingan regressiya tenglamalarida tugunlarning aktiv quvvatlari va ularning ko'paytmalari oldidagi koeffitsiyentlar juda kichikligi sababli ularni tashlab yuborish mumkin.

Regressiya tenglamalarining adekvatligini tekshirish elektr tarmog'idagi umumiy aktiv quvvat isrofini uning to'la sxemasi bo'yicha optimallashtirish natijasida hosil bo'lgan qiymatini tugunlarning optimal kuchlanishlarni regressiya tenglamalaridan foydalanib, aniqlash asosida hosil qilingan qiymati bilan solishtirish orqali hamda Fisher mezoni yordamida tekshirildi. Regressiya tenglamalaridan foydalanish orqali tugunlarning kuchlanishlarini optimal qiymatlari aniqlanganda aktiv quvvat isrofining uni aniq qiymatidan o'rtacha kvadratik og'ishi 0,1% dan kichik bo'lib, u amaliy maqsadlar uchun qoniqarli natija sanaladi. 1- jadvalda 1, 4 va 7- tugunlarning aktiv yuklamalarini ayrim konkret qiymatlari uchun tarmoqning to'liq sxemasi bo'yicha aniq optimallashtirish va koeffitsiyentlari eksperimentni rejalashtirish asosida aniqlangan regressiya tenglamalaridan foydalanish asosida optimal kuchlanishlarni topish orqali xosil bo'lgan natijalar keltirilgan

1- jadval.

Optimallashtirish natijalari.

Tugunlarning yuklamalari, MVt			To'liq sxema bo'yicha aniq optimallashtirish natijalari			Regression modeldan foydalanish asosida optimallashtirish natijalari		
P_1	P_4	P_7	U_5, kV	U_9, kV	ζ, MVt	U_5, kV	U_9, kV	ζ, MVt
801,8	61,6	33,0	235,50	15,2	80,892	235,28	15,2	80,944
886,2	61,6	27,0	228,82	15,2	84,195	228,54	15,2	84,316
844,0	67,76	30,0	235,16	15,2	81,486	233,96	15,2	81,791

Xosil bo'lgan natijalarning tahlili keltirilgan regression model yetarlicha katta aniqlikka ega bo'lib, dastlabki ma'lumotlarning yetarli bo'lmagan sharoitlarida amaliy maqsadlar uchun yetarlicha aniqlikdagi optimal yechimni topish imkonini beradi.

Xulosa^ 1) Elektr tarmoqlarining holatlarini dastlabki ma'lumotlar qisman noaniq bo'lgan sharoitlarda regression modellar asosida barcha cheklovchi va ta'sir etuvchi faktorlarni e'tiborga olib optimallashtirish algoritmi keltirildi.

2) Regression modelni qurishda faktorning uchta - minimal, o'rtacha va maksimal qiymatlaridan foydalanish orqali eksperimentni rejalashtirish asosida hosil qilingan koeffitsiyentlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

3) Olingan natijalar elektr tarmoqlari korxonalarining dispetcherlik xizmatlari tomonidan elektr tarmoqlarining holatlarini dastlabki ma'lumotlarning qisman noaniqligi sharoitlarida barcha cheklovchi va ta'sir etuvchi faktorlarni hisobga olib optimallashtirishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фазылов Х.Ф. Насыров Т.Х. Установившиеся режимы электроэнергетических систем и их оптимизация. – Т., «Молия», 1999. 378 с.
2. Насыров Т.Х., Гайбобов Т.Ш. Теоретические основы оптимизации режимов энергосистем. – Т.: «Фан ва технология», 2014, 184 стр.
3. Абдуллаев Д.А., Юнусов Д.Ю. Симметрия в булевых функциях и некоторых классах корректирующих кодов. – Ташкент: Фан РУз, 1987.-144 с.
4. Манусов В.З., Шепилов О.Н. Модель вероятностного анализа режимов электроэнергетических систем// Энергетика и транспорт. – Москва, 1983. – №1. – С. 28-37.
5. Шарипов У.Б. Джуматов М.С. Оптимальное распределение активной мощности электроэнергетической системы между станциями с применением регрессионных моделей// Проблемы информатики и энергетики. – Ташкент, 1999. – №2. – С. 34-38.
6. Аюев Б.И., Макаркин П.Ф., Левандовский А.В. Конкурентный сектор «5-15%» оптового рынка электроэнергии// Новое в российской электроэнергетике. – Москва, 2003. – №3. – С. 3-12.
7. Жежеленко И.В., Саенко Ю.Л., Степанов В.П. Методы вероятностного моделирования в расчетах характеристик электрических нагрузок потребителей. – М.: Энергоатомиздат, 1990. – 128 с.

ELEKTR ENERGETIKA TA'MINOTI TIZIMIDA ASOSIY KO'RSATKICHLARNING TIZIMLI TAHLILI

Doliyev Shoxabbos Qulmurot o'g'li, katta o'qituvchi
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali

Elektr energiyasi ta'minoti tizimi zamonaviy texnologik rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiyotning ko'plab sektor va sohalarida barqaror va uzluksiz faoliyatni ta'minlaydi. Ushbu tizimning samaradorligi va ishonchliligini ta'minlash uchun asosiy ko'rsatkichlarning tizimli tahlili zarur. Bunday tahlil energiya ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish bosqichlarida kuzatish imkoniyatini beradi. Ushbu tezisda elektr energiyasi ta'minoti tizimida asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishning muhim jihatlari va metodlari ko'rib chiqiladi.

-Yoqilg'i turini ishlatish samaradorligi: Elektr energiyasini ishlab chiqarishda ishlatiladigan yoqilg'i turining samaradorligi tizimning barqarorligi va iqtisodiy jihatdan foydaliligiga ta'sir ko'rsatadi. Yoqilg'i turini ishlatish samaradorligini baholash uchun asosan yoqilg'i sarfi va hosil bo'layotgan elektr quvvati o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Ushbu ko'rsatkich elektr stansiyalarining umumiy samaradorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

-Elektr stansiyalarining yuklama ko'effitsienti: Elektr stansiyalarining yuklama ko'effitsienti - ular o'z quvvatini qanchalik to'liq ishlatayotganini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich odatda ishlab chiqarilgan energiya miqdori va maksimal quvvat o'rtasidagi nisbat orqali hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni yuqori darajada ushlab turish, tizimning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

-Texnik yo'qotishlar: Elektr energiyasining uzatish va taqsimlash tizimida texnik yo'qotishlar muhim rol o'ynaydi. Elektr energiyasi uzatish jarayonida turli sabablarga ko'ra

texnik yo'qotishlar yuzaga keladi va bu yo'qotishlarni kamaytirish tizimning umumiy samaradorligini oshirish uchun muhimdir. Bu ko'rsatkichni doimiy ravishda kuzatish orqali yo'qotishlarni optimallashtirishga erishiladi.

-Ishonchlilik va xavfsizlik ko'rsatkichlari: Elektr energiyasi tizimining ishonchliligi va xavfsizligi uning barqaror ishlashiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardir. Ushbu ko'rsatkichlar elektr stansiyalari va uzatish tizimlarining avariyasiz va uzluksiz ishlashini ta'minlash orqali o'lchanadi. Ishonchlilikni oshirish uchun tizimga texnik xizmat ko'rsatish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va avariylarning oldini olish choralari ko'riladi.

-Ishlab chiqarish tannarxi va rentabellik: Elektr energiyasini ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatlarini tahlil qilishda ishlab chiqarish tannarxi va rentabellik asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish jarayonidagi yoqilg'i sarfi, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar bilan aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali elektr stansiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqiladi[1, 2].

Elektr energetika ta'minoti tizimining samaradorligini oshirish va barqarorligini ta'minlash uchun ushbu tizimdagi asosiy ko'rsatkichlarning tizimli tahlili amalga oshiriladi. Quyida bu tahlilni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar keltiriladi:

Statistik tahlil usuli orqali ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi, ularning o'zaro bog'liqligi va tendensiyalari aniqlanadi. Bu usul yordamida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmi, yo'qotishlar va ishlab chiqarish tannarxini aniqlash mumkin. Statistik tahlil orqali tizim samaradorligini baholashda ko'p yillik ma'lumotlar asosida prognozlar tuzish mumkin.

Elektr energetika tizimidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun simulyatsiya modellari keng qo'llaniladi. Bu modellarda turli parametrlar o'rtasidagi bog'liqlik hisobga olinadi va tizimning turli sharoitlardagi ishlash imkoniyatlari tadqiq qilinadi. Simulyatsiya modellari yordamida texnik yo'qotishlarni kamaytirish, yoqilg'i samaradorligini oshirish va xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha optimal yechimlar topiladi.

Elektr energiyasi ta'minoti tizimida asosiy ko'rsatkichlarni prognozlash tizimning kelajakdagi holatini baholash uchun zarur. Bu usulda statistik tahlil va simulyatsiya natijalari asosida ko'rsatkichlarning kelajakda qanday o'zgarishini oldindan bilish mumkin. Prognozlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlarini optimallashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Elektr energiyasi tizimidagi ko'rsatkichlarni doimiy ravishda kuzatish tizimning samaradorligi va ishonchliligini oshirishda muhimdir. Monitoring usullari yordamida elektr stansiyalarining real vaqt rejimida ishlash ko'rsatkichlari, texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash choralari kuzatish mumkin. Monitoring tizimi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Elektr energiyasi ta'minoti tizimidagi asosiy ko'rsatkichlarning tizimli tahlili natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlanadi: Yoqilg'i samaradorligini oshirish, texnik yo'qotishlarni kamaytirish va tizimni optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni yaxshilash mumkin. Tizimli tahlil natijalarini muntazam kuzatish va monitoring qilish orqali ishlab chiqarish va iste'mol hajmini optimallashtirish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va tizim samaradorligini oshirish mumkin. Energiya tejash tadbirlarini amalga oshirishni

rag'batlantirishga mos keladigan qonuniy, huquqiy - me'yoriy va uslubiy asoslari hosil qilish zarur [3].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Elektr energiyasi ta'minoti tizimidagi asosiy ko'rsatkichlarning tizimli tahlili orqali tizim samaradorligini oshirish, texnik va tijoriy yo'qotishlarni kamaytirish, xavfsizlikni ta'minlash va ishlab chiqarish tannarxini optimallashtirish mumkin. Statistik tahlil, simulyatsiya modellari va monitoring kabi zamonaviy usullar yordamida bu jarayon samaradorligini oshirishda katta natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmonov I.U., Sattorov X.A., Meliqo'ziyev M.V. «Elektr ta'minoti tizimida elektr energiyasi nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimlari». Darslik. Toshkent: 2019, 226b.
2. Sharma, A. (2017), "Performance bench marking for electricity distribution utilities", Presentation for 11th capacity building program for officers of Electricity Regulatory Commission. <https://jetir.org/papers/JETIR1808678.pdf>
3. Botirov Akbar Sodiq o'g'li, Irgashev Dilmurod Bekmurodovich. SANOATDA ELEKTR TA'MINOTI TIZIMIDA ENERGIYA TEJAMKORLIGI TEXNIK MUAMMO VA YECHIMLARI. <https://cyberleninka.ru/article/n/sanoatda-elektr-ta-minoti-tizimida-energiya-tejamkorligi-texnik-muammo-va-yechimlari>

ENERGIYA TEJAMKORLIGIGA ERISHISHDA NOSIMMETRIYA DARAJASINI PASAYTIRUVCHI USULLARDAN FOYDALANISH

Ibroximov Islombek Zafarjon o'g'li,
NamMTI assistenti, islombekibroximov9851@gmail.com

Bugungi kunda elektr energetika tarmog'ining ishonchli va samarali ishlashini ta'minlamasdan turib iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat hududlarining sanoat salohiyatini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish va hayot sifatini yaxshilashga erishib bo'lmaydi. Rivojlanish qanchalik kattalashgan sari elektr energiyasiga bo'lgan talab ortib boraveradi. Elektr energiya tovar hisoblanib, uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki uni ishlab chiqarilgan joydan boshqa joyga uzatganda boshqa hech qanday sarf xarajatlarni talab etmaydi balki o'zining bir qismini sarflaydi. Elektr energiyasi, turli xil ishlab chiqarish jarayonlarida uning yaroqliligini baholashga imkon beradigan ma'lum xususiyatlarga ega.

Elektr energetikasi sohasida, energiyani ta'minlash va iste'mol qilish elektr energiyasi sifatiga birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Sifatsiz elektr energiya iste'moli tarmoq kuchlanishining sifatiga salbiy ta'sir qiladi ya'ni, elektr energiyasini uzatishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining yomonlashishiga, aktiv quvvat yo'qotishlarining oshishiga va ishonchlilikning pasayishiga olib keladi.

Elektr energisining sifat ko'rsatkichlaridan biri bu – kuchlanish nosimmetriyasi hisoblanadi. Ko'p hollarda kuchlanish nossimmetriyasi elektr yuklama nosimmetriyasi-dan kelib chiqadi va bu tizimli yoki ehtimollik xarakterga ega. Past kuchlanishli tar-moqlarda nosimmetrik yuklamalar neytraldagi tokning oshishiga olib keladi. Kuchla-nish


nosimmetriyasi bir fazali elektr iste'molchilarining muddatidan oldin ishdan chi-qishi yoki xizmat muddatini qisqarish xavfini keltirib chiqaradi.

Kuchlanish nosimmetriyasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

Nominal liniya kuchlanishiga U_{nom} asosiy chastotaning teskari ketma-ketlikdagi kuchlanishining U_2 nisbati bilan teng bo'lgan kuchlanish nosimmetriyasini teskari ketma-ketlik koeffitsienti K_{2U} , %;

Nominal faza kuchlanishiga U_{nom} asosiy chastotaning nol ketma-ketlikdagi kuchlanishining U_0 nisbati bilan teng bo'lgan kuchlanish nosimmetriyasini nol ketma-ketlik koeffitsienti K_{0U} , %.

Neytrali yerga samarali ulangan 0,4 kV kuchlanishli tarmoqlarda kuchlanish nosimmetriyasini kamaytirish uchun energiya tejamkorligi, murakkabligi, narxi, samaradorligi, ishlash prinsipi va iste'molchilarning ayrim toifalari uchun mavjudligi bilan farq qiluvchi turli xil usullar va texnik vositalar ishlab chiqilgan. Ularning barchasini, amalga oshirish yo'lida texnik va tashkiliy qismlarga bo'linadi. Texnik qismida mavjud elektr tarmog'iga ma'lum qurilmalarni ishlab chiqish va joriy etishni, mavjud tarmoqni rekonstruksiya qilishni o'z ichiga oladi.



1-rasm Kuchlanish nosimmetriyasini kamaytirish usullari

Tashkiliy qismda yangi qurilgan tarmoqlarni loyihalash bosqichida ma'lum qarorlarni qabul qilish, mavjud elementlar va qurilmalar va ushbu tarmoqning amaldagi tuzilmasidan foydalangan holda mavjud tarmoq bilan turli xil vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

1 - rasmdan 0,4 kV kuchlanishli tarmoqlarda kuchlanish nosimmetriyasi darajasini kamaytirish usullari keltirilgan: 0,4 kV taqsimlash tarmoqlarining yopiq zanjirlaridan foydalanish, tarmoq fazalari bo'ylab yuklarni qayta taqsimlash, tarmoqning nol ketma-

ketlik qarshiligini kamaytirish, uch fazali tarmoq kuchlanishining nol va teskari tashkil etuvchilari ketma-ketligini yo'qotish. Fazalar bo'yicha yuklamalarni simmetriyalash texnik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tomonidan qo'lda yoki maxsus boshqaruv tizimlari orqali avtomatik ravishda simmetriyalash qurilmalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa o'rnida yuqoridagi usullardan Tarmoq fazalari bo'yicha yuklamani qayta taqsimlashni oladigan bo'lsak, yuklamani qo'lda yoki avtomatik fazalar bo'yicha qayta taqsimlash mumkin bo'ladi. Qo'lda yuklamalarni fazalar bo'yicha davriy ravishda qayta taqsimlash tufayli kuchlanish nosimmetriyasi darajasini pasaytirish usulining kamchiliklari shundaki, yuklamaning o'zgaruvchan tabiati tufayli bajarilgan operatsiyalar natijasida olingan natijalar barqaror qolmaydi va qisqa yoki uzoq muddatli uzilishlar sodir bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda shunday avtomatik qurilma yaratishimiz kerakki, yuklamakarni fazalar bo'yicha qayta taqsimlashda iste'molchilarda energiya uzilishi bo'lmasligi va kuchlanishi bergilangan nominal qiymatdan o'zgarimasligiga erishishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliddinov I.X. Elektr energiyasini sifat ko'rsatkichlari. Allayev Q.R. tahriri ostida. Farg'ona 2022.
2. ГОСТ 13109-97. Нормы качества электрической энергии в системах электроснабжения общего назначения. - М.: Изд-во стандартов, 1998. – 31.
3. Дед, А.В. Дополнительные потери мощности при несимметрии напряжения в электрических машинах / А.В. Дед, А.В. Паршукова // Роль технических наук в развитии общества. – 2014. – С. 10–13.

ELEKTR ENERGETIKASI TA'MINOTI TIZIMINI UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING O'RNI


Ibroximov Islombek Zafarjon o'g'li,
Namangan muhandislik-texnologiya inistituti assistenti,
islombekibrohimov9851@gmail.com

Energetika – bu havo kabi asosiy ehtiyojimiz hisoblanadi. Agar elektr o'chib qolsa, biz darhol o'zimizni qorong'u asirlarga tushub qolgandek his qilamiz. Bundan tashqari texnologiya va iqtisodiyotni rivojlanishida elektr energiyasining ro'li beqiyos. Shunday ekan oldimizga qo'yiladigan muhim masalalardan biri elektr energetikasi ta'minoti tizimi uzluksizligini taminlashdir. Bu masalaning yechimlaridan biri sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalana bilishdir.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga: quyosh energiyasi, shamol energiyasi, geotermik energiya, to'lqin energiyasi, bioyoqilg'i, biomassalar kiradi.

Qayta tiklanuvchi energetika sohasi rivoji mamlakatning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar mavjudligi va moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq. Ya'ni mazkur yo'nalishda hamma bir xil imkoniyatga ega emas. Masalan, Islandiya geotermik - yer bag'ridagi issiqlikdan foydalanish borasida keng salohiyatga ega bo'lsa, Italiya va Ispaniyada quyosh energiyasi bo'yicha ustunlik mavjud. Daniya, Niderlandiya va Germaniya shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha Yevropa Ittifoqida yetakchilik qiladi. AQSh, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlar esa quyosh, shamol va suv energetikasini strategik yo'nalish deb belgilagan. Bizning

mamlakatda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan quyosh va shamol energiyasidan samarali foydalanish bergilanmoqda.




1-rasm. Quyosh panellari yordamida elektr energiya olish tizimi.

Afzalligi: ekologik jihatdan toza va tabiiy qayta tiklanuvchi energiya, texnik xizmat ko'rsatishning qulayligi, ishning avtonomligi (aloxida tarzda), ishlatish uchun qulay va xavfsiz, shovqinsiz ishlashi (xarakatlanuvchi qismlarning yo'qligi bilan xam ajralib turadi), elektromagnit shovqin filtrlari va ularni muxitga moslashtirishda qo'l keladi, reaktiv quvvatni kompensatsiyalanganligi, elektr rezonasdan uskunalarining shikastlanish xavfining kamligidadir.



a) joylashishi



b) tuzilishi.


2-rasm. Shamol elektr qurilmalarining joylashishi (a) va tuzilishi(b)

1-fundament; 2-kuch kontaktorlari va boshqaruv zanjirini o'z ichiga olgan kuch shkafi; 3-mino-ra; 4-chiqish narvoni; 5 -aylantirish mexanizmi; 6 - gondola; 7 - elektr generatori; 8 - shamol yo'nalishi va tezligini kuzatuvchi tizim(anemometr) 9 - to'xtatish tizimi; 10-transmissiya; 11-parraklar;12-parraklar joylashish burchagini o'zgartirish tizimi;13 -rotor qalpog'i.

Kamchiligi: elektr ishlab chiqarish miqdori iqlim sharoitiga bog'liq, panellarning ishlashi ma'lum atmosfera sharoitida pasayadi, kechasi yoki yomg'irli kunlarda elektr energiyasi ishlab chiqara olmaydi, energiya zichligi past, standart sharoitda $1000W/m^2$ ga teng, nisbatan past samaradorlik, samaradorligi 25% atrofida, katta o'lchamlarda foydalanilganda katta maydon talab qiladi.

Afzalligi: shamol elektr stansiyalari atrof - muhitga zararli chiqimlar chiqarmaydi, shamol energiyasi ma'lum sharoitlarda qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan raqobatlasha oladi, shamol energiyasining manbai bitmas- tunganmas tabiat maxsuli, shamol elektr qurilmalari nisbatan kichik joy egallaydi.

Kamchiligi: shamol tezligi beqaror va boshqarish qiyin, shamol energiyasidan foydalanish jo'g'rofiy joylashuvi bilan cheklangan, turli tovush spektrlarida zararli shovqinlarni hosil qiladi, turli aloqa tizimlariga xalaqit berishi, ishlab chiqarilgan energiyani saqlab qolish qiyinligi.



3-rasm. Shamol elektr va Quyosh elektr texnologiyalarini birlashtirgan Gibrid elektr tizimi.

Gibrid elektr tizimi yagona elektr tizimiga qaraganda bir nechta afzalliklarga ega. Quyosh elektr tizimlaridagi ayrim kamchiliklarni shamol elektr tizimlari bilan yoki shamol elektr tizimlaridagi kamchiliklarni quyosh elektr tizimlari bilan o'rnini to'ldiriladi. Masalan kunduzi quyoshdan elektr energiyasi olinib kechasi yoki yomg'irli kunlarda olishga imkon bo'lmasa, shamol elektr qurilmalari yordamida elektr energiyasi olish mumkin. Yoki buning aksi, shamol esmagan quyoshli kunlarda quyoshdan elektr energiyasi olish mumkin. Yuqorida keltirilgan gibrid tizimi quyosh va shamol elektr tizimlaridagi kamchiliklarga asoslanib, ikki yoki undan ortiq qayta tiklanuvchi energiyadan gibrid qayta tiklanuvchi energiya tizimi yaratish uchun birlashtirilmogda. Bundan asosiy maqsad elektr energiyasi ishlab chiqarishni yaxshilash, xarajatlarni minimallashtirish, qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqish bilan bog'liq salbiy ta'sirlarni kamaytirish va umumiy tizim samaradorligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiya, Toshkent, 2020 yil.
2. "NOANA'NAVIY VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI" T.SH. Majidov Toshkent – 2014

EXERGETIC EVALUATION OF THE HEAT SUPPLY SYSTEM WITH SOLAR REFLECTORS IN THE CONDITIONS OF THE SOUTH OF UZBEKISTAN

Sh.B. Imomov (PhD),
University of Economics and Pedagogy
K.B. Karshiyev
Karshi Institute of Irrigation and Agrotechnics at the NRU "TIIME"

The degree of thermodynamic perfection of the system of flat reflectors installed on the north side of the building [1] can be assessed by the exergy indicators of its efficiency - the exergy efficiency factor. When determining the exergy efficiency of a system of flat reflectors installed on the north side of a building with solar heating, we accept the following conditions:

- in the first approximation, the useful exergy E_{us} is the exergy of solar radiation that passed through the light opening E_{op} ;

- as the exergy of the incident solar radiation, the exergy of the solar radiation incident on the surface of the reflector is taken;

- the flow of scattered (diffuse) solar radiation is not taken into account.

Taking into account the accepted conditions, the exergy efficiency of η_e reflectors is determined by the ratio of the fluxes of useful exergy of solar radiation $E_{us} = E_{pa}$, passed through the aperture, and the exergy of solar radiation end incident on the plane of the reflector:

$$\eta_e = E_{us} / E_{fal} = E_{pa} / E_{fal}. \quad (1)$$

The exergy E_{pa} of the solar radiation that has passed through the aperture is determined by the formula [2]:

$$E_{pa} = S_{pa} \eta_t. \quad (2)$$

The flux of solar radiation S_{pa} passed through the aperture [1]:

$$S_{pa} = S_{\perp} F_{lig} K R; \quad (3)$$

where S_{\perp} - is the flux of direct solar radiation to the surface perpendicular to the rays;

F_{lig} is the surface area of the light aperture;

K - coefficient of light transmission of direct solar radiation by a light aperture;

R - is the specular reflection coefficient of the reflector surface.

Thermal efficiency η_t of the reversible Carnot cycle in the temperature range T_t and T_o

$$\eta_t = \frac{T_t - T_o}{T_t}; \quad (4)$$

where T_t - is the air temperature in the room;

T_o - outside air temperature.

Exergy of solar radiation E_{fal} incident on the plane of reflectors:

$$E_{fal} = S_{fal} \psi. \quad (5)$$

The flux of direct solar radiation incident S_{fal} on the surface of the reflector:

$$S_{fal} = S_{\perp} F_p \cos i; \quad (6)$$

where F_r - is the surface area of the reflector;

i - angle of incidence of direct solar radiation on the plane of the reflector.

Coefficient of solar radiation exergy dependence on ambient temperature [2]:

$$\psi = 1 - \frac{1}{3} \frac{T_o}{T} \left[4 - \left(\frac{T_o}{T} \right)^3 \right]; \quad (7)$$

where $T = 5762$ K is the effective surface temperature of the solar photosphere.

Consider the exergy efficiency of reflectors for December 21, 2019 - the day of the winter solstice in the conditions of Karshi. Table 1 shows the temperature regime of outdoor air and indoors during insolation.

Table 1

τ , hour	8	9	10	11	12	13	14	15	16
T_o , K	275,3	276,3	277,7	279,3	281,4	283,3	284,4	284,6	284,3
T_m , K	291	292,5	294,3	296,2	297,4	298	297,7	296,6	294,8

With the given values of T_t and T_0 , the thermal efficiency changes in the range $\eta_t=0.0356\dots0.0564$; solar radiation exergy dependence coefficient on ambient temperature $\psi=0.934\dots0.936$.

On fig. Figures 1 and 2 show graphs of daily changes in incident and transmitted direct solar radiation.

On fig. Figures 3 and 4 show graphs of the daily change in the exergy of the simplest solar radiation and that incident on the reflector plane.

On fig. Figure 5 shows a graph of the daily change in the exergy efficiency of flat solar reflectors installed on the north side of the building. Exergy efficiency varies within $\eta_e=2.79\dots5.38\%$.




Fig.1. Change in direct solar radiation S_{fal} incident on the surface of reflectors, W/m^2 : 1 - 1, 2 - 1, 3 - 1_r reflectors




Fig.2. Change in direct solar radiation S_{pas} passing through the light aperture, W/m^2 : 1 - 1, 2 - 1, 3 - 1_r reflectors




Fig. 3. Change in exergy E_{pas} , transmitted solar radiation, W/m^2 :
 W/m^2 : 1 - 1, 2 - 1_l, 3 - 1_r reflectors





Fig. 4. Changes in the exergy E_{fal} of solar radiation incident on the surface of reflectors: W/m^2 :
 1 - 1, 2 - 1_l, 3 - 1_r reflectors



Rice. 5. Exergy efficiency of solar reflectors $\eta_e, \%$

With the given values of T_t and T_0 , the thermal efficiency changes in the range $\eta_t=0.0356\dots0.0564$; solar radiation exergy dependence coefficient on ambient temperature $\psi=0.934\dots0.936$.

Given:

- graphs of daily changes in incident and transmitted direct solar radiation;

- graphs of diurnal change in the exergy of the simplest solar radiation and incident on the plane of the reflector;

- graph of the daily change in the exergy efficiency of flat solar reflectors installed on the north side of the building. Exergy efficiency varies within $\eta_e=2,9...5,5$ %.

Literature:

1. Имомов Ш.Б., Ким В.Д., Хайриддинов Б.Э. Тепловая эффективность плоских рефлекторов, устанавливаемых с северной стороны здания, в пассивных системах солнечного отопления //Гелиотехника. –Ташкент: Фан, 2003, №4, С.39-44.
2. Авезов Р.Р. Максимальная эксергетическая эффективность плоских солнечных коллекторов //Гелиотехника, 2002, №1, С. 91-94

QUYOSH SUV CHUCHITISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI: YUTUQLAR VA KAMCHILIKLAR

Qudratov Jonibek Bahodir o'g'li, tayanch doktorant,
qudratovjonibeek@gmail.com,

Sultonov Samandar Yamngirovich, tayanch doktorant,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, s.sultonov@gmail.com

Dunyoda jami suv miqdorining atigi 2 foizi chuchuk suv hisoblanadi. Ammo dunyo bo'yicha chuchuk suv teng taqsimlanmagan va bu aholining toza ichimlik suvi tanqisligini keltirib chiqarmoqda [1].


Jahon sog'liqni saqlash xalqaro tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra toza ichimlik suvi tanqisligi natijasida dunyodagi barcha kasalliklarning 80 foizi ifloslangan suv orqali yuqishi aniqlandi [2].

Bugungi kunda butun dunyoda bir milliarddan ortiq odam toza suvga ega emas. Har yili 3,4 million kishi, asosan bolalar suv bilan yuqadigan oldini olish mumkin bo'lgan kasalliklardan vafot etadi [3].

Quyosh suv chuchitish qurilmalari kun davomida yer osti suvi va dengiz suvidan quyosh energiyasi orqali chuchuk suv ishlab chiqaradi.

Hozirgi kunda mavjud quyosh suv chuchitish qurilmalarining fasllarga qarab kunlik chuchuk suv ishlab chiqarish hajmi $2 \div 2.5$ litrdan $4 \div 7$ litrgacha tashkil etadi [4,5,6,7,8]. Poytaxtimizda kishi boshiga to'g'ri keladigan kunlik suv iste'moli sarfi 400 litr, boshqa hududlarda esa $80 \div 100$ litrni tashkil etadi [9]. Katta miqdordagi kunlik suv iste'moli sarfini ta'minlashda mavjud quyosh suv chuchitish qurilmalarining texnik imkoniyati yetarli emas. Bu muammoning yechimi sifatida quyosh konsentratorli suv chuchitish qurilmasining texnologik sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).

Ushbu qurilma chekka hududlarda kunlik suv iste'moli sarfini ta'minlash uchun ishlab chiqildi. Bunda suv nasosi orqali olingan artezian suvi reaktorga quyiladi. Quyosh konsentratori orqali reaktordagi suv qizdirilib bug' holatiga o'tkaziladi. Yuqori haroratdagi bug' vakum nasosi orqali issiqlik almashinuv qurilmasiga yo'naltiriladi va bug' kondensatsiya idishida distillyantga aylantiriladi. Distillyant suv idishida to'planadi va kunlik suv iste'moli sarfiga yo'naltiriladi.



rasm. Quyosh konsentratorli suv chuchitish qurilmasining texnologik sxemasi.
 1-reaktor; 2-quyosh konsentratori; 3,4,8-klapan; 5-suv nasosi; 6-sho'r suv hovuzi; 7-
 artezian suv qudug'i; 9-reaktorga suv uzatish nazorat klapani; 10-hovuzga suv uzatish
 nazorat klapani; 11-so'ruvchi klapan; 12-issiqlik almashinuv qurilmasi; 13-vakum nasosi;
 14-bug' kondensatsiya idishi; 15-distillyant suv idishi; 16-distillyant suv klapani; 17-
 g'ildiraklar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://thewallmagazine.ru/lack-of-fresh-water>
2. <https://daryo.uz/2023/09/18/barcha-kasalliklarning-80-foizi-ifloslangan-suv-orqali-yuqadi-sanepidqomita>
3. Ahmed, S., Karachi, T., 2020. Center for advanced student inwater (issue january).
4. Алхарбави Насир Тавфик Алван, Экспериментально теоретическое исследование опреснения воды с использованием солнечной энергии., avtoreferat, Екатеринбург – 2021
5. Махлин Захар Борисович, ОПИСАНИЕ ИЗОБРЕТЕНИЯ К ПАТЕНТУ № RU2451641C2, 27.05.2012
6. Abubakar Sadiq Isah, Husna Bint Takaijudin, Balbir Singh Mahinder Singh, Umar Alfa Abubakar, Shamsuddeen Jumande Mohammad, Tijani Oladoyin Abimbola, Assessing the performance, sustainability, and economic viability of a photovoltaic-based solar desalination system for water scarce regions, [Journal of Cleaner Production Volume 421](https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2023.138528), 1 October 2023, 138528, <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2023.138528>
7. Ахунов Қамбарали Хамидович, Хомидов Абдуллажон Қамбарали угли, ПЛАВУЧИЙ СОЛНЕЧНЫЙ ОПРЕСНИТЕЛЬ С Z-ОБРАЗНЫМ МЕТАЛЛИЧЕСКИМ ТЕПЛОПРИЕМНИКОМ, Известия ошту, 2021 №2, Часть 1.
8. Jurayev T.D., ПЕРЕНОСНАЯ СОЛНЕСЧАЯ ОПРЕСНИТЕЛЬНАЯ УСТАНОВКА НАКЛОННО-СТУПЕНЧАТОГО ТИПА, Международная конференция, ЕНЕРГО-И РЕСУРСОБЕРЕЖЕНИЙ: НОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАТСИОННЫЕ ПОДХОДЫ, КАРШИ 24-25 сентября 2021 г.
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/23/water/>

TALABALARDA ENERGIYA TEJAMKORLIGI KOMPETENLIKLARNI RIVOJLANTIRIVCHI OMILLAR

Qarov Botir Xamro o'g'li
Rahmonov Shahobiddin Safaralievich

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.

Energiya resurslaridan oqilona foydalanish masalasi har doim kun tartibidagi dolzarb vazifa bo'lib hisoblangan. Energiya resurslariga bo'lgan talabning tobora ortib borayotgan bugungi davrida bu masala yanada dolzarblashib bormoqda. Bugungi kunda energiya tejamkorligining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini shu yo'nalishdaya qinyillar ichida qabul qilingan va qilinayotgan farmon, qaror va bir qator me'yoriy hujjatlar misolida ko'rish mumkin. Respublikamizda energiyani tejash - cheklangan resurslarni iloji boricha uzoqroqqa cho'zish emas, demak, siz energiya resurslari tugaguncha inqirozni uzaytirishdan boshqa hech narsa qilmaysiz. Konservatsiya - bu cheklangan taklifga bo'lgan talabni kamaytirish va uni qayta tiklashni boshlash jarayoni. Ko'p marta buni qilishning eng yaxshi usuli bu ishlatilgan energiyani boshqa manbaga almashtirishdir. Ta'lim energiyani tejashning eng kuchli usulidir. Ta'lim nafaqat odamlarga tabiatni muhofaza qilish muhimligini o'rgatish, balki qurilish, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan muqobil variantlarni ko'rsatishdir.

Energiyani tejamasdan, dunyo o'zining tabiiy boyliklarini yo'qotadi. Ba'zilar buni muammo deb bilmaydilar, chunki bu o'nlab yillar davom etadi va ular tabiiy resurslar yo'qolguncha boshqa alternativa bo'lishini taxmin qilishadi. Kamayishi, shuningdek, umrining qolgan qismiga ta'sir qiladigan ulkan vayron qiluvchi chiqindilarni ishlab chiqarishga olib keladi.

Energiyani tejash usullarining maqsadi talabni kamaytirish, etkazib berishni himoya qilish va to'ldirish, muqobil energiya manbalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish va oldingi energiya jarayonlaridan zararni tozalashdir.

Shu nuqtai nazardan, energiya tejamkorligi kompetentligini ta'lim jarayonida shakllantirish lozim. Inglizcha *“competence”* tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita *“qobiliyat”* ma'nosini ifodalaydi. Mohiyatan esa faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon qila olishni anglatadi.

Talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarning samarasi birinchi navbatda o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir talabada tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim va zarurdir. Integrativ yondoshuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch yelemi (triada) – *“Bilim – Ko'nikma – Malaka oltita birlik(sekstet) – “Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik”* tarzida tahlil qilish talab etiladi.

Zamonaviy didaktika va metodikada ta'kidlanishicha, talabalarni o'qitish, ularni yetuk rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularning dunyoning birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy qonunlari asosida yo'lga solish, ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim muassasalarini yukori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar texnologiya fanini o'qitish jarayoniga xalkaro tajribalarni samarali tatbiq etish, talabalarining intellektual qobiliyatini rivojlantirishda integrativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirdi.

"Energetika, energiya tejash, muqobil energiya manbalari – "Markaziy Osiyoning yashil energiya tejovchi texnologiyalari" quyosh, suv, shamol va bioyoqilg'ining tabiiy resurslaridan foydalanishga asoslangan bo'limi bilan jonli tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi, bu talabalarimizda energiya tejankorligi kompetenliklarni rivojlantirivchi omillardan biri hisoblanadi.

"Competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, "musobaqalashishga layoqatlilik" degan ma'noni ifodalaydi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda keltirilishicha, kompetensiya, kompetentlik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajmi, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'nosi, ham mantiqiy mazmuni jihatidan turli-tumandir. Atamaning mohiyati, shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xocca", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmokda. "Kompetentlik", "kompetensiya" tushunchalarining tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi: bilimlar majmuining amalda qo'llanishi; shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlar; amaliy faoliyatga tayyorlik darajasi; muammolarni hal qilish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati; shaxsning kasbiy faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi; faollashgan (amaliyotga tatbiq qilingan) uquv, bilim, tajribalar majmui; shaxsning maqsadga yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi.

Jahon ta'lim amaliyotida "kompetentlik" tushunchasi o'zida ta'limning intellektual va malakaviy tarkibini birlashtirish, ta'lim mazmunini interpretasiyalash g'oyasini qamrab olish bilan birga madaniyat va faoliyat sohalaridagi keng qamrovli (axborot, huquqiy va h.k.) qator ko'nikma va malakalarni integrasiyalash tabiatiga ega

Kompetensiya - fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetensiyalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ta'lim - talabalarining egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv yuzaga keldi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan texnologiya faning asosiy mohiyati fan doirasida tashkil etilgan o'quv-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi.

H.F. Radionova va A.P. Tryapisnaning fikricha, kompetensiyaviy yondashuvda o'qitish maqsadlari talabalar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirish, talabalarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarni mo'ljallashni nazarda tutish zarur.

Kompetensiya shakllantirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko'ra darajalarga ajratiladi.

Kompetensiyalar o'z ahamiyatiga ko'ra farqlanadi:

1. Tayanch kompetensiyalar- ta'limning umumiy mazmuniga aloqador kompetensiyalar.
2. Umumpredmetli kompetensiyalar - o'quv fanlari va ta'lim sohasining ma'lum sohasiga aloqador kompetensiyalar.
3. Fanga oid kompetensiyalar aniq tavsifga va o'quv fani doirasida shakllantirish imkoniyatiga ega va yuqoridagi ikki kompetensiya darajasiga alohida munosabatni ifodalaydi.

Ma'lumki, oliy ta'lim tizimi talabalarga ta'lim tarbiya jarayoni orqali tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan [2; 5-b.]. Talabalar kelgusi hayotiy faoliyati davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarni hal qilishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallagan bo'lishi lozim.

Talaba shaxsining umumiy rivojlanishi uchun zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya faqat bitta o'quv fani (masalan, texnologiya o'quv fani) doirasida shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Bizningcha, talabaning "Energiya tejamkorligi asoslari" faniga oid kompetensiyasi -shu fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Energiya tejamkorligi asoslari fani darsi jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, talaba shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish talabalarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish imkonini beradi. Energiya tejamkorligi asoslari fani darsi jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, talaba shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish talabalarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirov A.S. Sanoatda elektr ta'minoti tizimida energiya tejamkorligi texnik muammo va yechimlari. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 6 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337.
2. Fomicheva A. K. Uryupina L.S. Formirovanie bazovыx predmetных kompetensiy obuchayushixsya. Metodicheskaya razrabotka. -Moskva. 2012.

3. To'raev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish. Ped. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD). diss. avtoref.-Toshkent. O'zMU, 2018. -B. 27.

4. Абдуфатаев Ш. А. Интеграция - ўқувчиларда компетенцияларни ривожлантиришнинг асоси сифатида.

MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI ASOSIDA MOBIL UYLARNING ENERGIYA TA'MINOT TIZIMLARINI TADQIQ QILISH

Sultonov Samandar Yamgirovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, sultonovsamandar32@gmail.com
Rauf Boynazarov Ne'matillo o'g'li
"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,
raufboynazarov1997@gmail.com
Jo'rayev Nurbek Ro'ziboy o'g'li,
Kitob tumani uz.telecom xodimi jurayevnurbek1992@gmail.com
Ro'ziyeva Zarnigor Qahramonovna
Qarshi davlat universiteti.

KIRISH. Ko'pincha ishlab chiqarilgan uylar deb ataladigan ko'chma uylar qariyb bir asr davomida Amerika uy-joylarining asosiy toshi bo'lib kelgan. Ko'chma uylar dam olish uchun mo'ljallangan treylerlar sifatidagi kamtarona boshlanishidan hozirgi maqomiga qadar arzon, samarali va ko'pincha hashamatli turar-joylargacha, Qo'shma Shtatlardagi kengroq ijtimoiy va iqtisodiy tendentsiyalarni aks ettiruvchi ajoyib evolyutsiyani boshdan kechirdi. Ular uy-joy inqiroziga yechim bo'lib xizmat qilgan, amerikalik zukkolik ramzi va ba'zida *jamiyatda stigma mavzusi bo'lgan*. Ammo, biz bu fikrlash tarzini tarqatish uchun keldik, chunki ularning ahamiyati oddiy boshpanadan tashqari, jamiyat, o'ziga xoslik va Amerika orzusining murakkab masalalariga to'xtalib o'tadi.

Bugungi kunda energiya tejamkor ishlab chiqarilgan uylar arzon, qulay va bardoshli uy-joy variantini taklif qiladi. Ishlab chiqarilgan uylar turli xil dizaynlarda va uchastkada qurilgan uylarga o'xshash zamin rejalarida mavjud.

Mobil uylarning tarixi 20-asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Ular, ayniqsa, bu davrda AQShda arzon uy-joy bilan ta'minlash uchun ishlatilgan. Sanoat 1950-yillarda ishlab chiqaruvchilar yuqori sifatli materiallardan foydalanishni boshlaganlarida sezilarli bumni boshdan kechirdi.

Metodologiya.

Hozirgi kunda butun dunyo olimlari ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, T. Nsilulu, M. Bungu, K. Ramesh, M. Radj, kabi olimlar mobil uylardagi elektr energiyasining avtonom ta'minot tizimi bo'yicha Janubiy Afrikaning ko'pgina hududlarida tadqiqotlar o'tkazmoqda. Ular olib borayotgan ilmiy ish faqatgina elektr energiyani samarali boshqarishga oid bo'lib, muqobil energiyaning boshqa turlari bilan integratsiyalashmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarini jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-

yil 23-iyuldagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va ulardan ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini yuritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 452-sonli qarorlarida iqtisodiyotda energiya hamda resurslar sarini kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida yashil energetika sohasini keng joriy qilishga qaratilgan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, mamlakatimiz energiya manbalaridan uzoq hududlarda mini quyosh elektrostansiyalari qurish va energiya samarador bo‘lgan quyosh kollektorlarini o‘rnatish bo‘yicha muhim topshiriqlar berildi.

Natija va muhokama

Ushbu texnologiyalar, atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish orqali iqlim o'zgarishi bilan kurashishda yordam beradi, chunki ular uglerod izlarini 50-70% ga kamaytirishi mumkin. Iste'molchilar orasida quyosh energiyasiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, bu esa ekologik ongning oshishi va energiya mustaqilligiga bog'liq.

Tadqiqot uslubining tavsifi: Quyosh panellarining zamonaviy o'rnini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot uslublarini qo'llash mumkin:

1. **Nazariy tadqiqot:** Bu uslubda, quyosh energiyasi va uning texnologiyalari, iqtisodiy va ekologik ta'sirlarini o'rganish uchun mavjud adabiyotlar, maqolalar va hisobotlar tahlil qilinadi. Nazariy asoslar, tarixiy rivojlanish va sohadagi yangiliklar batafsil ko'rib chiqiladi.

2. **Empirik tadqiqot:** Bu uslubda, ma'lumotlar to'plash uchun so'rovnomalar, intervyular yoki tajribalar o'tkaziladi. Masalan, quyosh panellaridan foydalanuvchi iste'molchilar yoki kompaniyalar bilan suhbatlar olib borilishi mumkin.

3. **Kvantitativ tahlil:** Statistik ma'lumotlar va raqamli ko'rsatkichlar orqali quyosh energiyasining iqtisodiy va ekologik samaradorligi o'lchanadi. Bu uslubda, energiya ishlab chiqarish, xarajatlar va iqtisodiy foyda kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

4. **Kvalitativ tahlil:** Bu uslubda, intervyu va fokus-guruhlar orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Odamlarning quyosh energiyasiga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy qabul qilish jarayonlari va ekologik ong o'rganiladi.

5. **Taqqoslash uslubi:** Turli mamlakatlar yoki hududlar orasida quyosh panellaridan foydalanish darajasini taqqoslash orqali farqlar va o'xshashliklarni aniqlash. Bu uslub orqali muvaffaqiyatli tajribalar va strategiyalarni o'rganish mumkin.

6. **Geografik axborot tizimlari (GAT):** Quyosh panellarining joylashuvi va ulardan foydalanish natijalarini analiz qilish uchun GAT usullaridan foydalanish mumkin. Bu, energiya resurslarini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Tezidan olingan natijalar: Zamonaviy quyosh panellarining o'rnini o'rganish bo'yicha tadqiqot natijalari quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab olishi mumkin:

a) **Energiya samaradorligi:** Tadqiqotlar natijasida zamonaviy quyosh panellari samaradorligi 20-25% ga yetishi aniqlangan. Bu esa energiya ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshiradi va foydalanish xarajatlarini kamaytiradi.

b) **Iqtisodiy foyda:** Mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadi-ki, quyosh energiyasiga investitsiyalar tez sur'atlar bilan oshmoqda. Ko'p joylarda, quyosh energiyasi narxi an'anaviy energiya manbalariga nisbatan raqobatbardosh darajaga yetdi.

c) **Ijtimoiy qabul qilish:** O'rganishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, iste'molchilar orasida quyosh energiyasiga bo'lgan qiziqish va qabul qilish darajasi yuqori. Bu, asosan, ekologik ongning oshishi va energiya mustaqilligi talabidan kelib chiqadi.

d) **Atrof-muhitga ta'sir:** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, quyosh panellaridan foydalanish natijasida uglerod izlari 50-70% ga kamayishi mumkin, bu esa iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.

e) **Innovatsiyalar:** O'rganishlar davomida quyosh energiyasi texnologiyalarida innovatsiyalar, masalan, quyosh panellari uchun yangi materiallar va batareyalar texnologiyasi, samaradorligini yanada oshirishga yordam bergani ta'kidlangan.

f) **Geografik taqsimlanish:** Tadqiqotlar, quyosh energiyasidan foydalanish darajasi mamlakatlar va hududlar bo'yicha farqlanishi, ba'zi joylarda esa resurslardan to'liq foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Ushbu natijalar zamonaviy quyosh panellarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini keng qamrovli tahlil qilishga yordam beradi va ularning kelajakdagi rivojlanishi uchun yangi yo'nalishlarni belgilaydi.

Ma'lumotlar hamda xulosalar qisqa va aniq bo'lishi kerak

1. **Energiya samaradorligi:** Zamonaviy quyosh panellari samaradorligi 20-25% ga yetadi, bu energiya ishlab chiqarishni sezilarli oshiradi.

2. **Iqtisodiy foyda:** Quyosh energiyasi narxi an'anaviy manbalarga nisbatan raqobatbardosh, investitsiyalar oshmoqda.

3. **Ijtimoiy qabul qilish:** Iste'molchilar orasida quyosh energiyasiga qiziqish ortib bormoqda, bu ekologik ong va energiya mustaqilligiga bog'liq.

4. **Atrof-muhitga ta'sir:** Quyosh panellaridan foydalanish uglerod izlarini 50-70% ga kamaytirishi mumkin, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim.

5. **Innovatsiyalar:** Yangi materiallar va texnologiyalar ishlab chiqilishi, quyosh energiyasining samaradorligini oshirmoqda.

6. **Geografik taqsimlanish:** Quyosh energiyasidan foydalanish mamlakatlar bo'yicha farqlanadi, ayrim hududlarda resurslardan to'liq foydalanish imkoni yo'q.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Zamonaviy quyosh panellari energiya ta'minoti, iqtisodiy barqarorlik va ekologik himoya uchun muhim manba hisoblanadi. Quyosh energiyasiga o'tish, atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va iqlim o'zgarishi bilan kurashishda yordam beradi. Kelajakda innovatsiyalar va geografik imkoniyatlarni hisobga olish, quyosh energiyasining kengayishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 dagi №PF-4947- sonli farmoni.
2. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2017 dagi №PF-5024-sonli farmoni.
3. П.У.Э. Энергоатомиздат – 2021 г.
4. N.S.Abduxalilov B.X.Qo'chqarov "Kuchlanishi 110/35/10 kv li podstantsiyada o'z ehtiyoj transformatorlarini tanlash va ularni asoslash" Monografiya 2023 y.

QUYOSH PANELLARIDAN ELEKTR TOKI OLIISH USULLARI

Xolmonov Umidjon Vasil o'g'li, "TIQXMMI" MTUning
Qarshi irrigasiya va agrotexnologiyalar instituti, 3-bosqich talabasi

Bugungi kunda quyosh panellari qayta tiklanadigan energiya bilan sinonimga aylanib bormoqda. Ular quyosh energiyasidan foydalanishning eng yaxshi usuli. Ushbu oddiy, bardoshli elektr qurilmalar odamlarning umidvor umidiga aylandi va uzoq kelajakda qayta tiklanmaydigan energiya manbalarini ortda qoldirishi mumkin.

Quyosh energiyasini ishlab chiqarish va uzatishning asosiy bosqichlari

1. Quyosh nurlari quyosh panellariga tegib, elektr maydonini hosil qiladi.
2. Ishlab chiqarilgan elektr quvvati panelning chetiga va o'tkazuvchi simga oqib o'tadi.
3. Supero'tkazuvchi sim elektr energiyasini inverterga olib keladi, u yerda doimiy tokdan binolarni quvvatlantirish uchun ishlatiladigan AC ga aylanadi.
4. Yana bir sim o'zgaruvchan tokni inverterdan mulkdagi elektr paneliga (shuningdek, to'sar qutisi deb ham ataladi) o'tkazadi, bu esa kerak bo'lganda elektr energiyasini butun bino bo'ylab taqsimlaydi.
5. Ishlab chiqarishda kerak bo'lmagan har qanday elektr energiyasi kommunal hisoblagich orqali va kommunal elektr tarmog'iga oqadi. Elektr hisoblagich orqali o'tayotganda, hisoblagich orqaga qarab ishlaydi, bu sizning mulkingizni ortiqcha ishlab chiqarish uchun kreditlaydi.

O'zgaruvchan tok (AC) — bu elektr toki bo'lib, vaqti-vaqti bilan yo'nalishini o'zgartiradi va faqat bir yo'nalishda oqadigan to'g'ridan-to'g'ri oqimdan (DC) farqli o'laroq vaqt o'tishi bilan o'z kattaligini doimiy ravishda o'zgartiradi.

Quyosh xujayralari ortidagi asosiy qadamlar

Quyosh panellari quyosh nurini elektr energiyasiga aylantiradigan ko'plab kichik hujayralardan iborat. Bu hujayralar yarim o'tkazuvchan materiallardan, ko'pincha kremniydan, elektr maydonini yaratish uchun zarur bo'lgan elektr nomutanosibligini saqlab, elektr tokini o'tkaza oladigan materialdan iborat.

1-qadam. Quyosh nuri quyosh xujayrasidagi yarimo'tkazgichga tushganda, yorug'lik energiyasi fotonlar ko'rinishida so'riladi va bir qator elektronlarni urib yuboradi, keyin ular hujayra ichida erkin harakatlanadi. Bu elektr maydon driftlangan elektronlarni ma'lum bir yo'nalishda, hujayraning o'tkazuvchi metall plitalari tomon oqishiga majbur qiladi. Bu oqim energiya oqimi sifatida tanilgan va oqimning kuchi har bir hujayra qancha elektr ishlab chiqarishi mumkinligini aniqlaydi.

2-qadam. Bo'shashgan elektronlar metall plitalarga urilgandan so'ng, oqim simlarga yo'naltiriladi, bu elektronlarning boshqa elektr ishlab chiqarish manbalarida bo'lgani kabi oqishiga imkon beradi.

3-qadam. Quyosh paneli elektr tokini hosil qilganda, energiya bir qator simlar orqali invertorga o'tadi. Quyosh panellari to'g'ridan-to'g'ri oqim (DC) elektr energiyasini ishlab chiqaradigan bo'lsa-da, ko'pchilik elektr energiyasi iste'molchilari o'z binolarini quvvatlantirish uchun o'zgaruvchan tok (AC) elektr energiyasiga muhtoj. Inverterning vazifasi elektr tokini doimiy tokdan AC ga aylantirish, uni kundalik foydalanish uchun qulay qilishdir.

4-qadam. Elektr quvvati foydalanish mumkin bo'lgan holatga (AC quvvati) aylantirilgandan so'ng, u inverterdan elektr panelga yuboriladi va kerak bo'lganda bino bo'ylab taqsimlanadi. Chiroqlar, asboblari va boshqa elektr qurilmalarni quyosh energiyasi bilan quvvatlantirish uchun elektr energiyasi hozirda mavjud.

5-qadam. To'sar qutisi orqali iste'mol qilinmagan har qanday elektr energiyasi kommunal hisoblagich orqali kommunal tarmoqqa yuboriladi. Kommunal hisoblagich elektr tarmog'idan sizning mulkingizga va aksincha, elektr oqimini o'lchaydi. Agar quyosh energetikasi tizimingiz saytda ishlatganingizdan ko'ra ko'proq elektr energiyasi ishlab chiqarsa, bu hisoblagich aslida orqaga qarab ishlaydi va siz aniq o'lchash jarayonida ishlab chiqarilgan ortiqcha elektr energiyasi uchun hisoblanasiz. Quyosh massivingiz ishlab chiqaradigandan ko'ra ko'proq elektr energiyasidan foydalansangiz, siz ushbu hisoblagich orqali tarmoqdan qo'shimcha elektr energiyasini tortib, uni normal ishlashini ta'minlaysiz. Agar siz saqlash yechimi orqali tarmoqdan butunlay chiqib ketmagan bo'lsangiz, ayniqsa, quyosh massivingiz ishlab chiqarmayotganda, tarmoqdan biroz energiya olishingiz kerak bo'ladi. Biroq, ushbu tarmoq energiyasining katta qismi kun davomida va kamroq foydalanish davrida siz ishlab chiqaradigan ortiqcha quyosh energiyasidan qoplanadi.

Xulosa: Quyosh energiyasiga O'zbekistonda tobora salohiyatli muqobil energiya manbai deya qaralmoqda. Bundan foydalanib qolishni istayotgan xorijiy shirkatlar o'z texnologiyalarini taklif qilib, O'zbekistonga kela boshlaganlar. O'zbekistonda quyosh energiyasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini belgilandi. Tez orada dastlabki quyosh stansiyalari qaysi manzillarda joriy etilishi ma'lum qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Majidov t. Sh. Toshkent, 2014.
2. www.arxiv.org
3. https://en.wikipedia.org/wiki/solar_energy

KOMBINATSIYALASHGAN ENERGETIK QURILMALI AVTONOM GELIOISSIQXONALARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Raxmatov Obid Ibod o'g'li, assistant,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute, raxmatov_obid@mail.ru

Jahonda avtonom issiqxonalarni uzluksiz va ishonchli elektr va issiqlik energiyasi ta'minotini ishlab chiqishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. 2022-yilda 1,7 milliard AQSh dollariga baholangan Smart issiqxonalarining global bozori 2030 yilga kelib 3,6 milliard AQSh dollari miqdoriga yetishi kutilmoqda va 2022-2030 yillardagi tahlil davrida yillik o'sish surati (Compound Annual Growth Rate, CAGR) 9,5 foizga oshishi kutilmoqda. Hisobotda tahlil qilingan segmentlardan biri bo'lgan apparat 9 foizga CAGRni qayd etishi va tahlil davri oxiriga kelib 2,9 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Dasturiy ta'minot va xizmatlar segmentidagi o'sish keyingi 8 yillik davr uchun CAGR 12% ga baholanmoqda [1].

Tadqiqot ishida qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida issiqxonalarni energiya ta'minotini ishlab chiqish va samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Qishloq xo'jaligi issiqxonalarini geotermal manbali issiqlik nasosi yordamida issiqlik bilan ta'minlash sohasida foydali model ma'lum bo'lib, u issiqxona, tuproq issiqlik almashtirgich, sirkulyatsion suv nasoslari, bug'latgich, kompressor, kondensator, haroratni o'lchash datchigi, issiqlikni nazorat qiluvchi kontroller, issiqlik saqlash uchun suv baki va suv harakatlanuvchi quvurlardan tarkib topgan. Geotermal manbali issiqlik nasosi yordamida qishloq xo'jalik issiqxonalarini isitish an'anaviy isitish tizimiga (elektr energiyasi va tabiiy gaz) nisbatan 6 foizgacha samarador ekanligi keltirilgan. Qurilmaning kamchiligi issiqxonalarni faqat issiqlik bilan ta'minlanishi va elektr energiyasi iste'moli tarmoqdan olinishi qurilmaning samaradorligini pasaytirgan [2].

Avtonom issiqxonalarni issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlashda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha ixtiro ma'lum bo'lib, u avtonom issiqxona, quyosh kollektori, issiqlik akkumulyatorli bak, sirkulyatsion suv nasosi, ketma-ket ulangan issiqlik akkumulyatorli quvurlar, elektr ventilyator, quyosh fotoelektrik batareyalari, qor qoplamasidan himoya shiti, teskari klapanlar, tuproq issiqlik almashtirgich va suv harakatlanuvchi quvurlar tashkil topgan. Avtonom issiqxonani quyosh bo'lmagan vaqtlarda isitishda quyosh kollektori yordamida yer ostidagi issiqlik akkumulyatorli bakda yig'ilgan issiq suvdan foydalaniladi. Issiqxonadagi elektr qurilmalar ya'ni ventilyatorlar va sirkulyatsion suv nasoslari elektr energiyasi quyosh panellari yordamida ta'minlanadi. Qor ko'p yog'adigan hududlar uchun qor qoplamasidan himoya shiti ham taklif qilingan. Avtonom issiqxonani issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi kamchiliklar: quyosh energetik qurilmalariga (quyosh kollektorlari va quyosh fotoelektrik batareyalari) texnik xizmat ko'rsatish murakkabligi, keskin kontinental iqlim sharoitlarida (harorat va changlanganlik darajasini me'yoridan oshib ketishi) quyosh fotoelektrik batareylarining samaradorligini pasayishi, yer ostidagi issiqlik akkumulyatorli bakdagi issiq suvdan foydalanganilganda ma'lum vaqtdan keyin (3 soatdan 5 soatgacha, tashqi haroratga bog'liq) uning harorati keskin o'zgarishi hisobiga elektr va issiqlik tizimining ishonchliligini pasaytirgan [3].

Xufei Yang va bir guruh olimlar issiqxonalarni isitish uchun quyosh issiqlik energiyasini akkumulatsiya qilish imkoniga ega geotermal issiqlik nasosli isitish tizimini samaradorligini

oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Maqsadli issiqxona Venlo tipidagi shisha issiqxona bo'lib, maydoni 112 m² (uzunligi: 14,0 m, kengligi: 8,0 m, tizma balandligi: 4,5 m, karvon balandligi: 3,5 m). Issiqxona atrofi strukturasi ikki qavatli shisha oynadan (5 mm + 6 mm + 5 mm) va issiqxonaning ustki qismi 5 mm qattiqlashtirilgan shishadan iborat. Yozda issiqxonani sovutish uchun bug'lanish sovutish tizimi qo'llaniladi va quyoshdan himoya qiluvchi maxsus parda o'rnatilgan. Issiqxonada nominal quvvati 10,66 kW, issiqlik quvvati 38,4 kW ga ega suv-suv tipidagi issiqlik nasosidan, umumiy yuzasi 40 m², har birining uzunligi 1800 mm va diametri 58 mm bo'lgan vakum quyosh kollektorlardan, issiqlikni akkumulyatsiya qilish imkoniga ega 5 m³ bo'lgan bakdan foydalanilgan [4].

Tunislik olim Sameh Agrebi tadqiqotlarida quyosh energetik qurilmalari bilan kombinatsiyalashgan issiqlik nasosini Tunis davlatida joylashgan issiqxonalarni isitishda qo'llash imkoniyatlarini baholangan [5]. O'lchamlari asos 12,5x8 m, balandlik 2 m, tom qismi 19,8x1 m bo'lgan shisha bilan o'ralgan 100 m² yuzali issiqxonada nazariy va tajribaviy tadqiqotlar olib borilgan. Tunis davlati iqlim sharoitlarida 2 m² yuzali quyosh kollektori 1,5 dan 4 kW gacha issiqlik energiyasini berishi aniqlangan, ushbu issiqxonada "suv-suv" tizimli 10 kW issiqlik nasosidan foydalanishni ilmiy asoslari keltirilgan. Natijalarga ko'ra issiqlik nasosining samaradorligi (COP) qiymatlari mos ravishda 2,8 va 3,7 ga teng ekanligi aniqlangan.

L.A. Aliyarova past potentsialli quyosh qurilmalaridan foydalanib issiqxona havosiga issiqlik-namlik ishlov berish tizimini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan [6]. Tajriba tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, kombinatsiyalangan quyosh kollektorining o'rtacha kunlik FIK ga teng bo'ldi, bu qiymat xuddi shunday havoli quyosh kollektoriga qaraganda 15...16% ga, suvli quyosh kollektoriga qaraganda 13...15% ga yuqori ekanligi aniqlangan. Qarshi shahri sharoitida foydali maydoni 100 m² bo'lgan issiqxonada ventilyatsiya havosiga issiqlik namlik ishlov berish uchun kombinatsiyalashgan suv-havo quyosh kollektorli gelioqizdirish tizimini qo'llanilishi issiqxona ekspluatatsiyasining bir davrida elektr energiyasini tejash imkonini bergan va energiya xarajatlari an'anaviy tizimga qaraganda 22...25% ga kamaytirishga erishilgan.

Sh.H. Ergashev muqobil energiya manbalari asosida kombinatsiyalashgan "chorvachilik gelioissiqxona kompleksi"ning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan [7]. Ishchi maydoni 180 m² bo'lgan gelioissiqxonaning maksimal issiqlik yuklamasi 34,2 kW bo'lib, surunkali bulutli kunlarda chorvachilik binosidagi chorva mollaridan ajraladigan issiqlikni gelioissiqxonaga utilizatsiya qilish natijasida o'rtacha 12,9 kW (38 %) issiqlik bilan ta'minlanishi aniqlangan. Chorvachilik chiqindilarini bioreaktorda qayta ishlash vositasida olingan biogazni suv qizdirish qozonida yoqish orqali 21,3 kW (62%) issiqlik quvvati olinishi aniqlangan.

Yuqoridagi tahlillarga asosan issiqxonalarni muqobil energiya manbalari qurilmalaridan foydalanib issiqlik va elektr ta'minoti tizimini ishlab chiqish energiya uzluksizligi va ekologik muammolarni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan.


Erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, keskin kontinental iqlim sharoitlarida quyosh-issiqlik nasosli issiqxonalarning avtonom energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqish, issiqxonalarning quyosh-issiqlik nasosli energetik qurilmalari asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimini modellashtirish va tadqiq qilish, keskin kontinental iqlim sharoitlarida

issiqxonalarning quyosh fotoelektrik qurilmalari sirtini tozalash va qizishdan saqlash texnologiyasini ishlab chiqish va issiqxonalarning quyosh-issiqlik nasosli energetik qurilmalari asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimining texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlarini hisoblash va iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi keskin kontinental o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida avtonom issiqxonalarni uzluksiz issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlovchi, energiya tejankor kombinatsiyalashgan issiqlik nasosi va quyosh fotoelektrik batareyali energetik qurilma ishlab chiqish.


Usul va materiallar. Kombinatsiyalashgan energetik qurilma quyidagi tartibda ishlaydi: metal ramalarda (1) mustahkam o'rnatilgan quyosh fotoelektrik batareyalari (2) vositasida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi shitda (18) o'rnatilgan zaryadlash va razryadlash kontrolleriga (14) uzatiladi, zaryadlash va razryadlash kontrolleridan (K) (14) akkumulyatorlarga (AKB) (16) elektr energiyasi zahiralanadi, zahiralangan elektr energiyasi inverter (IN) (17) qurilmasi orqali sirkulyatsion suv nasoslari (11,12,13), ventilyatorlar (32,33) va boshqarish imkoniga ega to'rt quvurli klapanlar (23) elektr energiyasi bilan ta'minlanadi, quyosh fotoelektrik batareyalarida (2) o'rnatilgan harorat va changlanganlikni o'lchovchi datchiklardan (3) signal shitga (18) o'rnatilgan harorat rejimini boshqaruvchi kontrollerga (HChK) (15) uzatiladi, quyosh fotoelektrik batareyalarida (2) harorat +25 °C va changlanganlik darajasi 5g/m² oshganda quyosh fotoelektrik batareyalari (2) ustida joylashtirilgan katta (4) va kichik (5) suv quvurlari orqali quyosh fotoelektrik batareyalari (2) to'liq sirti bo'ylab harorati +15 °C bo'lgan suv yuqoridan pastga qarab harakatlanadi, bunda quyosh fotoelektrik batareyalari (2) to'liq sirti changdan tozalanadi va sovutiladi, iflos suv quyosh fotoelektrik batareyalari (2) ostidagi gorizontga nisbatan 10° burchak ostida o'rnatilgan yarim slindr shaklidagi quvur (6) orqali ikki bosqichli suvni tozalash filtrlariga (8,9) yo'naltiriladi, tozalangan suv filtrlardan (8,9) qo'shimcha suvni yig'ish bakiga (10) yo'naltiriladi, suvni yig'ish bakidagi (10) toza suv sirkulyatsion suv nasosi (11) orqali metal tayanchga (19) birlashtirilgan izolyatorli suv bakiga (20) yuboriladi. Bug'latgichga (21) kiruvchi freonning harorati +10 °C bo'lib, bug'latgichdan (21) chiqishda o'rtacha +12...+15 °C ni tashkil qiladi, bu haroratli freon to'rt quvurli klapandan (23) o'tib kompressorga (22) siqiladi va harorat +50...+60 °C gacha ko'tariladi, avtonom issiqxonadagi issiqlik akkumulyatorli suv bakida (26) joylashtirilgan issiqlik rejimida kondensatorga (27) +50...+55 °C haroratli freon kiradi bunda +5 °C quvurlarda isrof bo'ladi, suv bakidagi (26) +45...+55 °C haroratli suv sirkulyatsion suv nasosi (13) vositasida avtonom issiqxonadagi (25) issiqlik almashtirgichlariga (36) uzatiladi, kondensatordan (27) +20...+25 °C haroratli freon chiqib drossel ventil (24) kiradi va harorati +10 °C bo'lib chiqib, bug'latgichga (21) kiradi jarayon shu tariqa doimiy davom etadi, bunda qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritish apparati (35) tizimidagi ventillar (30) yopiq bo'ladi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritish apparatiga (35) o'rnatilgan kondensatorga (27) +50...+55 °C haroratli freon kiradi, bunda ventilyator (32) orqali +45...+50 °C issiq havo quritgichga uzatiladi, kondensatordan (34) +20...+25 °C haroratli freon chiqib drossel ventil (24) kiradi va harorati +8...+10 °C bo'lib chiqib, izolyatorli suv bakiga kiradi, bunda avtonom issiqxona (25) tizimidagi ventillar (29) yopiq bo'ladi. Izolyatorli suv bakida (20) harorati +10...+20 °C bo'lgan suv doimiy saqlanadi. Avtonom issiqxonaning elektr jihozlari, koproressor (22) va boshqarish imkoniga ega to'rt quvurli klapan

(23) elektr energiyasi ta'minotida akumulyator batareyalarida (16) yig'ilgan elektr energiyadan foydalaniladi, shu asnosda $-10...+20\text{ }^{\circ}\text{C}$ past haroratlarda avtonom issiqxona va quritgich apparati (35) energiya tejamkor uzluksiz issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlanadi. 1-rasmda kombinatsiyalashgan energetik qurilmaning texnologik sxemasi keltirilgan. Ushbu avtonom issiqxona uchun Adliya Vazirligidan foydali modelga patent olingan (№ FAP 2431, 06.03.2024) [8].




1-rasm. Kombinatsiyalashgan energetik qurilmaning texnologik sxemasi

Natijalar. Qashqadaryo viloyatida gorizontga nisbatan 38° burchak ostida o'rnatilgan 15 kW quvvatli quyosh panellari yillik o'rtacha elektr energiyasi ishlab chiqarish 86,17 kWh/sutka, yillik umumiy ishlab chiqargan elektr energiyasi 31435,27 kWh ga teng (1-rasm) [9].




2-rasm. 15 kW quvvatli quyosh panellarini ishlab chiqargan elektr energiyasi ko'rsatkichlar



3-rasm. Qashqadaryo viloyatida harorat o'zgarish dinamikasi

2-rasmda Qashqadaryo viloyatida tashqi haroratning o'zgarish dinamikasi keltirilgan. Bunda issiqlik nasoslarning ish rejim parametrlarini tashqi haroratga bog'liq tahlil qilamiz.

3-rasmda 50 m² foydali yuzaga ega issiqxonalarni isitish quvvati 11,6 kW va sovutish quvvati 2,94 kW bo'lgan SILA AM-12 I-EVI (HC) tipli issiqlik nasosining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatgichlari keltirilgan [10]. Bunda issiqxona ichidagi harorat 35 °C deb qabul qilingan. Issiqlik nasosining texnik parametrlari: ishlash



4-rasm. Issiqxonalarda issiqlik nasosidan foydalanish samaradorlik ko'rsatgichlari

harorati -25 °C dan +45 °C, havo sarfi 3000 m³/h, samaradorligi COP=5,8 va energiya tejamkorligi 80% ni tashkil qiladi.

Avtonom issiqxonani sovuqli kunlarda elektr energiyasi bilan isitishda 8,4 mln. so'm, issiqlik nasosidan foydalanilganda 2,7 mln. so'm sarflanishi aniqlandi.

Xulosa. Taklif etilayotgan issiqlik nasosining tan narxi 40,4 mln. so'm va qoplash muddati 5 yil bo'lib, 20 yilda 127,6 mln. so'm iqtisod qilish mumkin. Bunda iqtisodiy rentabillik yiliga taxminan 20,79% ni tashkil qiladi. Gelioissiqxonalarni quyosh-issiqlik nasosoli kombinatsiyalashgan qurilmalar orqali energiya samaradorligini oshirishda tashqi harorat va quyosh radiatsiyasi o'zgarishi muhim ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan kombinatsiyalashgan energetik qurilma yordamida avtonom issiqxonalar uzluksiz issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlanadi, qo'shimcha ravishda qishloq xo'jalik mahsulotlari quritiladi. Bundan tashqari o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida changni tozalash va qizishdan saqlash orqali quyosh fotoelektrik qurilmalarning energiya samaradorligini 20-30% gacha oshirish imkoniga ega bo'lishi asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smart Greenhouse Global Strategic Industry Report 2023-2030: AgTech Emerges as New Buzzword in Agricultural, Growing Adoption of IoT Presents Vast Opportunities. Dublin. 2023. <https://www.globenewswire.com/en/news-release/2023/12/11/2794082/28124/en/Smart-Greenhouse-Global-Strategic-Industry-Report-2023-2030-AgTech-Emerges-as-New-Buzzword-in-Agricultural-Growing-Adoption-of-IoT-Presents-Vast-Opportunities.html>

2. Xu Weidong, Liu Feng, Li Kay, Gu Jian. A kind of ground-source heat pump system for agricultural greenhouse. Patent [CN207247623U, 17.04.2018]

3. Милкин Владимир Иванович. Автономная теплица с ночным обогревом и дневной вентиляцией солнечной энергией. Патент [RU 2 760162C1, 22.11.2021]

4. Xufei Yang, Dongliang Sun, Jingfa Li, Changyong Yu, Yajun Deng, Bo Yu. Demonstration study on ground source heat pump heating system with solar thermal energy

storage for greenhouse heating. Journal of Energy Storage. 54 (2022) 105298.
<https://doi.org/10.1016/j.est.2022.105298>

5. Sameh Agrebi, Ridha Chargui, Bourhan Tashtoush, Amen Allah Guizani. Comparative performance analysis of a solar assisted heat pump for greenhouse heating in Tunisia. International Journal of Refrigeration. 131 (2021) 547–558.
<https://doi.org/10.1016/j.ijrefrig.2021.06.004>

6. L.A. Aliyorova. Issiqxonalarda havoga issiqlik-namlik ishlov berish uchun gelioqizdirish tizimini ishlab chiqish. Avtoreferat. Qarshi 2022. 10-15 b.

7. Sh.H. Ergashev. Muqobil energiya manbalari asosida kombinatsiyalashgan “chorvachilik gelioissiqxona kompleksi”ning energiya samaradorligini oshirish. Avtoreferat. Qarshi 2022. 10-22 b.

8. G'.N. Uzoqov., A.B. Safarov., O.I. Raxmatov., X.A. Davlonov., R.A. Mamedov. “Avtonom issiqxona” (№ FAP 2431, 06.03.2024).

9. <https://e-solarpower.ru/kalkulyator-vyrabotki-sb/>

10. <https://mircli.ru/SILA-AM-12-I-EVI-HC/>

KOMBINATSIYALASHGAN SOVUTISH – QURITISH KAMERASINING HARORAT – NAMLIK REJIMI

Ro'ziqulov G'.Yu – t.f.f.d. (PhD), QarMII,
Murodullayev Sh.F., Qorayev B.Q. – magistrant, QarMII,


Qishloq xo'jaligi meva sabzavotlari va oziq ovqat maxsulotlarini uzoq muddatda saqlash va quritishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanib, energiya va resursni tejaydigan yangi texnologiya va uskunalarni joriy qilish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish, aholini yil davomida meva - sabzavot va oziq ovqat maxsulotlariga bo'lgan extiyojini qondirish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida meva – sabzavotlarni quritish, sovutish va saqlash jarayonlarida energiya sarfi yuqori bo'lib, mavjud texnologik qurilmalarda 1 kg quritilgan tayyor maxsulotni olish uchun kamida $2,7 \div 7,5$ kVt.soat energiya sarflansa, omborlarda meva – sabzavotlarni saqlash davrida solishtirma energiya sarfi $3,0 \div 3,5 \frac{\text{kVt.soat}}{\text{kg}}$ ni tashkil etadi [1,2].

Energiya resurslarini tejash maqsadida, ko'p yillik tadqiqotlarimiz natijasida, quyosh – issiqlik nasosli kombinatsiyalashgan sovutish – quritish kamerasi ishlab chiqildi va harorat – namlik rejimi dastlabki sinovdan o'tkazildi(1-rasm).

a) Quyosh havo kollektori (1, a-rasm)-quritish kamerasi uchun zarur bo'lgan quritish agentini (havo) zarur haroratgacha isitib berish uchun xizmat qiladi, uning asosiy issiqlik-texnik parametrlari 1-jadvalda da keltirilgan;

b) Quritish kamerasi (1, b-rasm)-qishloq xo'jalik mahsulotlarini quyosh energiyasi va quritish agenti yordamida olma, uzum, xurmo, pomidor va anjir mahsulotlarini quritish uchun mo'ljallangan kamera bo'lib, uning asosiy issiqlik-texnik parametrlari 1-jadvalda keltirilgan;



1-rasm. Kombinatsiyalashgan sovutish – quritish kamerasing asosiy jihozlari

v) Sovutish kamerasi (1,v-rasm)-olma, uzum, xurmo, pomidor va anjir mahsulotlarini uzoq muddat sifatli saqlash uchun xizmat qiladigan yer ostida joylashgan kamera bo'lib, tashqi muhitning bevosita ta'siridan himoyalangan. Uning asosiy issiqlik-texnik parametrlari 1-jadvalda keltirilgan;

g) Issiqlik nasosi qurilmasi (1, g-rasm)-quritish kamerasi va sovutish kamerasida energiya sarfini kamaytirish maqsadida sovutish kamerasing issiqlik yuklamasini quritish kamerasida foydalanish imkonini beradigan energetik qurilma bo'lib, uning asosiy issiqlik-texnik parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

Taklif etilgan kombinatsiyalashgan sovutish – quritish tizimi issiqlik nasosi, passiv va aktiv quyosh issiqlik tizimlaridan tashkil topgan bo'lib, inshootning osti sovutish, yuqori qismi quritish kamerasidan iborat. Issiqlik nasosi bir vaqtda sovutish kamerasini sovutadi, sovutishda olingan issiqlik kondensator qismidan quritish kamerasiga yo'naltiriladi. Quritish kamerasing issiqlik quvvatini qolgan qismi passiv va aktiv quyosh qurilmalarida olingan issiqlik qoplaydi. Dastlaki tajribalar shuni ko'rsatadiki, quritish kamerasing issiqlik yuklamasini 40-45% issiqlik nasosi, 60-55% qismi quyosh energiyasi hisobidan qoplanadi.

Issiqlik nasosining isitish koeffitsiyenti $\varphi = 3,0$ bo'lganda quritish kamerasiga quyidagi issiqlik beriladi:

$$Q_{IN} = \varphi \times N_{el} = 3,0 \times 1,1 = 3,3 \text{ kVt}$$

Ya'ni, issiqlik nasosi bir vaqtda taklif etilgan kompleksda 1,1 kVt elektr energiyasi hisobiga sovutish kamerasini sovutadi, hamda quritish uchun issiqlik energiyasini berishi natijasida yuqori energiya samaradorlikka ega bo'ladi.

Kombinatsiyalashgan quyosh – issiqlik nasosli sovutish - quritish kamerasing asosiy issiqlik – texnik xarakteristikalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Kombinatsiyalashgan sovutish-quritish kamerasing parametrlari

I. Texnik xarakteristikasi				
No	Parametrlar	O'lchov birligi	Belgilanish	Miqdori
1	Issiqlik nasosining elektr quvvati	<i>kVt</i>	<i>N</i>	1,1
2	Xladoagent (R22-freon) miqdori	<i>kg</i>	<i>m</i>	4,2

3	Quritish kamerasi hajmi	m^3	V_{qur}	6,12
4	Sovitish kamerasi hajmi	m^3	V_{sov}	4,22
5	Quritish kamerasi sig'imi (mahsulot turi bo'yicha)	t	G_{qur}	1,5-2,0
6	Sovitish kamerasi sig'imi (mahsulot turi bo'yicha)	t	G_{sov}	1,5-2,0
II. Harorat rejimi				
1	Quritish kamerasida	$^{\circ}C$	$t_{q.k}$	50...60
2	Sovitish kamerasida	$^{\circ}C$	$t_{s.k}$	-5...+10
III. Namlik rejimi				
1	Quritish kamerasida	%	φ	30...40
2	Sovitish kamerasida	%	φ	90...95

Adabiyotlar

1. Узаков Г.Н. Научные основы повышения энергоэффективности систем теплохладоснабжения плодоовощехранилищ с использованием нетрадиционных источников энергии.- Ташкент: Фан, 2012.- 216с.
2. Ахатов Ж.С. [Исследование теплотехнических характеристик солнечной комбинированной опреснительно-сушильной установки.](#) //Гелиотехника, 2018.№1.

LINTER QURILMASI ENERGIYASAMARADOR QURILMALAR BILAN JIHOZLASHNI TADQIQ QILISH

Aliyev Botirjon Toxirjonovich,
Maqsudbek Shamshidinov Elmurod o'gli,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Linter qurilmasida elektrodvigatellari bo'sh ishlaydi, deyarli sinxronizmga tushadi. Bunday holda, qo'zg'atuvchi o'rash maksimal reaktiv quvvatga ega, chunki rotorning qisqa tutashgan burilishlarida (sincap qafas) deyarli hech qanday girdab oqimlari induksiya qilinmaydi. Quvvat manbai nuqtai nazaridan, bu dizayn yuzlab metr simli ulkan induktiv lasandir. Unga kuchlanish qo'llaniladi, bu juda ko'p simlarda elektr tokini yaratishga qodir emas, u o'z navbatida ish olib borishi kerak; Natijada, kuchlanish mavjud, ammo oqim deyarli yo'q. Ammo bu dvigatelga ko'p energiya kerak emas, u faqat podshipniklarning qarshiligini va havoning yopishqoqligini engib, bo'sh ishlaydi. Bunday holda, oqim va kuchlanish iste'molchisiga sinxron ta'sir ko'rsatilmaydi.

Linter qurilmasida elektrodvigateli tomonidan iste'mol qilinadigan quvvat ushbu oqimlarga bog'langan.

1. P - faol quvvat la ga bog'langan (jami barcha harmonikalar uchun)
2. Q - reaktiv quvvat Iri ga bog'langan (jami barcha harmonikalar uchun)
3. A - dvigatel tomonidan iste'mol qilinadigan umumiy quvvat. (jami barcha harmonikalar uchun)

Linter qurilmasida elektrodvigatel reaktiv quvvat kompensatsiyasi qanday amalga oshiriladi. Induktiv yuk bilan parallel ravishda sig'imli yuk o'rnatiladi. Voltaj elektr tokini vosita statoridagi yuzlab metr simlar orqali tezda o'tkaza olmaydi. Ammo shu sababli, oqim kuchlanishdan orqada qolmaydi, bu vaqtda u dvigatelga parallel ravishda ulangan

kondansatör batareyasini to'ldiradi (zaryad qiladi); Va energiya manbai oqim oqimi uchun hech qanday to'siqni sezmaydi. Energiya manbai uchun oqim va kuchlanish fazada ishlaydi. Linter mashinasining elektr yuritmasidagi energiya sarflarini tahlil qilish natijasida, elektr yuritmalarni samarali boshqarish texnologiyalaridan foydalanish muhimligi aniqlandi. Elektr yuritmalarida energiya sarflarining katta qismi magnit yo'qotishlar, nosimmetrik holatlar va reaktiv quvvat sarflariga to'g'ri kelishi aniqlandi. Bu holatlar asosan asinxron motorlarda kuzatiladi. O'rganilgan asosiy yechimlardan biri chastota o'zgartirgichlardan foydalanish bo'lib, bu orqali quvvat sarfini 30-40% gacha kamaytirish mumkinligi isbotlandi. Chastota o'zgartirgichlarning vektor boshqaruvi va to'g'ridan-to'g'ri moment boshqaruvi orqali motorlarning optimal boshqaruvi ta'minlanib, elektr energiya sarfi kamayishiga va quvvatning samarali taqsimlanishiga erishildi. Linter mashinasida chastota o'zgartirgichlarning Siemens SINAMICS G120 markali vektor boshqaruvi orqali motorni ishlatish tavsiya etildi. Bu motor quvvat sarfini 30% gacha kamaytirishga yordam beradi va val hamda arralarning ishlash muddatini oshiradi.

Elektr tizimida Siemens Energy Efficiency Guide sig'imli yuk (kondensator batareyasi) o'rnatish orqali reaktiv quvvatni kompensatsiyalandi. Bu orqali tarmoqda elektr energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish va kuchlanishning barqarorligini saqlandi. Linter mashinasida, reaktiv quvvatni 20% ga kamaytirildi. Nosimmetrik ta'sirlarni kamaytirish uchun motorni monitoring qilish tizimlari Schneider Electric Motor Control Center (MCC) markali qurilma orqali 2% dan yuqori nosimmetriklik holatlari aniqlandi va nosimmetrik ta'sirlar kamaytirildi.

Energiya samaradorligini oshirishda Elektr energiyasi iste'molini kamaytirish va resurslardan optimal foydalanish uchun energiya samaradorligi bo'yicha xalqaro DSt 30804.4.30-2013 standarti talablariga rioya qilish tavsiya etildi.

Bu tavsiyalar asosida linter mashinasida energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek qurilmada yuqoridagi tavsiya etilgan qurilmalarning xususiyatlarnin o'z ichiga oluvchi CDI-E102G022/P030T4B markali chastota o'zgartirgich qurilmasini o'rnatish orqali erishildi.

JAHONDA QUYOSHIY SOVUTISH TIZIMI ILMIY IZLANISHLAR NATIJALARI VA MUHANDISLIK YECHIMLARI.

B.T.Shodiyev, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti, boburshodiyev2994@gmail.com
A.U.Voxidov, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti,

Hozirgi kunda Respublikaning iqlimiga hos bo'lgan quyosh nuri to'g'ridan to'g'ri tushishi, issiq havosi hamda aholi sonining yildan yilga o'sib borishi [1, p. 3], aholi turmush darajisining yaxshilanishi va, so'ngi yillarda kuzatilayotgan global isish jarayoni sovitish qurilmalariga va sovuqlik energiyasiga bo'lgan talabni yuqori bo'lishiga olib kelmoqda. Shuning uchun sovitish ta'minoti tizimida hech qanday uzilishlar kamchiliklarga yo'l qo'yilmasligi, shu o'rinda yangi turdagi samarador sovitish qurilmalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda, nafaqat yoz issiq havo mavsumi sharoitida balki, yilning boshqa mavsumlarida, fasllarida ham oziq - ovqat mahsulotlari, dori - darmon hamda boshqa tashqi

ob-havo haroratiga ta'sirchan bo'lgan mahsulotlarni talab etilgan harorat sharoitda saqlash maqsadida, sovutish qurilmalaridan keng foydalaniladi. Hozirgi kunda yurtimizda o'zgaruvchan tokda ishlovchi bug'-kompresorli sovutgichlardan keng foydalanib kelinmoqda. Bu o'z navbatida yozgi issiq mavsumida elektr tarmoqlarida ortiqcha yuklamalarni hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Barcha sovutish qurilmalarida sovutish turiga qarab sovutish kamerasi ichki qismidagi havo haroratga talablar qo'yiladi [2, 25 b.], [3, 44-69 b.], [4, 126-151 b.], [5, 7 b.], [6, 1653-1659 b.]. Misol tariqasida, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan hujjatda, "vaksinalarning haroratga ta'sirchanligi" [7, 1 b.], vaksinalarni saqlash va transport qilishdagi haroratlari ko'rsatib o'tilgan. Bunda, shu hujjatda sanab o'tigan vaksinalarni transport qilishning yuqori o'rinlarida, mamlakatlar havo harorati ko'rsatgichlariga qarab, ba'zi turdagi vaksinalar $-15\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $-25\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha, boshqalari esa $+2\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $+8\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan haroratda saqlanishi kerakligi belgilangan. Biroq, vaksina transportining paski o'rinlarida, mamlakat ichida, qisqa vaqtlar oralig'ida barcha vaksinalar $+2\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $+8\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan haroratda saqlangan holda yetqazilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari va normalarida ko'rsatilgan "Oziq ovqat mahsulotlarini saqlash sharoitlari va yaroqliylik muddatlariga qo'yilgan gigienik talablar" hujjatida turli xil oziq ovqat mahsulotlarini saqlash muddatlari va haroratlari belgilab berilgan [8]. Unga ko'ra, go'sht, parranda go'shti, baliq va baliq mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari hamda shu kabi boshqa oziq - ovqat mahsulotlarini saqlashda harorat ko'rsatgichi $+4\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan oshmasligi kerak ekanligi talabi belgilangan.

Elektr energiya iste'moli va energiya samaradorligi jihatidan sovutish qurilmalari turli guruhlarga ajratiladi [9, 8 b.], [10, 9 b.]. Bunda, keng tarqalgan belgilanishlar, Yevropa Ittifoqida qabul qilingan normativ hujjatga ko'ra [11], sovutish qurilmalari energiya samaradorlik indeksidan (ESI) kelib chiqqan holda 7 ta (A, B, C, D, E, F, G) sinflarga bo'linadi va eng energiya samaradorligi yuqori sovutish qurilmalari ($ESI < 41$) A sinfiga mansub bo'lsa, samaradorligi eng past ko'rsatgichda bo'lgan sovutish qurilmalari ($ESI > 125$) G sinfiga mansub bo'ladi (jadval 1).

Jadval 1 Elektr energiya iste'molida energiya samaradorlik sinflari

Sinflar	Energiya samaradorlik indeksi (ESI)
A	$ESI < 41$
B	$41 < ESI < 51$
C	$51 < ESI < 64$
D	$64 < ESI < 80$
E	$80 < ESI < 100$
F	$100 < ESI < 125$
G	$ESI < 125$

Xalqaro energetika agentligi sovutish qurilmalarining energetik samaradorligini baholash bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqqan [12]. Unga ko'ra, sovutish qurilmalarini maxsus

yoriqnomada ko'rsatilgan sharoitlarda ishlatib, ishlash davomida energiya iste'moli aniqlaniladi. Bunda, olingan ma'lumotlar huddi shu turdagi boshqa namunaviy bo'lgan sovutish qurilmasi ko'rsatgichlari bilan taqqoslash orqali tajribada qaralayotqan sovutish qurilmasiga samaradorlik indeksi belgilanadi. Energiya samaradorlik indeksini aniqlash quydagi tenglama asosida hisoblanadi:

$$I = ((ES_{tajriba}) / (ES_{namuna}) - 1) * 100\% \quad (1.1)$$

Bunda $ES_{tajriba}$ - sovutgichning energiya samaradorligi (sovutgichning sovutish kamerasi hajimini, shu hajimni sovutish uchun sarflangan kunlik elektr energiyasiga nisbati), l/kW*soat.

Ushbu tenglamadan kelib chiqib, jadval 1.2 keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra sovutish qurilmalariga samaradorlik indeksleri belgilanadi.

Jadval 1.2. Energiya samaradorlik indeksleri

Samaradorlik indeksi	I
5	+ 25 % < I
4	+ 10 % < I < + 25 %
3	- 10 % < I < + 10 %
2	-25 % < I < - 10 %
1	- 35 % < I < - 25 %

Xalqaro energiya agentligi, "Energetik samaradorlik minimum standarti" talablariga ko'ra, sovutish qurilmalarida kamida 2 ta samaradorlik indeksiga ega bo'lishi kerak ekanligi belgilangan.

Yuqorida keltirib o'tilgan talablardan tashqari, sovutish qurilmalarini loyihalashda, sovutish qurilmalari qayerlarda qo'llanilishi va nima maqsadlarda foydalanilishidan kelib chiqqan holda qo'shimcha talablar ham qo'yiladi [13, 198-203 b.], [14, 83-90 b.], [15, 140150 b.]. Bunday talablardan biri sifatida, ishchi ko'rsatkichlari an'anaviy sovutish qurilmalarining ishchi ko'rsatkichlaridan past bo'lmagan, biroq, shu bilan birga energetik jihatidan mustaqil bo'lgan sovutgichlarni ko'rsatish mumkin. Bugungi kunga kelib, dunyo olimlari tomonidan turli xil konstruksiyaga ega bo'lgan va turli sohalarda qo'llaniladigan energiya tarmoqlaridan uzilgan holda ham sovuqlik energiyasi bilan ta'minlay oladigan sovutish qurilmalari ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan [16, 1989-2003 b.], [17, 55-67 b.], [18, 8955-8961 b.].

Foydalangan adabiyotlar

1. D. of E. and S. A. United Nations, "World Population Prospects 2022," 2022.
2. R. Zhao, D. Huang, X. Peng, and H. Yang, "Distributed heaters to reduce temperature rise in freezing cabinet during defrost process and its overall energy effect for a frost-free refrigerator," *International Journal of Refrigeration*, vol. 99, p. 25, 2019, doi: 10.1016/j.ijrefrig.2018.12.003.
3. Y. Yang, D. Huang, R. Zhao, W. Guo, and X. Wei, "Analysis of temperature rapid rise phenomenon during damper-off cycle in side-by-side frost-free refrigerator," *International Journal of Refrigeration*, vol. 133, pp. 44-69, 2022, doi: 10.1016/j.ijrefrig.2021.10.014.

4. N. D. Andritsos, V. Stasinou, D. Tserolas, and E. Giaouris, "Temperature distribution and hygienic status of domestic refrigerators in Lemnos island, Greece," *Food Control*, vol. 127, pp. 126–151, 2021, doi: 10.1016/j.foodcont.2021.108121.
5. A. Ovca, T. Škufca, and M. Jevšnik, "Temperatures and storage conditions in domestic refrigerators - Slovenian scenario," *Food Control*, vol. 123, p. 7, 2021, doi: 10.1016/j.foodcont.2020.107715.
6. H. Wang *et al.*, "A novel looped low-temperature heat-driven thermoacoustic refrigerator operating in room temperature range," in *Energy Procedia*, 2019, pp. 1653–1659. doi: 10.1016/j.egypro.2019.01.386.
7. V. and B. Department of Immunization, "Temperature sensitivity of vaccines." WHO Press, Geneva, p. 1, 2006.
8. САНИТАРНЫЕ ПРАВИЛА И НОРМЫ, "ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К СРОКАМ ГОДНОСТИ И УСЛОВИЯМ ХРАНЕНИЯ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ."
9. A. E. Gürel, Ü. Ağbulut, A. Ergün, and İ. Ceylan, "Environmental and economic assessment of a low energy consumption household refrigerator," *Engineering Science and Technology, an International Journal*, vol. 23, no. 2, p. 8, 2020, doi: 10.1016/j.jestch.2019.06.003.
10. N. Hossieny, S. S. Shrestha, O. A. Owusu, M. Natal, R. Benson, and A. Desjarlais, "Improving the energy efficiency of a refrigerator-freezer through the use of a novel cabinet/door liner based on polylactide biopolymer," *Appl Energy*, vol. 235, p. 9, 2019, doi: 10.1016/j.apenergy.2018.10.093.
11. European Union, "European Parliament and of the Council with regard to energy labelling of refrigerating appliances," Mar. 2019.
12. IEA, "Minimum Energy Performance Standards and Labelling for Refrigerator," 2019.
13. H. Moria, M. Ahmed, A. Alghanmi, T. I. Mohamad, and Y. Yaakob, "Experimental study of solar based refrigerator using thermoelectric effect," in *Energy Procedia*, 2019, pp. 198–203. doi: 10.1016/j.egypro.2019.01.074.
14. M. H. Katooli, R. Askari Moghadam, and A. Hajinezhad, "Simulation and experimental evaluation of Stirling refrigerator for converting electrical/mechanical energy to cold energy," *Energy Convers Manag*, vol. 184, pp. 83–90, 2019, doi: 10.1016/j.enconman.2019.01.014.

VERTIKAL O'QLI SHAMOL ENERGETIK QURILMASINI MATLAB TIZIMIDA MODELLASHTIRISH

A.B. Safarov, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, dotsenti t.f.f.d. (Phd)
M.M. Qahhorov, Buxoro muhandislik texnologiya instituti, mustaqil izlanuvchi


Jahonda energetika xavsizligi, ekologik muammolarni barqarorlashtirish va tabiiy yoqilg'i manbalarini tejashda qayta tiklanadigan energiya manbalari jumladan, shamol energiyasidan foydalanish yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Hozirgi kunda shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha Xitoy, Hindiston va Yevropa davlatlari yetakchik qilmoqda. Xitoy davlati yiliga 82 GW quvvatga ega bo'lgan quruqlikdagi shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Yevropa davlatlari dunyodagi ikkinchi yiliga 21,6 GW, undan keyin AQSh (13,6 GW), Hindiston (11,5 GW) va lotin Amerikasi (6,2 GW) yirik shamol elektr stansiyalarini ishlab chiqarmoqda [1]. 2023-yilning birinchi yarmida 2022-yilga nisbatan 38 foizga ko'p yangi shamol energetik

qurilmalari o'rnatildi, 2022 yil iyunidan 2023 yil iyungacha 100 GW qo'shildi va 976 GW yillik o'sish surati 11,4% ga yetdi [2].

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bunda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GWga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish bo'yicha amaliy ishlar bajarilmoqda [3].

Shamol energetik qurilmalarini kuchsiz shamol oqimlarida samaradorligini oshirish va parametrlarini optimallashtirishda Matlab tizimidan keng foydalanib kelinmoqda. Ushbu tadqiqot ishida Darye tipli shamol energetik qurilmasini samaradorlik ko'rsatgichlari baholandi.

Shamol turbinalarining energiya va aerodinamik xususiyatlarini o'rganish uchun standart qiymatlar yordamida o'rnatishning ishlashini tavsiflashi mumkin bo'lgan matematik apparatdan foydalanishga murojaat qilish kerak. Darye rotorining o'lchovli parametrlari 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Darye H tipli shamol energetik qurilmasining tashqi ko'rinishi (a), sxematik tasviri (b)

Parraklarning nisbiy tezligi quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi [4]:

$$W = V \cdot \sqrt{\left(\frac{\lambda}{V/V_\infty} + \cos\theta\right)^2 + \sin^2\theta} \quad (1)$$

bunda: θ –shamol parraklarining azimutga nisbatan o'rnatilish burchagi; V_∞ –shamol oqimining tezligi, [m/s]; V –absolyut tezlik, [m/s]; λ –shamol parraklarining tezyurarlik koeffisienti $\lambda = \omega R/V_\infty$ ga teng.

Parraklarning hujum burchagi quyidagi formula orqali aniqlanadi [5]:

$$\alpha = \arctan\left(\frac{\sin\theta}{\frac{\lambda}{V/V_\infty} + \cos\theta}\right) \quad (2)$$

Tangensial kuch koeffitsienti quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$C_t = C_L \cdot \sin\alpha - C_d \cdot \cos\alpha \quad (3)$$

Normal kuch koeffitsienti quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$C_n = C_L \cdot \cos\alpha + C_d \cdot \sin\alpha \quad (4)$$

Parrakka ta'sir qiluvchi tangensial kuch quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$F_t = C_t \left(\frac{1}{2} \rho A W^2 \right) \quad (5)$$

bunda: ρ – havo oqimining zichligi, [kg/m³]; A – shamol parragining yuzasi, [m²].

Parrakning normal kuchini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$F_n = C_n \left(\frac{1}{2} \rho A W^2 \right) \quad (6)$$

O'rtacha tangensial kuch quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$\bar{F}_t = \frac{1}{2\pi} \int_0^{2\pi} F_t(\theta) d\theta \quad (7)$$

Shamol turbinasining umumiy momenti quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Q = N \bar{F}_t R \quad (8)$$


Umumiy chiqish quvvati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{chiq} = Q \cdot \omega \quad (9)$$

Shamol turbinasining shamol energiyasidan foydalanish koeffitsientini quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$C_P = \frac{P_{chiq}}{\frac{1}{2} \rho A_1 U_{\infty}^3} \quad (10)$$

bunda: A_1 – shamol turbinasining ko'ndalang kesim yuzasi, [m²].



3-rasm. Rotorning mustahkamlik koeffitsientining vertikal o'qli shamol turbinasi ishlashiga ta'siri: (a) turli xil mustahkamlik koeffitsientida ishlash egri chiziqlari va (b) maksimal shamol energiyasidan foydalanish koeffitsientining mustahkamlik omiliga nisbatan o'zgarish egri chizig'i

Darye shamol energetik qurilmalarini shamol energiyasidan foydalanish koeffitsientini soddalashtirilgan empirik tenglamasi quyidagicha:

$$C_P = \frac{1}{8} N C_d \frac{b}{H} \lambda^3 \quad (11)$$

bunda: N – shamol turbinasidagi parraklar soni; C_d – shamol parraklarining ro'para qarshilik koeffitsienti; b – parrak kengligi, [m]; H – shamol parraklarining balandligi, [m]; λ – shamol parraklarining tezyurarlik koeffitsienti.

3-rasmda rotorning mustahkamlik koeffitsientining vertikal o'qli shamol turbinasi ishlashiga ta'siri natijalari keltirilgan.

Xulosa: vertikal o'qli shamol energetik qurilmalarini o'zgaruvchan shamol oqimlarida samaradorligini va ishonchliligini oshirishda turbina parraklarining shakli, materiali va aerodinamikasiga bog'liqligi o'rganildi. Shamol energetik qurilmasini turli mustahkamlik koeffisientlari o'zgarishining qurilmaning samaradorlik koeffisientiga bog'liqligi Matlab tizimida modellashtirildi. Mustahkamlik koeffisienti 0,4 ga teng bo'lgan shamol energetik qurilmasi maksimal samaradorlikka erishishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://gwec.net/globalwindreport2023/#:~:text=Total%20installed%20global%20capacity%20grew,%20year%20growth%20of%2015%25>.
2. <https://wwindea.org/wwea-half-year-report-2023-additional-momentum-for-windpower-in-2023>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son.
4. A. Safarov, R. Mamedov. Study of effective omni-directional vertical axis wind turbine for low speed regions. IIUM Engineering Journal, Vol. 22, No. 2, 2021
5. S.A. Khan, M. Bashir, M.A. Ali Baig, F.A. Ghasi Mehaboob Ali. Comparing the Effect of Different Turbulence Models on The CFD Predictions of NACA0018 Airfoil Aerodynamics. CFD Letters 12, Issue 3 (2020) 1-10


HAVO MANBALI ISSIQLIK NASOSINING MUZLAMAYDIGAN BUG'LATGICHINI MODELLASHTIRISH

Xujakulov S.M.,
Pardayev Z.E.,
Shodiyev T.U.,
Xusanov M.,
Mirzayev Sh.S.,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Hozirgi vaqtda issiqlik nasosi bug'latgichlari turli sohalarda keng qo'llaniladi va ularning samaradorligini optimallashtirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan [1]. Elattar va b. issiqlik nasoslarining joriy namlash va qurish ta'siri muammolarini hal qilish orqali bug'latgich va kondensatorlarda bug'lanish samaradorligini oshirish uchun yangi tizim ishlab chiqdi. Turli xil tizim sxemalarini tuzish orqali ularning ishchi parametrlari va tizimning ish unumdorligi turli muhitlarda eksperimental tahlil qilingan. Turli rejimlar va tizim sxemalari ish unumdorligi o'zgarishida farqlar mavjudligi ko'rsatildi [2]. Long va b. suv sovutgich tipidagi bug'latgichni tahlil qildi va past haroratli suvdan issiqlikni yaxshiroq olish mumkinligini aniqladi, buning uchun yangi integratsiyalashgan issiqlik nasosi bug'latgichi taklif qilindi. Yangi bug'latgichning issiqlik uzatish samaradorligi eksperimental tarzda modellashtirildi va sinov natijalariga ko'ra, issiq suv ta'minoti bug'lanish harorati va issiqlik nasosining samaradorlik parametrlarini harorat oshishi bilan 15% ga samarali yaxshilashi mumkin [3]. Kong va b. kengaytirish turidagi quyosh issiqlik nasosli suv isitgichi uchun tegishli raqamli tadqiqotni amalga oshirdi. Shu maqsadda tizimni isitish va muzlash jarayonini tavsifnomalarini o'rganish uchun bug'latgichning muzlash modelining yangi imitatsion modeli ishlab chiqildi. Tadqiqotda, quyosh radiatsiyasining yuqori darajasi isitish samaradorligini oshirishi va muzlash tezligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkinligi aniqlandi. Hozirgi

an'anaviy ASHP bug'latgichlari bilan solishtirganda, model muzlashni sekinlashtirishda muhim afzalliklarga ega, FIK 2,75 dan ortiq [4]. Su va b. atrof-muhitdagi namlik darajasini pasaytirish bug'latgichning muzlashini samarali oldini olishi va sovuq qishda issiqlik nasosining issiqlik quvvatini oshirishi mumkinligini aniqladi. Shuning uchun ular quritgichning issiqlik va massa almashinish tavsifnomalarini bashorat qilish matematik modelini ishlab chiqdilar. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, namlik nisbati, havo harorati va oqim tezligi kabi asosiy parametrlar turli sharoitlarda, og'ishlar $\pm 20\%$ bilan modelning issiqlik uzatish ko'rsatkichlariga turli xil ta'sir ko'rsatdi [5].

1-rasmda quyoshli kombinatsiyalangan ASHP energiya ta'minoti tizimining asosiy tuzilishi ko'rsatilgan.



1-rasm. "Havo-havo" turidagi quyosh energiyasi bilan kombinatsiyalashgan issiqlik nasosili energiya ta'minoti tizimi.

1-rasmdan to'liq energiya ta'minoti tizimidagi asosiy komponentlar quyosh kollektorlari, ASHPlar, issiq suv ta'minoti bloklari, issiqlik saqlash akkumulyatorlari va polni isitish batareyalaridir. Tizim issiqlik ta'minoti uchun quyosh energiyasiga ustuvor ahamiyat beradi. Tashqi quyosh nurlanishi yetarli bo'lmaganda, issiq suv ta'minoti bloki va akkumulyator issiqlik ta'minoti va saqlash uchun ishlatiladi. ASHP bug'latgichining ishlashi paytida tashqi havo harorati past bo'lganligi sababli bug'latgich yuzasida ko'pincha sovuq hosil bo'ladi. Past haroratli sharoitlarda ASHP samaradorligini oshirish uchun muzlamaydigan bug'latgich moslamasini o'rnatish kerak. Buning uchun muzlama zichligi, muzlash tezligi, energiya iste'moli birligiga issiqlikning oshishi va boshqa tegishli ko'rsatkichlarni aniq hisoblash uchun matematik modelni ishlab chiqish kerak. Bug'latgich yuzasida muzning to'planish tezligi atrof-muhitdagi havo namligi bilan belgilanadi va uni hisoblash formulasi (1) tenglamada ko'rsatilgan.

$$m = m_a(d_i - d_o) \quad (1)$$

(1) tenglamada m va m_a bug'latgich yuzasida muzning to'planish tezligini va atrof-muhit havosining massa oqimini kg/s birliklarida bildiradi. d_i va d_o mos ravishda bug'latgichga kiradigan va undan chiqadigan havoning namlik sifatini bildiradi. Harorat 0°C dan pastga tushganda, havodagi namlik muzga aylanadi.

Suvning bir qismi muz qatlamining qalinligiga hissa qo'shadi, qolgan qismi esa uning zichligini oshiradi [6]:

$$m = m_\delta + m_\rho \quad (2)$$

(2) tenglamada m_δ va m_ρ muzning qalinligi va zichligi bo'ylab muz hajmining o'zgarish tezligi, kg/s:

$$m_\rho = Q_t \cdot \left[\frac{b}{(\lambda_{fr} + i_{sv} \cdot b)} \right] \quad (3)$$

(3) tenglama - muz qatlami zichligining muzlash hajmining o'zgarish tezligini hisoblash formulasi. Q_t bug'latgichning umumiy issiqlik almashinuvi hajmi; λ_{fr} muz qatlamining issiqlik o'tkazuvchanligi; i_{sv} suv bug'i sublimatsiyasining yashirin issiqligi; b fizik miqdorni bildiradi va uning hisoblash formulasi (4) tenglamada ko'rsatilgan:

$$b = A_t \cdot D_s \cdot \left\{ \frac{\left[1 - \frac{\rho_{fr}}{\rho_i} \right] \cdot \left[\frac{i_{sv}}{RT_s} - 1 \right]}{1 + \left(\frac{\rho_{fr}}{\rho_i} \right)^{0.5}} \right\} \quad (4)$$

(4) tenglamada A_t bug'latgichning to'liq issiqlik uzatish maydoni; D_s muz yuzasida suv bug'ining diffuziya koeffitsiyenti; ρ_{fr} muzlamaning zichligi; ρ_i muz zichligi; R suv bug'ining gaz doimiysi va $461,9 \text{ J / (kg} \cdot \text{K)}$ ga teng; T_s - muzlama yuzasidagi harorat.

Ushbu tadqiqotda energiya iste'moli birligi uchun olingan issiqlikni ifodalash uchun muzlamaydigan ASHP bug'latgichining ish unumdorligi koeffitsiyentidan foydalanildi.


Samaradorlik koeffitsiyenti issiqlik nasos tizimining samaradorligini hal qiluvchi ko'rsatkichidir. Bu tizimning issiqlik energiyasini ishlab chiqarish quvvatiga nisbati sifatida aniqlanadi (5):

$$COP = \frac{q_1}{w_c} = \frac{T_2(S_2 - S_3)}{(T_2 - T_1) \cdot (S_1 - S_4)} = \frac{T_2}{(T_2 - T_1)} \quad (5)$$

(5) tenglamada muzlamaydigan ASHP bug'latgichining samaradorlik koeffitsiyenti COP keltirilgan. (5) ifoda COP qiymatini olish uchun iste'mol qilingan quvvat birligida olingan issiqlik miqdorini hisoblash uchun ishlatiladi. Ushbu hisob amaliy jarayonda muzlamaydigan ASHP bug'latgichining ish faoliyatini baholashga yordam beradi. COP to'g'ridan-to'g'ri muzlamaydigan ASHP bug'latgichining energetik samaradorligini aks ettiradi. Sovuq muhitda an'anaviy ASHP bug'latgichining COP qiymati, odatda muzlash muammolari tufayli kamayadi, chunki muzdan tushirish uchun qo'shimcha energiya sarflanadi. Aksincha, muzlamaydigan konstruktsiya bu muammoni samarali ravishda oldini oladi. Shuning uchun yuqori COP tanlanadi. Ushbu tadqiqotda muzlamaydigan ASHP bug'latgichini qurishdan maqsad atrof-muhit parametrlarida gaz namligini nazorat qilish orqali umumiy energiya samaradorligini oshirish va sovuq tufayli energiya yo'qotilishini kamaytirishdir.


Bug'latgich tizimi prinsipini aniqlash uchun ikkita radiatsiya sharoitida bug'latgichning issiqlik uzatish jarayoni tadqiqot qilinadi. Keyin uch rejimli model tuziladi va tegishli ma'lumotlar ANSYS dasturiy ta'minotining WORKBENCH ishchi muhitidan foydalanib tahlil qilinadi.

Quyosh nurlari bilan va quyosh nurlarisiz bug'latgichning issiqlik almashinuvi jarayoni diagrammasi 2-rasmda ko'rsatilgan. Butun muzlamaydigan ASHP bug'latgich tizimini modellashtirish murakkab vazifa bo'lib, bug'latgichni, shuningdek tizimdagi bir nechta boshqa komponentlarni ularning o'zaro ta'siri va issiqlik uzatish jarayonlari nuqtai nazaridan aniq modellashtirishni talab qiladi. Ushbu murakkab tizimni to'liq modellashtirish hisoblash resurslari va vaqt cheklovlari tufayli juda qiyin. Shunday qilib, tadqiqotda, birinchi navbatda, bug'latgichni modellashtirishga e'tibor qaratiladi, tizimning boshqa tarkibiy qismlarining batafsil issiqlik almashinuvi tahlilini e'tiborsiz qoldiriladi, ya'ni tizim soddalashtiriladi.



1-rasm. Quyosh nurlari bilan (a) va quyosh nurlarisiz (b) bug'latgichda issiqlik almashinuvining prinsipial sxemasi.

Tuzilgan 3D modelning samaradorligini tekshirish uchun shisha qopqoq o'lchamini va ventilyator ichki havo bosimini o'zgartirish orqali boshqariladigan o'zgaruvchan tajribalar o'tkazildi. Har xil shisha qopqoq o'lchamlari va turli xil ventilyator havo bosimiga ega muzlamaydigan ASHP bug'latgichining issiqlik o'tkazuvchanligini o'rganish orqali yakuniy 3D modelining asosiy parametrlari aniqlandi va muvaffaqiyatli qurildi.



(a) Har xil shisha qopqoq o'lchamlari ostida dastlabki 30 daqiqa davomida quruq havo harorati egri chizig'i
(b) Har xil shisha qopqoq o'lchamlari va turli vaqtlar uchun quruq havo harorati egri chiziqlari
2-rasm. Turli shisha qopqoq o'lchamlari uchun quruq havo haroratining o'zgarishi.

Turli xil shisha qopqoq o'lchamlarida quruq havo haroratining o'zgarishi 5-rasmda ko'rsatilgan. Boshqa barcha parametrlarni o'zgarimas deb qabul qilib, to'rt xil o'lchamdagi shisha qopqoq o'lchamlari, ya'ni 1,7 m*1,7 m*1,7 m, 2,1 m*2,1 m*2,1 m, 2,5 m*2,5 m*2,5 m va 2,9 m*2,9 m*2,9 m eksperimental tahlil uchun sinovdan o'tkazildi.

Xulosa

An'anaviy bug'latgichning isitish ish faoliyatini optimallashtirish uchun tadqiqot ANSYS dasturida mos keladigan 3D modelni yaratish orqali muzlamaydigan ASHP bug'latgichini taklif

qilishga va uning parametrlarini optimallashtirishga harakat qildi. Shisha qopqog'idagi quruq havo harorati, bug'latgich yuzasida issiqlik oqimi zichligi va bug'latgichda issiqlik yutilishini kuzatish uchun turli xil shisha qopqoq o'lchamlari va shamol tezligi va bosimi mos ravishda nazorat qilindi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, boshqa omillar o'zgarishsiz qolganda, shisha qopqog'i hajmining oshishi bilan 1,7 m, 2,1 m, 2,5 m, 2,9 m bo'lgan to'rtta shisha qopqoq ostida bug'lanish moslamasining issiqlik yutilishining maksimal qiymati 2155 Vt, 2310 Vt, 2418 Vt, 2340 Vt ni tashkil etdi. Bu shuni ko'rsatadiki, 2,5 m o'lchamdagi shisha qopqog'i bug'latgichning issiqlikni yaxshiroq singdirishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.B.T. Loemba, B. Kichonge, T. Kivevele, Comprehensive assessment of heat pump dryers for drying agricultural products, *Energy Sci. Eng.* 11 (8) (2023) 2985–3014.
2. H.F. Elattar, S.A. Nada, A. Al-Zahrani, A. Fouda, Humidification-dehumidification water desalination system integrated with multiple evaporators/condensers heat pump unit, *Int. J. Energy Res.* 44 (13) (2020) 6396–6416.
3. J. Long, R. Zhang, J. Lu, F. Xu, Heat transfer performance of an integrated solar-air source heat pump evaporator, *Energy Convers. Manag.* 184 (3) (2019) 626–635.
5. X. Kong, J. Li, B. Wang, Y. Li, Numerical study of a direct-expansion solar-assisted heat pump water heater under frosting conditions based on experiments, *Sol. Energy* 196 (1) (2020) 10–21.
6. W. Su, W. Li, B. Sun, X. Zhang, Experimental study and correlations for heat and mass transfer coefficients in the dehumidifier of a frost-free heat pump system, *Int. J. Heat Mass Tran.* 131 (3) (2019) 450–462.
7. S. Cheng, Z. Sun, Y. Wu, P. Gao, J. He, Z. Yin, L. Liu, G. Li, A thermally insulated solar evaporator coupled with a passive condenser for freshwater collection, *J. Mater. Chem. A* 9 (39) (2021) 22428–22439.

QUYOSH SUV ISITGICHLARI QANDAY ISHLAYDI VA FOYDALI TARAFLARI

Xolmonov Umidjon Vasil o'g'li
Qarshi irrigasiya va agrotexnologiyalar instituti 3-kurs talabasi

Bugungi kunda energiya tejoychi manbalardan foydalanishga ko'proq ahamiyat berilmoqda. Quyosh nuri orqali ishlaydigan qurilmalarga bo'lgan talab ham oshib bormoqda.

Quyosh vakuumli suv isitgichlari yoki kollektorlari yaxlit va bo'lingan turlari bo'lishi mumkin. Shunday qilib, bitta qisimli kollektor (monoblok) vakuum shishalaridan va bitta konstruksiyada mahkamlangan issiq suv akkumulyatoridan (termos) iborat.

Kollektori-monoblok asosan bino yoki uyning tom qismiga o'rnatiladi va shu bilan iste'mol manbaiga kerakli bo'lgan issiq suv bosimini yetkazib beradi. Saqlash idishi issiq suv haroratining uzoq muddatli saqlanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, qishda havo harorati 0 °C darajadan past bo'lganda issiqlik yo'qotilishi faqat 3–6°C daraja bo'lishi mumkin. Ya'ni, agar tunda kollektorda suv harorati + 60 °C bo'lsa, ertalab bu ko'rsatkich 5 °C dan oshmaydi va +55°C bo'ladi. Aqlli tekshirgich (Smart kontroller) barcha ish jarayonlarni, shu jumladan, idishdagi suv darajasini, suv sathini tartibga solishni, agar kerak bo'lsa 1,5 kVt quvvatli elektr isitish moslamasini yoqish va o'chirish ishlarini boshqaradi. Chunki Quyosh kollektoridan foydalanish iqtisodiy jihatdan juda foydali, o'zining xizmat muddati davomida quyosh

kollektori shunday miqdordagi energiyani ishlab chiqaradiki, qurilmani yasashga ketgan xarajatlarni bir necha barobar ortig'i bilan qoplanadi.

Quyosh suvini isitish tizimlari issiq suvga bo'lgan kundalik ehtiyojlaringizni qondirish uchun etarli miqdorda issiq suv ishlab chiqarishi mumkin.

Uy va tijorat maqsadlarida foydalanish uchun quyosh suv isitgichlarining ikkita asosiy turi mavjud:

- Faol quyoshli suv isitgichlari
- Passiv quyoshli suv isitgichlari

Ularning har biri har xil ishlaydi va turli jihozlardan iborat.

Faol quyoshli suv isitgichlari quyosh kollektorlaridan yoki absorberlardan issiq suvni uyingizga aylantirish uchun nasosdan foydalanadi. Ular odatda sovuq iqlimli hududlarga o'rnatiladi, chunki suv muzlashdan saqlanish uchun yopiq joyda saqlanadigan idishda saqlanadi.

Faol quyoshli suv isitgichlarining ikki xil turi mavjud:

- Suv to'g'ridan-to'g'ri kollektorlarda isitiladigan faol to'g'ridan-to'g'ri tizimlar, keyin sizning kraningizga va dush idishlaringizga yuboriladi. Quyosh kollektorlari odatda metall yoki shisha naychalardir.

- Propilen glikol singari issiqlik uzatish suyuqligi quyosh kollektorlari ichida qizdirilib, keyin issiqlikni yopiq tsikli tizimidagi issiqlik almashinuvchisi bilan suv ta'minotiga o'tkazadigan faol bilvosita tizimlar. Bir oz issiqlik yo'qotilishi, uzatish suyuqligi tizimni aylanayotganda sodir bo'ladi.

Passiv quyoshli suv isitgichlari issiq suvni harakatga keltirish uchun aylanma nasoslardan foydalanmaydi. Buning o'rniga ular suvni aylantirish uchun konveksiyaga aylanib, aylanma tizim sifatida murojaat qilishadi, bu erda issiqroq suv ko'tarilib, sovuq suv cho'kadi.

Passiv quyosh suv tizimlari, odatda, faol tizimga qaraganda arzonroq, chunki suvni haydash uchun maxsus uskunalar talab qilinmaydi.

Passiv quyoshli suv isitgichlarining ikkita asosiy turi mavjud:

- Integral kollektorli quyoshli suv isitgichlari - katta, qora suv saqlaydigan omborlar bo'lib, ular quyosh nuri tushadigan tepalik bilan ajratilgan qutiga o'rnatiladi. Quyosh nurlari suvni to'g'ridan-to'g'ri qora idishlarda isitadi, keyin issiq suv kerak bo'lganda sizning sanitariya-tesisat tizimingizga oqib tushadi.

- Passiv termosifonli tizimlar sizning tomingizda oz miqdordagi suvni isitish uchun metall tekis plastinka kollektorlaridan foydalanadi. Issiq suv vanalarini ochsangiz, partiyaviy kollektorning yuqori qismidagi issiq suv tomingizdan musluklaringizga tushadi. Odatda ular 40 galon suvni o'z ichiga olishi uchun mo'ljallangan.

Ko'plab passiv tizimlar zaxira energiya manbai sifatida tanksiz isitgichni o'z ichiga oladi, ular gaz yoki elektr bo'lishi mumkin.

Xulosa: Hozirgi zamonda Issiq suv qulaylikning ajralmas elementidir. Issiq suvning etishmasligi katta noqulaylik tug'diradi. Ushbu muammoni quyosh suv isitgichi yordamida hal qilish mumkin. Bu nafaqat ekologik jihatdan qulay, balki energiya yoki gaz xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Issiq suvdan tashqari, quyosh suv isitgichlari xonani ham isitishni ta'minlashi mumkin. Albatta, gap har xil turdagi quvvat haqida. Shu bilan

birga, quyosh kollektorlari deyarli har qanday xonani isitish bilan ta'minlashi mumkin. Katta miqdordagi suv. Chiqishdagi issiq suv miqdori bakdagi hajmiga bog'liq emas.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Teshaboev. A. va b. Yarimo'tkazgichlar va yarimo'tkazgichli asboblarni texnologiyasi. T.2006 yil
2. Risboev T.R. —Kremniy asosidagi fotoelementlarning Quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantirish xususiyatlarini tatqiq etish
3. www.arxiv.uz
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Solar_energy

BIOETANOLNI YOQILG'I SIFATIDA ICHKI YONUV DVIGATELLERIDA QO'LLANILISHINI SAMARADORLIGI

Xamrayev Tolib Yarashevich, Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi, t.khamrayev@bk.ru

Hozirgi paytda qazib olinadigan yoqilg'ilar — ko'mir, neft, tabiiy gaz va uran zaxirasi dunyo energetika balansining asosi hisoblanadi. Energoresurslarini hozirgi darajada iste'mol qilishda dunyodagi neft zaxirasi — 45–50 yilga, tabiiy gaz — 70–75 yilga, toshko'mir — 165–170 yilga, qo'ng'ir ko'mir — 450–500 yilga yetishi mumkin. Iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishi, aholining o'sishi va mavjud an'anaviy energiya ta'minoti hisobga olinsa, energiya ta'minoti mos ravishda ortib boradi. Butun dunyo no'an'anaviy energiya turlaridan foydalanishga katta qiziqish bildirmoqda.



1-rasm. Bioetanolni struktura va kimyoviy tuzilishi sxemasi

Xozirda ko'pgina mamlakatlarda bioetanoldan yoqilg' sifatida ichki yonuv dvigatellarida qo'llash ananaga aylangan. Bioetanol odatda neft mahsulotlar va gazni krikenglash orqali yani qayta ishlash orqali olinadi Bazi davlatlarda xususan Amerika, Rossiya, Kanadada bioetanol gazidan oqilona foydalinmoqda. Bioetanol gazidan odatta bioetanlol olib bioetanoldan polimer mahsulotlar olish maqsadga muofiq hisoblanadi. Tabiy gazni qayta ishlash orqali undan metan bioetanol propan ,butan va shunga uxshash gazlar ajratib olinadi . Bioetanol gazini yoqilg'i sifatida qullashdan kura undan bioetanlol olib yoqilg'i va polimer materiallar olish samara beradi. Bioetanolni kimyoviy va fizik xususiyatlari kurib chiqadigan bulsak.[1]

Kimyoviy formulasi quyidagicha C_2H_6O ko'rinishda bulib bu degan 2ta uglerod va 6ta vodorod, bitta kisloroddan tashkil topgan buladi va quyidagi kurinishda buladi Bioetanolni piroliz usulida fraktsiyalash turt kamerali pechlarda amalga oshirish bilan bir qatorda akustek

gorelkalar jamlanmasidan AGG tipidagi vertikal holatdagi shakldagi radiantlardan iborat. Bioetanol fraksiyasi atrof muhitda 10-12 kgs/sm² bosim ostida diametri 200 mm bulgan T-1a qizdirgichga utib 800 ° suv bug'i 7,0 kgs/sm² bug' kondensati va undan keyin deaerator kolonkasiga K-3 utadi.



2-rasm. Bioetanol yoqilg'isini quyish shaxobchasi.

Gazsimon aralashma bug' va bioetanol harorati 203°C qizdirilib 5-10 metr qatorli turt oqimli gorizontali burama konveksiya harorati 630 °C vertikal turt oqimli uzluksiz ishlaydigan burama sektsiyali radiatsiyali bioetanolni pirolizlash jarayoni harorati 800-835°C amalga oshiriladi. Pirolizlangan gaz pechdan chiqish vaqtida bosimi 1-1,2 kgs/sm² va harorati 835°Cda P-1 pechida birlashadi va barcha oqimlardan oqib quvurli qismiga utish qismiga vertikal holatda joylashtirilgan bulib konstruktiv sxema buyicha quvurlar oralig'idan separatorli E-4 bug' yiqqichga yig'ilad

Issiqlik almanishuv quvurlar oralig'ida pirogazlarni sovutish jarayoni 295-430°C haroratda kechadi. Quvurlar oralig'idan keladigan taminot suvlari hisobiga sovush jarayoni kechadi. Odatda biobioetanolo usimliklarni qayta ishlash jarayonida olinadi. 2015yilgi kursatgichlarga qaraydigan bulsak yer yuzida ishlab chiqarilgan biobioetanolo 36.3 milliard litrni tashkil etib,shundan 45% Braziliya hisobiga 44.7% esa Amerika hisobiga tug'ri kelgan.braziliyada shakarqamish xomashyosidan olingan bulsa „Amerikada esa makkajuxoridan olingan.bioetanolo yoqilg'isi yoqilg'ilik darajasi benzina qaraganda Ye85(85% bioetanolo ,15% benzindan iborat buladi)da yuradigan avtomobillarga yoqilg'i sifatida ishlatiladi, bu yerda Ye harfi Yethanol so'zidan olingan. Odatiy mashinalar bu yoqilg'i bilan yurmaydi. Bundan tashqari Ye15, Ye30 markali yoqilg'ilar ham qullaniladi, Braziliya biobioetanolo ishlab chiqish buyicha jahonda shakarqamishli biobioetanolo olish buyicha birinchchi urinda turadi.

Hattoki ularda avtozapravkalarda Ye20, Ye25 markali yoqilg'ilar ham sotilish bilan birga Ye100 bioetanolo azaetro (96% S2N5ON yoki 4% suvdan iborat buladi.E5,E7,E20 arlashmali past aralashmali bioetanolo.E85% aralashmali bioetanolo 15% benzindan iborat buladi. Bundan tashqari Ye95 aralashmali Ye95% bioetanolo 5% yoqilg'i aralashmali bulib Skania kompaniyasi dizel yoqilg'isiga muljallangan avtobuslarni ishlab chiqarmoqda. Bundan tashqari BEST (BioEtahnolfor Sustainable Transport) kompaniyasi Ye95% li bioetanolo muljallangan shahar avtobuslarini yaratishishdi.

E100 markasi bilan yuritilgan bilan azeotrop arlashmali bioetanlol hisoblanib uning asosini 96,5% i 3,5% li buladi. Odatiy distillanish jarayonida 100%li bioetanlol yoqilg'isi olish imkoniyati yuq.2017 dekabr oyida Shimoliy Dakotada "Avtomobillarni Urganish Markazida" Menesota shahrida energiyatejamkorligini o'rganish jarayonida odatiy va noodatiy avtomobillar sinovdan utkazildi.

Sinov jarayonida 2% dan85% gacha tarkibli bioetanlolni sinovdan o'tkazishdi.Odatiy avtomobillar uchun Ye20% va Ye25% li bioetanlol yoqilg'isi tejamkorligi benzina qaraganda 5-10% ga oshganligi isbotlandi. flex-fuel dvigatelli avtomobillar uchun Ye80 markali bioetanlol yoqilg'isini tejamkorligi benzina qaraganda 15%ga oshishi isbotlandi. Ye10-E25 markali bioetanolni qullash natijasida odatiy avtomobillarga konstruktiv uzgartirishsiz yoqish mumkin.Bundan tashqari 5% li bioetanlolni gazga qushish natijasida gazlarning yonishdan keyingi ajraladign zaxariligi sezilarli darajada kamaydi. Chiqib ketuvchi gazlar tarkibidagi uglevodorodlar 4.5% azot oksidi 5.7%, uglerod oksid 26.3% ga kamayadi.bu esa ekologik tomondan ham yaxshi natijalarni beradi. Hisob kitoblarni shuni kursatdiki 3% biobioetanlolni benzin tarkibiga qushish orqali oktan sonini oshishi 1-1.5 borobarga oshadi. Bundan tashqari past oktanli benzin sotib olib unga 10% li bioetanlol qushish orqali A92 benzinini A95 benzeniga aylantirish mumkin, agar 20% biobioetanlolni qushsak A98 markali benzina aylantirish mumkin buladi. 30% bioetanlolni qushilsa u holda mashina konstruksiyasini uzgartirishga tug'ri keladi.

Bioetanolni ekologik ta'siri: E85 kabi aralashtirilgan yoqilg'i iqlim o'zgarishi uchun mas'ul bo'lgan eng muhim issiqxona gazining kamroq karbonat angidridini ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, E85 tomonidan kamroq uchuvchi organik birikmalar chiqariladi. Ammo etanol ekologik xavflarisiz emas, chunki ichki yonish dvigatellarida yoqilganda ozonning er osti sathini oshirishi mumkin bo'lgan boshqa formaldegid va boshqa moddalar sezilarli darajada oshadi.

Iqtisodiy manfaatlar va kamchiliklar:Etanol ishlab chiqarish dehqonlarga etanol uchun makkajo'xori etishtirish uchun subsidiyalarni taklif qilib, bu bilan mahalliy ishlarni tashkil qiladi. Etanol mahalliy ishlab chiqarilgan, mahalliy o'simliklardan olinadigan bo'lsa, u O'zbekistonning xorijiy neftga bo'lgan qaramligini kamaytiradi va mamlakatning energiya mustaqilligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboev A., A. Hasanov, L. Yotova and H. Hasanov. Antioxidant activity of peptides obtained from wheat and cottonseed proteins Bulgarian Journal of Agricultural Science, 18 (No 1) 2012, 103-111. (06.00.00 №1)
2. Boboev A.X., Hasanov H. T., Hasanov A. H., Rahimov M. M. State of Pepsin and Acidic Protease in Solid Phase System and the Factors Increasing Their Destabilization. // Journal of Food Science and Engineering. -2011. №1 P.303-312. (02.00.00 №16)
3. Boboev A.X., Hasanov H., Zakirova M., Akbarova N. Enzymatic Hydrolysis of Various Proteins of Wheat in Heterogeneous Conditions. // Int. J. Bioautomation. - 2010, №14(3), P.197-202. Scopu: SJR 0,267. CiteScore 1,19. SNIP 1,141.

YASHIL ENERGETIKA - TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSI

Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich,
NamMTI, katta o'qituvchi, sayidovnozimjon@gmail.com
Asrorova Hulkarxon Abrorovna, NamMTI, 2-bosqich talabasi

Dunyo mamlakatlarida sanoatning rivojlanishi, aholi sonining ortib borishi, iqtisodiyotning jadal o'sishi energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj va talabning oshishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, elektr energiyasi ishlab chiqarishda issiqlik va gidroelektr stansiyalar hanuzgacha salmoqli o'rinni band etadi. Ma'lumki, issiqlik elektr stansiyalari ko'mir, gaz yoki mazutni yoqish, tabiatga ishazi chiqarish asnosida ishlaydi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 80% ulushi issiqlik elektr stansiyalari zimmasiga to'g'ri keladi.



Gidroelektr stansiyalar esa global elektr energiyaning 14,9, atom elektr stansiyalari-9,2, shamol elektr stansiyalari - 7,2, quyosh elektr stansiyalari - 4,5 foizini ishlab chiqargan. Suyuq yoqilg'i orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi jami 2,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, yana boshqa turli usullar bilan elektr olish hissasi 2,7 foizga teng bo'lgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, 2022-yilda shamol, quyosh va geotermal kabi qayta tiklanadigan manbalar jami elektr energiyasi ishlab chiqarishining ulushi 14,4 foizni ko'rsatgan. Muqobil energiya manbalari

bu gidroenergetika, shamol energiyasi, quyosh energiyasi, geotermal energiya, biomassa va suv oqimi energiyasidan foydalanish orqali olinadigan qayta tiklanadigan energiyadir.




O'zbekistondagi "yashil energiya" salmog'i ayni davrga kelib atigi 10-14 foizni tashkil etadi. Hozirgi kunga qadar Olmaliq kon-metallurgiya kombinati korxonalarida, jumladan, Ijro apparatida 350 kVt, Elektr tarmoqlari boshqarmasida 250 kVt, OKMK Tibbiy-sanitar qismida 150 kVt.li fotoelektr stansiyalari o'rnatilib ishga tushirilgan.

2023-yilning 11 oyi davomida o'rnatilgan quyosh elektr stansiyalari tomonidan 593 140 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi, fotoelektr stansiyalar ishlab chiqarayotgan elektr energiyasi bilan sexlar o'z ehtiyojlari uchun elektr energiyasi iste'molining 10-100%

qoplashga muvaffaq bo'ladi. Joriy qilingan fotoelektr stansiyalar tomonidan bugungi kunga qadar 593 140 kVt/soat elektr energiyasi iste'moli qo'plandi.

Shu o'rinda zamonaviy muqobil energetika qurilmalarini joriy etish borasida qanday istiqbolli loyihalar belgilangan, degan savol tug'ilishi mumkin. Bu - eng yirik loyiha quvvati 100 MVt bo'lgan fotoelektr stansiyasini qurish va uni 110 kV taqsimlash tarmog'iga integratsiyalash loyihasi bo'lib, u har bir korxonaning ushbu energiyadan foydalanish imkonini ta'minlaydi.

Tasdiqlangan asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga asosan, 2023-yilning 10 oyi davomida 2378 mln kVt/soat elektr energiyasi iste'moli rejalashtirilgan bo'lsa, amalda bu ko'rsatkich 2198,6 mln kVt/soatni tashkil qildi. Texnologik jarayonlari tabiiy gaz bilan bog'liq bo'lgan korxonalarimiz oldiga 258,9 mln m³ tabiiy gaz iste'moli belgilangan bo'lsa, ushbu korxonalar tomonidan 211,9 mln m³ tabiiy gaz iste'moli amalga oshirildi. 1066547 GKal miqdorida issiqlik energiyasi qabuli rejalaniib, mos ravishda bu ko'rsatkich 918268 GKal ni tashkil etayotgani tejamkorlik borasida yuqori natijalar qo'lga kiritilganini ko'rsatmoqda.



o'zgartirish va pechlarning isitish elementlariga yuklamani kamaytirish bilan modernizatsiya qilish imkonini berdi va bularning barchasiga mahsulot sifatiga putur yetkazmasdan erishildi. Markaziy ta'mirlash mexanika zavodida quritish barabanida qoliplash qumini quritish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritildi va maydalagichlar konuslari uchun zirh ishlab chiqarishda "Megnesitschlichte 5848" yopishmaydigan qoplama ishlatildi. Buning natijasida 81,4 ming m³ tabiiy gaz tejaldi. Mis eritish zavodida tabiiy gazni tejash maqsadida yallig'-qaytarish pechining issiqlik rejimini kuchaytirish va kislorod-mash'alali eritishning quritgich quvurida shixtani quritish texnologiyasini takomillashtirish evaziga 1613 ming m³ miqdoridagi iqtisodiy ko'rsatkich qo'lga kiritildi. Mis boyitish fabrikasida mis konsentratini

Jumladan, Qalmoqqir kon boshqarmasidagi (NKU) EKG - 10 24-son past kuchlanishli komplet taqsimlash qurilmasi (NKU) ning tranzitorli o'zgartirgich tizimiga almashtirilishi hisobiga 571,3 ming kVt/soat tejamkorlikka erishildi. Ushbu yo'nalishda Mis eritish zavodida ham 1472 ming kVt/soat tejamkorlik qo'lga kiritildi. Elektr energiyasining bunday tejamkorligi gradirli sovutish tizimi sxemasini sug'orish forsunkalarini joylashishini

press-filtrlar orqali quritish texnologik jarayonini optimallashtirish hisobiga 774,7 ming m³ tabiiy gaz tejamkorligi ta'minlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. García-Olivares A., Solé J., Osychenko O. Transportation in a 100% renewable energy system //Energy Conversion Management– 2018. – T. 158. – C. 266- 285.
2. Jacobson MZ, Delucchi MA. Providing all global energy with wind, water, and solar power, Part I: Technologies, energy resources, quantities and areas of infrastructure, and materials. Energy policy. 2011 Mar 1;39(3):1154-69., Ballabrera-Poy J, García-

YASHIL ENERGIYALI QUYOSH ELEMENTLARINING TURLARI

Xaqberdiev A.I.,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti stajor-o'qituvchi

haqberdiyevasliddin@gmail.com

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari orqali elektr energiya ishlab chiqarilganda atrof-muhitga zararli gazlar chiqmaydi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan vaqtdan boshlab daromad olish imkoni yuzaga keladi. Bunday qurilmalar binolarning tom qismida yoki bo'sh yer maydonlarga o'rnatilib, ishlash jarayonida shovqin bo'lmaydi. Zamonaviy vositalar orqali bino va xonadonlarni elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi. Bu qurilmalarni o'rnatish oson va doimiy texnik xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Servis xizmat ko'rsatilgan sari elektr energiyasi hajmi xam ko'payib boradi. Mazkur qurilmalar o'rtacha 20-25 yil davomida xizmat ko'rsatadi. Mulk egasi ehtiyojidan ortgan qismini elektr tarmoqlari korxonasiga sotib, daromad olish imkoni mavjud.

On-Grid tizimi - hududiy elektr tarmoqlari tizimiga ulangan bo'lib, inverterlar orqali hosil bo'lgan o'zgaruvchan energiya manбайдan quyoshli kunlarda bemaol foydalanishingiz mumkin. Iste'molingizdan ortig'ini esa mahalliy elektr tarmog'iga yo'naltirishingiz, aniqrog'i sotishingiz mumkin. Albatta buning uchun hududiy elektr tarmog'ida ham elektr energiyasi mavjud bo'lishi lozim. Shuning uchun bu usul tarmoq ichida tizim deb ataladi.

Off-Grid tizimi - hududiy elektr tarmoqlari tizimidan holi, mustaqil (avtonom) tizim bo'lib, quyoshli kunlarda hosil bo'lgan va iste'molingizdan ortib qolgan elektr manbaini zaxiraga olib qo'yish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bunda batareyalarga "g'amlab" qo'yilgan elektr energiyasi Sizni kecha-yu kunduz uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlab turadi.

Gibrid tizimi - On-Grid (tizim ichidagi) va Off-Grid (tizimdan tashqari) imkoniyatlarini birlashtirgan Sizning "quyosh elektr stansiyangiz"dir. Bunda Siz bir vaqtning o'zida xam hududiy elektr tarmog'iga ulangan bo'lasiz, ham o'z elektr zaxirangizga ega bo'lasiz. Xohlang o'zingiz "ishlab chiqargan" elektr manbaini mahalliy elektr tarmog'iga soting, xohlang zaxira sifatida batareyaga "g'amlab" qo'ygan elektr energiyangizdan o'zingiz bemaol foydalaning.

Bu sohada dunyodagi ko'plab rivojlangan mamlakatlarda keng ko'lamli ilmiy tadqiqot va loyiha konstruktorlik ishlari olib borilmoqda va sezilarli natijalarga erishilgan. Keyingi yillarda O'zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Buning isboti sifatida Respublika birinchi prezidentining 2013 yil 1 martidagi «Muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish chora tadbirlari» to'g'risidagi PQ 4612

farmonini, bundan tashqari respublikamiz hududida (Samarqand, Namangan, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida) yirik quyosh elektrostansiyalarini qurish buyicha loyihalarni ko'rsatish mumkin.

Quyosh batareyasining ishlash prinsipi Quyosh batareyalarining ishlash prinsipi fotoelementlar ta'minlaydigan fotoelektrik ta'sirga asoslangan. Qisqacha aytganda, quyosh panelining ishlash prinsipi - u fotoelektrik qatlamga tushadigan quyosh nurlarini to'playdi. Bu panelning ikki qatlamidan elektronlarning chiqarilishiga olib keladi. Ikkinchi qatlamning elektronlari birinchi qatlamda bo'sh joyga joylashadi.

Quyosh panellarining ishlash prinsipi kremniy kristalli yarimo'tkazgichlarning quyosh nurini yutish qobiliyatiga asoslangan. Kuchlanish va quvvat yetarli bo'lishi uchun kremniy xujayralari katta panellarga yig'iladi, ular ketma-ket yoki parallel ravishda ulanadi. Quyosh panelining o'lchami mutlaqo har xil bo'lishi mumkin - bir necha santimetrdan bir necha kvadrat metrgacha.

Bugungi kunda quyosh panellari nimadan yasalgan? Quyosh panellarining 99% yarimo'tkazgich materiallari asosida ishlab chiqariladi, eng keng tarqalganlari:

1. Amorf kremniy;
2. Polikristalli kremniy;
3. Monokristalli kremniy

Har ikkala holda ham taglikka o'tqazish uni 400–500 °C temperaturagacha qizdirish, yoki shakllangan qatlamni shu temperaturalarda kuydirish orqali amalga oshiriladi. Reaksiya jarayonida qalinligi 1,5–2 mm bo'lgan CIS qatlam yuzaga keladi:

- a. Indiy va galliy kamyob yer metallari. 1 GVt elektroenergiyani generatsiya qila oladigan yupqa pardali CIS quyosh elementlarini ishlab chiqarish uchun taxminan 50 tonna indiy talab qilinadi.
- b. Narxlarning o'zgarishi, bir kilogramm indiyning narxi 2003 yilda 100 dollar bo'lsa, 2005 yilda u 1000 dollargacha o'sgan. Demak, xom ashyo materialining narxi turg'un emasligi muammosi ham mavjud.
- c. Selenidlar zaharli bo'lgani uchun atrof muhitni muhofaza qilish muammolari va ikkilamchi ishlov berish xarajatlari e'tiborga olinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, quyosh modullarini va avtonom energo qurilmalarni qo'llanilishining istiqboliga hozirgi kunda hech kim shubha bilan qaramaydi. Bu yo'nalishning rivojlanish tendensiyalari quyosh energetikasining hayotga keng joriy qilinishi mazkur muammoning ishlab chiqilish darajasi bilan emas, balki birinchi navbatda bunday usul bilan olinayotgan energiyaning narxi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Kuzatilayotgan tendensiyalar an'anaviy usul bilan olinayotgan energiyaning narxi bilan tenglashish yaqin o'n yillar ichida sodir bo'lishini va u yirik masshtabli quyosh energetikasining tug'ilishini belgilashini ko'rsatadi. Quyosh Erga hayot bergan reaktor va u insoniyatning har tomonlama qulay turmushi uchun zarur bo'lgan energiyani bera oladi. Shuning uchun quyosh energiyasidan yanada faolroq foydalanish ertangi kunning emas, hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afanasev V. P., Terukov E. I., Sherchenkov A. A., A94 Tonkoplenochnye solnechnye elementy na osnove kremniya. 2-e izd. SPb.: Izd-vo SPBGETU «LETI», 2011. 168 s.
2. Alfyorov J. I., Andreev V. M., Rumyansev V. D. Tendensii i perspektivy razvitiya solnechnoy fotoenergetiki // FTP. 2004. T. 38, vip. 8. S. 937–948.

ZAMONAVIY QUYOSH PANELLARINI BUGUNGI KUNDAGI O'RNINI

Nurmira Abdusalilov Saydullo o'g'li.
Muxammadbobur Xanidxonov Odilxo'ja o'g'li.
NamMTI, assistant, xamidxonov@list.ru

Zamonaviy quyosh panellari bugungi kunda energiya ta'minotida muhim rol o'ynaydi. Ular ekologik toza energiya manbai sifatida, an'anaviy yo'llar bilan ta'minlashga qaramasdan, energiya xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Quyosh panellari samaradorligining ortishi (20-25% ga yetadi) va narxlarining pasayishi, ularni iqtisodiy jihatdan jozibador qiladi.

Ushbu texnologiyalar, atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish orqali iqlim o'zgarishi bilan kurashishda yordam beradi, chunki ular uglerod izlarini 50-70% ga kamaytirishi mumkin. Iste'molchilar orasida quyosh energiyasiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, bu esa ekologik ongning oshishi va energiya mustaqilligiga bog'liq.

Tadqiqot uslubining tavsifi: Quyosh panellarining zamonaviy o'rnini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot uslublarini qo'llash mumkin:

Nazariy tadqiqot: Bu uslubda, quyosh energiyasi va uning texnologiyalari, iqtisodiy va ekologik ta'sirlarini o'rganish uchun mavjud adabiyotlar, maqolalar va hisobotlar tahlil qilinadi. Nazariy asoslar, tarixiy rivojlanish va sohadagi yangiliklar batafsil ko'rib chiqiladi.

Empirik tadqiqot: Bu uslubda, ma'lumotlar to'plash uchun so'rovnomalar, intervyular yoki tajribalar o'tkaziladi. Masalan, quyosh panellaridan foydalanuvchi iste'molchilar yoki kompaniyalar bilan suhbatlar olib borilishi mumkin.

Kvantitativ tahlil: Statistik ma'lumotlar va raqamli ko'rsatkichlar orqali quyosh energiyasining iqtisodiy va ekologik samaradorligi o'lchanadi. Bu uslubda, energiya ishlab chiqarish, xarajatlar va iqtisodiy foyda kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Kvalitativ tahlil: Bu uslubda, intervyu va fokus-guruhlar orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Odamlarning quyosh energiyasiga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy qabul qilish jarayonlari va ekologik ong o'rganiladi.

Taqqoslash uslubi: Turli mamlakatlar yoki hududlar orasida quyosh panellaridan foydalanish darajasini taqqoslash orqali farqlar va o'xshashliklarni aniqlash. Bu uslub orqali muvaffaqiyatli tajribalar va strategiyalarni o'rganish mumkin.

Geografik axborot tizimlari (GAT): Quyosh panellarining joylashuvi va ulardan foydalanish natijalarini analiz qilish uchun GAT usullaridan foydalanish mumkin. Bu, energiya resurslarini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Tezidan olingan natijalar: Zamonaviy quyosh panellarining o'rnini o'rganish bo'yicha tadqiqot natijalari quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab olishi mumkin:

Energiya samaradorligi: Tadqiqotlar natijasida zamonaviy quyosh panellari samaradorligi 20-25% ga yetishi aniqlangan. Bu esa energiya ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshiradi va foydalanish xarajatlarini kamaytiradi.

Iqtisodiy foyda: Mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadi-ki, quyosh energiyasiga investitsiyalar tez sur'atlar bilan oshmoqda. Ko'p joylarda, quyosh energiyasi narxi an'anaviy energiya manbalariga nisbatan raqobatbardosh darajaga yetdi.

Ijtimoiy qabul qilish: O'rganishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, iste'molchilar orasida quyosh energiyasiga bo'lgan qiziqish va qabul qilish darajasi yuqori. Bu, asosan, ekologik ongning oshishi va energiya mustaqilligi talabidan kelib chiqadi.

Atrof-muhitga ta'sir: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, quyosh panellaridan foydalanish natijasida uglerod izlari 50-70% ga kamayishi mumkin, bu esa iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.

Innovatsiyalar: O'rganishlar davomida quyosh energiyasi texnologiyalarida innovatsiyalar, masalan, quyosh panellari uchun yangi materiallar va batareyalar texnologiyasi, samaradorligini yanada oshirishga yordam bergani ta'kidlangan.

Geografik taqsimlanish: Tadqiqotlar, quyosh energiyasidan foydalanish darajasi mamlakatlar va hududlar bo'yicha farqlanishi, ba'zi joylarda esa resurslardan to'liq foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Ushbu natijalar zamonaviy quyosh panellarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini keng qamrovli tahlil qilishga yordam beradi va ularning kelajakdagi rivojlanishi uchun yangi yo'nalishlarni belgilaydi.

Ma'lumotlar hamda xulosalar qisqa va aniq bo'lishi kerak:

Energiya samaradorligi: Zamonaviy quyosh panellari samaradorligi 20-25% ga yetadi, bu energiya ishlab chiqarishni sezilarli oshiradi.

Iqtisodiy foyda: Quyosh energiyasi narxi an'anaviy manbalarga nisbatan raqobatbardosh, investitsiyalar oshmoqda.

Ijtimoiy qabul qilish: Iste'molchilar orasida quyosh energiyasiga qiziqish ortib bormoqda, bu ekologik ong va energiya mustaqilligiga bog'liq.

Atrof-muhitga ta'sir: Quyosh panellaridan foydalanish uglerod izlarini 50-70% ga kamaytirishi mumkin, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim.

Innovatsiyalar: Yangi materiallar va texnologiyalar ishlab chiqilishi, quyosh energiyasining samaradorligini oshirmoqda.

Geografik taqsimlanish: Quyosh energiyasidan foydalanish mamlakatlar bo'yicha farqlanadi, ayrim hududlarda resurslardan to'liq foydalanish imkoni yo'q.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Zamonaviy quyosh panellari energiya ta'minoti, iqtisodiy barqarorlik va ekologik himoya uchun muhim manba hisoblanadi. Quyosh energiyasiga o'tish, atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va iqlim o'zgarishi bilan kurashishda yordam beradi. Kelajakda innovatsiyalar va geografik imkoniyatlarni hisobga olish, quyosh energiyasining kengayishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 dagi №PF-4947- sonli farmoni.

2. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2017 dagi №PF-5024-sonli farmoni. П.У.Э. Энергоатомиздат – 2021 г.

3. N.S.Abduxalilov B.X.Qo'chqarov "Kuchlanishi 110/35/10 kv li podstantsiyada o'z ehtiyoj transformatorlarini tanlash va ularni asoslash" Monografiya 2023 y.

ISSIQLIK ENERGIYASI VA GAZNI QAYTA ISHLASH SOXALARIDA FOYDALANILADIGAN ASINXRON ELEKTR MOTORLARNI CHASTOTA ROSTLAGICHLAR ORQALI BOSHQARISHNING TEXNIK-IQTISODIY IMKONIYATLARI

Umirov A.P., t.f.f.d (PhD).

Shoyqulova D.S.

QarMII.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish yo'nalishlarida ishlab chiqariladigan maxsulotda energiya ulushi yuqoriligi kuzatilmoqda. Ishlab chiqariladigan maxsulotda energiya ulushini ratsional darajada kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha Prezidentimizning iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga oid qarori qabul qilindi. Unga ko'ra 2020-2022 yillarda kamida 2,4 milliard kVt/soat elektr energiyasi, 2,4 milliard metr kub tabiiy gaz va 20 ming tonna neft mahsulotlarini tejashni nazarda tutuvchi iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha energiya samaradorligini oshirish va yoqilg'i-energetika manbalarini tejash bo'yicha ko'rsatkichlar qabul qilingan.

Ushbu qaror doirasida yirik quvvatli sanoat korxonalarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash va ularni samaradorligini oshirish muhim amaliy axamiyat kasb etadi. Xozirgi kunda yirik ishlab chiqarish korxonalarida, xususan neft va gaz soxasining gazni sovutish qurilmalari, suv ta'minoti nasos qurilmalari, suvni sovutish qurilmalari, issiqlik ta'minoti yo'nalishida ventilyator va suv ta'minot nasos qurilmalari asinxron elektr motorlarini zamonaviy chastota o'zgartirgich qurilmalari orqali boshqarish amaliyotga joriy qilinmoqda va dastlabki samaradorlikka erishildi [1,2,3]. Chastota o'zgartirgich qurilmalarini turli yo'nalishlarda foydalanishning iqtisodiy samaradorligini quyidagi misollarda yaqqol namunasini ko'rishimiz mumkin:

Issiqlik va bug' ta'minotida, bug' qozonlarini ishlatishda foydalaniladigan ventilyator va gaz so'rish (dimasos) kurilmasi bug' qozonidagi yoqilg'ini yonish jarayonlarini boshqarishga mo'ljallangan bo'lib, uning ish jarayoni bug' kazonidagi gazning holatiga qarab boshqariladi. Bug' qozonidagi gaz miqdori kamaysa gaz chiqish liniyasi ko'ndalang kesim yuzasi qisqartiriladi. Bu jarayon elektr motorining ish holatini o'zgartirmaydi, ya'ni vaqt o'tishi bilan iste'mol qilinadigan quvvat o'zgarishi deyarli sezilmaydi.

Tadqiqot ishining hisob natijalari shuni ko'rsatdiki, bug' qozoniga havo haydash va bug' gazini chiqarish liniyasi ko'ndalang kesimini kamaytirish o'rniga gazni havo haydovchi va bug' gazini so'ruvchi qurilmaning aylanish tezligini kamaytirishni chastota o'zgartirgich kurilmalari yordamida amalga oshirilishi iktisodiy samarador xisoblanadi.

Amaliyot natijalarning chuqur taxlillari shuni ko'rsatiki, chastotani boshqarish mos ravishda kuchlanishni o'zgartirish orqali bajariladi. Amalda chastotani kamaytirish bilan bir vaqtda kuchlanish miqdori ham mos ravishda kamaytiriladi. Bu esa oqadigan tok miqdorini kamayishiga olib kelishi natijasida o'zgartiriladigan chastota necha foizga o'zgarsa, iste'mol kilinadigan quvvat ham mos ravishda kamayadi.

Qozonxona kurilmalaridagi DE-25-14 rusumli bug' qozonida foydalaniladigan 75, 55, 45 kVt quvvatli gaz so'rish (dimasos), kozon suv ta'minoti nasosi va ventilyatorlarida o'rnatiladigan chastota o'zgartirgichlar ish rejimlarining parametrlari va iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kurilma nomi	Nominal kuchlanishi	Maksimal chastota Gs	Quvvati kVt	Ish xolatidagi o'rtacha yillik ishlash chastota	Iste'mol quvvati kVt	Iqtisod kilindigan quvvat kVt
Bug' so'ruvchi (dimasos)	380	50	75	35	36,75	15,75
Ventilyator	380	50	45	32	20,16	11,34
Ta'minot nasosi	380	50	55	45	34,65	3,85

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, qozonxona bitta bug' qozoni elektr qurilmalarini chastota o'zgartirgich orqali boshqarish natijasida o'rtacha 30,94 kVt atrofida quvvat iqtisod qilinadi. Bug' qozonlari quvvati va ishlatiladigan elektr qurilmalari quvvatiga mos ravishga tejaladigan qo'vvat miqdori o'zgaradi.

Gazni sovutish yo'nalishida qazib olinadigan tabiiy gazni qayta ishlash jarayonlari uning haroratini ish rejimiga mos holatda ma'lum bir oraliq qiymatida o'zgartirmasdan saqlab turishni talab etadi. Gaz haroratining belgilangan meyoridan ko'tarilib ketishi gazni qayta ishlash jarayonlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu jarayon havoni haydab sovutish (AVO) agregatlari yordamida bajariladi. Gazning haroratini hisobga olgan holda qurilmalarni boshqarish (havo haydash jarayonida) energiya tejash nuqtai nazaridan amalda samarador hisoblanishini baholash maqsadida texnologik jarayonlarda foydalaniladigan AVO qurilmalari elektr dvigatellarini chastota rostlagichlar orqali boshqarishni iqtisodiy samaradorligi o'rganildi.

Amaliyotda hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan AVO qurilmalari quvvati 75, 37, 30, 22 va 13 kVt li elektr motorlarini boshqarishda o'rnatiladigan chastota o'zgartirgichlarning ish rejimlari va iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qurilma-ning nomi	Nominal kuchlanishi (V)	Chasto-tasi Gs	Quvvati kVt	Ish holatidagi o'rtacha yillik ishlash chastotasi	Iste'-mol quvvati kVt	Iqtisod qilindigan quvvat kVt
AVO	380	50	75	40	60	10,5
AVO	380	50	37	40	29,6	5,18
AVO	380	50	13	40	10,4	1,82
AVO	380	50	30	40	16,8	4,2
AVO	380	50	22	40	12,32	3,08

Tadqiqot natijalarining taxillari shuni ko'rsatdiki, AVO elektr qurilmalarini chastota o'zgartirgich orqali boshqarish natijasida o'rtacha quvvatiga mos bir dona AVO qurilmasini ishlatish uchun o'rtacha 1,82 kVtdan 10,5 kVt gacha quvvat iqtisod qilinishi olib keladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan asoslanib, xulosa qilish mumkinki, elektr energiya iste'molini ratsional qisqartirishda bu kabi zamonaviy yangi texnologiyalarni qo'llash o'zining samaradorligini beradi. Shu bilan bir qatorda amaliyotga joriy qilinadigan ushbu texnologiyalarni ish xolatlarini taxlil qilish orqali ularning ish unumdorligini yanada oshirish va ishlash muddatini uzaytirish bilan bog'liq tadqiqotlarni olib borish amaliy jig'atidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.А. Воротницкий. Снижение потерь электроэнергии-важнейший путь энергосбережения в электрических сетях. //Журнал. Энергосбережения №3, 2014 г.
2. В.А. Воротницкий. Основные направления снижения потерь электро-энергии в электрических сетях. //Журнал энергия единой сети, №2, 2013 г, 24-32 с.
3. В.А. Bobonazarov, N.A. Qurbonov, Kuchlanishi 0,4 kV bitta chastota rostlagich yordamida ikki dona asinxron elektr dvigatelni boshqarishning texnik iqtisodiy taxlili. //“Innovatsion texnologiyalar” №2, 2019 y.

GIDROTEXNIK INSHOOTLARI YASSI ZATVORLARINING YURITMA XARAKTERISTIKASI

Yunusov R.F., dotsent,
Abduganiyev A.A., assistent,
«TIQXMMI» Milliy tadqiqot universiteti
Raxmonov Sh.S., assistent,
Karshi irrigatsiya va agrotexnologiya instituti
Shavozov F.K., talaba,
«TIQXMMI» Milliy tadqiqot universiteti

Ishning dolzarbligi. Hidrotexnika inshootlarining elektrlashtirilgan texnologik jihozlari – suv chiqarish, uning sifatini oshirish, suvni iste'molchilarga yetkazib berish va taqsimlash uchun mo'ljallangan qurilmalar va inshootlar [1-3].

Mexanik jihozlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: zatvorlar, oqim tezligini, sathini, sath farqlarini aniqlash va tartibga solish uchun harakatlanuvchi inshootlar; axlat panjaralari va boshqa to'siqlar; zatvor, panjara va boshqalarni ko'tarish va tashish, o'rnatish va demontaj qilish mexanizm va inshootlari; panjaralarni tozalash va axlatni olib tashlash uchun qurilmalar.

Turli gidrotexnik inshootlar zatvorining yetarlicha to'liq tasnifi [3-5] da keltirilgan. Ulardan turli xil konstruksiya, ekspluatatsiya va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan yassi zatvorlardir. Ular asosiy, favqulodda, ta'mirlash va qurilish sifatida ishlatiladi. Yassi metall zatvorlar 40 m gacha bo'lgan oraliqlarni qoplaydi, meliorativ amaliyotda 6 m2 gacha bo'lgan toymasin tayanchlarda toymasin tekis eshiklar keng tarqalgan. Zatvorlar qo'lda yoki elektr yuritma bilan xarakatlanadi. Amaldagi elektr yuritmalar chuvalchangli uzatmali reduktor va elektr dvigatel bilan ta'minlangan [3-6].

Yassi zatvotlar uchun reduktorli elektr yuritma o'rniga chiziqli asinxron motorga (CHAM) asoslangan resurs tejaydigan elektr yuritmadan foydalanish taklif etiladi. Ular kinematikani soddalashtirish, elektromexanik yo'qotishlarni kamaytirish va umuman elektr yuritmaning ishonchliligi va tezligini oshirish imkonini beradi [3-9].

Tadqiqot metodikasi. ASM texnologik jarayonlarida qo'laniladigan ko'p bir elektrlashtirilgan mexanizmlarning elektr yuritmasini doim takomillashtirib turish texnologiyaning talabi hisoblanadi. Ishlab chiqarish qurilmalariga yoki ularning ishchi xarakterlanuvchi qismlariga samarali elektr yuritmani tanlash uchun ularning yuritma (texnologik, kinematik, energetik, mexanik, yuklanish, inersion) xarakteristikalarini aniqlash kerak bo'ladi [3-9].

Elektr yuritmaning elektr motori (dvigatel) quvvatini hisoblab tanlash uchun gidrotexnik inshooti bug'inidagi yassi zatvorlarning kutarish, tushirish va ushlab turish (fiksatsiyalash) uchun kerakli kuch (quvvat)larni hisoblash lozim [3-11].

Zatvorning o'lchamlari (eni, balandligi, qalinligi) va massasi texnologiyadan kelib chiqadi. Zatvorning hisobiy eni (b_{xuc}) ikki tayanchlari orasidagi masofaga asosan quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$b_{xuc} = b + 2a , \quad (1)$$

Bunda b – zatvorning eni (bo'g'in oynasining eni), m;

a – zatvorni xarakterlantirish g'ildiraklari o'rnatiladigan qismi, m.

Zatvorning aniq balandligi [3, 10, 11] ga asosan aniqlanadi

$$H_z \leq H_{1n} + (0,2 \div 0,3) , \quad (2)$$

Bunda H_{1n} – zatvorning meyoriy balandligi (bo'g'in oynasining balandligi) [3, 11] dan b ga asosan tanlanadi, m.

Zatvorga ta'sir etayotgan suvning gidrostatik bosim kuchi P_{zop} . quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$P_{zop} = (\rho \cdot g \cdot H_z^2 / 2) \cdot b_z , \quad (3)$$

Bunda ρ – suvning zichligi, $\rho = 1$ tс/м³;

g – erkin tushish tezlanishi, $g = 9,81$ м/с²;

H_z – zatvorning yuklanuv balandligi, $H_z = H_{1n}$ (м);

b_z – zatvorning yuklanuv eni, $b_z = b$ (м).

Zatvorni tushirganda P_v kuchni (vipor) e'tiborga olish kerak

$$P_v = P_{f1} + P_{f2} = \rho \cdot g \cdot H_z (b_{sk} + 0,5 * b_{up}) \cdot b_z , \quad (4)$$

Bunda b_{sk} – zichlagichning yonbag'ri eni, $b_{sk} = 5$ sm ;

b_{up} – zichlagich kontakt qismining eni, $b_{up} = 7$ cm .

Zatvorning og'irligi (massasi) suv gidrostatik bosimi va zatvorning eniga bog'lik bo'ladi – uni A.R.Berezinskiyning formulasi bo'yicha aniqlash mumkin

$$G_z = 0,12 \cdot g \cdot F \cdot \sqrt[4]{F} , \quad (5)$$

Bunda F – bo'g'in oynasini yopayotgan zatvorning maydoni (yuzasi),

$$F = 16 \text{ м}^2 .$$

Zatvorni kutarganda P_p kuchni (podsos) e'tiborga olish kerak

$$P_p = q_p \cdot b_{up} \cdot l_{up} , \quad (6)$$

Bunda q_p – zatvorni suv tortish (podsos) kuchining intensivligi,

$$q_p = 0,06 \text{ МПа} = 0,6 \text{ кгс/см}^2 ;$$

l_{up} – zatvorning pastdagi zichlagichning uzunligi, $l_{up} = b$ (м).

Zatvorni kutarganda kutarish kuchi Q zatvorning og'irligi va ballastdan $(G_z + G_b)$, va kutarishda boshqa turli kuchlardan: P_p kuchdan (podsos), T_x tayanch-g'ildiraklarda ishqlanish kuchdan, T_{up} chetki tayanch-zichlagichlarda kuchlardan yuqori bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqqan holda zatvorni kutarganda kutarish kuchining formulasi

$$Q = n_G \cdot (G_z + G_b) + n_{ish.} \cdot (T_x + T_{up}) + P_p, \quad (7)$$

Bunda n_G – material (prokat) koeffitsiyenti, $n_G = 1,1$;

$n_{ish.}$ – ishqlanish koeffitsiyenti turli qismlarda, $n_{ish.} = 1,2$;

G_{b1} – ballast og'irligi, boshidan $G_{b1} = 0$.

Tayanch-g'ildiraklarda ishqlanish T_x кучи

$$T_x = \frac{P_{zop.}}{R} (f_o \cdot r + f_k), \quad (8)$$

Bunda R – zatvor yurgizishda tayanchlar orasidagi g'ildirakning radiusi (sm),

$$R = \frac{P_k}{2 \cdot b_k \cdot \sigma}; \quad (9)$$

P_k – bir g'ildirakka tushadigan yuklanish (kN),

$$P_k = 0,25 \cdot P_{zop.}; \quad (10)$$

b_k – g'ildirakning eni, $b_k = 6 \div 15$ см;

σ – g'ildirakning ruxsat etilgan mexanik kuchlanganligi, $\sigma = 5,5 \div 7,5$ MPa;

r – g'ildirak vtulkasining radiusi, $r = 3$ см;

f_o – g'ildirak sirpanish koeffitsiyenti, $f_o = 0,2 \div 0,3$;

f_k – zatvorda sirpanish koeffitsiyenti, $f_k = 0,1$ см.

Chetki tayanch-zichlagichlarda T_{up} kuchlari

$$T_{up} = 2 \cdot l_{up1} \cdot b_{up} \cdot P_{up} \cdot f_{up}, \quad (11)$$

l_{up1} – zatvorning chetdagi zichlagichning uzunligi, $l_{up1} = H_{1n}$ (M);

b_{up} – zatvorning chetdagi zichlagichning eni, $b_{up} = 7$ см;

P_{up} – zatvorning 1 sm² yuzasiga tushadigan o'rtacha gidrostatik yuklanish (kgs/sm²),

$$P_{up} = P_{zop.} / (b_z \cdot H_z); \quad (12)$$

f_{up} – zakladnoy qismining maksimal sirpanish koeffitsiyenti, $f_{up} = 0,45$.

Zatvorni tushirganda S_{pos} kuchi zatvorning og'irligi va ballast $(G_z + G_b)$, T_x , T_{up} , P_v kuchlarni e'tiborga olish kerak. Bundan kelib chiqqan holda zatvorni tushirish kuchini hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi

$$G_{z1} = n_{G1} \cdot G_z; \quad (13)$$

$$Q_1 = n_{ish.} \cdot (T_x + T_{up}) + P_p. \quad (14)$$

Agarda $G_{z1} < Q_1$ bo'lsa zatvor uchun ballast tanlab uning og'irligini hisoblash kerak


$$S_{pos1} = G_b = Q_1 - G_{z1}. \quad (15)$$

Ballast og'irligini e'tiborga olgan holda (7)-formula bo'yicha zatvorni kutarish kuchini yangidan hisoblash kerak.

Zatvorni ushlab turganda (fiksatsiyalashda) S_{ud} kuchi zatvor va ballastning og'irliklari $(G_z + G_b)$, P_p , T_x , T_{up} kuchlarni e'tiborga olish kerak. Bundan kelib chiqqan holda zatvorni ushlab turishga kerakli kuchini hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi

$$S_{ud} = n_G \cdot (G_z + G_b) + P_p - 0,5 \cdot (T_x + T_{up}) \quad (16)$$

Tadqiqot natijalari. Hisoblardan ma'lum bo'ldiki elektr motor (dvigatel)ning quvvatini hisoblaganda turli jarayonlarda (zatvorni kutarish, tushirish va ushlab turish) maksimal, o'rta va minimal kerakli kuchlarning (Q , S_{pos} , S_{ud}) qiymatlarini e'tiborga olish kerak.



1-rasm. Zatvorlarning texnik parametrlarini hisoblash dasturi.

Gidrotexnika inshoot bug'inlarida yassi metal zatvoriga elektr motor tanlash uchun kerakli turli zatvor gabarit o'lchamlari bo'yicha kuchlarini EXCEL dasturida yozilgan programma (1-rasm) orqali bajarilgan hisob natijalari 1-jadvalda ko'rsatilgan. Ushbu usul va dastur asosida turli gabaritli yassi metall zatvorlarning texnik parametrlarini hisoblash mumkin.

1-jadval. Zatvorning asosiy yuklanish ko'rsatkichlari

T/r.	Zatvorning ko'rsatkichlari	O'lch. birl.	Zatvorning eni, m						
			0,8/ 1,2	1,5/ 1,9	2,3/ 2,7	3,2/ 3,6	4,0/4 ,4	6,0/6 ,4	8,0/8 ,4
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Zatvorning meyoriy Balandligi	m	1,0/ 1,5	1,5/ 2,0	2,0/ 2,5	3,0/ 3,5	4,0/4 ,5	5,8/6 ,3	7,9/8 ,4
2	Zatvorni tushirishda T_x , T_{up} , P_v kuchlarning yig'indisi	kN	32,7 2	34,3 9	37,0 0	43,0 2	50,95	73,17	107,5 2
3	Zatvorni kutarganda kutarish kuchi Q (ballast bilan)	kN	71,5 0	77,0 0	84,3 9	97,9 7	114,6 1	160,7 9	229,7 7
4	Zatvorni ushlab turganda (fiksatsiyalashda) S_{ud} kuchi	kN	26,0 9	30,9 4	37,4 1	48,3 6	61,32	98,24	152,1 1

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абелев А.С. Сельскохозяйственное водопотребление. – Л.: Машиностроение, 2016. – 238 с.

2. Гидротехнические сооружения / Н.П.Розанов, Я.В.Бочкарёв, В.С.Лап-шенков и др.; Под ред. Н.П.Розанова. – М.: Агропромиздат, 2015. – 432 с.
3. Yunusov R., Imomnazarov A. et al. Modelling of liner electro drive in the watergate of hydrotechnical constructions. Journal of Physics: Conference Series. 1399 (2019) 044104. IOP Publishing doi:10.1088/1742-6596/1399/4/044104.
5. <http://www.avis.ru/zatvor4.php> - Щитовые затворы. Описание затворов и электроприводов. – ООО «Т.Д. АВИС».
6. <http://www.ekoton.com/product/gates/gates.html> - Щитовые затворы из нержавеющей стали. Описание. Технические характеристики. Таблица типоразмеров. – Научно-производственная фирма «ЭКОТОН».
7. <http://www.laborant.ru/eltech/08/1/4/48-00.htm> - Ящик управления Я5403-Х74У1 электроприводом затворов гидротехнических сооружений. – ИТЦ «Лабор Комплект Сервис».
8. Фоменков А.П. Электропривод сельскохозяйственных машин, агрегатов и поточных линий. – М.: Колос, 1984. – 192 с.
9. Веселовский О.Н., Коняев А.Ю., Сарапулов Ф.Н. Линейные асинхронные двигатели. – М.: Энергоатомиздат, 1991. – 256 с.
10. Yunusov R.F., Bayzakov T.M. et al. Linear electric actuator of a sectional plane shut-off of hydrotechnical structures. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012017.

ELEKTR MASHINALARDA NOAN'ANAVIY ENERGIYA TA'MINOTINI JORIY QILISH

Raximov Ulash Nomozovich,
Yunusov Obid Abdivait o'g'li,
Muradullayev Doston Muzaffar o'g'li

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agroteknologiyalar instituti

Hozirgi kun talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak sanoatda an'anaviy elektr manbalaridan foylanishga kundan-kunga ehtiyojlarimiz ortib borayotganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu esa sanoatda energiya ta'minotida uzilishlar yetishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda an'anaviy energiya manbaalaridan boshqa manbaalar noan'anaviy energiya manbalari ustida turli innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Elektromobil—akkumulyatorlar batareyasi o'rnatilgan bir yoki bir necha elektr dvigatel yordamida harakatlanadigan avtomobil. 20-asr boshlarida G'arbiy Yevropa va AQShda elektromobildan taksi, pochta furgoni, kommunal xo'jalik mashinalari, yengil avtomobillar sifatida foydalanilgan.

- 1) Harakat bilan bog'liq xususiyatlar;
- 2) Turg'un, ya'ni harakatga bog'liq bo'lmagan xususiyatlar.

Birinchi guruh tarkibiga esa quyidagi xususiyatlar kiradi:

- 1) Elektromobilning dinamikligi;
- 2) Elektromobilning itoatkorligi;
- 3) Elektromobilning yo'llarga moslashuvchanligi;
- 4) Elektromobilning foydaliligi.

Ikkinchi guruh quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: sig'imlilik, ishonchlilik, buzilmaslik, chidamlilik, saqlanuvchanlik, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga yaroqlilik, ortish-tushirish ishlariga moslashuvchanlik.

Birinchi guruh harakat tarkibining asosiy ekspluatatsiya xususiyatlari deyiladi va u quyidagi tartibda o'rganiladi.

Elektromobilning dinamikligi – mumkin bo'lgan eng katta o'rtacha tezlik bilan yuk va yo'lovchilarni samarali tashish xususiyatidir.

Elektromobilning itoatkorligi – haydovchi yoki avtomatik qurilmalar ta'sirida o'z holatini saqlash va maqsadli o'zgartirish xususiyatidir.

Elektromobilning yo'llarga moslashuvchanligi – turli xil toifadagi yo'llar qarshiligini ortiqcha shataksiramasdan, ravon yengib o'ta olish xususiyatidir.

Elektromobilning foydaliligi – boshqa transport vositalariga, atrof muhitga va insonlar salomatligiga zarar yetkazmasdan yuqori iqtisodiy samaraga erishish xususiyatidir.

Ikkinchi guruhga mansub ekspluatatsiyaviy xususiyatlar transport vositalarini ko'proq sof konstruksiyaviy jihatdan baholaydi va bu xususiyatlar, asosan, ylektromobillarni hisoblash va loyihalash jarayonida e'tiborga olinadi.

Transport vositalarining har bir xususiyati uning vazifasi va ishlash sharoitiga bog'liq holda ta'riflanadi.

Tortish - tezlik xususiyati – transport vositalarining turli xil yo'l sharoitlarida, ma'lum tortish rejimida harakat tezligining va eng katta tezlanishining o'zgarish sohasini aniqlaydi.

Tormozlanish xususiyati - transport vositalarining yo'l sathiga nisbatan qo'zg'almasligini ta'minlashdagi va har xil yo'l sharoitlarida tormozlanishdagi eng katta sekinlanishini aniqlaydi.

Boshqaruvchanlik - haydovchining rul boshqarmasiga ta'sir qilishi tufayli transport vositalarini harakat parametrlarining o'zgarish va saqlanish xususiyatidir.

Manevr qilish - transport vositalarini kichik maydonlarda burila olish va yo'l gabaritlariga mos kelish xususiyatidir.

O'tuvchanlik – Elektromobilning og'ir yo'l sharoitlarida va yo'lsiz joylarda to'xtovsiz yura olish xususiyatidir.

Turg'unlik - transport vositalarining yonaki surishga, ag'darishga va sirpanishga qarshilik ko'rsata olish xususiyatidir.

Yurish ravonligi - transport vositalarining notekis yo'llardan, belgilangan tezlik bilan kuzovni ortiqcha tebranmasdan harakatlanish xususiyatidir.

Energiya tejamkorligi - elektromobilning akkumulyator batareyasidan kam energiya sarflab, ko'proq transport ishini bajarish xususiyatidir.

Havfsizlik - transport vositalarining haydovchi tomonidan yuk va yo'lovchilarni yo'l transport hodisalarisiz tashish xususiyatidir.

Zararsizlik – transport vositalarining atrof muhitga ishlatilgan gaz chiqindilari va shovqin bilan eng kam ta'sir etish xususiyatidir.

Elektromobillarning harakatlanishiga bog'liq bo'lmagan ekspluatatsiyaviy xususiyatlar, ularni konstruktiv loyihalash jarayonida e'tiborga olinadi.

Sig'imlilik - transport vositalarining bir vaqtda tashiladigan yuk va yo'lovchilarning joylashishini ta'minlash xususiyatidir.

Ishonchlilik - transport vositalarining ma'lum ekspluatasiya sharoitlarida o'z vazifalarini normal bajarishini ta'minlash xususiyatidir.

Chidamlilik - transport vositalarining ishlash qobiliyatini chegaraviy holatigacha saqlash xususiyatidir.

Buzilmaslik – transport vositalarining ma'lum vaqt yoki masofani o'tishi davomida o'zining ishlash qobiliyatini uzluksiz saqlash xususiyatidir.

Saqlanuvchanlik – transport vositalarining buzilmasdan ishlash, chidamlilik va ta'mirga yaroqlilik ko'rsatkichlari miqdorlarining uzoq saqlanib qolish xususiyatidir.

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga yaroqlilik – transport vositalarining buzilishi va nosozliklarining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga moyillik xususiyatidir.

Ortish va tushirish ishlariga moslashuvchanlik - transport vositalarining ushbu ishlarga eng kam mehnat va vaqt sarflab bajarish xususiyatidir.

Transport vositalarining ekspluatasion xususiyatlari o'lchagich va ko'rsatgichlar orqali baholanadi.

O'lchagich - ekspluatasion xususiyatlarning sifatini baholashdagi o'lcham birligidir.

Ko'rsatgich - ekspluatasion xususiyatlarning miqdorini ko'rsatuvchi raqamli birlikdir.

Transport vositalarining barcha o'lchagich va ko'rsatgichlari me'yoriy hujjatlar orqali belgilab qo'yiladi.

Elektromobillar shaharda foydalanishga mo'ljallangan; yurish qismi, kuzovi yengillashtirilgan, alohida transmissiyali va akkumulyatorlar batareyalari almashtirish qulay qilib ishlanadi. Akkumulyatorlar batareyalari kuzov ostiga joylashtiriladi, tok dvigatelga tiristorli boshqarish bloklari orqali keladi. Dvigatel yetakchi ko'priqli bloklarga (oldiga yoki orqasiga) yoki kardanli harakat bloklariga, yoxud g'ildiraklarga o'rnatiladi. Elektromobildan foydalanish shaharlarda shovqinni va havoning buzilishini kamaytiradi, suyuq yonilg'ini tejashga imkon beradi. Elektr energiya suyuq yoki gazsimon yoqilg'idan bevosita avtomobilning o'zida hosil qilinadigan elektromobillar ham bor. Elektromobil, asosan, AQSh, [Angliya](#), [Rossiyada](#) ishlab chiqariladi. AQSH va Germaniyada bir galgi zaryadi 200 km gacha yo'l yurishga yetadigan elektromobillarning eksperimental nusxasi yaratilgan (2005). [O'zbekistonda](#) elektromobilga doir ishlar Toshkent avtomobil yo'llar institutida olib boriladi.

Bu maqolada biz yangi avlod texnologiyasi ya'ni elektr mashinalar haqida gapirib o'tmoqchimiz. Ma'lumki hozirgi kunda dunyoning bir nechta yetakchi kompaniyalari tomonidan elektr mashinalar ustida ko'plab ishlar qilingan va uni rivojlantirish, takomillashtirish ustida ham ko'pgina izlanishlar olib borilmoqda. Xususan biz ushbu maqolada elektr mashinalar ishlab chiqarayotgan va uning ustida muntazam izlanishlar olib borayotgan dunyoning bir nechta yirik kompaniyalari misolida ko'rib chiqishni ma'qul ko'rdik.

Masalan Tayota kompaniyasi ishlab chiqargan Tayota b4ZX avtomobili
204 ot kuchiga
71.4kWt·h batareya sig'imi;
1 to'liq zaryad 500km gacha yuradi;
100 km/h tezlikga 8.4 sek.
Maksimal tezligi 160k/h ega.

KIA motors kompaniyasining KIA EV6 avlod avtomobili 235 ot kuchiga ega;

58kWh batareya sig'imi;

1 to'liq zaryad 400km gacha yuradi;

100km/h tezlikga 3.5 sek.

Maksimal tezligi 260km/h

BMW kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan BMW iX avtomobili

300 ot kuchiga ega;

70kWh batareya sig'imi;

1 to'liq zaryad 400km gacha yuradi;

100km/h tezlikga 5 sek.

Yuqorida bir nechta yetakchi kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan elektr mashinalarni ko'rib chiqdik.

Avtomobillar haqida umumiy xulosa qiladigan bo'lsak bu avtomobillardan foydalanishda an'anaviy elektr energiyalaridan foydalangan holda zaryadlanadi, zaryadlanish vaqtini oladigan bo'lsak oddiy zaryadlash qurilmalaridan foydalanganda

8-11 soatgacha, tez zaryadlash qurilmalaridan foydalanganda esa 30-40 minut sarflashga to'g'ri keladi. Bundan tashqari akumlyator batareyalarini almashtirib ham foydalanish taklif qilinmoqda.

Biz ushbu maqolada urg'u bermoqchi bo'lgan masala, bu an'anaviy elektr zaryadlashlarning o'rniga noan'anaviy energiya manbalarini joriy qilishni taklif qilishdir.

Agar biz noan'anaviy elektr energiyalarini elektr mashinalarni zaryadlashda qo'llab ko'rsak, bu bizga bundan oldinham, bugun ham va bundan keyin ham eng muhim bo'lgan vaqtni tejashga imkon bergan bo'lardi degan g'oyani ilgari surganmiz.

Noan'anaviy elektr manbalaridan shamol energiyasidan foydalanishni tadbiiq qilishni ilgari surilgan.

Agar shamol energiyalaridan foydalanilsa elektr avtomobili harakatlanishi davomida harakatga qarshi hosil bo'ladigan shamoldan energiya olib o'zini-o'zi qayta zaryadlaysh imkoni paydo bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki elektr mashinalarida an'anaviy energiya manbalaridan ko'ra noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanilsa eng avvalo vaqtdan qolaversa iqtisodiy tomondan ham samara berishini ko'rishimiz mumkin. Elektromobillar shaharda foydalanishga mo'ljallangan; yurish qismi, kuzovi yengillashtirilgan, alohida transmissiyali va akkumulyatorlar batareyalari almashtirish qulay qilib ishlansa hozirgi kun tabaiga mos tushadi.

Foydalanilgan adabyotlar

1. A. Nuraliyev, A. Isaqov, O. Pirimov Elektronika va mikroprotsessor texnikasi nomli o'quv qo'llanma. 2019.
2. Charles A. Gross Thaddeus A. Roppel. Fundamentals of Electrical Engineering. CRC Press Taylor & Francis Group. 2012. 465r.
3. Dickon Ross, Cathleen Shamieh, Gordon Mc Comb, Electronics for Dummies, JohnWiley & Sons Ltd, 2010, 387 p.

4. Гнатов А.В. Сонячна енергія – основні види та типи сонячнихелектростанцій / А.В. Гнатов, Щ.В. Аргун, В.О. Череватий, О.А. Улянець // Автомобиль и электроника. Современные технологии. – 2017. – № 12. – С. 12–21.
5. Argun Shch. Types of alternative energy and prospects for their use inUkraine / Shch. Argun // Автомобильный транспорт. – 2014. – Вып. 35. – С. 29–33.
6. [google.com](https://www.google.com)

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBAYI BO'LGAN SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

Xudoynazarov U.A., Yunusov O.A., Xaydarov Sh.O
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

So'nggi yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari tizimlari tobora ommalashib bormoqda hamda xavfsiz energiya ta'minotiga ustuvor ahamiyat berish, atrof-muhit muammolari va iqlim o'zgarishlariga e'tibor berish, neftdan foydalanishning eng yuqori darajasi va boshqa yoqilg'ining cheklangan zaxiralari tufayli qayta tiklanadigan energiyaning, energiya ishlab chiqarish tizimlariga kuchli kirib borishi kuzatilmoqda. Bu omillarning barchasi shamol energetikasi va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalariga talabni kuchaytirishga sabab bo'ladi. Shamol energiyasi eng muhim qayta tiklanadigan energiya manbalaridan biri bo'lib, qadim zamonlardan beri tarixiy rivojlanishga hissa qo'shib kelmoqda. Bobil va Misrda shamol ekinlarni sug'orish uchun ishlatilgan (miloddan avvalgi 1700 yillar). Ba'zi boshqa tamaddunlar, masalan, forslar (milodiy 500-900 yillar) donni maydalash uchun shamol energiyasidan foydalangan, boshqalari esa shamoldan kemalarni harakatga keltirish va boshqa dastlabki sanoat maqsadlarida foydalangan [1]. Shamol energiyasidan foydalanishning jadal o'sishi nafaqat turli xil moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari, balki texnologiyaning yetukligi bilan ham rivojlantirildi. Shamol erkin energiyadir va an'anaviy qazilma energiya manbalaridan farqli ravishda ifloslantirmaydi. Atrof muhitga chiqariladigan CO₂ gazini kamaytirish shamol o'rnini bosadigan texnologiyaga bog'liq. Masalan, ko'mir har bir kVt/soat uchun taxminan 1 kg CO₂ hosil qiladi, neft har bir kVt/soat uchun 0,75 kg CO₂, gaz esa har bir kVt/soat uchun 0,5 kg CO₂ hosil qiladi [2]. Shamol energiyasi quyoshning yer atmosferasini notekis isishi natijasida yuzaga keladigan ob-havo sharoitlariga bog'liq. Yer sharini qo'yoshning differensial isitishi natijasida yuzaga keladigan atmosfera bosimining o'zgarishi havoni yuqori bosimli hududlardan past bosimli hududlarga o'tkazadi, bu esa, birinchi navbatda, Yerning aylanishi va sirt geografiyasidan kelib chiqqan shamollarni hosil qiladi.

Kinetik shamol energiyasi elektr energiyasining toza manbai bo'lib, bu yerda shamol kuchi elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun generatorni aylantiradigan turbinani haraktga keltirish uchun ishlatiladi. Shamol energiyasini o'zgartirish tizimi tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasining narxi, kuch elektronikasi texnologiyasining rivojlanishi va ishlab chiqarilgan energiyaning o'rtacha darajasining oshishi tufayli keskin pasaymoqda. Mamlakatlar bo'yicha umumiy shamol quvvati sektori statistikasi ko'ra Xitoy va AQSH o'rnatilgan shamol quvvati (152) GVt bo'yicha etakchi o'rinlarni egallaydi

Hozirgi kunda shamol energetikasining umumiy o'rnatilgan quvvati 2023 yil oxirida taxminan 540 GVt ga o'sdi va bu qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishning gidroyenergetikadan keyin ikkinchi yirik manbaiga aylandi. Shamol energiyasi elektr energiyasining toza manbai bo'lsa-da, boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalariga nisbatan uning o'zlikligi hususiyati tufayli ma'lum bir kamchiliklari mavjud.

Shu munosabat bilan, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya

manbalarini keng joriy etish davlat siyosatining hozirgi bosqichdagi dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

Ilg'or xorijiy tajribani inobatga olib, mavjud resurslarni va ishga solinmagan salohiyatni jalb etish orqali energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya sarfi hajmini keskin kamaytirish borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish, shuningdek, yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son «2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida quyidagilar amalga oshirilmoqda.

1-jadval

T/p	Stansiya joylashuvi	Investorlar	Ishga tushirish muddati (yil, oy)	Loyiha qiymati (mln doll.)	Stansiya quvvati, (MVt)		Yillik ishlab chiqarish hajmi (mln kVt/soat)	
					jami	shundan, 2023 yilda ishga tushiriladigan	jami	shundan, 2023 yilda
1.	Navoiy viloyati Tomdi tumani SHES	Masdar (BAA)	1 navbati — 2023 yil dekabr; to'liq — 2025 yil avgust	600	500	50	1 825	15
2.	Buxoro viloyati Peshku tumani SHES	ACWA Power (Saudiya Arabistoni)	1 navbati — 2024 yil dekabr; to'liq — 2025 yil may	600	500		1 800	
3.	Buxoro viloyati G'ijduvon tumani SHES		1 navbati — 2024 yil dekabr; to'liq — 2025 yil may	600	500		1 800	
4.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani SHES		1 navbati — 2025 yil may; to'liq — 2026 yil avgust	107	100		350	
JAMI (4 ta loyiha)				1907	1600	50	8 107	15

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2030 yilga borib, shamol energetikasi ulushini 5 % ga yetkazish maqsadida Birlashgan Arab Amirligi ning Masdar kompaniyasi bilan, jami qiymati 600 mln AQSH dollari miqdoridagi 1 ta loyixa, Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasi bilan, jami qiymati 1307 mln AQSH dollari miqdoridagi 3 ta loyixa imzolangan.

Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasining Buxoro viloyati Peshku tumanidagi Djankeldi SHESda jami 125 ta GW165-5.6 MW shamol turbinalari modelidan foydalaniladi. Bunday shamol energiyasini elektr energiyasiga o'zgartiradigan EN171/6,5 MVt (DFAG) turdagi ikki tomonlama ta'minlovchi asinxron generatordan foydalaniladi.

Ikki tomonlama ta'minlovchi asinxron generator (DFAG) shamol elektr stansiyalarida ishlatiladigan eng maqbul texnologiyalardan biri bo'lib, shamol turbinalari bozorida o'zining o'rniga ega.

1- ITTAG asosidagi shamol turbinasi tizimning samaradorligi va ishonchliligi boshqa an'anaviy generatorlardan yuqori bo'lib, oddiy sharoitlarda ham, tarmoq buzilishlarida ham turli sharoitlarda ishlashi mumkin.

2- ITTAG rotor aslida tegishli kuch elektronikasi orqali elektr tarmog'iga ulangan bo'ladi. Eng keng tarqalgan turi ikkita alohida ikki yo'nalishli o'zgartirgichdan iborat bo'lgan DC/AC o'zgartirgichli turidir.

3- Ilg'or boshqaruvi asosida ishlaydigan rotor tomonidagi o'zgartirgichning vazifasi ikki hil bo'lib u quyidagicha bo'ladi:

4- stator va rotorning magnit maydonlari o'rtasidagi sinxronizm doimiy ravishda saqlanib turishi uchun rotor chulg'amlarida oqayotgan oqimlarning chastotasini nazorat qiladi;

5- u rotor chulg'amlarida oqayotgan toklarning kattaligi va fazasini nazorat qiladi va bilvosita, bu bilan shamol turbinasi tizimga uzatadigan aktiv va reaktiv quvvatni boshqaradi.

Xulosa.

1. 2026 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 mlrd kub metr tabiiy gazni tejash ko'zda tutilgan.

2. Shunday qilib ushbu generatorlarli turbinalar o'zgaruvchan tezlikli turbinalar bo'lib, ular mavjud shamol energiyasidan ko'proq energiya olish imkoniyati mavjud.

3. Kam shamol tezligida ishlash qobiliyati ayerodinamik shovqinni ham kamaytirish imkonini beradi.

4. Ularning ishlashiga faqat kichik quvvat darajasiga ega kuch elektronikasi o'zgartirgichlarni talab qiladi.

5. ITTAG lar nosozliklar paytida tarmoqqa ulangan holda qolishi mumkin va ba'zi hollarda tarmoqni tiklashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining, 21.05.2019 yildagi, O'RQ-539-son «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida» Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

3. Amer Obaid Kareem. Performance Analysis of Doubly-Fed Induction Generator (DFIG)- Based Wind Turbine with Sensored and Sensorless Vector Control. School of Electrical and Electronic Engineering. Newcastle University. United Kingdom. 2016. PP.198

4. S. Rahman, "Going Green: The Growth of Renewable Energy", IEEE Power and Energy Magazine, Vol. 99, No. 6, pp. 16-17, Nov. /Dec. 2003.

5. B. Fox, D. Flynn, L. Bryans, N. Jenkins, D. Milborrow, M. O. Malley, R. Waston and Olimpo Anaya-lara, "Wind Power Integration Connection and System Operational Aspects", IET Power and Energy series 50, 2007.

6. Dionysios C. Aliprantis. Fundamentals of Wind Energy Conversion for Electrical Engineers. School of Electrical and Computer Engineering, Purdue University, West Lafayette, IN 47907. Revision: August 25, 2014

KATTA QUVVATLI SHAMOL ENERGIYASINI O'ZGARTIRISH TIZIMLARI

Bekishev A.Ye.¹,

Kurbanov N.N.²,

Xudoynazarov U.A.³

¹PhD, Toshkent davlat texnika universiteti,

²dotsent, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,

"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

xudoynazarovutkir@gmail.com

Shamol energiyasini elektr energiyasiga o'zgartirish texnologiyasining rivojlanishi turli xil elektr generatorlardan foydalanadigan shamol turbinasi har xil turlarini ishlab chiqishga olib keldi. Katta quvvatli shamol energiyasini elektr energiyasiga o'zgartirish tizimlarida (*WYeCS*- wind energy conversion systems, *SHYeO'T*-Shamol energiyasini o'zgartirish tizimlari) eng keng tarqalgan elektr generatorlarining tasnifi 1-rasmda keltirilgan. Tuzilish va ishlash prinsipiga ko'ra, shamol generatorlari ikkita asosiy guruhga bo'linadi: birinchisi asinxron generatorlar (*IG*- induction generator) va sinxron generatorlar (*SG*-synchronous generator). Ham asinxron, ham sinxron generatorlarda rotor chulg'ami o'ralgan turi mavjud bo'lib, ular cho'tkalar orqali sirpanish halqalari yoki cho'tkasiz elektromagnit qo'zg'atgich bilan ta'minlanadi. *ITTAG*-Ikki tomondan ta'minlanadigan asinxron generator (*DFIG*-doubly fed induction generator) sifatida ham tanilgan asinxron generator shamol energiyasi sanoatida eng ko'p ishlatiladigan generatorlardan biridir.


Belgilangan tezlikda, yarim rostlanadigan rezlikda va to'liq rostlanadigan tezlikda ishlashga erishish uchun ko'plab Shamol turbinalari ishlab chiqaruvchilari tomonidan quyidagi besh *SHYeO'T* turlari taklif etiladi:

1-toifa: *QTRAG*-Qisqa tutashgan rotorli asinxron generator (*SCIG*-squirrel-cage induction generator), silliq ishga tushirish va reaktiv quvvat kompensatoriga ega belgilangan tezlikli *SHYeO'T*. *QTRAG* sinxron tezlikdan 1% yuqorida ishlashni boshlaydi.

2-toifa: *FRAG*-Faza rotorli asinxron generator (*WRIG* wound rotor induction generator), bilan yarim rostlanadigan tezlikli *SHYeO'T*, o'zgartkich tomonidan boshqariladigan rotoriga o'zgaruvchan rezistor ulash orqali, silliq ishga tushiriladi va reaktiv quvvat kompensatoriga ega. *FRAG* uchun ish tezligi diapazoni sinxron tezlikdan 10% yuqori.

3-toifa: *ITTAG* -Ikki tomondan ta'minlanadigan asinxron generator (*DFIG*- doubly fed induction generator) va rotor zanjiriga qisman quvvat o'zgartkichi bilan yarim rostlanadigan tezlikli *SHYeO'T*. *ITTAG* ishlash tezligi sinxron tezlikdan 30% yuqorida va pastda bo'lishi mumkin.

4-toifa: Shamol generatori (*QTRAG*, *DMSG*, *EMQSG* yoki *YHO'O'-SG*) va stator zanjirida to'liq quvvat o'zgartkichi bilan to'liq rostlanadigan tezlikli *SHYeO'T*. Shamol generatorining tezligi 0% dan 100% gacha o'zgarishi mumkin.



1-rasm. Shamol energiyasini o'zgartirish tizimlarida ishlatiladigan generatorlarning asosiy turlari

5-toifa: EMQSG-Elektromagnit qo'zg'atishli sinxron generator, moment o'zgartkichi va rotor zanjirida maydon qo'zg'atuvchisi bilan to'liq rostlanadigan tezlikli *SHYeO'T*. *SHYeO'T* ning ishlash tezligi diapazoni 0% dan 100% gacha

1-jadval

Shamol energiyasini o'zgartirish tizimlarida ishlatiladigan generatorlarning asosiy turlari va parametrlari

Generator turi	<i>ITTAG</i>	<i>QTRAG</i>	<i>EMQSG</i>	<i>DMSG</i>	
Nominal kuchlanishi, V	690	690	400	700	3000
Nominal quvvati, MW	2	2,3	2,3	2,75	5,32
Nominal chastotasi, Hz	50	50	50	50	19,6
Aylanish tezligi, ayl/min	900-1900	600-1600	6-21,5	6-18	58,6-146,9
Qutblar soni	4	4	72	120	28
Ishlab chiqaruvchi/ modeli	Gamesa/ G90	Siyemens/ SWT-2,3- 101	Enercon/ E70	Avantis/ AV928	Multibrid/ M5000

Qo'zg'atish chulg'amli sinxron generator (*WRSG*-wound rotor synchronous generator, *EMQSG*-elektromagnit qo'zg'atishli sinxron generator) shuningdek, past rotor tezligida ishlaydigan ko'p sonli qutblarga ega bo'lgan amaldagi *SHYeO'T* lar ham mavjud. *QTRAG*-qisqa tutashgan rotorli asinxron generatorlar (*SCIG*-squirrel-cage induction generator) shamol energiyasi tizimlarida ham keng qo'llaniladi, bu erda rotor zanjirlari qisqa tutashgan va shuning uchun tashqi kontaktlarga hojat qolmaydi. *DMSG*-doimiy magnitli sinxron generatorlarda (*PMSG*-permanent-magnet synchronous generators) rotor magnit oqimi doimiy magnitlar tomonidan ishlab chiqariladi. Shamol energiyasi sanoatida ikki turdagi *DMSG* qo'llaniladi: 1- rotor sirtga o'rnatiladigan, 2-rotor ichiga o'rnatilgan magnitlar. Amaliyotda shamol turbinalarida ishlatiladigan generatorlarning ba'zi misollari 1-jadvalda keltirilgan, bu erda kuchlanish, quvvat ko'rsatkichlari, tezlik diapazonlari va ushbu shamol generatorlarining ishlab chiqaruvchilari to'g'risida malumotlar keltirilgan. Ushbu bobda asinxron va sinxron generatorlarning tuzilishi va ishlash tamoyillari ko'rib chiqiladi, ularning dinamik va barqaror holatdagi modellari taqdim etiladi. Muhim tushunchalar va

generatorlarning ishlashini ko'rsatish uchun amaliy tadqiqotlar taqdim etiladi. Shamol generatorlari modellari va ushbu bobda olingan tenglamalar keyingi boblarda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Venkata Yaramasu, Bin Wu. Power Electronics for High-Power Wind Energy Conversion Systems. Encyclopedia of Sustainable Technologies, Volume 3. 2017 Elsevier Inc. All rights reserved.
 2. Blaabjerg, F., Ma, K., 2013. Future on power electronics for wind turbine systems. IEEE Journal of Emerging and Selected Topics in Power Electronics 1 (3), 139–152.
 3. Cardenas, R., Pena, R., Alepuz, S., Asher, G., 2013. Overview of control systems for the operation of DFIGs in wind energy applications. IEEE Transactions on Industrial Electronics 60 (7), 2776–2798.
 4. Casadei, D., Profumo, F., Serra, G., Tani, A., 2002. FOC and DTC: two viable schemes for induction motors torque control. IEEE Transactions on Power Electronics 17 (5), 779–787.
 5. Chinchilla, M., Arnaltes, S., Burgos, J., 2006. Control of permanent-magnet generators applied to variable-speed wind-energy systems connected to the grid. IEEE Transactions on Energy Conversion 21 (1), 130–135.
 6. Empringham, L., Kolar, J., Rodriguez, J., Wheeler, P., Clare, J., 2013. Technological issues and industrial application of matrix converters: a review. IEEE Transactions on Industrial Electronics 60 (10), 4260–4271.
- [6] Wu B., Lang Y., Zargari N., Kouros S. Power Conversion and Control of Wind Energy Systems. Wiley-IEEE Press. 2011. 480 p.
7. [7] Ramadan A., Denisov P.C. Modelirovaniye avtonomnykh energokompleksov na osnove VIE dlya izolirovannykh potrebiteley v srede MATLAB Simulink // Vestnik agrarnoy nauki Dona. 2017. T3. № 39. S. 1120.

SHAMOL TURBINALARI UCHUN IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASIXRON GENERATOR

Bekishev A.Ye.¹,
Kurbanov N.N.²,
Yunusov O.A.³

¹PhD, Toshkent davlat texnika universiteti,

²dotsent, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Sanoat chastotasining avtonom elektr ta'minoti tizimlari bilan ta'minlangan iste'molchilar uchun elektr energiyasi sifatini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'zgaruvchan aylanish tezligida o'zgarimas chastotani olish avtonom elektr ta'minoti tizimlari uchun muhim vazifalardan biridir. Mexanik energiyani beqaror manbadan, masalan, shamol dvigatelidan aylantirish orqali olingan elektr energiyasining barqaror parametrlarini ta'minlash muammosi mavjud. Xuddi shu muammo beqaror elektr yuklamasi bilan, barqaror mexanik energiya manbasidan ishlaganda ham mavjud. Ushbu muammoni hal qilishning samarali usuli mexanik energiyani ikki tomonlama ta'minlanadigan mashina yordamida elektr energiyasiga aylantirishdir va shuning uchun so'nggi yillarda muhandislar va tadqiqotchilarning ikki tomonlama ta'minlanadigan mashinaga bo'lgan qiziqishi ortib borishi bilan ajralib turadi, bu esa avtonom elektr ta'minoti tizimlari uchun belgilangan vazifalarni to'liq bajara oladi. Avvalo, bu aylanish tezligi ω , chastota ω_0 va kuchlanish U berilgan diapazonlarda va berilgan o'zgarish qonunlari bilan o'zgaruvchan elektr energiyasining avtonom generatorlariga tegishli.

O'zgaruvchan aylanish tezligida doimiy chastotali kuchlanishlarni yaratish zarur bo'lganda, shuningdek, generatorning o'tkinchi jarayonlarining sifatiga ahamiyat berilgan hollarda avtonom tizimlarda ikki tomonlama ta'minlanadigan mashinadan foydalanish tavsiya etiladi bundan tashqari doimiy yoki o'zgaruvchan aylanish tezligi generatori bilan ishlashidan qat'i nazar, yuklamani yoqish va o'chirish mumkin.

Ikki tomonlama ta'minlanadigan mashinaga asoslangan generator majmuasi ikkita energiya ishlab chiqarish kanaliga ega - stator va rotor orqali. Bunday holda, chastota o'zgartirgich faqat ikki tomonlama ta'minlanadigan mashinaning sirpanish energiyasini uzatish uchun mo'ljallangan, ya'ni uning kuchi generator vali aylanish tezligining sinxronidan og'ishiga mutanosibdir.

Statordagi sinxron generator-chastota o'zgartirgich sxemasiga muvofiq sinxron generator variyanti bitta energiya ishlab chiqarish kanaliga ega - sinxron generator statori orqali. Shu sababli, sinxron generatorga asoslangan muqobil asosiy generatorning statoridagi o'zgartirgichning kuchi generatorning butun quvvatini uzatish uchun mo'ljallangan, bu esa kapital xarajatlarni oshiradi.


Avtonom rejimda ishlaydigan asosiy generatorning ishlab chiqarilgan elektr energiyasi (f_c , U_c) parametrlarini barqarorlashtirish uchun asosiy generator va yuklama o'rtasidagi aktiv va reaktiv quvvatlar muvozanatini ta'minlash kerak. Ikki tomonlama ta'minlanadigan mashinali generatorlarda chastota o'zgartirgich yordamida aktiv quvvat balansi saqlanadi. Reaktiv quvvat balansi chastota o'zgartirgichni boshqarish orqali ham, qo'shimcha reaktiv quvvat manbalari (IRP) yordamida ham ta'minlanadi.

Generator rejimida ishlaydigan faza rotorli asinxron mashinadan foydalanish imkoniyati Chernopyatova N.N., Petrova G.A., Emets V.F., Chastovskiy A.V.lar ishlarida ko'rib chiqilgan. Generator rejimida rotor chulg'aminin ikki fazasi generator maydonini hosil qiladigan cugulg'am sifatida ishlatiladi

Qo'zg'atish tizimlari avtonom generatorning muhim tarkibiy qismi bo'lib, quyidagi talablarga javob berishi kerak: minimal og'irlik, ishonchlilik, arzon narx.

Asinxron generatorning kuchlanishini rostdash ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin - rotor tezligi yoki generatorning magnit oqimi.

Birinchi usul yordamida kuchlanishni tartibga solish texnik jihatdan murakkab operatsiya, ayniqsa yuklamaning keskin o'zgarishi bilan, shuning uchun bu usul deyarli qo'llanilmaydi; Asosiy magnit oqimining kattaligiga ko'ra kuchlanishni tartibga soluvchi ikkinchi usul ham doimiy, ham o'zgaruvchan rotor tezligida amalga oshirilishi mumkin va shuning uchun asosiy hisoblanadi.




1-rasm. Ikki tomonlama ta'minlanadigan asinxron generatorli (DFIG) shamol turbinasining umumiy diagrammasi.

1-rasmda ikki tomonlama ta'minlanadigan asinxron generatorga asoslangan shamol turbinasining umumiy tuzilishi ko'rsatilgan. Ushbu konsepsiya sirpanish halqalari bilan asinxron generatoridan foydalanadi. Uch fazali generatorning stator chulg'ami to'g'ridan-to'g'ri ulanadi yoki tarmoqqa chiqishida transformatoridan foydalanadi, rotor tarmog'i esa elektron quvvat o'zgarkichi yordamida tarmoqqa ulanadi. O'zgartkich qurilmasi ma'lum bir oraliqda burchak tezligini o'zgartirishga imkon beradi. Bu diapazon shamol turbinasining mexanik parametrlari (masalan, mexanik kuchlanishning maksimal qiymati) va o'zgartkich qurilmasining texnik xususiyatlari bilan cheklangan. Bundan tashqari, quvvat koeffitsiyenti va shu bilan birga, shamol turbinalarining reaktiv quvvati ma'lum bir diapazonda sozlanishi mumkin. DFAG bilan ishlaydigan shamol turbinalarining aksariyati shamol turbinasining past tezlikli valine generatorning yuqori tezlikli vali bilan ulash imkonini beruvchi uzatish qutisini o'z ichiga oladi.

Ikki tomonlama ta'minlanadigan asinxron generatorning ishlash prinsipi: Ikki tomonlama ta'minlanadigan asinxron generatori standart asinxron generatori bilan bir xil statorga ega, ammo an'anaviy rotor o'rniga fza rotoridan foydalanadi. Faza rotor chulg'amlari rotor tokini kontakt halqalari va grafitli cho'tkalari yordamida tarqatish qutisiga ulanadi. Shu tarzda, rotor chulg'amlariga tashqi tomondan kirish mumkin.

Rotor va stator chulg'amlari uchun alohida quvvat manbaidan foydalanish mumkin bo'ladi (ikki quvvat manbai). Rotor to'g'ridan-to'g'ri tarmoqqa ulanmagan, u inverter orqali quvvatlanadi. Inverter ishlatganda, rotor ta'minotini nazorat qilish mumkin.

Ikki tomondan ta'minlanadigan asinxron generatorni o'zgaruvchan tezlik tizimli shamol turbinalari tomonidan qo'llaniladi. Bu bir-biridan mustaqil bo'lgan ikkita uch fazali tizimdan stator va rotorga alohida quvvat manbai bilan ikki tomonlama ta'minlanadigan asinxron mashinaning xarakterli tamoyillaridan foydalanishga imkon berdi.



2-rasm. ITTAGning funksional sxemasi.

Ishlab chiqarilgan quvvatning bir qismining liniyaga to'g'ridan-to'g'ri ulanishi bilan asinxron generatorlarning asosiy prinsipini qo'llash orqali sirpanishda vujudga keladigan quvvatni ishlatmaydi.

Rotorda ishlab chiqariladigan, lekin uzatilmaydigan ushbu foydalanilmagan quvvat ikki tomonlama ta'minlanadigan asinxron generatori orqali tarmoqdan foydalanish uchun uzatiladi. Rotor tarmoqdan inverter orqali ham quvvatlanishi mumkin.

Shunday qilib, inverter rotor tokini boshqaradi va aktiv va reaktiv quvvatni, shuningdek, agar kerak bo'lsa, quvvat koeffitsiyenti ($\cos\phi$)ni rostlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Quvvat koeffitsiyentini boshqarish rotor chastotasi va inverterni ish chastotasini bir-biriga qo'shish orqali amalga oshiriladi. Natijada tarmoqqa oziqlangan chastota rotor tezligiga nisbatan doimiy o'zgarimasdan qoldiradi. Bu rotor tezligi $\pm 30\%$ oralig'ida o'zgarishi mumkinligini anglatadi. Shunday qilib, shamol tezligini o'zgartirganda shamol turbinasi kuchiga eng bog'liq bo'lgan tezlikdan foydalanish mumkin.


Inverter rotor va tarmoqqa ulanish nuqtasi o'rtasida joylashgan. Stator to'g'ridan-to'g'ri tarmoqqa ulangan. Shu sababli, quvvatning faqat bir qismi inverter orqali uzatiladi (taxminan 35%) va inverter generatorning butun kuchi uchun o'lchamga ega bo'lishi shart emas. Shunday qilib, to'g'ridan-to'g'ri inverter va sinxron generator tizimlari bilan solishtirganda xarajatlarni kamaytirishga erishiladi.

Ikki tomonlama ta'minlanadigan asinxron generatori sinxron va asinxron mashinaning afzalliklarini birlashtiradi:

- Har xil tezlikda ishlash,
- Aktiv va reaktiv quvvatni alohida boshqarish.

Ikki tomonlama ta'minlanish prinsipidan foydalanib, generator ham subsinxron, ham supersinxron tezlikda doimiy ravishda boshqarilishi mumkin.

Subsinxron ishlash: sirpanish $s > 0$ - dvigatel va generator rejimida ishlashi (reaktiv quvvat sarfi).



3-rasm. Energiya oqimlarini solishtirish.

Supersinxron ishlash: sirpanish $s < 0$ - dvigatel va generator rejimida ishlashi (reaktiv quvvatni chiqarish).

Ikki tizimning quvvat oqimini solishtirganda, ikki tomonlama ta'minlanadigan asinxron generatorining o'zgartirilgan quvvatdan ustunligi aniq bo'ladi.

Tuzilishi soddaligi tufayli uch fazali asinxron generator ishonchli va minimal texnik xizmat ko'rsatishni talab qiladi. Bu texnologiyaning katta afzalligi. Bundan tashqari, u standart ishlab chiqarilgan, arzon generatordir.

Ikki tomondan ta'minlanadigan asinxron generator standart asinxron mashinaga nisbatan juda ko'p texnik afzalliklarga ega. Biroq, tizimni rejalashtirishda generator va inverterning yuqori narxini hisobga olish kerak.

Yuqori quvvatli shamol turbinalarida ikki tomondan ta'minlanadigan asinxron generatordan foydalanish iqtisodiy va texnik nuqtai nazardan samara beradi.

Adabiyotlar

1. International Renewable Energy Agency (IRENA) [Elektronnyy resurs]. URL: http://www.irena.org/DocumentDownloads/Publications/IRENA_Renewable_Energy_Statistics_2017.pdf (data obrashcheniya: 01.02.2018).
2. Rekioua D. Wind Power Electric Systems: Modeling, Simulation and Control. Springer-Verlag. London. 2014. 202 p.
3. Yelistratov V.V. Vozobnovlyayemaya energetika. 3-ye izd., dop. SPb.: Izd-vo Politexi. un-ta, 2016. 424 s.
4. Beainy A., Maatouk C., Moubayed N., Kaddah F. Comparison of different types of generator for wind energy conversion system topologies. 3rd International Conference on Renewable Energies for Developing Countries (REDEC), Zouk Mosbeh. 2016. P. 1-6.
5. Kotov A.A., Neustroyev N.I. Primeneniye generatora dvoynogo pitaniya dlya vetroenergeticheskix ustanovok maloy, sredney i bolshoy moshchnosti // Vestnik YUUrGU. Seriya «Energetika». 2017. T. 17. № 4. S. 80-89.
6. Wu B., Lang Y., Zargari N., Kouro S. Power Conversion and Control of Wind Energy Systems. Wiley-IEEE Press. 2011. 480 p.
7. Ramadan A., Denisov P.C. Modelirovaniye avtonomnykh energokompleksov na osnove VIE dlya izolirovannykh potrebiteley v srede MATLAB Simulink // Vestnik agrarnoy nauki Dona. 2017. T3. № 39. S. 1120.

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDLANISHNING AFZALLIKLARI

Abduaziz uulu Abdurauf

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, dots.

Suvonov Jaxongir Xusniddin o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti assistant suvonovjahongir1901@gmail.com

Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining yuqori sur'atlarda rivojlanishi yoqilg'i-mineral xomashyo resurslariga bo'lgan talabning tobora oshib borishiga olib kelib, ularni ko'p miqdorda qazib olinishini taqozo etmoqda [1, 2].

Yoqilg'i-energetika majmuasi korxonalari faoliyati murakkab va turli ishlab chiqarish jarayonlaridan iborat bo'lib, iqtisodiy-ekologik rivojlanish masalalarini majmuaviy hal etishni taqozo etadi.

Atmosfera havosini ifloslashda asosiy ulushni energetika korxonalari tashkil etib, ularning tashlamalari umumiy tashlamalarning 40%ni tashkil etadi.

Energetik inshootlarda ko'mirdan foydalanish orqali ifloslanishning asosiy manbai bo'lib o'zida azot va oltingugurt oksidini saqlovchi shlak va kul hisoblanadi.

Quyidagi 1-jadvalda turli yoqilg'i turlarini yoqish natijasida chiqariladigan tashlamalar keltirilgan [1, 2]:

1-jadval

Turli yoqilg'i turlarini yoqish natijasida ifloslantiruvchi komponentlarning solishtirma tashlamalari

№	Ifloslantiruvchi manba sifatida yoqilg'i turi	Ifloslantiruvchi moddalar, kg/t			
		Qattiq moddalar	Uglevodorodlar	Azot oksidi	Oltingugurt oksidi
1.	Tabiiy gaz	0,05-2	0,03-0,3	5-20	0,01-0,02
2.	Motor yoqilg'isi	2-8	10-40	15-60	1,5-6
3.	Mazut	2-4	0,17-1,5	5-20	3-30
4.	Ko'mir	1-100	0,1-1,2	5-20	10-90

2030 yilga kelib respublika iste'moli 120.8 mlrd kW·soat (2018 yilga nisbatan 1,9 baravar ko'p) bo'lishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi – 21,9 mlrd kW·soat (2018 yilga nisbatan 1,8 baravar ko'p), iqtisodiy sektorning elektr energiyasiga bo'lgan talabi – 85,0 mlrd kW·soat (2018 yilga nisbatan 2,2 baravar ko'p) bo'lishi kutilmoqda [3].

Respublikada ortib borayotgan elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida elektr energiyasini ishlab chiqarishda, yetkazib berishda qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTEM)dan foydalanishni rivojlantirish, kengaytirish va ularni yagona elektr tizimiga integratsiyalash kerak.

Elektr energiyaga bo'lgan talabni hisobga olib 2030 yilga qadar QTEM asosida energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini oshirishga alohida etibor qaratilmoqda.

Joriy yil boshida O'zbekistonda «yashil energiya» sohasida yirik quvvatlarni qurish bo'yicha uch yillik dastur boshlandi. 2027 yilga qadar mamlakatda umumiy quvvati 8 GW bo'lgan 28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini (FES va ShES) ishga tushirish rejalashtirilgan. 2024 yil oxirigacha O'zbekistonda 38 ta kichik va mikro GES qurish rejalashtirilgan. 2030 yilga qadar QTEM asosida energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichlari keltirilgan [3,4].

Birgina misol Namangan viloyatida ikkita quyosh (fotoelektrli) elektr stansiyasi va oltita gidroelektr stansiyasi kaskadi qurilishi boshlandi. Pop tumanida har biri 500 MW quvvatga ega ikkita quyosh elektr stansiyasi va Uychi tumanidagi Norin daryosida umumiy quvvati 228 MW bo'lgan oltita gidroelektr stansiyadan iborat kaskadi quriladi (3- va 4-rasm).

Energetik loyihalarning umumiy quvvati 1228 MW, qiymati 1,1 milliard dollar bo'lib, ularning amalga oshirilishi 250 dan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlash imkonini beradi.



3-rasm. Hidroelektr stansiyasi kaskadi qurilish ob'yekti



4-rasm. Pop tumanida quyosh elektr stansiyasi ob'yekti

Buning natijasida yiliga 2,095 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi, 1,6 mlrd metr kub gaz iqtisod qilinadi, 430 mingdan ortiq xonadonga elektr energiya uzatiladi.

Loyihalarni ishga tushirish hisobiga issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish samaradorligiga alohida e'tibor qaratish kerak va u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$E_{IG} = E \cdot \beta_{CO_2} [\text{\$}], \quad (1)$$

bu yerda β_{CO_2} – atrof-muhitni CO₂ dan tozalash bo'yicha ekologik tadbirlar uchun yillik xarajat, uning qiymati o'rtacha 15...20 \$/tonna deb olinadi [6]; Ye - yillik CO₂ chiqindilari miqdori (tonna/yil), har bir yoqilg'i turi uchun quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi [6]:

$$Ye = M \cdot K_1 \cdot YOISQ \cdot K_2 \cdot 44/12, \quad (2)$$

bu yerda M – yilik haqiqatda (faktik) iste'mol qilingan yoqilg'i [5]:

$$M = \gamma_{yoqilg'i} \cdot E_{KEQ}, [\text{tonn/yil}] \quad (3)$$

$\gamma_{yoqilg'i}$ - 1 kW·h elektr energiyasi uchun solishtirma yoqilg'i sarfi, hisoblash uchun t.sh.yo orqali organik yoqilg'i turiga ko'ra massaga o'zgartiriladi (1 kg.sh.yo ko'mir uchun-2,13 kg, neft va neft mahsulotlari uchun - 0,73 kg, tabiiy gaz uchun - 0,566 kg); K_1 - yoqilg'idagi uglerodning oksidlanishi koeffitsiyenti (yoqilgan uglerod ulushini ko'rsatadi), $K_1 = 0,98-0,995$ (ko'mir uchun - 0,98; neft va neft mahsulotlari uchun - 0,99; gaz uchun - 0,995); $YOISQ$ – yonish issiqligining sof qiymati (J/tonn) (neft yoqilg'isi uchun - 41,15 GJ/tonna, tosh ko'mir uchun - 17,62 GJ/tonna, tabiiy gaz uchun - 34,78 GJ/tonna); K_2 - uglerod emissiyasi koeffitsiyenti (tonna/J) (neft yoqilg'isi uchun - 20,84 tS/TJ, tosh ko'mir uchun - 25,58 tS/TJ, tabiiy gaz uchun - 15,04 tS/TJ); $44/12$ – uglerodni karbonat angidridga aylantirish koeffitsiyenti (mos ravishda molekulyar og'irliklar: uglerod - 12 g/mol, O₂ = 2·16=32 g/mol, SO₂ = 44 g/mol) [5].

Haqiqiy yoqilg'i sarfi ishlab chiqaruvchilarning har xil turdagi yoqilg'ilarni iste'mol qilishi bo'yicha hisobot ma'lumotlari asosida aniqlanadi [7].

Loyihalarni ishga tushirish hisobiga issiqxona gazlari chiqindilari ko'rsatkichlari:

- Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish samaradorligi – 167,510 mln \$;
- Yillik CO₂ chiqindilari miqdori – 8,375 mln t.yil;

Mazkur loyihalar natijasida Namangan viloyatining generatsiya quvvatlari 2 141 megavattga yetadi. Yillik 7,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa viloyatning elektr energiyasiga bo'lgan 5,5 milliard kW soatlik talabini to'liq qoplaydi. Ortgan 30 foiz elektr Andijon va Farg'ona viloyatlariga yo'naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krapchin I.P., Kudinov Yu.S. Ugol segodnya, zavtra (texnologiya, ekologiya, ekonomika). M., 2001, s. 23.

2. Alimxodjayev S.R., Muratova Sh.N. Yoqilg'i-energetika majmuasi tarmoqlarining atrof-muhitga ta'siri va uni pasaytirish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, 2016 y.

3. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning ekologik jihatlari 464,468b.

4. 2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiya, Toshkent, 2020 yil.

5. Abduaziz uulu Abdurauf. Kichik quvvatli kombinatsiyalashgan gidravlik-quyosh-shamol energetik qurilmalarining parametrlarini tadqiq qilish. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023y.

6. Мухаммадиев М.М., Джураев К.С. Абдуазиз уулу Абдурауф. "Тенденции развития современной физики полупроводников: проблемы, достижения и перспективы", Часть I, Ташкент, 28 мая 2020. С.179-184.

7. Мухаммадиев М.М. Урисhev В.У. Мамадийоров Е.К. Джурayev К.С. Energeticheskiye ustanovki maloy moshnosti na baze vozobnovlyayemykh istochnikov energii. Monografiya. -Т.: TashGTU, 2015. -161s.

QUYOSH FOTOELEKTRIK QURILMA PARAMETER VA KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH.

Abduaziz uulu Abdurauf

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, dots.

Suvonov Jaxongir Xusniddin o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti assistant suvonovjahongir1901@gmail.com

Quyosh paneli quvvati (nominal quvvat, W)

Quyosh panellarining eng muhim parametri ularning nominal quvvatidir. Bu ko'rsatkich odatda panelning eng yaxshi sharoitda ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan maksimal quvvatini ifodalaydi va vatt (Watt) bilan o'lchanadi.

Nominal quvvat: Har bir quyosh panelining kuchlanish va oqim bo'yicha chiqaradigan quvvati. Masalan, 150W, 350W, 400W, 550W, 585W, 610W, 660W bo'lgan quyosh panellari mavjud.

Maksimal kuchlanish va tok (V_{mp} va I_{mp})

Quyosh panellari maksimal quvvatda ishlaganda ular maksimal kuchlanish va tok hosil qiladi. Bu ko'rsatkichlar quyosh paneli samaradorligini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi.

V_{mp} (Voltage at maximum power): Panel maksimal quvvat ishlab chiqarayotgan paytdagi kuchlanish (Volt bilan o'lchanadi).

I_{mp} (Current at maximum power): Panel maksimal quvvat ishlab chiqarayotgandagi tok (Ampere bilan o'lchanadi).

Masalan, 400W quyosh paneli 40V kuchlanish va 10A tok ishlab chiqarishi mumkin.

Ochiq zanjir kuchlanishi (V_{oc})

Bu quyosh paneliga hech qanday yuk ulanmagan paytda hosil bo'ladigan maksimal kuchlanishdir. Ochiq zanjir kuchlanishi (V_{oc}) odatda V bilan o'lchanadi.

V_{oc} (Open Circuit Voltage): Panelga hech qanday yuk ulanmagan holatdagi eng yuqori kuchlanish.

Qisqa tutashuv toki (Isc)

Qisqa tutashuv toki — quyosh panelining terminallari bir-biriga qisqa tutashganida o'lchanadigan maksimal tok. Bu ko'rsatkich paneldagi oqimning yuqori chegarasini bildiradi va A (Ampere) bilan o'lchanadi.

Isc (Short Circuit Current): Panel qisqa tutashganda hosil bo'ladigan maksimal tok.

Samaradorlik (efficiency, %)

Quyosh panelining samaradorligi uning to'g'ridan-to'g'ri quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish qobiliyatini ifodalaydi. Samaradorlik **foiz** (%) ko'rinishida ifodalanadi va quyosh panelining maydoni bilan bog'liq.

Samaradorlikni hisoblash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$\text{Samaradorlik (\%)} = \frac{\text{Panel chiqish quvvati (W)}}{\text{Quyosh tushayotgan umumiy quvvat (W/m}^2\text{)} \times \text{Panel maydoni (m}^2\text{)}} \times 100$$

Masalan, agar quyosh paneli maydoni 2.5 m² bo'lsa va quyosh tushayotgan quvvat 1000W/m² bo'lsa, 400W quvvatli panelning samaradorligi 25% atrofida bo'ladi.

Ish harorati (NOCT)

Ish harorati - quyosh paneli nominal sharoitlarda (nominal operational cell temperature) ishlaganda uning hujayralari harorati hisoblanadi. Bu qiymat odatda 45-48°C atrofida bo'ladi va yuqori haroratda samaradorlik pasayishi mumkin.

NOCT (Nominal Operating Cell Temperature): Quyosh panelining nominal harorati. Odatda bu qiymat laboratoriya sharoitlarida o'lchanadi va panelning real sharoitlarda qanday ishlashini ko'rsatadi.

Harorat koeffitsiyenti

Quyosh panellarining samaradorligi va chiqish quvvati harorat o'zgarganida pasayishi mumkin. Harorat koeffitsiyenti bu pasayishni ifodalaydi.

Harorat koeffitsiyenti odatda %/°C bilan ifodalanadi. Masalan, quyosh panelining harorat koeffitsiyenti -0.5%/°C bo'lsa, harorat har 1°C ga oshganida panelning quvvati 0.5% ga kamayadi.

Panelning o'lchami va og'irligi

Quyosh panelining jismoniy o'lchamlari (uzunligi, kengligi, qalinligi) va og'irligi ham muhim ko'rsatkichdir, chunki ular tizimni o'rnatish va joylashuv uchun muhim hisoblanadi.

Odatda panellar bera oladigan quvvatiga qarab (350W, 400W, 550W, 585W, 610W, 660W) 2.5 m² - 2.8 m² maydonni egallaydi, og'irligi esa 15-32 kg bo'ladi.

Hayot davomiyligi

Quyosh panellari (monokristal) uzoq muddatli ishlashi bilan mashhur. Odatda, ular 25-30 yil davomida 80-90% quvvatda ishlay oladi. Har bir panel ishlab chiqaruvchisi bu borada kafolat muddatini ko'rsatib o'tadi.

Degradatsiya darajasi

Quyosh panellari vaqt o'tishi bilan samaradorligini yo'qotadi. Bu degradatsiya darajasi yiliga 0.5% - 1% atrofida bo'lishi mumkin.

Umumiy ko'rsatkichlar misoli:

Masalan, 400W quyosh paneli uchun ko'rsatkichlar quyidagicha bo'ladi:

- Nominal quvvat: 400W
- Maksimal kuchlanish (Vmp): 40V
- Maksimal tok (Imp): 10A

- Ochiq zanjir kuchlanishi (Voc): 48V
- Qisqa tutashuv toki (Isc): 11A
- Samaradorlik: 20%
- NOCT: 45°C
- Harorat koeffitsiyenti: -0.4%/°C
- Degradatsiya darajasi: Yiliga 0.5%

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kanayev A. A., Korneev M. I. "Parogazovye ustanovki" - M.: Mashinostroyeniye. 1987 g.
2. Rixter L.A., Yelizarov D.P., Lavыgin V.M. "Vspomogatelnoye oborudovaniye teplovykh elektrostansiy" Moskva. Energoatomizdat. 1987 g.
3. Rixter L.A. "Gazovozdushnyye trakty teplovykh elektrostansiy" Moskva. Energoatomizdat. 1984 g.
4. V.I. Abramov i dr., "Povysheniye ekologicheskoye bezopasnosti TES". M., izd MEI 2002 g
5. R.M. Yusupaliyev "IESlarida suv tayyorlash texnologiyasi". Darslik. Toshkent. ToshDTU. 2003-y.
6. O.I. Martыnova. "Vodopodgotovka: protsessы i apparaty". Moskva. Atomizdat.1977 g.
7. Krasnoщyokov K.A., Sukomel A.S. Sbornik zadach po teploperedache. – M., Energiya 1975, 1980.
8. Yusupbekov N. R. Va boshqalar. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. T.: Sharq, 2003
9. Alimbayev A.U., Shoislomov A.Sh., Toshboyev N.K. "Yoqilg'i va yonish asoslari". O'quv qo'llanma. TDTU 2001.
10. "Issiqlik elektr stansiyalari bug' turbinalarida bug'ni ikkilamchi qizdirish uchun quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish" J.X Suvonov 92-97 bet.

TALAB ETILAYOTGAN QUVVATDAN KELIB CHIQQAN HOLDA QUYOSH PANELI TURINI VA SONINI ANIQLASH.

Abduaziz uulu Abdurauf

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, dots.

Suvonov Jaxongir Xusniddin o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti assistant suvonovjahongir1901@gmail.com

Talab etilayotgan quvvatni aniqlash (Watt soat)

Birinchi qadam sizning kunlik elektr energiyasi ehtiyojlaringizni aniqlashdir. Buning uchun siz foydalanadigan elektr asbob-uskunalarning quvvatini (Watt) va ularning ishlash vaqtini (soat) hisoblang. Misol:

- Kompyuter: $200W \times 4 \text{ soat} = 800 \text{ Wh}$
- Televizor: $100W \times 3 \text{ soat} = 300 \text{ Wh}$
- Boshqa qurilmalar: $150W \times 2 \text{ soat} = 300 \text{ Wh}$
- Jami kunlik talab = $800 + 300 + 300 = 1400 \text{ Wh}$

2. Quyosh nurlanishini aniqlash (Peak Sun Hours)

Quyosh panellarining samaradorligi joylashuvga bog'liq bo'ladi. Har bir hududda bir kun ichida necha soat to'liq quyosh nurlanishi olinishini bilish muhim. Buni Peak Sun Hours (PSH) deb ataladi. Masalan, sizning joylashuvingizda kuniga o'rtacha 5 soat to'liq quyosh nurlanishi bo'lsa:

- Toshkent: 4.5 - 5 PSH
- Samarqand: 5 - 5.5 PSH
- Nukus: 5.5 - 6 PSH
- Namangan: 8 - 9 PSH

3. Panelning samaradorligini aniqlash

Quyosh panellari to'liq samaradorlikda ishlamaydi. Tashqi ta'sirlar (masalan, chang, harorat o'zgarishi, yoritilish burchagi) tufayli odatda samaradorlik 75% - 85% atrofida bo'ladi. Shu sababli, ehtiyot chorasi sifatida talab qilinadigan quvvatni 1.2 ga ko'paytirish tavsiya etiladi.

Misol: Agar sizga kunlik 2075 Wh energiya kerak bo'lsa, samaradorlikni hisobga olgan holda siz quyosh panellaridan ko'proq energiya olishga tayyor bo'lishingiz kerak:

$$\frac{2075}{0.80} = 2594Wh$$

4. Quyosh paneli quvvatini hisoblash

Masalan, sizga 1400 Wh (1.4 kWh) kunlik energiya kerak bo'lsa va sizning hududingizda kuniga 5 soat quyosh nurlanishi bo'lsa, siz kerakli quyosh paneli quvvatini quyidagicha hisoblaysiz:

$$\text{Kunlik talab} = \frac{1400Wh}{5soat} = 280W$$

Bu sizga kerak bo'ladigan kunlik quvvatdir. Endi agar panellar samaradorligi 80% bo'lsa:

$$\text{Kerakli quvvat} = \frac{280W}{0.80} = 350W$$

5. Panel sonini hisoblash

Agar siz 350W quvvatga ega bo'lgan bir dona quyosh panelidan foydalanmoqchi bo'lsangiz, bitta panel yetarli bo'ladi. Agar siz 175W quvvatli panellardan foydalansangiz, sizga ikkita panel kerak bo'ladi.

5. Zaxira tizimi (akkumulyatorlar)

Agar sizda doimiy quvvat kerak bo'lsa (masalan, kechasi yoki bulutli kunlarda), sizga akkumulyator kerak bo'ladi. Akkumulyatorlar energiyani saqlash uchun ishlatiladi. Akkumulyatorning hajmi va turi ham foydalanish talablari asosida aniqlanadi.

Kunlik energiya ehtiyojigiz: 2075 Wh

Akkumulyator hajmi: 12V 200Ah akkumulyator

$$12V \times 200Ah = 2400 Wh$$

Bu holda bitta 12V 200Ah akkumulyator kunlik energiya ehtiyojigizni qondira oladi.

6. Inverter quvvati

Agar sizning tizimingizda AC (o'zgaruvchan tok) uskunalar ishlatilsa, sizga inverter kerak bo'ladi. Inverter quvvatini siz ishlatadigan eng katta yuklarga moslab tanlaysiz.

Kompyuter: 200W

Televizor: 100W

Muzlatgich: 150W

- Jami yuk: $200W + 100W + 150W = 450W$

Bunday holda sizga 500W yoki 1000W inverter kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kanayev A. A., Korneev M. I. "Parogazovye ustanovki" - M.: Mashinostroyeniye. 1987 g.
2. Rixter L.A., Yelizarov D.P., Lavыigin V.M. "Vspomogatelnoye oborudovaniye teplovykh elektrostansiy" Moskva. Energoatomizdat. 1987 g.
3. Rixter L.A. "Gazovozdushnyye trakty teplovykh elektrostansiy" Moskva. Energoatomizdat. 1984 g.
4. V.I. Abramov i dr., "Povysheniye ekologicheskoye bezopasnosti TES". M., izd MEI 2002 g
5. R.M. Yusupaliyev "IESlarida suv tayyorlash texnologiyasi". Darslik. Toshkent. ToshDTU. 2003-y.
6. O.I. Martynova. "Vodopodgotovka: protsessy i apparaty". Moskva. Atomizdat. 1977 g.
7. Krasnoyokov K.A., Sukomel A.S. Sbornik zadach po teploperedache. – M., Energiya 1975, 1980.
8. Yusupbekov N. R. Va boshqalar. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. T.: Sharq, 2003
9. Salimov Z. Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari. T.: O'zbekiston, 1994.
10. Alimbayev A.U., Shoislomov A.Sh., Toshboyev N.K. "Yoqilg'i va yonish asoslari". O'quv qo'llanma. TDTU 2001.
11. Reznikov M. I., Lipov Yu. M. "Parovye kotli teplovykh elektrstansii" M. Energoatomizdat, 1981
12. Reznikov M.I., Lipov Yu.M. Parovye kotly teplovykh elektrostansiy. –M.: Energoizdat, 1991

13. Teplovoy raschet kotelnых agregatov (normativный metod). Pod red. Kuznesova i dr. –M.: Energiya, 1993
14. Lipov Yu.M., Samoylov Yu.F., Vilenskiy T.V. Komponovka i teplovoy raschet parovogo kotla. –M.: Energoizdat, 1996
15. Mingazov R.F., Umirov U.R. Teplovoy raschet kotelnogo agregata. Tashkent, TGTU, 2003.
16. Промышленная теплоэнергетика. Справочник. М. Energoatomizdat. 1989.
17. “Issiqlik elektr stansiyalari bug’ turbinalarida bug’ni ikkilamchi qizdirish uchun quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini o’rganish” J.X Suvonov 92-97 bet.


3-SHO'BA. QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDA TEXNIK VA TEXNOLOGIK MUAMMOLARNING INNOVATSION YECHIMLARI

DUNYO MAMLAKATLARINING PILLA YETISHTIRISH KO'RSATKICHLARINING TAHLILI

Yunusov Rustem Faikovich,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti, dotsenti,
Rahmonov Shahobiddin Safaralievich, "TIQXMMI" MTUning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institute, stajyor-o'qituvchisi.
Ahmadjonov Nizomiddin Nurmuhammad o'g'li,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti magistr talabasi.

Pillachilik bu ipak ipini olish uchun pilla yetishtirishdir. Eng yaxshi xom ipak tut ipak qurtidan olinadi. Tabiiy sharoitda ipak qurti bir yilda bir marta ko'payadi, lekin ilmiy izlanishlarda bir yilda uch marta ko'paytirish mumkin. Urg'ochi kapalak 350-400 taga yaqin tuxum qo'yadi va shundan so'ng o'ladi. Yuqori sifatli ipak olish maqsadida zararlangan tuxumlar yo'q qilinadi. Tuxumdan chiqqan qurtlarni uzunligi 3 mm atrofida bo'ladi. Keyingi 20-30 kunda har kuni besh martadan tut bargi bilan boqiladi. Bu davrda qurt to'rt marta terisini tashlaydi va 9 sm yaqin uzunlikdagi qurtga aylanadi. Shundan so'ng, ular pilla o'rashga tayyor bo'ladi. Qurtlarning og'zi ostida teshik bo'lib, filerlar deb nomlanadi. Undan oqsil moddalar chiqaradi. Bu moddalar havoda qotib ip hosil bo'ladi va qurt sirtida sakkizga o'xshab o'raladi. Pilla uch kunda o'raladi va eryong'oq po'stlog'iga o'xshash o'lchamda bo'ladi[1]. Quritish jarayonida pilla qiziydi va qurt o'ladi yoki sustlashadi. Ba'zi pillalardagi g'umbaklar rivojlanib kapalakka aylanadi.


Tut ipak qurti: bo'g'im oyoqlilar turi, hashoratlar sinfi, tangacha qanotlilar turkumi, ipak qurti oilasiga (*Bombyx mori* L) mansub bo'lib, shu turkum hashoratlari kabi tut ipak qurti ham to'rtta rivojlanish bosqichini o'tadi: tuxum - qurt - g'umbak - kapalak (1-rasm).



1-rasm. Ipak qurtining rivojlanish bosqichlari.

Pilla o'rashni 4 ta davrga bo'lish mumkin. Birinchi davrida qurt ipak chiqarib, havoz qilib oladi. Bu paxtasimon los deb ataladi. Ikkinchi davrida qurt harakati qisqa-qisqa bo'lib,

ipni nisbatan zichroq qilib tashlaydi. Bu pilla losi deb atalib, chuvish uchun yaroqli emas. Uchinchi davrida qurt pillaning asosiy qismini o'raydi. Bu qism qobiqning 70-85% ni tashkil qilib, chuvish uchun yaroqli[2]. Shu davrda qurt bosh qismini mayatnikka o'xshatib ishlatib, yarim sakkizsimon shaklda ip tashlaydi. To'rtinchi davrda pillaning ichki po'st qismini tashlaydi. Bu yerdagi pilla ipi oldingilariga nisbatan ingichka va bo'sh qilib tashlaydi. Pilla qobig'ining bu qismi ham chuvishga yaroqsiz (2-rasm).



2-rasm. Ipak qurti pillasining paydo bo'lish bosqichlari.

a) havoza hosil qilish; b) sakkizsimon shakl; v) qobiq: 1-los; 2-pilla; 3-qaznoq po'sti; 4-g'umbak; 5-qurt po'sti.

Tut ipak qurti tolalarini ishlab chiqaruvchi asosiy mamlakatlar quyidagilardir:

1. Xitoy – Ipak ishlab chiqarishning yirik markazi bo'lib, dunyo bo'ylab ishlab chiqariladigan ipakning 70-80% ini yetkazib beradi.

2. Hindiston – Ipak ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi va o'zining boy ipak sanoati bilan mashhur.


3. O'zbekiston – Tut ipak qurti yetishtirishda va ipak ishlab chiqarishda an'anaviy yetakchilardan biridir.

4. Tailand – Yuksak sifatli ipak ishlab chiqarish bilan tanilgan va xalqaro bozorda nufuzli o'rin tutadi.


5. Vyetnam – Ipak sanoati rivojlanayotgan mamlakatlardan biri bo'lib, ipak mahsulotlari eksportiga e'tibor qaratadi.

6. Braziliya – Janubiy Amerikada ipak ishlab chiqaruvchi asosiy davlatlardan biri hisoblanadi.

Bu mamlakatlar tabiiy ipak tolalarini ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanadi va dunyo bozorida ulkan ulushga ega. Quyidagi 3-4-rasmlarda ularning bir necha yil davomida yetishtirgan pillalar miqdori statistikasi ko'rsatilgan:



3-rasm. Dunyoda eng ko'p pilla yetishtiruvchi 3 ta davlatlar(Xitoy, Hindiston, O'zbekiston)ning yillar davomida yetishtirgan pilla miqdori (tonna×1000).



4-rasm. Dunyoda pilla yetishtiruvchi davlatlar(O'zbekiston, Tailand, Braziliya, Vetnam, Shimoliy Koreya, Yaponiya)ning yillar davomida yetishtirgan pilla miqdori (tonna×1000).

Respublikamizdagi mavjud pillani qayta ishlovchi va undan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bugungi kunda to'la quvvatda ishlamasligi oqibatida joylarda yetishtirilayotgan pilla xom ashyosini arzon narxlarda joriy davlatlariga sotilishi oqibatida pillani dastlabki qayta ishlovchi korxonalar asta-sekin inqirozga uchrab o'z-o'zini moliyaviy jihatdan ta'minlay olmayapti. Bundan tashqari qishloq joylarda ipak qurti uchun asosiy ozuqa bo'lgan tut ko'chatlarini yetishtirish va uni parvarishlash bo'yicha mutahassislar yetishmasligi sababli tutzorlar keskin (60%gacha) kamayib ketmoqda[3]. Respublikadagi pillani dastlabki ishlash usuli va texnologiyasi XIX asrning 60-70 yillaridagi texnik va texnologik jihozlar bilan ishlab kelmoqda. Bu esa, xom ashyoni qayta ishlash sifatining pasayishiga, ortiqcha energiya, ortiqcha mehnat va ortiqcha vaqt sarflariga sabab bo'lmoqda. Sifatli pilla yetishtirish tut ipak qurtining zoti, duragayi yoki uni boqish sharoitigagina bog'liq bo'lmasdan yetishtirilgan pillalarni tayyorlash va dastlabki ishlov berish usullariga ham bog'liqdir [3]. Yurtimizdagi pillani dastlabki ishlash korxonalari (PDIK)da, g'umbagini jonsizlantirish va quritish agregatlarining holati texnik va ma'naviy jihatdan eskirganligi sababli, qayta ishlanayotgan

pillaning sifat ko'rsatgichlarining pasayishiga va buning oqibatida mahsulot tannarxiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda [4]. Bugungi kunda Respublikamizdagi pilachilik korxonalarida pilla ichidagi tut ipak qurti g'umbagini jonsizlantirish va quritish uchun mo'ljallangan SK-150K, KSK-4,5, Yamato-Sanko, bug' morilkasi va simpleks kabi agregatlarining umumiy soni 491 donani tashkil etib, shulardan 80%i (395 dona agregat) ishga yaroqli bo'lib, pillaga dastlabki ishlov berishda qo'llanilib kelinmoqda.

Xulosa. Dunyo mamlakatlarida pilla ishlab chiqarishning rivojlanishi mahalliy iqtisodiy o'sishga va eksport hajmining oshishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Xitoy va Hindiston kabi davlatlar bu sohada yetakchi bo'lib, ilmiy-texnologik yutuqlar asosida ipak ishlab chiqarishni kengaytirishmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston kabi mamlakatlar ham ipakchilikda boy an'analarga ega bo'lib, xalqaro bozorga raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekipaksanoat" uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga sharxdan. <http://www.press-service.uz>.
2. Халиқназаров Ў.А., Юнусов Р.Ф. Пилла ғумбагини жонсизлантиришда ўта юқори частотали электромагнит майдон таъсири // Аграр фан назарияси ва амалиётидаги долзарб муаммолар ва уларнинг ечимлари. Халқаро конф. материаллар тўплами. ТошДАУ, 2020 йил 14-15 декабрь. 790-793 б.
3. Ahmedov U.N. Nuqsonli pillalarni kelib chiqish sabablari va ularni kamaytirish choralari, dissertatsiya k.t.n, Tashkent, 2018y.
4. Авазов К.П., Кодиров Ш.А., Юсупходжаева Г.А. // Проблемы текстиля Ташкент, ТИТЛП. 2009. №3. -С.53-55.
5. Gulamov A.E., Avazov K.R., Yusupxodjayeva G.A., Murodov R. Tirik pillalarga dastlabki ishlov berish texnologiyasining tadqiqi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Yosh olim va talabalarning «XXI asr - intellektual avlod asri shiori ostidagi Toshkent viloyat va Toshkent shahar hududiy ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -2014. 23 aprel.-B. 42-44.
6. https://www.researchgate.net/publication/372966610_tabiiy_tolalarni_dastlabki_ishlash_o'quv_qo'llanma

AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMIDA SUV KAMAYISHI, SHO'RLANISH DARAJASINING ORTISHI

Sag'diyev J.A.,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, o'qituvchisi
Omonqulova Sh.,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, 4-kurs talabasi

Iqlimdagi nomutonositlik tufayli mintaqamizda ham turli salbiy holatlar namoyon bo'layotir. O'rtacha haroratning ko'tarilishi, qurg'oqchilik, yashil maydonlarning kamayishi, sho'rlanish, yaylov yerlarning degradatsiyasi, cho'llanishga moyil hududlar ortishi va boshqa oqibatlar ekologik vaziyat qanchalik jiddiyligidan darak berib turibdi. Kamiga yurtimizdagi

noyob tabiiy suv havzalaridan biri bo'lgan Aydar-Arnasoy ko'llari tizimida ham salbiy holatlar ko'zga tashlanmoqda. Ya'ni bugungi kunda ko'l yuzasi tobora qisqarib boryapti.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida suv hajmi tobora kamayishi, suvning minerallasish darajasi oshishi baliq resurslari ozayishiga, suv chekingan hududlarda tuz bilan qoplangan maydonlar kengayib, qum-chang to'zonlari vujudga kelishiga olib kelmoqda.

Xususan, ko'llar tizimining suv hajmi 1994-2000-yillarda 44 mlrd. metr kub bo'lib, hududning umumiy maydoni 350 ming gektarga, uzunligi 250 kilometrga yetgan edi. Ammo "Chordara" suv omboridan 2013-2021-yillarda suv tashlanmagani bois bugun tizimdagi suv hajmi 32,3 mlrd. metr kubni tashkil etmoqda, xolos.

Ko'llar tizimining quyi qismi bo'lgan Konimex tumanidagi Boymurod posyolkasi bo'ylab suvning minerallasuv darajasi bir muncha ortib, tuz miqdori 12,08 g/l dan 14,12 g/l ga yetgani anchagina tashvishlidir.

Qolaversa, Gidrometeorologiya xizmati agentligi tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari doirasida sun'iy yo'ldosh tasvirlarida ko'llar tizimi qurigan qismining 19,5 foiz maydonida o'ta sho'rlanganlik dog'lari borligi aniqlangan. Ko'llar tizimining qurigan qismida katta miqdorda tuz mavjud bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismi — sulfat, xlorid, natriy va magniy tuzlaridan iboratdir.

Tuproq tahliliga ko'ra, o'tloq va sho'rxok tuproqlar tarkibida tuzlar miqdori 3,1 foizni tashkil etadi. Shuning o'ziyoq tuproq kuchli darajada sho'rlanganidan darak beradi. Ko'llar tizimining suvdan bo'shagan qismida tuproq kuchli sho'rlangani bois tuz deflyatsiyasi vaqtida magniy sulfat va natriy xlorid tuzlari Jizzax viloyatining g'arbiy hududlaridagi sug'oriladigan yerlarga qadar yetib borgan, bu esa ekin maydonlarining unumdorligiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ko'llar tizimida suv sathi pasayib ketishi esa ushbu salbiy holatning yana-da kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bu Orol qismati Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi misolida takrorlanishi ehtimoli yuqori, deganidir.

O'simlik va hayvonat olami — muhofazada. Aytish joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ekologik holatni yaxshilash, hududda hayvonot va o'simlik dunyosi muhofazasini kuchaytirish, aholining baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda ushbu hududning turizm salohiyatini oshirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Vazirlar Mahqamasining 2022-yil 26-martdagi "Aydar-Arnasoy qo'llar tizimi boshqaruvini tashkil etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ana shu maqsadga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur qaror bilan Aydar-Arnasoy qo'llar tizimidan foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Ayni chog'da "Arnasoy" suv ombori hududida baliq ovlashga vaqtinchalik moratoriy e'lon qilinib, suv ombori hududida baliq ovlash qat'iyani taqiqlandi, barcha ijarachi baliqchilik xo'jaliklari tegishli tartibda ogohlantirilib, ular bilan tuzilgan ijara shartnomalari bekor qilindi.

Shu bilan birga, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hududiy bo'linmalaridan 25 ta xodim biriktirilib, 6 ta patrul guruhi tashkil etildi. Inspektorlar tomonidan, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan qonunga zid foydalanayotgan, suv havzalarida noqonuniy baliq ovlayotgan, sotayotgan yoki

sotib olayotgan hamda qayta ishlab chiqarayotgan shaxslar aniqlanib, ularga nisbatan javobgarlik choralari ko'rilmoqda.

Bundan tashqari, vazirlik tarkibidagi O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrofidagi 103 gektar yer maydonida jami 60 mingta daraxt ko'chati ekilib, ularning parvarishi nazoratga olindi.

Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan Qozog'iston Respublikasi hukumati bilan muzokaralar olib borilib, "Chordara" suv omboridan qo'shimcha 560 mln. metr kub hajmda suv tashlanishiga erishildi. Muhimi, suv sathini bir maromda ushlab turish bo'yicha izlanishlar izchil davom ettirilmoqda.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida kuzatilayotgan ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida investitsiyaviy loyihalar ham ro'yobga chiqarilmoqda. Masalan, 2018-2020 yillarda Arnasoy suv omborini Janubiy Mirzacho'l kanali orqali to'yintiruvchi kanallarni rekonstruksiya qilish loyihasi doirasida 25 mlrd. so'mlik qurilish va rekonstruksiya ishlari yakunlanib, obyekt foydalanishga topshirildi.

Hozirgi paytda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Sirdaryo havzasida suv resurslari hajmi kamayish ehtimolini hisobga olgan holda tadqiqot ishlari olib borilyapti. Xususan, ko'llar tizimining istiqboldagi suv hajmi hamda ekologik holatini modellashtirish maqsadida "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi hudud atrofi tuproqlarining ekologik-meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan yashil qoplamalarni barpo etishga tavsiyalar" hamda "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ekologik holati va suv sathi dinamik o'zgarishining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish" loyihalari doirasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilayotir.

Noyob qushlar ommaviy qishlashi uchun imkoniyat yaratish zarur Bugungi kunda yurtimizdagi ko'llar tizimi 527 ming gektarni egallagan bo'lib, ular 200 ga yaqin suv qushlari yashaydigan muhim ornitologik hudud hisoblanadi. Bu qushlarning 20 dan ortiq turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga, 12 turi esa xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilgan. Suv qushlarining migratsiya yo'li markazida joylashgan ko'llar tizimi ularning ommaviy qishlash joyi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, ularni asl holida saqlash nihoyatda dolzarb.

Shundan kelib chiqib, ko'llar tizimining fauna va florasini o'rganish, hisobini yuritish, ko'paytirish va saqlash maqsadida o'simlik va hayvonot dunyosi davlat kadastri obyektlarining geoaxborot ma'lumotlar bazasini yaratish choralari ko'rilmoqda. Ayni chog'da Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti mutaxassisleri va Ramsar konvensiyasi milliy koordinatorlari jalb qilingan holda Tuzkon ko'lida noyob qushlar sanog'i olib borilyapti.

Bundan tashqari, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ustav kapitaliga 30 mln. dollar investitsiya kiritish sharti bilan ushbu hudud "Profish layn" MCHJ boshqaruviga berilgan. Hozirgi paytda hududda intensiv baliq yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini, shu jumladan, qafas usulini joriy etish, lichinka ishlab chiqarish bo'yicha yangi inkubatsiya sexlarini qurish, yetishtirilgan baliqni shu yerning o'zda qayta ishlash korxonalarini ochish yumushlari davom ettirilayotir.

Shu va boshqa sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad aniq — noyob qushlar ommaviy qishlashi uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasini muhayo qilishdan iborat. Negaki, qushlar ham tabiiy muvozanatni saqlashda muhim vositachi hisoblanadi.

Turizm salohiyati yuqori Kezi kelganda, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining turizm salohiyati yuqori ekanligini ham ta'kidlash joiz.

Shundan unumli foydalanish maqsadida hududda turizm obyektlarini ko'paytirish, ichki turizmni rivojlantirish uchun tegishli vazirliklar mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tashkil etilib, ko'llar tizimi va unga quyiluvchi suv havzalarining gidrokimyoviy tarkibi va sanitariya-gigiyenik jihatlari o'rganib chiqildi. Ya'ni Jizzax va Navoiy viloyati hududining markaziy va g'arbiy qismidan suv namunalari olinib, bir nechta maxsus laboratoriyalarda o'rganildi.

Tahlillar natijalari asosida hududlarda ekologik, suv-plyaj, safari va boshqa turizm obyektlarini tashkil qilish bo'yicha tegishli idoralarga ilmiy asoslangan xulosa va takliflar yuborildi.

Xo'sh, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidagi vaziyatni ijobiy tomonga burish uchun nimalar qilish zarur?

Birinchidan, Sirdaryo havzasida suv resurslari hajmi kamayishi ehtimolini hisobga olib, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining istiqboldagi suv hajmi va ekologik holatini modellashtirish hamda bajarilishi kerak bo'lgan tadbirlar yuzasidan ilmiy-tadqiqot loyahasini amalga oshirish lozim.

Ikkinchidan, Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ko'llar tizimiga qo'shimcha suv tashlash uchun Sirdaryo viloyati hududidan o'tuvchi "Do'stlik" kanalidan "Sardoba" kollektori orqali suv beruvchi kanal qurilishini yakuniga yetkazish, Qozog'istonning "Chordara" suv omboridan suv ko'p bo'lgan yillarda yillik o'rtacha 1,5 mlrd. metr kub, shundan Aydar ko'lga 1 mlrd. metr kub va Arnasoyga 0,5 mlrd. metr kub miqdoridagi doimiy suv tashlash masalasini Hukumatlar darajasida hal etish muhim.

Uchinchidan, ko'llar tizimidagi kichik suv havzalari reyestrini shakllantirish va Orolbo'yidagi ko'kalamzorlashtirish borasidagi tajriba asosida ko'llar tizimi atrofida "yashil belbog'" va "yashil zonalar" yaratish, tuzli changlar hosil bo'lishi, ularning ekin maydonlari va inson sog'lig'iga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda sho'rlanish va degradatsiyaning oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi asrab-avaylash, kezi kelganda, undan samarali foydalanish iqlim o'zgarishlari jadal tus olayotgan hozirgi davrda nihoyatda dolzarb. Zero, maqsadimiz Orol qismati Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi misolida yana takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. Bu esa nafaqat soha vakillari, balki barchamizdan katta kuch va mas'uliyat talab etishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi boshiga Orol dengizining kuni tushishi mumkin - O'zbekiston yangiliklari - Gazeta.uz
2. 124-son 07.03.2017 yil. Aydar-Arnasoy ko'llar orqali biologik resurslardan etkazib berishni ta'minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida.
3. Aydar-arnasoy ko'llari tizimining 2004-2022 yillar kesimida suvning minerallashuvi va uning oldini olish chora tadbirlri - Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti.

4. [Kun.uz/news/2023/09/28/aydar-arnasoy-kollar-tizimida-suv-hajmi-36-km-kubgacha-kamaygan?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F09%2F28%2Faydar-arnasoy-kollar-tizimida-suv-hajmi-36-km-kubgacha-kamaygan](https://kun.uz/news/2023/09/28/aydar-arnasoy-kollar-tizimida-suv-hajmi-36-km-kubgacha-kamaygan?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F09%2F28%2Faydar-arnasoy-kollar-tizimida-suv-hajmi-36-km-kubgacha-kamaygan).

QASHQADARYO VILOYATIDAGI YIRIK SUV OMBORLARI EKSPLOATATSIYASI

Aralov Behro'z G'ayratovich, assistant, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
Amirov Shohruz Iskandar o'g'li, talaba, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
Fayzullayev Hasan Sa'dullo o'g'li, talaba "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Ma'lumki, daryo oqimi yil fasllari va yillar davomida notekis taqsimlanadi. O'zbekistonda eng katta oqim asosan bahor fasli oylarida kuzatiladi. Yozda esa qishloq xo'jaligi, sanoat va kommunal xo'jalikning suvga bo'lgan ehtiyoji katta, lekin daryolardagi oqim ancha kam bo'ladi. Oqimning notekis taqsimlanishi uni maxsus usullar bilan rostlashni (boshqarishni) talab etadi. Bu usullar haqidagi ma'lumotlar "**Gidrologiya, gidrometriya va oqim hajmini rostlash**" fanida batafsil ko'rib chiqiladi. Oqimni rostlashning eng keng tarqalgan usuli daryo (soy) suvini suv omborlari yordamida rostlashdir. O'zbekistondagi suv omborlari yordamida asosan yillik rostlash amalga oshiriladi.

Xalq xo'jaligi va aholining suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida oqar suvlarni to'plash va saqlash uchun barpo etiladigan sun'iy ko'lsimon gidrotexnika inshooti **suv ombor** deb ataladi. Suv omborlari oqimini rostlovchi asosiy ob'ektlardir. Agar bu ob'ekt seltoshqin suvlaridan himoyalanih va sel suvlarini yig'ish maqsadida qurilsa, uni **sel ombori** deb ataladi.

Suv ombori inson tomonidan boshqariladigan ob'ekt hisoblansada, lekin u shu bilan bir qatorda tabiiy, birinchi navbatda gidrometeorologik omillarning kuchli ta'siri ostida bo'ladi. Shu sababli suv omborlarda tabiiy suv havzalariga xos anchagina xususiyatlar mavjuddir. Ularni loyqa bosadi, muz qoplaydi, qirg'oqlarida tabiiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bundan tashqari ularda turli xil o'simlik va hayvonot olami faoliyat ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, suv ombori tabiat bilan uzviy bog'langan va uning ajralmas qismi sifatida qaraladigan ob'ektdir.

Keyingi yillarda yer yuzida suv omborlarining soni 30 mingdan, ulardagi suv yuzasi maydoni 400 ming kv. km dan ortdi. Har yili dunyo bo'yicha ko'plab suv omborlari qurilib ishga tushirilmoqda. Yer yuzidagi ko'plab daryolarda (Volga, Angara, Missuri, Chirchiq, Kolorada, Vaxsh va boshqalarda) suv omborlari kaskadlari barpo etilgan.

Ma'lumki, suv omborlari insoniyatga katta iqtisodiy foyda keltirishi bilan bir qatorda, tabiatga va atrof-muhitga qisman salbiy ta'sirlarni ham ko'rsatadi. Suv omborlari qurilishi natijasida yer maydonlarining ma'lum qismi suv bostirilishi natijasida ishlatilishdan chiqib, suv ombori tasarrufiga o'tadi, grunt suvlarining yer yuzasiga tomon ko'tarilishi va gruntidagi tuzlarning erishi natijasida yer maydonlarining sho'rlanishi sodir bo'ladi, qurilish hududining seysmik faolligi kuchayadi. Shu sababli, kishilik jamiyati a'zolarining ma'lum qismi suv omborlarini qurish tarafdori bo'lsa, boshqa qismi unga qarshi bo'lib kelmoqda. Bu esa suv

omborlarini loyihalash va ularni qurishda katta ma'suliyat bilan yondashish lozimligini ko'rsatadi. Mutaxassislarning fikricha bugungi kunda o'ta yirik suv omborlarini qurish kontsepsiyasidan to'la voz kechib, kichik va mayda suv omborlarini barpo etish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda respublikamizda 60 ga yaqin suv omborlari va 25 ta dan ko'proq sel omborlari ishlab turibdi. Xorazm viloyati hududida Amudaryo o'zanida qurilgan Tuyamo'yin (loyihaviy hajmi – 7800 mln m³), Toshkent viloyatida Chirchiq daryosi o'zanida barpo etilgan Chorvoq (loyihaviy hajmi – 2000 mln m³), Andijon viloyatida Qoradaryo o'zanida qurilgan Andijon (loyihaviy hajmi – 1900 mln m³) va Qashqadaryo viloyatida Amudaryodan nasos stantsiyalari kaskadi yordamida suv olinib to'ldiriladigan Tallimarjon (loyihaviy hajmi – 1525 mln m³) respublikamizdagi yirik suv omborlari qatoriga kiradi.

Qashqadaryo viloyatidagi yirik suv omborlar.

1. “Tallimarjon” suv ombori;

2. “Chimqo'rg'on” suv ombori;

3. “Pachkamar” suv ombori;

4. “Hisorak” suv ombori.

1. “Tallimarjon” suv ombori – Nishon tumanida joylashgan. Foydalanishga topshirilgan yili 1985 yil, Suv ombori 7-nasos stantsiyasi orqali to'ldiriladi va viloyatimizning G'uzor, Nishon, Kasbi, Muborak, Koson, Qarshi tumanlari ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi. Loyihaviy hajmi – 1525 mln m³



2. “Chimqo'rg'on” suv ombori – Qamashi tumani Qorabog' xo'jalik xududida joylashgan bo'lib, Qashqadaryo o'zanida qurilgan. Sel va suvlarini sekinlashtirish, 1963 yil foydalanishga topshirilgan, sug'orishga bog'langan maydon 38 ming.ga, loyihadagi hajmi 550,0 mln.m³, to'g'on dambaning uzunligi 10,0 km, to'g'on balandligi 34 metr, normal suv chiqarish qobiliyati 330 m³/sek, favqulodda suv chiqarish nuqtasi 2 ta.



3. “Pachkamar” suv ombori – G‘uzor tuman Pachkamar qo‘rg‘onida bo‘lib foydalanishga topshirilgan yili **1968 yil**, sug‘orishga bog‘langan maydon 14,4 ming.ga, loyihadagi hajmi 260 mln.m³ to‘g‘on dambaning uzunligi 590 metr, to‘g‘on balandligi 70 metr, normal suv chiqarish qobiliyati 30 m³/sek, favqulodda suv chiqarish nuqtasi 2 ta.



4. “Hisorak” suv ombori – Shahrissabz tumani Miraki posyolkasi hududida bo‘lib, Suv ombori Oqsuv daryo o‘zanida qurilgan, sel va toshqin suvlarini sekinlashtirish va sug‘orish uchun foydalaniladi. Suv omboridagi suv bilan viloyatimizning Kitob tumani, Shaxrisabz tumani, Yakkabog‘ tumani xo‘jaliklari ekin maydonlarni sug‘oradi. Foydalanishga topshirilgan yili **1987 yil**, sug‘orishga bog‘langan maydon 46,8 ming.ga, loyihadagi hajmi 170,0 mln.m³, foydali suv hajmi 138,4 mln.m³, loyqa bosgan hajmi 31,6 mln.m³



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.04.2021 yildagi 119son.
2. Bakiyev M . R., Yangiyev A. A., Qodirov O . Gidrotexnika inshootlari. T., «Fan», 2002.
3. Bakiyev M ., Nosirov B ., Xo'jaqulov R. Gidrotexnika inshootlari.T., «Bilim», 2004.
7. 4.“O'zbekistonda suv resurslaridan samarali foydalanishning muammolari va yechimlari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami, 2021 yil 26-27mart.
4. www.ziyo.net
5. www.tookie.kz

BUG'LATISH YUZASI HO'LLANILADIGAN TUKLI MATOLI QUYOSH SUV CHUCHUTGICHIDA O'TKAZILGAN TAJRIBA NATIJALARI

Axtamov R.A., BuxMTI,dotsent, axtamovrustam3@gmail.com
Axtamov B.R., Bux DU, o'qituvchisi, axtamovbaxodir5@gmail.com
Rustamov N.B., BuxMTI, magistratura ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi. rustamovnurmurod40@gmail.com


Yer yuzidagi barcha tirik organizmlar va o'simlik dunyosi uchun suv juda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, u inson tanasida modda almashinuvini ta'minlaydi ortiqcha moddalarning chiqarib tashlanishi organizmni zararli chiqindilardan himoyalashni amalga oshiradi.Shuning uchun har bir inson bir sutka davomida o'zi yashab turgan hududning geografik omillariga, haroratiga iqlimiga ko'ra tarkibida 0.3 -0.5 g/l gacha mineral tuzlar bo'lgan toza suv iste'mol qilishi zarur.

Yer yuzida ichimlik suv zahiralari esa umumiy suv zahiralarning 2 % ga yaqinini tashkil qiladi. Shu sababli hozir va kelajakda insoniyatni ichimlik suv bilan ta'minlash davrimizning dolzarb muammolaridan biridir. Ayniqsa yer yuzining cho'l hududlarida bu masala muhim ahamiyatga ega. Chunki bu hududlarda iste'molchilar bir biridan va ichimlik suv manbalaridan uzoq masofalarda joylashgan bo'ladi. Chorvachilik bilan shug'ullanadigan xodimlarni va chorva mollarini suv bilan ta'minlashda O'zbekistonda suv tashuvchi avtotransport vositalaridan foydalanib kelinmoqda. Bu hol iqtisodiy jihatdan samarasi kam bo'lib tashiladigan suvning sifati ham talab darajasida emas. Shu sababli mamlakatimizda aholini chuchuk suv bilan ta'minlashda o'sha hududlarda mavjud bo'lgan yuqori minerallashtirish (4-20 g/l) yer osti suvlarini chuchuklantirish iqtisodiy samaradorlikka ega.

Insoniyat qator yillar davomida ichish mumkin bo'lmagan sho'r va dengiz suvini chuchuklashtirish maqsadida bir nechta usullarni yaratgan.


Bulardan asosiysi distillyatsion usul bo'lib, sho'r suvni bug'latish uchun organik yoqilg'ulardan, tabiiy suyuqlikdan, atom va elektr energiyasidan foydalanib kelinmoqda.

Iste'molchilar bir-biridan va tabiiy ichimlik suv manbaidan uzoqda joylashgan hududlarda sho'r suvni chuchitish maqsadida quyosh energiyasidan foydalanib ishlaydigan quyosh suv chuchitgichlari yaratish sohasida O'zbekistonda A.B. Vardiyashvilli, B.M. Ochilov hamda texnika fani nomzodlari T.D. Jo'rayev, R.A. Axtamov, E.J. Norov, S.Q. Qahhorov [3] kabi ko'pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. Ularning ilmiy ishlanmalari asosida parnik tipidagi va qiya - pog'onali quyosh suv chuchitgichlari loyihalaniib, Qizilqumning bir nechta chorvachilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan quyosh suv chuchitgichlari qurilmalari qurilgan. Ularning ayrim turlari sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



O'tgan asrda qurilgan quyosh suv chuchitgichlarini qurishda asosan sement, po'lat quvur va burchakliklardan foydalanilgan bo'lib, ular temir-beton konstruksiyalardir.[4,5]

Keyingi yillarda fan va texnologiyalarning taraqqiyoti natijasida yangi plastik materiallar, quvurlar, turli profildagi qurilish materiallari amalda keng qo'llanilmoqda. Ana shu imkoniyatlardan individual foydalanish uchun mo'ljallangan ko'chma ho'llanilgan materialni quyosh suv chuchutgich qurilmasini loyihalashga harakat qildik. [6]Ushbu qurilmaning tuzilish sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm.

Qurilmaning “Issiq quti” deyiladigan asosiy qismi (1) deraza romlari tayyorlashda ishlatiladigan ichi bo’sh plastik materialdan tayyorlanadi. Asosi qora alikafondan tayyorlanadi, paddon (2) issiq quti ichida joylashtiriladi. Paddonga sho’r suvni birdaniga pastga oqib tushmasligi uchun maxsus to’siqlar (balandligi 0.5-1.0 sm) (3) briktiriladi. Uning ustiga esa sho’r suvni shimuvchi ho’llaniladigan maxsus qora tukli material (4) joylashtiriladi. Paddon osti 2-2,5 sm qalinlikdagi penomaterial (5) bilan qoplanadi, u o’ziga xos teploizolyator hisoblanadi. Issiq qutining ustiga nur o’tkazish koeffitsyenti 80-85 % bo’lgan deraza oynasi (6) o’rnatiladi. Deraza oynasini o’rnatishda “Issiq qutida germetiklikni ta’minlash maqsadida maxsus rezina (7) va germetik materiallardan foydalaniladi. Shishaning pastida uning ichki yuzasida hosil bo’ladigan kondensatni oqib chiqishi uchun maxsus moslama (juva) (8) o’rnatiladi. 9-qurilmani sho’r suv bilan ta’minlovchi maxsus idish, 10- jo’mrak, 11- ortiqcha sho’r suv chiqadigan quvurlar, 13-chuchuk suv yig’iladigan idish. Qurilmaning paddoni tepasida sho’r suvni pilikli materialning eni bo’yicha teng taqsimlashni ta’minlovchi diametri 0.5-0.7 sm gacha bo’lgan bir nechta teshiklarga ega bo’lgan ingichka quvur (12) o’rnatiladi (teshikchalarning diametri 1.5-2.0 mm gacha bo’ladi).

Qurilmaning ishlash tartibi quyidagicha: Qurilma har bir hududning geografik kengligiga ko’ra gorizontga nisbatan 25-30⁰ burchak ostida janubga qaratib o’rnatiladi. Ertalab quyosh chiqishidan oldin sho’r suv solingan idishdan vintel ochilib tukli qora material to’la ho’llanguncha sho’r suv beriladi.

Tukli qora material sifatida baxmal tipidagi qora paxta matolardan yoki sintetik tolali matolardan foydalanish mumkin.

Quyosh chiqqach uning nurlari shaffof shisha yuza orqali o’tib ho’llanadigan tukli qora material yuzasiga tushadi va issiqlikka aylanadi. Ana shu issiqlik ta’sirida sho’r suv tarkibidan distillyat suv bug’lanib chiqadi. Qurilmaning ichida hosil bo’lgan bug’ havo aralashmasi xaroratlar farqi bo’lganligi sababli konvektiv harakat qilib shisha qoplamaning tashqi sirtidagi harorat, qurilmaning ichki hajmidagi haroratga nisbatan kichik bo’lganligi sababli, bug’-havo aralashmasi tarkibidagi suv bug’lari shishaning ichki yuzasida kondensatsiyalanadi. Hosil bo’lgan kondensat shishaning qiya yuzasi orqali pastga qarab plyonka shaklida oqib tushadi va distillyat yig’uvchi jo’va orqali 13-idishda to’planadi. To’plangan distillyat tarkibida hech qanday mineral aralashmalar bo’lmaydi. Unga ma’lum miqdorda sho’r suv aralashtirib

bemalol istemol qilish mumkin. Qurilmada kechqurun ham sho'r suv va qurilmada jamg'arilgan issiqlik hisobidan bug'lanish jarayonlari davom etadi. Shu tartibda qurilma uzluksiz ishlaydi.

Mualliflar tomonidan foydali yuzasi 0.45 m², gabarit o'lchamlari 45x100 sm bo'lgan bug'lanish yuzasi tukli qora matoli quyosh suv chuchutgichining tajriba namunasi (3-rasm) yasilib, unda 2024-yilning may - iyun oylarida tajribalar olib borildi. Tajriba natijalari qurilmadan bir sutka 2.5-3.0 litrgacha distillyat olish mumkinligini ko'rsatdi. Buni 1 m² yuzaga hisoblasak 6.0-7.0 l/m² sutkani tashkil qiladi.



3-rasm.

1-jadval.

Soat	Tashqi havo harorati °C	Yig'indi quyosh radiatsiya si Vt/m ²	Qurilma ichidagi harorat °C	Qurilma ustidagi harorat °C	Shamol tezligi m/s	Olingan chuchuk suv midori g/soat
7:00	24	470	45	35	1,0	100
8:00	29	620	50	38	1,5	100
9:00	32	800	56	40	1.2	140
10:00	34,9	865	60	43	0,5	160
11:00	35,3	910	68	51	2,0	180
12:00	35,9	930	70	57	1,0	180
13:00	36,1	940	72	55	2,3	200
14:00	38	920	71	57	2,0	220
15:00	38	900	68	54	3,0	250
16:00	38	865	65	54	1,3	250
17:00	37,7	750	71	58	2,0	250
18:00	37,8	610	66	55	0,3	240
19:00	36	460	60	45	1,0	230

Qurilmada o'tkazilgan tajriba natijalari 1-jadvalda ko'rsatilgan. Hozir qurilma konstruktiv elementlarining optimal geometrik o'lchamlarini aniqlash, uni chamadon shaklida standart ko'chma quyosh suv chuchitgichi shakliga keltirish sohasida nazariy hisoblashlar va tajribalar olib borilmoqda. Uning solishtirma og'irligi 8-10 kg/m² bo'ladi. Qurilmaga qo'shimcha nur qaytarish pilyonka oynalar o'rnatilib, ish unumdorligini 10 l/m²sut gacha

yetkazish imkoniyatlari o'rganilmoqda. Qurilmadan kelajakda yer sharining cho'l hududlarida ko'chma suv chuchutgichi sifatida foydalanish mumkin.

Mualliflar hozir ushbu qurilmaning takomillashgan variantini yaratish sohasida ilmiy tadqiqotlarni davom ettirmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Вардияшвилли А.Б. Испытание солнечного опреснителя. "Гелиотехника" 1966г №2
2. Ачилов Б.М. Исследование солнечных опреснителей лоткового и наклонно-ступенчатого типов и определение возможности их применения в пастбищном водоснабжении Узбекистана. Канд. Дисс., Ташкент 1971.
3. Ахтамов R.A., Rustamov N.B. "Quyosh suv chuchitgichlari" monografiya. Buxoro 2024y Durdona.
4. Ахтамов P.A. Исследование солнечных опреснительных установок и применение "СОУ-1000" в пастбищном водоснабжении Узбекистана. Автореферат канд. диссертации. Ашхабат 1978.
5. Jo'rayev T.D. "Quyosh issiqlik va energetik qurilmalari". Buxoro 2023, 189-bet.
6. Ахтамов R.A., Axmedov A.A., Rustamov N.B. Bug'latish yuzasi ho'llaniladigan tukli matoli quyosh suv chuchutgichi loyihasi "Fan va texnologiyalar taraqqiyoti" jurnali №1

GAT TEXNOLOGIYASINI YERLARNI O'LCHASH VA CHEGARALASHDA MUHIM O'RNI

Kattabekov Bunyodbek Baxtiyor o'g'li, talaba,
"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.


Qishloq xo'jaligi yerlari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardir. Bu yerlarni oson ishlov berish uchun yer uchastkasining aniq chegaralari bo'lishi kerak. Maqolaning asosiy maqsadi GIS texnologiyalaridan foydalangan holda er uchastkalarining chegaralarini joylashtirishning hozirgi holatini o'rganishdir. Afsuski, shunday yerlar borki, ular noto'g'ri ajratilgan yoki chegaralari ortofotoplanlarga mos kelmaydi. Shu sababli, davlat kadastrini ro'yxatga olishda yer uchastkalari chegaralarini joylashtirishda jiddiy xatolar yuzaga keladi.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari yer muhandislarining an'anaviy ishlariga katta o'zgarishlar kiritayotganini ta'kidlash joiz. Ya'ni, bugungi kunda xaritalar o'rniga hudud haqidagi asosiy ma'lumotlar raqamli shaklda mavjud. Fazoviy ma'lumotlar bazalari maxsus kompyuter dasturlari (GAT) yordamida boshqariladi. Masalan, GAT dasturlaridan biri MapInfo ma'lumotlar bazasidan manzil yoki nom bo'yicha joylashuv haqida ma'lumot olish, ko'chalar kesishmasini, chegaralarni topish, ob'ektlarni xaritaga qo'yish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi yerlarining chegaralanishini tadqiqoti MapInfo geoaxborot mahsuloti yordamida amalga oshiriladi. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: -yer uchastkalari chegaralarining holatini ko'rib chiqish va o'rganish, shuningdek, yerlarni kadastr ro'yxatiga olishda chegaralarning nomuvofiqligiga oqilona yechim topish.



Ma'lumotlarni yaratish, tahrirlash va tahlil qilish funksiyalari MapInfo Pro-ning grafik va jadval ma'lumotlarini yaratish va tahrirlash vositalari sizga xaritalar va semantik ma'lumotlarga tez va oson o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi yerlariga qishloq xo'jaligi yerlari, xo'jalik ichidagi yo'llar, kommunikatsiyalar, himoya ihota o'rmonlari, suv havzalari, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va birlamchi qayta ishlash uchun foydalaniladigan bino va inshootlar egallagan yerlar kiradi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi erlarining bir nechta turlari mavjud:



Qishloq xo'jaligi yerlariga qishloq xo'jaligi yerlari, xo'jalik ichidagi yo'llar, kommunikatsiyalar, himoya ihota o'rmonlari, suv havzalari, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va birlamchi qayta ishlash uchun foydalaniladigan bino va inshootlar egallagan yerlar kiradi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi erlarining bir nechta turlari mavjud:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun foydalaniladigan gishloq xo'jaligi erlari; Xo'jalik ichidagi yo'llar, kommunikatsiyalar, daraxtlar va butazorlar egallagan. Suv ob'ektlari egallagan erlar, ya'ni sun'iy yoki tabiiy kelib chiqadigan suv havzalari bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundan iboratki, qishloq xo'jaligi yerlarining xatolar turini aniqlash va uning turiga qarab yer uchastkalarini xarakterli nuqtalarning koordinatalarini aniqlash va tuzatish usulini qo'llash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirish kerak. Qanday xatolikka yo'l qo'yilganligini bilish uchun reestr dan ko'chirmadagi yer uchastkasi haqidagi

ma'lumotlar, masalan, chegara planini taqqoslash kerak. Agar ular farq qilsa, texnik xatoni tuzatish kerak. Agar ma'lumotlar bir xil bo'lsa, unda demak hujjatlarda xatolikka yo'l qo'yilgan. Shunday qilib, ro'yxatga olish kitobidagi xatoni tuzatish kerak.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida er uchastkalarini chegaralash jarayonini ko'rib chiqishga arziydi. Bu yerlarning hududiy chegaralarini o'rnatish va qonuniy belgilash tartibidir. Ushbu holatda qishloq xo'jaligi yerlarini chegaralashni jismoniy va yuridik shaxslar, korxonalar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, agar ular, albatta, ushbu hududlarda dehqon (fermer) xo'jaligi, shaxsiy yordamchi dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik yoki bog'dorchilikni yaratishni rejalashtirgan bo'lsalar albatta.

Yer ulushi yoki ulushlari hisobidan ajratilgan yer uchastkasiga nisbatan kadastr ishlari yer uchastkasi yoki yer uchastkalari uchun uning kattaligi va chegaralarining joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tasdiqlangan yer tuzish loyihasiga muvofiq amalga oshiriladi. Qonunda aytilishicha, chegara ishlari har doim qonunga muvofiq, yer uchastkalari to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan holda amalga oshiriladi.

Xulosa

MapInfo geoaxborot tizimi tufayli eng qisqa vaqt ichida ko'plab operatsiyalarni bajarish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligi erlarini yer tuzish bo'yicha ishlar kompleksi yer uchastkasining chegaralarini aniqlash, tiklash va belgilash, shuningdek, er tuzish hujjatlarini huquqiy ro'yxatga olish bo'yicha bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ishlar quyidagi hollarda amalga oshiriladi: Qishloq xo'jaligi uchastkasini oldi-sotdi, almashtirish, ijaraga berish yoki hadya qilish bo'yicha har qanday bitim tuzishda; Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazishda; Qishloq xo'jaligi yer uchastkalarini birlashtirish yoki bolishda; Uchastka yer chegaralarini qo'shni foydalanuvchilar yoki davlat organlari bilan muvofiqlashtirishda. Yer uchastkalariga egalik qilishdagi huquqiy nizolarni hal qilishda; Yo'qotilgan chegara chiziqlarini tiklashda.

Shuni ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun mo'ljallangan yer tuzish ishlari ba'zi farqlarga ega va umumiy yig'ilish o'tkazishdan iborat bo'lib, unda yer tuzish loyihasi tasdiqlanadi. Shuning uchun yer uchastkalari chegaralarini aniqlash orqali yer uchastkalarining chegaralarini tuzatish va belgilash mumkin. Hujjatning yakuniy shakllantirilishidan oldin amalga oshiriladigan tasdiqlash tartibi ham farq qiladi - umumiy ovoz berish yoli bilan qishloq xo'jaligi yerlari egalarining manfaatlarini ifodalovchi bir shaxs saylanishi mumkin.

Natijada, olingan chegara rejasi uchastka egasiga uchastkani ro'yxatdan o'tkazish va u bilan har qanday fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirish huquqini beradi. Qishloq xo'jaligi yerlarining hozirgi holatini o'rganishda ularning chegaralarini joylashtirishda xatolar aniqlandi. Ushbu muammoni chuqurroq o'rganish va yer uchastkalarini toliq o'rganish kerak, bu esa reestr ma'lumotlarida har qanday xatolarni oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaytseva rivoyantishning asosly yo nalitlai / Jusdiyod va tadbikotik 2020.
2. Ne3 Lyubiska Ye.V., Ufimseva Yu. Ye., soraeva E.N. Ko'chmas mulk ob' ektlarini davlat kadastr hisobi // Epomen. 2019. N^o25. 160-167 b.

3. Mejyan S.A. Yerlardan oqilona foydalanish muammolariga oid: foydalanishni saqlash va ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar / Zamonaviy tadqiqolar axborotnomasi. 2019. № 1.13 (28). 112-115 b.
4. Mejyan S.A., soraeva E.N. Yerlarni davlat kadastr hisobi to g'risida // To'plamda: Yer tuzish, ko'chmas mulk kadastr va yer resurslarini monitoringi. Halqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Ulan-Ude, 2020. 35-39 b.
5. Mejyan S.A., soraeva E.N. MapInfo Pro dasturiy mahsulotida kadastr yerlarini xaritalash // Fan kundaligi. 2020. № 7 (43). 17 b
6. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi (O'zR 30.04.1998 y. 598-1-son
7. Soraeva E.N., Baeva N.A. Yer gonunchiligini buzish muammolari // Qirg'iziston-Rossiya Slavyan universiteti xabarnomasi. 2019. T. 19. № 3. 114-116 b
8. Soraeva E.N., Ivanov A.S., Gagarinova N.V. Qishloq xo'jaligi erlaridan samarali foydalanishni ta'minlash mexanizmi sifatida // Kursk davlat qishloq xo'jaligi akademiyasining xabarnomasi. 2018. № 8. 256-261 b.

QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDA TEXNIK VA TEXNOLOGIK MUAMMOLARNING INNOVATSION YECHIMLARI QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASHDA INNOVATSION YECHIMLAR

Yusupov Fuzayl Farxod o'g'li,
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti magistri,
fuzaylyusupov3@gmail.com

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida yer va suv munosabatlarini tartibga solish, qishloq xo'jaligi ekin yer maydonlaridan samarali foydalanish, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid narxini oshirib borish hisobiga qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligi ta'minlanmoqda.

Bugungi kunda, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli rivojlanishini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Shu boisdan, mamlakatimizda iqtisodiyotimizning barcha jabxalarida bo'lgani kabi qishloq xo'jaligini ham tubdan isloh qilish, sohaga bozor mexanizmlarini joriy etish, mahsulotlarni qayta ishlash tizimi va qo'shimcha qiymatni shakllantirishni yanada takomillashtirishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Sohani rivojlantirish bo'yicha uzoq istiqbolli yangi vazifalar belgilab olinmoqda.

Qishloq xo'jaligini mexnizatsiyalash — bu qishloq xo'jaligi jarayonlarini mexanik usullar va zamonaviy texnologiyalar yordamida optimallashtirishni anglatadi. Bu jarayon ishlab chiqarishni samarali qilish, mehnat xarajatlarini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Qishloq xo'jaligini mexnizatsiyalashda innovatsion yechimlar, zamonaviy texnologiyalar va usullarni qo'llash orqali qishloq xo'jaligi jarayonlarini optimallashtirish va

samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shunday ekan qishloq xo'jaligida olib borilayotgan ishlar ananaviy bo'lib foydalanish davomida bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin masalan: aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalaridan, dala nazorati va o'g'it berishda uchuvchisiz uchish qurilmalaridan va agrorobotlardan foydalanmaslik Quyida ba'zi innovatsion yechimlar haqida keltirilgan:

1. Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari.

IoT (Internet of Things): Qishloq xo'jaligi ob'ektlarini, masalan, dalalarni va hayvonlarni internet orqali boshqarish va monitoring qilish imkonini beruvchi qurilmalar.

Sensorlar: Yerning namligini, haroratini va boshqa parametrlarni o'lchaydigan sensorlar orqali resurslardan samarali foydalanish.



2. Dronlar (uchuvchisiz uchish qurilmalari)

Monitoring va Tahlil: Dronlar yordamida dalalarning holatini kuzatish, zararkunandalarga qarshi kurashishda yordam berish va ekinlarni nazorat qilish.

Dron – inglizcha drone bortida uchuvchisi bo'lmagan qurilma bo'lib bunday qurilmalar avtomatik yoki uzoqdan boshqariladi. Uchuvchisiz uchish qurilmalari istalgancha kichik o'lchamlarda yasalishi mumkin, uchuvchi bilan boshqariladigan qurilmalarni esa inson massasidan yengilroq yengil qilib yasab bo'lmaydi

Suv ta'minoti: Dronlar orqali ekinlarga pestitsidlar va o'g'itlarni tarqatish.



3. Agro-robotlar

Avtomatlashtirilgan qishloq xo'jaligi ishlari: O'g'itlash, ekish va yig'im-terim jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ish kuchini kamaytirish.



Asosiy ishlarni tezlashtirish: Yig'im-terim jarayonlarini robotlar orqali tez va samarali bajarish. Ekinlarni terish ham qo'lda epchillik va nozik teginishni talab qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, hosil yig'ish avtomatlashtirsa bo'ladigan muammolardan biri. Bu jismonan og'ir va juda tez-tez takrorlanadigan mehnat turi bo'lib, rivojlanib borayotgan tezkor zamonda amalga oshirsa bo'ladigan jarajondir.

Xulosa

Qishloq xo'jaligini mexnizatsiyalashda innovatsion yechimlar, nafaqat ishlab chiqarishni, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va fermerlarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ular qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Buning natijasida, qishloq xo'jaligi sektori yanada raqobatbardosh va barqaror bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.researchgate.net/publication/371245358>
2. <https://builtin.com/robotics/farming-agricultural-robots>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mexanizatsiya>

AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA SANOAT KORXONALARNING ATMASFERAGA TA'SIRI

Djumaniyazov Otabek Baxtiyarovich, Doktotant,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, welcome_1001@mail.ru

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish jabhalari, sanoat va mashinasozlik korxonalarida atmosfera va atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi oqibatida turli xil ekologik muommolar yuzaga kelmoqda. Atmosfera va atrof-muhit havosini ifloslantiruvchi moddalarga NO₂ (azot dioksidi), SO₂ (oltingugurt dioksidi), CO₂ (karbonat angidrid) va uchuvchi organik birikmalar kiradi, ular avtotransport vositalarida chiqadigan chiqindilar, elektr stansiyalari, neftni qayta ishlash zavodlari, sanoat va laboratoriya jarayonlari kabi manbalardan kelib chiqadi. Avtotransport vositalaridan esa PM_{2,5} va PM₁₀ qattiq zarrachalar atrof-muhitga tarqaladi. Ushbu ifloslantiruvchi moddalarning ba'zilar ko'p yillar davomida saqlanib qolishi va suv resurslariga yetguncha tuproqning katta hududlari bo'ylab ko'chib o'tishi mumkin, bu erda ular ekologik yoki inson salomatligiga tahdid solishi mumkin.

Atmosfera yer sharining havo qobig'i bo'lib, biosferada hayot mavjudligini taminlovchi asosiy manbalardan biridir. Atmosfera barcha jonzoatlarni zararli kosmik nurlardan himoya qilib turadi, sayyora yuzasidagi issiqlikni saqlaydi. Atmosferaning yuqori chegarasi taxminan

2000 km balandlikdan o'tadi, atmosfera bir necha qatlamlardan iborat bo'lib. uning asosiy massasi 10-16 km balandlikkacha bo'lgan quyi troposfera qismida joylashgan, ob - havo va iqlim ko'p jihatdan atmosferadagi jarayonlar bilan bog'liq. Begona qo'shimchalari bo'lmagan atmosfera havosi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat; azot-78,1%, kislorod 20,9%, argon va boshqa inert gazlar 0.95%, karbonat angidrid 0.03 % boshqa gazlarning miqdori nisbatan kam. Bundan tashqari havoda doim 3-4 % suv bug'lari va chang zarralari bo'ladi. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab quyidagi hududlarda olmlar tomonidan aniqlanishcha, eng toza havo okean suvlari ustidadir. Qishloqlar ustida havodagi chang zarralari miqdori okean yuzasiga nisbatan 10 barobar, shaharlar ustida havodagi chang 35 barovar, sanoat korxonalarida ustida 150 baravargacha ortiq zararli chang va turli zaharli gazlarga ega. [1].

Hozirgi davrda sanoat korxonalarining tez rivojlanishi atmosfera va atrof muhitga ifloslantiruvchi zaharli moddalarni chiqishini oshiradi va insoniyat, tabiat va hayvonot olamiga misli ko'rilmagan darajada ziyon yetkazadi. Dunyo olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, atmosfera va atrof-muhitga chiqayotgan ekologik zararli moddalar har 10 yilda ikki va uch barobarigacha ko'paymoqda. Shu sababdan hozirgi kunda Jahonda atmosfera va atrof-muhitning ifloslanishi global muammolardan biridir. Atmosfera va atrof-muhit tabiiy va suniy yo'llar bilan ifloslantirilishi mumkin. Masalan; to'qayzorlar, o'rmonlar, o'simlik changlari, zil-zila tufayli sodir bo'ladigan vayrongarchilik, vulqonlar otilishi va boshqa tabiiy omillar kiradi.(1-rasm) Sanoat korxonalarida, avtotransport vositalari, maishiy chiqindilar, elektr ishlab chiqarish soxalarida, energetika, oltin, kumish, neft konlari va boshqalar sabab bo'ladi.(2-rasm).



a)



b)



c)



d)

1-rasm. Atmosfera va atrof-muhitning tabiiy yo'l bilan ifloslanishi.
a) O'rmonlar yonishi, b) vulqon otilishi, c) zilzila oqibatida, d) tabiiy suv toshqinlari



a)



b)

2-rasm. Atmosfera va atrof-muhitning suniy yo'l bilan iflonashi.

a) Sanoat korxonalari, b) neft-kon qazilma jarayonlari.

Hozirgi vaqtda atmosfera va atrof-muhitning ifloslanish darajasi insoniyat omillari tomonidan 80%ni va 20% tabiiy manbalarga to'g'ri keladi. Atmosfera va atrof-muhitga tarqalayotgan ifloslantiruvchi zararli moddalarni 4 ta guruhga ajratishimiz mumkin. Ular qattiq, suyuq, gazsimon va aralsh birikmalardir. Atmosfera havosini ifloslovchi asosiy moddalar esa chang, qattiq zarrachalar ($PM_{2.5}$ va PM_{10}) qurum, azot oksidi (NO_2), oltingugurt oksidi (SO va SO_2), uglerod oksidi, korbonit angdrid (CO_2) lari kiradi. Bundan taashqari atmosfera va atrof-muhitning kimyoviy, fizik, issiqlik va elektromagnit ifloslanishi rivojlangan davlatlarda yuqori darajaga yetgan. Yana bir atmosfera va atrof-muhitning ifloslanish darajasi yuqori bo'lgan holat bu radioaktiv ifloslanishdir. Bu turli hil hodisalar orqali vujudga keladi masalan; yadro qurollarining sinovlari va atom elektrostansiyalaridagi baxtsiz xodisalar kiradi. Natijada insoniyatga yurak-qon tomir, asab buzilishi, surunkali bronxit, nafas qisishi, rak va boshqa kasalliklar bilan hayotiga xavf soladi. Shuni aytish joizki bu ifloslantiruvchi zararli moddalar hayvonot olami va tabiatni chetlab o'tmaydi. Aholi gavjum joylarida avtotransport vositalaridan chiqadigan qattiq zarralar avtotransport chiqindilari deyiladi. Avtotransportlarning ishlab chiqarilishi ko'payishi natijasida ulardan chiqadigan chiqindilar ko'payib atmosfera va atrof-muhit ifloslanishiga sabab bo'la boshladi. Bu chiqindilar metan, propan, benzin, dizel va kerasin yoqilg'ilaridan foydalanadigan avtotransport vositalaridan atmosfera va atrof-muhitga tarqaladi. Bular natijasida inson salomatligiga bo'lgan tashqi xavflar ko'payib bormoqda.

Xulosa

Sanoat va transport vositalari tomonidan chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar atrof-muhitga va insoniyat salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ifloslanishni nazorat qilish va kamaytirish uchun davlat va jamiyat birgalikda harakat qilishi, ekologik texnologiyalarni rivojlantirish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish zarurdir. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adaboyotlar

1. N.P.Xodjayeva, O.O.Muratov "Zaharli gazlarning atmosfera va inson salomatligiga ta'siri" Academic Research in Educational Sciences Journal, 2023, 248-256 b.
2. Akimova T.A., Kuzmin A.P., Xaskin V.V. Ekologiya-M.: YuNITI, 2001.

3. Валуко́нис Г.Ю, Мура́дов Ш.О. Основа экологии. Том и Общая экология, Ташкент, «Мехнат», 2001
4. IQAir.com.
5. infourok.ru.

DORIVOR O'SIMLIKLARNI QUYOSH QURITGICHDA QURITISH JARAYONINI TADQIQ QILISH VA MODELLASHTIRISH

Usmanov Komil Isroilovich, Toshkent kimyo-texnologiya instituti,
kafedra mudiri (PhD), fuzzylogicrules@gmail.com

Quritish jarayoni deb material tarkibidagi suv miqdorining chiqarilib yuborilishi va unda quriq massa nisbatining oshiriliga aytiladi. Quritish murakkab texnologik (fizik-kimyoviy) jarayon hisoblanib, ushbu jarayonda mahsulotlar quriltilganda nafaqat uning sifati saqlab qolinishi, balki sifatining oshishini ham nazarda tutadi. Shuning uchun jarayonlarning ratsional rejimlari va usullarini tanlashda quritish texnologiyasiga ilmiy asosiga tayanish kerak: dastlab quritish obykti sifatida ishlatiladigan mahsulotning xususiyatlarini o'rganish, buning asosida quritish usulini tanlash va jarayon rejimlarini asoslash, quritgichlarning ratsional konstruksiyalarini yaratish zarur [1].

Quritish texnologiyalari ham o'zgarishga moyildir. Organizm uchun fiziologik jihatdan qimmatli moddalarni - vitaminlar, suvda eriydigan uglevodlar, minerallar ularning saqlash muddatini uzaytirish uchun namlikni tezda chiqarib yuboruvchi va mahsulotni maksimal darajada yaxshi saqlash uchun qisqa muddatli quritish jarayonlari tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Hozirgi davrda dunyo aholisining tez suratlarda ko'payayotganini hisobga olgan holda, keyingi yuz yillikda insonlar ozuqasi sifatida quritilgan mevalar iste'mol qilinadi va ular tez tiklanuvchi mevalar sifatida qabul qilinadi [2].

Quritish jarayonlari yuqori energiya xarajatlari bilan tavsiflanadi. Rivojlangan mamlakatlarda quritish paytida energiya iste'moli umumiy energiya iste'molining 15-18% ni tashkil qiladi [3].

Quritishning yana bir turlaridan biri bu – havo yordamidagi konvektiv quritish hisoblanadi.

Mahsulotning fizik xususiyatlari, issiq havo va mahsulot o'rtasidagi namlik, issiqlik va massa o'tkazuvchanlik koeffitsientlari quritish jarayoni mobaynida o'zgarib turadi [4].

Mahsulotlarni quritish – ularning uzoq muddatli saqlanishiga, saqlash joyini kamaytirishga, transport xarajatlarini tejashga yordam beradi. Quritish jarayoni ko'p hollarda ochiq havoda quyosh yordamida amalga oshiriladi. Mahsulotlarni quritish texnologik jarayon hisoblanadi. To'g'ri tashkil qilingan quritish jarayoni texnologik xususiyatlarni sezilarli o'sishiga olib keladi. Masalan, quritgichda to'g'ri quritilgan donlar tabiiy ravishda quritilgan donlarga nisbatan daromadliroq bo'ladi. Quyosh energiyasidan foydalanish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quritish uchun juda mos keladi.

Quritish jarayonini tezlashtirish uchun maxsus qurilmalardan foydalanish (quyosh quritgichi) quyosh energiyasidan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Quritish jarayonlarining aksariyati yuqori haroratlarda amalga oshirilganligi sababli, bu quritilgan mahsulotning tuzilishi, ozuqaviy qiymati, ta'mi, rangi va xushbo'yligi kabi sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu o'zgarishlarni minimallashtirish uchun harorat, quritish vaqti, havo tezligi va boshqalar kabi quritish usullari va shartlarini optimallashtirish kerak. Ma'lumotlarning o'zgaruvchanligining kamayishi tufayli quritish kinetikasi ko'pincha ikki parametrlilik va quritish tezligi yordamida baholanadi. Ushbu tadqiqotda (1) va (2) tenglamalar yordamida Bargizubning namlik koeffitsienti va quritish tezligi hisoblab chiqilgan [6].

Mavjud adabiyotlarda quritishning bir qancha matematik modellari taklif qilingan. Ushbu tadqiqotda gelioqurtgich tizimlarida Bargizubni quritish jarayoni uchun 1-jadvalda keltirilgan empirik modellar ko'rib chiqildi.

1-jadval

Bargizubni namligini aniqlash uchun ishlatiladigan quritish modellari.

Model nomi	Model
Newton	$MR = \exp(-kt)$
Page	$MR = \exp(-kt^n)$
Modified Page	$MR = \exp[-(kt)^n]$
Logarithmic	$MR = a \cdot \exp(-kt) + c$
Henderson and Pabis	$MR = a \cdot \exp(-kt)$
Tow-term	$MR = a \cdot \exp(-k_0t) + b \cdot \exp(-k_1t)$
Two term exponential	$MR = a \cdot \exp(-kt) + (1 - a) \cdot \exp(-k_1t)$
Midilli at al	$MR = a \cdot \exp(-kt)^n + b \cdot t$
Approximation of diffusion	$MR = a \cdot \exp(-kt) + (1 - a) \cdot \exp(-kbt)$
Verma et al	$MR = a \cdot \exp(-kt) + (1 - a) \cdot \exp(-gt)$
Midilli - Kucuk	$MR = a \cdot \exp(-kt^n) + b \cdot t$

Bargizubni quritish jarayoni eksperimental va statistik jihatdan o'rganildi. Quritish harakati quritish jarayonida namlik nisbati o'zgarishi bilan belgilanadi. Bargizub uchun namlik nisbati ma'lumotlari o'n bitta yupqa qatlamli quritish modellari yordamida o'rnatildi. Quritish paytida Bargizubning namlik nisbati (MR) 1 va 2 tenglamalar yordamida hisoblanishi mumkin [7].

$$MR = \frac{M_t - M_e}{M_0 - M_e} \quad (1)$$

$$DR = \frac{M_t - M_{t+\Delta t}}{\Delta t} \quad (2)$$

(1) - tenglama yordamida eksperimental ma'lumotlar to'plamidan olingan MR natijalari 1-jadvalda ko'rsatilganidek empirik tenglamalarni koeffitsiyentlarini aniqlash uchun Matlab R2022a dasturiy ta'minotining (cftool) bo'limidan foydalanildi

Bargizubni quritish uchun eng mos matematik modellarni aniqlash uchun uchta muhim statistik parametrlarni hisoblash muhimdir: 3-tenglama yordamida korrelyatsiya koeffitsienti (R^2), 4-tenglama yordamida x-kvadrat (X^2) va 5-tenglama yordamida ildiz o'rtacha kvadrat xatosi (RMSE) lar aniqlanadi. (R^2) qiymati 1 ga yaqin, (X^2) va (RMSE) larning qiymati 0 ga ya'ni eng kichik qiymatlarni ko'rsatadigan model eng yaxshi moslikni bildiradi.


$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (MR_{pre,i} - MR_{exp,i})^2}{\sum_{i=1}^n (MR_{exp,i} - MR_{exp,ave})^2} \quad (3)$$

$$X^2 = \frac{\sum_{i=1}^n (MR_{pre,i} - MR_{exp,i})^2}{N - z} \quad (4)$$


$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{N} \sum_{i=1}^n (MR_{pre,i} - MR_{exp,i})^2} \quad (5)$$

Ushbu tenglamalarda $MR_{exp,i}$ i-tajribada kuzatilgan normallashtirilgan namlik nisbatini, $MR_{pre,i}$ i-kuzatish uchun taxmin qilingan qiymatni, $MR_{exp,ave}$ eksperimental ma'lumotlar nuqtalari orasidagi o'rtacha normallashtirilgan namlik nisbatini, N umumiy sonini va z esa modeldagi doimiylar sonini ifodalaydi [12].

Quyosh quritgich qurilmasida dorivor o'simliklarni quritish vaqti, havo sarfi va mahsulot massasiga ta'siri nazariy hisoblab chiqildi. 1, 2, 3 va 4-raslarda mahsulotning namligini 87% dan 15% gacha kamaytirish uchun 25 soat vaqt kerak bo'ldi. Ushbu grafikdan berilayotgan issiq havo sarfining oshishi bilan mahsulotning quritish vaqti keskin kamayoshini ko'rish mumkin.




1-rasm. Midilli and Kucuk matematik modeli uchun regressiya tenglamasi natijasi




2-rasm. Midilli et al. matematik modeli uchun regressiya tenglamasi natijasi

Belgilangan modelni sinab ko'rish uchun har qanday maxsus quritish sharoitida namlik koeffitsientining eksperimental va bashorat qilingan qiymatlarini taqqoslab, bu qiymatlar to'g'ri chiziq atrofida yotadi. Midilli-Kucuk modeli eksperimental va bashorat qilingan namlik miqdori o'rtasida qoniqarli yaxshi kelishuvni ta'minladi va bashorat qilingan ma'lumotlar odatda to'g'ri chiziq atrofida joylashgan bo'lib, Bargizubning quyosh quritish harakatlarini tavsiflash uchun modelning mosligini ko'rsatdi.



3-rasm. Logarithmic matematik modeli uchun regressiya tenglamasi natijasi



4-rasm. Henderson and Pabis matematik modeli uchun regressiya tenglamasi natijasi

Korrelyatsiya koeffitsienti (R^2), qisqartirilgan chi-kvadrat (X^2) va o'rtacha kvadrat xatosi (RMSE) kabi turli xil model konstantalari va statistik parametrlarning qiymatlari olindi. Korrelyatsiya koeffitsienti qiymatlari eng yuqori bo'lgan quritilgan Bargizub uchun Midilli-Kucuk modelining RMSE, R^2 va X^2 ko'rsatkichlari eng past ekanligi aniqlandi. Olingan natijaraga ko'ra 11 ta empirik quritish modellaridan Midilli-Kucuk va Midelli at al. modellari eng yaxshiligi aniqlandi.

2-jadval

Bargizubni quritishdan olingan matematik modellarning tenglamalar koeffitsientlari va statistik natijalari.

No	Model konstantalari	R^2	X^2	RMSE
1	$k=0,84996$	0,949993	0,003247	0,054743
2	$k=0.05771, n=1,687$	0,993831	0,0007662	0,02639
3	$k=0,102812, n=0,826708$	0,941678	0,003634	0,055449
4	$k=0,071691, a=0,895283, c=-0,01090$	0,978647	0,001463	0,033551
5	$k=0,073495, a=0,886173$	0,978611	0,001333	0,033579
6	$k_0=0,073495, a=0,886095, b=7,83E-5, k_1=0,073382$	0,978611	0,001629	0,033579
7	$k=0,062219, a=0,593501$	0,977576	0,001397	0,034383
8	$k=0,258907, a=0,885617, n=0,282444, b=-8,8E-05$	0,978614	0,001628	0,033577
9	$k=0,073491, a=0,585426, b=0,000162$	0,978611	0,001466	0,033579
10	$k=0,073485, a=0,585426, g=2,4355E-05$	0,978611	0,001466	0,033579

11	k=0,04478, a=0,9935, n=1,9, b=0,004668	0,999335	0,0008642	0,009799
----	--	----------	-----------	----------

Matematik modellashtirish quritish samaradorligini loyihalash va optimallashtirish, shuningdek, turli xil quyosh quritish tizimlarining ishlashini tahlil qilish va bashorat qilish uchun juda muhimdir. Ushbu modellar dorivor o'simliklarni quritish harorati, namlik miqdori, quritish tezligi va quritilgan mahsulot sifatini bashorat qilish uchun foydalidir.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda yangi ishlab chiqilgan quyosh quritgichi iqlim sharoitida dorivor o'simliklarni, Bargizubni quritish uchun ishlatilishi mumkin. Dastlabki namlik miqdori 0,87 quruq asosda bo'lgan Bargizub 25 soat ichida yakuniy namlik miqdori 0,15 ga yetguncha quritildi. Barcha quritish jarayonlari pasayish tezligi davrida sodir bo'ldi. Bundan tashqari, quyosh quritgichi qushlar, hasharotlar, yomg'ir va changdan to'liq himoyalangan. Bargizubni quritish harakatlarini tushuntirish uchun nozik qatlamli eksperimental ma'lumotlarga o'n bir xil modellar o'rnatildi va ularning R^2 , RMSE va X^2 ko'rsatkichlari bo'yicha solishtirildi. Bargizubni yupqa qatlamli quritish natijalariga ko'ra, Midilli-Kucuk va Midelli at al. modellari turli darajalarida quritilishining har xil haroratlarda yuqori qobiliyati bilan quritish jarayonida mahsulotning namlik miqdorini bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi model sifatida aniqlandi.

Foydalanilgan adaboyotlar

- [1] Abduvaxitovna, S. S., & Isroilovich, U. K. (2024). Dorivor o'simliklarni gelioquritish qurilmasida quritish jarayonini matematik modellashtirish. *Ilm-Fan va Innovatsion Rivojlanish / Наука и Инновационное Развитие*, 7(4), Article 4.
- [2] Yaldiz O., Ertekin C., Uzun H. I. Mathematical modeling of thin layer solar drying of sultana grapes //Energy. – 2001. – T. 26. – №. 5. – С. 457-465.
- [3] Vijayan S., Arjunan T. V., Kumar A. Mathematical modeling and performance analysis of thin layer drying of bitter gourd in sensible storage based indirect solar dryer //Innovative food science & emerging technologies. – 2016. – T. 36. – С. 59-67.
- [4] M. A. Basunia and T. Abe, "Thin-layer solar drying characteristics of rough rice under natural convection," *Journal of Food Engineering*, vol. 47, no. 4, pp. 295–301, Mar. 2001, doi: 10.1016/S0260-8774(00)00133-3.
- [5] Rejabov, S., Usmonov, B., Usmanov, K., & Artikov, A. (2024). Experimental Comparison of Open Sun and Indirect Convection Solar Drying Methods for Apricots in Uzbekistan. *The 3rd International Electronic Conference on Processes*, 26. <https://doi.org/10.3390/engproc2024067026>
- [6] Усманов К.И., Максудова А.И., Султанова Ш.А. разработка математической модели гелиосушки лекарственных трав. 2024/5 volume 2 issue 5. (2024). "central asian food engineering and technology" elektron ilmiy jurnali.

DRONLAR VA ULARDAN "AQLLI" QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH

Keldiyorov Rafiq Normurodovich, assistent
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institut.
Ergashev Toxir Nematovich, assistent,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Qishloq xo'jaligida dronlardan foydalanish yurtimiz tajribasi uchun yangilik, deyishimiz mumkin. Odatda dala maydonlari holatini kuzatish va monitoring qilish ishlariga bir necha kishi jalb qilinib, jarayonlar kunlab davom etadi. Bu vazifalarni dronlar yordamida amalga oshirish orqali esa ortiqcha vaqt va ishchi kuchini tejab qolish mumkin. Mutaxassislar tajriba-sinov ishlarini olib borayotgan ilmiy-amaliy loyihaning maqsadi ham shundan iborat. Uchuvchisiz boshqariladigan qurilmalar yordamida qisqa vaqtda ekinlar holatini kuzatish, ularda mavjud kasalliklarni aniqlash, ekin ekilgan maydonlar va dala xaritasini tuzish, shuningdek, zararkunandalarni o'rganish va monitoring qilish ko'zda tutilgan.



1-rasm. Dronlarning umumiy ko'rinishi.

Shudgor qilingan yerlardagi tuproqning unumdorligi, g'alla maydonlari, bog'dorchilikda mavjud turli xil kasalliklar, zararkunanda hashoratlar aniqlanib, ular to'g'risida ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Yana bir ahamiyatli jihati, dronlar orqali olingan va qayd qilingan amaliy ma'lumotlar kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlanib, ular asosida zaruriy yechimlar qabul qilinadi. Bu qarorlar ekinlarning bir xilda rivojlanishi hamda agrotexnik ishlarda yo'l qo'yiladigan chetlanish va buzilishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Kompyuter ekranidagi tasvirlar orqali ekinlarning kasalikka uchragani, sug'orish ishlaridagi xatoliklar hamda qaerda zararkunandalar ko'payib ketgani to'g'risidagi ma'lumotlarni ham aniqlash imkoni mavjud. Bundan tashqari, olingan ma'lumotlar, tasvirlar yordamida kuchli yomg'ir, do'l va shu kabi tabiiy ofatlar yetkazgan zarar hamda bo'lajak hosil miqdorini hisoblab chiqish mumkin. Mutaxassislarning aytishicha, qayd qilinayotgan ma'lumotlar kompyuterga hozircha an'anaviy usullar orqali o'tkazilmoqda. Ammo jarayonni takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar kelgusida qaydlarni uzluksiz ravishda onlayn tizim orqali kompyuterga uzatib borishga sharoit yaratadi.

Tajriba-sinov ishlarida dastlabki jarayon yer maydonlari, o'simliklarining holatini aniqlash, shudgor qilingan yerlar, uzumchilik va g'alla maydonlari o'lchamlarini belgilab olish hamda ularni kuzatishdan boshlandi. Ish mobaynida "DJI Phantom 4" rusumli uchuvchisiz uchar apparatidan foydalanildi. Og'irligi 1,4 kilogramm bo'lgan qurilma 500 metrgacha yuqoridan, 3 500 metr radiusdagi maydonni kuzatish imkoniyatiga ega. Moslama avtomatik uchish va qo'nish, belgilangan nuqtalarni uchib o'tish, mo'ljal olishni intellektual boshqarish, parvoz nuqtasiga qaytish, cheklangan joylar to'g'risida ogohlantirish kabi funksiyalarga ega. U "Android" va "iOS" operatsion tizimlarini qo'llab-quvvatlaydi, "GLONASS" va "GPS" navigatsiya tizimida ishlaydi. Apparatning maksimal uchish tezligi soniyasiga 20 metrni tashkil etadi.

Qolaversa, unda sport rejimi, DJI Guidance ob'ektlarini vizual aniqlash, kompas va datchiklarni takrorlash tizimlari mavjud.

So'nggi rusumdagi dronning havoda uchish vaqti 25 daqiqa bo'lib, tasvirlarni 12,4 MP kamera orqali qayd etadi. Ekilgan ekin turlari, yerlarning holati, ularni o'rganish maqsadi va qabul qilinadigan yechim ahamiyatidan kelib chiqib, bir dona dron yordamida o'rtacha 5000 gektar maydonni monitoring qilish imkoniyati mavjud. Shu jihatdan, o'rtacha kattalikdagi tuman qishloq xo'jaligi maydonlarini tadqiq qilish uchun kamida 3 dona dron yetarli bo'ladi.



2-rasm. A16 2020 rusumli dronning umumiy ko'rinishi.

Kelgusida dronlar yordamida olingan ma'lumotlar asosida dalalar relefini tahlil qilish, o'simliklar holatini baholash hamda ekinlarni kuzatish uchun o'zi uchar qurilmalardan foydalanish usullari va algoritmlarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Shuningdek, o'rganilayotgan obyektlarning ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, dron texnologiyalaridan qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanishning ilmiy-texnik asoslari yaratiladi.

1-jadval.

A16 2020 rusumli dronning texnik tavsifi

Model	A16 2020
Dvigatel turi	Cho'tkasiz vosita X 4
Soatlik ish maydoni	4-10 gektar
Bir tank uchun ishlash maydoni	1 gektar (16L / gektar)
Droplet hajmi	80-250 μ m
Oqim darajasi	1L / min - 8L / min
Spray Width	3-6m
Batareya turi	Lityum-ion
Maksimal munosabat	30m
Finshingni yoping	Ochiq ko'k / ko'k / qizil / kul / oq / moslashtirilgan
To'liq yuklash og'irligi	36.43 kg
Mahsulot hajmi	1200mm \times 1191mm \times 555mm

Paket hajmi	1025mm × 755mm × 565mm
Samolyotning og'irligi	14,23 kg

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Astanaqulov K.D. Aniq qishloq xo'jaligi tizimlari. Darslik. – Toshkent: “TIQXMMI” MTU, 2022. – 295 b.
2. Shokirov Sh., Musayev I.M., Akbarov M.S. Masofadan zondlash. Toshkent, Iqtisod-moliya, 2015. -192 b.
3. Mo'minov K.M., Islomov I., Kenjayev Yu. Ch. “Dehqonchilik ilmiy izlanish asoslari bilan” fani bo'yicha ma'ruzalar kursi. Samarqand – 2013.
4. Boltayev T.X., Raxmonov Q., Akbarov M.S. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent-2015, 235 b.
5. www.dronomaniya.com
6. www.google.uz

CHORVACHILIK FERMALARIDA TEMPERATURA VA NAMLIKNI SIMSIZ BOSHQARISH USKUNALARI VA ULANISHI SXEMALARINI ISHLAB CHIQUV

Ortiqov Mironshoh Sodiqovich, dotsent,
Axborot texnologiyalar va menejment universiteti,
Boymirzayev Eshquvvat Xasan o'g'li, magistr,
"TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Hayvonlar uchun optimal temperatura va namlik sharoitlari sog'lom o'sish va rivojlanish uchun zarur. Juda yuqori yoki past temperatura, shuningdek, namlikning oshishi yoki pasayishi hayvonlarda stress holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday sharoitlar, o'z navbatida, mahsuldorlikni kamaytiradi va sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin. Simsiz boshqarish tizimlari, sensorlar va IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida temperatura va namlikni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi. Sensorlar atmosfera sharoitlarini o'lchab, ma'lumotlarni bulutga uzatadi. Bu ma'lumotlar, keyinchalik, kompyuter yoki mobil qurilmalar orqali boshqarish va tahlil qilish uchun ishlatiladi Ularning afzalliklari.

Real vaqt monitoringi: Simsiz tizimlar orqali temperatura va namlikni doimiy ravishda kuzatish mumkin, bu esa tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Masofadan boshqarish: Fermada bo'lmagan hollarda ham, masofadan nazorat qilish imkoniyati mavjud.

Ma'lumotlar tahlili: Sensorlardan olingan ma'lumotlar tahlil qilib, optimal sharoitlarni yaratishga yordam beradi. Qo'llanilish usullari 1. Sensorlar o'rnatish: Fermalarning turli joylariga temperatura va namlik sensorlari o'rnatiladi. Bu sensorlar ma'lumotlarni to'playdi va uzatadi.

Boshqaruv tizimi: Olingan ma'lumotlar asosida avtomatik boshqaruv tizimi, havoni sovutish yoki isitish tizimlarini boshqaradi.

Mobil ilovalar: Boshqaruv tizimiga ulanadigan mobil ilovalar orqali fermerlar real vaqt rejimida holatni kuzatishi va zarur o'zgarishlarni amalga oshirishi mumkin. Chorvachilik fermalarida temperatura va namlikni simsiz boshqarish uchun uskunalari va sxemalar.

Chorvachilik fermalarida temperatura va namlikni o'lchash uchun quyidagi sensorlardan foydalaniladi:

Temperatura sensorlari: Termometrlar (masalan, DS18B20) -elektron sensorlar, aniq temperatura o'lchash uchun.

Namlik sensorlari: DHT11/DHT22 - namlik va temperatura o'lchash imkonini beruvchi kombinatsiyalangan sensorlar.

Mikroprotessorlar sensorlardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqarish uchun mikroprotessorlar qo'llaniladi: Arduino: Oson dasturlash va ko'p sensorlar bilan ishlash imkonini beradi. Raspberry Pi: Kengaytirilgan imkoniyatlar uchun qulay.

Ma'lumotlarni uzatish uchun simsiz aloqa modullari kerak bo'ladi: Wi-Fi modul (masalan, ESP8266): Internetga ulanish va ma'lumotlarni bulutga uzatish. Bluetooth modul (masalan, HC-05): Mahalliy qurilmalar o'rtasida aloqa.

Avtomatik boshqarish uchun quyidagi tizimlar qo'llanilishi mumkin: Havoni isitish/sovutish tizimlari: Avtomatik boshqarish uchun relelar yoki SSR (Solid State Relay) orqali. Ventilyatorlar: Havoni aylantirish va namlikni kamaytirish uchun. Sxema fermadagi temperatura va namlikni boshqarish sxemasi:

1. Sensorlar: DHT22 (temperatura va namlik) va DS18B20 (qo'shimcha temperatura) o'rnatiladi.

2. Mikroprotessor: Arduino yoki Raspberry Pi sensorlardan olingan ma'lumotlarni qabul qiladi.

3. Aloqa moduli: ESP8266 yoki Bluetooth modul yordamida ma'lumotlar bulutga yoki mobil ilovaga uzatiladi.

4. Boshqaruv elementlari: Rele yoki SSR orqali isitish/sovutish tizimlari boshqariladi. Ventilyatorlar va boshqa uskunalar ham shu tarzda nazorat qilinadi. Temperaturani va namlikni simsiz boshqarish tizimi. Quyidagi sxemada temperatura va namlik sensorlari, mikroprotessor, aloqa moduli va boshqaruv elementlarining ulanishi ko'rsatilgan.

Uskunalar ro'yxati: DHT22 sensor (namlik va temperatura) Arduino UNO (yoki Raspberry Pi) ESP8266 Wi-Fi moduli (yoki HC-05 Bluetooth moduli) Rele moduli (isitish/sovutish tizimlari uchun) Qo'shimcha sensor (masalan, DS18B20, agar kerak bo'lsa) ulanish sxemasi

1. DHT22 Sensor VCC (Quvvat) → 5V Arduino GND (Zamin) → GND Arduino Data → Digital Pin (masalan, D2) Arduino

2. ESP8266 Wi-Fi Moduli VCC → 3.3V Arduino (diqqat: ESP8266 5V dan zarar ko'rishi mumkin) GND → GND Arduino TX (Transmit) → RX (Receive) Arduino (masalan, D3) RX (Receive) → TX (Transmit) Arduino (masalan, D4)

Rele Moduli: VCC → 5V Arduino GND → GND Arduino Control Pin (masalan, D5) → Control Pin rele moduli Isitish/Sovutish tizimi rele moduli bilan ulanishi kerak.

Qo'shimcha: DS18B20 Sensor (agar kerak bo'lsa) VCC → 5V Arduino GND → GND Arduino Data → Digital Pin (masalan, D6) Arduino

3. Ketma-ket ulanish

1. DHT22 sensorini Arduino bilan ulash.
2. ESP8266 moduli yordamida Wi-Fi tarmog'iga ulanish.
3. Rele moduli yordamida isitish yoki sovutish tizimini boshqarish.
4. Qo'shimcha sensorlar, agar ishlatilsa, kerakli pinlarga ulanishi.

Dasturlash Ushbu sxemani ulagandan so'ng, Arduino kodini yozish va kerakli kutubxonalarni (masalan, DHT, ESP8266) o'rnatish zarur.

Xulosa

Chorvachilik fermalarida temperatura va namlikni simsiz boshqarish, hayvonlarning sog'lom rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalarni qo'llash orqali fermerlar samarali boshqaruv tizimlariga ega bo'lib, resurslarni tejash va mahsuldorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Simsiz boshqarish uchun yuqorida keltirilgan sensorlar, mikroprotsessorlar va aloqa modullari samarali yechim hisoblanadi. Ushbu uskunalarni birlashtirish orqali optimal sharoitlarni yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "IoT-Based Smart Farming: An Overview" Muallif: A. Kumar, R. Gupta Manba: International Journal of Computer Applications (2020)
2. "Smart Agriculture: A Review on Technologies" Muallif: M. M. F. Khan, M. A. H. Mondal Manba: Journal of Agricultural Engineering (2021)
3. "Design and Implementation of Wireless Sensor Networks for Agriculture" Muallif: A. Mohammadi, R. F. A. Alavi Manba: IEEE Sensors Journal (2019)
4. "Smart Agriculture: The Role of IoT and Cloud Computing" Muallif: K. Singh, R. Thakur. Manba: Journal of Agricultural Science and Technology (2021)
5. "Temperature and Humidity Control in Livestock Housing" Muallif: J. Smith, T. Jones Manba: Livestock Science Journal (2020)
6. "Internet of Things (IoT) in Agriculture: Challenges and Opportunities" Muallif: M. R. Arshad, F. Alzubaidi Manba: Journal of Agriculture and Food Research (2021)
7. "Fundamentals of Wireless Sensor Networks for Agricultural Applications" Muallif: P. S. Kumar, N. R. Wagh Manba: Springer Publications (2018)

SHEROBOD TUMANI SUV RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA OQILONA FOYDALANISH

Suyunov Abdug'ani, o'qituvchi, "TIQXMMI" MTUning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
Fayzullayev Hasan Sadullo o'g'li, talaba, "TIQXMMI" MTUning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, hasanfayzullayev@gmail.com

Kirish. Suv tanqisligi muammosi bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tgani yo'q. Hozirgi kunda mamlakatimizning ko'plab hududlarida suv tanqisligi muammosi yuzaga kelmoqda, bunday muammolarni keng qamrovda avj olmasligi uchun hozirdan suvdan foydalanishda zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni amalda qo'llash talab qilinadi. Sherobod tumani ham qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirishi lozim.

Sherobod tumanining qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslarining ahamiyati juda kattadir tuman suvga bo'lgan ehtiyojini, asosan, Sherobod daryo tarmoq kanali orqali qondiradi. Shu bilan bilan birga, aholi iste'molidagi suvlarning asosiy qismi toza ichimlik suvlari sanaladi.

Sherobod tumani Qiziriq tumani dashtiga yaqin joylashganligi tuman tabiat kompleksiga ham ta'sir ko'rsatgan. Sababi, Qiziriq tuman dashtining sho'rlangan tuproqlari tuman yerlariga ham ta'sir ko'rsatgan.

Sherobod tumanining umumiy yer maydoni 2,73 ming km² tashkil qiladi, shundan, ekin maydonlari 57,9 ming gektarni tashkil qiladi, boshqa yer maydonlari 34,1 ming gektarni tashkil qiladi. Shu bilan birga, paxta maydonlari egallagan yerlar 29,9 ming gektar, g'alla maydonlari egallagan yerlar 24,1 ming gektar, boshqa ekin maydonlari egallagan yerlar 8 ming gektarni tashkil qiladi.

Sherobod tumanida meliorativ holati yomon bo'lgan yerlar ham kata maydonni egallaydi. Bunday yerlarning umumiy maydoni qariyb 170 gektarni tashkil qiladi. Meliorativ holati yomon yerlarni maydonining keng tarqalishiga asosiy sabab, yerlardan maqsadsiz va isrofgarchilik bilan foydalanish, Mirzacho'l dashti qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvning isrof qilinishi sabab bo'lmoqda.

Sherobod tumanida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvni tejamkorlik bilan ishlatish uchun bir qancha dasturli ishlarni amalga oshirish lozim.

Bularga: uzoq masofaga olib boriladigan suvni lotoklar yoki quvurlar yordamida amalga oshirish lozim.

Sababi, agar suvdan shunday yo'l bilan sug'orishda foydalanilsa suvni yerga shimilishining va bug'lanishining oldi olinadi.

Bundan tashqari, suv resurslaridan tadrijiy foydalanish uchun hokimlik tomonidan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqarilishi lozim. Hozirgi kunda suvga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda, biroq, suv resurslari esa kamayib bormoqda suvni ko'p talab qilinishi esa kelajakda aniq prognoz hisoblanadi. Chunki, mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, Sherobod tumanida aholi soni va uning ehtiyojlari yildan yilga ortib bormoqda, buning natijasida suv resurslariga bo'lgan talab ortib boradi. Kelajakda suv bilan bog'liq muammolar kelib chiqmasligi uchun suv resurslarini hozirdan tejash lozimdir.

Sherobod tumanida yer resurslaridan, asosan, quyidagi maqsadlarda foydalaniladi.

Anorchilik – 1500 gektar.

Bog'dorchilik – 2500 gektar.

Chorvachilik – 2200 gektar.

Parrandachilik – 150 gektar.

Baliqchilik – 120 gektar.

Boshqa yo'nalishlar – 456 gektar.

Kartoshka ekish rejasi – 500 gektar.

Sabzavot ekish rejasi – 300 gektar.

Tut ekish rejasi – 500 000 dona.

Yashil maydon bo'yicha daraxt ekish rejasi – 3 000 000 dona.

Yuqorida ko'rinib turibdiki, Sherobod tumanining katta qismi qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanish uchun aholiga xizmat qilmoqda. Demak suv resurslari ham shunga monand ravishda ko'p miqdorda sarf qilinadi. Suvdan tejab foydalanish kelajakda suv va boshqa muammolar yuzaga kelmasligi uchun qo'yilgan asosiy qadamdir.

Ushbu sohalarda suv ta'minotini Sherobod kanali orqali ta'minlab kelinmoqda. Sherobod kanali – Surxondaryo viloyatidagi magistral kanal. 1966 – yilda qurilgan. Umumiy uzunligi 27 km, bosh qismidagi suv sarfi 110 m³/sek.

Viloyatning Sherobod va Qiziriq cho'llariga suv uzatadi. Janubiy Surxon suv omborining o'ng qirg'og'ida qurilgan bosh suv olish inshootidan suv oladi. Kanal trassaning dastlabki 8 km

Surxondaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab va Toshko'priksoy o'zani tagidan 150 m uzunlikdagi 3 ko'zli (3 x 3,5 m) temirbeton quvurli dyuker orqali o'tadi. Quyiroqda kanaldan Qumqo'rg'on kanaliga 10 m³/sek.

60 – yillar oxirida uning 12 km da Sherobod cho'lidagi 80 ming ga dan ortiq yerni suv bilan ta'minlovchi nasos stansiyasi barpo etildi. 27 km da kanal chap va o'ng tarmoqqa bo'linadi. Kanalning chap tarmog'i Sherobod cho'lida yangi o'zlashtirilgan yerlarni sug'orishga xizmat qiladi. Uning o'zaniga beton to'shama yotqizilgan, uzunligi 29,6 km, suv sarfi 25 m³/sekundni tashkil etadi. O'ng tarmoq esa Sherobod daryo tizimidagi yerlarni suv ta'minotini yaxshilashga xizmat qiladi, uning uzunligi 76,6 km ni tashkil etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Sherobod tumanida bunyod etilgan magistral kanallar tuman iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Sherobod tumani doirasida suv muammosi yechimini topish maqsadida amalga oshirib kelinayotgan tadbirlar va barpo etilgan irrigatsion inshootlar daryo va soylar oqimini tartibga solib suv rejimini mumkin qadar maqsadga muvofiq o'zgartirdi, undan vegetatsiya davrida qishloq xo'jalik ekin maydonlarini sug'orishda keng va me'yoriy ravishda taqsimlash hamda foydalanish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi.

Sherobod kanalining qurilishi munosabati bilan Sherobod tumanidagi umumiy ekin maydonining yarmidan ko'pi yetarli darajada suv bilan ta'minlandi. Kanalning qurilib ishga tushirilishi natijasida Qiziriq-Sherobod cho'lida 28 ming gektardan ortiqroq yerlar o'zlashtirilib, qishloq xo'jaligi tasarrufiga kiritildi. Bundan tashqari ilgari foydalanib kelinayotgan 52 ming gektar yerning suv ta'minotini yaxshilash imkonini berdi. Yangidan o'zlashtirilgan yerlarda anorchilik, ingichka tolali paxta, don ekinlari, mevali bog'lar, uzum, sabzavotlar, poliz ekinlari ekilib, katta miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 10 - iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 - yillarga mo'ljallangan Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 6024 – sonli farmoni. Toshkent, 2020.
2. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. “O'zbekiston tabiiy geografiyasi”. –Toshkent, 2007
1. 3.Bakiev M., Majidov I., Nosirov B., Xojaqulov R., Yangiev A. “ Gidrotexnika inshootlari “
3. Sherobod tumani statistika qo'mitasi ma'lumoti. Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти. - Тошкент, 1996.
2. 6.Tursunov T., Bakiev M., “Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish”
8. www.ziyo.net.
9. www.uzstat.uz.

MOSH (PHASEOLUS AUREUS L) TURIGA MANSUB MAHALLIY VA XORIJIY NAMUNALARI URUG'LARINING LABORATORIYA SHAROITIDA UNUVCHANLIGI

Jumayeva Shahrizoda Islomovna, talaba,
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Dunyoning barcha davlatlarida oziq-ovqat xavfsizlik masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Respublikamizda dukkakli ekinlar yetishtirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106-son "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorida "qishloq xo'jaligi ekinlarichiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash va sabzavot, poliz, dukkakli, ozuqa va moyli ekinlarning mahalliy seleksiya navlari urug'chiligini yo'lga qo'yish" kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu borada dukkakli ekinlarning genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligini yo'lga qo'yish natijasida hosildor, tezpishar, qurg'oqchilikka chidamli yangi navlar yaratish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Dukkakli ekinlaridan loviya, no'xat, yasmiq, marjumak, mosh o'simliklarining inson organizmi uchun ahamiyat katta. Mosh o'z-o'zidan changlanuvchi o'simlik. O'sish davri 80-120 kun. Takroriy ekilgan paytida o'sish davri bahorgiga qaraganda 15-10 kunga qisqaradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda moshning 10 navi yetishtiriladi. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan mosh mahsuloti Avstraliya, Avstriya, Ozarbayjon, Afg'oniston, Belgiya, Buyuk Britaniya, Vyetnam, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Iroq Respublikasi, Eron, Qozog'iston, Qatar, Xitoy, Koreya, Qirg'iziston, Latviya, Mongoliya, Niderlandiya, BAA, Pokiston, Polsha, Rossiya, Tojikiston, Tayvan, Turkmaniston, Turkiya, Ukraina kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda. *Phaseolus aureus* L. bir yillik o'tsimon o'simlik. Ildizlaridagi tuganak bakteriyalar orqali o'simlik o'zini azot bilan ta'minlaydi. Mosh issiqqa talabchan o'simlik bo'lib, urug'lari 10-12°C da una boshlaydi. Moshning urug'lari 20-22° C da 4-5 kunda unib chiqadi. Bahorgi sovuqlarga chidamsiz. Yosh maysalari ham, katta voyaga etgan o'zsimliklari ham 1-2°C sovuqda nobud bo'ladi.

Mosh yorug'likka talabchan o'simlik hisoblanadi. Qurg'oqchil sharoitda o'sa olmaydi. Mosh biologik xususiyatlariga ko'ra tuproqqa nisbatan talabchan emas. Qora, bo'z, o'tloq bo'z, qumoq, soz, sal sho'rlangan tuproqlarda yaxshi o'sib rivojlanadi. O'tloq bo'z tuproqlar O'zbekistonda mosh uchun eng yaxshi tuproq hisoblanadi. Tuproq tarkibida oziq moddalar kam bo'lsa ham mosh ildizidagi tuganak bakteriyalar yordamida o'zini o'zi azot bilan ta'minlaydi. Respublikamizda ko'plab mosh navlari ekiladi. Jumladan, Durdona navi o'simlikning bo'yi o'rtacha 35-40 sm. Doni o'rtacha kattalikda, silliq. 1000 ta don vazni o'rtacha 64,0 g. O'rtacha don hosildorligi 23,8 sentner. Vegetatsiya davri o'rtacha 54 kun. Navning yotib qolishga chidamliligi 5,0 ball, to'kilishga chidamliligi 5,0 ball. Ta'm sifati yaxshi. Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hasharotlari bilan zararlanmagan. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda ekish uchun tavsiya qilingan. Turon navi: o'simlik bo'yi o'rtacha 150 sm., vegetatsiya davri o'rtacha 110-120 kun. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 2,6-dondagi oqsil miqdori 24 %. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda ekish uchun tavsiya qilingan. *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub mahalliy va xorijiy namunalari o'rtasida duragaylash amalga oshirilgan. Fiziologik ko'rsatkichlardan urug'larning unuvchanligi aniqlangan. Laboratoriya sharoitida olib borilgan tahlillar asosida mahalliy va xorijiy fasol namunalari urug'larini unuvchanligi yuqori bo'lishi qayd etilgan. *Fagopyrum esculentum* va *Phaseolus vulgaris* L. turlariga mansub namunalarda laboratoriya sharoitida urug' unuvchanligi yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan. Bu esa urug'larini unuvchanligi yuqori bo'lishi dala tajribalarini olib borish jarayonida yuqori samara berishi aniqlangan. Tajriba turli harorat darajalarida olib borilgan. Harorat ko'tarilgan sari urug'larda unish qobiliyati tezlashgan lekin

ko'p o'tmay murtaqlar nobud bo'lishi tajribalarda o'z tasdig'ini topgan. Tadqiqot ob'ekti sifatida Mosh (*Phaseolus aureus* L.) turiga mansub Xitoy-NC 17 376, Manjuriya-NC 17385, Afg'oniston -NC 33641, Xitoy-NC 17393, Vetnam-NC 17397, Vetnam-NC 32000, Tayvan-NC 33647, Hindiston-C 17388, O'zbekiston-NC 30068, Hindiston-NC 32172, Filippin -NC 32061 namunalari hamda mahalliy Turon va Durdona navlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Ma'lumki, o'simlik urug'larining unish quvvati, unuvchanlik darajasi ularda sodir bo'layotgan biokimyoviy va fiziologik jarayonlarning xususiyatlarini, unib chiqqan yosh maysalarning o'sish va rivojlanish tezligini belgilaydi. Ma'lumki, o'simlik urug'larining unish quvvati, unuvchanlik darajasi ularda sodir bo'layotgan biokimyoviy va fiziologik jarayonlarning xususiyatlarini, unib chiqqan yosh maysalarning o'sish va rivojlanish tezligini belgilaydi. Mamlakatimizni muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan agrar sohada urug'chilikni to'g'ri tashkil etish hosildorlikning garovi hisoblanadi. Bu esa xorijdan keltirilgan yangi o'simlik namunalari urug'chiligini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarimiz davomida mosh urug'larning unuvchanligiga haroratning ta'sirini o'rgandik. Asosiy tajribalar laboratoriya sharoitida termostatlarda o'tkazildi. Laboratoriya tadqiqotlarimizda bir yil ham saqlanmagan unuvchanligi yuqori bo'lgan urug'lardan foydalandik. Buning uchun Petri kosachalariga namlangan filtr qog'ozi ustiga mosh navlari urug'lari joylashtirildi va laboratoriya sharoitidagi maxsus termostatda turli haroratda Laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarimizdan olingan ma'lumotlardan aniqlandiki, past haroratda (220C) mosh urug'larining unib chiqish davri biroz uzayishi aniqlandi. Bu haroratda urug'lar ikkinchi kundan unishi kuzatildi. Xorijiy va mahalliy mosh namuna va navlarida namunalarda urug'larini laboratoriya unuvchanligi bir biriga yaqin ko'rsatkichlar qayd etildi. Masalan, Xitoy-NC 17 376, Vetnam-NC 17397, Filippin -NC 32061 namunalarda yuqori ko'rsatkich - 100,0% ni tashkil etdi (1-diagramma). Qolgan namunalarda urug'larning unuvchanligi 80-90 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Xitoy-NC 17393, Ozbekiston-NC 30068, Afg'oniston - NC 33641, Turon va Durdona namunalarda 80% qayd etildi.

Xulosa

Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, haroratning ortib borishi esa urug'larning dastlabki kundagi unuvchanligiga ijobiy ta'sir qilgan bo'lsada, keyingi kunlardagi unuvchanlikni biroz pasaytirishi va umumiy unuvchanlik ham biroz past bo'lishi kuzatildi. Mosh namunalari laboratoriya sharoitida urug'larini laboratoriya sharoitida unuvchanligi yuqori bo'lishi dala tajribalari olib borish yuqori samara berishi mumkinligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atabaeva X.M. Takroriy ekilgan moshning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi. "Agro ilm" jurnali", 2017 y, 12-son. 64 b.
2. Davronov K.S., Kuriyazova S.M., Allamuratov M. G'alla-don ekinlarining stimulyatorlariga toksikologik xarakteristika // Infektsiya, immunitet i farmakologiya.- Toshkent, 2014. -№4. -B.68-71.
3. Umirova, L. F., & Amanov, B. X. (2022). MOSH (*PHASEOLUS AUREUS*) O' SIMLIKLARINING BIOLOGIK

SHOLI URUG'LARIGA EKISHDAN OLDIN MAGNIT MAYDONI TASIRI ORQALI UNING UNUVCHANLIGI VA HOSILNI OSHIRISH

Eshpo'latov Nodir, dotsent,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti,
Najimov O'lmas Umid o'g'li, magistr,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti,

Sholi yetishtishtrishning dolzarbligi va zarurati. Sholi – Boshoqdoshlarga mansub bir va ko'p yillik o'simlik turkumi, don ekini. Sholikorlikning eng qadimiy makonlari Hindiston va Xitoy.

Sholining mevasi po'st (parda)li don; doni uzun, ensiz yoki dumaloq enli. Sholi bahorgi issiqsevar va yorug'sevar qisqa kun o'simligi, urug'i tuproq harorati 10-12 °C bo'lganda unib chiqadi, 22-27°C da yaxshi rivojlanadi. Vegetatsiya davri 120-130 (O'zbekistonda 100-145) kun, sholi sug'orib o'stiriladi. Doni (guruchi) oq, qizil, qora rangda, to'yimli, tarkibida 76,1% kraxmal, 17-24% amilaza, oqsil, qand, dekstrin, yog', vitaminlar bor. Donidan guruch, un, kraxmal, moy, spirt, pivo, turli ovqatlar tayyorlanadi. Poxolidan sifatli qog'oz, karton, arqon, to'qilgan buyumlar, savat, shlyapa va boshqalar tayyorlanadi.

Usul. Urug'larga qo'llanadigan magnit maydoni odatda doimiy magnit maydoni (statik) bo'lib, bu usul ko'proq mos keladi. Shu bilan birga, muqobil ravishda aylanuvchi (alternativ) magnit maydonlar ham qo'llanilishi mumkin, ammo natijalar xilma-xilligi sababli har doim sinovlar o'tkazish kerak. Sholi urug'lariga magnit maydoni ta'sirini qo'llash orqali uning unuvchanligi va hosildorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ba'zi muhim natijalar va tavsialarni beradi.

Natijalar va tahlil.

1. Amaliy fizik tajribalarning asosiy natijalari.

- Unuvchanlikning oshishi: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, magnit maydoni ta'siriga duchor qilingan sholi urug'lari an'anaviy urug'larga nisbatan tezroq va bir xil darajada unib chiqadi. Bu maydon urug' po'stlog'ini yumshatishi va suvning kirishini tezlashtirishi bilan izohlanadi.

- O'simliklar o'sishining faollashishi: Magnit maydon urug'larning biokimyoviy jarayonlarini rag'batlantirishi va fermentlar faolligini oshirishi mumkin. Bu urug'ning tez unishiga, kuchli ildiz tizimining shakllanishiga va ko'chatlarning sog'lom o'sishiga yordam beradi.

- Hosildorlikning oshishi: Magnitlangan urug'lar o'sish jarayonida mustahkam va sog'lom o'simliklar hosil qiladi, bu esa oxirgi hosildorlikni sezilarli darajada oshiradi. Ba'zi tajribalarda hosildorlik 10-15% ga oshgan.

2. Ilmiy tajribalarda kuzatilgan natijalar

- Sinov maydonlari: Tadqiqotlar odatda 2-3 ta nazorat guruhi bilan amalga oshiriladi: biri magnit maydoniga ta'sir qilmagan urug'lar bilan, ikkinchisi turli intensivlikdagi magnit maydoni bilan ishlangan urug'lar bilan. Sinovlar shuni ko'rsatadiki, magnitlangan urug'lar ancha yaxshi unadi va rivojlanadi.

- O'sish kuzatuv: Tajribalarda o'simliklarning dastlabki rivojlanish bosqichlari (ko'chat unib chiqishi, ildiz tizimi shakllanishi) va yakuniy bosqichda (hosildorlik, o'simlikning umumiy holati) natijalari o'rganiladi.

Xulosa

Amaliy tajriba natijalari Hindiston va Xitoyda o'tkazilgan tadqiqotlarda, magnit maydoni ta'sirida ishlangan sholi urug'lari hosildorlikni o'rtacha 12-15% oshirgani qayd etilgan.

Rossiyada o'tkazilgan bir tadqiqotda esa 200 mT magnit maydoni bilan ishlangan urug'larning hosildorligi 8-10% ga oshgan.

Tavsiyalar ishlab chiqildi.

- Tuproq va iqlim sharoitlari: Magnit maydon ta'siri iqlim va tuproq sharoitlariga qarab farqlanishi mumkin. Urug'larni ekishdan oldin tuproqning namligi, harorati va mineralligi ham hisobga olinishi kerak.

- Sinov tajribalari: Har qanday yangi texnologiyani joriy qilishdan oldin kichik maydonda sinov tajribalari o'tkazish tavsiya etiladi. Bu usul sizning mintaqangizga va sholi navlariga qanday ta'sir qilishini aniqlashga yordam beradi.

- Qurilmalar: Magnit maydon yaratish uchun maxsus laboratoriya yoki dala sharoitida ishlatiladigan qurilmalar kerak. Bu qurilmalar urug'larni bir tekisda magnit maydoniga ta'sir qildiradi.

- Maydon intensivligi: Ko'pgina tadqiqotlarda magnit maydoni 50-250 millitesla (mT) oralig'ida bo'lganida eng yaxshi natijalar kuzatilgan. Bu kuchli va o'rtacha magnit maydoni hisoblanadi, ammo juda yuqori yoki juda past intensivlik unuvchanlikka salbiy ta'sir qilishi mumkin.

- Ta'sir qilish muddati: Magnit maydoniga ta'sir qilish vaqti 5 daqiqadan 30 daqiqagacha o'zgarishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 15-20 daqiqa ta'sir qilish ko'pgina sholi navlari uchun optimal bo'lgan. Ushbu tavsiyalar va tadqiqot natijalari magnit maydoni orqali sholi hosildorligini oshirish uchun foydali usul bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Sinovlar o'tkazish va sharoitlarga moslashtirish bu texnologiyaning muvaffaqiyatini oshiradi. Magnit maydoni ta'sirida sholi o'simliklari odatda kuchliroq va ko'proq don hosil qiladi. Bu usul sholi yetishtirishda umumiy hosildorlikni oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1989; [Umarov](#) Z. U., Zaurov D. E., Kultura risa s peresadkoy, T., 1989
2. <https://www.agro.uz/sholi/>
3. Comparative analysis of the laboratory research results for pre-sowing electrical treatment of tomato seeds / E. Kuzmanov, I. Palov, N. Armyanov, K. Sirakov // Agricultural Engineering. Research Papers. 2010. V.42. N.4. pp. 60–70.
4. Khan, A. M., & Iqbal, M. (2014). "Effect of Magnetic Field on Germination and Growth of Plants." International Journal of Plant Research.
5. Narasimhan, A., & Ramesh, P. (2019). "Magnetic Field Treatment and Its Effect on Plant Growth: A Review." Asian Journal of Plant Science and Research.

6. Kumar, A., & Kumar, S. (2020). "Influence of Magnetic Field on the Germination of Seeds and Growth of Plants: A Review." International Journal of Current Microbiology and Applied Sciences.

ПРИМЕНЕНИЕ ЕСТЕСТВЕННОГО ХОЛОДА ДЛЯ ХРАНЕНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ

магистрант Ж.Т. Райимов,
Каршинский инженерно-экономический институт
д.ф.т.н., доц. Яхшибоев Ш.К.
Каршинский инженерно-экономический институт

Для длительного хранения сельскохозяйственной продукции в хранилищах обычного типа необходимо поддержание определенного температурно-влажностного режима. Анализ требований к температурному режиму хранения сельскохозяйственной продукции показывает, что температуру в хранилищах следует обеспечивать в пределах -1 до $+4^{\circ}\text{C}$.

Охлаждение естественным холодом будет происходить, только в те периоды, когда температура наружного воздуха опускается ниже -2°C . При этом здесь следует рассматривать влияние теплопроводности грунтового массива в период его активного охлаждения. Особенность этой задачи заключается в том, что промежутки времени между отключениями системы аккумуляции холода сравнительно небольшие [1,2].

Основные преимущества систем охлаждения использующей естественный холод перед традиционными холодильными системами, заключаются [1-4]:

- в экономии электроэнергии, воды, расходных материалов и снижении капитальных и эксплуатационных затрат;
- в обеспечении высокой надежности охлаждающих систем вследствие наличия запаса холода в аккумуляторах, простоте обслуживания и ремонта;
- в низкой себестоимости холода за счет уменьшения капитальных затрат и эксплуатационных расходов.

Задачу можно сформулировать следующим образом. Пусть в холодные периоды года с помощью вентиляционных установок в сооружение подается холодный воздух с температурой $t_n \leq 4^{\circ}\text{C}$. При $t_n > 4^{\circ}\text{C}$ вентиляционные установки отключаются. Начальная температура грунтового массива $t_{гр}$. Будем считать что имеет место интенсивного воздухообмена и при работе приточно-вытяжной вентиляции температура воздуха в сооружении равна температуре наружного воздуха $t_в = t_n$.

При условии $t_в < t_{гр}$ окружающий сооружение грунтовой массив будет охлаждаться, т.е. происходит аккумуляция холода. Если пренебречь влиянием на температурное поле грунтового массива углов сооружения, то данную задачу можно рассматривать как одномерную с неограниченным по оси x грунтовым массивом. Температура грунта в данной задаче будет функцией двух переменных координат x и времени τ т.е. $t(x, \tau)$ и должна удовлетворять дифференциальному уравнению вида [5,6]

$$\frac{\partial t(x, \tau)}{\partial \tau} = a \frac{\partial^2 t(x, \tau)}{\partial x^2} \quad (1)$$

где a - температуропроводность грунтового массива. На поверхности $x=0$ осуществляется теплообмен

$$-\lambda_{zp} \frac{\partial t(x, \tau)}{\partial x} = \alpha_g [t(0, \tau) - t_g] \quad (2)$$

где λ_{zp} - коэффициент теплопроводности грунта; α_g - внутренний коэффициент теплообмена.

Начальные условия при

$$t(x, 0) = t_{гр} \quad (3)$$

Решением системы (1-3) для безразмерной температуры

$$\theta(x, \tau) = \frac{t(x, \tau) - t_g}{t_{zp} - t_g}$$

служит функция [3]

$$\theta(x, \tau) = \operatorname{erf}\left(\frac{x}{2\sqrt{a\tau}}\right) + \exp(hx + h^2 a \tau) \operatorname{erfc}\left(\frac{x}{2\sqrt{a\tau}} - h\sqrt{a\tau}\right) \quad (4)$$

где $\operatorname{erfc} = 1 - \frac{2}{\sqrt{\pi}} \int_0^z e^{-\xi^2} d\xi$ - функция ошибок;

$h = \frac{\alpha_g}{\lambda_{zp}}$ - относительный коэффициент теплоотдачи.

Значение внутреннего коэффициента теплоотдачи α_g можно представить, как сумму конвективной и лучистой составляющих. Значение конвективной составляющей α_k определяется в зависимости от режима движения воздуха. Если подача воздуха осуществляется в одном торце сооружения, а вытяжка из другого его торца, то α_k можно определить из критериального уравнения вида [4]

$$Nu = 0,0195 Re^{0,8} \quad (5)$$

где $Nu = \frac{\alpha_k d}{\lambda_g}$ - критерий Нуссельта; $Re = \frac{wd}{\nu}$ - критерий Рейнольдса; λ_g -

теплопроводность воздуха; w - скорость движения воздуха; ν - кинематическая вязкость воздуха; d - характерный линейный размер.

За характерный линейный размер следует принимать эквивалентный диаметр по площади сечения сооружения. Что касается лучистой составляющей внутреннего коэффициента теплообмена, то как показали исследования, ее значение составляет

$$4 - 4,4 \frac{\text{ккал}}{\text{м}^2 \cdot \text{ч} \cdot \text{град}}.$$

Таким образом при работе приточно-вытяжной системы вентиляции осуществляется охлаждение грунтового массива и распределение температурной функции описывается решением вида (4). При этом температура поверхности определяется из решения (4) путем подстановки $x=0$.

$$\theta(0, \tau) = \exp(h^2 a \tau) \operatorname{erfc}(h\sqrt{a\tau}). \quad (6)$$

Следовательно, вторым членом в решении (4) при вычислениях можно пренебречь. При использовании вентиляционных установок для сквозного проветривания хранилища приточный наружный воздух может нагреваться в вентиляторах на 1,5-2⁰С. Это значит, что система вентиляции может работать на сквозное проветривание при температурах наружного воздуха от -3 до +2⁰С, кроме того на аккумулируемый холод оказывают влияние теплопритоки поступающие через ограждающие конструкции хранилища.

В теплый период года общий энергетический баланс хранилищ складывается из количества теплоты, поступающей во внутренний объем сооружения через покрытие $Q_{пок}$, от работающего оборудования $Q_{об}$ и за счет вентиляции теплым наружным воздухом $Q_{в}$. Таким образом запасы холода Q_x аккумулированные в окружающем грунтовом массиве должны компенсировать все эти теплопритоки.

$$Q_x = Q_{пок} + Q_{об} + Q_{в} \quad (7)$$

Количества холода, аккумулируемого грунтовым массивом в течении определенного промежутка времени, например, в течении времени наработки системы вентиляции на сквозное проветривание τ , определяется формулой

$$Q_s = Q_{s_0} - \frac{2\sqrt{\lambda\gamma c}}{\sqrt{\pi}}(t_{ep} - t_a)\sqrt{\tau}. \quad (8)$$

Количество теплоты, отдаваемой всей внутренней поверхностью ограждающих конструкций, будет равно

$$\Delta Q = \frac{2\sqrt{\lambda\gamma c}}{\sqrt{\pi}}(t_{ep} - t_a)S\sqrt{\tau}. \quad (9)$$

где $\sqrt{\lambda\gamma c}$ – коэффициент тепловой активности тела или коэффициент аккумуляции теплоты (холода); $t_{гр}$ - температура грунта; $t_{в}$ - температура воздуха; Q_{s_0} – количество холода аккумулированного до начало эксперимента; τ - время работы систем вентиляции; S - площадь внутренней поверхности стен и пола хранилища. Исходя из анализа выполненных расчетов по аккумуляции холода грунтовым массивом, окружающим хранилище, при работе систем вентиляции на сквозное проветривание можно сделать вывод:

-для Узбекистана при небольшой продолжительности стояния температур наружного воздуха ниже нуля градусов, запасов аккумулированного холода может оказаться недостаточно;

-зона грунтового массива, активно участвующего в теплообмене, сравнительно велика и по глубине достигает 2-2,5 м.;

-запасы холода не могут активно использоваться в теплые периоды года для определенных параметров воздушной среды в одном или нескольких помещениях хранилища. Систему обеспечения холодом в хранилищах со сквозным проветриванием следует отнести к так называемым “пассивным” системам.

Сегодня интерес к технологиям получения холода возобновляется в связи с необходимостью повышения требований по энергосбережению, энергоэффективности и освоению возобновляемых источников энергии. Природный холод отличается экологической чистотой, возобновляемостью и его получение не требует

значительных затрат энергии.

Литература

1. Волконович Л, Сырги В. Энергосберегающие, экологические системы естественного холода для хранения пищевых продуктов. Монография. – Кишинев, 2002, 334 с.
2. Узаков Г.Н, Яхшибоев Ш.К, Вардияшвили А.А, Мансуров А.А, Мамедова Д.Н. Математическое моделирование изменения температуры воздуха по вентиляционному каналу в подземных плодоовощехранилищах.// ФерПИ, 2020.Том 24,№1, 65-69 с.
3. Коршунов Б.П., Коршунов А.Б. Энергосберегающие технологии охлаждения и хранения сельскохозяйственной продукции. //Вестник ВИЭСХ. №1(30).2018.-с. 19-23.
4. Попель О. С Фрид С.Е, Тарасенко А.А. Анализ эффективности практического использования систем сезонного аккумулирования природного холода .// Естник Дагестанского центра. №49.-2013.-с. 19-26.

SUG'ORILADIGAN YERLARNI QISHLOQ XO'JALIK OBOROTIDAN CHIQIB KETISH SABABLARI

Qodirov Isomiddin Eshmo'minovich, t.f.f.d. (PhD),
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Kirish. Dunyo yer fondi 13,2 mlrd. gektarni tashkil etib, shundan 1,6 mlrd. gektari (12,0%) qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish uchun qulay yerlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning miqdori va sifati turli-tuman tabiiy hamda antropogen ta'sirlar oqibatida kamaygan. Shu sababli, dunyoning turli mintaqalarida holati yomonlashib qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketgan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Aholi tomonidan turmush kechirish uchun va qishloq xo'jaligida foydalanish maqsadlarida yangi yerlarni o'zlashtirish bilan birga yerlarning meliorativ holati buzilishi, eroziya, qurg'oqchilik, sho'rlanishning kuchayishi va yer osti suvlarining ta'siri, sanoat va transport qurilishlari, foydali qazilmalarning ochiq tarzda o'zlashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi yerlarining oborotidan chiqib ketishi jadallashib bormoqda. Shuning uchun yer fondining, shu jumladan, respublikamiz yer fondining asosiy muammosi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tartibga solishdan iborat bo'lmoqda [1; 25-26-b].

Natijalar va muhokama. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi yerlaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik, ularni tarmoq ichida va tarmoqlararo taqsimlash va qayta taqsimlashning samarasizligi, yerlarni noqishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun iqtisodiy, texnologik va ekologik asoslanmasdan ajratilishi va eng achinarlisi sug'oriladigan tuproqlar unumdorligining pasayib ketishi holatlari kuzatiladi. Ayniqsa yer maydonlarini optimallashtirishdagi kamchiliklar, ayrim fermer xo'jaliklari yetarlicha aylanma mablag'lar, zarur texnika va boshqa moddiy texnika resurslariga ega emasliklari qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga, shartnoma majburiyatlarini bajarilishiga va fermer xo'jaliklarining rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois ham yer resurslaridan foydalanish tizimini

tartibga solish mexanizmlarining istiqbolli tarkibiy elementlari va ilg'or texnologiyalarni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sube'ktlar manfaatlariga mos holda yaratish va tadbiiq etishi vujudga kelmoqda [2; 13-b].

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2022 yil 1 yanvar holati bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalar va tashkilotlarining soni respublika bo'yicha 116 977 ta bo'lib, ular foydalanadigan yerlarning umumiy maydoni 27 148,5 ming gektarni yoki Respublika yer fondining 60,5 %ni, qishloq xo'jalik yer turlari maydoni esa 22 116,1 ming gektarni, shundan sug'oriladigan 3 694,9 ming gektar yoki jami yer maydonining 8,23 %ni tashkil qiladi. Ushbu maydondan qishloq xo'jaligi yer turlarining maydoni 22 116,1 ming gektarni tashkil etadi [3]. Respublikamiz hududining 60,5 %ni qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar egallagan bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida ham sug'oriladigan ekin maydonlaridan to'g'ri foydalanmaslik oqibatida ularni boshqa yer turlariga o'tkazilishi, ichki xo'jalik qurilishlariga ajratilishi, sug'orish suvini dalalarga yetib bormasligi, meliorativ tarmoqlarni yaxshi ishlamasligi oqibatida ham sug'oriladigan ekin yerlarining maydonlari kamayib ketmoqda (1-rasm).



1-rasm. Sug'oriladigan ekin yer maydonlarini qishloq xo'jaligi oborotidan chiqish sabablari

Sug'oriladigan ekin yerlari maydonlarining kamayishida noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun yer ajratish jarayonlari bilan bir qatorda ekin yerlarining meliorativ holatini yomonlashuvi natijasida [4; 157-158-b] boshqa yer turlariga o'tkazilishi, ekin yerlarida daraxtzorlar barpo etilishi, sug'orish suvining yetishmasligi oqibatida surunkali foydalanilmaganligi sababli, boshqa yer turlariga o'tishi kabi tabiiy va antropogen omillar ham ma'lum o'rin tutadi.



2-rasm. Sug'oriladigan ekin yerlarini qishloq xo'jaligiga qaytarish bo'yicha tadbirlar

Holati buzilgan qishloq xo'jaligi yerlarini, xususan sug'oriladigan ekin yerlarini qaytarish tizimida ulardan oqilona va samarali foydalanish masalasi har doim ko'ndalang yuradi, aynan bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini oshirishga, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini taminlashga va oxir oqibatda aholining turmush darajasini oshirishga zamin yaratadi (2-rasm).

Yuqoridagi 2-rasmda aks ettirilgan tadbirlar majmuasini amalga oshirish sug'oriladigan ekin maydonlarining miqdorini oshirishga hamda ulardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishga imkoniyat yaratadi.

Bu borada qator yer tuzuvchi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida fikr yuritganlar. Masalan, S.Avezbayev [5; 15-16-b] har qanday yerdan foydalanish jarayonini tashkil etishni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirishda oqilona yerdan foydalanish muhim rol o'ynaydi deb takidlagan.

S.N.Volkov [6; 10-b] o'zining ilmiy chiqishlarida «...yerlardan oqilona foydalanish va muhofazasini tashkil etish davlatning yer siyosatidagi asosiy masala bo'lishi zarur. Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini taminlash hamda ekologik barqaror tabiatdan foydalanishga erishish zaruriyati sababli bu muammo ijtimoiy-iqtisodiy muammoga aylangan» degan yakdil xulosaga kelgan.

Xulosa

Sug'orilgan yer maydonlarining qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketish sabablari mutlaqo ko'p variantlar bo'lishi mumkin va ular bir-biridan farqli bo'lishi mumkin. Shu sabablarga qarab, bu muammolarni yechish uchun o'zaro ko'rsatma va ishlarni amalga oshirish kerak.

So'ngi 30 yil davomida respublika miqiyosida ekin maydonlarining kamayishi 153,6 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 155,2 ming gektarini sug'oriladigan ekin yerlari tashkil etib, har yili o'rtacha 5,1 ming gektar ekin yerlari maydonlarini qisqarganligi va aksincha ko'p yillik daraxtzorlar va bo'z yerlar maydonlari ko'payganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Narbayev Sh.K., Nematov I.N. Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holati va muammolari // «O'zbekiston zamini» ilmiy-amaliy va

innovatsion jurnal. - Toshkent: «O'zdavyerloyiha» DILI, 2021. - №3. - B. 25-26.

2. Usmonov J.Z. Xolati yomonlashib qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketgan bo'z yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishni ilmiy asoslash: Q.x.f.f.d. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2022. 13-b.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi. O'zbekiston Respublikasining yer fondi (2022 yil 1 yanvar holatiga) Toshkent-2022 y.

4. Abdullaev T.M., Turaev R.A., Inamov B.N., Abdullaeva M.T. The benefits of using modern technology in monitoring agricultural land // International journal of research culture society issn: 2456-6683 Volume - 3, Issue - 10, Oct – 2019 Monthly, Peer-Reviewed, Refereed, Indexed Journal Scientific Journal Impact Factor: 4.526., Publication Date: 2019. P - 157-158.

5. Avezbayev S.A, Организация рационального использования земельных ресурсов и значение землеустройства // «O'zbekiston zamini» ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. - Toshkent: «O'zdavyerloyiha» DILI, 2019. - №2. - B. 15-16.

6. Волков С.Н. Основные положения концепции современного землеустройства // Журнал «Землеустройство, кадастр и мониторинг земель». - Москва, 2010. - №5. - С. 10.

ULTRATOVUSH TO'LQINIDAN FOYDALANIB O'SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH ELEKTROTEXNOLOGIYASI

Eshpulatov Nodir Mamatqurbonovich, dotsent,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislik instituti”

Milliy tadqiqot universiteti

Xamidov Yusup Karimberdi o'g'li, assistant,

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

Kirish. Ultratovush to'lqinlaridan foydalanib zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish usuli nafaqat fermerlarni qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki hosildorlikni ham oshiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida hasharotlar zararli ta'sir keltirib chiqaradi. Zararkunanda hasharotlar ekinlarning nobud bo'lishi, shuningdek, ozuqa moddalari va oqsillarni ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin, bu esa inson salomatligi uchun xavf tug'dirishi mumkin [1]. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, ultratovush to'lqini zararkunandalarga qaytaruvchi ta'sir ko'rsatadi va shu bilan birgalikda ularning sonini kamaytiradi [2]. Amerika chivinlarga qarshi kurash assotsiatsiyasi ham, Federal Savdo Komissiyasi ham odamlarga ilmiy masalalar bo'yicha ultratovushli zararkunandalarga qarshi kurash qurilmasining samaradorligi zararkunandalar populyatsiyasiga tez va doimiy ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumot bergan [3].

Ultratovush to'lqini tebranish chastotasi 20 KHz dan yuqori bo'lgan chastota diapazonini belgilaydi. Odamlar bu ultratovush to'lqini tebranishini eshita olmaydi. Chunki inson quloq pardasi tez tebranmaydi, lekin hasharotlar bu ultratovush to'lqinini samarali tinglashi mumkin [4]. Ultratovush to'lqini hayvonlar va hasharotlarni qaytaruvchi salbiy va shovqinli muhit yaratadi [5]. Suvaraklar, o'rgimchaklar, qo'ng'izlar va hasharotlar ultratovush to'lqinini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan noyob tuklarga ega. Ultratovush

to'liqlarini tarqatuvchi qurilma odamlar va ekinlar uchun xavfli hayvonlar va hasharotlarni qaytarish uchun noyob spektrdagi ultratovush to'liqinidan foydalanadi. Biz ultratovush to'liqini chastotasini avtomatik ravishda o'zgartirish uchun sxemani ishlab chiqdik.


Tadqiqot materiallari va uslubi. Ultratovush to'liqinini tarqatuvchi qurilma uchta blokdan iborat bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Ultratovush to'liqlarini tarqatuvchi qurilma;
2. Harakat datchigi;
3. Arduino Uno platasi.

Ultratovush to'liqlarni tarqatish qurilmasi hasharotlarning selektivligiga qarab statik va dinamik diapazonda to'liqlarni hosil qiladi. Arduino Uno platasi quyidagi uch turdagi komponentlardan iborat:

1. Harakat datchigi;
2. Ultratovush to'liqlarini tarqatuvchi qurilma;
3. GSM-modul.

Natijalar va ularning tahlili. Ultratovush chastota moduli ultratovush to'liqlarini qaytaruvchi qurilmadan iborat bo'lib, ulardan biri ultratovush to'liqlarni chiqaradigan nurlatgichdir. Qurilma harakat datchigi harakatni aniqlaganda ultratovush to'liqinini chiqaradi, ultratovush to'liqini qurilma tomonidan tarqatilganda, segment yuqori darajadagi aloqani saqlaydi.




1-rasm. Ultratovush chastota moduli

Chiqarilgan ultratovush to'liqini oldinga siljiydi va keyin hayvonlar va hasharotlar tomonidan qabul qilinadi. Ular xuddi shu tarzda qaytib kelishi va uzatish vaqti mikrokontroller tomonidan qayd etiladi. Shunday qilib, ultratovush to'liqinining borish vaqti manba-ob'ekt-manbani ko'chirishdan oldin qurilmadan hasharotlar yoki hayvongacha bo'lgan vaqtning yarmini tashkil qiladi.

Qurilmani boshqarish oddiy bo'lgan Arduino kodi orqali amalga oshiriladi. Avval harakat datchigi Vcc harakat datchiklarini Arduino 5 V quvvat manbaiga ulab, harakat datchigini Arduino ga ulaymiz, keyin harakat datchigi erni Arduino erga ulaymiz va harakat kodini joylashtiramiz. Arduino raqamli kontakti 3 ga datchik va ultratovushli to'liqin qaytargichni Arduino kontakti 11 ga ulanadi va uni Arduino erga ulanadi.

Ultratovush modulini, harakat datchigu va ultratovush to'liqin tarqatgich qurilmani 8 ta kontakt yordamida Arduino ga ulanadi.



2-rasm. Arduino Uno bilan ultratovush moduli

Komponentlarni Arduino-uno platasiga ulagandan keyin kodni yuklash mumkin. Arduino-uno ga kodni yuklagandan keyin, Serial Monitor ga o'tib va istalgan tugma bosiladi. Keyin modul va ob'ekt orasidagi masofa ketma-ket monitorda ko'rsatiladi. Masofa va harakat tekshirilganda, ultratovush to'lqin tarqatgich qurilma ishga tushadi va hasharotlar va hayvonlarni qaytaradi, shuningdek, o'simliklarni zararli hasharotlar va hayvonlardan himoya qiladi.

Xulosa

Arduino asosidagi qishloq xo'jaligi monitoringi tizimidan foydalangan holda aqli tizimga ega ultratovush to'lqin tarqatgich qurilmasi qishloq xo'jaligidagi isroflarni kuzatishning ishonchli va samarali tizimi bo'lib xizmat qiladi. Ultratovush to'lqinlari orqali zararkunanda hasharotlardan himoya qilish tizimi o'simliklardan yuqori hosil olishni taminlaydi va arzon hamda elektr energiyasini kam iste'mol qiladi. Ultratovush to'lqinlari yordamida hasharotlar va zararkunandalarga qarshi vositalar fermer xo'jaliklari va omborlarni himoya qilish uchun samarali va ekologik toza echim hisoblanadi. ni taqdim etadi. Ular zararkunandalar uchun noqulay sharoitlarni yaratish uchun yuqori chastotali tovush to'lqinlaridan foydalanadi, bu ularni kimyoviy moddalardan foydalanishni kamaytirish imkonini beradi. Buning natijasida, ekinlar xavfsizligi va ekotizimni saqlash birinchi o'rinda turadigan qishloq xo'jaligi uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Yalcin, "Vision based automatic inspection of insects in pheromone traps," Agro-Geoinformatics (Agro Geoinformatics), Fourth International Conference on, Istanbul, pp. 333-338, 2015.
2. Bobojanov Yu.M. Eshpulatov N.M, Xamidov Yu.K. THE EFFECT OF ULTRASOUND ON THE HEALTH OF WORKERS Science and Education in Karakalpakstan. 2023 №4/1 ISSN 2181-9203

3. Subhodip Maulik, "Realization of low cost Bluetooth based visual sensor node for pest and disease detection in crops", International Journal of Emerging Technology and Advanced Engineering, Vol. 2, Issue 6, pp. 92-97, June 2012.
4. Potamitis, I., Ganchev, T., Fakotakis, N., "Automatic acoustic identification of insects inspired by the speaker recognition paradigm", In Interspeech, Pittsburgh, Pennsylvania, pp. 2126-2129, 2006.
5. [„Ultrasound scanners“](http://www.ob-ultrasound.net). www.ob-ultrasound.net.

SOYA O'SIMLIGI XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Shirinboyev Xudoynazarbek Tolib o'g'li, "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti 2-bosqich magistranti
Hasanova Xusnora Sahomiddin qizi, "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti 2-bosqich talabasi

Moyli ekinlar - bu qishloq xo'jaligida muhim o'simliklar hisoblanadi. Moyli ekinlar asosan yog' ishlab chiqarish uchun yetishtiriladi. Eng mashhur moyli ekinlar qatoriga kungaboqar, soya, paxta va zaytun kiradi. Moyli ekinlar oziq-ovqat sanoatida, shuningdek, kosmetika va farmatsevtika sohaslarida ham keng qo'llaniladi. Ular ko'pincha yuqori qishloq xo'jalik mahsuldorligiga ega bo'lib, fermerlar uchun yuqori hosil olishga zamin yaratadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotiga (FAO) ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha **324,5** mln gektar maydonda **21 turdagi 1101 mln tonna moyli ekinlar** yetishtiriladi. Ulardan asosiylarini **soya doni, paxta chigiti**, zaytun o'simliklari tashkil etadi. Bugungi kunda respublikamizda aholining moyga va chorvachilik tarmog'ini shrotga bo'lgan talabini qondirish maqsadida urug'ida ko'p miqdorda moy saqlovchi moyli **o'simliklardan kungaboqar, kunjut, soya, zig'ir**, kabi ekinlar yetishtirib kelinmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 14-martdagi "2017-2021-yillarda respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qaroriga asosan, yurtimizning barcha hududlarida soya o'simligi ekish va parvarish qilish bo'yicha ishlar ketma-ketligi hamda o'z sohasining ustalari bu jarajonlarga bosh bo'lishayotgani quvonarli hol. Soya ekish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 21 may kuni Andijon viloyatida Andijon tajribasi asosida ya'ni "G'o'za qator oralariga soya ekish bo'yicha Andijon tajribasini yo'lga qo'yish" ko'rsatma berilgan edi, ushbu uchrashuvda davlatimiz rahbari ushbu so'zlarni ta'kidlagan edilar "Fermer dalaga reja uchun emas, daromad uchun kirishi kerak. Soya ekilsa, bitta maydondan ikki barobardan ziyod daromad olish, yana ko'proq odamlarni ish bilan ta'minlash mumkin. Undan olinadigan moy ham, omixta yem ham juda sifatli, bozorbop. To'g'ri, bu qiyin. Lekin qaysi ish oson?".

E'tiboringizni tortadigan jihatlardan biri shuki, dunyoning ilg'or davlatlaridan Braziliya o'z iqtisodiyotini yaxshilashida soyachilikni o'rni g'oyatda katta bo'ldi. Har yili ushbu davlatda 33 milliondan oshiq gektarlarda soya ekini parvarish qilinib o'rtacha 31 sentner hosil yig'ishtirib olinadi. Avvalo, uning doni tarkibida 50 foiz oqsil, 28 foizgacha moy bo'lib, oziq-ovqat sanoatida muhim xom ashyo hisoblanadi. Bundan tashqari, soyaning sanoat, texnika, chorvachilikni rivojlantirishda ham roli katta. Undan sovun, lok-bo'yoq, plastmassa, plyonka ishlab chiqarishda, kimyo, to'qimachilik sanoatida keng foydalaniladi. Qimmatli ozuqa ekanligi

esa uning ahamiyatini yanada oshiradi. Chunonchi, soyadan shrot, kunjara olinadi. Yashil poyasi chorva uchun to'yimli oziqadir. Xullas, soyadan 400 dan ortiq xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ular orasida eng qimmatlisi oqsildir. Agar dunyo bo'yicha oqsil manbaining 32 foizi chorva mollari ulushiga to'g'ri kelsa, qolgan 68 foizi o'simliklardan, shu jumladan, 55 foizi soyadan olinadi. Shu sababdan hozirgi kunda oqsil tanqisligini bartaraf etishda soya katta ahamiyat kasb etmoqda. Doni tarkibida 45 foizgacha oqsil va 25 foizgacha yog', 40-45 foizgacha uglevodlar, vitaminlar, ma'dan moddalar mavjud. Soya ham g'o'zaga o'xshab tik o'sadi, bo'yining balandligi navlariga qarab o'zgaradi va 50 santimetrdan 2 metrgacha bo'ladi. Paxta orasiga ekilganda, albatta, ertapishar, o'sish davri 70-85 kun bo'lgan, past bo'yli g'o'za navlari tanlab olinadi. Soya ildizi g'o'za ildiziga o'xshab o'q ildiz bo'ladi, barglari ham sathi kattaligi bilan bir-biriga o'xshash.



Vatani Janubi-Sharqiy Osiyo hisoblanadi soya o'simligi miloddan avvalgi 1100-yillarda xitoylik fermerlar tomonidan madaniylashtirilgan. Soya o'simligi 1870-yilda Qozog'iston hududiga u yerga ko'chib kelgan Sharqiy xitoyliklar bilan kirib kelgan bo'lsada, O'zbekiston hududiga esa dastlab 1967-yildan ekilgan. Soya inson va hayvonlar iste'mol oqsilining muhim manbaiga aylanib ulgurgan muhim qishloq xo'jaligi ekinlaridan biri hisoblanib, statistik tahlillarga ko'ra bugungi kunda dunyo bo'yicha yetishtirilgan soyaning 85 foizi chorva ozuqasiga va qolgan 15% bevosita inson iste'moli uchun yo'naltiriladi. Yana bir jihatni e'tirof etish kerakki, chorvachilikda sifatli va to'yimli ozuqa hisoblanib, 100 kg soya doni 134,8 ozuqa birligi saqlaydi. Bu ko'rsatkich boshqa bironta donli, dukkakli yoki moyli ekinlarda uchramaydi. Agrotexnologik jarayonlarda eng muhimi soya o'simligi yetishtirish yerning meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish xususiyatiga ega bo'lib, almashlab ekishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo'yicha har yili o'rtacha 334 mln tonna soya yetishtiriladi, shundan Braziliya (114 mln tn), AQSH (97 mln tn) va Argentinaning (55 mln tn) ulushi qariyb 80 foizni tashkil etadi. So'ngi yillarda dunyo miqiyosida soya doniga bo'lgan talabning oshishi uning ishlab chiqarish hajmlari dunyo bo'yicha so'nggi 30 yilda 3 barobar yoki 108 mln tonnadan 334 mlntonnaga ko'paygan.. Ilmiy tajribalar asosida o'rganilgan manbalarga asosan soya ekilgunga qadar tuproqdagi gumus miqdori 0,65-0,72 foiz bo'lgan bo'lsa, soya ekilgandan keyin kuzda gumus miqdori 0,95-1,03 foizga etadi. Bugungi kunda yurtimizda soyaning "Baraka", "Viktoriya", "Genetik-1", "Gratsia", "Do'stlik", "Nafis", "Orzu", "Oltin toj", "Oyjamol", "Sochilmas", "Ustoz", "Parvoz", "Favorit" kabi navlari ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari davlat reestriga kiritilgan.

Soya oqsilidan ipakchilikda ham ozuqa sifatida foydalaniladi. Masalan, Yaponiyada bir yilda besh martagacha ipak qurti boqiladi. Bunda, soya oqsilidan suyultirilgan pastalar tayyorlanib qurtlar oziqlantiriladi. Bu o'simlik tuproq unumdorligini oshirish borasida ham eng muhim ekinlardan biridir. Soya dukkakli o'simlik sifatida o'z ildizlari orqali havodan sof azotni o'zlashtirib oladi va tuproqni azot bilan boyitadi. Soya bugungi kun dehqonchiligida eng muhim ekin bo'lib, tuproq strukturasi yaxshilab, biologik unumdorlikni oshiradi, o'zidan keyin tuproqda 55-60 kg. miqdorda sof azot qoldirib ketadi. Soya ekilgan dalalarda tuproqning mikroflorasi yaxshilanadi, tuproqda biologik va ekologik tizim vujudga keladi. Chuvalchanglar va boshqa foydali organizmlar yashashi uchun qulay muhit yuzaga keladi. Ertapishar navlarni o'suv davri 70-75 kun bo'lsa, o'rtapishar navlar 100 -110 kun va kechpishar navlari esa 135-140 kunda pishib yetiladi. Qaysi muddatda ekilishiga qarab navlar tanlanadi. Kechpishar navlarni takroriy ekib bo'lmaydi, ular takroriy ekilganda pishib yetilmaydi. Bu hollarda ularni silos yoki ko'k poya sifatida o'rib mollarga berish mumkin bo'ladi. Soya navlari ekish me'yori gektariga 60-70 kg bo'lib, qator oralari 70 sm. kenglikda ekilishi maqsadga muvofiqdir. Qator orasi 90 sm. bo'lganda tup soni kamayishi evaziga hosildorlik kamayib ketadi. Ekish pnevmatik seyalkalarda amalga oshirilib, urug'lar tuproqning tarkibiga qarab 4-6 sm. chuqurlikka tashlanadi va urug' suvi beriladi. Tup soni bir gektarda 400, 500, 600 ming, tup bo'lishi o'rganilmokda. O'suv davrida 2-3 marta kultivatsiya o'tkaziladi.

Dehqonchilikda eng asosiy agrotexnik tadbirlardan biri o'simlikning o'sib-rivojlanish davrida uning qator oralariga ishlov berishga katta ahamiyat berish lozim. Ekish muddati O'zbekistonda o'tkazilgan tajribalar ning ko'rsatishicha, tuproq harorati 16-18 °C qiziganda ekilganda urug'lar bir tekis qiyg'os, qisqa davrda unib chiqadi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida soya aprelning Birinchi yarmida, Samarqand, Toshkent, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida aprelning ikkinchi yarmida ekiladi. Ang'izga yoki ertangi sabzavotlardan bo'shagan maydonlarga iyunda ekiladi. Qashqadaryoda o'tkaziladigan tajribalarda soya 20-30 iyunda ekilganda iyulning 10-15 sanasida ekilganga nisbatan 3-4s/ga ko'p hosil olingan. Soya hosildorligi juda erta, o'ta kech va takroriy ekilganda bahorda eng maqbul muddatda ekilgandagina nisbatan kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 martdagi "2017-2021 yillarda Respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori.
2. Sh.M.Mirziyoyevning "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
3. Sh.M.Mirziyoyevning "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi", "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b
4. Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853- sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019 y.,
5. "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari" mavzusidagi professor-o'qituvchilar hamda doktorantlar tomonidan taqdim etilgan materiallar to'plami II-qism 2022-yil, 12-14-may

6. R.Oripov, N.Xalilov - "O'simlikshunoslik" Samarqand, 2007.
7. O'.Ahmedov, A.Ergashev va boshqalar "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi". Darslik. "Tafakkur-bo'stoni". Toshkent-2018 yil. 224 bet
8. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. "O'simlikshunoslik" Toshkent - "Fan va texnologiya" 2018 yil.
9. <https://www.agro.uz/moyli-ekinlar-oziq-ovqat-xavsizligini-ta-minlash-asosi/>
10. <https://agro-olam.uz/soya-farvonlikka-eltadigan-ziroat/>
11. <https://yuz.uz/uz/news/qosh-ekinning-qosha-qosha-foydasi-bor>
12. <https://www.samdu.uz/uz/news/46402>
13. Internet saytlari

ULTRABINAFSHA NURLARINING MEVALI O'SIMLIKLAR VA SHIRA HASHAROTIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Bayzakov Tohir Mirzanovich, t.f.n., dotsent,
Yusupov Sharof Bo'ronovich, Ph.D,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot unversiteti
Xolmirzayev Ilhom Jummayevich, assistent
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,
xolmirzayevilxom83@gmail.com

Kirish. O'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish huquqiy holatining tushunchasi o'simlik dunyosi tabiat obektlari ichida alohida va muhim o'rinni egal-laydi. O'simlik dunyosining tabiiy obektlar orasidagi tutgan o'rni uning tabiat va jamiyat hayotidagi ahamiyati, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi, uzviyligi ham-da munosabatidagi rolikdan kelib chiqadi. O'simliklar zararkunandalari va kasalliklari keltirgan zarar juda ko'p:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, global yo'qotishlar har yili dunyodagi potentsiali oziq-ovqat ekinlari hosilining taxminan 20-25% ni tashkil qiladi. Ekinlarga eng katta zararni hasharotlar keltiradi, bu birinchi navbatda ularning biologik xususiyatlari, turlarining ko'pligi va ko'payish tezligi bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligi uchun zararli hasharotlar tizimli printsiplari ularning ovqatlanish tabiati bo'yicha tasniflanadi. Shunday ekan yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi borasida olib borilayotgan izchil islohatlar davomiyligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hasharot va turli xil kasalliklardan himoya qilishda energiya tejankor va atrof muhitga zararsiz usullardan foydalanish haqida so'z yuritamiz.

O'simliklar ultrabinafsha nurlarga nisbatan sezgirligida sezilarli darajada farq qilishi mumkin. DNKning shikastlanishi, fotosintezda ishtirok etadigan oqsillarning parchalanishi, xloroplastlar funksiyasining buzilishi, xlorofill va karotinoidlarning yo'q qilinishi bunday oqibatlar 280-400 nm to'lqin uzunligidagi nurlanish uchun xosdir.

Shuning uchun biz o'tkazgan tajribalarimizda yuqorida ta'kidlangan ultrabinafsha nurlanishining eng qisqa 100-280 nm to'lqin uzunligidagi UB-C zonasi bilan ish olib bordik, natijada o'simlikdagi shira hasharotining nobud bo'lishiga erishildi.

Umuman olganda ultrabinafsha nurlardan ko'z va teri sohasini himoya qilish talab etiladi, ushbu jihatdan kelib chiqadigan bo'lsak hasharotlarning ham aynan ko'ziga ta'sir etishi

natijasida ularni nobud qiladi. Bu tajribalarni 3 ta variant (vaqt oralig'i) da sinab ko'rilgan, ya'ni 10 daqiqa, 15 daqiqa va 20 daqiqa. Tajribalar natijasiga ko'ra 20 daqiqalik ultrabinafsha nur ta'siri natijasida shira hasharoti butunlay nobud bo'lib, o'simlikga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmadi.

Xulosa

1. Hozirgacha dala va issiqxonalarda zararli hasharotlarga qarshi kurashda agrotexnik, biologik va kimyoviy usullardan keng foydalanib kelinmoqda, bu usullardan foydalanishda ba'zi bir kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Misol uchun kimyoviy petsititlarni qo'llash orqali o'simlik tanasida, uning mevasida va tuproqda zaharli kimyoviy moddalarning oz miqdorda bo'lsa ham qolib ketishi natijasida ularni iste'mol qilish orqali va atrof muhitga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

2. Kelajakda biz, albatta, ushbu usulga ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak, chunki bu epigenetik mexanizmlarning o'simliklar immunitetini boshqarishdagi roli haqida dalillar ortib bormoqda. Biroq, qo'shimcha tekshiruv hali ham talab qilinadi. Kuzatishlarimizni tasdiqlash uchun hali ham dala sinovlari zarur.

UB nurlatgichlaridan foydalanilganida o'simliklarni va ularning ko'chatlarini yetishtirish jarayonida zararkunandalardan asrash hisobiga qishloq xo'jaligi ekinlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi, bu esa taklif etilgan elektrotexnologiyani qishloq xo'jaligida tatbiq etish mumkinligi ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Aarrouf J va Urban L. "UB-C nurlarining chaqnashlari: o'simliklar himoyasini rag'batlantirishning innovatsion usuli". PLoS ONE 15.7 (2020): e0235918.
- [2]. Gazalov V.S. "Bog'larni zararkunanda hasharotlardan elektro-optik himoya qilish". Mavzusidagi t.f.d. dissertatsiyasi..
- [3]. Loconsole D va Santamaria P. "Bog'dorchilikda UB yoritish: ishlab chiqarish sifati va oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash uchun barqaror vosita". Bog'dorchilik 7.9 (2021): 1-13
- [4]. Meyer P. va boshqalar. "UV- B nuri va uni ekinlarda kasallik va zararkunandalar tarqalishini kamaytirish uchun qo'llash potentsiali". "Bog'dorchilik tadqiqotlari" 8.194 (2021): 1-20
- [5]. Vanhaelewyn L., va boshqalar. "O'simlikning ultrabinafsha nurlanishi", "Spektiv: o'simlik-mikroorganizm konteksti". "O'simlikshunoslikdagi chegaralar" 11 (2020): 597642.
- [6]. Bayzakov T.M., Bozorov E.O., Yusupov Sh.B. The importance of electrical treatments for almond diseases. (2018)
- [7]. Bayzakov T., Yusupov Sh., Xolmirzayev I. "O'simlik zararkunandalariga ultrabinafsha nurlari bilan qarshi kurashish usullarini tadbiq etish". "Fan va texnologiyalar taraqqiyoti" Ilmiy-texnikaviy jurnal №4/2024.

O'SIMLIK SHIRA HASHAROTIGA QARSHI KURASHISH CHORA TADBIRLARINING ELEKTROTEKNOLOGIK SAMARADOR USULI

Xolmirzayev Ilhom Jummayevich, assistent, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti xolmirzayevilxom83@gmail.com

Kirish. O'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish huquqiy holatining tushunchasi o'simlik dunyosi tabiat obektlari ichida alohida va muhim o'rinni egal-laydi.

O'simlik dunyosining tabiiy obektlar orasidagi tutgan o'rni uning tabiat va jamiyat hayotidagi ahamiyati, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi, uzviyligi ham-da munosabatidagi roldan kelib chiqadi. O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilish tizimida beshta asosiy usul mavjud: agrotexnik, mexanik, biologik, kimyoviy. va elektrofizik usullari Ilmiy-texnika taraqqiyotining turli bosqichlarida zararkunandalarga qarshi kurashning umumiy majmuasida ushbu usullarning roli sezilarli darajada o'zgardi. Shu jumladan eng ko'p qo'llaniladigan kimyoviy usul ancha samarali usul hisoblanadi, lekin zararkunandalarga qarshi kimyoviy moddalar yomg'ir bilan yuvilgan va atrof-muhit ta'sirida buzilib ketadigan suvli eritmalardir.

Bu usul samaradorlikni sezilarli darajada pasaytiradi va himoya choralari o'tkazish uchun qo'shimcha xarajatlarga olib keladi va shu bilan birga kimyoviy moddalarning ma'lum bir qismi o'simlik tanasi va mevalarida qolib ketadi, bu esa inson organizmiga salbiy ta'sir yetkazib har xil kasalliklarning kelib chiqishiga olibkelishi mumkin. Shuning uchun yuqorida keltirib o'tilgan usullarning elektrofizik usulini amaliyotda ko'proq qo'llanilishi haqida so'z yuritamiz.

So'ngi yillarda iqlim o'zgarishlari va boshqa tabiiy sharoitlardan kelib chiqib O'rta Osiyo va O'zbekiston xududlarida o'simlik dunyosi zararkunandalarining yangi turlari paydo bo'lgan. Hozirgi vaqtda petsitlarni iste'mol qilishning kamayishi va himoya choralari ko'rish vaqtini bashorat qilishning markazlashtirilgan tizimining buzilishi tufayli yo'qotishlar oshdi. Ulardan himoyalani uchun yangidan yangi ilmiy yechimlar topish kerak.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalari va kasalliklaridan himoya qilish eng dolzarb muammo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tizimida zararkunanda hasharotlar, turli xil kasalliklar va begona o'tlar hisobiga har yili olinadigan hosilning taxminan 40% dan ko'proq qismi yo'qotiladi.

Olib borilayotgan ilmiy ishda sanab o'tilgan hasharotlarga qarshi kurashish usullaridan texnik, mexanik, biologik va kimyoviy usullari bilan birgalikda elektrofizik usuldan foydalanish, ya'ni zararkunanda hasharotlarga ultrabinafsha nurlar bilan ta'sir etishning bir nechta samaradorliklari haqida so'z yuritiladi va shu o'rinda kimyoviy petsitlar (fosfor, tiofosfor, ditiofosfor va boshqalar) bilan ishlov berilganda o'simliklar va tuproq tarkibida ularning qoldiq miqdorlari va parchalanish vaqtlari haqida so'z yuritiladi.

Ukraina o'simliklarni himoya qilish ilmiy - tadqiqot instituti olimlarining tuproq va olmada petsit qoldiqlari ustida olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, tuproq va olmalarda ishlov berishdan 20 kun o'tgach, olmada metafosning tarkibi 0,1 va 0,3 mg/kg ni, tuproq tarkibida esa 0,1 mg /kg ni tashkil qilishi aniqlangan.

Hozirgi vaqtda qo'llaniladigan zararkunandalarga qarshi kimyoviy moddalar yomg'ir bilan yuvilgan va atrof-muhit ta'sirida buzilib ketadigan suvli eritmalardir.

Bu usulning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi va himoya choralari o'tkazish uchun qo'shimcha xarajatlarga olib keladi.

Misol uchun kimyoviy petsit (FOSKORD 10%, ALPAC100 EC 10%) preparatlar bilan ishlov berilgandagi iqtisodiy tomondan sarf xarajatlarni 1 gektar bog' misolida knizatsiya xaralo'rib chiqamiz. Ushbu kimyoviy preparatlarni qo'llash 3-4 yillik daraxt ko'chatlarida 1.5l/ga sarflanadi, bu hozirgi narxda $1.5l \cdot 500000 = 750000$ so'mni va yana mexanizatsiya xarajatlarini qo'shib hisoblash bilan ushbu raqamlar yanayam ko'payishi hamda atrof muhitda, o'simlik va uning mevalarida zararli moddalarning qolqiqlari qolib ketishi mumkin.

Ana endi biz yuqorida soʻz yuritgan elektrofizik usulni tahlil qiladigan boʻlsak qurilma oddiy tuzilishi ega, 50 dona oʻzgaruvchan tok (220v) da ishlash vaqti 30000 soat ishlovchi 18 vattli ultrabinafsha (ultrafioletiviy) chirogʻi yordamida himoya koʻzoynagi bilan taxminan 10-12 soatda bir gektar maydonga ishlov berish mumkin. Bu qurilmadan foydalanishimiz uchun ketadigan sarf-xarajatlarni quyidagi jadaval orqali hisob-kitob qilamiz.

Qurilma soni	Quvvati (vt)	Ishlash vaqti (soat)	Elektr energiya narxi (1 kvat) soʻm	Qurilma narxi (dona) soʻm	Ishlov berish maydoni (ga)	Umumiy xarajatlar (soʻm)
50	9000	10	1000	60000	1	30009000

Hisob-kitob natijalaridan koʻrish mumkinki, elektrofizik usulni iqtisodiy ham ekologik jihatdan juda samarali usul deb hisoblash mumkin, chunki kimyoviy usul bilan ishlov berishda bir mavsumda 4-5 marta ishlov beriladi, sababi shira hasharoti bahor oyining 20- mart sanasidan may oyining oxirigacha (harorat 30C° dan oshib yomgʻir mavsumi kamayishi) davom etadi. Shu bilan birgalikda shira kasalligi oʻsimliklarga kuz oylarida ham zarar keltiradi.

Xulosa Hozirgacha dala va issiqxonalarda zararli hasharotlarga qarshi kurashda ultrabinafsha nurlanishidan foydalanishda istiqbolli natijalarga erishish mumkin.

Kelajakda biz, albatta, ushbu usulga koʻproq eʼtibor qaratishimiz kerak, chunki bu epigenetik mexanizmlarning oʻsimliklar immunitetini boshqarishdagi roli haqida dalillar ortib bormoqda. Biroq, qoʻshimcha tekshiruv hali ham talab qilinadi. Kuzatishlarimizni tasdiqlash uchun hali ham dala sinovlari zarur. UB nurlatgichlaridan foydalanilganida oʻsimliklarni va ularning koʻchatlarini yetishtirish jarayonida zararkunandalardan asrash hisobiga qishloq xoʻjaligi ekinlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi, bu esa taklif etilgan elektrotexnologiyani qishloq xoʻjaligida bemaol tatbiq etish mumkinligi koʻrsatadi.

1. Juda koʻp mahalliy dehqonlarimiz ochiq maydonlarda ertachi va bogʻlarda sifatli mahsulot yetishtirish foydasini biladi. Ammo ayrim fermer va aholi tomorqa egalari uchun energo-resurstejamkor texnologiyalarni qoʻllash boʻyicha maʼlumot va tajriba yetishmovchiligi mavjud.

Ushbu loyihani kelajakda tajribali dehqon va fermerlarimiz va boshqa foydalanuvchilarimiz fikr-mulohazalari hamda takliflari asosida yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Aarrouf J va Urban L. "UB-C nurlarining chaqnashlari: oʻsimliklar himoyasini ragʻbatlantirishning innovatsion usuli". PLoS ONE 15.7 (2020): e0235918.
- [2]. Gazalov V.S. "Bogʻlarni zararkunanda hasharotlardan elektro-optik himoya qilish". Mavzusidagi t.f.d. dissertatsiyasi..
- [3]. Loconsole D va Santamaria P. "Bogʻdorchilikda UB yoritish: ishlab chiqarish sifati va oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash uchun barqaror vosita". Bogʻdorchilik 7.9 (2021): 1-13
- [4]. Meyer P. va boshqalar. "UV- B nuri va uni ekinlarda kasallik va zararkunandalar tarqalishini kamaytirish uchun qoʻllash potentsiali". "Bogʻdorchilik tadqiqotlari" 8.194 (2021):
- [5]. Vanhaelewyn L., va boshqalar. "Oʻsimlikning ultrabinafsha nurlanishi", "Spektiv: oʻsimlik-mikroorganizm konteksti". "Oʻsimlikshunoslikdagi chegaralar" 11 (2020): 597642.

[6]. Bayzakov T.M., Bozorov E.O., Yusupov Sh.B. The importance of electrical treatments for almond diseases. (2018)

[7]. Bayzakov T., Yusupov Sh., Xolmirzayev I. "O'simlik zararkunandalariga ultrabinafsha nurlari bilan qarshi kurashish usullarini tadbiq etish". "Fan va texnologiyalar taraqqiyoti" Ilmiy-texnikaviy jurnal №4/2024.

KARTOSHKKA YETISHTIRISHNING AHAMIYATI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Qodirov Uchqun Ilxomovich, t.f.f.d., dotsenti,
Shirinboyev Xudoynazarbek Tolib o'g'li, magistr,
Mo'minov Fayruz Umid o'g'li, talaba,
"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Kartoshka ko'plab vitaminlar, minerallar va uglevodlar manbai bo'lib, millionlab odamlar uchun asosiy oziq-ovqat hisoblanadi. U inson organizmiga energiya hamda turli sog'liq muammolarini bartaraf etishda yordam beradi. Uning eksporti iqtisodiy daromadlarni oshiradi va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun foyda keltiradi. Kartoshka ekinlari qishloq agrotexnik amaliyotlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bunga sabab esa kartoshkani yig'ishtirish murakkab va katta mehnat talab qilinadigan jarayondir. Uni yetishtirishdagi barcha mehnat harajatlarning 45-60% qismi yig'ishtirishga to'g'ri keladi. Shuning uchun yuqori ish unumdorligiga ega bo'lgan va iqtisodiy foyda beradigan kombaynlarni yaratish qishloq xo'jaligi mashinasozligi oldida turgan vazifadir. Yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash iqtisodiy samaradorlik va mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi, bu esa birinchi navbatda aholiga sifatli hosil olish imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, bu jarayon ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanish orqali qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishni rag'batlantiradi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonlari yanada samarali va iqtisodiy jihatdan foydali bo'ladi. Kartoshka mahsuloti tuproqni oziqlantirish va agroekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Kartoshka xalqaro savdoda muhim mahsulotlardan biri hisoblanadi. U mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi va global oziq-ovqat ta'minotida o'z o'rnini egallaydi. Kartoshka turli millatlarning oshxonalarida keng tarqalgan bo'lib, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega. U turli xil taomlarda ishlatilishi bilan birga, xalq madaniyatining ajralmas qismi sifatida tan olinadi. Kartoshka xalq xo'jaligida oziqlanishdan tortib iqtisodiy rivojlanishgacha bo'lgan ko'plab jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Uning ahamiyati nafaqat qishloq xo'jaligi, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ham muhimdir. Kelajakda kartoshka ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlarida innovatsion yondashuvlar orqali uning ahamiyatini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Kartoshka yetishtirishning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari innovatsion texnologiyalarni, barqaror amaliyotlarni va iqtisodiy strategiyalarni birlashtirishni talab qiladi. Bu orqali kartoshka ishlab chiqarishni yanada samarali va barqaror qilish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minotini yaxshilash mumkin.

Aholining kartoshka iste'moli bo'yicha talabi har doim o'zgarib turadi va bir qancha omillarga bog'liq. Kartoshka - ko'p mamlakatlarda eng mashhur va keng tarqalgan sabzavotlardan biri. Uning iste'moli asosan quyidagi omillarga asoslanadi:

1.Oziq-ovqat xavfsizligi: Kartoshka ko'plab taomlarda asosiy mahsulot sifatida ishlatiladi. Uning barqaror ta'minoti aholi uchun juda muhim, chunki kartoshka oziq-ovqat ta'minotining muhim qismini tashkil etadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun kartoshka yetishtirish va saqlash jarayonlariga e'tibor berish zarur. Bu nafaqat iste'molchilar uchun sog'liqni saqlash, balki iqtisodiy barqarorlik va qishloq xo'jaligi rivoji uchun ham muhimdir. Barqaror kartoshka ta'minoti aholi o'rtasida oziq-ovqat narxlarining oshishini oldini oladi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi.

2.Iqlim va qishloq xo'jaligi: Kartoshka yetishtirish uchun iqlim sharoitlari katta ahamiyatga ega. Kartoshka o'sishi uchun mo'ljallangan harorat, namlik va tuproq sharoitlari sifatli hosil olishda muhim rol o'ynaydi. Agar qishloq xo'jalik mavsumi muvaffaqiyatli o'tsa va ekinlar yaxshi o'sib chiqsa, kartoshka iste'moli oshadi. Bunday sharoitda bozor taklifi ko'payadi va narxlar barqaror bo'ladi. Biroq, kam iqlim sharoitlari, masalan, qurg'oqchilik yoki haddan tashqari sovuq, kartoshka yetishtirishni qiyinlashtirishi mumkin. Bu esa hosilning kamayishiga va natijada iste'molning pasayishiga olib keladi. Iqlim o'zgarishlari va qishloq xo'jaligi amaliyotlari kartoshka iste'molining barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

3.Iqtisodiy omillar: Kartoshkaning narxi va aholi daromadi iste'mol darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Agar kartoshka narxlari oshsa, bu aholi xarajatlarini oshirishi va iste'molning kamayishiga olib kelishi mumkin. Odamlar o'z budjetlarini hisobga olib, boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga o'tishlari mumkin. Aksincha, agar kartoshka narxlari pasaysa, aholi ko'proq iste'mol qilishga tayyor bo'ladi. Bunday sharoitda, kartoshka xarid qilishda iqtisodiy foyda ko'rganlar ko'proq ta'minot va iste'mol qilishni afzal ko'rishadi. Shuningdek, aholi daromadlari ortishi ham kartoshka iste'molining oshishiga yordam beradi, chunki odamlar ko'proq sifatli oziq-ovqat xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuning uchun, kartoshka narxi va aholi daromadi iste'mol darajasini belgilovchi muhim iqtisodiy omillar hisoblanadi. Umuman olganda, aholi kartoshka iste'molini turli omillar asosida belgilaydi, bu esa uning iste'mol darajasining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun, kartoshka iste'moli bo'yicha talabi o'zgaruvchan va doimiy monitoringni talab etadi.



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda respublika bo'yicha jami 3 million 574 ming tonna (1-rasm) kartoshka yetishtirilgan. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan kartoshka mahsuloti Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Turkmaniston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Kartoshka yetishtirishda umumiy hajmda eng yuqori ulush Samarqand viloyati (20,3 foiz) hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, Andijon (12,2 %), Toshkent (10,8 %) va Farg'ona (10,4 %) viloyatlarida ham kartoshka yetishtirishning yuqori ko'rsatkichlari qayd etilgan. O'zbekiston sharoitida faqat oziq-ovqat maqsadlarida yetishtiriladi. Ertangi kartoshka fevral oxiri va mart oyi oralig'ida, janubiy

viloyatlarda hatto kech kuzda (oktabr-noyabrda), kechkisi may oxiri va iyun oralig'ida ekiladi. Aholining kartoshkaga 1 yillik ehtiyoji (iste'mol me'yori 52,6 kg) 1,9 mln tonna bo'lib, amalda yillik iste'mol (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti me'yori 96,7 kg) 3,4 mln tonnani tashkil etadi. Kartoshkaning bir qancha navlari mavjud bo'lib xususan, kartoshkaning yangi navini O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining olimlari ya'ni mualliflari Rustam Nizomov, Jasur Rahmatullayev, Muhammadjon Rasulov va Dilshod Tursunovlar hisoblanadi. Yangi nav 2023-yilda Intellektual mulk agentligi tomonidan patentlashtirildi. Mamlakat tuproq iqlim sharoitiga mos kartoshkaning ertapishar "Toshkent ertagi" navini (mavjud mahalliy ertapishar navlardan 10-12 kun vaqtli yetiladi). ixtiro qildi. "Ikkinchi non" hisoblangan kartoshkani ko'plab yetishtirish, aholini talab darajasini qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida alohida e'tibor berilmoqda. Kartoshka sabzavot almashlab ekish tizimida karam, bodring, poliz va dukkakli don ekinlaridan bo'shagan yerlarda yaxshi hosil beradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda kartoshkaning 130 navi yetishtiriladi. Kartoshka o'simligi, inson sog'ligiga eng ko'p foyda keltiradigan o'simliklardan biri hisoblanadi. Uning tunganagi eng foydali qismi bo'lib, xom tunganagi tarkibida C vitamini miqdori 40% mg/ga yetadi. Kartoshka tunganagidan olinadigan spirt sifati jihatidan ancha yuqori turadi. Shuning uchun u farmatsevtika, atir-upa ishlab chiqarish sanoatida keng foydalaniladi. O'zbekistonda 2023 yilda 3,6 mln tonna kartoshka yetishtirilgan bo'lib bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari orasida kartoshka iste'moli yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

Taklif o'rnida shuni aytish joizki, kartoshka yetishtirishni muvaffaqiyatli va samarali qilish uchun bir nechta asosiy strategiyalar mavjud. Birinchidan, mahalliy iqlimga mos navlarni tanlash, tuproqni organik o'g'itlar bilan boyitish, sug'orish tizimini joriy etish va o'simliklar o'rtasida namlikni saqlash uchun qoplama usullarini qo'llash ham foydali bo'lib zararkunandalarga qarshi tabiiy usullarni qo'llash va agrotexnik usullar, zararkunandalarni kamaytirishga yordam beradi. Mahalliy fermerlar bilan hamkorlik o'rnatish oziq-ovqat xomashyolari va bozorga chiqishni yaxshilaydi. Ushbu strategiyalar kartoshka yetishtirish jarayonini yanada samarali va muvaffaqiyatli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 martdagi "2017-2021 yillarda Respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori.
2. Sh.M.Mirziyoyevning "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
3. Sh.M.Mirziyoyevning "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi", "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b
4. Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853- sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019 y.,
5. "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari" mavzusidagi professor-o'qituvchilar hamda doktorantlar tomonidan taqdim etilgan materiallar to'plami II-qism 2022-yil, 12-14-may
6. R.Oripov, N.Xalilov - "O'simlikshunoslik" Samarqand, 2007.

7. O'.Ahmedov, A.Ergashev va boshqalar "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi". Darslik. "Tafakkur-bo'stoni". Toshkent-2018 yil. 224 bet
8. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. "O'simlikshunoslik" Toshkent - "Fan va texnologiya" 2018 yil.
9. <https://www.agro.uz/11-0072/>
10. <https://daryo.uz/2023/01/19/ozbekistonda-kartoshkaning-yangi-navi-ixtiro-qilindi-mamlakatda-kartoshka-yetishtirish-bilan-bogliq-vaziyat-qanday>
11. <https://m.kun.uz/news/2024/02/09/ozbekistonda-2023-yilda-qishloq-xojaligi-mahsulotlari-hajmi-4263-trln-somni-tashkil-etdi>
12. Internet saytlari

MOTOBLOKLARNING UNIVERSAL ISH ORGANINI TADQIQ ETISH

Xudoyberdiyev Sherzod Ziyodullo o'g'li

Keldiyorov Rafiq Normurodovich

Hayitov Bobur Komilovich

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Mavjud kultivatorlarga o'rnatilgan ko'p sonli ish organlari bajarishi kerak bo'lgan barcha texnologik operatsiyalar sifatini ulardan kamaytirmagan holda amalga oshiradigan universal ish organi ishlab chiqildi. Unga qator orasining o'rtasini yumshatish uchun iskana, yonbag'irlarini yumshatish va begona o'tlarni kesish uchun keng qamrovli o'ng va chap pichoqlar o'rnatiladi.

Sug'orish egatlarini ochish uchun esa o'ng va chap pichoqlar o'rniga egat ochadigan qanotlar o'rnatiladi. Natijada turli vegetatsiya davrida texnologik operatsiyalarni bajarish imkonini beradigan, ishchi qismlari bir ustunga jamlangan universal ish organining konstruktiv sxemasi yaratildi.

1-rasmda keltirilgan sxemadan ko'rinib turibdiki universal ish organi ustun 4, unga o'rnatilgan iskana 1, o'ng 2 va chap 3 pichoqlar hamda egat ochuvchi qanotlar 5 va 6 dan tashkil topgan.

Quyidagilar universal ish organining agrotexnik va energetik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi asosiy parametrlari hisoblanadi:

b_u – iskananing eni, m;

β_1 – iskananing tuproqqa kirish (botish) burchagi, gradus;

β_2 – pichoqlarning uvalash burchagi, gradus;


γ_1 – pichoqlar tig'ining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi, gradus;

$2\gamma_2$ – egat ochadigan qanotlarning ochilish burchagi, gradus;

B – ish organining qamrash kengligi, m.

Ishlab chiqilgan universal ish organi ko'p funksiyali bo'lib, turli vegetatsiya davrida sabzavot ekinlari qator oralaridagi o'tlarni kesish, tuproqni yumshatish hamda sug'orish egatlarini ochish kabi texnologik operatsiyalarni bajaradi.

Universal ish organi iskanasining enini asoslash. Universal ish organi iskanasining enini ishlov berilgan qatlam tubida devorlari zichlangan egat hosil bo'lmisligi shartidan keltirib chiqarilgan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:



1-rasm. Motoblok chizel-kultivatori universal ish organining konstruktiv sxemasi

$$b_u \geq \frac{(m_u + ctg\beta_1)h}{\left[0,1 \frac{T_3}{[\tau_q]}(1 + 3tg\epsilon_o) - n_u\right]}, \quad (1)$$

Bunda: T_3 – tuproqning ezilishga solishtirma qarshiligi, Pa;

$[\tau_q]$ – tuproqni parchalanish (siljish)ga va kritik qarshiligi, Pa;

ϵ_o – tuproq tomonidan ish organiga ta'sir etayotgan qarshilik kuchlari teng ta'sir etuvchisini gorizontga nisbatan og'ish burchagi, gradus;

n_u, m_u – tuproqning fizik-mexanik xossalariga bog'liq bo'lgan o'lchov birliksiz koeffitsiyentlar.

$T_3 = 0,7 \cdot 10^6$ Pa; $[\tau_q] = 1,1 \cdot 10^4$ Pa; $m = 4,2$; $n = 2,5$; $h = 18$ sm; $\beta_1 = 25^\circ$ va $\epsilon_o = 35^\circ$ qabul qilinib va ular (1) ifodaga qo'yilib, universal ish organi iskanasining eni kamida 6,1 sm bo'lishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatov F.M, I.G'.Temirov. Qishloq xo'jaligi mashinalari. – Toshkent: Voris-Nashriyoti., 2019. 631b.
2. Hojiyev A.H., Temirov S.U. Paxtachilik chopiq kultivatori tajribaviy ish organining parametrlarini asoslash //Yosh olimlar – qishloq xo'jalik fani va amaliyotini yuksaltirishda yetakchi kuch mavzusidagi ilmiy–amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent: Agro ILM, 2008. – B. 174–179.
3. Tuxtaqo'ziyev A., Temirov S.U. Paxtachilik kultivatorni tajriba ish organining tortishga qarshiligi // Mexanika muammolari. – Toshkent, 2009. – №5-6. – B.133-137.

4. Temirov S.U. Universalniy rabochiy organ propashnogo kultivatora // Sovremenniy tendensii razvitiya agrarnogo kompleksa: Sbornik materialov mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Solenoye Zaymishe: FGBNU PNIJAZ, 2016. – S.1235–1237.
5. <https://www.google.com/search>
6. www.Agro-kraft.De
7. http://www.pkf-agromash.ru/bimages/kultivator/megryad/kon_28_6.jpg

YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMI SXEMASINI BELGILASH VA GIDRAVLIK HISOBI

Ollayev Nurbek Berdiyov o'g'li
Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li
Nurboyev Xusan Shodmonovich

“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlari:

- yomg'irlatish jadalligi;
- yomg'ir tomchisining o'lchami;
- yomg'irni maydon bo'yicha tekis taqsimlanishi

Yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlarining to'g'riligi - tuproqning qulay suv tartibini ta'minlanishi, tuproq strukturasi buzilmasligi, o'simlikning shikastlanmasligi, tuproq ustida suvning to'planmasligi, suv oqimini yuzaga kelmasligi bilan belgilanadi.

Yomg'irlatish jadalligi - bir minutda sug'oriladigan yuzaga tushayotgan yomg'ir miqdori (mm/min), yoki vaqt birligi ichida sun'iy yomg'irdan hosil qilingan suv qatlami qalinligi tushuniladi.

Yomg'irlatish jadalligi orqali tuproqning suv o'tkazish qobiliyatiga ko'ra yomg'irlatish mashina yoki agregati tanlanadi.

Yo'l qo'yiladigan yomg'irlatish jadalligi tuproq ustida suv to'planmasdan, suv oqimi yuzaga kelmasdan, belgilangan sug'orish me'yori ta'minlanadigan jadallik bo'lib, uning qiymati sug'oriladigan yerlarning tuproq sharoiti va nishabligiga bog'liq bo'ladi.

Yomg'irlatgichlarning eng muhim parametrlaridan biri sifatida qishloq xo'jaligining yalpi darajasini va sug'orishning yakuniy iqtisodiy samarasini belgilaydigan mavsumiy yuk (yoki buyruq maydoni) hisobga olinishi kerak. Hozirgacha bu parametr mashinaning xususiyatlariga, birinchi navbatda, oqim tezligiga va joylashtirish shartlariga bog'liq deb hisoblangan. Barcha hisoblash formulalarining numeratori DM iste'molining qiymati bo'lib, maxraj boshqacha bo'lishi mumkin. Xususan, bu eng ko'p suv iste'moli davridagi gidromodul grafigining ordinatasi yoki muhim davrda eng namlikni yaxshi ko'radigan ekinning sug'orish suviga bo'lgan o'ziga xos ehtiyoji [1].

B.P.Fokin [2] tomonidan olingan tenglamalardan foydalanib, tanlab olish usuli bilan frontal purkagichlar bilan sug'oriladigan dalalarning maksimal o'lchamlarini aniqlash mumkin. 50-180 l/s gacha bo'lgan sug'orish mashinalarining sarflanishi bilan, mavjud sug'orish rejimlariga nisbatan va sug'orish texnikasidan oqilona foydalanish sharti bilan bir ekinni sug'oriladigan maydonga joylashtirish lozim.

Quvurlarning suv sarflari va uzunligi asosida tizimning har bir quvuridagi bosim isroflari aniqlanadi. Buning uchun tizimning gidravlik hisobi bajariladi. Yomg'irlatib sug'orish tizimining gidravlik hisobi ekin dalasidagi yomg'irlatib sug'orish tizimini ishlashi uchun yetarli bosim yaratish va yetarli miqdorda suv yetkazib berishga imkoniyat yaratadigan quvurlarning eng avfzal diametrini belgilash uchun bajariladi.

Gidravlik hisob natijasida tizim quvurlaridagi suv sarflarining umumiy yig'indisi va eng uzoqdagi nuqtagacha bo'lgan bosim isroflari yig'indisi asosida tizimning ruxsat etiladigan suv sarfi va bosimi aniqlanadi.

Bunda har bir yomg'irlatgichning (0,5-0,7 l/s), har bir tarqatuvchi quvurning suv sarflari (3-3,5 l/s) va butun yomg'irlatib sug'orish tizimining umumiy suv sarfi (12-15 l/s) alohida aniqlab chiqiladi. Bu ko'rsatkich yomg'irlatib sug'orish tizimi nasos qurilmasining hisobiy suv sarfi sifatida qabul qilinadi.

Yomg'irlatib sug'orish tizimi nasos qurilmasini bosimini aniqlash uchun tizimning nasos qurilmasiga ulanadigan nuqta bilan tizimning eng uzoqdagi yomg'irlatgichi joylashgan nuqta oralig'ida tizim bosh va tarqatuvchi quvurlarida yo'qotiladigan bosim isroflari ko'rsatkichlarining yig'indisi aniqlanadi.

Quvurlardagi bosim isroflari polietilen quvurlar uchun Shevelev jadvallari asosida bajarilgan gidravlik hisob asosida aniqlandi. Yomg'irlatib sug'orish tizimi sxemasining eng oxirgi qatoridagi tarqatuvchi quvur va suv yetkazib beruvchi quvurda (nasos qurilmasidan eng uzoqdagi tarqatuvchi quvurgacha bo'lgan masofada) yo'qotiladigan bosim isroflari ko'rsatkichlarining yig'indisi tizimdagi umumiy bosim yo'qotilishini ko'rsatadi.

Bunda yomg'irlatib sug'orish tizimining ishlashi uchun zarur bo'ladigan bosim tizimda qo'llanilgan yomg'irlatgichning ishlashi uchun zarur bo'ladigan bosim (odatda 25-30 metr), suv yetkazib beruvchi va tarqatuvchi quvurlarda (nasos qurilmasidan eng uzoqda joylashgan tarqatuvchi quvur) yo'qotiladigan va mahalliy qarshiliklar uchun yo'qotiladigan bosimlarning (bosim yo'qotilishining 10% iga teng) jami yig'indisi sifatida aniqlanadi. Aniqlangan yig'indi bosim yomg'irlatib sug'orish tizimining hisobiy bosimi sifatida qabul qilinadi.

Yomg'irlatib sug'orish tizimining gidravlik hisobi natijasida aniqlangan hisobiy suv sarfi (keltirilgan misolda $Q=50,4 \text{ m}^3/\text{soat}$) va hisobiy bosim isrofi ($H=38,0 \text{ m}$) asosida yomg'irlatib sug'orish tizimini ishlashi uchun imkoniyat yarata oladigan nasos qurilmasi tanlanadi (keltirilgan misolda suv sarfi $Q=60 \text{ m}^3/\text{soat}$ va umumiy bosimi $H=60 \text{ m}$).

Suv yetkazib beruvchi quvur (bosh quvur) suvni nasos tizimining bosimli quvuridan olib tarqatuvchi quvurlargacha yetkazib beradi. Suv yetkazib beruvchi quvur (bosh quvur) odatda katta bosimga chidaydigan polietilendan tayyorlanadi va uning diametri 75 mm, devorining qalinligi 4,5 mm kattalikda tanlanadi. Tarqatuvchi quvurlar suvni bosh quvurdan olib yomg'irlatgichlarning shlanglarigacha yetkazib berishga xizmat qiladi. Tarqatuvchi quvurlar ham katta bosimga chidaydigan polietilendan tayyorlanadi va yomg'irlatib sug'orish tizimlarida quvurning diametri 50 mm, devorining qalinligi 3,0 mm bo'lgan markasi ishlatiladi. Bosh va tarqatuvchi quvurlarni o'zaro ulovchi qismlar uchlik, tirsak, adapter va o'tuvchilardan iborat bo'ladi.

Suv uzatuvchi shlanglar suvni tarqatuvchi quvurdan olib yomg'irlatgichgacha yetkazib berishga mo'ljallangan. Ular yuqori bosimga chidaydigan polietilendan tayyorlanadi va odatda

diametri 16-20 mm, devorining qalinligi 2,0 mm ga teng bo'ladi. Suv uzatuvchi shlang tarqatuvchi quvurga nipelli shtuser yordamida ulanadi.

Yomg'irlatgichlar suvni dalaga yomg'ir sifatida sepish uchun mo'ljallangan. Yomg'irlatgich impulsli ko'rinishda aylanib harakatlanish xususiyatiga ega. Har bir yomg'irlatgich o'z atrofidagi radiusi 10-15 metrga teng bo'lgan maydonni namlash xususiyatiga ega.

Maydonlarni to'liq namlanishini ta'minlash uchun bir yomg'irlatgichning namlash radiusini odatda uning maksimal ko'rsatkichidan 1,5 marta kam qilib tanlanadi. Bir yomg'irlatgichning suv sarfi o'rtacha 0,5-0,7 l/s ga teng bo'ladi. Impulsli yomg'irlatgichlarda ikkitadan suv chiqaruvchi teshigi bo'lib, ularning diametri odatda 4-6 mm va 2-2,5 mm ga teng bo'lgani tanlanadi.

Kichik diametrli suv chiqargich yaqin masofada doira ko'rinishida suv sepsa, katta diametrdagi suv chiqargich 10-15 metr radiusda suv sepadi. Yomg'irlatgichni muftaga o'rnatiladigan rezkali qismining diametri odatda 15-20 mm ga teng bo'ladi.

Yomg'irlatgichlar tarqatuvchi quvurning yoniga o'rnatilgan va balandligi 1,5 metr bo'lgan metall ustunga, ushlab turuvchi mufta (diametri 20 mm) yordamida mahkamlanadi. Metall ustun diametri 12-14 mm bo'lgan po'lat armaturadan tayyorlanadi. Uning umumiy balandligi odatda 2 metr, shundan 1,5 metrli qismi yer ustida turadi, 0,5 metrli qismi esa yer ostiga joylashtiriladi. Metall ustunning yuqori qismida yomg'irlatgichning muftasini ushlab turadigan rezkali bolt o'rnatiladi.

Yomg'irlatgichni ushlab turuvchi mufta metall quvurdan (diametri 20 mm) yasaladi va uning bir (ustki) tomoniga yomg'irlatgich, ikkinchi (pastki) tomoniga polietilendan yasalgan adapter o'rnatiladi. Adapter suv uzatuvchi shlangni yomg'irlatgichga ulash uchun xizmat qiladi. Ushlab turuvchi muftaning uzunligi odatda 5-6 sm kattalikda bo'ladi. Yomg'irlatib sug'orish tizimi suv tarqatuvchi quvurlarining oxiri tiqin bilan mahkamlab qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guber K.V. Optimizatsiya parametrov orositel'nykh sistem s dojdeval'nyimi mashinami // Sovremennye problemy melioratsii i puti ix resheniya / Yubileyny sb. nauch. tr. VNIIGiM. - T. 1. M., 1999. - S. 96-118.

2. Fokin B.P. Povyshenie effektivnosti poliva mnogoopornymi dojdeval'nyimi mashinami: Dis. na soiskanie uchen. stepeni d-ra. texn. nauk. - Stavropol, 2002. - 313 s.

KATTAQO'RG'ON SUV OMBORI SUVIDAN FOYDALANISH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Suyunov Abdug'ani Shavkat o'g'li, suyunovsha@mail.ru

Olmosov Shahzod Kamoliddin o'g'li, shahzodolmosov77@gmail.com

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Asosiy qism. Kattaqo'rg'on suv ombori Zarafshon vodiysidagi ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi va Zarafshon (Qoradaryo) daryosi suv rejimini tartibga soladi, sel va toshqin suvlarini jamg'aradi. 1940 – 1951 yillar davomida qurilib, foydalanishga topshirildi. Kattaqo'rg'on suv omborining asosiy inshooti kompleksi suv chiqargichli to'g'on, suv keltiriladigan va suv oqib ketadigan kanallardan iborat. 1941-yilda uzunligi 4 km, balandligi 28 m tuproqto'g'on ko'tarildi (keyinchalik to'g'on balandligi 31,5 m ga yetkazildi). Suv

omborining hajmi yildan – yilga oshirib borildi va 1954-yilda loyihada ko'rsatilgan miqdor – 662 mln. m³ ga yetkazildi. Uzunligi 28 km, suv sarfi 45 m³/s suv keltiruvchi kanal va uzunligi 15,2 km, suv sarfi 123 m³/s suv chiqaruvchi kanal qurildi. 1956-yil suv keltiruvchi kanal rekonstruksiya qilinib, uning suv o'tkazish imkoniyati 100 m³/s ga yetkazildi, o'zani to'g'rilanib, kengaytirildi va o'zanga beton to'shama yotqizildi. Natijada kanal uzunligi 21,2 km ga yetdi. To'g'on (maksimal balandligi 28,62 m, uzunligi 3915 m) va quloqlarning rekonstruksiya qilinishi natijasida (1968-yilda) Kattaqo'rg'on suv ombori sig'imi 900 mln. m³ ga yetkazildi, shundan foydali sig'imi 840 mln. m³. Suv yuzasi maydoni 79,5 km². Uzunligi 15 km, maksimal eni 10 km, o'rtacha eni 5,3 km, maksimal chuqurligi 25 m, o'rtacha chuqurligi 11,3 m.

Kattaqo'rg'on suv ombori suvi bilan Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi 94 ming ga yer sug'oriladi va 150 ming ga yerning suv ta'minoti yaxshilangan. Kattaqo'rg'on suv ombori suvi kanal bilan Qoradaryoga quyiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan kelib chiqib qaralsa Kattaqo'rg'on suv ombori asosan Zarafshon vodiysini suv bilan ta'minlaydi.



Kattaqo'rg'on suv ombori

Zarafshon vodiysi – Markaziy Osiyoning markaziy qismida, Turkiston–Oqtov bilan Zarafshon tizmalari orasida joylashgan ko'ndalang vodiy. Zarafshon vodiysining sharqiy tog'li qismi Tojikiston, g'arbiy tog' etagi va tekislik qismi O'zbekiston hududida. Tektonik yo'l bilan vujudga kelgan. Hozirgi relyefining shakllanishida Zarafshon daryosining doimiy va vaqtli irmoqlari hamda shamol muhim rol o'ynagan. Zarafshon vodiysi Zarafshon muzligidan (balandligi 2775 metr) boshlanib, g'arbda Sandiqli cho'ligacha (balandligi 185 metr) 781 kilometr ga cho'zilgan. Vodiy shu masofada g'arbiy, janubi-g'arbiy yo'nalishda davom etadi va asta-sekin pasayib hamda kengayib boradi. Zarafshon vodiysi, asosan, ustini to'rtlamchi davr allyuvial jinslari qoplagan uchlamchi davr cho'kindi jinslaridan tarkib topgan. Bu yerda neogen davrigacha dengiz bo'lgan. Alp orogenezida vodiy quruqlikka aylangan. Zarafshon daryosi o'z o'zanini chuqurlashtirib, terrasalar (ko'hna qayirlar) hosil qilgan. Zarafshon vodiysining sharqiy tog'li qismida 6 ta terrasa bor. Panjakent shahrigacha (300 kilometr masofada) vodiy tor va chuqur, Turkiston va Zarafshon tizmalari undan tik ko'tarilib turadi. Zarafshon daryosi yuqori qismida muz harakati bilan vujudga kelgan ancha keng (4–5

kilometr) vodiy hosil qilgan. Kishtutsoyning Zarafshonga quyiladigan yerida vodiy juda tor, tog' yon bag'ri daryo qirg'og'idan tik ko'tarilgan. Quyi qismida vodiy kengayib, O'zbekiston hududiga o'tgach, kengligi ayrim joylarda 60–70 kilometrga (Buxoro vohasida) yetadi. O'zbekiston xududida Zarafshon vodiysining uzunligi qariyb 480 kilometr bo'lib, bu qismida Samarqand, Buxoro, Qorako'l vohalari joylashgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, suv manbalarini miqdor jihatdan muhofaza qilishning birorta universal usuli yo'q. Asosiy yo'nalish oqova suvlarini kamaytirish yoki umuman to'xtatish bo'lib, u bir qancha yordamchi choralar tufayli amalga oshiriladi. Suvdan foydalanish jarayonida uni muhofaza qilish ularning hammasi uchun xos bo'lgan umumiylikdir. Boshqacha qilib aytganda suv boyliklarini himoya qilish faqat taqiqlashlaru chegaralashlardan iborat emas. Bu yo'lda noto'g'ri yo'nalishlarga tezda chek qo'yish, oldindan tadbirlar belgilash, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolardan ogohlantirish ham muhimdir.

Kattaqo'rg'on suv omborining qurilishi munosabati bilan Samarqand viloyatidagi umumiy ekin maydonining yarmidan ko'pi yetarli darajada suv bilan ta'minlandi. Suv omborining qurilib ishga tushirilishi natijasida Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi 94 ming ga yer sug'oriladi va 150 ming ga yerning suv ta'minoti yaxshilangan. Yangidan o'zlashtirilgan yerlarda ingichka tolali paxta, don ekinlari, mevali bog'lar, uzum, sabzavotlar, poliz ekinlari ekilib, katta miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilmogda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Abdunazarov Husan Menglievich, Niyazov Xo'jaqul Mirzoboboevich, Mustaev Qurbonmurod Rahmon o'g'li. Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirishda tabiiy geografik omillarning o'rni. ijins [Internet]. 2022 yil 23 may [2022 yil 7 iyulda keltirilgan];18. Mavjud: <https://ijins.umsida.ac.id/index.php/ijins/article/view/642>
3. Nuralievich, E. M. ., & Rahmonvich, M. Q. . (2021). The Importance of Water Resources in the Development of Agriculture in Surkhandarya Region and Issues of their Effective Use. International Journal of Culture and Modernity, 9, 67–72. Retrieved from <http://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/80>
4. Rakhmatov A. F. Artikova Sh. Z. Development of Fishing Farms in River and River Areas of Surkhandarya Region Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021
5. Rakhmatov A. F. Ortikova Sh. Z. Surxondaryo viloyati bog'dorchiligining geografik ko'rinishi Journal of Geography and Natural Resources <https://topjournals.uz/index.php/jgnr>
6. Xudoyberdiyev Q., Odinayev A. To'palang suv ombori bunyodkorlari. –Toshkent: Sharq, 2006. -256 b.
7. Ro'ziyev A.N. Surxondaryo viloyati. - Toshkent, 1996.
8. Bakiyev M.R., Raxmatov N., Ibraymov "Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish" darslik.
9. I.Madjidov., X.Fayziyev., O'.Xusanxo'jayev., N.Raxmatov " Gidrotexnika inshootlari 2 – jild" darslik.
10. <https://lex.uz>

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI MODERNIZATSIYA QILISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

Tursunov S.

“TIQXMMI”MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
“Yer resurslarini boshqarish” kafedrasida assistenti

Kirish.Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining real tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko'tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu munosabat bilan muhtaram Prezidentimiz tomonidan chorvachilik, g'allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va amalda qo'llash, bizning iqlim sharoitimizda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug'orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan edi.

Usullar.Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan –Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida bayon etilgan. Ushbu konsepsiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida O'zbekiston respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturda 2011-2015 yillar mobaynida:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 17,5 foizdan 13,5 foizga pasaytirish;
- qishloq xo'jaligida ilg'or agrotexnologiyalar, resurslarni tejaydigan usullarni joriy etish, seleksiya va urug'chilik tizimini rivojlantirish hisobidan ekinlar hosildorligini oshirishga erishiladi.
- Bunda mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foizga oshirish, suv sarfini 12 foizga kamaytirish;
- meva-sabzavot tayyorlashni 1,5 barobari, kartoshka yetishtirishni 1,4 barobar, poliz va uzumni 1,3 barobar ko'paytirish;
- naslchilik ishlarini takomillashtirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va modernizatsiya natijasida naslchilik xo'jaliklari sonini 2,5 barobardan, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobar oshirish;
- zooveterinariya punktlarini zamonaviy jihozlash, xizmatlar sifatini oshirish hisobidan chorva mollari sonini 1,3 barobar, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish;
- parrandachilik va baliqchilik tarmoqlari rivojiga alohida ahamiyat qaratib, parrandalar sonini 1,8 marta oshirib, 670 ta baliqchilik xo'jaligi tashkil etish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash quvvatlarini va qayta ishlash hajmini kengaytirish tadbirlari doirasida qishloqlarda zamonaviy minitexnologiyalar negizida qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish orqali meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarishni 1,7

barobar, go'sht konservalarini 2,2 barobar, kolbasa mahsulotlarini 1,8 barobar, sut mahsulotlarini 1,9 barobar oshirish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikalarini xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng bo'lgan loyihalar hisobidan 1,4 million gektar yer maydonining meliorativ holatini yaxshilash;

- qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish, ularni sifat jihatdan yangilash, fermerlarni unumli qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash, xizmat sifatini yaxshilash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim prognoz vazifalari belgilangan.

Munozara. Respublikamizda o'tgan yillar ichida qishloq xo'jaligi sohasida iqtisodiy isloxtlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun ularni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mikroreditlar berish, ma'lum muddat soliq to'lashdan ozod qilish va soliq to'lashni ixchamlashtirish, maxsulotni tayyor tovar xoliga keltirib eksport qilish va import yo'li bilan moddiy-texnika vositalarini olishda imtiyozlar, ular uchun lizing faoliyatini yanada kuchaytirish, ularning xuquqlarini buzilishini oldini olishda xo'jalik sudlarini mavqeyini ko'tarish, maxalliy va chet el mutaxassislari ishtirokida fermerlarni iqtisodiy, xuquqiy va ishlab chiqarish bilan bog'liq bilimlarini oshirish va xakazolar fikrimizning isbotidir.

Isloxtlarni chuqurlashtirish jarayonida qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yurituvchi fermer xo'jaligida tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning faoliyatini o'sishini ta'minlovchi muxim omillardan biri xisoblanadi. Chunki tadbirkorlik qishloq xo'jaligida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda, bandlik muammolarini xal etishda, qishloqda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va mulkdorlar sinfini shakllantirishda muxim omillardan xisoblanadi.

Shu kechayu-kunduzda respublikamiz qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarining tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi masalalar o'z yechimini topishi lozim:

- fermer xo'jaliklari uchun xom-ashyo resurslariga bo'lgan talabni qondirish;
- tadbirkorlikning iqtisodiy va xuquqiy bilim darajasini oshirish;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida ularga ajratilayotgan imtiyozli kreditlarni ko'paytirish;
- kreditlarga ustama foizlar to'lanishida turli xil qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- mexnatga xaq to'lash fondidan soliq yukini kamaytirish;
- fermer xo'jaliklari uchun xisobot tizimini soddalashtirish;
- fermer xo'jaliklariga kreditlar xajmini ko'paytirish bilan, ularni ajratish shartlarini yengillashtirish;
- raxbar tadbirkorlar bilimi va malakasini doimiy oshirish maqsadida davra stollarini tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;
- respublika vaqtni matbuotida tadbirkorlik tuzilmalari va faoliyatini yoritishning raqobat muxitini shakllantirish;
- fermer xo'jaliklarini tashqi bozorlarga chiqishlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan tadbirkor fermer xo'jaliklariga imtiyoz yoki tijorat kreditlari ajratilishidan oldin joylardagi palata va sug'urta kompaniyalari vakillari bilan birgalikda maslaxat qilib, ular bergan xulosa bo'yicha kredit ajratishni yo'lga qo'yish lozim. Umuman qishloq xo'jaligi va qolaversa fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyati negizida moliyaviy barqaror bo'lishi bilan bog'liq.

Chunki moliyaviy barqarorlik birinchidan dexqonning ijtimoiy xayotini yaxshilanishini ta'minlasa, ikkinchidan, yerga va asosiy vositalarga mablag' yo'naltirishini (investitsiya qilinishini) ta'minlaydi. Natijada, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, sarf-xarajatni kamaytirish va pirovard natijada barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Fermer xo'jaliklariga ta'minlash va texnik xizmat ko'rsatish vazifalari MTP tarkibidagi maxsus texnik xizmat ko'rsatish bo'limi mutaxassislariga yuklatilgan. Bo'lim ixtiyorida kichik traktorlar va mexanizatsiya agregatlari, ko'chma ustaxonalar, zarur asbob uskunalar bor. Fermer xo'jaliklariga ko'rsatiladigan servis xizmatlar va ular bilan MTP o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Fermer xo'jaliklariga yordam berishning yana bir tomoni, ularga o'z maxsulotlarini takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratishdir.

Chunki, ularni ishlab chiqarish xarajatlarini ko'pligi va sof foydani kam bo'lganligi natijasida ularning daromadlarini kamligi tufayli takror ishlab chiqarish imkoniyatlari doimo mavjud emasdir. Bu muammoni maxsulotni qayta ishlab pirovard, tovar maxsuloti xoliga keltirish bilan xal qilinsa, fermer xo'jaliklarida band bo'lgan oila a'zolarini daromadini va turmush darajasini ko'tarish mumkin.

Xulosa. Umuman xulosa qilib fikrlaydigan bo'lsak, fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishi uchun ularga xizmat ko'rsatish soxasida texnika va uskunalarni lizing asosida yetkazib berish va ta'mirlash ishlarini, agrotexnik tadbirlarni bajarish bo'yicha xizmat ko'rsatish, mineral o'g'itlar yetkazib berish, o'simliklarni ximoya qilish, veterinariya xizmatlari, agrobiotexnika xizmatlari, ta'minot soxasida esa yoqilg'i moylash materiallari, extiyot qismlar, urug'lik va zotli mollar yetkazib berish va boshqa masalalarni amaliy yechimini ijobiy xal etish zarurdir.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligida, qolaversa fermer xo'jaliklarida servis xizmatlarini rivojlantirish faoliyatini takomillashtirish, bajariladigan ishlar sifatini yaxshilash, shuningdek maxsulot yetishtiruvchi sub'ektlar fermer xo'jaliklarini samarali faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga kutaradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 yil
2. Farmonov T.X. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. -T.: Yangi asr avlodi, -2004. -30 b.
3. A.Sultonov va boshqalar. Suv xo'jaligi iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma, 2010 yil.

SELECTING A MATHEMATICAL MODEL FOR APRICOT DRYING IN SOLAR DRYERS

Rejabov Sarvar Abdurasulovich¹, Usmonov Botir Shukurillayevich²,

¹ Base doctoral student; ² Doctor of Technical Sciences, professor, rector;

^{1,2} Tashkent Institute of Chemical Technology sarvar.rejabov7790@gmail.com

Introduction

Apricots, prized for their vivid golden-orange color, sweet flavor, and soft skins, are a widely appreciated fruit due to their abundant nutritional benefits. They serve as a major source of income for many nations, contributing significantly to agriculture and economies worldwide. [1]. Turkey stands out as the leading producer of apricots globally, contributing nearly 800,000 tons annually to the industry. Renowned for their exceptional flavor and desirability, Turkish apricots are highly esteemed worldwide. Turkey's diverse landscape and varied climates enable the cultivation of multiple apricot varieties. Currently, Turkey accounts for approximately 22 percent of the world's apricot production [2].

Indeed, while climate and growing conditions play key roles in determining top apricot producers, other factors also significantly contribute to this status. For example, despite apricot trees' preference for drier, sunnier climates, access to water resources is crucial, and effective irrigation practices are essential for optimal growth and yield. While apricot trees are typically self-pollinating, the presence of ample pollinators, especially bees, is vital for improving fruit quality and overall production volume. Furthermore, a country's range of cultivar varieties is pivotal in offering diverse apricot options, potentially influencing its competitive position in the global market. To ensure year-round availability of agricultural products such as vegetables, fruits, and grains, drying is increasingly gaining importance. By adjusting the water activity levels of these foods during the drying process, it becomes feasible to store them for extended periods without spoilage. In the food industry, drying serves primarily to preserve fruits and vegetables while retaining their nutritional integrity over time. The efficacy of the drying process is gauged based on the preserved color, aroma, flavor, nutritional content, and original shape of the dried product [3]. Additionally, the product's ability to rehydrate, restoring its moisture content when exposed to a humid environment, is another crucial aspect [4].

Solar energy emerges as a prominent solution for drying purposes, given its abundance, sustainability, and cost-effectiveness. As a clean and renewable energy source, solar energy is widely adopted as one of the most prevalent drying methods[5].

Drying serves as a method to decrease the moisture content of fresh fruits and vegetables, typically ranging from 80% to 95%. To ensure safe storage, it's essential to reduce the final moisture content of fruits to below 20% and vegetables to below 10%. This drying process helps preserve the dried product for extended periods without spoilage. The purpose of drying food is to remove the free water from the wet products and to stop the growth of biochemical reactions and microorganisms in the products. Additionally, drying facilitates a reduction in both the volume and weight of the products, resulting in decreased transportation and storage expenses [6].

Apricot trees thrive across various regions worldwide, including Northern India, Iran, Turkey, Italy, Spain, North and South Africa, North America, Australia, as well as Central Asia,

the Caucasus region, and parts of Southern Europe in Russia. Apricots, renowned for their abundance of vitamins, minerals, and fiber, are consumed in diverse forms such as fresh juice, dried, and in compotes. Uzbekistan's climate is highly suitable for cultivating apricot production. In Uzbekistan, high-yielding varieties such as Ahroriy, Subhoni, Gulungi luchchak, Mirsanjali, Ko'rsodiq, Xurmoi, Isfarak, Navoiy, Javpazak, Oq o'rik, Shalax, Ruhi Juvanon, Mohtobi, and others are predominantly cultivated more in the regions of Fergana, Namangan, and Andijan [7].

A technological advancement in harnessing solar energy for agricultural drying involves the utilization of solar dryers, where air is heated in a solar collector and then circulated through the products. Two primary types of solar dryers suitable for agricultural use are natural convection dryers, driven by thermal gradients, and forced convection dryers, where air is propelled through a solar collector. This study focuses on forced convection solar drying, akin to traditional mechanical drying systems, but with the distinction that air is heated by a flat plate solar collector instead of conventional methods [8], [9].

Several studies have explored the use of solar energy for drying fruits and vegetables. Timoumi et al. (2004) investigated the thermal properties of solar energy for food drying, while Vijaya Venkata Raman et al. (2012) provided insights into solar drying technologies [10]. Belessiotis and Delyannis (2011) discussed different types of solar dryers [11]. Menges (2001) studied the drying of sour cherry and apricot under varying air temperature and velocity conditions. Toğrul and Pehlivan (2002) used a solar air heater for apricot drying, analyzing drying parameters and applying mathematical models [12]. Other studies examined drying processes for figs, onions, tomatoes, mangoes, and various vegetables, assessing factors such as temperature, humidity, and drying kinetics.

Materials and Methods

Fresh apricots (variety Subhaniy) utilized in this research were procured from the Chorsu market in Tashkent, Uzbekistan, during the harvesting period. Apricots with masses close to each other were selected and used in drying process. The geometric mean diameter of wet apricots was assumed to be about 60 mm. However, the average weight of fresh apricots was measured to be about 35 g. Before drying, the initial moisture content of the wet apricots was measured to be about 85% (wet basis). Fresh apricots were placed on a 50 × 80 cm perforated shelf inside the drying cabinet. Throughout the drying process, the weights of the apricots were measured with precision scales, and the drying process was continued until the final moisture content of the apricots was about 19% (wet basis). In addition, the temperature and humidity values in the drying chamber were measured during the drying process using a moisture meter and a thermocouple. The current indirect forced cabinet solar drying (IFCSD) system is an integrated setup utilizing energy solely from renewable sources.

It comprises three main components: a drying chamber, a solar collector, and a centrifugal air blower. The wooden rectangular drying chamber measures 1000 × 600 × 500 mm and contains four trays, capable of accommodating a total of 2000 g of apricots in a single operation. The flat solar collector has dimensions of 1900 × 950 × 200 mm and provides a surface area of 1.71 m², and the interior is covered with black paint to absorb all the solar radiation. To boost the airflow velocity at the solar air collector's inlet, a DC blower has been incorporated. The air in the solar air heater is supplied from the bottom of the drying

chamber with the help of a blower. Hot air takes the moisture from the product being dried and exits from the top of the drying chamber.

Several drying mathematical models have been suggested in existing literature. This study examines the models listed in Table 1 for the drying process of apricots in IFCD systems.

Table-1. Drying models used for moisture content of apricots.

No	Model name	Model
1	Newton	$MR = e^{-kt}$
2	Page	$MR = e^{-kt^n}$
3	Modified Page	$MR = e^{(-kt)^n}$
4	Logarithmic	$MR = a \cdot e^{-kt} + c$
5	Henderson and Pabis	$MR = a \cdot e^{-kt}$
6	Two-term	$MR = a \cdot e^{-k_0 \cdot t} + b \cdot e^{-k_1 \cdot t}$
7	Two term exponential	$MR = a \cdot e^{-kt} + (1 - a) \cdot e^{-kat}$
8	Midilli at al	$MR = a \cdot e^{-kt^n} + b \cdot t$
9	Approximation of diffusion	$MR = a \cdot e^{-kt} + (1 - a) \cdot e^{-kbt}$
10	Verma et al	$MR = a \cdot e^{-kt} + (1 - a) \cdot e^{-gt}$
11	Midilli and Kucuk	$MR = a \cdot e^{-kt^n} + b \cdot t$

All models utilize the variables **MR** for moisture ratio, **t** for time, **k** for drying rate constant, and **a**, **b**, **c**, **g**, and **n** as model coefficients. Equation 1, is employed for calculating **MR** during apricot drying.

$$MR = \frac{M_t - M_e}{M_0 - M_e} \quad (1)$$

In order to determine the most suitable mathematical models for drying apricots, it is essential to compute three significant statistical parameters: the correlation coefficient (R^2) using Equation 2, the chi-square (X^2) employing Equation 3, and the root mean square error (RMSE) as per Equation 4. The model demonstrating the highest R^2 value alongside the lowest X^2 and RMSE values is indicative of the best fit.

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (MR_{pre,i} - MR_{exp,i})^2}{\sum_{i=1}^n (MR_{exp,i} - MR_{exp,ave})^2} \quad (2)$$

$$X^2 = \frac{\sum_{i=1}^n (MR_{pre,i} - MR_{exp,i})^2}{n - z} \quad (3)$$

$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (MR_{pre,i} - (MR_{exp,i}))^2} \quad (4)$$

In these equations, $MR_{exp,i}$ denotes the normalized moisture ratio observed in the i^{th} experiment, $MR_{pre,i}$ represents the predicted value for the i^{th} observation, $MR_{exp,av}$ stands for the average of normalized moisture ratios among experimental data points, n signifies the total number of observations, and z represents the number of constants in the model.

Results and Discussion

Increasing sunlight intensity from 398 to 886 W/m² led to a rise in ambient temperature from 25.4 to 39.1 °C, with collector outlet temperature increasing from 33 to 60 °C. The collector heating efficiency reached 88% at maximum compared to ambient air temperature. Solar radiation showed a pattern of lower intensity at the beginning of the day,

peaking around mid-day, and then gradually decreasing, as shown in figure 2. Maximum solar radiation values recorded were 862.3 W/m² on the first day, 885.8 W/m² on the second day, and 820.5 W/m² on the third day, based on measurements.




Figure 1. Variation of solar radiation for the time of day.

In Figure 2, fluctuations in humidity over time are depicted. Initially, there is a gradual alteration in humidity for nearly an hour, followed by a sharp decline. Towards the end of the drying process, the indicator remains relatively stable. It took approximately 24 hours to decrease the initial moisture content of the apricots from 85% to 19%. The timeframe between 10:00 and 16:00 on a given day proves to be optimal for conducting experiments.




Figure 2. Changes in apricot moisture over time.

Mathematical model selection. To determine a suitable model for apricot drying in the IFCS system, we employed the eleven empirical models listed in Table 1 to compare experimental and theoretical moisture ratio data over time. Figure 3 illustrates the comparison between experimental and predicted data using the Logarithmic, Henderson and Pabis, Approximation diffusion, and Midilli and Kucuk models.

Based on the observations from Figure 4, it is evident that drying in the IFCS occurs under stabilized conditions, and the behavior of experimental data is well-described by models. The experimental data (MR_{exp} curve) closely aligns with the calculated theoretical data (MR_{pre} curve).




Figure-3. IFCS thin layer models comparison of experimental and calculated MR versus drying time, a- Logarithmic model, b- Henderson and Pabis model, c- Approximation diffusion model d- Midilli and Kucuk model.

Statistical analysis was done to select the most appropriate empirical model for drying apricots for IFCS systems. The analysis was conducted to decide the most suitable model with the highest value of the statistical parameter, R^2 (Equation 2), and the lowest values of X^2 (Equation 3) and $RMSE$ (Equation 4).

Table 2 presents the constant values (k , n , a , b , c , g) obtained for the eleven models through fitting experimental data to drying models. Additionally, it displays the statistical parameters calculated using Equations 2, 3, and 5 for IFCS apricot drying.

Table-2. Mathematical model coefficients and statistical results for apricot drying.

No	Model constants	R^2	X^2	$RMSE$
4	$k=0.071691$, $a=0.895283$, $c=-0.01090$	0.978647	0.001463	0.033551
5	$k=0.073495$, $a=0.886173$	0.978611	0.001333	0.033579
9	$k=0.073491$, $a=0.585426$, $b=0.000162$	0.978611	0.001466	0.033579
11	$k=0.035451$, $a=0.850636$, $n=1.378115$, $b=0.005304$	0.987727	0.000935	0.025437

The statistical analysis of both observed and calculated data revealed R^2 values ranging from 0.941678 to 0.999993, X^2 varying between 0.000935 and 0.003634, and $RMSE$ fluctuating from 0.025437 to 0.055449 for apricot drying using IFCS. These statistical parameters are unitless. Within the IFCS framework, all models provide a similarly accurate depiction of experimental data, with minimal distinctions. However, among these models,

more parametric methods like Logarithmic, Henderson and Pabis, Approximation of diffusion, and the Midilli and Kucuk consistently yield better outcomes compared to others.

Conclusions

This research explored the drying method of apricots using indirect forced cabinet solar drying (IFCSD), combining practical experiments with mathematical analyses. Variations in environmental factors like temperature, humidity, and air quality were observed to significantly influence both the duration of drying and the quality of the final dried apricots. While regions with dry climates, such as Uzbekistan, might not encounter substantial issues with product rehydration during processing, areas with higher humidity levels face risks like microbial growth due to increased water activity in the dried fruit. Among the eleven models assessed within the IFCSD system, all provided similar descriptions of experimental data due to the consistent conditions maintained. However, parametric methods like the Logarithmic, Henderson, and Pabis models, as well as the Approximation of diffusion, and the Midilli and Kucuk models consistently outperformed other approaches in the context of IFCSD.

References

- [1] S. Madhankumar, K. Viswanathan, M. I. Taipabu, and W. Wu, "A review on the latest developments in solar dryer technologies for food drying process," *Sustainable Energy Technologies and Assessments*, vol. 58, p. 103298, Aug. 2023, doi: 10.1016/j.seta.2023.103298.
- [2] "Apricot Production by Country 2024." Accessed: Mar. 30, 2024. [Online]. Available: <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/apricot-production-by-country>
- [3] Ginzburg A. S., *Fundamentals of the theory and technology of drying food products*. 1973.
- [4] G. G. Umarov, Sh. M. Mirzayev, and O. N. Yusufbekov, *Solar dryer for agricultural products*. Toshkent, Fan., 1994.
- [5] M. R. Nukulwar and V. B. Tungikar, "A review on performance evaluation of solar dryer and its material for drying agricultural products," *Materials Today: Proceedings*, vol. 46, pp. 345–349, 2021, doi: 10.1016/j.matpr.2020.08.354.
- [6] S. W. Sharshir et al., "Recent efforts in developing agricultural product drying processes using solar energy," *Solar Energy*, vol. 257, pp. 137–154, Jun. 2023, doi: 10.1016/j.solener.2023.04.022.
- [7] K. Usmanova et al., "Study on the production of various dried products from apricot varieties," *E3S Web Conf.*, vol. 377, p. 03009, 2023, doi: 10.1051/e3sconf/202337703009.
- [8] S. Rejabov, B. Usmonov, K. Usmanov, and A. Artikov, "Experimental Comparison of Open Sun and Indirect Convection Solar Drying Methods for Apricots in Uzbekistan," in *The 3rd International Electronic Conference on Processes*, MDPI, Aug. 2024, p. 26. doi: 10.3390/engproc2024067026.
- [9] S. Sultanova, K. Usmanov, D. Ungbayeva, and D. Tadjibayeva, "Development of adaptive neural-fuzzy models for predicting solar dryer performance," *UniTech*, vol. 122, no. 5, May 2024, doi: 10.32743/UniTech.2024.122.5.17503.

[10] S. Timoumi, D. Mihoubi, and F. Zagrouba, "Simulation model for a solar drying process," *Desalination*, vol. 168, pp. 111–115, Aug. 2004, doi: 10.1016/j.desal.2004.06.175.

YER MONITORINGINI YURITISHDA ZAMONAVIY UCHUVCHISIZ UCHISH QURILMALARINI QO'LLASH

S.Ishmurodova, assistent,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
Xidirova Barno Bahodir qizi, talaba,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Hozirgi kunda dunyoda aholi soni yildan yilga ko'payishi va aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ortishi kuzatilmoqda. Oziq - ovqat mahsulotlarni aksariyat qismi qishloq xo'jaligi yerlaridan olinishi hech kimga sir emas. Bu esa yer resurslaridan samarali foydalanishni hamda doimiy nazorat qilishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, yer atrof-muhitning muhim tarkibi sifatida o'zining kenglik, relyef, iqlim, tuproq qatlami, o'simliklari yer osti boyliklari, suvlari bilan tavsiflanganligi xolda qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi, shuningdek xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini joylashtirishning kenglik asosi bo'lganligi sababli yer maydonlarini o'rganish masalalari yagona davlat yondashuvini talab qiladi.

Bu esa o'z navbatida yer maydonlarini tizimli hamda majmualari tarzda kuzatuvlar asosida nazoratni amalga oshirish zaruratini belgilaydi. Bunday tizimli nazoratni amalga oshirish mehanizmini yer monitoringi deb ta'kidlasak mubolag'a bo'lmaydi.

Yer monitoringini o'tkazishda zarur ma'lumotlar turli vositalar yordamida olinadi va turli usullar bilan olinishi mumkin. Yer monitoringi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatishning texnik asosi zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan geografik axborot tizimlari (GAT) bo'lib, ularning ishlashi yagona dasturiy ta'minot bilan ta'minlanadi. Yer monitoringi avtomatlashtirilgan axborot tizimining barcha ierarxik darajalarida ma'lumotlar bazasi yuqorida ko'rsatilgan barcha turdagi ma'lumotlarni hisobga olish, qidirish, saqlash va uzatishni amalga oshiradigan ma'lumotlar banklaridan iborat bo'lishi kerak.

1970 - yillardan beri fan va texnika sohasidagi tadqiqotlarning yagona ko'p tarmoqli yo'nalishi sifatida yerni masofadan turib zondlash jadal rivojlanib kelmoqda.

Aerofotosuratga olish va uning natijalaridan tematik foydalanish bo'yicha yarim asrdan ortiq tajribaga asoslanib, bugungi kunda masofaviy zondlash ko'plab ilmiy - texnikaviy muammolarni hal qilishda yer va o'rmon resurslari, yer tuzish loyihalarini ishlab chiqishda foydalanilmayotgan yer resurslarini aniqlash, sug'oriladigan yerlarda tuproqning sho'rlanishi aniqlash va eroziyaga uchragan joylarni aniqlash va eroziyaga qarshi chora tadbirlar loyihalarini ishlab chiqish hamda foydali qazilmalar konlari va yer osti suvlarini qidirish, o'rganish va oqilona foydalanishda qo'llaniladi. Yer monitoringida masofaviy zondlashning o'rni bevosita ortib bormoqda.

Keyingi yillar amaliyoti fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish apparatlaridan maqsadli foydalanish davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari oldida turgan vazifalar samarali bajarilishiga, shu jumladan, yer fondining operativ monitoringini olib borish va erdan, uzoqqa cho'zilgan obyektlardan (temir yo'llar, quvurlar va shu kabilardan) nooqilona foydalanish

holatlarini aniqlash sohalarida, qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarishda xavfsizlik talablarini ta'minlashda sezilarli darajada ko'maklashishini ko'rsatdi, shaharsozlikda ishlarni va geoaxborot xaritalarini yaratishni optimallashtiradi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda uchuvchisiz uchish apparatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga uchuvchisiz uchish apparatlarining keng ko'lamli turlarini ishlab chiqarish, qo'yilgan vazifalarga muvofiq foydalanilayotgan modellar va ixtisoslashtirilgan funksiyalarning xilma-xilligi uchuvchisiz uchish apparatlarining narxiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Uchuvchisiz uchish apparatlari narxlari shakllanishini tahlil qilish narxning asosiy ulushi konstruktiv elementlarga emas, balki intellektual qismga (dasturiy ta'minotga) to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Uchuvchisiz uchish apparatlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ularning qiymatini pasaytirish imkonini beribgina qolmay, balki valyuta mablag'larini tejash imkoniyatini ham beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Iqtisodiyot tarmoqlarida fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish apparatlaridan maqsadli va samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida keyingi yillar amaliyoti fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish apparatlaridan maqsadli foydalanish davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari oldida turgan vazifalar samarali bajarilishiga, shu jumladan, yer fondining operativ monitoringini olib borish va erdan, uzoqqa cho'zilgan obyektlardan (temir yo'llar, quvurlar va shu kabilardan) nooqilona foydalanish holatlarini aniqlash sohalarida, qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarishda xavfsizlik talablarini ta'minlashda sezilarli darajada ko'maklashishini ko'rsatdi, shaharsozlikda ishlarni va geoaxborot xaritalarini yaratishni optimallashtiradi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda uchuvchisiz uchish apparatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga uchuvchisiz uchish apparatlarining keng ko'lamli turlarini ishlab chiqarish, qo'yilgan vazifalarga muvofiq foydalanilayotgan modellar va ixtisoslashtirilgan funksiyalarning xilma-xilligi uchuvchisiz uchish apparatlarining narxiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Uchuvchisiz uchish apparatlari narxlari shakllanishini tahlil qilish narxning asosiy ulushi konstruktiv elementlarga emas, balki intellektual qismga (dasturiy ta'minotga) to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Uchuvchisiz uchish apparatlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ularning qiymatini pasaytirish imkonini beribgina qolmay, balki valyuta mablag'larini tejash imkoniyatini ham beradi.

Bugungi kunda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining samoviy hududida uchuvchisiz uchish apparatlaridan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 26-noyabrdagi 322-sonli va "O'zbekiston Respublikasi fuqaro va davlat aviatsiyasining uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 2016-yil 31-avgustdagi 287-sonli qarorlari qabul qilingan. Ayrim tashkilotlar tomonidan qishloq xo'jaligi va shaharsozlik maqsadlari uchun uchuvchisiz uchish apparatlari olib kelingan va ulardan samarali foydalanilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini yanada rivojlantirish, konstruktiv elementlarni bosqichma-bosqich mahalliyashtirish va fuqaro aviatsiyasiga tegishli bo'lgan uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish,

shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlaridagi maqsadli vazifalarni hal etish uchun ularni tizimli qo'llash maqsadida:

Uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar)-bu tushuncha XXI asrning boshiga qadar u faqat harbiy maqsadlar uchun foydalanilgan. Hozirga kelib esa dronlar kundalik hayotda ham, biznesda ham keng qo'llanilmoqda. Dronlarning yaratilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab Avstriya artilleriyasining leytenanti Franz fon Yuxatik 1849 yil 12 iyulda Venetsiya qo'zg'olonida qamalda bo'lgan shahar ustiga bomba shari uchirildi. Portlash sezilarli natijalarga olib kelmadi, ammo Venetsiyaliklar orasida vahima paydo bo'ldi. Ushbu hodisa uchuvchisiz uchish vositalaridan foydalanishga oid birinchi hujjatlashtirilgan dalil hisoblanadi. 1910 yilga kelib Ogaya shtatidagi amerikalik harbiy muhandis Charlz Kettering uchuvchisiz uchish vositasi-qanotli bomba g'oyasini taklif qildi. Shunday qilib, bu taklif dunyoda uchuvchisiz zarba beradigan samolyotlarning rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qildi.



Dron texnologiyasi - bu zamonaviy jamiyatga doimiy ta'sir ko'rsatadigan, bizning hayotimizni va biznes yuritishimizni o'zgartiradigan ajoyib yangilik.

Zamonaviy dehqonchilikni o'zgartirish uchun ushbu ilg'or vositalardan foydalangan holda, fermerlarga dronlar ishlab chiqilgani kata yordam berdi desak adashmagan

bo'lamiz.

Yuqori texnologiyali uchuvchisiz samolyotlar fermerlar va agrosanoat korxonalarini yerlarining ekinlarini parvarish qilishdan tortib ekish, chorvachilikni boshqarish, ekinlarni purkash, yerlarni monitoring qilish, xaritalarini tuzish va boshqa ko'plab imkoniyatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligida uchuvchisiz uchish apparat (dron)lar fermerlik xo'jaligini loyihalashtirish va optimallashtirishga yordam beradi. Bu esa taxminlarga asoslangan qarorlar o'rniga, aniq ma'lumotlarga ega fermer xo'jaliklarini boshqarish tizimini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi uchuvchisiz samolyotlari narxi sezilarli ravishda pasayib ketdi, bu esa talabni oshirdi va uchuvchisiz samolyotlar fermerlar uchun sarmoya kiritish manbayiga aylandi.

Yaqin yillarda qishloq xo'jaligi uchun uchuvchisiz samolyotlari bozori 38 foizdan oshishi kutilmoqda. Aholining ko'payishi va iqlim o'zgarishi bilan qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish zarurati yanada oshadi¹.

Qishloq xo'jaligida uchuvchisiz samolyotlardan bir nechta yo'nalishlarda foydalanib kelinmoqda, masalan:

- yer va ekinlarni monitoring qilish orqali o'rganish;

- yovvoyi o'tlarga qarshi kurashish va ularniq yo'q qilish maqsadida;
- ekinning umumiy holatini nazorat qilish;
- chorvachilikni boshqarish va yana boshqa ko'plab maqsadlar uchun foydalanib

kelinmoqda.

Dronlar harakatlantiruvchi tizimlar, infraqizil kameralar, GPS va navigatsiya tizimlari, dasturlashtiriladigan boshqaruvchilar va parvozlarni avtomatik rejalashtirish kabi tizim va funktsiyalar bilan jihozlangan. Bundan tashqari, ma'lumotlarni qayta ishlash uchun maxsus dasturiy ta'minot yordamida har qanday to'plangan ma'lumot darhol operatsion boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Xulosa. Prezidentimizning mazkur qarori mamlakatimiz qishloq xo'jaligida va iqtisodiy jihatdan rivojlanishning katta bosqichiga olib chiqadi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bu kabi uchuvchisiz apparatlar yordamida sho'rlanish darajasi, eroziyaga uchragan maydonlar, sug'oriladigan ekin maydonlarini zarar yetkazmasdan turib monitoring qilish imkoniyatini beradi. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yer monitoringi o'quv qo'llanma R.A.Turayev 2022 yil.
2. Xudoyberdiyev, F. Sh., Bobojonov, S. O', & Muxamadov, Q. M. O'. (2022). Markaziy osiyo mamlakatlarida chiqindi obyektlarini boshqarishning bugungi holati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 967-976.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida.

NASOS STANSIYALARINING ISHONCHLIGI. (Qarshi magistral kanali misolida)

R. Xo'jaqulov, t.f.d. (DSc), professor,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
F.Yu.Tursunov, assistent TIQXMMI MTUning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Ishlash vaqtida ishonchlilikni ta'minlash uchun texnik xizmat ko'rsatish usullari va texnik diagnostika ko'rib chiqiladi. Ishonchlilik barcha texnologik jarayonlar va ularning rejimlari, gidravlik jarayonlardan nasos qismlari va agregatlarini yig'ish operatsiyalarigacha ta'sir qiladi. Nasos stansiyalarini (NS) ishlatish uchun zamonaviy texnologik jarayonlar, qoida tariqasida, jarayonning dinamikasiga yuqori talablar bilan sezilarli quvvat va harorat ta'siri bilan birga keladi. Eng yirik nasos uskunalari Amu-Buxoro mashinasozlik kanali (ABMK), Qarshi (QMQ), Jizzax va Amu-Zang kanallari kaskadlarida o'rnatilgan. Yirik stansiyalar soni kam (jami 3%), lekin ularning Respublika suv xo'jaligiga qo'shgan hissasi juda katta. Umumiy hisoblangan suv ta'minoti 2600 m³ / s dan oshadi, yillik suv ta'minoti 40 km³ dan ortiq.

Nasos-energetika qurilmalarining yangi konstruksiyalaridan foydalanish va Qarshi magistral kanali (QMQ) PS-1 ning energiya tejoychi yangi ish rejimlarini ishlab chiqish PESning ulash inshootlari rejimini takomillashtirishni nazarda tutadi, bu esa sezilarli darajada tejash.

Muhokama va natijalar.

Hozirgi vaqtda ishlaydigan suv ta'minoti inshootlari faqat cheklangan ish sharoitlari uchun mo'ljallangan. Ularning tasnifi va mintaqaviy va gidrologik xususiyatlarni hisobga olgan holda hisoblash usullari mavjud emas. Tuzilmalarda oqimni boshqarish funksiyalari mavjud emas.

Katta mashina kanallarini ishlatish tajribasi shuni ko'rsatadiki, nasos agregatlari ishida nosozliklarning 29% gacha bo'lgan qismi suv ta'minoti inshootlaridagi noqulay gidravlik jarayonlarida suv olish joyidagi girdob zonalari va voronkalar hosil bo'ladi.

Nasos stantsiyasining keng diapazonli oqimlarga ega jadval bo'yicha ishlashi va nasos stantsiyalarining ko'p sonli birikmalari gidravlika blokining barcha elementlarida oqim tuzilishining o'zgarishiga olib kelishi bilan og'irlashadi.

Suv olish inshooti suv ta'minoti tizimining asosiy ob'ekti bo'lib, u orqali suv manbasidan (daryo yoki suv omboridan) suv oqadi. Uning maqsadi suv manbasidan suvni iste'mol qilish jadvaliga muvofiq olishni ta'minlash va iloji bo'lsa, cho'kindi, suzuvchi qoldiqlar va shlaklarning ta'minot kanaliga kirishiga yo'l qo'ymaslikdir. Bundan tashqari, ta'mirlash, tozalash yoki favqulodda vaziyatlarda ta'minot kanalini to'liq yoki qisman uzib qo'yish imkonini berishi kerak.

O'zbekistonda NS binosini suv bilan ta'minlash uchun asosan tuproqli to'shakka ega yoki beton bilan qoplangan ochiq kanallardan foydalaniladi. Ta'minot kanali oldinga kamera bilan tugaydi, bu suvning suv olish moslamalarining barcha teshiklariga silliq yaqinlashishini ta'minlaydi. Ta'minot kanalining maksimal to'ldirish hajmi avariyasiz ishlash, loysiz sharoitlar, suvning bug'lanishi va filtratsiyasi bilan cheklanadi. Shuning uchun xavfsizlik talablarini iloji boricha to'liq qondiradigan, o'z cheklovlarini hisobga olgan holda ta'minot kanallarining ish rejimlarini tanlash kerak.

NS ob'ektlari birgalikda ishlaganda, ular NS va energiyani tejash rejimlarini ishga tushirish shartlarini ta'minlash uchun kirish va chiqish kanallariga NS ishonchliligiga bir qator talablarni qo'yadi. Nasosning kavitatsiya sharoitlari tufayli darajaning pasayishi qabul qilinishi mumkin emas.

NS ning ishlashini tahlil qilish asosida NS ning gidravlik texnik blokining cheklovchi elementlariga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Shunday qilib, bir necha yillar davomida eng yirik "Amubuxara-1" NS ning unumdorligining pasayishi nasos va energetika uskunalari sifatida ishlab chiqarish bilan izohlanadi va oxirgi bloklarning ishlamay qolishi ularning yomon ta'mirlanishi bilan izohlanadi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida tashqi agregatlarning ishlamay turishi stantsiyaning o'rtacha ko'rsatkichidan 1,7...2,5 barobar, avariyaviy ta'mirlash muddati esa 2,9...3,8 barobarga oshib ketishi aniqlandi. Bu holat tashqi nasoslarni suv bilan ta'minlash uchun noqulay gidravlik sharoitlar bilan izohlanadi. Xuddi shunday manzara o'rganilayotgan kaskadlarda ham bir xil turdagi NS (Alatskaya, Qorakulskaya, Yamanjarskaya)da ham, suv olish joyidagi yon devorlari parallel bo'lgan boshqa tuzilmalar stantsiyalarida ham (Qiziltepa, Qarshi) kuzatiladi. KMK kaskadida kapital ta'mirlanganlarning 70% gacha ekstremal bloklar edi. Gidrotexnika majmuasida gidravlik jarayonlar bilan bog'liq boshqa umumiy operatsion qiyinchiliklarning sabablari aniqlandi.


Ushbu kompleksning ishonchliligi va xavfsizligini oshirish suv ta'minoti rejimlarini ko'p mezonli tanlash va bir nechta jismoniy qarama-qarshi miqdorlarni optimallashtirish

zarurati bilan murakkablashadi.

Cho'kindi miqdori yuqori bo'lgan suv manbalaridan suv bilan ta'minlash shartlarini to'liq miqyosli gidravlik tadqiqotlar olib boradilar. Bobotog' NS da suv olish joyi oldida davriy havo oqishlari bilan aylanma voronkalar qayd etilgan. Nasos oqimi maksimal 6,07 m³ / s bilan 40-45 daqiqa davomida 3,7 dan 5,75 m³ / s gacha. Yaqinlashishda oqim tezligining notekis maydonidan kelib chiqadigan oqim turbulentsligi va gidravlik vorteks hunilarining mavjudligi nasosning ishlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, ularning tebranishini oshirishi va besleme tezligini o'zgartirishi mumkin. Shunday qilib, oqim agregatning rotorining aylanishi bilan bir xil yo'nalishda buralsa, bosim va oqim pasayadi va oqim rotorning aylanish yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalishda buralsa, bosim ortadi.

Oldinga kamerada tezlikni taqsimlash rejimini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muammoli (kaskadlarning yil davomida ishlashi tufayli), ya'ni NS ish rejimi eng yaxshi bo'lganida rejimni yaxshilash imkoniyati saqlanib qoladi.

NS-1 KMK oqim tuzilishini o'rganish oqim tezligi komponentlarini o'lchashni o'z ichiga oladi: aksenel v_a , radial, v_r , tuman v_u . Nasos rejimi o'zgarganda, assimilyatsiya trubasining chiqish qismidagi tezlik diagrammasi baholandi (Q , H , H_s). Aksenel tezlikni taqsimlash grafiklaridan foydalanib, tezlikni taqsimlash diagrammalari tuzildi. Birinchi diagramma mutlaq tezliklarning taqsimlanishini, ikkinchi diagramma - nisbiy tezliklarni ifodalaydi, 1-rasm.



Assimilyatsiya trubasining o'qiga perpendikulyar bo'lgan - assimilyatsiya trubasining o'qiga to'g'ri keladigan ko'ndalang kesim o'qi bo'ylab mutlaq tezliklarni taqsimlash diagrammasi.

I $\alpha = -2^\circ$; 2. $Q = 40,9 \text{ m}^3/\text{c}$; 3. $H = 18,6 \text{ m}$; 4. $H_s = -3,5 \text{ m}$; 5. $V_{cp} = 7,9 \text{ m/c}$.

II $\alpha = -2^\circ$; 2. $Q = 40,4 \text{ m}^3/\text{c}$; 3. $H = 18,0 \text{ m}$; 4. $H_s = -4,1 \text{ m}$; 5. $V_{cp} = 7,8 \text{ m/c}$.

1 - rasm. Suv qabul qiluvchidagi mutlaq oqim tezligi diagrammasi NS-1 KMK

Nasoslarga turbulent ta'sirini kamaytirish bilan oqimni isloh qilish usullarini optimallashtirish tabiiy sharoitlarda keyingi eksperimental o'rganishni talab qiladi.

Ishonchlilik va xavfsizlik nuqtai nazaridan, eng xavfli davriy tebranishlar bo'lib, ular aniq belgilangan diskret komponentlar bilan mexanik, elektromagnit va gidravlik jarayonlarning natijasidir. Bunday xavfli tebranishlar odatda kuchli diagnostik signallardir (ya'ni ular tebranish shovqini fonida yaxshi ajralib turadi).

Nasosda gidravlik xarakterdagi tebranishlar pervanel pichoqlari soniga mutanosib pichoq chastotasida paydo bo'ladi. Yangi nasos 300VO-37/26T uchun ulardan oltitasi bor va pichoq chastotasi:

$$f_{\Gamma} = 6 \times f_0 = 25,0 \text{ Гц}$$

OPV11 - 260 nasosi 4 ta pichoqqa ega va pichoq chastotasi:

$$f_n = 4 \times f_0 = 16,67 \text{ Гц}$$

RS chiqishidagi to'g'rilash moslamasi o'z pichoqlari soniga mutanosib chastotali tebranishlarni qo'zg'atadi:

$$f_a = f_0 * 12 = 50 \text{ Гц},$$

Vertikal nasosning tebranish faolligining sabablari kelib chiqishi bo'yicha mexanik, gidravlik va elektrga bo'linadi, shu jumladan asosiy komponentlar va oqim ta'minoti usullari. Oqimning bir hil bo'lmasligining sababi, girdob zonalarini shakllantirish jarayonida aylanadigan pichoqlar atrofidagi assimetrik oqimdir. Oqimning notekisligi RS kamerasida pichoq chastotasi va uning yuqori harmoniklarida tebranish paydo bo'lishiga olib keladi.

Burilish uchun texnologik imkoniyatlar mavjud bo'lmaganda eskirgan sharsimon kameralar va RSlar uchun yuqoridagi sabablarning kombinatsiyasi ustunlik qiladi.

Ikkala turdagi nasoslar orasidagi maksimal tebranish amplitudasi ikkinchi yangi nasosning (PU No 3) RS kamerasida qayd etilgan - vertikal yo'nalishda 989,8 Gts chastotada 17,9 m / s², bu mexanik tebranishning kuchayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. RC da past chastotalar (PU №4, aylanish va pichoq chastotalari 32...42 mkm bo'lgan harakatlanish tebranishlari bilan, tebranishning eng yuqori tezlashuvining qiymati 22,1 m / s²).

Nasos kamerasida tebranish kuchayishining asosiy manbai nasosdagi gidrodinamik muvozanat va oqimning heterojenligidir. Ushbu nuqsonlarning tabiati - pichoqlar va kamera o'rtasidagi notekis bo'shliq, pichoqlar orasidagi qadam va burchakdagi farqlar yoki notekis eskirish va tebranish namoyon bo'lishi boshqacha.

Pichoq chastotasi va uning yuqori harmoniklarida tebranishning kuchayishi rotor pichoqlari orasidagi oqimdagi tezlik va bosim maydonining notekisligini ko'rsatadi. Pichoqlar profilining degradativ o'zgarishi natijasida bunday nuqson RA № 4 (32 mkm) va NA № 5 (50 mkm) da mavjud. Shlangi nomutanosiblik uchta yangi 300VO-37/26Ts nasoslarining ikkitasida ham mavjud, bu erda pichoqlar yangi va kameralar silindrsimon.

Boshqa tomondan, texnik holatning operativ monitoringi yuqori ishonchlikni ta'minlashi kerak. Shu sababli, parametr monitoringi bilan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash strategiyasini qo'llash doirasini butun RS ning uzluksiz ishlashi sababli butun PS ishlaymay qolguncha yoki xavfli favqulodda vaziyatga qadar ishlashiga ruxsat etilmaydigan tizimlar bilan cheklash tavsiya etiladi. yuzaga keladi. Bu bosim quvurlari va katta radiusli kengaytirish bo'g'inlari uchun amal qiladi.



1 - rasm. Bosim quvurlari va kompensatorlar NS KMK diametri 3,60 m.

O'zboshimchalik bilan yuklanish yo'nalishi ostida quvurlarning uzunlamasiga va ko'ndalang tebranishlarini o'rganish uchun novda tebranishlarining amaliy nazariyasi qo'llaniladi.

Shaklda quvur o'tkazmalarini tanlaymiz;

$$u_1 = u - z\alpha_2, u_2 = 0, \quad (1)$$

$$u_1 = u - y\alpha_1 - z\alpha_2, u_2 = v + z\theta, \quad (2)$$

bu erda: u_1, u_2 komponentlar quvur liniyasining istalgan nuqtasining siljishlari; $u, v, -dV, \alpha_1, \alpha_2$ tezlikda kinetik energiyasi DT o'zgarishi bilan quvur o'qining uzunlamasına, ko'ndalang harakatlari – sof egilish vaqtida quvur o'qining aylanish burchaklari va ularning y, z koeffitsientlari bilan o'zgarishi; θ - quvur liniyasi o'qidagi o'zgarishlar.

Kinetik energiyani quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\int_t \delta T dt = \int_t \int_V \left[\rho \frac{\partial u_1}{\partial t} \delta \frac{\partial u_1}{\partial t} + \rho \frac{\partial u_2}{\partial t} \delta \frac{\partial u_2}{\partial t} \right] dV dt \quad (3)$$

bu yerda, ρ, δ - qo'llab-quvvatlash va quvur liniyasi materiallarining zichligi.

Potensial energiya $\delta \Pi$

$$\int_t \delta \Pi dt = \int_t \int_V \left(\sigma_1 \delta \frac{\partial}{\partial x} (u - z\alpha_2) \right) dV dt. \quad (4)$$

O'zgaruvchanlik belgilari ostida qavslarni ochgandan so'ng, bizda bor

$$\int_t \delta \Pi dt = \int_t \int_V \left(\sigma_1 \delta \frac{\partial u}{\partial x} - z\sigma_1 \delta \frac{\partial \alpha_2}{\partial x} \right) dV dt. \quad (5)$$

Potensialning qismlari tomonidan integratsiyalashgandan so'ng (4), kinetik (3), gravitatsion δA energiya

$$\int_t (\delta T - \delta \Pi + \delta A) dt = 0. \quad (6)$$

Natijada shakldagi tenglamani olamiz

$$\int_t (\delta T - \delta \Pi + \delta A) dt = \int_t \int_x \left\{ \left[-\rho F \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + \frac{\partial N_x}{\partial x} + N_x(P_1) + N_x(q_1) \right] \delta u + \left[\rho F \frac{\partial u}{\partial t} \delta u + \rho I_y \frac{\partial \alpha_2}{\partial t} \delta \alpha_2 + \rho F \frac{\partial W}{\partial t} \delta W \right] \right\} dx = 0. \quad (7)$$

bu yerda, F – trubaning tasavvurlar maydoni; W – quvurlarning burilishlari; m_p – quvur liniyasining chiziqli og'irligi; I_y – egiluvchan qattqlik; $N_x(P_1), N_x(q_1)$ – boshlang'ich bosh, suv oqimi bosimini etkazib berish va o'zgartirish dN_x .

Noma'lum funktsiyalarning variantlari nolga teng emas, shuning uchun koeffitsientlar nolga teng bo'lishi kerak va (7) tenglamadan tegishli chegara va boshlang'ich shartlarga ega bo'lgan tenglamalar tizimini olish mumkin.

Ko'chishlardagi chegaraviy shartlar

$$\begin{aligned} \left(-EF \frac{\partial u}{\partial x} + N_x(\varphi_1) \right) \delta u \Big|_x &= 0, \\ \left(-EI_y \frac{\partial \alpha_2}{\partial x} - M_y(\varphi_1) \right) \delta \alpha_2 \Big|_x &= 0, \end{aligned} \quad (8)$$

Dastlabki shartlar:

$$\rho F \frac{\partial u}{\partial t} \delta u \Big|_t = 0, \rho I_y \frac{\partial \alpha_2}{\partial t} \delta \alpha_2 \Big|_t = 0, \rho F \frac{\partial W}{\partial t} \delta W \Big|_t = 0. \quad (9)$$

Ko'p hollarda eng xavfli narsa suv oqimining bosim o'zgarishi to'lqinining yo'nalishining quvur liniyasining uzunlamasına o'qi bilan mos kelishidir. Amalga oshirilgan nazariy va eksperimental hisoblash tadqiqotlari ma'lum darajada ushbu muammolarni hal qiladi va strukturaning asosiy o'qlariga nisbatan ixtiyoriy yo'nalishdagi tebranishlarni o'rganish uchun ishlab chiqilgan matematik modellar, algoritmlar va dasturiy paketlardan foydalanishning yangi yo'nalishi va imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Xulosalar:

1. Katta vertikal nasosli kaskadlarining ishonchliligi va xavfsizligi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar katta miqdordagi tajribalarni talab qiladigan muhim texnik murakkablikning murakkab vazifasidir. Katta nasoslarning ish rejimlarini takomillashtirishga ularning konstruksiyalari va oqim yo'lining xususiyatlarini o'zgartirish orqali erishish mumkin. Ularni hisobga olish metodologiyasi operatsion xarakteristikalar bo'yicha operativ ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanish va taqdim etilgan bog'liqliklar bo'yicha tahlil qilishdir.

2. Tashqi nasoslarni suv bilan ta'minlash uchun noqulay gidravlik sharoitlar o'rganildi va gidrotexnika majmuasida gidravlik jarayonlar bilan bog'liq boshqa keng tarqalgan operatsion qiyinchiliklarning sabablari aniqlandi. O'rganilayotgan kaskadlarda bu hodisalar bir xil turdagi umumiy stantsiyalarda ham, suv ta'minoti inshootlarining boshqa sxemalari stantsiyalarida ham kuzatiladi. NS-1 KMKning oqim strukturasini o'rganish oqim tezligining aksenel, radial va aylana komponentlarini o'lchashni o'z ichiga oladi. Nasos rejimi o'zgarganda assimilyatsiya trubkasi va quvurlarning chiqish qismidagi tezlik diagrammasi baholandi.

3. O'zboshimchalik bilan yuklanish yo'nalishi ostida quvurlarning uzunlamasına va ko'ndalang tebranishlarini o'rganish uchun amaliy tebranish nazariyasi ishlatilgan. Quvur o'qining egilish paytida turli oqim tezligi va aylanish burchaklarida kinetik energiyaning o'zgarishi va ularning quvur o'qi koeffitsientlari bilan o'zgarishi bilan quvur liniyasining ishonchliligini hisoblash uchun bog'liqliklar taklif etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Kurbon Dzhuraev, Aydar Nasrulin, Fotima Shadibekova and Shokhboz Kurbonov Geoinformation systems at the selection of engineering infrastructure of pumped storage hydropower for the tuyamuyun complex. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering **869** (2020) 042004 doi:10.1088/1757-899X/869/4/042004

2. М.Бакиев, Е.Кириллова, Р.Хужакулов Безопасность гидротехнических сооружений // ТИМИ, Ташкент, 2008, 110 с.

3. Уришев Б., Носиров Ф., Рахимкулов М. Повышение энергоэффективности насосных станций // Журнал «Innovatisation texnologiyalar» Қарши. №2(18). 2015 с.18-22.

4. Oleg Glovatskiy, Rustam Ergashev, Ilhom Kurbonov, Boybek Kholbutaev, Ilkhom Pirnazarov, and Adkhamjon Rajabov Practice of permanent presence and equipment of the Karshi main canal (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340101022>

5. Beata Mrugalska, Edwin Tytyk Quality Control Methods for Product Reliability and Safety <https://doi.org/10.1016/j.promfg.2015.07.683>
6. Kan E, Mukhammadiev M and Ikramov N 2020 Methods of regulating the work of units at irrigation pumping stations IOP Conference Series: Materials Science and Engineering Volume **869**, 042009 doi:10.1088/1757-899X/869/4/042009
7. Nasyrova, Naila & Glovatskiy, Oleg & Artykbekova, Fotima & Sultanov, Shukhrat. (2021). Operation of the Cascade of Pumping Stations of the Karshi Main Canal. 10.1007/978-3-030-72404-7_23.

ZAMONAVIY GAT DASTURLARI ORQALI GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI KARTASINI TUZISH (AMU - BUXORO MASHINA KANALI MISOLIDA)

Suyunov Abdug'ani Shavkat o'g'li,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi suyunovsha@mail.ru
Sirojev Otabek Ashur o'g'li, talaba,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti otabeksirojev@gmail.com

Dunyoda uning turli mintaqalarida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni zamonaviy GAT dasturlari asosida elektron xaritalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, gidrotexnika inshootlari tizimlarini o'rganish, tahlil qilishda kartografik ta'minlash uslublaridan keng foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada jahonning rivojlangan davlatlarida iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, tabiiy va ijtimoiy - iqtisodiy muammolarni o'rganishda ham suv xo'jaligi va gidrotexnika inshootlari elektron xaritalari yordamida hudud to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olishni ta'minlash hozirgi zamon kartografiyasining dolzarb vazifalari sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot ishining maqsadi. Zamonaviy GAT dasturlari orqali gidrotexnika inshootlari kartalarini tuzish va GAT texnologiyalarida kartografik metodlar asosida tadqiq qilish. Ushbu yo'l bilan tumanning har bir chekka hududi doimiy suv bilan ta'minlash darajasini to'liq nazorat qilishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni va xususan, suv xo'jaligini rivojlantirish, mamlakatimizning tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini inobatga olgan holda, suv xo'jaligi tarmoqlarining hududiy tarkibini takomillashtirishga doir keng qamrovli chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda GAT iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalarida keng qo'llanilmoqda. GAT dan foydalanish uchun katta hajmdagi yozma va grafikaviy, hudud bilan bog'langan ma'lumotlarni to'plash va ulardan samarali foydalanishda, zamonaviy GAT dasturida gidrotexnika inshootlari xaritalarini tuzish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Amu - Buxoro mashina kanali - Buxoro viloyatidagi sug'orish kanali. Amudaryoning o'ng qirg'og'idan, Chorjo'y shahridan (Turkmaniston) 12 km yuqorida boshlanadi. Qizilqumdan o'tib Buxoro vohasiga suv beradi. 1-navbati 1965 - yilda, 2 - navbati 1976 - yilda qurilgan. Umumiy uzunligi 400 km ni tashkil qiladi. Suvni maksimal ko'tarish balandligi 111 m, maksimal suv o'tkazish imkoniyati 270 m³/s Amu - Buxoro mashina kanalining 1 - navbati ishga tushirilgach, Buxoro viloyatida boshqa manbalardan sug'orib

kelingan 136,5 ming ga yerni Amudaryo suvi bilan sug'orish mumkin bo'ldi. Amudaryo havzasidagi 377 ming ga yerning suv bilan ta'minlanishini yaxshilash, 23,8 ming ga yangi yerlarni sug'orish imkoni tug'ildi. Magistral kanalda 65 gidrotexnika inshooti, 11 nasos stansiyasi (jumladan suvni 54 m balandlikka ko'tarib beradigan, har birining quvvati 12,5 ming kVt bo'lgan 10 nasos agregatli Hamza – 2 nasos stansiyasi) bor. Amu-Buxoro mashina kanalining nasos stansiyalari, ularning umumiy joylashishi, ayrim nasos agregatlarning quvvati, shuningdek nasoslarning avtomatika va telemexanika vositalari bilan jihozlanishi jihatidan mamlakat irrigatsiya tajribasida noyob hisoblanadi. Birinchi marta Buxoro viloyatida nasos stansiyasining old kamerasida belgilangan suv sathini doimo bir xilda saqlab turadigan 446 ta avtomatik tamba (zatvor) qo'llanildi. 152 – km da uch yo'nalishda suv taqsimlagich qurildi: chapda — Amu – Buxoro mashina kanalining 1 – navbati uchun (suv sarfi 60,3 m³/s), o'ngda — Amu – Buxoro mashina kanalining 2 – navbati uchun (suv sarfi 95,8 m³/s) va o'rtada rostlagich – To'dako'l sho'rini yuvish hamda kelajakda uni to'ldirish uchun suv beradi. Amu – Buxoro mashina kanalining 2 – navbati tugaydigan 191 – km da Qiziltepa nasos stansiyasi qurildi. U Amu – Buxoro mashina kanalining 2 – navbatidan Zarafshon daryosiga suv uzatadigan ikkinchi pog'ona hisoblanadi. Qiziltepa nasos stansiyasining yuqori befida suv sathini ta'minlash uchun To'dako'l botig'iga suv tashlaydigan inshoot qurilgan. Amu – Buxoro mashina kanali 2 – navbatining ishga tushirilishi 15,5 ming ga yangi yerlarni o'zlashtirish, Amudaryo suvi bilan Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlaridagi 77 ming ga sug'oriladigan yerlarning suv ta'minotini yaxshilash imkonini yaratdi.

Ushbu ma'lumotlarni GAT dasturlari orqali kartalarini yasab juda katta muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bu orqali viloyatning qaysi qismiga qay darajada suv yetib borayotganligini aniqlashimiz mumkin. Suv resurslaridan qishloq xo'jaligida nooqilona foydalanish, qurg'oqchilik, tuproq eroziyasi va umuman tuproqning buzilishiga olib keladi.

Gidrotexnika inshootlarini elektron xaritalar tizimini yaratish quyidagi muhim xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarni hal etishga qaratilgan:

- suvdan foydalanish axborotlari bilan ta'minlash;
- suv resurslarining holati va ulardan foydalanish bo'yicha tuman, viloyat statistika hisobotini shakllantirish;
- suvdan foydalanish huquqi, suvdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish;
- gidrotexnika inshootlarini ma'muriy-hududiy o'zgartirish uchun materiallarni tayyorlash;
- viloyat va tuman hududlarini rivojlantirish maqsadlari uchun;
- suv xo'jaligini rivojlantirish uchun;
- yer-suv munosabatlarini oydinlashtirish;
- suv resurslaridan oqilona foydalanishni qo'llab quvvatlash uchun;
- suvdan foydalanish uchun to'lovlarni amalga oshirish uchun;
- suvni narx bo'yicha baholash uchun va boshqalar.

Viloyatda elektron xarita har bir tumanlar, massivlar bo'yicha, massivlardagi qishloq fuqorolari yig'ini bo'yicha, fermer xo'jaliklari bo'yicha va har bir yer uchastkalari bo'yicha ishlab chiqiladi. Unda har bir massiv mutaxassislari o'ziga birlashtirilgan hudud haqidagi ma'lumotlarni to'playdilar va tumanga ular esa viloyatga taqdim qiladilar. Viloyat suv

resurslari va davlat kadastri bo'limida bir yoki ikkita mutaxassis u ma'lumotlarni kompyuterga kiritadilar va to'liq axborot ishlab chiqarish jarayonlarining bajarilishini ta'minlaydilar.

Xulosa. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan suv xo'jaligi sohasida, xususan suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish agrar sohaning Respublikamiz iqtisodiyotida suv xo'jaligining barcha tarmoqlarida islohotlarni amalga oshirishda asosiy ahamiyatga ega ekanligi belgilangan.

Suv xo'jaligi xaritalarini tuzishda GAT dasturlaridan foydalanib, hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda mutanosib ravishda hududni tashkil qilish, mavjud sug'oriladigan yerlar mahsuldorligini oshirishga mintaqa tuproqlarining meliorativ holatini yaxshilash, yerlarni hisobga olish, plan va xaritalarini tuzish natijasida hamda ilg'or fan yutuqlarini qo'llash asosida erishish mumkin.

Ushbu tarmoqda gidrotexnika inshootlarini hisobga olish vazifasini bajarishda mavzuli va qishloq xo'jalik xaritalarini tuzish muhim o'rin tutadi. Ular yordamida voqea va hodisalarning makon va zamonda tarqalishi ko'rgazma tarzda ifodalanadi, gidrotexnika inshootlari hisobga olinib o'ziga xos xususiyatlari taqqoslanadi, ilmiy tahlil qilish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 30 noyabrdagi 688-son qarori, 2022 — 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining kosmik tarmog'ini rivojlantirish konsepsiyasi

2. Xudayqulov N. Yer suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari: Yer suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari //Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI. - 2020.

3. Xudayqulov N. Qishloq xo'jaligi kartalarini tuzishda GAT qo'llash //Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI. - 2020.

4. H.N. Zaynidinov, O.U. Mallyayev, I. Yusupov. Cubic Basic Splines and Parallel Algorithms // International Journal of Advanced Trends in Computer Science and Engineering (IJATCSE), (Indexed by SCOPUS), ISSN: 2278-3091, 9(3), May - June 2020,3957-3960 Available Online at

5. Sergiyenko A.B. Sifrovaya obrabotka signalov. - 2-ye. - Spb: Piter, 2006. - 751 s.

6. <https://lex.uz/docs/4494500>

BUXORO VILOYATIDA PAST BOSIMLI SUV OQIMLARIDAN FOYDALANISHNING TEXNIK IMKONIYATLARI

Qo'ziyev Zafarbek Esanovich, t.f.f.d. (PhD), katta o'qituvchi,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti zafarbak119978@mail.ru

Jahonda gidroenergetika sohasida xususan, mikro gidroelektr stansiyalari (GES) ning past bosimli suv oqimlarida ishlash samardorligini oshirish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yevropa ittifoqining energetika sohasini rivojlantirish strategiyasida 2021 yildan 2030 yilgacha bo'lgan davrda kichik quvvatli gidroenergetik qurilmalarini o'rnatishga 2,56 milliard AQSh dollari yo'naltirish va foydalanish ko'rsatgichlarini 2,8 % ga oshirish rejalashtirilgan [1].

Respublikamizda ham qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyalarni ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, Buxoro viloyatida kichik quvvatli suv oqimida ishlaydigan qurilmalarni ishlab chiqarish va energiya samaradorligini oshirish zarur. Buning uchun mavjud gidroenergetika quvvatlaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlab, elektr iste'molchilari uzluksiz energiyadan ta'minlashda boshqa shakldagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qatorida barqarorligi yuqori samarador ko'rsatgichlarga ega bo'lgan GES ni loyihalash va ishlab chiqarish uchun ilmiy tadqiqotlarni olib borish kerak.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hududda mavjud gidroenergetika resurslari tahlili asosida nasos agregatlarining oqim energiyasidan foydalanish, xususan shu oqimlarga moslashtirilgan mikro GES ni ishlab chiqish muhim ekanligini ko'rsatdi.



1-rasm. Do'stlik nasos stansiyasidagi agregatlarning yuqori b'ef tomonidan ko'rinishi.

1-rasmda Amu-Buxoro mashina kanaliga qarashli Do'stlik nasos stansiyasidagi agregatlarning yuqori b'ef tomonidan ko'rinishi keltirilgan. Amu-Buxoro mashina kanalidan olingan ma'lumotlarga ko'ra bu nasos stansiyasining 12 ta nasos agregati mavjud bo'lib, umumiy suv sarfi $16,7 \text{ m}^3/\text{s}$ va nasos agregatlaridan chiquvchi suv oqimining napori $2...4 \text{ m}$ ni tashkil qiladi.

Nasos agregatlaridan chiquvchi suv oqimining gidrodinamik parametrlari muhim hisoblanadi. Shu sababli tadqiqot ishida nasos agregatlaridan chiquvchi suv oqimlarining asosiy ko'rsatgichlari aniqlash uslubiyotini keltirib o'tamiz.

Dastlab, quvurdan chiquvchi suv sarfi miqdorini aniqlaymiz [2].

$$Q = v \cdot S \quad (1)$$

bu yerda, v – nasos agregatlaridan chiquvchi suv oqimining tezligi, m/s ; S – suv quvurining ko'ndalang kesim yuzasi, m^2 .

Nasos agregatlari quvurdan chiquvchi suv oqimi sarfi mexanik quvvatining matematik ifodasi [3]:

$$N = \rho \cdot g \cdot Q \cdot H \quad (2)$$

bu yerda, H – suvning gidravlik napori, m; g – erkin tushish tezlanishi, m/s²; ρ – suv zichligi, kg/m³.

Amu-Buxoro mashina kanalidagi nasos agregatlaridan chiqadigan suv oqimlarining sarfi va bosimi qiymatiga asoslanib, 50 kW miqdordagi mexanik quvvatgacha energetik qurilmalar ishlab chiqarish imkoniyati borligi asoslandi.

Shuningdek, viloyatdagi ishlab chiqarish korxonalarida xususan, Buxoro neftni qayta ishlash zavodida texnologik uskunalarni sovtutish tizimida foydalaniladigan nasos agregatlarining suv oqimlaridan foydalangan holda mikro GES lar orqali elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Zavodda nasos agregatlarining soni 3 ta, quvvati 22 kW, ish unumdorligi 830 m³/soat va quvurning diametri 1000 mm ekanligini hisobga olib, zavoddagi nasoslarning yuklamasi o'zgarishi (nasos agregatlaridan chiquvchi suv sarfi qishki mavsumda 40 000 m³/sutka va yozgi mavsumda 60 000 m³/sutka) hisobiga 3...5 kW oralig'ida gidroenergetik quvvat mavjudligi aniqlandi.

Yuqoridagilar bilan birgalikda, "O'zenergoinspeksiya" Buxoro viloyat boshqarmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra hozirgi kunda Buxoro viloyati chekka joylarida markazlashgan elektr ta'minoti yetib bormagan taxminan 1000 ortiq elektr iste'molchilari (chorva xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari va hokazo) mavjud. Viloyatda vaxta rejimi asosida ishlaydigan 100 ga yaqin tashkilot va korxonalar mavjud. Buxoro viloyatining turli chet hududlarida yangi turizm obyektlarini yaratish uchun 10 dan ortiq sahro sayyohlik hududlari barpo qilingan. Bularning suv ta'minoti uchun foydalanilayotgan nasos agregatlaridan chiquvchi suv oqimlaridan ham gidroenergetik qurilmalar orqali elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, Buxoro tumanining cho'l hududida joshlashgan "Buxoro chorvo omad" MChJ ga qarashli chorvachilik xo'jaligidagi 50 kW quvvatli nasos agregatlarining ishlash vaqti mobaynida suv oqimida 3 kW miqdorida gidroenergetik quvvat mavjudligi va bir yilda nasos agregati 6500 soat ishlashini hisobga olgan holda mikro GES yordamida bir yilda 19500 kW·h elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatlari aniqlandi.

Buxoro viloyatida past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yuqoriligi aniqlandi, mintaqada 1200 dan ortiq 10...1250 kW quvvatli nasos agregatlari bir yilda 810...850 GW·h elektr energiyasi iste'mol qilishi aniqlandi, ushbu agregatlardan chiqadigan suv oqimidan foydalanish hisobiga nasos quvvatining 5...10 % miqdorida elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. International Renewable Energy Agency. <https://www.irena.org/europe>
2. Узоқов Ф.Н., Хўжақулов С.М., Узоқова Й.Ф. Муқобил энергиядан фойдаланиш асослари. Ўқув қўлланма–Т.: “Фан ва технология”, 2017. 160 б.
3. Мажидов Т.Ш. Ноанаънавий ва қайта тиклануви энергия манбалари. Дарслик–Т.: “Ворис-нашриёт”, 2014. 168 б.

YUQORI CHASTOTALI TO'LQINLAR (UCHT) YORDAMIDA ISSIQXONADAGI ZARARKUNANDALARGA QARSHI KURASHISH

Eshpulatov Nodir Mamatqurbonovich
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislik instituti"
t.f.f.d, dotsent n.ishpulatov@gmail.com
Xamidov Yusup Karimberdi o'g'li,
assistant, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
shaxiyeverkin@gmail.com

UCHT generatorlari ma'lum chastotali to'lqinlarni chiqaradi. Bu to'lqinlar hasharotlarning tanasiga kirib, ularning hujayralarida elektr toki oqimini buzadi.

Natijada, hasharotlarning asab tizimi chalkashib, ularning normal faoliyati to'xtaydi. Bu esa hasharotlarning o'limiga olib keladi.

1. To'lqinlarni chiqarish: UCHT generatorlari ma'lum chastotali elektromagnetik to'lqinlarni chiqaradi. Bu to'lqinlar odatda hasharotlarning sezgirlik diapazoniga mos keladi.

2. Tanaga kirib borish: Chiqarilgan to'lqinlar hasharotlarning tanasiga kirib boradi.

3. Asab tizimiga ta'sir: To'lqinlar hasharotlarning asab tizimiga ta'sir qiladi. Bu ta'sir asab hujayralarining normal faoliyatini buzishga olib keladi.

4. Chalkashtirish va o'lim: Natijada, hasharotlar chalkashib, yo'nalishini yo'qotadi, ovqatlanishdan va ko'payishdan to'xtaydi. Ba'zi hollarda, UCHT to'lqinlari hasharotlarning ichki organlariga ham ta'sir qilib, o'limga olib kelishi mumkin.

UCHTning ishlash mexanizmi quyidagi omillarga bog'liq:

Chastota: Har bir hasharot turi ma'lum chastotali to'lqinlarga sezgir bo'ladi.

Quvvat zichligi: To'lqinlarning quvvat zichligi ham muhim rol o'ynaydi. Yuqori quvvat zichligi hasharotlarga kuchliroq ta'sir qiladi.

Ta'sir vaqti: UCHT to'lqinlariga uzoqroq vaqt ta'sir qilish hasharotlarga ko'proq zarar yetkazadi.

UCHTning ishlash mexanizmi hali ham to'liq o'rganilmagan. Biroq, ushbu texnologiya zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashda samarali vosita sifatida ishlatilmoqda.

UCHTning turli xil hasharotlarga ta'siri:

Turli xil hasharotlar turli xil chastotali to'lqinlarga sezgir bo'ladi. Masalan, chivinlar va pashshalar pastroq chastotali to'lqinlarga sezgir bo'lsa, qurtlar va g'umbaklar yuqoriroq chastotali to'lqinlarga sezgir bo'ladi.

UCHTning ta'siri hasharotning yoshi, jinsi va rivojlanish bosqichiga bog'liq. Masalan, lichinkalar kattalarga qaraganda UCHT ta'siriga ko'proq sezgir bo'ladi.

UCHTning afzalliklari:

Samaradorlik: UCHT ko'plab hasharot turlariga qarshi samarali bo'lib, ularning tuxum, lichinka va kattalar shakllariga ta'sir qiladi.

Xavfsizlik: To'g'ri qo'llanilganda, UCHT o'simliklarga va odamlarga zarar yetkazmaydi.

Ekologik tozalik: UCHT kimyoviy vositalarni ishlatishni talab qilmaydi, shuning uchun atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

UCHTning kamchiliklari:

Narxi: UCHT generatorlari qimmat bo'lishi mumkin.

Ta'sir doirasining chegaralanganligi: UChTning ta'sir doirasi cheklangan, shuning uchun katta maydonlarni qoplash uchun ko'proq generatorlar kerak bo'ladi.

Zararkunandalarga qarshilik: Ba'zi hasharotlar UChTga qarshilik ko'rsatishi mumkin.

UChTning qo'llanilishi:

Issiqxonalarda: UChT generatorlari yordamida hasharotlarga qarshi himoya qilish tizimlari yaratilishi mumkin.

Oziq-ovqat omborlarida: UChT hasharotlarning oziq-ovqat mahsulotlariga zarar yetkazishini oldini olish uchun ishlatilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida: UChT ekinlarni zararkunandalardan himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin.

UChTni qo'llashda e'tiborga olish kerak bo'lgan jihatlar:

UChT generatorlarini to'g'ri joylashtirish va sozlash muhimdir.

UChTning ta'sir doirasi va chastotasini aniqlash kerak.

UChTni qo'llashda xavfsizlik choralarini ko'rish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Insect Pest Management: Principles and Practices" by D. Pimentel (2005) -
2. "Electromagnetic Fields and Life" by M. Blank (2007)
3. "Pesticide Resistance in Arthropods" by G. Georghiou (2006)
4. Bobojanov Yu.M. Eshpulatov N.M, Xamidov Yu.K. the effect of ultrasound on the health of workers Science and Education in Karakalpakstan. 2023 №4/1 ISSN 2181-9203

IKKI MARTA ZARYADLANGAN DIPOLYAR ELEKTR MAYDON EKTRANING HASHAROTLARNI TUTIB OLISH FUNSIYASI

Eshpulatov Nodir Mamatqurbonovich


"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislik instituti"

t.f.f.d, dotsent n.ishpulatov@gmail.com

Xamidov Yusup Karimberdi o'g'li, assistant, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti shaxiyeverykin@gmail.com

Oq pashsha an'anaviy hasharotlar o'tkazmaydigan to'rlardan (taxminan 1,5 mm to'r) o'tishga qodir bo'lgan pomidor etishtirishdagi asosiy zararkunandadir. Pomidor yetishtirishdagi eng katta iqtisodiy tahdid bu zararli o'simlik viruslarining, birinchi navbatda Geminiviruslarning yuqishidir. Oq pashshani insektitsidlar bilan nazorat qilish qiyin, chunki u asosan aksiyal barglar yuzasida oziqlanadi va tuxum qo'yadi va unga qarshi kurashda ishlatiladigan insektitsidlarning ko'p sinflariga qarshilik ko'rsatdi. Jismoniy usullar ushbu zararkunandalarga qarshi kurashning muqobil vositalarini taqdim etishi mumkin, chunki ular zararkunandalarga qarshi kurashning boshqa komponentlari bilan mos keladi, atrof-muhitga kam ta'sir qiladi va pestitsidlardan foydalanishni kamaytiradi, shu bilan insektitsidlarga qarshilik rivojlanishini sekinlashtiradi. Issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor ekinlarini yo'qotishning asosiy sababi bo'lgan pomidorning sariq barglari jingalak virusini (TYLCV) olib keladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun biz pomidor chang chiriyotganini nazorat qilish uchun ishlab chiqilgan elektrostatik spora cho'ktirgichidan foydalandik. Ushbu qurilma havodagi konidialarni jalb qilishda shunchalik samaraliki, spora cho'ktiruvchi tomonidan himoyalangan pomidor o'simliklari infektsiyasiz qoladi. Patogenlarni nazorat qilishda elektr

maydonining muvaffaqiyatiga qaramay, zararkunandalarga qarshi kurashda ushbu qurilmadan foydalanishga bo'lgan dastlabki urinish muvaffaqiyatsiz tugadi, chunki spora cho'ktiruvchining elektrostatik kuchi tuzoqqa tushgan katta yoshli oq chivinlarni ushlab turish uchun etarli emas edi. Elektr maydoni ekranining muvaffaqiyatli qo'llanilishi oq chivinlar va boshqa issiqxona zararkunandalarini boshqarish imkonini berdi.



1-rasm. Ikki zaryadli elektr maydonining hasharotlarni tutib olish mexanizmining sxematik tasviri.

1-rasm (A) Ikki tomonlama zaryadlangan dipolyar tipdagi ekran ICWlarni navbatmanavbat manfiy va musbat kuchlanish generatorlariga ulab, qarama-qarshi zaryadlangan o'tkazgich simlari o'rtasida elektr maydonini hosil qilish orqali osongina quriladi. Havoda ba'zi elektronlar mavjudligini bilamiz. Bu sohada kuch har doim elektronlarni (salbiy elektr) yerga surish uchun ishlaydi. Bu sohada esa elektronlar musbat qutb atrofida to'planadi, chunki u izolyatsiya qilingan (1-rasm (A)). Hasharot bu maydonga kirganda, uni ikki yo'l bilan qo'lga olish mumkin. Birinchidan, hasharot manfiy zaryadlangan ICW (salbiy qutb) yaqinidagi bo'shliqqa kiradi (1-rasm (B)). Bu erda hasharot erkin elektronlardan mahrum bo'lib, musbat elektrlashtiriladi va manfiy qutbga tortiladi (zaryadli musbat elektrifikatsiya). Shu bilan bir qatorda, hasharot musbat zaryadlangan qutb yaqinidagi bo'shliqqa kiradi (1-rasm(C)), elektronlarni qabul qiladi va salbiy elektrlashtiriladi va qutbga tortiladi (zaryad vositasida manfiy elektrifikatsiya). Hasharotlarni tutib olish uchun yetarli darajada kuchli edi. Sinovlarga issiqxona zararkunandalarining to'rt turi kiritildi: oq pashsha (B. tabaci), g'arbiy gulli trip (*Frankliniella occidentalis* Pergande (Thysanoptera: Thripidae)), yashil shaftoli aphid (*Myzus persicae* Sulzer (Homoptera: Aphididae)) va pomidor barglari. kichik chivin (*Liriomyza sativae* Blanchard (Diptera: Agromyzidae)). Bu zararkunandalarning barchasi hasharotlarga chidamli an'anaviy to'rlardan o'tishi mumkin (to'r o'lchami, ~1,5 mm). Fermer xo'jaliklarida mayda hasharotlar zararkunandalari ekinlarga jiddiy xavf tug'diradi. Yuqorida sanab o'tilgan zararkunandalarning uchtasi zararkunandalar hujumi bilan zararlanishdan tashqari, ayniqsa og'ir virusli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Oq pashsha, g'arbiy gul tripslari

va yashil shaftoli aphidlari ham mos ravishda TYLCV, pomidor dog'li tospovirus (TSWV) va bodring mozaikasi virusini (CMV) olib yuradi. Ushbu zararkunandalarning barchasi allaqachon mavjud bo'lgan asosiy insektitsidlarga qarshi qarshilikka ega. 2,0 kV da zaryadlash barcha ekranlar bilan eng yuqori shamol tezligida barcha sinov hasharotlarini qo'lga olish uchun etarli edi. Har bir ekran bir xil kattalikdagi salbiy va ijobiy kuchlanish bilan zaryadlanganligi sababli, haqiqiy potentsial farq jadvalda keltirilgan kuchlanishlardan ikki baravar ko'p edi. Ushbu natijalar ekran issiqxonada haqiqiy sharoitda sinovdan o'tgan barcha asosiy zararkunanda hasharotlar bilan kurashish mumkinligini ko'rsatdi.

(AC) va bir zaryadli (D, E) dipolyar elektr maydon ekranlari

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rayli, DG; Srinivasan, R. Pomidorda sariq barg jingalak virusi va uning oq chivin vektorini kompleks boshqarish. J. Ekon . Entomol . 2019 , 112 , 1526–1540. [CrossRef]
2. Houle, JL; Kennedi, GG Pomidorning dog'li solgunligi virusi g'arbiy gul tripslari gullarni emlashda chidamli pomidorni yuqtirishi mumkin. O'simlik Dis . 2017 , 101 , 1666–1670. [CrossRef] [PubMed]
3. U, Z.; Guo, J.-F.; Reitz, SR; Ley, Z.-R.; Vu, S.-Y. Tripning global istilosi, Frankliniella occidentalis: Hozirgi virus vektor holati va uni boshqarish. Hasharot Ilmiy . 2020 , 27 , 626–645. [CrossRef] [PubMe d]
4. Rendina, N.; Nuzzaci, M.; Skopa, A.; Kuypers, A.; Sofu, A. Chitosan tomonidan qo'zg'atilgan bodring mozaikasi virusi (CMV) bilan zararlangan pomidor o'simliklarida himoya reaksiyalari. J. Zavod Fiziol . 2019 , 234–235, 9–17. [CrossRef] [PubMed]
5. Bobojanov Yu.M. Eshpulatov N.M, Xamidov Yu.K. THE EFFECT OF ULTRASOUND ON THE HEALTH OF WORKERS Science and Education in Karakalpakstan. 2023 №4/1 ISSN 2181-9203

SURXONDARYO VILOYATINING SUV RESURSLARI

Suyunov Abdug'ani Shavkat o'g'li

suyunovsha@mail.ru

Usmonov Sayriddin Salohiddin o'g'li

sayriddinusmonov@gmail.com

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Kirish. Daryolarning ahamiyati va suvni toza saqlash.

Surxondaryo viloyati hududidan oqib o'tadigan suv havzalari, jumladan, daryolar, soylar, kanallar, anhorlar va ariqlar viloyatimiz qishloq xo'jaligida foydalaniladigan, sug'orib dehqonchilik qiladigan yerlarni sug'orishda, yuzlab sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlashda, shahar va qishloqlarimizdagi ijtimoiy sohalarni hamda viloyatning 2821,9 ming kishi aholisining suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga egadir.

Viloyatda qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni 276 399 gektarni tashkil etadi. Umumiy ekin maydoni – 237 471 gektar. Bu maydonlarni sug'orish uchun jami 150,4 mln.m³ suv sarflanadi. Qishloq xo'jaligi uchun olinayotgan suvning 80% sug'orish uchun sarflansa, qolgan 20% tuproq sho'rini yuvishga ishlatiladi. Viloyatning Sho'rchi, Angor hamda Termiz

tumanlarida sho'r va sho'rxok tuproqlar mavjud bo'lib, bu tuproqlarni yaxob suvi berish orqali sho'rlarini yuvib, undan so'ng ekin ekiladi. Sug'orishga sarflanayotgan suvning 20-25 % zovur drenaj orqali tabiiy holda sizib qaytarma suvlar sifatida zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanib, tabiiy havzalarga qo'shiladi yoki sug'oriladigan hududlardan tashqariga chiqarib tashlanadi.

Viloyatimizda mavjud daryo va kanallar sanoat tarmoqlarini va maishiy kommunal xo'jaligini suv bilan ta'minlaydi. Bu sohalarga daryo va kanallarni 2 – 2,5 % suvi sarflanadi. Shu sarflangan suvning 85% ifloslangan yoki qisman tozalangan holda yana tabiiy o'zanlarga qo'shilib ketadi.

Surxondaryo havzasi hududida bunyod etilgan magistral kanallar va suv omborlari Surxondaryo viloyati tumanlarining xalq xo'jaligini barqaror rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ana shunga qat'iy e'tibor qilingan holda Surxondaryo vodiysida barcha ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydigan Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tashkil etilgan. Mazkur boshqarma uchta yirik sug'orish irrigatsiya sistemasi va bitta magistral tizimdan tarkib topgan.

Birinchisi To'palang-Qoratog' irrigatsiya sistemasi bo'lib u asosan, Surxondaryo daryosining bosh irmoqlari bo'lgan To'palang va Qoratog' daryolaridan suv oladi. Irrigatsiya sistemasi suv yo'llarining uzunligi 804 km ni tashkil etadi. Bu sistema Surxondaryo vohasining shimoliy qismidagi barcha ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi.

Ikkinchi irrigatsiya sistemasi Surxon-Sherobod irrigatsiya sistemasi deb ataladi. Uning suv yo'llarining uzunligi 445 km ga teng.

Uchinchi sistema Amu-Zang irrigatsiya sistemasi. Mazkur sistema asosan Amudaryodan suv olib, Surxondaryo vohasining janubiy qismidagi ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan uchala irrigatsiya sistemasi suv tanqisligi sodir bo'lgan paytlarda ham bir-birini suv bilan ta'minlashga yordam beradigan va o'zaro chambarchas bog'langan holda tashkil etilgan. Suv olish va suv berish borasida uchala irrigatsion sistema ham Surxondaryo vodiysidagi eng katta suv ombori Janubiy Surxon suv ombori bilan bog'liqdir. To'palang – Qoratog' irrigatsiya sistemasidagi daryolar Janubiy Surxon suv omboriga suvni shimol tomondan, ya'ni tabiiy nishablik yo'li bilan yetkazib beradi.

Tog' oldi va tog'li tumanlarimizdan faqatgin Sariosiyo tumanida baliqchilik rivojlangan Qolgan tumanlardagi baliqchilik xo'jaliklari tekisliklardagi ko'llarda va suniy suv havzalarida hosil qilingan, vaholanki hududdan uzunligi 20 kilometrdan ortiq bo'lgan 35 ta daryo oqib o'tadi. Bulardan Surxondaryo va uning irmoqlari: To'palang, Qoratog', Sangardak, Xo'jaipok, Oqqopchig'ay daryolari va Sheraboddaryo yiriklari hisoblanadi. To'palangdaryo va Qoratog' daryolari Hisor tizmasinig 4000 metrdan baland qismidan boshlanib qor va muzlik suvlaridan to'yinadi. Qariyb yillik oqimining 60 % Mart-Aprel oylarida oqib o'tadi. Bu daryolar orasida To'palang daryoning irmoqlari ko'pligi bilan ajralib turadi bularga: Oybeksuv, Xovatsoy, Kishtutsoy, Dashnobod, Shartut, Chosh, Balandsoy, Zarcho'psoy, Zevarsoy, Qoratog'daryoning Oqtoshsoy va Shirkent kabi irmoqlari bor. Yuqoridagi daryolardan boshqa O'rtasoy, Shotrud, Cham, Bodomiston, Og'ashayton, Sharg'un, Xursanddaryo, Qag'ni, Darasoy, Malangur, Panjob, Gazak, Laylakonsoy, Sholqon, Maydon, Xanjarsoy, Ajarsoy kabi daryo va soylar mavjud. Sheraboddaryo va boshqa aksariyat daryolar 2000 mertgacha bo'lgan tog'lardan boshlanadi

va mavsumiy qor va yomg'ir suvlardan to'yinadi. Daryolarda suv miqdorining ortishi fevral oyidan boshlanadi. May-iyun oylarida maksimal suv sarfi ortadi. Viloyatda sug'oriladigan hududlarni kengaytirish maqsadida ko'plab kanal va suv omborlari barpo e'tilgan. Daryolarnig suvlari zich kanallar orqali sug'orishga sarflanadi. To'palang daryoda: Hazarbog', To'palang – Qoratog', Haydarobod, Surxondaryoda, Zang, Qumqo'rg'on, Kakaydi, kanallari qurilgan. Viloyatda Janubiy Surxon, Uchqizil, Degrez, To'palang, Oqtepa suv omborlari mavjud. To'palang suv ombori Surxondaryo viloyatining 10 ta tumanini suv bilan ta'minlaydi. Birgina Denov tumanidan Surxondaryo, To'palangdaryo, Sangardak, Qizilsuv daryolari, Hazarbobog', Oybarak kanallari, Dayto'lak, Denov ariqlari oqib o'tadi.

Amu-Zang irrigatsiya sistemasi ham Janubiy Surxon suv omborini suv bilan ta'minlab turadi. Biroq Amudaryo o'zani Janubiy Surxon suv omboridan ancha past bo'lganligi sababli uning suvini keltirish katta miqdorda mablag' talab qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Suv omboriga janub tomondan 90 km uzunlikdagi Amudaryo suvini uch joyda o'rnatilgan nasos stansiyalari yordamida yuqori ko'tarib kanallarga tashlab yetkazib beradi. Surxon-Sherobod Janubiy Surxon suv omboridan suv oladi. Sherobod nasos stansiyasi Sherobod magistral kanaliga Shu yerdan suv chiqarib beradi va bu kanal Surxon-Sherobod cho'llarida o'zlashtirilgan yerlarni va ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo havzasida mavjud bo'lgan har uchala irrigatsiya sistemasini bir-biriga bog'laydigan manba vodiyning markaziy qismida joylashgan Janubiy Surxon suv ombori hisoblanadi. Janubiy Surxon suv ombori va u orqali butun Surxondaryo havzasidagi irrigatsiya sistemalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlay oladigan bosh manba bo'lib To'palang suv ombori xizmat qiladi. Janubiy Surxon suv ombori O'zbekistonning eng yirik sun'iy dengizlaridan biri hisoblanadi. U Surxondaryo havzasining o'rta qismida, Sho'rchi va Jarqo'rg'on tumanlari hududida 1962-yilda bunyod etilgan. Janubiy Surxon suv omborining to'g'oni Surxondaryoning o'rta oqimida, daryo vodiysining eng tor yerida, mutlaq balandligi 390 m ga teng bo'lgan joyda qurilgan. Suv ombori qurilmasdan oldin bu yerda Zarkamar – Xo'jamulki to'qayzori mavjud bo'lgan.

Janubiy Surxon suv omborida baliqchilikni rivojlantirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yerda mahalliy zog'ora baliq, tillabaliq, laqqa baliqlardan tashqari boshqa joylardan keltirilgan karp, tostolobik kabi baliqlar ham urchitilib ko'paytirilmoqda va ko'plab ovlanib, aholini baliq go'shti bilan ta'minlamoqda. O'zbekiston Respublikasining eng janubiy issiq subtropik rayonlaridan biri bo'lgan Surxondaryo havzasi hududida Janubiy Surxon suv omborining bunyod etilishi bu joyning mikroiklimining o'zgarishiga sabab bo'ldi. Suv omborining tevarak atrofi aholining sevimli dam olish joyiga aylandi. Suv ombori atrofiga 20 ming tupdan ko'proq manzarali va mevali daraxtlar ekilib, yashil zonalar tashkil etilgan. Bu Janubiy Surxon suv omborining rekreatsion ahamiyatining kattaligidan dalolat beradi. Suv ombori atrofida shahar va qishloq seliteb landshaftlari ham barpo etilgan. Bunga Qumqo'rg'on shaharchasi, Yangiyer va Xo'jamulki qishloqlari, Gagarin nomidagi posyolka misol bo'la oladi.

Surxondaryo havzasining janubiy qismida, Surxondaryo vodiysining o'ng sohilida joylashgan Kattaqum cho'li yaqinida, tektonik jarayon tufayli vujudga kelgan cho'kmada Uchqizil suv ombori qurilib ishga tushirilgan. Buning natijasida Termiz tumani hududidagi qumoq va gilli cho'l landshaftlari o'zlashtirilib, ularning o'rnida madaniy landshaftlar bunyod etildi.

GESlarning energetik ahamiyati ham katta. To'palang GES da viloyatning elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini ma'lum darajada qondiradi. Viloyatda bir yilda, jumladan, 2023 – yilda, 467 mln kvk/soat elektr energiya ishlab chiqargan bo'lib, bu energiya asosan sanoat korxonalarini va aholini energiya bilan ta'minlashga sarflanadi.

So'nggi vaqtlarda viloyatimizdagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovur – drenaj suvlari miqdorining ko'payishi, ishlab chiqarish korxonalaridan, maishiy tarmoqlaridan, transport va sog'lomlashtirish tashkilotlardan, ayniqsa, aholi xo'jaliklaridan chiqayotgan iflos-oqova suvlar miqdorining ortib ketishi, ularning daryo va kanallarga oqizilishi tufayli katta suv havzalari suvining tabiiy holati buzilib, ifloslanib bormoqda bu esa o'z navbatida suvdan foydalanish muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Daryo suvlarining ifloslanishi oqibatida suvning tabiiy holati buzilib, yashil suv o'tlarining, baliqlarning va boshqa suvda yashaydigan jonivorlarning kamayib ketilishiga, sug'oriladigan yerlardagi ekinlarning yaxshi rivojlanishiga, ularning hosildorligiga va oqibatda kishilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Daryolar, soylar, kanal va anhorlar ham hududning katta boyligi hisoblanadi. Shuning uchun bu suv havzalari suvlarini toza saqlash, ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Suvni toza saqlash uchun eng avvalo ekin dalalaridan chiqayotgan zovur-drenaj suvlarini tabiiy suv havzalariga oqizmaslik, zovur-drenaj suvlarini ma'lum havzaga yig'ib, uni zararsizlantirib keyin toza suvlarga qo'shish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini kimyoviy zaharlar bilan kamroq dorilab, qishloq xo'jaligi zararkunundalariga biologik usul bilan qarshi kurashishni joriy qilish hamda zavod va fabrikalardan, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalaridan chiqayotgan iflos oqova suvlarni suz tozalash qurilmalarida tozalab, undan so'ng suv havzalariga tashlashga erishish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Surxondaryo havzasida bunyod etilgan magistral kanallar va suv omborlari viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Surxondaryo havzasi doirasida suv muammosi yechimini topish maqsadida amalga oshirib kelinayotgan tadbirlar va barpo etilgan irrigatsion inshootlar daryo va soylar oqimini tartibga solib suv rejimini mumkin qadar maqsadga muvofiq o'zgartirdi, undan vegetatsiya davrida qishloq xo'jalik ekin maydonlarini sug'orishda keng va me'yoriy ravishda taqsimlash hamda foydalanish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi.

Janubiy Surxon suv omborining qurilishi munosabati bilan Surxondaryo havzasidagi umumiy ekin maydonining yarmidan ko'pi yetarli darajada suv bilan ta'minlandi. Suv omborining qurilib ishga tushirilishi natijasida Qiziriq-Sherobod cho'lida 71 ming gektardan ortiqroq yerlar o'zlashtirilib, qishloq xo'jaligi tasarrufiga kiritildi. Bundan tashqari ilgari foydalanib kelinayotgan 52 ming gektar yerning suv ta'minotini yaxshilash imkonini berdi. Yangidan o'zlashtirilgan yerlarda ingichka tolali paxta, don ekinlari, mevali bog'lar, uzum, sabzavotlar, poliz ekinlari ekilib, katta miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2. Abdunazarov Husan Menglievich, Niyazov Xo'jaqul Mirzoboboevich, Mustaev Qurbonmurod Rahmon o'g'li. Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirishda tabiiy geografik omillarning o'rni. ijins [Internet]. 2022 yil 23 may [2022 yil 7 iyulda keltirilgan];18. Mavjud: <https://ijins.umsida.ac.id/index.php/ijins/article/view/642>
3. Nuralievich, E. M. , & Rahmonvich, M. Q. . (2021). The Importance of Water Resources in the Development of Agriculture in Surkhondarya Region and Issues of their Effective Use. International Journal of Culture and Modernity, 9, 67–72. Retrieved from
4. Rakhmatov A. F. Artikova Sh. Z. Development of Fishing Farms in River and River Areas of Surkhondarya Region Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021
5. Rakhmatov A. F. Ortikova Sh. Z. Surxondaryo viloyati bog'dorchiligining geografik ko'rinishi Journal of Geography and Natural Resources <https://topjournals.uz/index.php/jgnr>
6. Худойбердиев Қ., Одинаев А. Тўпаланг сув омбори бунёдкорлари. –Тошкент: Шарқ, 2006. -256 б.
7. Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти. - Тошкент, 1996.
8. Bakiyev M.R., Raxmatov N., Ibraymov “Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish” darslik.
9. I.Madjidov., X.Fayziyev., O'.Xusanxo'jayev., N.Raxmatov “ Gidrotexnika inshootlari 2 – jild” darslik.
10. <https://lex.uz>

YER RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMIDA AXBOROT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Narmanov Zafar Qo'ziboyevich.,

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Kirish. Insonning hayot tajribasi davomidagi ehtiyojlar, olamni bilish qonuniyati axborotga bo'lgan talablarni yuzaga keltiradi. Moddiy olamdagi hodisalar, unda sodir bo'ladigan jarayonlar, shuningdek, insonni o'rab turgan ob'ektlar haqidagi ilmiy bilimlar kengaya borgani sari axborotning o'zi hammiqdoriy va sifatliy o'zgarishlarga duchor bo'ldi. Jamiyatning evolyusion taraqqiy etishi bilan axborot boyidi, ko'paydi va murakkablashdi.

Axborot texnologiyaning asosiy resursi bu - axborotdir. Axborot - olamdagi butun borliq, undagi ro'y beradigan xodisalar va jarayonlar haqidagi xabar va ma'lumotlardir. Axborot inson nutqida, kitobdagi matnlarda, musavvir tasvirida va boshqalarda mavjuddir. Axborot turlari. Matn - bu ma'lumotlarni ifodalash shakli bo'lib, u mazmunan yagona, yaxlit va tanlangan tilning belgilari ketma-ketligidan iborat. Matn hujjat asosidir. Tasvir - bu biror voqea, xodisa yoki jarayonlarni o'zida ifodalagan rasm bo'laklari va ranglardan iborat ma'lumotdir. Rasm, manzara, matematik funksiyalar grafigi va shunga o'xshash ma'lumotlar hisoblanadi. Animatsiya ma'lum tezlikda tasvirlarni almashtirish mahsulidir. Bunda ma'lum vaqt oralig'ida, ma'lum sondagi bir xil o'lchamga ega bo'lgan tasvirlar tezkor almashtiriladi. Axborotning xossalari: Ob'ektivnost - xaqqoniylik; Dostovernost - ishonchlilik; Aktualnost - dolzarblik; Tochnost- aniqlilik; Ponyatnost - tushunarlilik; Polnota - to'liqlilik. Kimningdir fikriga bog'liq bo'lmagan axborot – xaqqoniy axborot xisoblanadi. Haqiqiy jarayonga mos bo'lgan axborot ishonchli xisoblanadi, Axborot dolzarb xisoblanadi qachonki axborot o'sha vaqt uchun qimmatli bo'lsa, Axborot aniq deyiladi - agarda u haqiqiy jarayon ko'rsatkichlariga

eng yaqin bo'lsa. Axborot tushunarli - qachonki qabul qiluvchi tushunadigan tilda ifodalansa. Qarorlar qabul qilish uchun yetarli xajmdagi ma'lumotlardan tarkib topgan axborotlar to'liq axborot deyiladi. Foydalanuvchi uchun axborotning muhim xarakteristikalaridan (ko'rsatgichlaridan) biri - uning adekvatligi hisoblanadi. Axborotning adekvatligi - olingan axborot yordamida yaratilgan obraz (qiyofa) ning real ob'ekt, jarayon, hodisa va ularga mosligining ma'lum darajasidir. Ma'lumki, haqiqiy hayotda axborotning to'la ravishda adekvat bo'lishiga ishonish qiyin. Chunki, doimo qaysi bir darajadagi noaniqlik uchrab turadi. Axborotning adekvatligi darajasi masalani yechishda to'g'ri yo'l tanlashga kata ta'sir qiladi. Axborotning adekvatligi uchta shaklda ifodalanishi mumkin: semantik, sintaktik, pragmatik.

Qishloq xo'jaligi ob'ektning axborot resurslari. Resurs - biror narsaning zahirasini, manbasini anglatadi. Mamlakat milliy iqtisodining har qanday tarmog'i tahlil etilayotganida uning tabiiy, mehnat, moliyaviy, energetik resurslarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu tushuncha iqtisodiy kategoriya sanaladi.

Moddiy resurslar - jamiyat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan mehnat va xom-ashyolari majmuidir. Masalan, xom-ashyo materiallar, yoqilg'i-moylash materiallari, energiya, mineral o'g'itlar, yarim tayyor mahsulotlar, detallar va xakozo. Tabiiy resurslar - insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun jamiyat tomonidan foydalaniladigan ob'ektlar, jarayonlar, yer, suv, tabiat sharoitlari, jarayonlari, ob'ektlaridir. Mehnat resurslari - qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlash uchun kasbiy bilimga ega kishilar; Moliyaviy resurslar - davlat yoki xo'jalik tarkibi ixtiyorida pul manbalaridir. Energetik resurslar - energiya omillari, masalan, ko'mir, neft, neft mahsulotlari, gaz, elektroenergiya va hokazo. Shuni qayd etish lozimki, har qanday ko'lamdagi ob'ektning kerakli darajada ishlashi uchun faqat ushbu resurslarning o'zi yetarli emas. Chunki ishlab chiqarish uchun moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari bo'lishning o'zi kifoya qilinmaydi. Uni qanday ishlatishni bilish, bu sohadagi texnologiyalar xaqida ko'plab axborotga ham ega bo'lish talab etiladi. Shu bois ham axborot, axborot resurslari hozirgi kunda alohida iqtisodiy kategoriya sifatida qabul qilinmoqda. Agar, axborot resurslari oqilona tashkil etilsa va o'rinli foydalanilsa, u mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida ishtirok etishi mumkin. Bundan tashqari axborot - qolgan barcha resurslardan samarali foydalanish va ularning isrof qilmaslikka yordam beradigan yagona resurs sanaladi.

Yer axboroti iqtisodiy bir ko'rinish bo'lib, yerdan foydalanish va qo'riqlash bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlarini tavsiflaydi. Axborotning iqtisodiy mazmuni jamiyatda yerga munosabatlarni aks ettiruvchi yerdan foydalanishning iqtisodiy jihatlariga bog'liq. Shu sababli er axboroti iqtisodiy mazmun-mohiyatga ega. U mehnat jarayoni (yer-kadastr jarayoni natijasi) mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun axborotga uning turli tumanligiga va sifatiga nisbatangina emas, balki tejamliligiga ham talablar qo'yiladi, chunki u ma'lum darajada yangi mahsulotning iste'mol bahosini ham aniqlaydi. Axborot qayta ishlab chiqarishning to'la sikli xarakterli bo'lib, mahsulot harakatining hamma fazalarini o'z ichiga oladi. Boshqaruv funksiyalari nuqtai nazaridan axborot yer resurslaridan foydalanishni boshqarish uchun zaruriy shart, mehnat boshqaruvi predmetining vositasi hisoblanadi.

Yer axboroti O'zbekiston Respublikasining, Davlaterkadastr haqidagi" Qonunida belgilanganidek, xalq xo'jaligining turli masalalarini samarali hal qilish maqsadida qiziquvchi foydalanuvchilarning keng ommasi uchun mo'ljallangan. Axborot, avvalo, jamiyatda yerga

munosabatlarni tartibga solish va yer resurslaridan foydalanish jarayonlari bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun zarurdir. Yer axboroti bir qator belgilari bo'yicha tavsiflanadi, ular quyidagilar: yerdan foydalanish jihatlari va maqsadi bilan bog'liq axborot tuzilishi taqdim qilish shakllarining murakkabligi, axborot ko'rsatkichlarining murakkabligi, axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) zarurligi. Axborot yerdan foydalanish maqsadli vazifasi belgilariga va jihatlarga qarab yer resurslarining holatini hamda taqsimlash va foydalanish jarayonlarida ularni tavsiflovchi axborotlarga bo'linadi. Yer holatini tavsiflash uchun davlat yer kadastrini kiritishda ishlab chiqiladigan yer kadastr axborotidan foydalaniladi. Ishlab chiqish hajmi bo'yicha berilgan axborot asosiy hisoblanadi, shuningdek, ikkilamchi (hosilaviy) axborotni ishlab chiqish shu asosda bajariladi. Turli maqsadlardagi xususiy yer uchastkalarini shakllantirish va tashkil etish maqsadida loyihaviy axborot hosilaviy hisoblanmaydi, biroq yer kadastr axborotidan foydalanib ishlab chiqiladi. Iqtisodiy yer axboroti yer resurslari hududlaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi hamda hosilaviy hisoblanadi va kadastrli er axborotidan foydalanib ishlab chiqiladi. Kadastrli er axboroti yana qayd qilinuvchi, ro'yxatga olinuvchi va baholanuvchi axborotlarga bo'linadi. Yer axboroti shakliga qarab matnli axborot, grafik va elektron axborotlarga bo'linadi.

Yer axborotini ma'muriy-hududiy belgilariga qarab ajratish yer uchastkalari, tumanlar, viloyatlar, respublika bo'yicha to'la ma'lumotlar olish talablari bilan qabul qilinadi. Bunday har tomonlama va to'liq axborotlar yer resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuqorida sanab o'tilgan hududlardagi xalq xo'jaligi masalalarini yechish uchun zarurdir. Yer axborotining ushbu tur bo'yicha tasniflanish sharti bu ko'rsatkichlarning barcha ma'muriy-hududiy darajalarida ekanligidir.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (asosiy qonuni). Toshkent, O'zbekiston, 2012
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. Toshkent, Adolat, 2014
3. Davlat Soliq Qumitasi huzuridagi "Kadastr Agentligi" ning Milliy hisoboti, Toshkent, 2022
4. Abdullaev Z.S. Yer resurslari qiymatini baholashning axborot ta'minoti asoslari. Toshkent, Fan, 2008
5. Abdullaev Z.S., Mirzaev S.S., Shodmonova G. Axborot va axborot texnologiyalari. Toshkent,

QASHQADARYO VOHASI TUPROQLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISH SHAROITLARI

Raximov Jo'ra Suyunovich q.x.f.n, dotsent,
"TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Qashqadaryo havzasida, Pomir, Oloy tog' tizimining g'arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari Hisor va Zarafshon tizma tog'lari orasida joylashgan. Tog'lar bilan tekisliklar orasi adirlar, tekislikning katta qismi g'arbda Sandiqli va Qizilqum cho'llari bilan tutashgan Qarshi cho'lidan iborat.

Qashqadaryo viloyati geomorfologik jihatdan nixoyat katta tektonik cho'kma-botik bo'lib, yaxshi ifodalangan vertikal-mintakaviylik relyefi bilan tavsiflanadi. Uning g'arbiy katta qismini bepoyon tekislik (cho'l) egallaydi. Xudud sharq va shimoli-sharq tomonga qarab asta-sekin ko'tarilib, tog'oldi qir-adirlari, past va o'rtacha balandlikdagi tog'lar hamda baland tog'largacha ko'tarilib boradi.

Baland tog'lar, asosan, Hisor tog' tizmalarida mujassamlashgan, bu yerda relyefning muzlik shakllari ustunlik qiladi va hozirgi zamon muzliklaridan iborat. Keng tarqalgan ko'chib tushgan toshlar, siljigan harsanglar uyumi, o'pirilishlar va tosh xarsanglari fonida cho'kkan, surilgan, qulagan jinslar va tosh bo'laklari bilan birgalikda tog' jinslari ochilib qolgan. Tuproq hosil qiluvchi ona jinslar bo'lib, kichik qatlamli skeletli va talqon tuproq-skeletli yotqiziqlar xizmat qiladi.

Past tog'lar, o'rta tog'lar katta bo'lmagan kenglikda cho'zilgan. Tog' qiyaliklari lyosli va mayda tuproq-skeletli. Elyuviy-delyuviy yotqiziqlar bilan qoplangan. Tog'oldi to'liqinsimon tekisliklari janubi-g'arbga tomon cho'zilib, ikki qismga bo'lingan: o'ng qirg'oq (Jom cho'li) va chap qirg'oq (Nishon cho'li). Ular lyoslar va lyossimon qumloqlardan tashkil topgan, chap qirg'oq qirrali mayda tosh shag'al va qum aralash yotqiziqdardan, shuningdek, suvda oson eruvchi tuzlar va gipsdan iborat, bu tuproqlarning birlamchi sho'rlanishidan dalolat beradi. Tog'oldi tizmalari pasayib, tekislangan lyossimon adirlardan iborat. Tog'ostki nishabli tekisliklari yotqiziqlar xarakteriga ko'ra juda xilma-xil. Prolyuvial va allyuvial-prolyuvial tekisliklar lyossimon va lyos yotqiziqlaridan, tog'larga yaqin joylar esa yirik sinik materiallardan tashkil topgan. Bu yerda qalinligi 0,7-1,0 megrgacha bo'lgan madaniy agroirrigatsion yotqiziqlar keng tarqalgan. Qashqadaryo deltasidagi tub jinslar, ba'zida pastki gorizontlarda gipslashgan. Sandikli eol cho'li ustki yotqiziqlari shag'al ta'sirida tez-tez elanib turadigan va uchlamchi-bo'r jinslari yuzasini qoplagan qadimgi tekislikni namoyon etadi.

Qashqadaryo havzasi gidrogeologiyasi xududning geologiyasiga, iklimiy, geomorfologik, yotqiziqlarning litologik tuzilishlari dehqonchilik faoliyatiga bog'liq holda o'zgaradi. Hidrogeologik sharoitining murakkablashuvi litologik kesmada mexanik tarkibi har xil bo'lgan qatlam va komplekslarning bo'lishi, tez-tez qaytarilib turadigan tektonik jarayonlar, ko'p sonli suv omborlarining mavjudligi va sun'iy sug'orish taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'ladi.

N.T.Muravyeva (1959) ko'rsatishicha, Qashqadaryo havzasi sharqdan g'arbga tomon nishabli bo'lib, 3 ta yirik fizik-geografik rayonni o'z ichiga oladi:

- 1) Turon pasttekisligining janubi-sharq qismi;
- 2) tekislikni sharq tomondan o'rab olgan tog' etaklari va Zarafshon Hiisor tizma tog'larining tog'oldi nishabliklari;
- 3) ikkala tizma tog'lar o'rtasida joylashgan Kitob-Shahrisabz botig'i.

Kitob-Shahrisabz botig'i akkumulyativ tekislikdan iborat. Bu tekislik botiqni o'rab turgan tog' tizimlaridan oqib tushayotgan daryolarning yoyilmalarida yig'ilgan to'rtlamchi davr keltirilmalaridan, tog'oldi nishabliklaridan lyossimon jinslar va Qashqadaryo hamda uning irmoqlarining allyuvial yotqiziqlaridan tarkib topgan.

Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, Qashqadaryo havzasi geologik tuzilish jihatidan poleozoyning cho'kindi-magmatik va metamorfik jinslari va mezozoyning cho'kindi jinslaridan tashkil topgan. Jumladan, paleozoyning cho'kindi yotqiziqlar kompleksi quyi va yuqori selur, quyi va o'rta devon, quyi, o'rta va yuqori karbondan tashkil topgan. Mezazoy davri esa trias, yura va bur yotqiziqlaridan iborat. Qashqadaryo havzasida uchlamchi davr (negogen) yotqiziqlari ham uchraydi. Ular sho'rlangan qumli-soz va karbonatli dengiz yotqiziqlari va qizil rangli sho'rlangan sahro-kontinental yotqiziqdardan iborat.

Sug'oripadigan o'tloqi tuproqlar tipik va och tusli bo'z tuproqlar mintaqasi hamda cho'l zonasining turli geomorfologik rayonlarida sizot suvlari 1-2,5 metr chuqurlikda joylashgan

sharoitda shakllangan. O'tloqi tuproqlar nafaqat tabiiy saz va allyuvial grunt suvlari yaqin joylashgan, balki, avtomorf, sur tusli qo'ng'ir va taqirsimon tuproqlarni jadal sug'orish natijasida yer osti suvlarining ko'tarilishi va yerlarning kuchsiz zovurlashganlik sharoitida vaqt o'tishi bilan o'tloqi tuproqlarga o'tadi. Bunday xolatda o'tloqi tuproqlarning irrigatsion namlanishi shakllanadi.

Sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holati. Qashqadaryo viloyatida tarqalgan tuproqlarning meliorativ xolati o'ziga xos bo'lib, sug'oriladigan tuproqlar viloyatning g'arbga yaqin markazida tarqalgan. Viloyatda sug'oriladigan tuproqlarga nisbatan cho'l mintaqasi tuproqlari, lalmi tuproqlar va balandlik mintaqasining tuproqlari ko'proq tarqalgan. Sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlanishi bo'yicha ko'proq kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan tuproqlar, kuchli va juda kuchli darajada sho'rlangan tuproqlar unchalik ko'p emas. Sug'oriladigan tuproqlarning yarmidan ko'pining sifat bahosi yuqori hisoblanadi. Sug'oriladigan tuproqlar sho'rlanishida tabiiy omillardan ko'ra inson omilining o'zni katta. Quyida viloyat bo'yicha sug'oriladigan tuproqlarning tegishli tumanlar kesimida tahlili keltiriladi, (1-jadval).

Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan tuproqlarining sho'rlanish xolati

1-jadval

№	Tumanlar Nomi	Sug'oriladigan yer maydoni, ga	SHo'rlangan yerlar		O'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlar		
					Jami sug'oriladigan maydonlarga nisbatan		Jami sho'rlangan maydonlarga nisbatan
			ga	%	ga	%	%
1	Koson	63727,0	39397,4	61,82	7715,1	12,11	19,58
2	Qamashi	30052,7	7916,0	26,34	1190,7	3,96	15,04
3	Karshi	43360,0	21650,4	49,93	6731,0	15,52	31,09
4	Kasbi	46319,0	34555,4	74,60	4300,2	9,28	12,44
5	Muborak	32183,0	27350,7	84,98	13343,7	41,46	48,79
6	Mirishkor	56523,0	40197,0	71,12	7081,8	12,53	17,62
7	Nishon	53713,0	34690,3	64,58	11625,8	21,64	33,51
Jami:		325877,7	205757,2	63,2	51988,3	16,0	25,3

Qashqadaryo viloyatining havzasi tekislik qismida tuproq qurg'oqchiligi yil sayin kutiladigan xodisa bo'lib, agar tuproq qurg'oqchiligi ertaroq boshlansa, u holda tabiiy namlik hisobida o'z vegetatsiyasini davom ettirayotgan qishloq xo'jalik ekinlari tuproq namligi yetishmaganligi sababli vegetatsiya davrini tez tugatadi va hosildorlik kam bo'ladi. Tuproq qurg'oqchiligi keyinroq boshlansa, bu davrda ekinlar o'z vegetatsiya davrini tugatish arafasida bo'ladi, qurg'oqchilik ekinlar hosildorligiga ta'sir etmaydi, aksincha yuqori hosil olish mumkin. Bu davrda o'tkazilgan ayrim agrotexnik tadbirlar (yerni chuqur haydash, boronalash, tuproq gumusini oshirish va boshqalar) tuproqning tabiiy namligini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Tuproq qurg'oqchiligi bilan bir vaqtda atmosfera qurg'oqchiligi ham kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, bu ikkala qurg'oqchilikning bir vaqtda kelishi barcha qishloq xo'jaligi ekinlariga katta xavf tugdiradi. Viloyatning umumiy iqlim sharoitlari cho'l iqlimi tog'oldi yarim cho'l, o'rta va baland tog'lar iqlimlarining yig'indisidan iborat bo'ladi. Keyingi yillarda Qashqadaryo viloyatida yog'ingarchilik yilning to'rtta faslida turlicha bo'lishi kuzatilib, yanvar, fevral va mart oylarida yog'ingarchilikning eng yuqori miqdori kuzatilsa, iyul, avgust va sentabr oylarida yog'ingarchilik eng kam bo'ladi. Shamolning esishi ham oylar

kesimida turlicha, kunlik eng yuqori ko'rsatkich 2-4 m/s gacha kuzatiladi. Shamol va xarorat yillar bo'yicha turlicha bo'lib, yanvar, fevral, oktabr, noyabr, dekabr oylarida shamolning esishi kam, qolgan oylarda birmuncha yuqori bo'lishi kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.1. Mirzajonov Q., Tojiboyev U., Egamberdiyev "Deflyatsiyaga uchragan tuproqlarga ishlov berish usullari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. J.1991. №6. 7-8 b.
2. Мирзajonov Q.M., Nurmatov SH.N., Zakirova X. Yuqori xosil, xosil olish omillari //Paxtachilik va donchilik. j. 2001. № 1. 8-12b.
3. Mirzajonov K., Mananova K., Gafurov. Deflyatsiyalangan bo'z qo'ng'ir tuproqlarda paxta xosili //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. J. 1985. № 10. 16 b.
4. Мирзажонов К.М. Ветровая эрозия в орошаемой зоне Узбекистана и борьба с ней.- Ташкент.: 1973. 238 с.
5. Мирзажонов К.М. Ветровая эрозия почв на поливных землях и борьба с ней.- Ташкент: 1971. 108 с.
6. Мирзажонов К.М. Значение весновспашки на эрозионных почвах Ферганской долины" Вестник с-х. Науки.- Алма-ата 1967. № 7.
7. Мирзажонов К.М. Комплекс противоэрозионных мероприятий по борьбе с ветровой эрозией почв //Ж.Селское хозяйство Узбекистана.1969 г. № 5.
8. Мирзажонов К.М. Научные основы борьбы с ветровой эрозией на орошаемых землях Узбекистана.-Т.: Фан. 1981. 214 с.

UDK: 663:338

HUDUD AHOLISINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH VA QAYTA ISHLASHDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shoxujayeva Zebo Safoyevna

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi
katta ilmiy xodimi, i.f.n., professor, shoxujaeva@mail.ru

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi Farmonining qabul qilinishi va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xarita»sida belgilangan chora-tadbirlar, mubolag'asiz agrar-iqtisodiyot sohasida konseptual xarakterdagi hujjat hisoblanadi [1].

Strategiyada, qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish masalalariga ustuvorlik sifatida qayd etilishi, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirishga va rag'batlantirishga, qishloq xo'jaligi birlashmalari, fermer va dehqon xo'jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalari, jumladan klasterlar bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash masalalariga alohida urg'u berilganligi va bu borada o'zaro hamkorlik va integratsion aloqalarni kengaytirish asosida jahon iqtisodiy hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlamoqda.

Ilmiy-nazariy jihatdan qaralganda bugungi barqaror iqtisodiy rivojlanish zamirida pandemiya va COVID 19 sharoitida bo'lsada bir muncha barqarorlik, va dinamik o'sish

sur'atlari, resurslardan tejamkorona va innovatsion yondashuv va ilg'or tajriba asosida soha raqobatbardoshligini oshirish kabi rivojlanish ko'rsatkichlariga erishildi.

Ayniqsa oxirgi yillarda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida turli mulk shakliga asoslangan xo'jaliklar o'rtasida munosabatlarini takomillashtirish, ularni integratsion shaklda rivojlantirishga qaratilgan tub o'zgarishlar amalga oshirildi.

Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab oziq-ovqat xavfsizligi masalalari O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida markaziy o'rinlardan birida turadi. Shuning uchun, 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish: tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish" [2] masalasi asosiy vazifa sifatida qo'yilgan.

Metodlar. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, hukumat qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlaridan, shuningdek Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanilgan. Maqolani yoritishda mantiqiy fikrlash, taqqoslama tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishini tahlil qilganimizda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

2022 yilning yakuniga ko'ra, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 51,7 % ni tashkil qildi. Respublikadagi dehqonchilik mahsulotlari tarkibini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, dehqonchilik mahsulotining ulushi yuqori bo'lgan hududlarga Andijon (63,3 %), Farg'ona (59,8 %), Sirdaryo (59,5 %), Namangan (58,3 %), Samarqand (54,3 %), Surxondaryo (53,4 %) va Buxoro (52,0 %) viloyatlarini aksincha, chorvachilik mahsulotining ulushi yuqori bo'lgan hududlarga Navoiy (64,5 %), Qashqadaryo (59,3 %), Jizzax (59,1 %), Xorazm (53,9 %), Toshkent (50,6 %) viloyatlarini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasini (50,5 %) keltirishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi [3].

2022 yilda yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 78,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 9,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligida asosiy va eng istiqbolli ishlab chiqarish subbyekti sifatida to'liq shakllangan bo'lib, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror oshib borishi, aholi jon boshiga go'sht, sut, kartoshka, sabzavot, poliz, meva va uzum kabi mahsulotlar ishlab

chiqarishni, demak, iste'mol qilishni bir necha barobar oshirish imkonini berdi. Bu borada respublikamizda olib borilayotgan islohotlarni dunyo jamoatchiligi ijobiy hol sifatida e'tirof etmoqda.

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha YAHMning o'sish ko'rsatkichlari va uning tarmoqlaridagi o'zgarishlarni ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili²

Ko'rsatkichlar	Oo'lc h. birl.	Y I L L A R								2022 y.da 2015 y.ga nisb. (+;-) da
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd so'm	13418,3	14896,9	22633,4	28412,2	31153,2	34618,1	34891,2	49520,8	369,1%
O'tgan yilga nisbatan	%	105,4	105,9	103,4	101,0	101,6	2,2	102,8	05,6	0,1
sh.j sohalar ulushi										
Sanoat (qurilish bilan birga)	%	38,5	37,4	25,8	27,1	25,4	25,2	23,6	24,2	-14,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	38,3	39,4	40,2	40,4	42,7	42,2	42,1	41,2	2,9
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	%	6,3	6,6	5,5	4,8	5,2	5,0	5,1	5,3	-1,0
Savdo va um.ovqatlash	%	7,2	7,5	6,0	5,8	6,6	6,4	6,3	6,5	-0,7
Boshqalar	%	21,2	22,2	14,5	14,3	20,1	19,8	20,2	20,8	-0,4
Sof soliqlar	%	8,9	6,5	4,9	5,4	8,5	3,8	4,5	4,6	-4,3
Kichik biznes ulushi	%	51,6	54,1	65,1	64,3	60,1	69,9	69,9	68,1	17,5

1-jadvalda Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2022-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 35111,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2015 yil bilan taqqoslaganda 369,1 % o'sish ko'rsatkichiga erishdi. Respublika YAHMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining

² Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

qo'shgan hissasi 5,6 % ga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida esa viloyatining ulushi 9,2 % ni tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati 2022-yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 49520,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yil bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o'sdi. Iqtisodiyotning quyidagi asosiy tarmoqlarida ijobiy o'sish sur'atlari qayd etildi: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida-103,6 %, sanoatda - 110,5 %, xizmatlar sohasida - 105,1%. Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14372,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2015-2022 yillardagi ko'rsatkichlari ijobiy natijalarga erishilganligini ko'rsatdi.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishida tabiiy omillar ta'sirining yuqoriligi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligini agrotexnik, huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun investitsiyalar ajratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari, suv xo'jaligi obyektlari faoliyatining muntazamligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining texnika ta'minotini kuchaytirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, hosildorligi past yerlarda paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi yo'nalishlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida 2022 yilda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelishini quyidagi 2-jadval ma'lumotlariga tayangan holda ko'rib chiqamiz.

2-jadval

Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish³ (2022, kg)

Tumanlar	Don ekinlari	Karto shka	Sabzavotlar	Poliz	Meva	Uzum	Go'sht (tirik vazn)	Sut	Tuxum, dona
G'uzor	236,1	9,4	85,8	37,0	29,8	11,3	127,3	300,5	146,6
Dehqonobod	141,6	9,8	28,6	8,9	36,6	4,2	157,8	313,4	94,6
Qamashi	277,5	34,7	141,8	46,1	35,9	8,2	128,3	336,7	207,3
Qarshi	195,6	42,3	200,5	78,3	44,7	41,1	92,8	379,4	188,3
Koson	325,7	4,6	115,8	63,6	16,0	2,2	83,7	628,2	163,6
Kitob	103,0	121,2	237,4	22,8	103,1	139,7	71,3	403,3	139,0
Mirishkor	611,9	65,5	247,8	67,1	65,5	21,0	148,7	489,4	321,1
Muborak	684,5	8,1	149,6	72,3	73,6	16,5	175,1	622,7	213,5
Nishon	751,1	23,0	225,3	104,9	46,3	20,6	110,1	290,0	86,8
Kasbi	512,9	34,1	172,5	65,4	124,2	19,2	106,2	507,5	102,9
Chiroqchi	328,6	53,2	135,0	78,0	33,0	25,7	103,4	360,6	171,1
Shahrisabz	147,7	187,6	269,7	9,4	67,6	31,8	61,9	398,6	352,2
Yakkabog'	171,3	111,7	177,5	74,7	83,8	31,6	66,6	308,6	159,9
Qarshi sh.	3,2	1,1	9,0	-	1,6	0,4	13,5	6,8	96,1

³Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

Shahrisabz sh	6,3	51,8	63,4	1,2	9,5	6,7	13,9	117,4	33,0
Viloyat bo'yicha	265,6	53,0	148,6	50,4	49,3	28,1	89,1	353,2	158,5
Respublika bo'yicha jami	219,0	91,0	302,6	61,8	90,8	47,4	73,1	318,6	226,4
Viloyat ulushi, %da	121,3	58,2	49,1	81,6	54,3	59,3	121,9	110,9	70,0

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki viloyat bo'yicha aholi jon boshiga yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlaridan kartoshka, poliz, meva va uzum mahsulotlari eng past ko'rsatkichga ega. Buni tumanlar kesimida tahlil qilganimizda Qarshi shahrida, Koson, Kasbi, Nishon, G'uzor, Muborak va Dehqonobod tumanlarida kartoshka mahsulotlarining eng past ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rish mumkin. Boshqa mahsulotlarni aholi jon boshiga to'g'ri kelishini o'rganganimizda eng past ko'rsatkich Dehqonobodda (poliz, uzum), Qamashida (uzum), Kosonda (uzum), Qarshi shahrida (meva va uzum) va Shahrisabz shahrida esa (poliz, meva va uzum) ekanligi aniqlandi.

2022 yilda ratsional iste'mol meyorlariga muvofiq, Qashqadaryo viloyatida yetarli miqdorda bug'doy, uzum, poliz ekinlari, go'sht, sut ishlab chiqarilgan. Ammo viloyat kartoshka (78%), sabzavot (83%), ho'l meva (65%) va tuxum mahsuloti bilan 77%ga o'z aholisini ta'minlar ekan (3-jadval).

3-jadval

Qashqadaryo viloyatining 2022 yilgi o'z-o'zini oziq-ovqatlar bilan ta'minlash darajasi⁴

No	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari turi	Amalda ishlab chiqarish hajmi, ming tonna	Fiziologik meyor bo'yicha 1 kishi 1 yilda o'rtacha iste'mol qilish hajmi*, kg	Ratsional meyorga mos holda oziq-ovqat ishlab chiqarishning zaruriy hajmi, ming tonna	O'z-o'zini ta'minlash ko'effitsiyenti (Ko'z)
1	Bug'doy	885,7	94,0	313,4	2,83
2	Kartoshka	176,7	68,0	226,7	0,78
3	Sabzavot	495,5	178,0	593,5	0,83
4	Ho'l meva	163,2	75,0	250,1	0,65
5	Uzum	93,8	15,4	51,4	1,82
6	Poliz ekinlari	186,0	21,5	71,7	2,62
7	Go'sht (tirik vaznda)	297,3	46,2	154,1	1,93
8	Sut	1177,7	218,9	730,0	1,61
9	Tuxum, mln.dona	528,6	206 (дона)	686,9	0,77

Izoh: *Sog'liqni saqlash vazirligi va fiziologik meyorlari ma'lumoti.

Respublikamizning dunyo hamjamiyatida nufuzining oshishida agrar soha eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

⁴ Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

Eksportga yo'naltirilgan strategik ekinlardan biri paxta xom ashyosi yetishtirish hisoblanib, agrar sohasining jahon agrar iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi bilan bir qatorda respublikamizda paxta xomashyosi o'rniga uni qayta ishlab, tayyor mahsulot eksport qilish yaqin kelajakdagi strategik vazifa sifatida belgilab olindi. Unga muvofiq, paxta maydonini qisqartirish, paxtani qayta ishlashni tashkil etish va uning sifatini jahon bozori talablariga yetkazish, paxtachilik sohasini modernizatsiya qilish va yangi texnika bilan jihozlash, paxta yetishtirishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan sohani qo'llab-quvvatlash davlat mexanizmi joriy etildi va chora-tadbirlari amalga oshirildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat oziq-ovqat salohiyatini mustahkamlab, chetdan oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish hajmlarini qisqartirish hamda aholini o'zimizda yetishtirilgan mahsulotlar bilan barqaror ta'minlash imkonini beradi.

Munozara. Albatta bu jarayonlarda resurslar bozoridagi holat, aholining demografik o'zgarishi va daromadlaridagi o'zgarishlar ham bevosita ta'sir qiladi. Fermer va dehqon xo'jaliklarining qayta ishlash korxonalarini bilan bevosita iqtisodiy munosablarini ta'minlash hisoblanadi.

ASM tarmoqlariga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirishda qishloq va baliqchilik xo'jaligi, suv xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga ichki va xorijiy investitsiyalarni kiritishni, mamlakat mintaqalarida, erkin agrar iqtisodiy zonalar, qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etishni rag'batlantirish, ularni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirishda innovatsion yondashuv talab etilmoqda. Bu masalalarni hal etilishi, investitsiyalarni jalb etish, ulardan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish strategik vazifalarni amalga oshirish imkoni yaratiladi. Natijada milliy iqtisodiyotning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi va xalqaro iqtisodiy tizimga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashga muvofiq bo'ladi.

Darhaqiqat, respublikamiz agrar sektorida erishilgan ijobiy natijalar yurtimizning jahon miqyosida nufuzli o'rinlarni egallashini ta'minlamoqda.

Barqaror va samarali oziq-ovqat tizimlarini yaratish uchun aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda integratsiya jarayonlarini takomillashtirish muammolarini hal qilishning umumiy strategiyalari va yondashuvlarini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Qishloq xo'jaligiga kiritiladigan investitsiyalar oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirishga yordam beradi. Bunga fermer xo'jaliklariga beriladigan subsidiyalar, fermer xo'jaligi xodimlarini o'qitish, texnik va texnologik innovatsiyalar va resurslar samaradorligini oshirish kiradi.

2. Infratuzilmani rivojlantirish. Klaster, fermer va dehqon xo'jaliklariga samarali infratuzilmani tashkil etish va ta'minlash orqali oziq-ovqat mahsulotlarini tashish, saqlash va sotishda muhim ahamiyatga egadir. Bunga yo'llar, saqlash omborxonalarini, bozorlar va boshqa obyektlar qurilishini misol qilish mumkin.

3. Kredit va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish. Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda sanoat korxonalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni kengaytirishga va yangi texnologiyalarni joriy qilish hamda yaxshilashga yordam beradi.

4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash. Mahalliy fermerlar va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali qishloq joylarda sifatli, innovatsion oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishni ko'paytirish va ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

5. Ta'lim va marketing. Bunda sog'lom ovqatlanish, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash amaliyoti va resurslardan barqaror foydalanish haqida marketing faoliyatini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va oziq-ovqat resurslari iste'molini kamaytirish muhim ahamiyatga egadir.

6. Qayta ishlash texnologiyalaridagi innovatsiyalar. Mahsulotlarni qayta ishlashning yangi usullari va texnologiyalarini ishlab chiqishga qo'llash orqali mahsulotlarni saqlash muddatini oshirish, yo'qotishlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashga amaliy yordam beradi.

7. Hamkorlik va muvofiqlashtirish. Hukumat va nodavlat tashkilotlari, biznes va umuman jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari barqaror oziq-ovqat xavfsizligi strategiyalarini yaratishga yordam beradi.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirilishi ma'lum bir hududning o'ziga xos sharoitlari va ishlab chiqarish quvvatlarini hisobga olgan holda oziq-ovqat tizimining samarali va barqaror bo'lishini ta'minlashga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi PF-5853-sonli Farmoni. 23.10.2019 y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonining 1-ilovasi. 07.02.2017 y.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/>.

4. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

5. Eshev A.S., Shokhujayeva Z.S. Mechanisms for the implementation of a cluster system in ensuring the competitiveness of agricultural products. Asian Journal of Research in Banking and Finance. – Vol. 12, Issue 6. SJIF 2022 = 8.558.

6. Eshev A.S., Shoxujayeva Z.S. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi raqobotbardoshlikni ta'minlash holati tahlili va ularni baholash usullari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 5/2022, sentyabr-oktyabr (№ 00061). – B. 204-215.

7. Eshev A.S., Shoxujayeva Z.S., Murodova N.O., Temirova F.S. Changes, problems and solutions in the water system in the connections of innovative economy. // AIP Conference Proceedings 2612, 050031 (2023); <https://doi.org/10.1063/5.0113640> Published Online: 15 March 2023. Page.: 050031-1-8.

8. ZS Shoxo'jayeva, SHYA Akbarova. Effektivnost investitsiy v ekonomiku Kashkadarinskoy oblasti. 2020. Str.203-208.

TUPROQNI EKISHGA TAYYORLASHDA DISKSIMON ISHCHI ORGANLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Ravshanov Hamroqul Amirqulovich – t.f.d., dotsent,
ravshanovhamroqul@mail.ru

Aliqulova Sevara Muhiddinovna- tayanch doktorant,
aliqulovasevara43@gmail.com

“TIQXMMI” MTuning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.

Tuproqni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan mashina va agregatlar daladan bir o'tishda ekish oldidan bajariladigan bir yoki bir nechta texnologik jarayonlarni qo'shib bajaradi. Bu traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarining tuproqqa ko'rsatadigan salbiy ta'siri hamda yonilg'i, mehnat sarfi va boshqa moddiy xarajatlarni kamayishi, ish sifati va unumini ortishi, tuproqqa ishlov berish muddati qisqarishi, unda to'plangan namning saqlanib qolishiga olib keladi. Bunday agregatlar daladan bir o'tishda tuproqni 10-18 sm chuqurlikda yumshatadi, yuzasini tekislaydi va talab darajasida zichlab ketadi. Ular asosan ramaga ketma-ket joylashtirilgan kesadigan, yumshatadigan, maydalaydigan, tekislaydigan hamda zichlaydigan ish organlaridan tashkil topgan bo'ladi. Kesadigan, yumshatadigan ish organi sifatida asosan diskli ishchi organlardan keng foydalaniladi [1,2]. Keyingi yillarda jahonda va Respublikamiz olimlari tomonidan har xil konstruksiyadagi tuproqqa ishlov beradigan va uni ekishga tayyorlaydigan mashinalar ishlab chiqilgan. Voronej davlat o'rmonchilik texnika universiteti olimlari M.N.Lisich, E.P.Shevsova va S.A.Yermolenkolar [3] tomonidan kombinatsiyalashgan ko'pfunksiyali tuproqqa ishlov berish mashinasi taklif etilgan. Rossiya universiteti Federatsiyasining Volgograd davlat agrar olimi A.I.Ryadnov tomonidan RU № 2690428 raqamli patenti [4] bo'yicha nishab yerlarga asosiy ishlov berish sifatini oshirish maqsadida kombinatsiyalashgan tuproqqa ishlov berish agregati taklif etilgan.



1-rasm. BDTM-3P-03A diskli borona

Lesselmashda ishlab chiqilgan BDTM-3P-03A diskli borona (1-rasm) 3-4 klassdagi traktorlarga mo'ljallangan bo'lib, u kuzgi bug'doydan bo'shagan va yem xashak ekinlari ekiladigan maydonlarga 6-15 sm chuqurlikda ishlov berish uchun qo'llaniladi. BDTM-3P-03A diskli borona rama, diskli ish organlar, zichlovchi g'altak va transport holati uchun tayanch g'ildiraklaridan tashkil topgan. Unda diskli ish organlar to'rt qator joylashtirilgan bo'lib, har bir qatordagi diskli ish organlarini alohida rostlash imkoni mavjud [5]. AG-1,8-20 diskli kombinatsiyalashgan agregat (2-rasm) barcha turdagi tuproqlarga 5-18 sm chuqurlikda sifatli ishlov beradi. Bu agregat ish jarayonida somon, o'simlik poyalari, o't bosgan va organik o'g'itlar berilgan dalalarda o'simlik qoldiqlarini tuproq bilan to'liq aralashtirib ketadi.

Kombinatsiyalashgan agregat rama, diametri 550 mm li sferik disklar va tekislovchi-zichlovchi g'altakdan iborat bo'lib, u soatiga 8-12 km tezliklarda harakatlanib, 1,2-3,0 ga yerga ishlov berish imkoniga ega [6].



2-rasm. AG-1,8-20 diskli kombinatsiyalashgan agregat

Kverneland Visio diskli borona (3-rasm) Fransiyada ishlab chiqarilgan bo'lib, u shudgordan keyin va o'simlik qoldiqlari bo'lgan dalalarga 7-15 sm chuqurlikda ishlov berish uchun mo'ljallangan. Bu diskli boronada 4 ta batareyaga diametri 320 mm li sferik disklar o'rnatilgan bo'lib, ular bir-biridan 235 mm masofada joylashgan. Diskli boronaning oldida va orqada joylashgan diskli batareyalarini harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi ramaga o'rnatilgan gidrosilindrlar yordamida o'zgartiriladi, bundan tashqari unga maydalovchi zichlovchi g'altak ham joylashtirilgan. Diskli boronaning qamrash kengligiga qarab undagi disklar soni 30 dan 54 taga o'zgartirish imkoniyati mavjud [7].




3-rasm. Kverneland Visio diskli boronasi (Fransiya)

Germaniya «Lemken» firmasining «Rubin» tipidagi diskli boronasi (4-rasm) mulcha hosil qilish texnologiyasi bo'yicha yerlarni sifatli ekishga tayyorlash uchun qo'llaniladi. Bu boronaning konstruksiyasi va ish organlarining joylashish sxemasi o'simlik qoldiqlarini yaxshilab maydalab ko'mib ketish, shuningdek, tuproqqa sifatli ishlov berish imkonini beradi. Boronaning tuproqqa intensiv ishlov berishiga diametri 610 mm li diskarni harakat yo'nalishiga nisbatan 23° , tikka nisbatan 18° burchak ostida o'rnatilishi hisobiga erishiladi. Tuproqning yaxshi maydalanishi va zichlanishini esa orqada joylashgan shtrigelli maydalagich reshetka va plankali qo'sh g'altak ta'minlaydi [8].



4-rasm. LEMKEN firmasining Rubin 9/250 U diskli boronasi


Shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqariladigan kombinatsiyalashgan mashina va agregatlarni Respublikamiz sharoitida to'g'ridan-to'g'ri qo'llab bo'lmaydi, chunki ularning bizdagi ishlash sharoiti (tuproqning turi, namligi, zichligi, qattiqligi, dala relyefi bo'yicha) va ularga qo'yilgan agrotexnika talablari (tuproqqa ishlov berish chuqurligi, uning uvalanish va zichlanish darajalari, dala yuzasining tekislanish ko'rsatkichlari bo'yicha) xorijiy mamlakatlardagidan katta farq qiladi.



5-rasm. RU105108 patent bo'yicha disksimon ishchi organ

Bundan tashqari xorijdan keltiriladigan mashinalar narxining qimmatligi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi tannarxini oshishiga olib keladi. Disksimon ishchi organlarning bir necha xil turlari ma'lum bo'lib, ular tuproqqa ishlov berish mashinalarida keng qo'llaniladi. Rossiya Federatsiyasida G.P.Balbichev va boshqalar tomonidan [9] aylanish tekisligiga parallel tekislikda periferiya qismi lopast shaklida qilingan disksimon ishchi organ taklif qilingan. Uning har bir lopastining oldingi qirradi radius yo'nalishidan uning aylanish tomoniga qiya qilingan. Lopastning oldingi qirradi siniq chiziq ko'rinishida bo'lib, yuqori qismi 90° ni tashkil qiladi. Jan-Sharl Javerlyak [10] tomonidan (5-rasm) beshta qobariq lopastga ega bo'lgan va egri qirg'ich bilan jihozlangan sferik disk taklif qilingan. Ushbu disk disksimon pluglarda qo'llanish uchun mo'ljallangan.

J.V.Staffed va boshqalar [11] diskli ish organlaridan foydalanib, tuproqqa uzilish deformasiya hisobiga ishlov berish ustida tadqiqotlar olib borishgan. Bunda ular harakat yo'nalishi va tikka nisbatan ma'lum burchak ostida joylashtirilgan yassi disklardan foydalanishgan (6-rasm).



6-rasm. Qo'shaloq diskli ish organ

O'tkazilgan ilmiy-texnik va patent adabiyotlar tahliliga ko'ra, quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Tuproqni ekishga tayyorlaydigan texnik vositalar konstruksiyalarining holati va rivojlanish istiqbollari, ular ish organlarining konstruktiv xususiyatlari va texnologik ish jarayonlarining tahlili disksimon ishchi organlardan keng foydalanish imkoniyatini beradi.

2. O'tkazilgan ilmiy-texnik va patent adabiyotlar tahliliga ko'ra, disksimon ishchi organlardan foydalanish tuproqni zichlanishini oldini oladi, namni saqlanishini ta'minlaydi, mehnat unumdorligini oshiradi, sarf-xarajatlarni kamaytiradi va kam energiya sarflab tuproqni talab darajasida sifatli ekishga tayyorlash imkonini beradi.

3. Mexanik tarkibi og'ir, sifatli ishlov berilmagan, o'simlik ildizlari ko'p bo'lgan tuproqlarni ekishga tayyorlashda disksimon ishchi organlardan foydalanganda, o'simlik ildizlari kesiladi va tuproqni maydalanish darajasi ortadi.

Adabiyotlar

1. Ravshanov H.A. Tuproqni takroriy ekinlar ekishga tayyorlaydigan texnik vositalarni ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari: Dis. ... texn. fan. dokt. -Toshkent, 2020. - 206 b.

2. Ergashev M.M. Kombinasionalashgan borona diskli yumshatkichlarining parametrlarini asoslash: Dis. ... texn. fan. fals. dokt. - Toshkent, 2018. - 121 b.

3. ЛМч М.Н., Шевсова Е.П. Комбинированное многофункциональное почвообрабатывающее орудие// Молодой учёный. -Казань, 2015. - № 11 (91). - С.385-387.

4. Патент RU №2690428. Комбинированный почвообрабатывающий агрегат/ Руаднов А.И. // Б.И. - 2017. - № 6.

5. [Офшальнш сайт. www.agrobase.ru.](http://www.agrobase.ru)

6. [Офшальнш сайт. www.agrointer.co.ua.](http://www.agrointer.co.ua)

7. [Офшальнш сайт. www.agrodelo.com.ua](http://www.agrodelo.com.ua)

8. [Офшальнш сайт. www.lemken.com](http://www.lemken.com)

9. А.С. 105108. Диск отуа пахоты/ Балбычев Г.П., Коваленко М.В., Пинхасик В.Л., Руазанов В.М// Буил. -2011. - № 16.

10. А.С. 2046578. Диск ,^уа пахоты и дисковый плуг/ Жаверлуак Ж.Ш// А01В21/02. - 1936. - 9 стр.

ОСНОВЫ ТЕОРИИ И МЕТОДОЛОГИИ ДЛЯ УВЕЛИЧЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ КАРАКУЛЕВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Нуриллаев Рахмат Ярашевич¹- кандидат сельскохозяйственных наук,
E-mail: raxmatnurillaev@gmail.com

Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич²- кандидат экономических наук, доцент.
E-mail: Jnurillaev@mail.ru

¹Каршинский институт ирригации и агротехнологий НИУ «ТИQHMMI».

² Ташкентский государственный экономический университет

Введение:

Каракулеводческое хозяйство является неотъемлемой частью сельскохозяйственной экономики Узбекистана, обеспечивая сельские общины источником продовольствия, каракуля, шерсти и дохода. Повышение производительности каракульских хозяйств важно по нескольким причинам, включая повышение продовольственной безопасности, увеличение доходов в сельской местности и содействие устойчивому сельскому хозяйству.

Каракуль на протяжении веков была ценным товаром, используемым при производстве высококачественной одежды, головных уборов и аксессуаров. Компания также поставляет ряд высококачественной продукции потребителям по всему миру. Однако в последние годы спрос на продукцию каракулеводства значительно снизился, что вызывает обеспокоенность производителей, поставщиков и других заинтересованных сторон отрасли.

В настоящее время разведение животных на мех запрещено в Великобритании, Норвегии, Бельгии, Австрии, Хорватии и Словакии. В Израиле с 2010 года запрещена даже продажа меха. Начиная с 2024 года в Калифорнии будет принят новый закон о защите животных, который также сделает незаконным производство и продажу новых изделий из меха животных.

Существует несколько теоретических основ, которые можно использовать для повышения эффективности каракулеводства. Теоретические основы повышения эффективности каракульских хозяйств:

Рыночная эффективность каракулеводческого комплекса - это способность рынка распределять ресурсы для их наиболее эффективного использования. В этом случае рыночная эффективность отрасли может быть повышена путем обеспечения того, чтобы цены отражали истинные затраты и выгоды от производства каракуля. Этого можно добиться за счет либерализации рынка, дерегулирования и отмены субсидий.

Экономическая эффективность - это способность хозяйств производить максимальную продукцию с минимальными затратами. В случае с каракулеводством экономическую эффективность можно повысить за счет снижения себестоимости продукции, а также внедрения современных технологий, оптимизации производственных процессов и эффективного использования ресурсов.

Эффективность управления — это способность фермы достигать своих производственных целей с минимальным использованием ресурсов. В случае

выращивания каракуля эффективность управления может быть повышена за счет принятия соответствующих методов управления, включая надлежащим ведением животноводство, управление питанием и борьбу с болезнями.

Экологическая эффективность: Экологическая эффективность — это способность фермы производить продукцию, не нанося вреда окружающей среде. В случае выращивания каракуля экологическая эффективность может быть повышена за счет внедрения современных методов кормопроизводства, устойчивых методов производства, включая использование органических удобрений, сокращение водопотребления и использование возобновляемых источников энергии.

Основные принципы повышения производительности:

Повышение продуктивности каракулевых хозяйств предполагает несколько основных принципов, среди которых:

1. **Племенная работа и селекция.** Выбор правильной породного типа и окраски каракульских овец имеет решающее значение для повышения продуктивности. Каракульских овец следует выбирать, исходя из их способности давать высококачественное каракуля, мясо, шерсть или молоко, а также их приспособленности к местным климатическим условиям и устойчивости к болезням. Селекция и генетика играют решающую роль в повышении эффективности каракульских хозяйств. Селекционное разведение можно использовать для выведения животных, обладающих желательными чертами, такими как повышенная плодовитость, скорость роста и устойчивость к болезням. Применение современных технологий, таких как искусственное осеменение и пересадка эмбрионов, также может способствовать ускорению генетического прогресса и повышению качества каракульских овец.

2. **Управление кормлением:** Правильное управление кормлением необходимо для повышения продуктивности каракульских хозяйств. Это включает обеспечение сбалансированного питания, обеспечение адекватного водоснабжения и управление пастбищными угодьями. Питание и кормление необходимы для роста и развития каракульских овец. Правильное питание может улучшить репродуктивную функцию, производство молока и качество мяса. Использование сбалансированных рационов, дополненных минеральными веществами и витаминами, может помочь повысить эффективность использования кормов и снизить стоимость кормов.

3. **Управление здоровьем.** Здоровье и борьба с болезнями имеют решающее значение для успеха каракульских ферм. Использование вакцин, борьба с паразитами и меры ветеринарной безопасности могут помочь предотвратить распространение болезней и снизить смертность животных. Регулярные проверки здоровья и своевременное лечение больных животных также могут помочь улучшить общее состояние здоровья и продуктивность стада. Надлежащее управление здоровьем имеет решающее значение для повышения производительности. Это включает в себя профилактику заболеваний, вакцинацию и лечение больных животных.

4. **Управление воспроизводством.** Эффективное управление воспроизводством необходимо для повышения продуктивности. Это включает в себя правильный племенной отбор, управление разведением и управление репродуктивным здоровьем.

5. Племенной учет и управление финансами. Ведение учета имеет важное значение для мониторинга и оценки деятельности каракульских ферм. Это позволяет фермерам отслеживать производительность и прибыльность своей деятельности и принимать обоснованные решения о будущих методах управления. Записи должны включать информацию о разведении, питании, здоровье и финансовых показателях.

Надлежащее управление финансами важно для повышения производительности. Это включает в себя управление затратами, управление доходами и максимизацию прибыли.

Методические основы повышения эффективности каракульских хозяйств:

Существует несколько методологических основ, которые можно использовать для повышения эффективности каракулеводства. К ним относятся:

Анализ производственных процессов: Анализ производственных процессов включает в себя определение ресурсов, результатов и производственных процессов, используемых при выращивании каракуля. Это можно сделать с помощью таких инструментов, как анализ производственных функций, который может помочь выявить области неэффективности и предложить пути улучшения производственных процессов.

Внедрение современных технологий: Внедрение современных технологий предполагает использование новых и инновационных технологий, которые могут повысить эффективность выращивания каракуля. Это может включать использование методов точного земледелия, таких как тракторы и датчики с GPS-управлением, для оптимизации производственных процессов и сокращения отходов.

Мониторинг и оценка: Мониторинг и оценка включают в себя регулярный мониторинг и оценку операций по выращиванию каракуля для выявления областей неэффективности и предложения путей повышения производительности. Этого можно добиться с помощью показателей эффективности, таких как коэффициент конверсии корма и выход продукции, которые могут помочь выявить области неэффективности и предложить пути повышения производительности.

Обучение и образование: Обучение и образование необходимы для улучшения навыков и знаний каракулеводческих хозяйств. Этого можно достичь за счет предоставления программ обучения, семинаров и услуг по распространению знаний, посвященных таким темам, как разведение, питание, здоровье, эффективное использование пастбищ, первичная переработка продуктов каракулеводства и управление бизнесом. Использование современных технологий, таких как онлайн-курсы и мобильные приложения, также может способствовать повышению доступности и эффективности программ обучения.

Обучение и образование включают предоставление фермерам необходимых знаний и навыков для повышения эффективности их операций по выращиванию каракуля. Это может включать обучение животноводству, управлению питанием и борьбе с болезнями.

Создание сетей и сотрудничество: Создание сетей и сотрудничество могут помочь повысить эффективность и конкурентоспособность каракулеводческих ферм. Этого можно достичь путем создания фермерских групп, кооперативов и ассоциаций,

которые оказывают поддержку и обмениваются информацией между фермерами. Сотрудничество с исследователями, ветеринарами и специалистами по распространению знаний также может помочь получить доступ к новым знаниям и технологиям, которые могут повысить производительность каракулеводческих ферм.

Социально-экономическое значение повышения производительности:

Повышение продуктивности каракулеводческих хозяйств имеет ряд социально-экономических значений, в том числе:

1. Улучшение продовольственной безопасности: Повышение производительности каракулеводческих ферм может способствовать повышению продовольственной безопасности за счет обеспечения стабильных поставок мяса, шерсти и молочных продуктов.

2. Увеличение доходов в сельских жителях: выращивание каракуля является важным источником дохода для многих сельских общин. Повышение производительности может привести к более высоким доходам фермеров и их семей, повышая их уровень жизни.

3. Содействие устойчивому сельскому хозяйству. Повышение производительности может способствовать развитию устойчивого сельского хозяйства за счет снижения нагрузки на природные ресурсы и повышения эффективности их использования.

4. Увеличение торговли и экспорта: Повышение производительности каракулеводческих ферм может привести к увеличению торговли и экспорта каракулевой продукции, генерируя иностранную валюту и способствуя развитию национальной экономики.

5. Создание рабочих мест. Повышение производительности каракулеводческих ферм может создать рабочие места в смежных отраслях, таких как переработка и реализация продукции из каракуля.

Подводя итог, можно сказать, что ряд факторов способствуют снижению спроса на каракуль во всем мире, например, растущее вегетарианство и проблемы прав животных, экологические проблемы, изменение модных тенденций, конкуренция со стороны синтетических материалов, экономические факторы и проблемы устойчивого развития, а также увеличение контрафактную продукцию можно считать поступившей. Поскольку мировая экономика и потребительские предпочтения продолжают развиваться, необходимо будет найти способ восстановить спрос на кожу каракуль в будущем. Чтобы оставаться конкурентоспособными в каракулеводческой отрасли, производителям и поставщикам необходимо будет адаптироваться к этим меняющимся тенденциям и найти способы удовлетворения меняющихся потребностей и желаний потребителей. Стоит отметить, что последствия снижения мирового спроса на каракул различаться в зависимости от масштаба отрасли, конкретного региона, адаптации и диверсификации. Правительству, заинтересованным сторонам отрасли и сообществам необходимо будет работать вместе, чтобы смягчить негативные последствия и изучить новые возможности для устойчивого экономического развития.

Заключение: Повышение эффективности каракулеводческих ферм в Узбекистане требует применения теоретических и методологических мероприятий, направленных

на селекцию и генетику, питание и кормление, управление здоровьем и болезнями, ведение учета, обучение и образование, а также создание сетей и сотрудничество. Реализация этих основ требует участия различных заинтересованных сторон, включая фермеров, исследователей, ветеринаров и специалистов по распространению знаний.

Теоретико-методологические основы, рассмотренные в данной статье, могут быть использованы для повышения эффективности каракулеводства в условиях рыночных отношений. К ним относятся эффективность рынка, экономическая эффективность, эффективность управления и экологическая эффективность, а также анализ производственных процессов, внедрение современных технологий, мониторинг и оценка, а также обучение и образование. Приняв эти принципы, фермеры, выращивающие каракуль, могут повысить свою эффективность и производительность, а также обеспечить устойчивость отрасли и средств к существованию местных сообществ.

Повышение производительности каракулеводческих ферм имеет важное значение для повышения продовольственной безопасности, увеличения доходов в сельских районах, содействия устойчивому сельскому хозяйству, увеличения торговли и экспорта, а также создания рабочих мест. Основные принципы повышения продуктивности включают в себе: племенной отбор, управление пастбищным хозяйством и кормлением, управление здоровьем, управление воспроизводством и финансовый менеджмент. Правительства, исследовательские институты и субъекты частного сектора должны работать сообща, чтобы продвигать и поддерживать внедрение технологий и методов, повышающих производительность в секторе выращивания каракуля.

Работая вместе, мы можем повысить производительность и прибыльность каракулеводческих ферм, способствуя экономическому развитию Узбекистана.

Список использованной литературы

1. Виноградова М.А., Херремов Ш.Р., Розыев . Некоторые элементы технологии пустынного каракулеводства Туркменистана. http://base.dnsgb.com.ua/files/journal/201111_03_077-080.pdf
2. Жўраев Ф.Ж. Ўзбекистонда қоракўлчиликнинг ривожланиши – Т.: Ўзбекистон, 1983. – 102 бет.
3. Каюмов Ф.К., Ким В.И., Алибаев И. Пути ликвидации убыточности каракулеводческих хозяйств и перспективы перевода их на самокупаемость и самофинансирование (обзор). Т. УзНИИИНТИ. 1988 г. 32 с.
4. Каюмов Ф.К., Кувнаков Х.К., Фарманов Т.Х. Каракулеводческий подкомплекс и его роль в формировании конъюнктуры рынка – Т.: 1993 г- 96 с.
5. Кундиус В.А. ЭКОНОМИКА АПК: учебное пособие / В.А. Кундиус. Барнаул: Изд-во АГАУ, 2007. 669 с.
6. Мадаминов К. Қоракўлчилик: кеча, бугун, эртага. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. –2007, –№6. –Б.13-14.
7. Маллабоев Т.С. Чорвачиликда интенсивлаштириш ва унинг иқтисодий самарадорлиги. – Т.: Ўзбекистон, 1972 й. – 45 бет.

GLOBALASHGAN DUNYODA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Nurillayev Raxmat Yarashevich

q.x.f.n., dotsent, "TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Bozorov Jamshid Arabovic

katta o'qituvchisi, "TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

FAO, IFAD va WFP tomonidan taqdim etilgan "Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi holati to'g'risida"gi yangi hisobotga ko'ra, 2021 va 2023 yillar orasida sayyoramizdagi har sakkizinchi odamdan biri (878 million kishi) hali ham surunkali ochlikdan aziyat chekmoqda. Bu muhtoj odamlarning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi, ammo rivojlangan mamlakatlarda ham 20 milliongacha och odam bor. Hisobot hammualliflari ta'kidlashicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish daromadlarning oshishiga yordam bergan. Davlat va xususiy investitsiyalarning ortishi, shuningdek, xususiy investorlarning ushbu sohaga qiziqishi ortishi hisobiga qishloq xo'jaligida hosildorlikning oshishi umumiy oziq-ovqat xavfsizligi holatining yaxshilanishiga olib keldi. Ayrim davlatlar ham muhojirlarning pul o'tkazmalari evaziga qashshoqlikka qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishdi.

O'zgarishlarga qaramay, butun dunyoda ochlikka qarshi kurashda mintaqaviy farqlar mavjud. Misol uchun, Sahroi Kabir to'yib ovqatlanmaslik eng yuqori bo'lgan mintaqalardan biri bo'lib qolmoqda, har to'rt kishidan biri ochlikka duch kelmoqda. G'arbiy Osiyoda ham o'tgan yillarda yaxshilanish kuzatilmadi, Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasida ochlikdan aziyat chekayotganlar soni va to'yib ovqatlanmaslik darajasi sezilarli darajada kamaygan. Ochlik bilan bog'liq muammolar hatto Amerika Qo'shma Shtatlari kabi rivojlangan davlatga ham tasir qildi. Misol uchun, Nyu-York shahrining ochlikka qarshi koalitsiyasi (NYCCAH) ochlik va boshpanasizlik haqida hisobot e'lon qilib, shahardagi bolalarning 20% dan ko'prog'i har kuni to'yib ovqatlanmasliklarini ta'kidladi. NYCCAH ijrochi direktori Joel Bergning so'zlariga ko'ra, aholining badavlat qismi mazali taomlar iste'mol qilsada, har oltita Nyu-Yorklikdan bittasi ochlikka duch kelmoqda. Ehtiyojmandlar uchun oziq-ovqat yordamini qisqartirish vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda. Bu yil Nyu-Yorkda oziq-ovqat yordami so'rab, bepul oziq-ovqat tarqatish punktlariga tashrif buyuruvchilar soni 10 foizga oshgan. Shuningdek, qashshoqlik, ochlik va uy-joysizlikda yashovchi odamlar sonining ortishi kuzatildi. Shahar aholisining deyarli yarmi qashshoqlik darajasida yoki shunga juda yaqin yashaydi. Hisobotda Nyu-York shahrida badavlat aholi va boshqalar o'rtasidagi mavjud tengsizlikni tanqid qilindi.

Yevroosiyo mintaqasining barcha mamlakatlari aholining qoniqarli ovqatlanish darajasi bilan ajralib turadi, bu dunyo va rivojlanayotgan mamlakatlardagi o'rtacha darajadan yuqori. Biroq, Tojikiston va Moldova kabi ba'zi davlatlar jahon o'rtacha ko'rsatkichidan pastga tushib, mos ravishda 100 va 102 foizni tashkil qildi. O'zbekiston va Gruziyada oziqlanish darajasi rivojlanayotgan mamlakatlarga mos keladi. Belarus 141 foiz ko'rsatkich bilan eng yaxshi natijalarni ko'rsatdi. To'yib ovqatlanmaslik muammosi Tojikiston (31,7 foiz), Gruziya (24,7 foiz) va Qirg'izistonda (6,4 foiz) o'tkir. Gruziya va Tojikistonda oziq-ovqat sifatining

pastligi va aholi jon boshiga oziq-ovqat ishlab chiqarishning cheklanganligi oziq-ovqat bilan ta'minlanmaganligini ko'rsatadi.

Belorusiyada aholi jon boshiga oziq-ovqat ishlab chiqarish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 518 AQSh dollarini tashkil etadi, bu rivojlangan mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, ya'ni o'rtacha 473 AQSh dollari. Kavkaz va Markaziy Osiyo mintaqasida aholi jon boshiga oziq-ovqat ishlab chiqarishning o'rtacha darajasi jahon standartlariga yaqin. Biroq, Tojikiston va Gruziya aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha eng past darajaga ega bo'lib, mos ravishda 148 va 153 AQSh dollarini tashkil etadi.

Bu mamlakatlarda aholi jon boshiga kuniga iste'mol qilingan kilokaloriya bilan o'lchanadigan taxminiy oziq-ovqat tanqisligi ancha yuqori. Tojikiston, Gruziya va Moldovada ko'rsatkichlar kuniga jon boshiga mos ravishda 262, 221 va 200 kkal. Aholi jon boshiga kuniga o'rtacha 94 va 113 kkal bo'lgan jahon va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, bu mamlakatlarning Yevroosiyo mintaqasidagi darajasi yuqori deb hisoblanadi.

Moldovadagi vaziyat alohida tashvish uyg'otadi, bu yerda oziq-ovqat tanqisligi darajasi aholi jon boshiga kuniga 200 kkal, oziq-ovqat yetishmovchiligi darajasi esa 35,3% ni tashkil etadi, bu MDH mintaqasining butun Sharqiy Evropa qismidagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

Hozirgi kunda cheklangan tabiiy resurslar, biosferaning cheklangan imkoniyatlari va sayyoramiz aholisining tez o'sishi o'rtasidagi tafovut kengayishda davom etmoqda. Globallashgan dunyoda bir davlatda yuzaga keladigan muammolar bevosita yoki bilvosita boshqa mamlakatlarga ham ta'sir qiladi. Shu bois dunyoning barcha mamlakatlari, jumladan, xalqaro, mintaqaviy va milliy tashkilotlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish orqali yuzaga kelayotgan muammolarni (ayniqsa, global muammolarni) hal etish muhim ahamiyatga ega. Xavfsizlikni ta'minlash uchun muammoni hal etishning ikki jihatiga e'tibor qaratish zarur: birinchidan, aholini yetarli darajada oziq-ovqat bilan ta'minlash va undan mamlakatdagi barcha ijtimoiy guruhlar uchun foydalanish imkoniyati; ikkinchidan, importga qaramlikni kamaytirish va milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish.

Milliy oziq-ovqat tizimining shakllanishi va faoliyati, uning rivojlanish istiqbollari jahon tendentsiyalarini, jumladan, iqtisodiyotning globallashuvi va xalqaro standartlarga muvofiq xalqaro oziq-ovqat savdosining ochilishini to'liq aks ettirishi muhim ahamiyatga ega. O'nlab yillar davomida hal etilmagan muammo butun insoniyat uchun qiyinchilik tug'dirmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligining milliy va xalqaro miqyosda yomonlashib borayotgani turli omillar, jumladan, tabiiy-iqlim, korruptsiya, moliyaviy-spekulyativ, bozor, demografik va boshqalar bilan izohlanadi.

Qishloq xo'jaligiga, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda uzoq muddatli investitsiyalarning yetishmasligi jiddiy ta'sir k'rsatadi. FAO ekspertlarining fikriga ko'ra, Yer (ko'plab mamlakatlar, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan) hozirgidan ikki baravar ko'p odamlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashga qodir, ammo mamlakatlarning rivojlanish darajasi va qashshoqlik oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha tafovut faqat chuqurlashmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlaridan samarali foydalanishni chinakam ta'minlash uchun aholi turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilash, hayotning boshqa sohalariga zarar yetkazmagan holda oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanishni kafolatlaydigan huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti o'z tavsiyasida aholi jon boshiga kuniga 2400 kkal iste'mol qilishni belgilab qo'ydi, ammo ko'plab mutaxassislar buni juda past deb hisoblaydilar va uni 3000 kkalgacha oshirishni taklif qilishadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar uchun aholi jon boshiga kuniga 3500 kkal ovqatlanish tavsiya etiladi, kuniga 1000 kkal dan kam bo'lgan dieta tananing jismoniy deqratatsiyasiga olib kelishi mumkin. Jahon oziq-ovqat tizimi ham tabiiy ofatlar, ham iqtisodiy omillar tufayli yuzaga kelgan muammolarga duch kelmoqda. Oziq-ovqat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlaridan 1,5 baravar yuqori bo'lgan demografik o'sish allaqachon qiyin vaziyatlarni yanada kuchaytirmoqda. Oziq-ovqat zahiralarning mavjudligi juda muhim bo'lmasada, oziq-ovqat narxlarini sun'iy ravishda ushlab turiladi, bu esa ularning oshishiga olib keladi.

Globaldagi dunyoda vositachilar va korruptsiya mansabdor shaxslar uzoq vaqtdan beri savdo bozorlarida faoliyat yuritib, sotish jarayonlarini nazorat qilib kelishadi. Ko'pincha ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini arzon emas, balki adolatli narxda sotishni qiyinlashtiradi. Moliyaviy chayqovchilik, shuningdek, tashqi qarzni to'lashning og'ir shartlari oziq-ovqat va energiya resurslari narxlarining keskin o'zgarishiga olib keladi, tovarlar va xizmatlar narxlarining umumiy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar oziq-ovqat bozorining rivojlanishini sekinlashtiradi. Jahon savdosining globallashuvi va boshqaruvi monopollashuvga va demping narxlaridan foydalanish orqali raqobatchilarni bostirishga olib keladi.

Jahon bozorining faoliyatini murakkablashtiradigan omillar resurslarning shakllanishiga ta'sir qiladi va taqchillikning barqarorligini belgilaydi, bu esa pirovardida oziq-ovqat bilan bog'liq vaziyatning yomonlashishiga va narxlarning oshishiga olib keladi. Importga qaram mamlakatlar uchun bu ayniqsa juda dolzarb muammodir. Qashshoq mamlakatlar uchun bu ommaviy ochlik, ijtimoiy va siyosiy beqarorlikka bevosita tahdid soladi. Hatto boy tabiiy resurslarga ega, ammo oziq-ovqat mustaqilligiga erisha olmagan mamlakatlar uchun ham oziq-ovqat sohasida tahdidlar seziladi. Turli darajadagi jiddiylikdagi oziq-ovqat tizimini rivojlantirish muammolari butun dunyo hamjamiyatiga xosdir, ammo ularni hal qilish har bir davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Agar aholining uchdan bir qismi oziq-ovqatga ega bo'lmasa, mamlakat ocharchilik deb e'lon qilinadi va xalqaro yordam so'raydi.

Oziq-ovqat muammosini hal qilishning hozirgi bosqichida deyarli barcha mamlakatlar inqirozning salbiy oqibatlarini oldini olish va aholini himoya qilish uchun tezkor choralar ko'rishga majbur. Misol uchun, Qo'shma Shtatlarda Qishloq xo'jaligi vazirligi oziq-ovqat dasturi va eng muhtojlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun boshqa dasturlar uchun javobgardir. Yordam olishning asosiy mezonlari oila daromadining kambag'allik darajasining 130% dan past bo'lishi yoki sof daromadning ushbu chegaraning 100% dan pastligi, shuningdek, oila mulkining qiymati 3 ming AQSH dollaridan kam bo'lishi hisoblanadi. Aholini himoya qilish tushunchalari va ularni amalga oshirish mexanizmlari sezilarli darajada o'zgardi: oziq-ovqat yordamini ko'rsatishdan xavfni boshqarish va oldini olish, ya'ni muhtojlarga nafaqat baliq berish, balki baliq tutish qarmoqlari bilan ta'minlash va bu baliqni qanday tutishni o'rgatish.

Qishloq xo'jaligi xodimlari dunyoning aksariyat mamlakatlarida qashshoqlikda yashaydilar, ularning maoshlari past va ish bilan ta'minlanmaganlar.

- Qishloq xo'jaligida moddiy-texnika bazasining yetarli emasligi, moliyaviy resurslar yoki malakali kadrlar yetishmasligi sababli innovatsion texnologiyalardan kam foydalanish.

- Qishloq xo'jaligida mehnatni muhofaza qilishning past darajasi. Bu sog'liq va hayot uchun eng xavfli sohalardan biridir. Har yili dunyoda 170 ming ishchi ish joyida vafot etadi va 3-4 million kishi jiddiy zaharlanadi.

Shunday qilib, qo'shma chora-tadbirlar majmuini qabul qilish davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga, har bir davlat uchun bozor maydonini kengaytirishga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish hajmini, bandligini va daromadlarini oshirishga, bozor kon'yunkturasining barqarorligini oshirishga va tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanishni ta'minlaydi.

Xulosa: Globallashuv sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi e'tibor va kompleks yechimlarni talab qiluvchi asosiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan omillarni tahlil qilib, bir qancha asosiy muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, dunyoning aksariyat mamlakatlarida qishloq xo'jaligi xodimlari qashshoqlikda yashaydilar, ularning maoshlari past va ish bilan ta'minlanmaganlar. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, innovatsion texnologiyalardan kam foydalanilayotganligi ham oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Nihoyat, qishloq xo'jaligida mehnatni muhofaza qilishning past darajasi ishchilarning salomatligi va hayotiga jiddiy tahdid soladi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun birgalikdagi chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish kerak. Davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, har bir davlat uchun bozor maydonini kengaytirish, ishlab chiqarishni, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining bandligini va daromadlarini oshirish, bozor kon'yunkturasining barqarorligini oshirish hamda tabiiy, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan samaraliroq foydalanishni faol amalga oshirish bilan erishish mumkin bo'ladi. Faqatgina davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xususiy sektorning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan globallashuv sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi tizimining barqaror va barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Официальный сайт продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН – ФАО [Электронный ресурс]. fao.org.

2. Ильина З. М. Глобальные проблемы и устойчивость национальной продовольственной безопасности: в 2 кн./ З. М. Ильина. – Минск: Ин-т системных исследований в АПК НАН Беларуси, 2012. – Кн. 2. – 161 с.

3. <https://www.givemn.org/organization/New-York-City-Coalition-Against-Hunger>

4. Множественные проявления продовольственной безопасности/ www.fao.org; www.interfax.ru/world/news.asp.

5. Нуриллаев, Р. (2023). Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12). <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/485>

ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ПРОЦЕССА ЗАГРУЗКИ И СЕПАРАЦИИ, КАРТОФЕЛЕУБОРОЧНЫХ МАШИН

Ж.Р.Норчаев, доцент кафедры ОТД (PhD).

Саломова Маъмура Саиткуловна, докторант


Каршинский институт ирригации и агротехнологий

На разнообразных почвенно-климатических условиях, в которых производится картофель, в период уборки возникает необходимость существенной переналадки картофелеуборочной техники для ее эксплуатации в данном регионе.

В Каршинском инженерно-экономическом институте разработано приспособление для улучшения крошения подкопанной массы и интенсификации процесса сепарации почвы на элеваторе машины. Приспособление 4 в виде рыхлителей (рисунок) установлено над полотном основного элеватора, состоит из волнообразных рыхлителей, которые шарнирно соединены с осью 3. С целью уменьшения повреждения клубней на рыхлители вдеты резиновые трубки.

Процесс работы протекает следующим образом. Подкопанная лемехом 1 клубненосная масса поступает на элеватор 2 и начинает им растаскиваться между рыхлителями. Рыхлители в процессе работы разбивают крупные глыбы, полностью отрывают ботву от столонов, равномерно выравнивают клубненосную массу по всей площади элеватора.

С целью оптимизации параметров были проведены лабораторно-полевые испытания по определению влияния расположения рыхлителей и их количества на повреждаемость клубней и сепарацию почвы.



1-лемех; 2-основной элеватор; 3-ось рыхлителей; 4-рыхлители

Рис. Технологическая схема опытного картофелекопателя КТН-2Б

Почва среднесуглинистая, влажностью 12-14%, твердостью ...МПа. Скорость движения агрегата 0,5-1,5 м/с. Глубины выкапывания 0,18-0,22 м. Рабочая длина волнообразных рыхлителей 0,9-1,0 м; диаметр проволоки рыхлителей 0,02 м; шаг рыхлителей 0,15-0,20 м; радиус кривизны 0,12-0,15 м; количество рыхлителей 2 шт; ширина рыхлителей 0,3-0,32 м.

Проведенные исследования по изысканию оптимального расположения рыхлителей показали, что рыхлители должны быть установлены на высоте 0,02-0,04 м над полотном элеватора и находится от начала элеватора на расстоянии в пределах 0,2-0,25 м.

Применение рыхлителя почвы позволяет сократить потери клубней за копателями за счет улучшения сепарации почвы на 25-30%.

Если учесть, что основной элеватор должен отсеять 70-80% почвы от общей массы, то применение рыхлителя позволит повысить качество работы и производительность на 10-12 % по сравнению с серийным.

Литература

1. Петров Г.Д. Картофелеуборочные машины. М, Машиностроение, 1984.
2. Сакун В.А., Норчаев Р. Тяговое сопротивление картофелеуборочного комбайна с подкапывающим рабочим органом шарнирно-упругим креплением. Труды. МИИСП. М; 1982.

SABZAVOT YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Shoxrux Ixomvich Akramov,
Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro
markazi direktori

Bugungi kunda yer yuzi aholisi 7 milliarddan oshib, ayrim mamlakatlar bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlarining tanqisligi xavf solayotgan bir paytda, shaxsan Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev va respublika hukumatining tarmoqni yanada rivojlantirishga oid ko'rsatmalari sabzavot-poliz va kartoshka yekinlari mahsulotini tobora ko'paytirish va eksport qilish masalasini asosiy vazifa qilib qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 17 oktabrda e'lon qilingan PQ-3978-sonli qarori va 2021 yil 15 dekabrda "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 6 oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023 yil 3 avgustdagi "2023-2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi.

Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarga bo'lgan talabini to'la qondirish, bozorlardagi narx-navolarni barqarorligini ta'minlash, qayta ishlash va eksportbop xajmlarini oshirish maqsadida aniq chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilib, ijrosi ta'minlanmoqda.

Sabzavotchilik dunyo dehqonchiligida eng qadimiy asosiy va yetakchi tarmoqlardan hisoblanadi. Sabzi, sholg'om, sarimsoq, lavlagi 2 ming, karam, bodring, piyoz kabilar 4 ming yildan beri ekiladi. Markaziy Osiyoda, ya'ni bizda qovun eramizdan ilgari ham yetishtirilgan. Hozirgi paytda sabzavot ekinlari dunyoning barcha mamlakatlarida o'stiriladi.

Sabzavotchilik - qishloq xo'jaligining muhim sohasi bo'lish bilan birga, fan sifatida uning maqsadi - sabzavot ekinlari biologiyasini o'rganish va shu asosda mahsulot birligiga kam mehnat, mablag' sarflab, yuqori, sifatli hamda arzon mahsulot yetishtirish texnologiyasining nazariy asoslari va amaliy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Sabzavotchilik - o'simlikshunoslikning ajralmas tarkibiy qismidir. Shuning uchun sabzavot ekinlarini hamma vaqt ham boshqa ekinlardan ajratib bo'lmaydi. Chunki, karam, kartoshka, sabzi, qovoq, lavlagi, tarvuz, makkajo'xori kabilarni sabzavot ekinini sifatida oziq - ovqatga, chorva mollari uchun yem - xashak va texnik maqsadlarda ishlatish uchun xom ashyo sifatida yetishtirish mumkin.

Lekin, sabzavotchilik o'simlikshunoslikning boshqa tarmoqlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

Birinchi: Sabzavotchilik ikkita: 1. Ochiq maydonda (dalada); 2. Yopiq maydonda ishlab chiqarish usuliga ega.

Ikkinchi: Sabzavotchilik xilma - xil ekin tur, xil va navlar to'plamini o'z ichiga oladi. Sabzavot ekinlari 14 ta botanik oilaga mansub 80 ga yaqin turni o'z ichiga olib, shundan 40 ga yaqini O'zbekistonda ekiladi.

Uchinchi: Sabzavotchilikda o'ziga xos ishlab chiqarish usullari (ko'chat ekin usuli, konservalash, qayta o'stirish kabilar) qo'llaniladi.

To'rtinchi: Sabzavotchilik o'z navbatida bir necha tarmoqlarga bo'linadi. Jumladan, poliz ekinlari biologiyasi va agrotexnikasini ishlab chiqish bilan polizchilik, sog'lom, sifatli urug'ini yetishtirish bilan sabzavot ekinlar urug'chiligi tarmog'i shug'ullanadi.

Sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishda bir qator olimlar va mutaxassislar muhim hissa qo'shgan. Jumladan, rossiyalik seleksioner va agronom I.V.Michurin o'simliklarning turli sharoitlarga moslashuvchanligi va navlarning o'zaro chatishtirish nazariyasiga asoslangan bo'lib, sabzavotlar seleksiyasida muhim ahamiyat kasb etgan. Genetika va seleksiya sohasidagi olimlardan biri N.I.Vavilov o'simliklarning turli ekotizimlarda qanday moslashishini o'rganib, biosferada turli mintaqalarning ahamiyatini ochib bergan. Uning ishi sabzavotlar seleksiyasini rivojlantirishga katta ta'sir qilgan. Norman Borloug - "Yashil inqilob" asoschilaridan biri va Nobel mukofoti sovrindori. Uning ishi butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga bag'ishlangan bo'lib, bu sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatgan. Lev Sergeyevich Talsin - Sabzavotchilik va hosildorlik nazariyasi bo'yicha o'zining asosiy ishi bilan mashhur. U o'simliklarning suv iste'moli va agrotexnik yondashuvlarining optimizatsiyasi bo'yicha ilmiy ishlarni olib borgan. Jyul Jan Bryuton (Jules Jan Bruyton) - Fransiyalik agronom va olim, uning ishi sabzavotchilikda organik va tabiiy yerni qayta tiklash jarayonlarini rivojlantirishga bag'ishlangan.

Ushbu olimlar sabzavotchilik sohasida nazariy va amaliy asoslarni yaratishda muhim hissalar qo'shgan. Ular turli xil agrotexnikaviy, seleksiya va ekologik muammolarni hal qilishda asosiy yo'nalishlarni belgilab berishgan.

O'zbekistonda ham bir qator taniqli olimlar va mutaxassislar tomonidan sabzavotchilik va qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, tanilgan o'zbek olimlaridan biri R.M.Yuldoshevning ilmiy izlanishlari asosan mahalliy sharoitlarga mos sabzavot navlarini yaratish va hosildorlikni oshirishga qaratilgan. S. Hamroqulovning

tadqiqotlari sabzavotchilik va poliz ekinlarining yangi navlarini yaratishga va ularning biologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Sabzavotchilik va polizchilik ilmiy tadqiqotlari bilan tanilgan olim H.A.Sodiqovning asosiy ishi sabzavot yetishtirishda agrotexnika usullarini takomillashtirish va tuproq unumdorligini saqlashga qaratilgan. Sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi sohasida faol tadqiqotlar olib borgan Sh.H.Ziyovuddinovning ishi yuqori hosildor va mahalliy iqlim sharoitiga chidamli sabzavot navlarini yaratishga qaratilgan. Sabzavotchilik va melioratsiya sohasida o'zining ilmiy ishlari bilan mashhur bo'lgan olim M.K.Karimovning tadqiqotlari tuproq unumdorligini saqlash, suv tejamkor texnologiyalarini joriy etish va sabzavot hosilini oshirishga bag'ishlanganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarga bo'lgan talabini to'la qondirish, bozorlardagi narx-navolarni barqarorligini ta'minlash, qayta ishlash va eksportbop xajmlarini oshirish maqsadida aniq chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilib, ijrosi ta'minlanmoqda. Xususan, 2023 yilda 12 mln. 200 ming tonna yoki 2022 yilga nisbatan 1 mln. tonna ko'p sabzavotlar, 4 mln. 100 ming tonna kartoshka, 2 mln. 500 ming tonna poliz, 3 mln. 100 ming tonna meva, 1 mln. 900 ming tonna uzum yetishtirildi. Ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun 2023 yil hosili uchun fermer va qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan asosiy, bog'-tok qator orasiga va takroriy maydonlarga qariyb 643 ming gektar shundan, 341 ming gektardan ziyod sabzavot, 176 ming gektar kartoshka va 125 ming gektardan ortiq poliz ekinlari ekilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023 yil 15 martdagi "Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ishtirokida "Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri yaratishni rivojlantirish (2-bosqich)" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-96-son qarori qabul qilindi. Va qarorda quyidagilar tasdiqlandi:

"Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri yaratishni rivojlantirish (2-bosqich)" loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari;

Loyiha bo'yicha JICA qarzini qaytarish sxemasi;

JICA qarzi bo'yicha asosiy qarzni qaytarish, vositachilik haqi va foiz to'lovlarini to'lash prognoz jadvali;

Loyihani amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi".

"Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri yaratishni rivojlantirish (2-bosqich)" loyihasining umumiy qiymati 323, 019 mln AQSH dollarini tashkil etadi, shundan:

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) qarzi – 200 mln AQSH dollari;

58,272 mln AQSH dollari qo'shilgan qiymat solig'ini qoplab berish va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish shaklida O'zbekiston Respublikasining loyihani amalga oshirishdagi ulushi;

64,747 mln AQSH dollari Loyiha ishtirokchilarining (kredit oluvchi loyiha tashabbuskorlarining) ulushi.

Loyihani amalga oshirish davri 6 yilni (2023-2028 yillar) tashkil etadi.

Loyiha Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublikaning barcha viloyatlarida amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi loyihaning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishi, uni muvofiqlashtirish va boshqarish uchun mas'ul ijro etuvchi organ etib tayinlandi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish uchun xorijiy davlatlar ishtirokida loyiha ishlari amalga oshirilmoqda. Va bu loyihalarning samarasi albatta o'z ijobiy natijasiga ega bo'ladi, deb hisolaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Э.Е.Абдуназаров, Қ.Г'.Зокіров. Sabzavotchilik (uslubiy qo'llanma). Toshkent, 2019 y.
2. Rossiya qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi, Michurin nomidagi nashrlar.
3. Rossiya fanlar akademiyasi, Vavilov nomidagi institut.
4. Nobel mukofoti sayti, Xalqaro g'alla tadqiqotlari markazi (CIMMYT).
5. Rossiya qishloq xo'jaligi akademiyasi nashrlari.
6. Fransiya agronomiya instituti (INRA) nashrlari.
7. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/meva-sabzavotchilik_tarmogini_rivojlantirish_uchun_323_million_dollar_ajratiladi

4-SHO'BA: ZAMONAVIY O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ILM-FANNING DOLZARB MASALALARI

RAQAMLI TA'LIM MUHITDA TALABLAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH SAMARALI YO'LLARI

Tojiyev Panji Joyliyevich
DsC, texnika fanlari doktori, professor,
Raxmatova Salima Togaymuradovna
PhD, pedagogika fanlari doktori.

Termiz davlat pedagogika instituti, Kimyo-biologiya kafedrası

Ma'lumki, multimedia texnologiyalaridan zamonaviy talablar darajasida ta'lim jarayonida foydalanish samarali natija beradi. Uning samarasini izohlovchi sabablar—bu o'qitish vositasining yangiligi, videoqatorlar mosligi, tovush va matn hamohangligida kuzatish imkoniyatining mavjudligi (ham ko'rish, ham eshitish) va h.k. bo'lib, bularning hammasi "didaktikaning oltin qoidasi"ga mos keladi. Multimedia texnologiyalari tasviriy materiallarni boyitish, unikal videolavhalar va animasiyalar bilan to'ldirish, murakkab jarayonlar dinamikasini ko'rsatish imkonini beradi. Kompyuter texnikasi yordamida ko'plab ko'rgazma vositalarini (jadvallar, videofilmlar, slaydlar) elektron ko'rinishga keltirish, uzoq va kompakt holatda saqlash imkoni mavjud.

Biologiya darslarida talabalarni "darsni quvvatlash" dasturini mustaqil tayyorlash, mavjud elektron qo'llanmalar ssenariysini o'zgartirish va to'ldirish, ularni pedagogik amaliyotdan o'tkazishda tegishli talablarga muvofiq qo'llash borasida bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashga yo'naltirib boriladi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda, chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni avtomatlashtirish (axborotlashtirish) yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

a) ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirishning etakchi bo'g'inligini ta'minlash;

b) barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish (monitoring), resurs markaz tizimi;

v) axborotlashtirish sohalarida meyoriy bazalarni yaratish (koordinatsiyalar, metodlar, ilmiy-metodik birlashmalar va x.k.);

g) texnik ta'minotni — kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari (fotoapparatdan mikroskopgacha), ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;

d) telekommunikatsiya (xavo orqali, urning sun'iy yo'ldoshlari va boshqa aloqa kanallari) tarmoqlari;

ye) ta'minot resurslari (dasturiy ta'minot, internetdagi axborotlar majmui, ma'lumotnomalar va x.k.).

Axborot texnologiyasidan foydalanish va uni biror-bir sohaga tatbiq etish o'z ichiga qator vazifalarni oladi. Juyida axborotlashgan faoliyat obyektlari haqida gap yuritamiz.

Bunday obyektlarga sonlar (o'lchash va modellashtirish natijalari), matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, rasmlar, chizmalar va animatsiyalar, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) kiradi.

Foydalanuvchining mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga axborot obyektlarini yaratish, kerakli axborot obyektlarini izlash, axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko'rinishda tasvirlash, axborot obyektlarini (matn, suhbat, rasm, o'yin va boshqa ko'rinishda) uzatish, modellashtirish, loyixalash, obyektlarni rejalashtirish va boshqalar kiradi.

Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi axborotlarni o'zlashtirishda kompyuter tizimining yordami benihoya kattadir. Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qati nazar, uni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:

Birinchi, o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart (an'anaviy) tizimga nisbatan o'quv jarayonini jadallashtirib, o'quvchida ilmga qiziqishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini o'stiradi, bilim berishga differensial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni engillashtiradi, o'quvchini o'quv jarayonining subyektiga aylantiradi.

Ikkinchi, yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish mumkin bo'ladi:

- muayyan predmetlarni o'qitishda kompyuter darslari;
- kompyuter darslari — ko'rgazmali material sifatida;
- o'quvchilarning guruhli va individual ishlarini tashkillashtirishda;
- o'quvchilarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;
- o'quvchini o'qishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini hal etishda

Ta'kidlash joizki, axborotlashtirishga, shuningdek axborot kommunikatsiya texnologiyalariga bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Biologiya darslarida talabalar biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish bo'yicha orttirilgan tajribalar, moddiy bazasi, didaktik xususiyatlari va ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi bilan tanishtirib borilmoqda. Shuningdek, biologiyadan elektron o'quv qo'llanmalar, Internet ta'lim resurslaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, elektron darsliklarni tahlil qilish va talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish maqsadida "Bilim olishning intellektual tizimini yaratish va joriy etish" amaliy tadqiqot doirasida muayyan ishlar amalga oshirildi¹. Shuningdek, talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash hamda "darsni dasturiy quvvatlash" maqsadida quyidagicha topshiriqlar taqdim etiladi:

¹ Sh..S.Sharipov, M.Aripov, U.Sh.Begimqulov va boshq. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti" Monografiya. "Fan nashriyoti" Toshkent 2011. 72-b.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalaniladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxatini to'ldirish.

Elektron darslik yoki o'quv-metodik qo'llanmalardagi (muayyan mavzular yoki yaxlit bo'lim bo'yicha) nazariy materiallar hajmi va ilmiyligini aniqlash.

a) matn hajmi, ilmiyligi, tushunarligi va suxandon nutqi ravonligi;

b) illyustrativ (tasviriy) materiallar (rasm, sxema, jadval, xarita, videolavha va animasiyalar) sifati, joylashtirilishi va ilmiyligi;

v) o'zlashtirish apparati (materiallarni mustahkamlash uchun test savollari banki, interfaol, muammoli vaziyatli, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari)ning ta'minlanishi;

g) qo'llanmalarda materialni bayon qilish mantiqi;

d) matn ma'lumotlarini videoqator va tovush bilan hamohang o'zaro muvofiq kelishi;

3. Qo'llanma muallifining metodik ko'rsatmalari bilan tanishtirish.

4. Dasturning texnik sifatini aniqlash:

a) qo'llanmani ishchi holatga keltirish tezligi;

b) qo'llanmada yo'naltiruvchi apparatning (kerakli ma'lumotni topishning qulayligi, o'quvchilarning noto'g'ri javobi yoki to'satdan bosib yuborilgan vaqtda avvalgi materialga qaytish imkoniyati va h.k.) sifati;

v) qo'llanmadan matnlarni, testlarni, illyustrasiyalarni qog'ozga chiqarish imkoniyati.

5. Qo'llanmaning didaktik qiymati haqida va ta'lim muassasalarida foydalanish imkoniyatlari to'g'risida xulosa yasash. Ta'limiy dasturlardan foydalanish bo'yicha shaxsiy metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish.

Biologiya darslari davomida talabalarda quyidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga alohida e'tibor berildi:

multimedia taqdimotlar yaratish (ekranda tayanch tushunchalar, sxemalar, illyustrasiyalarni yoritish, ovoz berish va h.k.);

ma'lumot va tasviriy materiallarni Internetdagi biologik saytlardan qidirish va ularning ilmiyligini baholash;

raqamli fotoapparatlar, mikroskoplar, nusxa ko'chiruvchi va skayner qiluvchi texnikalar bilan ishlay olish;

Elektron pochadan foydalanish (uyda bajariladigan topshiriqlarni bajarishda foydalanilgan adabiyotlarga murojaat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilar va ot-onalar uchun ma'lumotlar va h.k.)

Web saytlar yaratish.

Ma'lumki, izlanish ko'nikmalarisiz, talabalar tomonidan zaruriy ma'lumotlarni saralash va qo'llashda tarmoqli hamda multimediali texnologiyalardan foydalanishdagi psixologik qo'rquv va hadiklarni bartaraf etishga erishib bo'lmaydi.

Biologiya darslarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish oliy ta'lim tizimini axborotlashtirish talablariga muvofiq quyidagilarni ta'minlaydi:

o'qitishning shaxsga yo'naltirilganligi;

ma'lumotlar bazasini ilmiy va kasbiy talablarga muvofiq interfaol egallashga erishish;

talabalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

talabalarining mustaqil o'quv faoliyatiga, o'zaro bilimlarni o'rtoqlashish va hamkorlikka intilishlarini orttirish;

multimedia texnologiyasining zamonaviy imkoniyatlari yordamida talaba faoliyati motivatsiyasini o'rttirish;

talabalarni o'qitishning axborot muhitini yaratish.

Va nihoyat, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarini o'rttirish natijasida talabalar yakuniy yuqori mahorat talab qiladigan ishlarni (kurs va bitiruv malakaviy ishlari) mustaqil ravishda multimediali ko'rinishda tayyorlash hamda nafaqat biologiya sohasida balki, axborot texnologiyalari sohasida ham etarli ma'lumotga ega bo'lgan bilimdon mutaxassis sifatida etishishiga olib keladi.

Ilmiy-texnikaviy va axborot taraqqiyotining zamonaviy bosqichi zamonaviy jamiyat hayotining barcha qirralarida Internet texnologiyalarining faol tatbiq etilishi bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan ta'lim tizimi oldidagi vazifalar ham ahamiyatli darajada kengayadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni axborotlar majmuidan oqilona foydalanishga, zaruriy ma'lumot va ularning ishonchliligini baholashga, ulardan o'z bilim salohiyatini o'rttirish va mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yishga yo'naltirib borishi zarur.

Tajribalar umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilariga ham kompyuter savodxonligini o'rttirish, berilgan topshiriqlarni aniq va amaliy bajarish maqsadida mavzuga oid Internet ma'lumotlarini yig'ish, saralash, taqdimot holatiga keltirish kabi vazifalarni berish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi. Bu borada xususan, biologiya fanlaridan o'quvchilarni kompyuter texnikasidan foydalanishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Uzlüksiz ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'quvchilarni yangi axborot texnologiya vositalaridan o'quv-bilish jarayonida samarali va ijodiy foydalanish imkoniyatini yuzaga keltirish, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bilan uzviy holda, talabalarining bo'lg'usi kasbiy faoliyatida biologiya o'quv-laboratoriya xonalarining moddiy-texnikaviy bazasi, shu jumladan, kompyuter texnikasi jihozlari, Internet tizimi bilan mustaqil ishlay olishga tayyorlashdan iborat. Biroq, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining barchasida ham moddiy-texnik baza talab darajasida emas, ba'zilarida esa mavjud imkoniyatlardan foydalanish uchun pedagogik kadrlar salohiyati etarli emas.

O'tkazilgan pedagogik amaliyot davomida talabalar bilan biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha olib borilgan darslarimiz mobaynida muayyan mavzular bo'yicha taqdimotlar tayyorlash, Internet saytlaridan ma'lumotlar qidirish, taqdimotlarni tayyorlashda foydalanilgan manbalarga bog'liq saytlarni ko'rsatish, olingan ma'lumotlarni ilmiyligi va ishonchligiga baho berish, biologik xatoliklarni ko'rsatish zarurati bo'lganda texnik nosozliklarning mavjudligi, belgilangan maqsadga erishishni ta'minlashga to'sqinlik qilishi aniqlandi.

Tahsil oluvchilarning faoliyat ko'rinishlaridan yana biri ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, mustaqil ta'lim olish qobiliyatini, yangi bilimlarni egallash hamda axborot madaniyatini tarbiyalash orqali loyihalash metodi asosida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishdan iborat². Bu esa o'z navbatida bilimlarni amaliy tajribalar orqali amalga oshirish, ta'lim jarayonini amaliy-yo'naltirilganlik, tatbiqiylik asosida

yo'lga qo'yishni talab etadi. Mazkur jarayonda fan asoslarini o'rganish, texnika va san'at namunalari erishish ahamiyatga molik hisoblanadi. Loyihalash metodi ayni vaqtda ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Jamiyatda turli sohada kuchli bilim salohiyatiga ega, bilim olishga ishtiyoqmand, o'z bilim doirasini doimo kengaytirib, to'ldirib boradigan savodxon kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. М.: Изд-во МОО ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех», 2007. 616 с
2. G.S.Ergasheva, M.Fayzieva. Biologiyada axborot-kommunikatsion texnologiyalar. Elektron darslik. № DGU 03058. Toshkent 24.02.2015 y.
3. Sh..S.Sharipov, M.Aripov, U.Sh.Begimqulov va boshq. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti" Monografiya. "Fan nashriyoti" Toshkent 2011. 72-b.
- 4.Федоров А.В. Медиаобразование: творческие задания для студентов и школьников//Инновация в образовании. 2006. № 4. С.175-228
- 5.G.S.Ergasheva,M. Fayzieva. Biologiyada axborot-kommunikatsion texnologiyalar. Elektron darslik. № DGU 03058. Toshkent 24.02.2015 y.
- 6.Huppert J., Lomask, S. M., & Lazarowitz, R. (2002). Computer simulations in the high school: students' cognitive stages, science process skills and academic achievement in microbiology. International Journal of Science Education, 24 (8), 803-821

MUTAXASSIS KADRLARNING BOSHQARUVCHANLIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

Durdona Mustafоеva
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti dotsenti, PhD
d.mustafоеva@tiame.com

Dunyo ta'lim tizimida pedagog kadrlarning innovatsion va menejerlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan turli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Pedagog olimlar va amaliyotchilar tomonidan ilmiy asoslangan ilg'or ta'lim texnologiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ta'lim menejmentida innovatsion faoliyat, mutaxassis kadrlarni boshqaruv faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'limning ishlab chiqarish korxonalarini bilan integratsiyasini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda.

Boshqaruv pedagogikasi yoki tadqiqotchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan birga bu masalaga hayotiy tajribalar asosida ba'zi bir yondashuv va fikrlar bildirish

foydadan holi bo'lmaydi. Unda yosh rahbar qanday qilib pedagogik jamoa hurmatini qozonishi mumkinligi, shuningdek xodimlar bilan ishlashda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi to'g'risida quyidagi tavsiyalar beriladi:

pedagogik mahorat ta'lim jarayoni xususiyatlarini bilish, uni tashkil etish va harakatga keltira olish ko'nikmasi hisoblanadi;

texnologik mahorat konstruktiv va tashkilotchilik qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lib, aniq ish faoliyatini uddalash, ya'ni axborot olish, uni yetkazish, ishni tashkil etish va rejalashtirish jarayonini o'z ichiga oladi;

kommunikativ mahorat insonlarni to'g'ri tushunish, ular bilan hamkorlikda harakat qilish, muloqot qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalardan tashkil topadi;

tahliliy mahorat ta'lim jarayonini chuqur va puxta tushunish, tizimning eng oddiy va murakkab elementlarini bilish, yaxlitlikni qismlarga ajratish emas, aksincha, qismlarni yaxlitlash, o'z faoliyatini taftish va tahlil qila bilishdan iboratdir;

xizmat yuzasidan munosabatga kirishish mahorati rahbarlikning bir necha bosqichni o'zida mujassam etgani bilan ancha murakkabligini ko'rsatadi.

Biz oliy ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarning rahbarlik faoliyatini taqqoslaganimizda tashkilot miqyosida boshqaruv funksiyalari quyidagicha ifoda etiladi:

maqsadga yo'naltirilgan funksiya – tashkilotni ma'lum maqsad uchun faoliyatidagi vazifalarni o'z ichiga oladi;

tashkiliy funksiya – tashkilotning mavjud imkoniyatlaridan samarali darajada foydalana olish tushuniladi. Bunda rahbarning bajarishi zarur bo'lgan vazifalar ketma-ketligi ifodalanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tashkilot boshqaruvining asosiy funksiyalaridan quyidagi xususiy funksiyalarni keltiramiz: rejalashtirish, ya'ni maqsadga muvofiq natija qanday bo'lishi haqidagi tasavvurlar, ularga erishish bosqichlari va uslublar.

Bunda asosiy tamoyil - rahbar va xodimlarni muvofiqlashtirishdir;

nazorat qilish, ya'ni tashkilot faoliyati, uning resurslari, boshqaruvning ta'sirchanligi hamda asosiy nazorat - hisob-kitob jarayonidagi real faoliyat tushuniladi;

shaxsiy-pedagogik funksiyalar, tashkilot xodimlarining jamiyatda va o'z korxonalarida qabul qilingan me'yorlar va huquqlari doirasida faoliyat yuritishlarini nazorat etadi va ta'minlaydi;

ijtimoiy funksiya, bunda turli kasblar faoliyati va ularga haq to'lashdagi tafovutlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj xodimlarning mavjudligi;

rag'batlantiruvchi funksiya, ijro intizomini me'yorda bo'lishini ta'minlashdan iborat bo'lib, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishdan iborat.

Shu bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalari mutaxassis kadrlarining boshqaruvchanlik kompetentligi ularning jamoa hamda ta'lim subyektlari o'rtasidagi ijtimoiy boshqaruv samaradorligiga erishish quyidagi asosiy funksiyalarni mujassam etadi: motivatsion (motivational); innovatsion faoliyatga nisbatan ehtiyojlarni, qiziqishni shakllantirish; kompensator (compensator); innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun ta'lim menejerida zarur bo'lgan malakalarni tarkib toptirish; korreksiyalovchi (corrective); tegishli texnologiyalarni taqdim etish; prognostik (prognostic); mutaxassis kadrning innovatsion faoliyatni idrok qilishga tayyorgarligi; diagnostik (diagnostic); ijtimoiy-psixologik

xususiyatlarning muhimligi asosida mutaxassis kadrning boshqaruv faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlashni ko'zda tutadi; rag'batlantiruvchi (stimulant); tayyorgarlikning ijobiy natijalarini qo'llab-quvvatlash; axborotlashgan (informed); innovatsion faoliyatning samarali tajribasi haqida menejerga tezkor ma'lumot berish; konsultativ (consultative) – mutaxassis kadrga innovatsion faoliyatning konkret muammolarini yechishga ilmiy-metodik yordam berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mustafoyeva D.A. Yangi texnologiyalarni tayyorlash va rivojlantirish sohasidagi innovatsiyalar // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. № 4. – Toshkent. 2023. B.381-385.

2. Mustafoyeva D.A. Ta'lim jarayonida klasterlardan foydalanish // O'zbekistonda professional ta'lim ilmiy-amaliy jurnali. -№ 1. -Toshkent 2024. B.16-20. ISSN 2181-3841

3. Mustafoyeva D.A., Mamataliyeva M.I. Talabalarda kreativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining mohiyati // Mug'allim hem uzliksiz bilimlendiri" ilmiy-metodik jurnal. - №1 ISSN 2181-7138 - Nukus. -2023. V. 19-21.

4. Zuhra Ismailova, Durdon Mustafoeva Technology for the development of media competence of students // Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 // Issn: 2181-3337 // scientists.uz <https://doi.org/10.5281/zenodo.7612303>

5. Mirsolieva M.T., Ermatov A. Ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish/ Pirovard maqsad aholi farovonligi va yurt taraqqiyotidir. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Andijon, 2020. -64-66 b.

KREATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Berdiyoy Tuychiyev

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi direktori
(+998998782282, b.tuychiyev@mail.ru)

Dunyoda trendlar doim va tez-tez o'zgarib turadi. Bu trendlar ta'limga, o'qishga va ishga kirish jarayoniga va albatta siz va mening hayotimga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. XXI asrda o'ta yuqori darajada rivojlangan va juda ko'plab an'analarni o'zgartirib yuborayotgan trend bu – kreativlikdir.

Bugungi kunda asosiy e'tibor o'quvchi yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, ularning mustaqil fikrlaydigan, yuksak tafakkur egasi va ma'naviyatli insonlar bo'lib shakllanishlariga qaratilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz". Bugungi kunda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda. Bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalga bajarish esa o'qituvchining vazifasidir.

Kreativlik – bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa,

idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot) kabilar yaralishi uchun eng kerakli vosita bu kreativlik xisoblanadi.

Kreativlik tushunchasi lotincha, inglizcha “create”- yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor, ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod degan manosini anglatadi. Kreativlik insonda mavjud malumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Kreativlik- bu soʻzni sodda tilda tushintiradigan boʻlsak, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan manolarni anglatadi. Yani bu bir xillikdan qochish, nimagadir yangicha yondashish koʻnikmasidir. Kreativlik bu xar kim xar xil tushinadi lekin toʻgʻridan- toʻgʻri tushinadigan boʻlsak kreativlik bu ijodkorlik, yani kreativ soʻzi ijod degan manoni anglatadi. Uning tag zaminida esa orginallik, amaliylik, noodatirlik va erkinlik yotadi. Misol uchun biror bir narsani ijod orqali chiroyli, boshqalardan chiroyli qilib chiqarib berish desak boʻladi. Misol oladigan boʻlsak oddiy stulni tasavvur qilamiz. Stulning oddiysi bu toʻrta oyogʻi, bitta oʻrindigil va bitta suyanchigʻi boʻladi. Agar buni kreativlashtirsak balki uchta oyogʻi boʻlishi mumkin, balki oʻrindigʻi boshqacharoq boʻlishi mumkin, yoki dizayni umuman boshqacharoq boʻlishi mumkin.

Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida oʻzgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat oʻz ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hech kimning xayoliga kelmaydigan gʻoyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kreativlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz. Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhim roʻl oʻynaydi.

Dunyoga mashhur olim Albert Eynshteyn “tasavvur bilimdan muhim”, deganida aynan shuni nazarda tutgan. Koʻpincha noodatiry fikrlar, yechimlar, kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berishimiz zarur. Gʻildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Inovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratdi, ogʻirimizni yengil, uzogʻimizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas boʻlagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutahasislarga talab katta.

Xoʻsh, bu talablar nimalardan iborat? Zamonaviy talim standartlari pedagogdan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki oʻz ishiga ijodiy yondashishni xam talab qiladi. Bu uzluksiz va kechiktirib boʻlmas jarayondir. Oʻqituvchining qay darajada kreativ ekanligi, qanchalik xilma- xil metodlardan foydalana olishi, zamonaviy bilimlarni oʻzlashtira olishi va sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Pedagog oʻqituvchining kreativlik sifatlariga ega boʻlishi uning shaxsiy qobilyatlariga, oʻqituvchi kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga yoʻnaltiradi. Talim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega boʻlishlari ularda oʻquv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga ananaviy yondashishdan farqli oʻlaroq yangi gʻoyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, oʻziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkuri, muloqoti, xis-tuygulari, muayyan faoliyat turlarida namoyon boladi. Aytib oʻtilganidek, barcha shaxslarda boʻlgani kabi boʻlgʻusi pedagoglarda xam kreativlik sifatleri oʻz-oʻzidan rivojlanmaydi. Shunga koʻra kreativlik sifatlerini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yoʻllari mavjud:

1-yoʻl: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yoʻlni tutishda pedagog taʼlim oluvchilarga Power Point dasturi yoki multimediya yordamida taqdimotni yaratish

topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi. Ta'lim oluvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar ta'lim oluvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrash bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Ta'lim oluvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

2-yo'l: amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, ta'lim oluvchilarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi. Patti Drapeau o'z asarida bir qator ta'lim oluvchilarda interfaollik va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lgan yo'l va metodlarni keltirib o'tadi. Xususan: Veb-saytlar bilan ishlash; vizuallashtirish; barcha nuqtayi nazarlarni inobatga olish; muhim g'oyalarni turli vaziyatlarda va o'rinli qo'llash (g'oyani boshqa sharoitga ko'chirish – transformatsiya); ramziylashtirish kabi yo'llar; "Aqliy hujum"; "Keys-stadi" kabi metodlar.

Xulosa. Kreativlik ayni damda muvaffaqiyatga erishishingiz yo'lida asosiy vositalardan biri. Yana bir katta o'zgarish. XX asr o'rtalarigacha insonlar ishga kirish uchun asosiy hujjat sifatida o'z diplomlarini taqdim etishar edi. Diplomni esa haqiqiy o'qigan talaba olar edi. Ha, hozir ham ko'p ish beruvchilar diplom talab qiladi, ammo bu asosiysi va enh muhimi emas, muhimi sizda "creativity" hamda "critical thiking" kabi qobiliyatlar ham bo'lishi kerak. Hattoki juda ko'plab xorijiy hamda professional bilim talab qilmaydigan kompaniyalar, xodimlarni ishga yo'llash uchun "aptitude test" nomli tushuncha o'ylab topishdi. Bu xodimning kreativligi va qiyin vaziyatlardan qanday chiqishini tekshiradigan test ko'rinishiga keldi. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi jamiyat bir xillikdan zerikdi. Endi faqatgina kerativ o'ylagan insongina xammadan ajralib tura oladi. Chunki Kreativlik- bu cheklash mumkin bo'lgan tushuncha emas. Uni rivojlantirish xar birimizning qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusattorov, A. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 2(11), 28-30.

2. Kurbanova, B., Khurshid, M., & Tokhirjon, S. (2022, May). THE ROLE AND IMPORTANCE OF A SYSTEMATIC APPROACH TO TEACHING IN THE FINE ARTS. In Archive of Conferences (pp. 105-107)

3. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. - T.: Fan, 2004.

4. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

5. Utanov U.Q., Qosimova O.X. "Xalq ta'limi xodimlarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish" // "Pedagogik innovatsiyalar va yuqori samaradorlikka yetaklovchi ta'limiy g'oyalar" Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi to'plami. Termiz., 2020-yil

7. www.lex.uz 8. www.ziyonet.uz 9. www.edu.uz 10. www.pedagog.uz

ZAMONAVIY O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Zuxra Ismailova

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, pedagogikafanlari doktori
(+998909210061, z.ismailova@tiame.com)

Prezidentimiz tomonidan 2019 yilning 6 sentyabrida «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmon, ushbu muhim hujjat ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori qabul qilinib, professional ta'limni tashkil etish va amalga oshirish tartiblari belgilab berilgan edi [1].

Professional ta'lim tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish davr talabidir.

Avvalo, ta'kidlab o'tish kerakki, o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizdagi professional ta'lim dasturlari YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi sababli tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilayotgan edi. Shu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimiga asos solindi.

Islohotlar natijasida bugungi kunda viloyatimizda 27 ta yangi boshlang'ich professional ta'lim tizimida kadr-lar tayyorlaydigan kasb-hunar maktabi, 17 ta o'rta professional ta'lim tizimidagi kollej, 19 ta o'rta maxsus professional ta'lim tizimidagi texnikum tashkil etildi. Kasb-hunar maktablarida Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda ikki yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarning integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim amalga oshiriladi va bitiruvchilarga egallagan mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish hamda kelgusida oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish huquqini beruvchi diplom beriladi.

Nizomda professional ta'limga doir bir qator tushunchalarga izoh berilgan. Jumladan, faoliyatimizga professional ta'lim, kasbiy kompetensiya, professional standart, tabaqalashtirilgan ta'lim dasturi, o'qitishning dual tizimi kabi yangi tushunchalar kiritildi. Ular orasida ayrimlariga to'xtalib o'tish zarur [2].

Kasbiy kompetensiya – bu bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarni bajarishda faoliyat yuritish qobiliyati hisoblanadi. Professional standart esa xodimga ma'lum bir kasbiy faoliyat turini, shu jumladan, ma'lum bir mehnat funksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka talablaridir.

O'qitishning dual tizimi ham biz uchun yangi bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. U ta'limning nazariy qismi ta'lim muassasasida, amaliy qismi ish joylarida tashkil etiladigan o'qitish turi bo'lib, bu tizim Yevropa davlatlarida o'zining ijobiy natijasini berganligi hammamizga ma'lum. O'qitishning dual tizimida kasb-hunar o'rganuvchini bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham amaliy bilimlarni mukammal egallashi, ish beruvchining talabiga mos kadr bo'lib yetishishi uchun zamin yaratiladi.

Tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribani o'rgangan holda professional ta'lim jarayonlariga o'qitishning kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi. Kredit-modul tizimi – har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi. Ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish, mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, mahalliy va xalqaro ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish – professional ta'limning asosiy maqsadidir. Bu, mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish, ish o'rinlarining doimiyligini ta'minlash, mehnat bozorida tajribali kadrlarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Professional ta'lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlarini, mehnat bozorining tegishli soha mutaxassislariga bo'lgan talabini, manfaatdor vazirlik va idoralarning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji hamda oliy ta'lim tizimi bilan integra-siyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni hisobga olgan holda faoliyat yuritadi.

Professional ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida ta'lim, ilmiy va boshqa faoliyat sohalarida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish huquqiga egalar. Shuningdek, ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma bo'limlar (fakultetlar) belgilangan tartibda tashkil etilishi bilan bir qatorda, professional ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega. Belgilangan tartibda professional ta'lim muassasalari xodimlari xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy davlatlarga malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga jalb etilishi mumkin. Professional ta'lim muassasalari xorijiy davlatlarning fuqarolariga ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etish va rivojlantirish uchun belgilangan tartibda mazkur davlatlar fuqarolari o'rtasida kasbga yo'naltirish tadbirlarini tashkil etishi mumkin [5,7].

Xulosa va takliflar. Ta'lim tizimi transformatsiyasi jarayonida yangi professional ta'lim tiziming o'rni va ahamiyatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Professional ta'lim tizimini mehnat bozoridagi ulushi yuqori ekanligidan kelib chiqib oliy ma'lumot talab etilmaydigan ish o'rinlariga mazkur yangi tizimda kadrlar tayyorlashni bosqichma-bosqich oshirib borish.

2. Professional ta'lim tizimini xalqaro ta'lim tizimi ilg'or tajribalaridan kelib chiqib takomillashtirib borish choralari belgilash va amalga oshirishda davlat hamda ish beruvchilarning ishtirokini kengaytirish.

3. Xalqaro miqyosidagi o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish va mehnat resurslari eksportida O'zbekiston ulushini yanada kengaytirish uchun professional ta'lim va xalqaro mehnat bozoridagi ish beruvchilarning to'g'ri hamkorligini rivojlantirish [6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 2020 yil 24 yanvar.

4. Mejdunarodnaya standartnaya klassifikatsiya obrazovaniya (MSKO-2011) // <http://www.uis.unesco.org/Education/Documents/iscd-2011-ru.pdf>.

5. Zuhra Ismailova, Durdona Mustafoeva Technology for the development of media competence of students // Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 // Issn: 2181-3337 // scientists.uz <https://doi.org/10.5281/zenodo.7612303>

6. Zimnaya I.A. Key competencies - a new paradigm of educational outcome // Experiment and innovation at school. 2009. №2

7. Ismailova Z.K., Mustafaeva D.A. Fundamentals of the development of axiological competence among teachers. // "Science and innovation" International Scientific Journal No. 1, 2023, p. 58-62

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ПЕРЕДАЮЩИЕ И ПРИЕМНЫЕ УСТРОЙСТВА В ТЕЛЕРАДИОВЕЩАНИИ» В КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЕ

Махбубахон Султонова Одиловна, PhD, доцент.

Доцент кафедры МАТ ТАТУ имени Мухаммада аль-Хоразмий
maxbubasultonova1473@gmail.com

Известно, что в ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразмий уже несколько лет активно работает кредитная система образования. Следует отметить, что 5 октября 2020 года был принят указ Президента Республики Узбекистан PF-6079 «О подтверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации». В соответствии с ним цель заключается в улучшении качества образования, внедрении международных образовательных

стандартов на основе применения международных рекомендаций, обеспечении возможности обмена студентами, преподавателями и педагогическими кадрами ТАТУ с зарубежными университетами, создании конкурентной среды для развития новых педагогических технологий и рациональных форм учебного процесса, а также система позволяет учащимся формировать самостоятельное образование и обеспечивать прозрачность оценки знаний.

В настоящее время в ташкентском университете информационных технологий ведется подготовка бакалавров по направлению обучения 60611000 – Телекоммуникационные технологии (Телерадиовещание). Одной из специальных дисциплин в учебном плане по данному направлению обучения является «Передающие и приемные устройства в телерадиовещании». Цели освоения курса «Передающие и приемные устройства в телерадиовещании» заключаются в следующем:

обучение студентов теоретическим аспектам и проблемам усиления, передачи и приема сигналов в радиосистемах, а также формирование навыков их практического применения; освоение знаний, связанных с элементной базой усилительных устройств и изучением неисправностей в них; формирование у студентов представлений о передающих и приемных устройствах; развитие навыков студентов в области источников питания аналоговых устройств и схемотехники современных аналоговых устройств.

Успешное освоение этой дисциплины помогает студентам формировать навыки, учитывающие особенности передающих и приемных устройств. По окончании курса студент: ознакомится с принципами построения и областями применения передающих и приемных устройств, изучит технические характеристики и описания передающих и приемных устройств, а также линейные и нелинейные искажения в них, ознакомится со схемами подключения и их относительными описаниями передающих и приемных устройств, изучит особенности схемотехники различных типов передающих и приемных устройств, сможет применять теоретические и практические знания, полученные на занятиях, в исследовании передающих и приемных устройств.

В рамках курса «Передающие и приемные устройства в телерадиовещании» рассматриваются основные характеристики усилительных устройств, общие характеристики радиопередающих устройств, основные характеристики радиоприемных устройств, особенности и структура программно-определяемого радио (Software Defined Radio), устройства SDR для приема и передачи, адаптивные многорежимные радиочастотные цепи, цифровые радиопередатчики, модуляторы амплитуды и фазы/частоты, применение пассивных радиочастотных цепей в чипах, аналогово-цифровые и цифро-аналоговый преобразования SDR, а также основные сведения о приемниках OFDM для мультистандартной связи.

Лабораторные занятия охватывают следующие темы: исследование инвертирующего усилителя с обратной связью, исследование широкополосного усилителя, исследование супергетеродинного приемника, исследование амплитудного детектора, основные характеристики усилительных каскадов, оценка линейных искажений в усилительных каскадах, расчет инвертирующего усилительного каскада

на основе операционного усилителя, изучение основных технических характеристик радиоприемника.

Самостоятельная работа включает в себя следующие аспекты:

- Самостоятельное изучение теоретического материала. Используются тексты лекций и рекомендуемая литература. Это помогает освоить культуру мышления, умение обобщать и анализировать информацию, а также выбирать пути для достижения поставленных целей.

- Использование текстов лекций, методических указаний для практических работ и рекомендуемой литературы. Этот аспект самостоятельной работы помогает оформлять, представлять и докладывать результаты выполненной работы, соблюдать нормы и правила, а также выполнять требования национальных и международных стандартов в области профессиональной деятельности.

- Подготовка к текущему и промежуточному контролю знаний (экзаменам). Для этого используются тексты лекций, рекомендуемая литература, домашние задания и другие материалы. Это способствует умению оформлять, представлять и докладывать результаты выполненной работы, освоению культуры мышления, обобщению и анализу информации, а также выбору путей для достижения поставленных целей.

Список литературы

1. A.Abduazizov, D.Davronbekov. Radiouzatish va qabul qilish qurilmalari. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan Va Texnologiya”, 2011, 272 Bet.

2. D.A.Davronbekov, U.T.Aliyev. Teleradioeshittirishda uzatish va qabul qilish qurilmalari. Darslik. –T.: “Aloqachi”, 2019, 256 Bet.

3. D.A.Davronbekov, M.O.Sultonova. «Yangi avlod kuchaytirgichlarining texnika va texnologiyalari». O'quv qo'llanma – T.: TATU, 2019. - 161 Bet.

AUTOCAD GRAFIK DASTURIDA UCH O'LCHAMLI LOYIHALASH

Jo'rayeva Barchinoy Meyliyevna
Ergashev Temurmalik Abdiolim o'g'li
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
"Umumtexnik fanlar" kafedrasi assistenti

Ma'lumki muhandislik va qurilish arxitektura chizmachiligida yaqqol tasvirlarni bajarish, ayniqsa sirtlarni o'zaro kesishuvidan hosil bo'lgan chiziqlarni yasash ko'plab grafik amallarni bajarishni, ya'ni ko'p vaqt sarflashni talab qiladi.

Hozirgi zamon kompyuterlari va ularning dasturlar ta'minoti, grafik axborotlarni bemalol uch o'lchamda ham loyihalash imkoniyatini beradi. Buning uchun qator grafik dasturlar mavjud bo'lib, ular orasida AutoCAD dasturi muhandislik va qurilish arxitektura chizmachiligi uchun berilgan o'lchamlar asosida ikki va uch o'lchamli loyihalash ishlarini yuqori aniqlikda bajarish imkoniyatini beradi.

Kompyuterda uch o'lchamli loyixalash ishlari ikki o'lchamli loyihalashga nisbatan birmuncha murakkabroq bo'lishi bilan birga quyidagi afzalliklarga ega:

1. Ob`ekt sirtlarining o'zaro kesishuvini avtomatik bajarish;
2. Ob`ektlarni asosiy va qo'shimcha ko'rinishlarga o'tkazib, o'zaro vaziyatlarini o'zgartirish;
3. Ob`ektlarning yuzalarini tabiiy ranglarga bo'yash;
4. Bajarilgan uch o'lchamli renderlangan-bo'yalgan ob`ektlarni tahlil qilib ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan talablarda ishlab chiqish;
5. Yasalgan uch o'lchamli modelni-buyumni fazoni istalgan nuqtasidan ko'rish va kuzatish.

Uch o'lchamli loyihalashda foydalanish interfeysi ikki o'lchamli kabi bo'lib, unga qo'shimcha «Вид» - ko'rinish, «Визуальные стили» - visual ko'rinish uslublari, «Моделирование»-jismlarni loyihalash, «Редактирование тела»-tahrirlash kabi panellar kiritiladi.

Murakkab uch o'lchamli ob`ektalar oddiy «g`ishtlar»dan yasaladi. Bu oddiy «g`ishtlar» qattiq jismlari primitivlar deyiladi. Chizmachilikda ko'p uchraydigan qattiq jismlari primitivlarning asosiylariga kub, silindr, shar, konus, tor kabilar kiradi. Ularni yasash buyruqlarining tugmalari «Моделирование» panelida joylashgan bo'ladi.




1 2 **1...10** – 3D primitivlar hosil qilish.

11. «Выдавить» - (Ko'tarib yoki botirib) jismlar yasash

Ko'tarish yoki botirish buyrug'i ikki o'lchamli jismlar yasovchisiga balandlik berib, ularni ko'taradi yoki botiradi va uch o'lchamli jismlar yasash imkoniyatini beradi. Bu buyruq quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

1. Ikki o'lchamli primitiv (aylana, to'rtburchak, uchburchak, egri chiziq va h.k.) belgilanadi ajratiladi.
2. Jismning balandligi kiritiladi.
3. Torayish burchagi ko'rsatiladi (konus va piramidalar uchun).


Agar torayish burchagi bo'lmasa, «ENTER» tugmasi bosiladi va silindr yoki prizma sirti yasaladi.



12. «Вытягивание» - yasovchini yuqoriga yoki pastga tortib sirt yasash

Bu buyruq yuklangach yasovchisi masalan, to'g'ri to'rtburchak bo'lgan prizma quyidagicha yasaladi:


1. To'g'ri to'rtburchak sohasiga kursor keltirilib, uning istalgan nuqtasi qayd etiladi va bu yasovchi kursorga bog'lanib qoladi.
 2. Kursorni yuqoriga yoki pastga yo'naltirib prizma yasaladi.
- Chizmada kursor yuqoriga yo'naltirilgan.



13. «Сдвиг» - Yasovchini yo'naltiruvchi bo'ylab harakatlantirib sirt yasash

Bu buyruqdan foydalanib yasovchini yo'naltiruvchi bo'ylab harakatlanish-o'ziga parallel surish natijasida jismlar quyidagicha quriladi:


1. Sirtning yasovchisi tanlanadi, ya'ni uni ajratib «ENTER» bilan qayd etiladi.
2. Surish-harakatlanish yo'nalishi (yo'naltiruvchi) belgilanadi, natijada yasovchi belgilangan yo'naltiruvchi bo'ylab harakatlanib, sirt hosil qiladi.



14. «Вращать» - Aylanish jismlarini yasash

Bu buyruqdan foydalanib yasovchisi ixtiyoriy yoki maxsus chiziqlardan iborat bo'lgan aylanish jismlari quyidagicha bajariladi:

1. Yasovchi ajratib ko'rsatiladi va «ENTER» bilan qayd etiladi. (Yasovchi oddiy yoki murakkab tekis chiziq bo'lishi mumkin).
2. Aylanish o'qining birinchi nuqtasi belgilanadi.
3. Aylanish o'qining ikkinchi nuqtasi belgilanadi va u «ENTER» bilan qayd etiladi. Shunda aylanish jismi, halqa sirti chizmadagidek ekranda yasaladi.




15. «Лофт» - Bir necha kesimlar orqali sirt hosil qilish.

Bu buyruq orqali turli xil kesimlarni (kamida ikkita) belgilab sirt hosil qilish ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi.


1. Tasavvuriy kesimlar qurib olinadi.
2. Buyruq tanlanib hosil qilingan kesimlarni ketma ket belgilanib "Enter" tugmasi bosiladi.
3. Hosil bo'lgan buyruqlardan "только поперечные Сечения" buyrug'I tanlanadi yoki yana bir marta "enter" tugmasi bosiladi.

● только поперечные Сечения



16. «Объединение» - birlashtirish buyrug'i.


Bu buyruq ikki yoki undan ortiq bo'lgan obyektни yagona obyekt qilib birlashtiradi. Buning uchun buyruq tanlanib birlashishi kerak bo'lgan obyektlar ketma ket tanlanib "Enter" tugmasi yuklanadi.



17. «Вычитание» - Ajratish buyrug'i.


Ushbu buyruq bir-biri bilan kesishgan obyektlarni birini boshqasidan ajratib olish uchun ishlatiladi. Ajratib olish ketma ketligi quyidagicha bajariladi:

1. Buyruq tanlanib asosiy kerakli obyekt ko'rsatiladi va "Enter" tugmasi yuklanadi
2. Ajratib olib o'chirib tashlanishi kerak bo'lgan obyekt yoki obyektlar tanlanib "Enter" tugmasi yuklanadi.



18. «Пересечение» - kesishma buyrug'i.


Bu buyruqdan obyektlar uchun umumiy bo'lgan (kesishib turgan) qisminigina saqlab qolib, ortiqcha qismini o'chirib tashlash uchun hismat qiladi. Buning uchun buyruqni yuklab, obyektlarni ketma-ket tanlab, "Enter" tugmasini bosish kerak bo'ladi.



19. «3D-перенос» - 3D ko'chirish buyrug'i.

Bu buyruqdan 3D obyektlarni bir joydan boshqa joyga erkin yoki o'qlar bo'yicha ko'chirish maqsadida foydalaniladi. Ko'chirish ketma-ketligi:


1. Buyruq tanlanadi.
2. Ko'chirilishi kerak bo'lgan obyekt tanlanadi va "Enter" tugmasi bosiladi.
3. Ko'chirish uchun bazaviy nuqta tanlanadi.
4. Ko'chirilish kerak bo'lgan nuqta tanlanadi.



20. «3D-поворот» - 3D aylantirish.

Bu buyruq 3D obyektlarni erkin yoki o'qlar bo'yicha aylantirish imkonini beradi:


1. Buyruq tanlanadi.
2. Aylantirilishi kerak bo'lgan obyekt tanlanadi.
3. Aylantirishning bazaviy nuqtasi belgilanadi.
4. Aylantirish o'qi tanlanib sichqoncha yordamida yoki klaviatura orqali aniq burchak yozilib aylantiriladi.



21. «3D-выравнивание» - 3D tekislash.

Bu buyruq obyektlarni boshqa obyektlarga nisbatan 2D va 3D formatida tekislash uchun ishlatiladi:

1. Buyruq tanlanadi.
2. Tekislash kerak bo'lgan obyekt tanlanib "Enter" bilan tanlash yakunlanadi.
3. Tekislanishi kerak bo'lgan objektidan bazaviy nuqta tanlanadi va ketma-ket ikkinchi va uchinchi nuqtalar tanlanadi.
4. Ikkinchi asosiy obyektning tekislanishi lozim bo'lgan tomonida mos ravishda birinchi, ikkinchi va uchinchi nuqtalari tanlanadi.




22. «3D-массив»-3D massiv (ko'paytirish) buyrug'i.

Bu buyruq 3D obyektlarni sonini to'g'ri burchakli va aylanma ko'paytirish maqsadida foydalaniladi.

To'g'ri burchakli ko'paytirish algoritmi:


1. Buyruq yuklanadi va ko'paytirilishi kerak bo'lgan obyekt tanlanib, "Enter" tugmasi bosiladi.
2. Ekranda hosil bo'lgan yordamchi menyudan "Прямоугольный" bandi tanlanadi va ekranda hosil bo'layotgan massiv parametrlari ketma-ket kiritib boriladi.
3. "число рядов" – qatorlar soni ko'rsatiladi va "Enter" tugmasi bosiladi.
4. "число столбцов" – ustunlar soni kiritiladi va "Enter" tugmasi bosiladi.

5. “число этажей” – qavatlar soni kiritiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.
6. “расстояние между рядами” – qatorlar orasidagi masofa kiritiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.
7. “расстояние между столбцами” – ustunlar orasidagi masofa kiritiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.
8. “расстояние между этажами” – qavatlar orasidagi masofa kiritiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.



Aylanma ko'paytirish algoritmi:

1. Buyruq yuklanadi va ko'paytirilishi kerak bo'lgan obyekt tanlanib, “Enter” tugmasi bosiladi.
2. Ekranda hosil bo'lgan yordamchi menyudan “Круговой” bandi tanlanadi va ekranda hosil bo'layotgan massiv parametrlari ketma-ket kiritib boriladi.
3. “число элементов в массиве” – massivdagi elementlar soni ko'rsatiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.
4. “угол заполнения” – to'ldirish burchagi (musbat son bo'lsa soat strelkasiga qarshi, manfiy son bo'lsa soat strelkasi bo'yicha ko'payadi) ko'rsatiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.
5. “число элементов в массиве” – massivdagi elementlar soni ko'rsatiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.
6. “поворачивать элементы массива” – massiv elementlarini aylantirish buyrug'idan “да” yoki “нет” bandi tanlanadi. Bunda “ha” tanlanganda elementlar aylana burchagi bo'yicha buriladi. “yo'q” tanlanganda esa elementlar o'z holatini saqlagan holda aylanma ko'payadi.
7. “центральная точка массива:” – massivning markaziy nuqtasi koordinatalar yoki kursor orqali ko'rsatiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.
8. “вторая точка оси поворота” –burilish o'qining ikkinchi nuqtasi radius va burchak kattaliklari yoki kursor orqali ko'rsatiladi va “Enter” tugmasi bosiladi.



Ma'lumki, texnika mashina va mexanizmlarining tarkibini detallar tashkil etadi. Detaillar esa, biz yuqorida yasagan oddiy jismlardan iborat bo'ladi. Shunday ekan yuqorida keltirilgan jismlarni kompyuterda chizishni, ular ustida tahrirlash ishlarini o'zlashtirib, olingan tushincha, ko'nikma, malaka va tajribalar asosida bir nechta oddiy jismlardan tarkib topgan detallarning yaqqol tasvirlarini ham qiynalmay loyihalash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Rixsiboyev U. T., Kuchkarova D. F., Shokirova Ch. T., Rixsiboyeva X. M. "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi". Darslik. "Tafakkur qanoti". Toshkent. 2019. -383 b

Qulnazarov B.B. Ibragimov X.M. Chizmachilik va kompyuter grafikasi asoslari (o'quv qo'llanma). Samarqand, 2006 y. - 256 bet.

Ibragimov X.M. Kompyuter grafikasi asoslari (ma'ruzalar matni). Samarqand, 2008 y.- 105 bet.

NORMAL VA O'TA OG'IR MEHNAT SHAROITLARIDA KASBIY MOSLASHUV VA ILLATLARI.

Jumamurodova Umida

"TIQXMMI" MTU "Profesional ta'lim" kafedra assistenti

Mahmudova Xurshida, Norpolatov Olim, Xusdanov Eldorjon

"TIQXMMI" MTU "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (suv xo'jaligida)"

334- guruh talabalari

Normal mehnat sharoitlarida xodimlar odatda qulay va xavfsiz muhitda ishlaydi. Bu sharoitlar xodimlarning sog'lig'iga zarar yetkazmaydi va ularning ish unumdorligini ta'minlaydi. Kasbiy moslashuv jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ijtimoiy-psixologik moslashuv: Xodimning jamoa bilan o'zaro munosabatlari va ish joyidagi psixologik muhitga moslashuvi.
- Kasbiy moslashuv: Xodimning o'z kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi¹.
- Illatlar: Normal mehnat sharoitlarida illatlar kam uchraydi, ammo ba'zi hollarda stress va jismoniy charchoq yuzaga kelishi mumkin.

O'ta Og'ir Mehnat Sharoitlari

Kasbiy Moslashuv: O'ta og'ir mehnat sharoitlari xodimlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi va yuqori darajada jismoniy yoki psixologik zo'riqishni talab qiladi. Bu sharoitlarda kasbiy moslashuv jarayoni murakkabroq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ijtimoiy-psixologik moslashuv: Xodimning jamoa bilan o'zaro munosabatlari va ish joyidagi psixologik muhitga moslashuvi, ammo bu jarayon ko'proq vaqt va qo'shimcha qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.
- Kasbiy moslashuv: Xodimning o'z kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, bu esa ko'proq o'qitish va treninglarni talab qiladi².

Og'ir Mehnat Sharoitlarida Kasbiy Moslashuvning Xususiyatlari

1. Jismoniy Moslashuv

Jismoniy tayyorgarlik: Og'ir mehnat sharoitlarida ishlaydigan xodimlar yuqori darajada jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak. Bu tayyorgarlik mushak-skelet tizimini mustahkamlash va umumiy jismoniy chidamlilikni oshirishni o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash: Xodimlarning sog'lig'ini muntazam ravishda nazorat qilish va profilaktik tibbiy ko'riklardan o'tkazish zarur. Bu kasalliklarni erta aniqlash va oldini olishga yordam beradi.

2. Psixologik Moslashuv

Stressni boshqarish: Og'ir mehnat sharoitlarida ishlash yuqori darajada psixologik zo'riqishni talab qiladi. Xodimlar stressni boshqarish usullarini o'rganishlari va qo'llashlari kerak.

Psixologik qo'llab-quvvatlash: Xodimlar uchun psixologik yordam va maslahat xizmatlari tashkil etilishi lozim. Bu xizmatlar xodimlarning psixologik holatini yaxshilashga yordam beradi.

3. Ijtimoiy Moslashuv

Jamoa bilan munosabatlar: Xodimlar jamoa bilan samarali munosabatlar o'rnatishlari kerak. Bu jarayon ijtimoiy-psixologik moslashuvni o'z ichiga oladi va jamoa ichidagi muhitni yaxshilaydi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Xodimlar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari tashkil etilishi lozim. Bu tizimlar xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Og'ir mehnat sharoitida turli illatlar va kasalliklar kelib chiqadi. Bularga: Jismoniy Kasalliklar

Mushak-skelet tizimi kasalliklari:

Orqa va bo'yin og'riqlari: Uzoq vaqt davomida og'ir yuklarni ko'tarish yoki noto'g'ri holatda ishlash natijasida yuzaga keladi.

Artrit va boshqa bo'g'im kasalliklari: Doimiy jismoniy zo'riqish va takroriy harakatlar bo'g'imlarga zarar yetkazishi mumkin.

Yurak-qon tomir kasalliklari:

Yurak xuruji va qon bosimi: Yuqori darajadagi jismoniy zo'riqish va stress yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nafas olish tizimi kasalliklari:

Astma va bronxit: Chang, kimyoviy moddalar va boshqa zararli moddalar bilan ishlash natijasida yuzaga keladi.

Psixologik Kasalliklar

Stress:

Yuqori darajadagi stress: Og'ir mehnat sharoitlari va yuqori talablar xodimlarda doimiy stress holatini keltirib chiqarishi mumkin.

Depressiya:

Uzoq muddatli stress va qiyinchiliklar: Ishdagi qiyinchiliklar va noqulay sharoitlar depressiyaga olib kelishi mumkin.

Charchoq va uyqusizlik:

Jismoniy va psixologik zo'riqish: Doimiy charchoq va uyqusizlik xodimlarning umumiy sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy Kasalliklar

1. Ijtimoiy izolyatsiya:

Yomon munosabatlar va jamoa bilan integratsiya qilinmaslik: Ish joyidagi yomon munosabatlar va jamoa bilan integratsiya qilinmaslik ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin.

2. Motivatsiya yo'qligi:

Qoniqarsiz ish sharoitlari: Ishdagi qoniqarsiz sharoitlar va yetarli qo'llab-quvvatlashning yo'qligi motivatsiya yo'qligiga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Normal va o'ta og'ir mehnat sharoitlarida kasbiy moslashuv va illatlar xodimlarning sog'lig'i va samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Har ikki sharoitda ham kasbiy moslashuv jarayoni muhim bo'lib, u xodimlarning ish joyida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarurdir.

Normal Mehnat Sharoitlarida Kasbiy Moslashuv

Normal mehnat sharoitlarida kasbiy moslashuv nisbatan osonroq bo'lib, boshlang'ich o'qitish va treninglar, davomiy treninglar va malaka oshirish, mentorlik va qo'llab-quvvatlash, ish joyidagi tajriba kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi va ularning samaradorligini oshiradi.

Normal Mehnat Sharoitlarida Illatlar

Normal mehnat sharoitlarida xodimlar mushak-skelet tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari, stress, depressiya, ijtimoiy izolyatsiya va motivatsiya yo'qligi kabi illatlarga duch kelishlari mumkin. Ushbu illatlarni kamaytirish uchun ish beruvchilar xavfsizlik choralari va qo'llab-quvvatlash tizimlarini kuchaytirishlari zarur.

O'ta Og'ir Mehnat Sharoitlarida Kasbiy Moslashuv

O'ta og'ir mehnat sharoitlarida kasbiy moslashuv murakkabroq bo'lib, boshlang'ich o'qitish va treninglar, davomiy treninglar va malaka oshirish, mentorlik va qo'llab-quvvatlash, ish joyidagi tajriba kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun ko'proq vaqt va qo'shimcha qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

O'ta Og'ir Mehnat Sharoitlarida Illatlar

O'ta og'ir mehnat sharoitlarida ishlash natijasida xodimlarda mushak-skelet tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari, nafas olish tizimi kasalliklari, ter kasalliklari, stress, depressiya, charchoq va uyqusizlik, ijtimoiy izolyatsiya va motivatsiya yo'qligi kabi illatlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu illatlarni kamaytirish uchun ish beruvchilar xavfsizlik choralari va qo'llab-quvvatlash tizimlarini kuchaytirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amaliy psixologiya (N.Boymurodov)
2. Muloqot psixologiyasi (M.Maxsudova)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 йil 26 sentyabrdagi PK- 3289-son qarori Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / T.: TDPU, 2005.
4. Дилрабо Мукумова Инатовна. Севара Ярова Баходировна. Педагогические нормы в системе непрерывного профессионального образования. Intellectual education

MENEJMENT PSIXOLOGIYASIDA RAHBARLIK VA LIDERLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN MOHIYATI

Muqumova Dilrabo, Jumamurodova Umida

“TIQXMMI” MTU “Profesional ta'lim” kafedra o'qituvchisi

“TIQXMMI” MTU “Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (suv xo'jaligida)”

334- guruh talabalari B. Jo'raqulov, G. Tursinboyeva va M. Jo'rayeva

Mutaxassislarning fikricha, boshqaruv psixologiyasining boshqa turkum vazifalari boshqaruv usullarini shakllantirish bo'lib, ushbu tadbir tashkilotning samarali faoliyatini ta'minlash maqsadidagi ta'sir etish imkoniyatlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, boshqaruv sub'yekti va ob'yekti masalasi – boshqaruv psixologiyasi fanidagi asosiy tushunchalardan sifatida e'tirof etiladi. Soha mutaxassislari, boshqaruv jarayonini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishar ekanlar, boshqaruv sub'yekti sifatida rahbarni, ob'yekt tarzida esa, xodimni va mehnat jamoasini tasavvur etish mumkin, deb ta'kidlashadi. Yana ularning fikricha, rahbar o'z faoliyatini tashkil etishi va o'zini o'zi boshqarishi, uni nafaqat boshqaruv sub'yekti, balki ob'yekti sifatida ham tushunish zaruratini kun tartibiga qo'yadi. Shu bois, rahbarning kasbiy mukammallashuvi, o'zini o'zi boshqarish malakalarini egallashi, tashkilot va xodimlar boshqaruvidagi asosiy mavzulardan biriga aylanadi. Boshqaruvning sub'yekti o'rganilganda, odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi. Boshqaruv psixologiyasi – boshqaruv maqsadi va vazifalarni amalga oshirish davomida boshqaruv sub'yekti va ob'yekti o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatni talqin etadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolar orqali, ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqiladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xusu-siyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har-xil: kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga qiziqadi, kimdir unga berilajak huquqlarni afzal ko'radi, kimgadir yuksak ma'suliyatlarni bo'yniga olish ma'qul keladi. Shaxsning boshliq funktsiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliq real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi qator sifatlar talab qilinadi. Ayniqsa, boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy lider-larning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan "lider" va "boshliq" tushunchalarining psixologik mazmunlarini tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, boshqaruv psixologiyasining predmeti sifatida, boshqaruv jarayonidagi inson faoliyati qabul qilinadi. Bu esa o'z navbatida, boshqaruv ilmining nazariy tarixiy asoslari, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv usullari, guruhlardagi rahbarlik va liderlik masalalari, liderlik ulublari, superliderlik fenomeni, rahbarlik sifatleri, rahbarlikka loyqlikni baholovchi mezonlar, liderlikning vazifalari, boshqaruvchiga xos kompetentsiyalar tasnifi kabi masalalarni ham iqtisodiy, ijtimoiy-

psixologik jihatdan tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. Guruhlarda rahbarlik va liderlik Mutaxassis I. Mahmudov o'zining "Boshqaruv psixologiyasi" nomli kitobida "lider" so'zining izohiga oid quyidagi mulohazalarni keltirib o'tadi: "...Umuman olganda, adabiyotda "lider" so'zini "yetakchi" atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'ylashimizcha, "yetakchi" atamasi "lider"ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. "Yetakchi" so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri - shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'iladi.

Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora - "peshqadam" va "yetakchi" so'zlari majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin. Nazarimizda, "yetakchi" so'zi shaxsning guruhni yetaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtiyoqi mavjudligidan kelib chiqadi. "Peshqadam" iborasi esa ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu holat "lider" iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur. Liderning bu xususiyati, uning hissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi".

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada "lider" va "boshliq" tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim hisoblanadi. B. Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi:

(1) lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar - shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

(2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin; (3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

(4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo'nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

(5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va rag'batlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda xodimlariga o'z ta'sirini o'tkazish mumkin;

(6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar tashabbuslarni o'z ixtiyoricha bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa, bu yo'nalishda ko'plab ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, rahbar ular doirasidan chiqib ketishi, o'zboshimchalik qilishi qiyin;

(7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhning kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari davrasida qaraladi, shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider shu guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarini hammadan yaxshi biladi, ularning ichida eng tashabbuskoridir. Agar tashkilot doirasida qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilimli, aql o'rgatuvchi, topqir intellektual lider, xodimlar ichida hazilkash, dilgir, xushchaqchaq, ko'ngil so'rovchi, o'zgalarni tushuna oladigan – emotsional lider, guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qat'iyatli, irodali – irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda xodimlar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro'-e'tibor qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlar ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga erishganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Xodimlar ichida xulqi tashkilot qabul qilgan normalarga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider “ketdik” deb ko'rsatma bersa, unga ergashganlarning ishni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi. Shuning uchun ham, xoh quyi bo'g'in, xoh yuqori bo'g'in rahbari o'z qo'l ostidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norasmiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To'g'ri, ba'zi hollarida rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo'lishi mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog'liq bo'lgani uchun ham ularning o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak, rahbarning boshqarish mahorati yoki sa'ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir. Shunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emotsional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik, ya'ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro'-e'tibor samaralidir. Xodimlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o'xshash kabi omillar obro' orttirish me'zonlaridir.

Boshqaruv psixologiyasi bo'yicha taniqli psixolog olim L. Stautning fikricha, liderlikni abstrakt formula jihatida emas, balki real shaxslarning hayot tarzi sifatida qarash kerak. Liderliklikni o'zaro mustaqillik modeli har qanday shaxsning maqsadi, shaxsiy sifatleri, qadriyatlarini va shu bilan bir qatorda, uning ijobiy o'sishi ta'sir qilgan liderlik qobiliyati imkoniyatlarini tahlil qilishi haqida bosh qotiradi. Xuddi mana shu liderlikning kapitali deb hisoblanadi³.

Hamisha ham aynan aqlli, mard yoki tashabbuskor odam lider bo'lavermaydi. Shuningdek, liderlik kapitali – bu faqatgina tug'ma instinktlar emas. O'z nomlanishi bilan “liderlik kapitali” ma'lum ko'rinishdagi o'lchov mezoni-ki, uni u yoki bu darajada ko'paytirish ham mumkin. Liderlik – o'zaro mustaqil jarayondir. U o'zaro harakatdagi uch asosiy tuzilishni: liderlikning falsafiy dunyoqarashini, liderlik psixologiyasi va ijtimoiy yo'nalganlikni namoyon qiladiki, natijada bu uchchala holat liderga atrofdagilarni o'z orqasidan ergashtira olishlik imkoniyatini beradi. Birinchi ikkilikni tashkil qiluvchi, liderlik dunyoqarashi va liderlik psixologiyasi odatda liderlik kapitalini shakllantiradi. Uchinchisi, liderlik sifatlerini amaliyotda qo'llash imkonini beruvchi psixologik holat hisoblanib, o'z navbatida, u liderlik sharoitleri deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayitov, O.E. Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma / O.E. Hayitov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: TIQXMMI, 2019. – B. 33–43.
2. Gilbreth, Lillian Moller. The Psychology of Management: The Function of 31 Статут Л. Лидерство: от загадок к практике. – М.: ООО 'Добрая книга', 2002. – С. 74. 51 the Mind in Determining, Teaching and Installing Methods of Least Waste. – USA: CreateSpace Independent, 2013.
3. Каримова В.М., Хайитов О.Э., Джалалова С.М. Бошқарув психологияси. Ўқув қўлланма. Олий ўқув юртлари талабалари магистратура босқичи талабалари учун. / Проф. В.М. Каримованинг умумий таҳрири остида. – Т.: "Fan va texnologiya", нашриёти, 2008. – 208
4. Каримова В.М., Хайитов О.Э., Умарова Н.Ш. Бошқарув соҳасидаги профессионал компетенция асослари: Монография. / Проф. В.М. Каримова таҳрири остида. – Т.: "Fan va texnologiya", 2008. – 120 б.
5. Психология менеджмента / Под ред. проф. Г.С. Никифорова. – 3-е изд. – Харьков: Изд-во Гуманитарный Центр, 2007. – 512 с.

SUN'IY INTELLEKT, ROBOTATEXNIKA VA AVTOMATIKA FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li

(Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti)

E-mail: esonovhusniddin97@gmail.com

Texnologiyalarning hozirgi rivojlanish bosqichida sun'iy intellekt texnologiyalarni ishlatilishi, loyihalashtirilgan va sanoatda qo'llanilayotgan qurilmalarning eng yuqorigi chegaradagi samaradorlik koeffitsientlariga erishishga harakatlantiriladi. Bu borada zamonaviy dunyo olimlari juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borishmoqda va bu borada katta natijalarga ham erishmoqda. Bunga misol tariqasida amerika qo'shma shtatlarining SpaceX Korparatsiyasi mutaxasislari ham oyga, marsga va butun koinotga uchirilayotgan raketalarining ham avtomatlashtirilishi va boshqarilishida sun'iy intellekt texnologiyalardan foydalanmoqda va bu ularga juda katta muvaffaqiyatlar keltirayotganiga yer yuzidan hech bir shaxs shubhalanayotgani yo'q. Shubha va gumonlarga esa fantastik natijalar o'rin ham qoldirmayapti.

Mamalakimizda esa hamon turli xil ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarni kamaytirish bilan bir vaqtda ishlab chiqirilayotgan mahsulotning sifatini oshirish uchun esa har doimgidek zamonaviy avtomatlashtirish va boshqarish vositlaridan yoki texnologiyalaridan, bu sohada katta tajribaga ega haqiqiy mutahasislardan emas balki shu sohaga juda uzoqroq bo'lgan soha vakillarining fikr mulohazalari va tashabbuslari orqali asosiy maqsad va jarayondan chetlashish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa davlatimizning dunyoning rivojlarga G20 talik davlatlari yoki yalpi ishlab chiqarish hajmi jon boshiga yuqori koeffitsientlarga ega davlatlar qatoridan joy olishiga juda katta to'siqdir. Sun'iy intellekt texnologiyalarning sanoat ob'yektlari va ishlab chiqarish zavodlarida qo'llanilishi nafaqat optimal boshqarishni oshirish talabida erishishda balki sanoat ob'yektlari va ishlab chiqarish zavodlarida ro'y berishi

mumkin bo'lgan avariya holatlarini oldindan bashoratlab, avariya holatlarini oldini olishga va ishlab chiqarishning uzluksiz doimiy davom etishida juda katta o'ringa ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Sun'iy intellekt yoki intellekt atamasi o'zi aslida nima yoki qanaqa?



Sun'iy intellektni to'liq tushunib va anglab olishimiz uchun biz eng avvalo intellekt nima va uni qanday ta'riflab tushinib olishimiz mumkinligiga ahamiyat berishimiz lozim. Har qanday voqea yoki hodisaga inson tomonidan beriladigan javob uning shaxsiy intellekt darajasiga ko'ra farqlanadi. Misol uchun bir yoshli chaqaloq qaynoq suv yoki yonib turgan shamni ko'rishi bilan uni ushlab ko'rishga harakat qiladi. Demak unga bu narsalarga nisbatan xavf-xatar hissi shakllanmagan va bu obektlarni ushlagandan so'ng bo'ladigan natija haqida tasavvurga ega emas. Yani unda shaxsiy intellekt hali yaxshi shakllanmaga. Endi yetti yoshli bolakayga qaynoq suv yoki yonib turgan shamni ushlashni buyursangiz ham u bu vazifani bajarmaslikni maqul ko'radi. Chunki u bu ishni bir necha marotaba bajargan va natija yaxshi holatda bo'lmasligini biladi. Lekin u oshxonada gaz hidi bor bo'lsa yoki u bo'lib turgan joyda atrofga gaz tarqalayotgan bo'lsa yetti yoshli bolakay ham gururt yoqsa yoki o'sha yerdagi elektr energiyasi yordamida ishlovchi qurilmalarni o'chirish/yoqish natijasida portlash yoki yong'in sodir bo'lishini bilmaydi. Chunki u bu holatlarga umuman duch kelmagan. Agar bu holatlarga duch kelganda shunga qarab xulosa qilgan bo'lar edi. Endi yana bir holat neft-gazni qayta ishlash zavodlarining ishchi mutaxasislari ham texnika-xavfsizlik qoidalari bilan qayta-qayta tanishtirilsalar, o'qitilsalar ham ularda ham bu holatga qanday javob berish jarayonlari hali xanuz eng optimal holatga yetib kelgani yuq. Chunki ayrim mutaxasislar mana shunday holatlarda noto'g'ri qaror qabul qilib o'zlaridan tashkari hamkasblarining ham taqdirlariga xavf tug'diruvchi ishlarni bajarib qo'ymoqdalar.



1-rasm. TDMAU, Mexatron robotning vazifalarni bajarinish jarayoni.

Demak intellekt bu biror bir holatni yoki vazifani takroran ko'plab marotaba bajarish natijasida hosil bo'ladigan malaka yoki tajribaning inson ongidagi shakli yoki ko'rinishidir.

Sun'iy intellekt esa inson ongidagi tabiiy intellektni biror bir tizim yoki mexatron robotlarga ko'chirilishidir. Biz ham hozirgi kunda zamon bilan hamnafas rivojlanish istagida Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida sun'iy intellekt texnologiyalari ustida bir qancha izlanishlar olib bormoqdamiz.

Biz insonga yaqin va u bajarishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajara oladigan mexatron robotni 3d printer yordamida yasab uni xarakatlantirib unga vazifalarni bajarishi va xavf-xatar mavjud bo'ladigan jarayonlarda o'zini boshqarishi uchun standart kodlash dasturlarida uning xotirasiga nomantiquiy elementlar va nomantiquiy kattaliklar yordamida intellekt yuklamoqdamiz. Bu vazifalarni robot osonlik va qulaylik bilan uddalamoqda. Biz mexatron robotimizni mukammal holatga keltirib uni har qanday holatda optimal qaror qabul qila olishiga 100% ishonch hosil qilganimizdan so'ng bu tizimni sano'at korxonalarida va ishlab chiqarish korxonalarida ham qo'llash tamoyillarini ishlab chiqmoqdamiz. Agar bu tizim mukammal holatda optimallashtirilsa zavod va korxonalaridagi bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarli ko'pgina holatlar bartaraf bo'lgan bular va insonlar hayoti ancha yaxshilanar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.R.Yusupbyekov, R.A.Aliyev, A.N.Yusupbyekov, R.R.Aliyev Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish. Texnika o'quv yurtlari uchun darslik. «O'zbekiston milliy yensiklopidiyasi» davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2015y. 572b.
2. A.Abdukadirov, I.T.Karabayev, H.M.Esonov. Raqamli boshqarish tizimlari. O'quv qo'llanma. Termiz publishing center. Termiz-2024.160b.
3. H.M.Esonov Boshqarishning intellektual tizimlari ijro mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. Termiz publishing center. Termiz-2024.160b.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Urazmetov Odilbek Ollambergan o'g'li
Talaba, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Urganch filiali
E-mail: urzazmetovo2001@gmail.com

Asosiy qism

Hozirgi vaqtda kasbi-pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun multimedia texnologiyalarni, ya'ni maxsus multimedia vositalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega[1,2]. Bu vositalar o'quvchilarni individual ishlashga va ularni nazorat qilishga imkon yaratadi. Jamoa bo'lib ishlashda o'quvchilar bir-biriga faol ta'sir ko'rsatishadi, individual ishlashda esa multimedia o'rgatuvchi dasturlarning muhim xususiyati bo'lgan, teskari aloqadan foydalanish imkoniyatini yaratadi. O'zbekistonda milliy ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qo'llash tajribasi shakllanib bormoqda. Negaki bu ayni vaqtda zamon talabidir.

Taraqqiy etib borayotgan informatsion vositalar jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishining asosini belgilovchi an'anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligini ishga ijodiy yondashishi, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi. Katta hajmdagi ma'lumotni saqlash, uzatish, qabul qilish bilan bog'liq axborot yaratish jarayoni inson

faoliyatini turli sohalarida komyuter texnologiyalarini rivojlantirishlarini ko'zda tutadi. Inson tafakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, bunda texnikalashtirish va komyuterlashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli sohaları, balki madaniyat va ta'lim sohalariga ham dadil kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tardi. Bu o'z o'rnida ta'lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqish uchun yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug'dirdi. Bugungi kunda jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislarining professionallik darajasi ularning kompyuter texnologiyalarini egallaganligi bilan ham belgilanadi. Bu hol zamon talabiga aylanib qoldi. Mazkur talabga javob berish uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonida, ya'ni ta'lim muassasalarida yetarli baza yaratilishi kerak. Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda.

Yangi pedagogik texnologiyalar deganda, an'anaviy va noan'anaviy metodlar bilan bir qatorda ta'limni kompyuterlashtirish ham tushuniladi. Shu ma'noda tobora shakllanib borayotgan kompyuter-axborot madaniyati axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini hosil qiladi. Bunda inson informatsion koinot bilan o'zaro muloqotga kirishadi. Telekommunikatsiya (telefon, televideniya, radio) tarmoqlarining kompyuter tarmoqlari bilan birikishi yagona jahon axborot makonini multimediani tashkil etadi. Ushbu makonning eng muhim qismi internet tarmog'i ayniqsa uning gipermedia xizmatlari (World Wide Web), gipermediapochta, videokonferensiyalardir. Multimedia ("ko'p muhitlik" degan ma'noni bildiradi) - zamonaviy axborotlar texnologiyasi bo'lib kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari matn, jadval, grafika, nutq, animatsiya, multiplikatsiya, video tasvir, musiqa yordamida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia "Inson - kompyuter" interaktiv (dialogik) muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, unda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalaridan hordiq chiqarish, ta'lim olish va reklama kabi sohalarida foydalaniladi. Multimedia vositalari asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan ma'lumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida ishtirok etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tatbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylilik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faollashtiradi.

Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rttdan bir qismini, ko'rgan materialining esa uchdan bir qismini eslab qoladi, ham ko'rib, ham eshitsa axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalarida foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75% ni tashkil etadi[3]. Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonini tashkil etish metodikasi an'anaviy o'qitish usulidan tubdan farqlanib, u boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari uchun:

- O'quv materialini obrazlar ko'rinishida taqdim etish;
- O'qitishning differensial va individual holatda bo'lishi;
- O'qish va o'zlashtirish jarayonini baholab borish, teskari aloqa bog'lash;
- O'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilib borish va tuzatish;
- O'rganilayotgan mavzularni namoyish etish va ularning o'zaro aloqadorligini kuzatish;
- Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan va o'zlashtiriladigan fan mavzularini animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun ko'nikmlar hosil qilish;
- O'quvchilarni mustaqil ishlari va mavzularni o'zlashtirish uchun yangi sharoit yaratish kabilar.

Bu boradagi olib boriladigan ishlar ta'lim-tarbiya tizimidagi zamonaviy axborot texnologiyalarining multimedia imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish va joriy qilish bilan bog'liqligi, ulardan maqsadli foydalanish ta'lim-tarbiya jarayoning samaradorligini oshirishga olib keladi. Bu jarayonda multimedia vositasi boshlang'ich sinfda o'rganiladigan har bir fanga tatbiq etish orqali bu fanlarning o'zlashtirish qamrovini oshiradi. Multimedia dasturlari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi. Pedagogika fani tajribalari va amaliyotining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeliga diqqati ko'p jihatdan ilmiy qarashlari markazida insonga urg'u beriluvchi falsafiy qarashlar taraqqiyoti bilan bog'langan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shunday ta'limki, u[4,5]:

- ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan va unga ta'lim jarayonining eng asosiy qadriyati sifatida e'tibor qaratilgan;
- ta'lim oluvchining shaxsiy sifatlarini namoyon qilishga va shakllantirishga, tafakkurini rivojlantirishga, uning ijodkor, faol va tashabbuskor shaxs sifatida yetilishiga, o'rganishga bo'lgan va ma'naviy ehtiyojlarini qoniqtirishga, ularning zehni, kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamol toptirish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratishga ko'maklashadi;
- yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanlik, yangi ixtisos olishga va bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga qobiliyatli mutaxassislariga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi[6]:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;

- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi sub'yekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'p tarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi. Multimedia vositalarning amalda qo'llanilishining asosiy maqsadi o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdir. O'quvchilarni zamonaviy texnik vositalarni ishlatishga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga elektron ta'lim resurslarini ta'lim jarayonida maqsadli qo'llanilgandagina natijaviy ta'limga erishish mumkin. Multimediani o'quv jarayonida qo'llanilishi matn, ovoz, grafika, video va animatsiyani qo'llanilishi nuqtayi nazaridan qaraladi. Didaktikada esa bu o'qitish vositasi deyiladi. O'qitish vositasi professor-o'qituvchiga o'quvchilarning biluv-amaliy faoliyatini boshqarishga yordam beradigan maxsus yaratilgan qo'llanmalar va turli xil xarakterdagi materiallardir[7-9]. Multimedia vositalarning keng doirasi, ya'ni matn va rasmdan tortib to audio va video ma'lumotlargacha axborotlarni ijodiy qayta ishlash usullarini tashkil etadi va mualliflik multimedia elektron ta'lim resurslari yordamida ularni uyg'un tarzda birlashtirish imkoni mavjud bo'ladi.

Xulosa

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida multimediali elektron qo'llanmalarining o'quv jarayonida o'quv materiallaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan o'quv vositasi sifatida alohida o'rni bor. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida multimediali elektron qo'llanmalardan an'anaviy darslikka qaraganda o'quv materiallarini namoyish qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu elektron qo'llanma o'quvchilarning ko'proq mustaqil ishlashlari uchun mo'ljallangan didaktik funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o'quv jarayoniga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi. Shunday qilib, multimediali elektron qo'llanmalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ularning pedagogik tomonlaridan tashqari,

psixologik va gigiyenik tomonlarini ham e'tiborga olish, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini va ularning bu jarayonda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya - T.: Fan, 2009. 145 b.
2. Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – Toshkent: fan va texnoloiyalar, 2012. – 44 b.
4. Ананченко К.О. Методическая система развивающего обучения учащихся алгебре и началам анализа в условиях углубленного изучения предмета / К.О.Ананченко // Автореф. дисс. ... доктора пед. наук: 13.00.02 - Витебск, 2004.
5. Ананьев Б.Г. Психология и проблемы человекознания. // Под ред.
6. А.А.Бодалева. –М.: Институт практической психологии; - Воронеж: НПО МОДЭК, 1996. - 214 с.
7. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания / Б.Г.Ананьев. М.: Наука, 2000, 350 с.
8. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368 b.
9. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Informatsion texnologiyalar. Darslik, T, 2006, 275 b.

USING VIRTUAL LABORATORIES IN EDUCATION WITH THE HELP OF A MOBILE APPLICATION

Ishkobilov F.Kh. p.f.f.d.,
Information technology and management university, docent
farruxishqobilov@gmail.com

A radical improvement in the quality of education, equipping educational institutions with modern laboratories and educational equipment, and developing the knowledge, skills and qualifications of students and teachers remains an important and pressing issue today.

This article is devoted to the use of virtual laboratories created on the basis of computer simulation models for zoology students and improving the quality of education in the educational process using a mobile application. The mobile application helps to improve the quality of education at its place.

“Virtual laboratory” - a set of computer software tools capable of replacing the actual execution of laboratory work considered in laboratory classes available in the educational process. At the same time, it is certainly necessary to think about whether the volume of students' knowledge will suffer in the process of assimilation of the educational material by the student or students.

From today, the level of development of information technologies provides students with the convenience and ease of transferring various types of educational and methodological documents into files, that is, in electronic form:

- - methodological or educational aids;
- laboratory equipment and quality processes of various stages of laboratory work;
- simulation models reflecting the process of laboratory work;
- databases of confirmed results of laboratory data and measurements;
- computer programs that ensure the rapid execution of samples of the design of reporting documents;
- - various forms of self-testing on the computer.

Files developed in electronic format are presented in a form convenient for viewing not only on personal computers or laptops, but can also be used on modern devices and high-definition digital TVs or, conversely, on mobile phones and smartphones.

All this makes it possible to optimize the independent work of schoolchildren or students, to conduct it on a large scale at home, to use the time spent on public transport and thereby improve the quality of education.

In order to further improve the use of simulation models in the educational system, we use a mobile application created on the basis of the Android operating system. That is, the role of a mobile application in teaching 7th-grade students biology (zoology) with the help of a mobile application is incomparable. Keeling introduces you to the mobile application.

1. This picture shows the general appearance of the mobile application, with the help of which you will get acquainted with the pages of biology of the 7th grade on several topics.



Figure 1.

2. Figure 2 shows the internal structure of the android mobile application for using virtual laboratories created on the basis of computer simulation models in teaching biology (zoology) to grade 7, i.e. it contains theoretical information, topics and virtual laboratories, as well as full information about the author.



Figure 2.

The above-considered version of the mobile application “virtual laboratory” is developed for schoolchildren in electronic form, i.e. including graphics, video, audio and animation. This approach allows you to significantly save material and time resources when replicating and distributing educational and methodological literature of general education

institutions. With the help of these simulation models, you can get detailed information on practical and laboratory topics of teaching biology.

Summary. The modern trend in the educational process exists within each subject, for example, in biology lessons, taking into account the complexity of homework lessons and independent work of students, we create simulation models of biological processes and improve the quality of training using simulation modeling. Models in order to increase, we have developed virtual laboratories in an improved form, and this serves as the basis for the training system. Therefore, virtual laboratories in the field of biology are descriptive and introductory in nature and are designed to visualize various biological processes. Therefore, some of the practical and laboratory work can only be descriptive and introductory in nature and consists of viewing graphic audio-video and animation data on the topic being studied. Such practical and laboratory work is also based on individual processing of information materials by students.

Literature:

1. Ф.Х.Ишқобилов “Компьютер имитацион моделлар асосида ўқувчиларнинг зоология фани бўйича билимларини ошириш методикаси” <https://cyberleninka.ru/article/n/kompyuter-imitatsion-modellari-asosida-uvchilarning-zoologiya-fani-b-yicha-bilimlarini-oshirish-metodikasi>
2. Ишқобилов Ф.Х. “Компьютер имитацион моделлар асосида зоология фанига доир споралилар типининг грэгарин ва коксидиялар туркумини виртуал лабораторияларини яратиш” №1 (2021) <http://kimweb.uz>.
3. Ишқобилов Ф.Х. компьютер имитацион моделлар асосида яратилган виртуал лаборатория умумтаълим мактабларида ўқитиш воситаси сифатида //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 215-221.
4. Ishkobilov F.X., Eshqobilov S.X. umumta'lim maktab o'quvchilari uchun vizual dasturlashni o'qitish metodologiyasining asosiy omillari //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 223-226.
5. Лутфиллаев М.Х., Абдуллаев Э.А., Эшқобилов Ф. Разработка виртуальных лабораторий по теме «изучение строения и развития губок на примере пресноводной бадяги». Тип spongia, класс demospongia, отряд spongillidae, представитель spongilla.
6. Ishkobilov F.KH “Technology of creating a virtual laboratory of the structure and movements of euglenoids from biology on the base of computer simulation models” Eurasian Scientific Herald. Page. 12-16. Volume 17. February, 2023. ISSN: 2795-7365.


CHIZMA CHIZIQLARI, FORMATLAR VA CHIZMALARNI TAXT QILISH

- Raximov Jo'ra Suyunovich- “TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti Umumtexnik fanlar kafedrasi dotsenti, juraraximov_1964@mail.ru
B. Suyunova- Termez Davlat Pedagogika Instituti 1- kurs magstranti,
F. Suyunova- Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti 2-kurs magstranti
Z. Suyunova - Jizzax Davlat Pedagogika Instituti 3-kurs magstri

Hozirgi kunga kelib texnika oliyogholarida “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanini o‘qitishda asosiy mavzulardan biri bu chizma chiziqlari, formatlar va chizmalarni taxt qilish mavzusidir. Ushbu ilmiy maqolada mavzu to‘liq yoritib berilgan.

Chizma chiziqlari. Chizmani bir xil yogonlikdagi chiziqlar bilan chizilsa, uni oqish juda murakkab boladi. Chizmaning togri oqilishi, sifatli chiqishi chizma chiziqlarini oz ornida ishlatishga bogliqdir.

O‘zDSt 2. 303 – 97 da tasdiqlangan toqqiz xil chiziq ishlatiladi. Lekin bu chiziq torlari oz - ozidan hosil bolmasdan, ma’lum tarixiy davrni bosib otgan. XVIII asrda chizmaning asosiy chiziqlari sifatida kontur va shtrix - punktir chiziqlardan foydalanilgan. Shtrix - punktir chiziq chizmada korinmaydigan konturlarni, uzilish joylarni, keyinchalik chizmaga olcham qoyish paydo bolganidan song chiqarish va olcham chiziqlarini tasvirlash uchun ishlatilgan. 1-shakl




1-shakl


Asosiy tutash chiziqning yogonligi (s) tasvirning kattaligi va murakkabligi hamda chizma formatiga qarab tanlanadi ($s=0,6... 1,5$ mm). Bir xil masshtabda chizilgan chizmalar uchun shu chizmadagi hamma tasvirlarning yogonligi bir xil bolishi kerak. s ning yo'gonligiga qarab boshqa chiziqlarning yogonligi tanlanadi. s ning yogonligi 0,9 mm dan kam bolmasa hamda chizma tushda bajarilsa s yogonlikdagi chiziqlarni ishlatishga ruxsat etiladi. Eng ingichka chiziq va chiziqlar orasidagi eng kichik masofa chizmaning formatiga binoan tanlanishi kerak. Muhandislik grafikasi fanlarda chizmalarni bajarish uchun asosiy tutash chiziqlarning yogonligini $s=0,8...1$ mm qilib tanlash maqsadga muvofiq. Chizmalarda chiziqlarning ishlatilishi 2-shaklda korsatilgan.

Chizma formatlari

Standartlar. Ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlarning sifatini yaxshilash ularni ma'lum olchamga va sifatga ega bolishini ta'minlash maqsadida xalqaro davlat standartlari belgilangan (qisqacha GOST). Bundan tashqari standartlarning qiyidagi turlari mavjud: OST-xalq xojaligi tarmoqlari standarti; RST-respublika standartlari; STP- korxonalar standartlari. Standartlar texnika taraqqiyotining osishida, ijtimoiy mehnat unumi va xalqning turmush farovonligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.




2-shakl



3-shakl

Masalan: 24 format, bunda $2 \times 4 = 8$, demak 24 format 8 ta 11 formatdan iborat. Yoki 2 raqam formatning eni $2 \times 297 = 594$ mm ekanligini, 4 raqam esa formatning boyi $4 \times 210 = 841$ mm ekanligini aniqlaydi. Bunda 11 formatning haqiqiy olchami 210×297 mm ($210, 25 \times 297, 25$ mm). Agar asosiy format enining uzunligi berilgan bolsa, boyining uzunligini aniqlash mumkin. Ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlarida va oquv yurtlarida 11 formatni teng bolaklarga bolish natijasida hosil bolgan kichik formatlardan ham foydalanishga ruxsat etiladi. Uning belgisi $-1/2-1$ (ya'ni 148×210 mm). Formatlar diagonallarining kesishish nuqtasi orqali teng ikkiga bolinadi. Qoshimcha formatlar hosil qilishda, masalan A4 formatning ensiz tomoniga karrali qo'shiladi va hosil qilinadi. Asosiy va qoshimcha formatlarning hosil bolish sxemasi 4-shaklda korsatilgan.





4-shakl

Bunda asosiy tutash chiziq bilan asosiy formatlar, ingichka tutash chiziq bilan qo'shimcha formatlar tasvirlangan. Qo'shimcha formatlarda 2.11 yoki 10.4 kabi tomonlarining olchamlari nuqta bilan ajratib belgilanadi.

Chizma qogozlari 24 formatlardan biroz kattaroq qilib, ya'ni knopka qadashga mo'ljallab ishlab chiqariladi. Shu sababli chizma taxt bolgandan song formatning ortiqcha qismini qirqib tashlash kerak. Oliy ta'lim muassasalarida kopincha chizma chizish uchun 12, 22, 24 (A1, A2, A3) formatlardan ko'proq foydalanish tavsiya etiladi.

Birinchi, ikkinchi, yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi xonalardagi yozuvlarni 5- yoki 7-shriflarda, qolgan xonalardagi yozuvlarni esa 3,5- yoki 2,5-shriflarda yozish tavsiya etiladi. Chizma ramkasi va asosiy yozuv chizig_ asosiy tutash chiziqda asosiy yozuvning (5-shaklga qarang) ayrim chiziqlari ingichka tutash chiziqqa chiziladi.



5-shakl

Asosiy yozuvda masshtab uning uchun belgilangan grafaga yozilgan bolsa M harfi tushirilib qoldiriladi. Qolgan hollarda M 1:1, M 1:2, M 2:1,..... tartibida yoziladi. Mahalliy korinish yoki ayrim xarflar yoxud raqamlar bilan

belgilangan tasvirlar masshtabi quyidagicha yoziladi:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Xorunov «Chizma geometriya kursi» Toshkent, O'qituvchi – 1997
2. Sh.Murodov, L.Xakimov va boshqalar «Chizma geometriya» Toshkent, Iqtisodmoliya - 2006
3. Ruziev E.I. va boshqalar “Muxandislik grafikasini o'qitish metodikasi” – Fan va texnika -2010
4. Sh.Murodov va boshqalar, Chizma geometriya – 2006, Iqtisodmoliya
5. G.Y.Sodiqova, M.T.Nurullaeva “Chizma geometriya va muxandislik kompyuter grafikasi” fanidan ma'ruzalar matni, TKTI, 2009.

LABSTER, PHET SIMULATIONS VA VPLAB ZAMONAVIY VIRTUAL LABORATORIYA PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI

Jabborov Alisher Oltiboyevich Toshkent kimyo-texnologiya instituti
“Avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv” kafedrasida katta o'qituvchisi
alisheroltiboyevich@gmail.com

Zamonaviy ta'lim jarayonida ilmiy fanlarni o'qitish usullari texnologiyalar rivoji bilan sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Talabalarning bilim olish jarayonini samaraliroq va qiziqarliroq qilish uchun virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar keng qo'llanilmoqda. An'anaviy laboratoriyalarga qaraganda, virtual stendlar ta'limda ko'proq interaktivlik, xavfsizlik va tejamkorlikni ta'minlaydi. Virtual laboratoriyalar orqali talabalarga o'qish jarayonida amaliy mashg'ulotlarni masofadan turib o'tkazish, xavfsiz muhitda sinovdan o'tkazish va ilmiy jarayonlarni chuqur o'rganish imkoniyati beriladi.

Labster, PhET Simulations va VPLab platformalari ilmiy ta'limda yetakchi virtual laboratoriyalar hisoblanib, har bir dasturning o'ziga xos afzallik va kamchiliklari bor, lekin ularning umumiy maqsadi talabalarga o'z fanlarini amaliyotda chuqurroq o'rganishga yordam berishdir. Ushbu maqolada, ushbu platformalar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar keng muhokama qilinadi, shuningdek, ularning qaysi jihatlari ta'limda samarali qo'llanilayotganini yoritiladi.

Birinchi navbatda ushbu dasturlarning o'xshashlik taraflarini o'rganib chiqsak. Birinchidan, uchala platforma ham ilmiy jarayonlarni simulyatsiya qilib, talabalarni real laboratoriya uskunalaridan foydalanmasdan tajribalarni o'rganishga imkon beruvchi virtual laboratoriyalarni yartishda qo'llanadi. Ikkinchidan, har uch platforma talabalar xavfli moddalar bilan ishlamasdan, tajribalarni xavfsiz bajarish imkonini beradi, misol uchun PhET Simulations platformasi orqali talabalar atomlar va molekular bilan bog'liq tajribalarni hech qanday xavf-xatarsiz amalga oshiradilar. Uchunchidan, bu platformalarda yaratilgan virtual laboratoriyalar materiallar va uskunalaridan foydalanishni talab qilmagani uchun, tajribalarni cheksiz marta takrorlash imkoniyati mavjudligi uchun iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. To'rtinchidan, uchala platforma ham internet orqali foydalaniladi, bu esa talabalar istalgan

joyda o'rganishlari mumkinligini anglatadi. Labster COVID-19 pandemiyasi davrida keng qo'llanilib, talabalarning laboratoriya tajribalarini masofadan o'tkazish imkoniyatini taqdim etdi.

Farqli tomonlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uchala platforma har xil fanlar uchun virtual stendlar tayyorlashgan mo'ljallangan. Xususan, Labster murakkab biologiya, kimyo va tibbiyot sohalariga qaratilgan. Masalan, hujayra biologiyasi yoki farmakologiya bo'yicha murakkab tajribalarni amalga oshirish imkoniyati, PhET Simulations asosan fizika, kimyo va matematikani soddalashtirilgan shaklda o'rganishga mo'ljallangan. Masalan, mexanika va harakat qonunlarini sodda tarzda simulyatsiya qilishga, VPLab platformasi esa fizika yo'nalishiga ixtisoslashgan bo'lib, murakkab fizik jarayonlarni chuqur o'rganish imkoniyatini beradi. Uchala dastur vizualizatsiya va texnologiya imkoniyat darajidan ham bir-biridan farq qilib, Labster yuqori sifatli 3D grafikalar va realistik simulyatsiyalarni yaratishga, PhET Simulations oddiy 2D grafikalar orqali ishlashga, VPLab platformasida ham 3D grafikalar orqali fizik tajribalarni simulyatsiya qila olish imkoniyatiga ega bo'lsada, asosan fizik jarayonlarni simulyatsiya qilishga mo'ljallangan. Labster va VPLab pullik dastur hisoblanib, qimmat litsenziya talab qiladi. PhET Simulations esa mutlaqo bepul va keng ko'lamda foydalaniladi, bu esa uni ta'lim muassasalari uchun arzonroq va qulayroq qiladi. Labster va PhET Simulations dasturlarida asosan tayyor laboratoriya stendlari asosida ishlash va ularni o'zgartirish imkoniyati kamroq, VPLabda esa tajribalarni o'zgartirish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, Labster, PhET Simulations va VPLab platformalari virtual laboratoriya stendlari orqali talabalarga amaliy mashg'ulotlarni xavfsiz, qulay va samarali tarzda o'rganish imkonini beradi. Ular masofaviy ta'lim uchun mos bo'lib, har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Labster murakkab fanlar (biologiya, kimyo, tibbiyot) uchun mo'ljallangan va yuqori darajadagi 3D grafikalar bilan realistik tajribalarni taqdim etadi. Biroq, uning foydalanish xarajatlari yuqori.

PhET Simulations oddiy fizika va matematikani soddalashtirilgan shaklda tushuntiradi va bepul foydalanish imkonini beradi. Texnik jihatdan oddiy bo'lsa-da, chuqur ilmiy tajribalar uchun yetarli emas.

VPLab asosan fizika faniga ixtisoslashgan bo'lib, murakkab fizik jarayonlarni chuqur o'rganishni ta'minlaydi. U arzonroq, ammo fanlar qamrovi cheklangan.

Umuman olganda, virtual laboratoriyalar ta'limni interaktiv va qiziqarli qilib, amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. G'aniyev O. G., Mirzayev A. Fizik tajribalarning zamonaviy laboratoriya usullari. Tashkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2018.
2. Yo'ldoshev N., To'rayeva G. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Tashkent: O'zbekiston, 2010.
3. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Москва: Академия, 2008.

YOSHLAR ORASIDA O'Z JONIGA QASD (suisid) HOLATLARINI OLDINI OLISH

Raxmonova Nigina Aminjonovna
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Tarix fakulteti g'oya va Huquq ta'limi yo'nalishi 101-guruh talabasi
Ochilova Feruza O'roqboy qizi

Zamonaviy dunyoda o'z joniga qasd holatlari ijtimoiy hayotning eng nozik va murakkab masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, bu muammo yoshlar orasida tobora keng tarqalmoqda. Yoshlar hayotining o'ziga xos jihatlari, ularga tushayotgan ijtimoiy va iqtisodiy bosimlar, shuningdek, psixologik omillar yoshlar orasida o'z joniga qasd qilish xavfini oshiradi. O'z joniga qasd qilishning ko'p sabablari stress, depressiya, kutilmagan ijtimoiy o'zgarishlar, shaxsiy munosabatlarda qiyinchiliklar, iqtisodiy qiyinchiliklar va boshqa omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazkur maqolada yoshlar orasida o'z joniga qasd qilishning oldini olish uchun qanday choralar ko'rilishi kerakligi, psixologik yordamning o'rni va bunday holatlarning kelib chiqishiga olib keluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalariga asoslanib, yoshlarning ruhiy sog'lig'ini saqlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O'z joniga qasd qilish masalasi bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu mavzu juda ko'plab ijtimoiy va psixologik jihatlarga ega bo'lib, unga ta'sir qiluvchi omillar turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, [1] tadqiqotda yoshlarning o'z joniga qasd qilish sabablari, xususan, depressiya va ruhiy kasalliklar muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Ruhiy kasalliklar ko'pincha kutilmagan o'zgarishlar, oilaviy mojarolar yoki doimiy stress natijasida rivojlanadi. Shu bilan birga, psixologik yordamning o'z joniga qasd qilishning oldini olishdagi o'rni bo'yicha [2] muallifning tadqiqotlari juda qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Ayrim adabiyotlarda ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlik ham o'z joniga qasd qilishning asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Yoshlar ko'pincha ijtimoiy bosimlar, do'stlari yoki oila a'zolari bilan tushunmovchiliklar tufayli o'zini yolg'iz his qilishlari mumkin. Masalan, [3] tadqiqotda ijtimoiy izolyatsiyaning ruhiy salomatlikka salbiy ta'siri keng yoritilgan. Yoshlar orasidagi ijtimoiy izolyatsiya darajasi texnologiyalar rivoji bilan kuchayib borayotgani qayd etiladi, chunki ko'plab yoshlar o'zaro yuzma-yuz muloqotni virtual aloqalar bilan almashtirmoqda, bu esa ularning ruhiy salomatligini zaiflashtirishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari ham yoshlar orasida o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlariga sabab bo'luvchi omillar qatoriga kiradi. [4] tadqiqotda ko'rsatilishicha, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy yoki zararli kontentni muntazam ko'rish, yoshlarni o'z joniga qasd qilishga undashi mumkin. Xususan, virtual dunyoda o'zlarini boshqalar bilan solishtirish yoki muvaffaqiyatsizliklarining keng ommaga oshkor bo'lishi tufayli ruhiy tushkunlikka tushish holatlari tez-tez uchrab turadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot kontent-tahlil va sifatli intervyu usullari asosida olib borildi. Dastlab, o'z joniga qasd qilish mavzusiga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, jurnallarda chop etilgan maqolalar va psixologik tadqiqotlar o'rganildi. Shuningdek, yoshlar orasida o'z joniga qasd

qilish xavfini oshiruvchi omillarni chuqur tahlil qilish maqsadida 20 nafar turli yoshdagi yoshlar bilan individual suhbatlar o'tkazildi.

Suhbatlarda yoshlarning o'z joniga qasd qilish sabablari, oilaviy muhit, do'stlik munosabatlari, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri va psixologik yordam olish imkoniyatlari haqida ma'lumotlar yig'ildi. So'rovnomalar ham tadqiqotning bir qismi sifatida qo'llanilib, unda 100 nafar respondent ishtirok etdi. Bu respondentlar orasida talaba yoshlar, ishlaydigan yoshlar va vaqtincha ishsiz bo'lgan yoshlar hamda shahar va qishloq hududlaridan bo'lgan ishtirokchilar bor edi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari yoshlar orasida o'z joniga qasd qilish sabablari va bu holatlarning oldini olish choralari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar taqdim etdi. Tahlil natijalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

1. Stress va depressiya yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Suhbatlar davomida respondentlarning katta qismi doimiy stress va tushkunlikni boshdan kechirayotganliklarini ta'kidladilar. Stressning asosiy manbalari sifatida oilaviy mojarolar, moliyaviy qiyinchiliklar va o'z kelajagiga nisbatan noaniqlik qayd etildi. Ayniqsa, talaba yoshlar orasida bu muammolar keng tarqalgan.

2. Psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi.

Tadqiqot davomida ko'pchilik yoshlar psixologik yordam olish imkoniyatlaridan foydalanmaganliklarini yoki bu yordamni olishdan uyalganliklarini bildirdilar. Bundan tashqari, psixologik yordam olish o'z joniga qasd qilishning oldini olishda muhim o'rin tutsada, ko'pchilik yoshlar bu haqda yetarlicha xabardor emasligi aniqlandi.

3. Ijtimoiy izolyatsiya va texnologik omillar.

Yoshlar orasida texnologiyalardan, xususan, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish ruhiy tushkunlikka olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Suhbatdoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlarini boshqalar bilan taqqoslash, kamchiliklari bilan yuzma-yuz kelishlari va bu holatlar o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlariga undashini ta'kidladilar.

4. Oilaviy muhitning o'рни.

O'z joniga qasd qilish xavfi yuqori bo'lgan yoshlar orasida oilaviy mojarolar, ota-onalar o'rtasidagi nizolar yoki doimiy bosim bo'lgan muhitlar kuzatildi. Suhbatlar davomida yoshlar ko'pincha oilalaridan yetarlicha hissiy qo'llab-quvvatlash olmaganliklarini yoki oilaviy mojarolar natijasida ruhiy bosim ostida ekanliklarini bildirdilar.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida o'z joniga qasd holatlarini oldini olish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Quyidagi takliflar bunday holatlarning kamayishiga xizmat qiladi:

1. Psixologik yordam tizimini kengaytirish.

Yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlarini oldini olish uchun bepul va anonim psixologik maslahatlar tizimini kuchaytirish kerak. Psixologik yordam xizmatlari yoshlar uchun qulay va oson yetib boradigan darajada bo'lishi lozim.

2. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Yoshlar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari, jumladan, do'stlik va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilishi lozim. O'z joniga qasd qilish holatlari ko'pincha

yolg'izlik yoki izolyatsiya bilan bog'liq bo'lganligi sababli, jamoat markazlari va yoshlar uchun mo'ljallangan faoliyatlar kengaytirilishi kerak.

3. **Ijtimoiy tarmoqlarni xavfli kontentdan himoya qilish.** Ijtimoiy tarmoqlarda salbiy yoki o'z joniga qasd qilishga da'vat etuvchi kontentni nazorat qilish va cheklash bo'yicha choralar ko'rish zarur. Yoshlar uchun xavfli kontentni filtrlash va ularni psixologik yordamga yo'naltiruvchi axborot materiallari joylashtirilishi lozim.

4. **Oilalarga psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy qilish.** Yoshlarning oilaviy muhitida hissiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida, ota-onalar uchun psixologik maslahatlar va treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R. M. Qosimov, "Psixologik yordam va uning yoshlar ruhiyatiga ta'siri", Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020, 58-61-betlar.

2. S. T. Ergashev, "Yoshlar orasida o'z joniga qasd holatlari: sabablari va yechimlari", "Ijtimoiy Psixologiya Jurnal", Toshkent, 2021, 4-son, 35-41-betlar.

3. N. G. Karimova, "Depressiya va stressning yoshlar hayotidagi o'rni", Samarqand: Sharq nashriyoti, 2019, 112-betlar.

4. N.A.Raxmonova " O'smirlarda destruktiv xulq atvor ko'rinishlarining namoyon bo'lishi ".

5. J. D. Qayumov, "Ijtimoiy tarmoqlar va ularning ruhiy salomatlikka ta'siri", Buxoro: Navro'z nashriyoti, 2022, 65-70-betlar.

YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li
Musurmanova Yayra Norbo'ta qizi
Toshpo'lotova Jasmina Nuriddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Yashil iqtisodiyot yoki "sifatli iqtisodiyot" o'ziga xos iqtisodiy tizimni ifodalaydi, uning asosiy maqsadi esa iqtisodiy faoliyatning ekologik muhofazasi va tabiiy resurslarning samaradorligini ta'minlashdir.

Yashil iqtisodiyot ekologik muammolar va tabiiy resurslarning samaradorligi hamda o'z-o'zini tiklashga yo'naltirilgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Uning asosiy prinsiplari o'zaro bog'liqlik, samaradorlik, o'z-o'zini tiklash va boshqa ekologik prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Bu tizimda iqtisodiy faoliyatning ekologik zararini minimalga tushirish, energiya va resurslarni samaradorlik bilan ishlatish, tabiiy muhitni saqlab qolish va tiklash, to'g'ridan-to'g'ri tabiiy resurslarni samaradorlik bilan ta'minlash kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni davom ettirish va insonlar va tabiatning o'zaro munosabatlarini to'g'ri tartibga solishdir.

Yashil iqtisodiyotning amaliyotida ozodlashtirilgan yashil texnologiyalardan, energiya va suv samaradorligini oshirishdan, qayta ishlashdan foydalanish, to'g'ridan-to'g'ri bajarish, ehtiyotkorlik va qayta tiklash muammosi bilan bog'liq jarayonlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Yashil iqtisodiyotning amaliyotga o'tkazilishi, ijtimoiy va iqtisodiy sohada ishtirok etuvchi barcha hukumatlar, korporatsiyalar va jamiyat tashkilotlari, o'z faoliyatlarida ekologik prinsiplarni qo'llash, ekologik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'llanmalarni amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida innovatsion yondoshuvlar o'ziga xos o'rin tutadi. Innovatsiya yangi ideyalar, texnologiyalar, usullar yoki mahsulotlarni qo'llashni anglatadi va bu esa iqtisodiyotning o'zgarish va rivojlanishini ta'minlaydi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi, ekologik muammolarni hal qilish, resurslarni samarali ishlatish va insoniy hayot sifatini yaxshilashdir.

Texnologiyalarning yashash bu yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun energiya samaradorligi yuqori avtomatlashtirish, texnologik yechimlarni o'rgatish va yangi energiya manbalari kabi texnologiyalarning yashashiga e'tibor berilishi kerak.

Qishloq xo'jaligi sohasida innovatsion yondoshuvlar, suv va energiya samaradorligini oshirish, ekologik qishloq xo'jaligi muhitini saqlash tadbirlari kabi jihozlarga ega bo'lishi kerak.

Yashil iqtisodiyot uchun energiya soxasi innovatsiyalari muhimdir. Bu yashil energiya manbalari, energiya saqlash va tarqatish texnologiyalari, energiya islohdatchilik kabi texnologiyalar orqali energiya ishlab chiqarish va ishlatishni o'z ichiga oladi.

Transport va kommunikatsiya sohasidagi innovatsiyalar muhim ahamiyatga ega. Bu yashil transport vositalari, to'lov tizimlari, mamlakatlararo kommunikatsiya tarmog'i va internet texnologiyalari kabi texnologiyalar orqali energiya saqlashni va ishlatishni o'z ichiga oladi.

Ma'lumot texnologiyalari esa ma'lumot analitikasi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv tizimlari, ma'lumotlar bazalari va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun ma'lumotlarni qo'llash kabi innovatsion yondoshuvlarga ega bo'lishidir.

Innovatsion yondoshuvlar yashil iqtisodiyotning o'zlashtirish va eksport potensialini oshirishga yordam berishi kerak. Yashil texnologiyalar, yashil mahsulotlar va xizmatlar eksportini oshirish, yashil investitsiyalarni jalb qilish va yashil brendingni rivojlantirishning muhim qismlaridan biridir.

Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida innovatsion yondoshuvlar o'ziga xos o'rin tutadi. Innovatsiya, yangi ideyalar, texnologiyalar, usullar yoki mahsulotlarni qo'llashni anglatadi va bu esa iqtisodiyotning o'zgarish va rivojlanishini ta'minlaydi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi, ekologik muammolarni hal qilish, resurslarni samarali ishlatish va insoniy hayot sifatini yaxshilashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jasmina Toshpo'lotova, and O'ktamov Madadjon. "boshlangich talim yo'nalishi talabalarini informatika fanini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish." pedagogs 51.1 (2024): 115-119.
2. Madadjon O'ktamov. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.
3. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.
4. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering. European journal of innovation in nonformal education,2(2), 369-373.
5. Турсунова, Л., & Жураев, С. (2024). Эффективные механизмы повышения качества образования. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(2), 35-37.
6. Yakhiyakhonova, Mukhiba. "The Urgency of Improving the Methods of Developing the Skills of Independent Learning of Future Teachers (on the Example of Information Technology in Education)." Academicia Globe 2.03: 47-51.

TALABALARDA LOYIHALASH-KONSTRUKSIYALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLARI

Qodirov Najmiddin Elmirza o'g'li
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Fan, ishlab chiqarish va ilmiy-texnika taraqqiyoti ham axborotlashtirishga asoslanadi. Ish o'rinlari ilm-fan yutuqlariga asoslangan yuqori texnologiyalar va intellektual texnik vositalar bilan jihozlanadi va ulardan faqat axborot texnologiyalari bo'yicha juda yaxshi tayyorgarlikka ega kompetentli mutaxassislargina foydalanishlari mumkin. Bunday mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini axborotlashtirish uchun Bo'lajak muhandis talabalar zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini puxta egallashlari zarur. Chunki, hozirgi zamon sharoitida bo'lajak muhandislarni loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalarini kompyuterli loyihalash vositalari asosida rivojlantirish ta'lim muassasalarining tarmoqaro o'zaro ta'sirini tatbiq etish bilan bevosita bog'liq bo'lib, kasbiy tayyorgarlik sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shunga bog'liq holda, fundamental pedagogik tadqiqotlar, izlanish va amaliy ishlar bo'lajak muhandislarni loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalarini kompyuterli loyihalash vositalari asosida rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni izlashga yo'naltirilishi zarur.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan faol foydalanish nafaqat pedagogik jarayonga yangicha yondashishni, balki uni tahlil qilish va yangilash uchun zaruriy ilmiy-metodik asosni ham talab etadi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish uning mazmunini rivojlantirish, shakl va metodlarini yangilashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarni loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, lekin ularning loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, metodikasi, ilmiy asoslari to'liq ochib berilmagan. Bu esa, bo'lajak muhandislarni loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalarini kompyuterli loyihalash vositalari asosida rivojlantirishda o'qitishning zamonaviy metodlari, didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasini tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim bo'lajak muhandislarni loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalarini rivojlantirish muammosining yetarli darajada o'rganilmaganligi va bu borada ilmiy tadqiqot ishlari izchil va muntazam ravishda olib borilmaganligi bo'lajak muhandislarni loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etish zaruratini belgilab beradi. Shuning uchun tadqiqot ishining ushbu paragrafida yuqoridagi muammoning holati va uni hal etishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Muhandislik yo'nalishi bakalavrlarining loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartlarini aniqlash uchun "Loyihalashtirish kompetensiyasi" tushunchasini ko'rib chiqish, uning mohiyati va mazmunini aniqlash zarur. Buning uchun "Loyihalashtirish kompetensiyasi" tushunchasining lug'aviy mazmunini aniqlash, loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalari tarkibini aniqlash, bo'lajak bakalavrlarni muhandislik bo'yicha kasbiy tayyorgarligi doirasida o'rganilayotgan hodisaning xususiyatlarini aniqlashtirish, xususan muhandislik yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashning universal kompetensiyalari sharoitida loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyalarini o'rganib chiqish lozim.

Dastlab "Kompetensiya", "loyihalashtirish" va "konstruksiyalash" so'zlarining mohiyatini aniqlash uchun uni boshqa bog'liq tushunchalardan ajratib turadigan xususiyatlarni aniqlashtirish kerak. Buning uchun loyihalash-konstruksiyalash va kompetensiya so'zlarini mazmuniga alohida to'xtalib o'tamiz. Loyihalashtirish kompetensiyasining murakkab konsepsiyasining mohiyatini aniqlash uchun "Kompetensiya" tushunchasini ko'rib chiqamiz.

"Kompetensiya" termini tilshunoslikda ilk bor XX asrning 50-60 yillarida qo'llangan va insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqatini bildirgan. A.Zimnyaya A.Xutorskiy va boshqalar tomonidan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga berilgan ta'riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi. Ularni umumlashtirgan holda, bugungi kunda ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan ushbu tushunchalarni sharhlashda quyidagi xulosaga keldik: "Kompetensiya" – ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishi; "kompetentlik" esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqatdir.

Agar "kompetent", va "kompetentlik" tushunchalarining etimologik tahliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelgan emas. Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va

malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

Pedagog olim N.A.Muslimovning ta'kidlashicha kompetentlik bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi .

Kompetentlik (lot.competens-munosib, muvofiq, tegishli, layoqatli, bilimli) – ma'lum sohada har taraflama bilimlarga ega bo'lgan insonning sifatidir. Kompetensiya (lot.competere) - «maqsadga erishish, munosib bo'lmoq, to'g'ri kelmoq» kabi ma'nolarni bildiradi .

Ushbu tushunchalar ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'riflanishidan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, hozirgi kunda ilmiy-pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining mazmuni haqida yagona va aniq to'xtamga kelingan emas.

A. V. Xutorskoy "kompetensiya" ga binoan ba'zi bir ob'ektlar yoki jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan shaxs xususiyatlarining tizimini anglatadi . Agar biz ta'lim sohasidagi olimlarning fikr-mulohazalarini davom ettirsak, quyidagilarni taxmin qilishimiz mumkin: kompetensiya talabani o'qitish uchun umumlashtirilgan talabni bildiradi, kompetensiya esa uning fazilati sifatida namoyon bo'ladi, bu uning tajribasini ma'lum bir sohadagi faoliyat aniqlab beradi.

Ushbu tadqiqotda taniqli mualliflarni kuzatib borgan holda, biz "Kompetensiya" va "kompetentlik" ta'riflarini ajratamiz.

Birinchisi tashqi muhit tomonidan berilgan, ikkinchisi esa faoliyat jarayonida o'zlashtirish uchun o'ziga xos shaxsiy tajribaning majburiy mavjudligi bilan ajralib turadi.

Quyida biz yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan "Kompetensiya" so'ziga bergan ta'riflarini tahlil qilamiz, ko'proq ma'lumot mazmuni uchun tahlil natijalari jadval shaklida keltirilgan (1.1-jadval).

"Kompetensiya" tushunchasiga olimlarning bergan ta'riflari

1.1-jadval

"Kompetensiya" ga berilgan ta'riflar	Mualliflar
"Kompetensiya – qobiliyat demakdir", biroq u kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga ham xizmat qiladi, deb ko'rsatadi Muslimov N., 2014;	N.Muslimov
"Kompetensiya" tushunchasi lotincha "competere" – mos kelmoq so'zidan olingan bo'lib, "o'z kasbiga yaroqli, loyiq" degan ma'noni bildiradi. Omonov P., 2021;	Po'lat Omonov
Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni bildiradi. 2019;	Narziyeva N
"kompetensiya" o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amaliy qo'llay olish layoqati demakdir Vahobov M., 2007;	M.Vahobov

“Kompetensiya” – ma’lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko’nikma va malakalarning amaliyotda samarali qo’llalinishi, “kompetentlik” esa, muayyan bir faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo’lgan layoqat [Turmatov J., 2019;	J.Turmatov
“Kompetensiya” ma’lum soha bo’yicha yaxshi tayyorgarlikni, shu sohaga oid bilimlarga ega bo’lish, omilkorlik, layoqatlilikni o’z ichiga oladi [Alimov F., 2018;	F. Alimov
“Qobiliyatini dastlab paydo bo’lgan boshqa sharoitlarga o’tkazish qobiliyati”	V.V. Bashev
"Har qanday darajadagi muammolarni hal qilishdagi faollik o'lchovi"	I.A. Kolesnikova
Kompetensiya – kasbiy fan bo’yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakalarni kundalik hayotimizda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda samarali qo’llay olishdir.	D.Kulmuradov
"Bilim, ko’nikma, qiymat-birlik yo’nalish, o’rganilgan faoliyat usullarini umumlashtirish"	S.G. Vorovshikov

Yuqoridagi kompetensiyaga berilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda, biz kompetensiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni taklif qilamiz.

Kompetensiya bu – kasbiy fan bo’yicha egallagan nazariy bilim, inson tafakkurini solishtirish uchun standartni aniqlash, amaliy ko’nikma va malakalarni kundalik hayotimizda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda samarali qo’llay olishdir.

Endi esa, o’z navbatida loyiha va loyihalash tushunchasiga ham to’xtalib o’tamiz. Loyiha va ishlab chiqish o’zaro bog’liq alohida tushunchalardir. Loyiha - bu ma’lum bir tarzda tegishli standart va ixtiro qilingan elementlardan foydalangan holda texnik tizim loyihani ishlab chiqish jarayoni. Loyihalashtirish faoliyati natijasi yaxlit chizma, sxema shaklida moddiylashtiriladi. Loyiha, loyihadan farqli o’laroq, kelajakdagi texnik tizimning, asosiy papametrlarini chizish bo’yicha ilmiy-texnik hisob-kitoblar, uni oldindan o’rganish bilan bog’liqdir. Loyihalashtirish faoliyati mahsuli maxsus ramziy shaklda: matn, rasm, grafik, hisoblash, matematik modellashtirish, kompyuter grafik dasturlari orqali ifodalanadi. Shulardan kelib chiqib, “loyiha” tushunchasini aniqlik kiritamiz:

1. Vebsterning izohli lug’ati: loyiha (inglizcha - loyiha) - rejalashtirilgan korxonalar: aniq ishlab chiqilgan o’rganish, yoki topshiriq odatda auditoriya o’quvchilari tomonidan bir guruh talabalar tomonidan bajariladi.

2. Pedagogik atamalar lug’ati: “loyiha - bu ma’lum bir vaqt ichida, belgilangan byudjet bilan, natijalar sifatiga aniq talablarga va aniq tashkilotga yo’naltirilgan holda, pedagogik tizimni maqsadli ravishda o’zgartirish bo’yicha o’zaro bog’liq chora-tadbirlar majmuasi”.

3. Loyiha menejmenti mutaxassislarining kompetensiyasiga qo’yiladigan milliy talablar: “loyiha bu noyob mahsulot yoki xizmatni yaratish uchun mo’ljallangan vaqtinchalik faoliyatdir”.

4. Loyiha - bu muayyan talablarga javob beradigan maqsadga erishish uchun o’z zimmasiga olingan va boshlanish va tugash sanalari bilan kelishilgan va boshqariladigan

tadbirlar majmuidan iborat noyob jarayon, vaqt, xarajat va resurs cheklovlarini o'z ichiga oladi.

5. Britaniyaning BS 6079-2: 2000 standartida: "loyiha - bu muayyan maqsadlarga erishish uchun belgilangan muddatlar, xarajatlarni va amalga oshirish parametrlari bilan biron bir shaxs yoki tashkilot tomonidan olib boriladigan boshlang'ich va yakuniy nuqtalarga ega bo'lgan noyob muvofiqlashtirilgan harakatlar to'plami".

6. AQSh, Loyiha menejmenti instituti (PMI): "loyiha - bu noyob mahsulotlar va xizmatlarni olishga yo'naltirilgan vaqtinchalik korxonalar".

7. Germaniya, DIN 69901 davlat standarti: loyiha bu asosan ularning umumiy sharoitlarining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadigan korxonalar (niyat).

8. Avstraliya Loyiha Boshqaruvi Instituti (AIPM): "Loyiha - bu umumiy maqsadga muvaffaqiyatli erishish uchun mo'ljallangan boshlanish va tugash sanalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan noyob faoliyat to'plamidir."

9. Boshqariladigan muhitdagi loyihalar (PRINCE2): "Loyiha - bu bir yoki bir nechta biznesni olish maqsadida yaratilgan vaqtinchalik tashkilot".

10. "Enterprise Innovation uchun loyiha va dasturlarni boshqarish bo'yicha qo'llanma" (P2M): "loyiha - bu cheklangan sharoitda kelishilgan muddat ichida bajarilishi kerak bo'lgan ma'lum bir missiyani amalga oshirishga qaratilgan qiymat yaratuvchi korxonalar, shu jumladan resurslar va tashqi sharoitlar".

11. V.N. Burkov, D.A. Novikov: "loyiha - belgilangan maqsadlarga erishish, belgilangan byudjet va cheklangan vaqt bilan belgilangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan tadbirlar majmui".

12. V.I. Voropaev: "loyiha - bu natijalar sifatiga, mablag va resurslarni sarflashning mumkin bo'lgan asoslariga va ma'lum bir tashkilotga ega bo'lgan alohida tizimni vaqt bilan cheklangan, maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish".

13. M.L Razu: "loyiha - bu mablag'lar va resurslarning sarflanishida mumkin bo'lgan cheklovlar bilan va ma'lum bir tashkilot bilan natijalar sifatiga qo'yilgan talablar bilan alohida tizimni vaqt bilan cheklangan, maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish".

"Komil inson" toifasiga berilgan ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, shaxsning integral dinamik xarakteristikasi faqat va faqat faoliyatda rivojlanadi va namoyon bo'ladi. Keyinchalik, "Loyihalashtirish kompetentlik" toifasini hisobga olgan holda, u loyiha jarayonida rivojlanadi, keyin esa faoliyatning yetakchi turi loyiha faoliyati deb taxmin qilish mumkin. Shu munosabat bilan "loyiha faoliyati" toifasini ko'rib chiqish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Avvalo, siz komponentlar toifasining qiymatini aniqlashingiz kerak.

Bugungi kunda inson faoliyati konsepsiyasi turli xil tavsiflarga, talqinlarga va tushunchalarga ega, ammo asosiysi bu faoliyat nazariyasi bo'lib, uning boshlanishi 20 - 30-yillarning boshlarida boshlangan. va quyidagi psixologlarning ismlari bilan bog'liq: L.S. Vygotskiy, Galperin, A.N. Leontiev, A.R. Luriya.

Faoliyat nazariyasi psixologiyadan pedagogikaga faoliyat yondashuvi shaklida o'tdi. Biz pedagogik lug'atda berilgan ta'rifga qo'shilamiz. Insonning aqliy faoliyatining bir shakli sifatida namoyon bo'lgan faoliyat, uning asosiy vazifasi insonning o'zi va butun dunyoni o'rganish va o'zgartirishdir.

Yuqoridagi printsiplarga asoslanib, loyiha faoliyati algoritmi va uning ta'lim muhitidagi xususiyatlari quyidagilar:

1. Loyiha faoliyatining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tabiati sub'ektivdir, bu talabalarning ma'lumot izlash, muammoni aniqlash, yechim topishda, shuningdek, avvalgi sub'ektiv tajribani hisobga olishda mustaqilligini anglatadi. loyiha ishtirokchilari.

2. Loyiha faoliyatini amalga oshirishda, barcha faoliyatni hal qilishga qaratilgan muammo bo'lishi muhimdir. "Muammo - bu bilish jarayonida ob'ektiv ravishda paydo bo'ladigan savol yoki hal etilishi muhim amaliy yoki nazariy qiziqish uyg'otadigan masalalarning ajralmas to'plami". Muammo ham o'quv, ham darsdan tashqari muhitda javob topishi mumkin, u har xil miqyosda bo'lishi mumkin, ammo uni hal qilishda yuzaga keladigan ijobiy ta'sirlarni hisobga olish muhimdir.

3. Muammo aniqlanganda maqsad, vazifalar va iloji bo'lsa gipotezani shakllantirish zarur. Gipoteza - loyiha muallifining tasdiqlanishi yoki rad etilishi kerak bo'lgan mantiqiy asoslangan taxminidir, haqiqati aniq emas. U tekshirilishi kerak, qarama-qarshi hukmlar va baholash xarakteridagi hukmlarni o'z ichiga olmaydi.

4. Muhim fikrlardan biri bu tayyorlangan loyiha materiallarini nazarda tutadigan va to'rtta blokdan iborat portfeldir (hujjatlar papkasi): qo'shimchalar (hujjatlar, namoyish materiallari, multimedia taqdimotlari, diagrammalar, chizmalar va boshqalar) bilan loyihaning to'liq to'plami.), ma'ruza, tezislari, izoh. Loyihaning to'liq to'plami quyidagi hujjatlardan iborat: loyiha pasporti; loyihani amalga oshirish rejalari va uning alohida bosqichlari: loyiha guruhining har bir a'zosi va umuman guruhning vazifalari; guruh oraliq hisobotlari; mavzu bo'yicha barcha to'plangan ma'lumotlar; tadqiqot va tahlil natijalari; barcha g'oyalar yozuvlari, aqliy hujumlar, yig'ilishlar va konferensiyalar, munozaralar, farazlar va qarorlar; ishtirokchilar duch keladigan barcha muammolarning qisqacha tavsifi va ularni qanday hal qilish kerakligi.

5. Loyiha faoliyatidagi muhim jarayon - bu tahlilni o'z ichiga olgan ishchi guruhlardagi psixologik iqlimni aks ettirish, tahlil qilish jarayoni umuman faoliyat natijalaridan va har bir ishtirokchining shaxsiy natijalaridan, uning qadr-qimmati va hissiyotidan tik turish va qoniqish. Bu yerda ikkala natijalar (umuman loyiha, ishtirokchilarning shaxsiy natijalari) bir xil ahamiyatga ega ekanligini aniqlashtirish mantiqan to'g'ri keladi.

"Loyihalashtirish" toifasining turli mualliflari tomonidan tushunilishi.

1.3-jadval

Muallif	"Loyihalashtirish" tushunchasining ma'nosi
I.D. Chechel	Intellektual faoliyatning eng keng tarqalgan turi
V.S. SHubinskiy	Bu sintetik tadqiqot usuli
V.P. Bospalko	"Optimal pedagogik tizimni yaratish", xususan, "o'quv dasturida bosqichma-bosqich ta'lim jarayonini dasturlash yoki ko'p bosqichli rejalashtirish" deb umumiy ta'riflaydi .
L. V. Moiseeva	"Loyihani yaratish va amalga oshirish faoliyati, uning asosi fikrlash jarayoni, uning harakatlari qaror qabul qilish aktlari va operatsiyalar muammolarni hal qilish bo'yicha mulohazalar"
H.A. Masyukova	Ijtimoiy-madaniy hodisa
A.M. Moiseev, A.A. Xvan	Loyihalarni yaratishga qaratilgan inson faoliyatining nisbatan mustaqil turi

N.YU. Paxomova	Murakkab aqliy faoliyat, bu maqsadni belgilash, rejalashtirish, muammoli vaziyatni tahlil qilish va muammoni shakllantirish, muammoning mavjudligi shartlarini ajratib ko'rsatish, vaziyatni o'zgartirishi mumkin bo'lgan harakatlar tizimini aniqlash va hokazo.
V.A. Starodubsev, M.G. Minin, T.A. Kostyukova, A.A. Veryaev	Inson hayotining turli sohalarida (sohalarida) loyihalarni boshqarish faoliyati, ya'ni, insonning atrof-dagi voqelikni va o'zini o'zgartirish uchun maxsus tashkil etilgan ijodiy faoliyati

Tahlillar shuni ko'rsatadiki (1.3-jadval), ta'limdagi "Loyihalashtirish" atamasi qanday bo'lishi kerakligini nazariy jihatdan asoslashni nazarda tutadi, ya'ni amallar oldidan darhol bashorat qiladi [267]. Biroq, u atrof-muhitni va o'zini o'zi o'zgartirish bo'yicha keyingi harakatlarni istisno etmaydi. Shu munosabat bilan, bizning tadqiqotlarimizda biz "Loyiha" va "Loyihalashtirish faoliyati" tushunchalarini ajratmaymiz.

Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, mo'ljallangan obyektlar (apparat va asboblari, bino va inshootlar, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari, gidrotexnik inshootlar, suv omborlari, nasos stansiyalari, sug'oriladigan yerlarning sug'orish tizimi, drenaj tizimlari hamda boshqa turli-tuman mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni.

Endi esa "konstruksiyalash" tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. "konstruksiyalash" so'zining asosi bo'lgan "konstruksiya" so'zi [lotincha](#): constructs – so'zidan olingan bo'lib tuzilish, qurilish degan ma'noni anglatadi

Konstruksiya - mashina, inshoot yoki o'zel va detallarning tuzilish sxemasi, shuningdek, mashina, inshoot, o'zellar hamda ularning detallari. Konstruksiyada kerakli qism va elementlarining shakli hamda o'zaro joylashishi, ularni biriktirish usullari, o'zaro ta'siri va qanday materiallardan yasalishi hisobga olinadi.

Konstruksiyalash tushunchasi loyihalash jarayoni ichida, hisoblash bosqichlari bilan birga tajriba tadqiqoti, ko'pincha konstruksiyalash jarayoni deb yuritiladi.

Konstruksiyalash — o'rganilayotgan ob'ektni barpo qilishni material obrazi faoliyati, natural ko'rinishini tuzish ishi va uning grafik aksi (chizmasi, eskizi, kompyuter modeli)dir. Bu model va ko'rinishlar, shuningdek turli inshootlarning ko'rinishlari konstruksiya deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31-dekabrdagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 824-son Qarori.

3. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020 y.

4. Тимофеев А.А., Н.А. Ушко, М.А. Ярифа. Кредитно-модульная система обучения. Журнал Современная стоматология, 1/2013, стр:134.

5. Уразгалиева Р.И. «Кредитно-модульная система организации обучения как фактор формирования умений самообразовательной деятельности студента». Автореф. Дисс к.п.н., - Оренбург. - 2010.

6. Шамова, Т. И. Управление образовательными процессами Текст. / Т. И. Шамова, Т. М. Давыденко, Г. Н. Шибанова. М. : Академия, 2002. - 384 с.

KOMBINATORIKADA KO'P QO'LLANILADIGAN USUL VA QOIDALAR.

Jalilov Shaxriyor Sobirovich

“TIQXMMI” MTUning

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Tarif. Faraz qilaylik, isbotlanishi kerak bo'lgan tasdiq birorta xususiy $n = n_0$ qiymat (masalan, $n_0 = 1$) uchun to'g'ri bo'lsin (usulning bu qismi **baza** yoki **asos** deb ataladi). Agar bu tasdiqning istalgan $n = k > n_0$ uchun to'g'riligidan uning $n = k + 1$ uchun to'g'riligi kelib chiqsa, u holda tasdiq istalgan natural $n \geq n_0$ son uchun to'g'ri bo'ladi (induksion o'tish yoki induktiv o'tish).

Misol 1. Ixtiyoriy n natural son uchun

$$1^2 + 2^2 + \dots + n^2 = \frac{n(n+1)(2n+1)}{6}$$

tenglikning o'rinli bo'lishini matematik induksiya usuli yordamida isbotlaymiz.

Baza: $n = 1$ bo'lsin, u holda yuqoridagi tenglik to'g'ri ekanligi ravshan: $1^2 = \frac{1 \cdot (1+1) \cdot (2 \cdot 1 + 1)}{6}$.

Induksion o'tish: isbotlanish kerak bo'lgan tenglik $n = k > 1$ uchun to'g'ri, ya'ni

$$1^2 + 2^2 + \dots + k^2 = \frac{k(k+1)(2k+1)}{6}$$

tenglik o'rinli bo'lsin. Bu tenglikning chap va o'ng tomonlariga $(k+1)^2$ ifodani qo'shib, uni

$$1^2 + 2^2 + \dots + k^2 + (k+1)^2 = \frac{k(k+1)(2k+1)}{6} + (k+1)^2$$

ko'rinishda yozamiz. Oxirgi tenglikning o'ng tomonida quyidagicha o'zgartirishlarni bajaramiz:

$$\frac{k(k+1)(2k+1)}{6} + (k+1)^2 = (k+1) \left[\frac{k(2k+1)}{6} + (k+1) \right] = \frac{(k+1)[2k(k+2)+3(k+2)]}{6} = \frac{(k+1)[(k+1)+1][2(k+1)+1]}{6}$$

Demak,

$$1^2 + 2^2 + \dots + k^2 + (k+1)^2 = \frac{(k+1)[(k+1)+1][2(k+1)+1]}{6}$$

Oxirgi munosabat isbotlanishi kerak bo'lgan tenglikning $n = k + 1$ bo'lgan holdidir. Shuni ta'kidlash kerakki, biror tasdiqni isbotlash uchun matematik induksiya usuli qo'llanilganda, bu usulning ikkala qismini ham tekshirib ko'rish muhimdir, ya'ni baza va

induksion o'tish albatta tekshirilishi shart. Ulardan biri tekshirilmasa noto'g'ri natijalar hosil bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari, baza birorta xususiy qiymatdan boshqa ko'p, hattoki, juda ko'p xususiy hollar uchun tekshirilib, ijobiy natija olinganda ham, bu hollarni umumlashtiruvchi natijaviy tasdiq noto'g'ri bo'lib chiqishi mumkin. Bu mulohazalarning o'rinli ekanligini quyida keltirilgan misollar ko'rsatadi.

Misol 2. "Ixtiyoriy n natural son uchun $n^2 + n + 17$ ifodaning qiymati tub sondir" degan tasdiqni tekshirish maqsadida matematik induksiya usulining faqat baza qismi talabini dastlabki 15 ta natural sonlar uchun bajaramiz.

$n = 1$ bo'lganda $n^2 + n + 17 = 1^2 + 1 + 17 = 19$ tub son hosil bo'ladi. $n = 2, 3, \dots, 15$ bo'lganda ham $n^2 + n + 17$ ifodaning qiymati sifatida 23, 29, 37, 47, 59, 73, 89, 107, 127, 149, 173, 199, 227 va 257 tub sonlarni hosil qilamiz.

Induksion o'tishni tekshirmasdan "ixtiyoriy natural n son uchun $n^2 + n + 17$ ifodaning qiymati tub sondir" degan xulosa qilish noto'g'ridir, chunki, masalan, agar $n = 16$ bo'lsa, u holda ifodaning qiymati murakkab sondir:

$$n^2 + n + 17 = 16^2 + 16 + 17 = 289 = 17 \cdot 17.$$

Misol 3. Biror n natural son uchun $991n^2 + 1$ son butun sonning kvadrati bo'ladimi?

Bu savolga javob berish uchun, n ning dastlabki o'n, yuz, ming, million, milliard, hattoki, trillionta qiymatlari uchun $991n^2 + 1$ ifoda tekshirilganda, uning qiymatlaridan birortasi ham butun son kvadrati bo'lmasligi qayd etilgan. Shunday bo'lishiga qaramasdanbu tasdiq asosida, induksion o'tishni bajarmasdan, "ixtiyoriy natural n son uchun $991n^2 + 1$ ifodaning qiymati butun sonning kvadrati bo'lmaydi" degan xulosa qilish mumkin emas. $991n^2 + 1$ ifodaning qiymati butun sonning kvadrati bo'ladigan n natural sonning borligi va bunday sonning eng kichigini o'nli sanoq sistemasida yozganda 29 ta (!) raqam bilan ifodalanishi komp'yuter yordamida aniqlangan. ■

Kombinatorikada sodda, o'z-o'zidan ravshan bo'lgan, ammo muhim qoidalar bor. Bunday qoidalar sifatida qo'shish, ko'paytirish hamda kiritish va chiqarish qoidalari deb ataluvchi qoidalarni ko'rsatish mumkin.

m ta elementli A to'plam va n ta elementli B to'plamlar berilgan bo'lib, ular kesishmasin. Qo'shish qoidasiga ko'ra, A yoki B to'plamga tegishli bo'ladigan birorta elementni tanlash imkoniyatlari soni $(m + n)$ ga tengdir. Bu qoida "Yoki" qoidasi deb ham ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. To'rayev X., Azizov I., Otakulov S. Kombinatorika va graflar nazariyasi. T.: 2009. 72-147 betlar.
2. Яблонский С. В. Введение в дискретную математику. М.: 1986. 50-146 st.
3. To'rayev X.T., Matematik mantik va diskret matematika. T.: 2003. 71-146 b.

4. Ismailov Sh., Axmedov O., Ro'ziboyev M. "Matematikadan olimpiada testlari", Toshkent-2008y., 17-29 betlar.
5. P.Сменли. Перечислительная комбинаторика. М., Мир, 1990. 70-144 st.
6. А.Копман. Введение в прикладную Комбинаторику. М., Наука, 1975. 51-165

КОМПАКТДА SIQUVCHI AKSLANTIRISH PRINSIPI

¹Akbar Xalilov, ²Zilola Xalilova

¹Qarshi davlat universiteti,

²Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

akbarx1991@gmail.com, xalilovazilola076@gmail.com

Qisuvchi akslantirishlar prinsipini har xil turdagi tenglamalar yechimlari mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremlarni isbotlashda qo'llash mumkin[1]. Qisuvchi akslantirishlar prinsipi $Ax = x$ tenglama yechimi mavjudligi va yagonaligini isbotlash uchungina qo'llanib qolmay, bu tenglama yechimini topish usulini ham beradi.

Ta'rif 1. $X \neq \emptyset$ to'plam $\forall x, y \in X$ elementlari juftiga aniq bir manfiy mas son mos qo'yilgan bo'lib, bu moslik

$$\rho(x, y) = 0 \Leftrightarrow x = y$$

$$\rho(x, y) = \rho(y, x)$$

$$\rho(x, z) \leq \rho(x, y) + \rho(y, z)$$

shartlarni qanoatlantirsa ρ ga X dagi metrika deyiladi, va (X, ρ) metrik fazo deyiladi.

Ta'rif 2. Agar X metrik fazoda ixtiyoriy fundamental ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, u holda X to'la metrik fazo deyiladi.

Ta'rif 3. $A: (X, \rho_X) \rightarrow (Y, \rho_Y)$ akslantirish Lipshits shartini qanoatlantiradi deyiladi, agar $\exists L > 0$ mavjud bo'lib $\forall x_1, x_2 \in X$ uchun

$$\rho_Y(A(x_1), A(x_2)) \leq L \rho_X(x_1, x_2)$$

tengsizlik o'rinli bo'lsa.

Ta'rif 4. Agar $0 < L < 1$ bo'lsa u holda A akslantirish siquvchi akslantirish deyiladi.

Teorema1(Banach). (X, ρ) to'la metrik fazoda $A: X \rightarrow X$ siquvchi akslantirish berilgan bo'lsa, u holda $Ax = x$ tenglamaning yagona y yechimi mavjud; bunda

$$y = \lim_{n \rightarrow \infty} A^n x_0, \quad x_0 \in X$$

o'rinli.

Teorema2. (X, ρ) to'la metrik fazoda $A: X \rightarrow X$ akslantirish uchun biror n da $B = A^n$ siquvchi akslantirish bo'lsin. U holda $Ax = x$ tenglama yagona yechimga ega bo'ladi.

Ta'rif 4 da $L < 1$ sharti muhim hisoblanadi. $L = 1$ holatda ya'ni

$$\rho(Ax, Ay) < \rho(x, y) \quad x \neq y$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi lekin qo'zg'almas nuqtasi mavjud bo'lmagan A akslantirishga misol keltiramiz.

Misol. Quyidagicha akslantirishni qaraylik:

$$Ax = x - \arctg x + \frac{\pi}{2}$$

Yuqoridagi tengsizlik o'rinli lekin $Ax = x$ tenglamaning yechimi yo'q. Haqiqatdan ham,

$$\begin{aligned} \rho(Ax, Ay) &= \left| x - \arctg x + \frac{\pi}{2} - (y - \arctg y + \frac{\pi}{2}) \right| = \\ &= |(x - y) - (\arctg x - \arctg y)| = \left[\begin{array}{c} \text{Lagranj} \\ \text{teoremasiga ko'ra} \end{array} \right] = \\ &= \left| (x - y) - \frac{1}{1+c^2}(x - y) \right| = \left| (x - y) \left(1 - \frac{1}{1+c^2} \right) \right| \leq \\ &= |x - y| \cdot \left(1 - \frac{1}{1+c^2} \right) < |x - y| = \rho(x, y) \end{aligned}$$

Lekin $Ax = x - \arctg x + \frac{\pi}{2} = x \Rightarrow \arctg x = \frac{\pi}{2}$ bu tenglamaning ildizi yo'q.

Agar biz X metrik fazodan kompaklik shartini talab qilsak, u holda $L=1$ ham teorema o'rinli bo'ladi.

Ta'rif 5. $K \subset X$ dan olingan ixtiyoriy chegaralangan ketma-ketlikdan yaqinlashuvchi qisman ketma-ketlik olinib, uning limiti K to'plamda bo'lsa, K to'plam kompakt to'plam deyiladi.

Teorema 3. A akslantirish X kompakt metrik fazoni o'zini o'ziga akslantiruvchi akslantirish bo'lsin. $\forall x, y \in X$ uchun

$$\rho(Ax, Ay) < \rho(x, y) \quad x \neq y$$

tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda $Ax = x$ yagona yechimga ega bo'ladi.

Isbot. Biz bilamizki $\rho(x, y)$ - uzluksiz funksiya. Shuning uchun $\rho(x, Ax)$ uzluksiz funksiya, demak kompaktda uzluksiz funksiya eng katta va eng kichik qiymatiga erishadi. Faraz qilaylik, $\min_{x \in X} \rho(x, Ax) = \alpha > 0$ u holda

$$\rho(Ax, A^2x) < \min_{x \in X} \rho(x, Ax) = \alpha$$

bu esa zidlik demak, $\min_{x \in X} \rho(x, Ax) = \alpha = 0 \Rightarrow \rho(x_0, Ax_0) = 0 \quad Ax_0 = x_0$. Faraz qilaylik, $Ax_1 = x_1, \quad Ax_2 = x_2$ bo'lsin. $\rho(x_1, x_2) = \rho(Ax_1, Ax_2) < \rho(x_1, x_2) \Rightarrow \rho(x_1, x_2) = 0 \Rightarrow x_1 = x_2$.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Колмогоров А. Н., Фомин С. В. Элементы теории функций и функционального анализа. – М.: Наука, 1976.
2. Rabindranath Sen (2013) A First Course in Functional Analysis – Anthem Press New York.
3. J.I. Abdullayev, R.N. G'anixo'jayev va boshqalar Funksional Analiz – Toshkent-Samarqand (2009).

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI O'QUV JARAYONIGA TADBIQ ETISH.

Keldiyorov Rafiq Normurodovich
E mail: rafiqkeldiyorov1991@gmail.com
Xudoyberdiyev Sherzod Ziyodullo o'g'li
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Kun sayin rivojlangan mustaqil mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, ta'lim sohasini yangi sifat bosqichiga ko'tarishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va faol foydalanish orqali ta'lim samaradorligini osbirish bugungi kundagi o'zining ijobiy yechimini topayotgan muhim masalalardan biridir. Pedagog xodimlarning asosiy maqsadlaridan biri har bir talabaga rejalashtirilgan o'quv-materiallarini yetkazib berish va uni o'zlashtirish darajasini oshirishga erishishdan iborat.

Ta'lim jarayonining samadorligi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan izchil va samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim sohasida bu kabi islohotlarni amalga oshirish pedagoglar zimmasiga ulkan mas'uliyatli vazifani yuklaydi ya'ni bugungi kun pedagogi zamon talablariga to'liq javob bera olishi shart.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ikki turga ajratish mumkin:

1. Ta'lim texnologiyalari: "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Labirint", "Charxpalak", "Muloqot", "Loyiha", "Bahs munozara va musobaqa", "Dumaloq stol" kabi texnologiyalar kiradi.


2. Tarbiya texnologiyalari: Kuzatish, baxslashish, ishontirish, jamoaviy ijodiy ishlar, "Tanqid qilishni o'rgating", "Kurator va jamoa" kabi texnologiyalar kiradi.

Ta'lim-tarbiya tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatining mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: Demak, pedagogik texnologiyalarning markaziy muammosi talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, «Pedagogik texnologiyalar» fanining asosiy maqsadi kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarni fanni o'rganishda qo'llanadigan ta'lim-ning zamonaviy texnologiyalari bilan tanishtirish va kelajakda o'z faoliyatlarida interaktiv usullar qo'llashni o'rgatishdir.

Pedagogik texnologiyalarning vazifalari – pedagog o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etishga, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishga, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi va ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iborat.

"Pedagogik texnologiyalar" ta'lim tarbiya sohasida sifat ko'rsatkichiga va yuksak samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish maqsadidan kelib chiqib, ijtimoiy gumanitar fanlar majmuyi maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, nazariyasi va amaliyotining barcha sohalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan o'qitish shakllari, usullari, vositalari bilan fanlar aro o'zaro birikib, yagona majmua tarzida uzviy aloqada ish olib boradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy qismlari



Jamiyatni rivojlantirish va uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish bilan birga ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish yurtimizda ta'limning o'ziga xos xususiyatidir. Mamlakatdagi maktab islohoti ta'lim mazmunini hozirgi ilmiy bilim darajasiga muvofiqlashtirishga, barcha o'quv ishlari samaradorligini oshirishga va o'quvchilarni axborot jamiyatiga o'tish sharoitida faoliyatga tayyorlashga qaratilgan. Shu sababli, axborot texnologiyalari ta'lim mazmunining ajralmas qisimiga, o'quv jarayonini optimallashtirish va samaradorligini oshirish vositasiga aylanmoqda, shuningdek, ta'limni rivojlantirishning ko'plab tamoyillarini amalga oshirishga hissa qo'shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Holiqberdiev "Pedagogika".- Toshkent: "O'qituvchi", 2001.
2. N.N.Azizxo'jaeva "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat".- Toshkent: TDPU, 2003.
3. A.R.Xodjabaev, I.Xusanov "Kasb ta'limi metodologiyasi". O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Aloqachi", 2007.
4. D.Tojiboeva, A.Yo'ldoshev "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi". Darslik. – Toshkent, "Aloqachi", 2009.
5. Internet ma'lumotlari:
6. www.ziyonet.uz
7. www.arxiv.uz
8. www.wikipedia.com

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI AXBOROT TEKNOLOGIYALARI FANI ORQALI KASBIY RIVOJLANTIRISHNING TAHLILI

Xudoyberdiyev Iskandar Boymurodovich
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Zamonaviy mehnat bozori tobora murakkablashib borayotgan sharoitda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish ta'lim tizimi uchun muhim vazifadir. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan axborot texnologiyalari (IT) fanlari bugungi kunda kasbiy malaka oshirish va innovatsion imkoniyatlarni ochishda asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, IT o'quv jarayonini boyitib, talabalarga zamonaviy bozor ehtiyojlariga javob bera oladigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalarining kasbiy rivojlanishdagi o'rni

IT fani bo'lajak mutaxassislarga zamonaviy ko'nikmalarni egallash va ularni qo'llash bo'yicha keng imkoniyatlar yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonlari faqat nazariy bilimlarni o'z ichiga olmay, amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar o'z kelgusi kasbida qanday ishlashlarini o'rganadilar.

Axborot texnologiyalari kasbiy rivojlanishning quyidagi jihatlarini ta'minlaydi:

1. Texnologik o'zlashtirish: Talabalar IT yordamida turli xil dasturlar va ilovalarda ishlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladilar. Masalan, dasturlash tillari, tarmoq texnologiyalari, ma'lumotlar bazalari va boshqa sohalarda bilim va tajriba to'playdilar.

2. Innovatsion fikrlash va ijodkorlik: IT fanlari talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu orqali talabalar muammolarni zamonaviy texnologiyalar orqali hal qilishni o'rganadilar, masalan, dasturiy ta'minot yaratish yoki mavjud jarayonlarni avtomatlashtirish.

3. Bozor talablariga moslashish: Axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan soha bo'lib, talabalarining kasbiy rivojlanishini yangi tendensiyalarni o'rganish va ularni amaliyotda qo'llash orqali qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, mutaxassislar mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishadi.

4. Masofaviy ta'lim imkoniyatlari: Axborot texnologiyalari o'quv jarayonida masofaviy ta'lim berish imkonini beradi. Talabalar har qanday joyda ta'lim olishlari mumkin va shu orqali ularga qo'shimcha ko'nikmalar va bilimlar olish imkoniyati yaratiladi. Masalan, onlayn kurslar, vebinarlar va elektron kutubxonalar.

Oliy ta'limda IT fanlari orqali kasbiy rivojlantirish metodlari

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning axborot texnologiyalari fani orqali kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun turli usullar va yondashuvlar qo'llaniladi:

1. Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriyalar: Talabalarining kasbiy rivojlanishiga yordam berish uchun ularni nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajriba bilan ham boyitish lozim. Axborot texnologiyalari sohasidagi amaliy mashg'ulotlar talabalarga o'z kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlash va kelajakda amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi.

2. Loyiha asosida ta'lim: Bo'lajak mutaxassislar IT fanlarida loyiha asosida ta'lim olish orqali muammolarni yechish va ularni amalga oshirishni o'rganadilar. Masalan, dasturiy

loyihalar, veb-illovalar yaratish va shunga o'xshash ishlar. Bu talabalarga mustaqil ijodiy ishni rivojlantirish imkonini beradi.

3. Korporativ hamkorlik va sanoat amaliyoti: IT fanlarida korporativ sektor bilan hamkorlik qilish orqali talabalarga sanoat tajribasi o'tkazish muhim. Bu orqali talabalar o'zlarini haqiqiy ish sharoitlarida sinab ko'rishlari mumkin va bozor talablariga moslashishadi. Oliy ta'lim muassasalari korxonalar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali mutaxassislarni amaliy ko'nikmalar bilan boyitadi.

Bo'lajak mutaxassislarning IT orqali rivojlanish istiqbollari

Bo'lajak mutaxassislarning IT sohasida kasbiy rivojlanishi kelajakda yanada keng ko'lamli istiqbollarga ega. Bu rivojlanishlar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Yangi kasblar paydo bo'lishi: IT fanlari tobora rivojlanib borayotgan sari yangi kasblar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, katta ma'lumotlar tahlili kabi sohalar talabalarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Ko'p tarmoqli mutaxassislar: Kelajakda bo'lajak mutaxassislar faqat bitta sohada emas, balki bir necha sohalarda malakaga ega bo'lishlari talab etiladi. IT fanlarida kasbiy rivojlanish orqali talabalar texnologik ko'nikmalarga ega bo'lib, ularni boshqa sohalarga ham qo'llashlari mumkin.

3. Xalqaro darajada raqobatbardoshlik: Axborot texnologiyalarining rivojlanishi talabalarni nafaqat mahalliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh qiladi. IT sohasidagi bilim va ko'nikmalar global miqyosda talab qilinadi va bo'lajak mutaxassislar ushbu imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin.

Axborot texnologiyalari fani bo'yicha o'qituvchilarning roli

Bo'lajak mutaxassislarni IT sohasida rivojlantirish jarayonida o'qituvchilarning roli juda muhimdir. O'qituvchilar o'z pedagogik ko'nikmalarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, talabalarga eng dolzarb bilimlarni yetkazishlari kerak. Shu bilan birga, IT fanlari o'qituvchilaridan zamonaviy dasturiy ta'minot va texnologiyalarga ega bo'lish va ularni o'quv jarayoniga kiritish talab etiladi.

1. Yangi o'qitish uslublarini qo'llash: O'qituvchilar IT fanlari orqali yangi ta'lim uslublarini o'quv jarayoniga kiritishi kerak. Masalan, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar va masofaviy ta'lim dasturlari orqali ta'lim olish imkoniyati kengayadi.

2. Shaxsiy rivojlanish va malaka oshirish: O'qituvchilar IT fanlarini o'rgatishda o'zlari ham muntazam ravishda yangi texnologiyalar bilan tanishib borishlari lozim. Ular turli seminarlarda, xalqaro anjumanlarda qatnashish orqali malakalarini oshirishi mumkin. Bu esa ularning talabalarga zamonaviy ko'nikmalarni o'rgatish imkoniyatlarini oshiradi.

3. Talabalar bilan interaktiv muloqot: IT fanlari orqali o'qituvchilar talabalar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishlari mumkin. Onlayn platformalar orqali muloqot qilish, muhokamalarni tashkil etish va talabalarining o'zaro hamkorlikda ishlashini ta'minlash o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Kasbiy rivojlanish va zamonaviy IT infratuzilmasi

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy IT infratuzilmasini yaratish va uni talabalarining o'quv jarayoniga jalb qilish kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Bo'lajak mutaxassislarning samarali rivojlanishi uchun quyidagi infratuzilma elementlari zarur:

1. Raqamli kutubxonalar va ma'lumotlar bazalari: Talabalar zamonaviy raqamli kutubxonalar va ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirish huquqiga ega bo'lishlari lozim. Bu ularga turli xil darsliklar, ilmiy maqolalar va texnik hujjatlarni o'rganish imkoniyatini beradi.

2. Kompyuter laboratoriyalari va texnologik jihozlar: IT fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan kompyuter laboratoriyalari zarur. Ular talabalar amaliy tajriba orttirishlari va dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishlari uchun muhim vositadir.

3. Bulut texnologiyalari va masofaviy ta'lim platformalari: Oliy ta'lim muassasalari bulut texnologiyalarini qo'llash orqali talabalar uchun masofaviy ta'lim olish imkoniyatini yaratishi mumkin. Bu ularga internet orqali istalgan vaqtda bilim olish va amaliy mashg'ulotlarni bajarish imkonini beradi.

Xalqaro hamkorlik va axborot texnologiyalari

Xalqaro hamkorlik IT orqali kasbiy rivojlanishda alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak mutaxassislarni rivojlantirishda chet el universitetlari va korxonalar bilan hamkorlik qilish, xalqaro sertifikatlar olish imkoniyatlarini kengaytirish talab qilinadi. Xalqaro tajriba talabalarni nafaqat texnik bilimlar bilan ta'minlaydi, balki ularga dunyo miqyosida raqobatlashish imkonini beradi.

1. Xalqaro sertifikatlar va tanlovlar: Talabalar IT sohasida xalqaro tanlovlar va sertifikatsiyalash jarayonlarida qatnashish orqali o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Bu ularga kelajakda xalqaro bozor talablariga moslashishga yordam beradi.

2. Xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar: Oliy ta'lim muassasalari xorijiy universitetlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yib, talabalarni turli davlatlarda o'qitish imkoniyatini yaratishi mumkin. Bu xalqaro bilim almashinuvi jarayonini kuchaytiradi va talabalar uchun global miqyosda rivojlanish imkoniyatini ochadi.

Xulosa

Axborot texnologiyalari fani oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy rivojlantirishning muhim jihatlaridan biridir. Zamonaviy o'quv jarayonlarida IT fanlarini keng qo'llash orqali talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion fikrlashni shakllantirish va bozor talablariga moslashish mumkin. Shunday qilib, zamonaviy mutaxassislar IT sohasida yetakchi bo'lib, mehnat bozorida o'z o'rnini topishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni axborot texnologiyalari fani orqali kasbiy rivojlantirish – bu zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. IT fanlari talabalarga zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bera oladigan ko'nikmalarni o'rgatish bilan birga, ularga kelajakda xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatini ham beradi. Bu jarayonda o'qituvchilarning roli, zamonaviy IT infratuzilmasi va xalqaro hamkorlik o'ta muhim ahamiyatga ega. Shu yo'nalishda olib borilgan izchil faoliyat natijasida oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarni IT orqali rivojlantirib, ularni zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'rayev N., Mahmudov A. – Oliy ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash va kasbiy rivojlanish. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.

2. Shodmonov I., Karimov B. – Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'lim muhitining rivojlanishi. Toshkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi, 2020.

3. Avloniy A. – Pedagogika va psixologiya. Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
4. Mustafayev S., Aliqulov H. – Axborot texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va rivoji. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2020.
5. Khamidov U. – Masofaviy ta'lim tizimlari va ularni joriy qilish imkoniyatlari. Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2021.

SCRATCH DASTURI VOSITASIDA “ALIFBO”NI O'RGATISH DAVOMIDA 1-SINF O'QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARI VA TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH (L HARFINI O'RGANISH)

Normurodova Sadoqat Xoliqulovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti.
E-mail: sadoqatnormurodova33@gmail.com

1. Materialni tushunish va eslab qolish

Tushunarli va esda qolarli: Vizual yordamlar, masalan, rasmlar, diagrammalar va videolar, murakkab tushunchalarni soddalashtirib, eslab qolishni osonlashtiradi.

Bolalarning xotirasini kuchaytirish: Rang-barang va ko'rgazmali materiallar bolalarning xotirasini mustahkamlaydi va ularni uzoq muddat esda saqlashga yordam beradi.

2. Diqqatni jalb qilish va qiziqishni oshirish

Diqqatni jalb qilish: Vizual yordamlar, masalan, animatsiyalar va interaktiv elementlar, bolalarning diqqatini jalb qiladi va ularni faol qatnashishga undaydi.

Qiziqishni oshirish: Vizual materiallar ta'lim jarayonini qiziqarli va jonli qiladi, bu esa bolalarda o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

3. Mavzuni chuqurroq tushunish

Konseptual tushunish: Diagramma va grafiklar murakkab tushunchalarni vizual ko'rsatib beradi, bu esa bolalarga mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Har xil o'quv uslublariga moslashish: Vizual yordamlar turli o'quv uslublariga mos keladi, shu jumladan, vizual va kinestetik o'quvchilar uchun.

4. Alohida ehtiyojlarga moslashish

Inkluziv ta'lim: Vizualizatsiya o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'limni qulaylashtiradi. Masalan, eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun vizual materiallar muhim ahamiyatga ega.

5. Faoliyatni rag'batlantirish va mustaqillikni rivojlantirish

Faol o'rganish: Vizual materiallar bolalarni faol ravishda o'rganishga jalb qiladi, ularga mustaqil ravishda yangi bilimlarni kashf etish imkonini beradi [1-2].

Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish: Rang-barang va qiziqarli vizual yordamlar bolalarda ijodkorlik va tasavvurni rivojlantiradi.

Scratch daturida yaratilgan dasturda o'quvchilar harf ustiga bosganda harf nomi “L” va shakli haqida ovozli xabar eshitadilar.

Ovozli xabarlar 1-sinf o'quvchilariga ta'lim jarayonida sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ularning ta'lim va o'qishga bo'lgan munosabatini yaxshilash, eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish va darslarni qiziqarli qilishda katta rol o'ynaydi. Quyida ovozli xabarlarining 1-sinf o'quvchilariga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ayrim misollar keltirilgan:

1. Eshitish orqali o'rganish

- Eslab qolish qobiliyati: Yosh bolalar ko'pincha eshitish orqali yaxshiroq o'rganadilar. Ovozli xabarlar ular uchun yangi ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtiradi.

- Faol ishtirok: Ovozli xabarlar o'quvchilarning darslarga faol ishtirokini ta'minlaydi. Ular savollarga ovozli javob berish yoki qo'shiqlarni kuylash orqali darslarda ishtirok etadilar.

2. Qiziqarli ta'lim

- Motivatsiya: Ovozli xabarlar darslarni qiziqarli va interaktiv qiladi. Turli ovozlari, qo'shiqlar va hikoyalar bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni darslarga jalb qiladi.

- Yaxshi o'zlashtirish: Ovozli o'yinlar va hikoyalar orqali o'rganish bolalarga ko'proq ma'lumotni qisqa vaqt ichida va osonroq o'zlashtirishga yordam beradi.

3. Nutq va eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish

- Nutqni rivojlantirish: Ovozli xabarlar bolalarning nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Ular to'g'ri talaffuz qilishni, yangi so'zlarni o'rganishni va muloqot qilish ko'nikmalarini oshiradilar.

- Eshitish ko'nikmalari: Ovozli xabarlarni eshitish bolalarning eshitish va diqqatni jamlash ko'nikmalarini yaxshilaydi.

4. Emotsional ta'sir

- Hissiy aloqadorlik: Ovozli xabarlar bolalarning hissiy aloqadorligini oshiradi. O'qituvchi yoki sevimli qahramonlarning ovozlari ularda iliq va pozitiv his-tuyg'ular uyg'otadi.

- Rag'batlantirish: Yaxshi ishlangan ovozli xabarlar va ovozli rag'batlar bolalarning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni rag'batlantiradi.


5. O'z-o'zidan ta'lim olish

- Mustaqil o'rganish: Ovozli xabarlar bolalarga mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatini beradi. Ota-onalar yoki o'qituvchilar yo'qligida ham bolalar mustaqil ravishda ovozli materiallar orqali o'qishni davom ettiradilar.

- Texnologiya bilan tanishuv: Ovozli xabarlar bolalarni texnologiya bilan tanishtiradi va ularda raqamli ko'nikmalarni rivojlantiradi [3-10].

Nazariy asoslar


Ovozli xabarlar 1-sinf o'quvchilari uchun juda foydali vositadir. Ular darslarni qiziqarli va interaktiv qilish, o'rganishni osonlashtirish, eshitish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va bolalarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bolalar o'zlarini rag'batlantirilgan his qiladilar va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradilar.



Shuningdek, ushu sahnada ham bolalar o'rganayotgan harflariga mos elementlarni tanlasalargina ularni nomlari ovozli xabarda yoki ularning ovozlari (masalan, hayvonlar ovozi)ni eshitishlari mumkin [11-12].



Ushbu sahnada esa o'qituvchi tomonidan berilgan vazifa: rasmlarga mos so'zlarni bo'g'inlar asosida yasashni va hosil bo'lgan gapni o'qishni o'rganadilar. Harf birikmalari ustiga bosilganda ovozli xabar tarqaladi. Harf birikmalarini tez bosish esa so'zni hozil qiladi. So'zlar orqali gap tuziladi (Lola olmani ol.).



1-sinf o'quvchilarini rag'batlantirish jarayonida ko'rgazmali va ovozli usullardan foydalanish ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishda va samarali o'zlashtirishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [13-15].

Xulosa

- 1-sinf o'quvchilariga "Scratch" dasturlash tili yordamida ma'lumotlarni vizuallashtirish bilan "Alifbo"ni o'rganishda o'quvchilarning diqqatlari va xotiralarini yaxshilash imkoniyatlari o'rganilgan.
- Ma'lumotlarni vizuallashtirish bilan o'quvchilarning diqqatlarini yaxshilash mumkinligi asoslangan.
- Ma'lumotlarni vizuallashtirish ma'lumotlarni o'quvchilar xotirasida mustahkam joylashishi va ong osti zahirasiga aylanishi ko'rsatilgan.
- "Scratch" dasturlash tilidan foydalanish o'quvchilarning ham ko'rish ham eshitish sensor kanallaridan foydalanishlarini ta'minlashi hisobiga ma'lumotlar yaxshi idrok qilinishi asoslangan.
- "Scratch" dasturlash tili o'quvchilarga "Alifbo"ni o'rgatishning samarali vositasi bo'la olishi va bu jarayonida ularga ijodiy fikrlashning solishtirish, analogiya kabi fikrlash usullarini o'zlashtirish usullari keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.G'aniyev "Technology for developing "Non-Standard Thinking" Skills" EXCELLENCIA international multi-disciplinary journal of education. Volume 02, Issue 06, 2024 ISSN (E):2994-9521
2. Леонтев А.Н. Избранные психологические произведения в 2 тт. – М. 1983 г – Т1 (Развитие высших форм запоминания 4-64)
3. Umarova G.M. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda diqqatning rivojlanishiga o'yin faoliyatining ta'siri. Raqamli ta'limning zamonaviy tendensiyalari – ilmiy amaliy konferensiya. 25.10.2023-yil.
4. Karinova V.M. Psixologiya – 2002-yil.
5. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya 1-2- kitob T. 2002-yil.
6. A.A.Xasanov. Kahoot – o'yinli o'quv platformasidan foydalanib talabalar bilimlarini baholash. "Экономика и социум" №12(103)-1 2022

TEXNIKA SOHASIGA OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI KASBIY TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Ortiqov Mironshoh Sodiqovich – t.f.f.d (PhD), dotsent
Axborot texnologiyalar va menejment universiteti,

Mazkur maqoladada biz temir yo'l transporti korxonalarida sirtqi ta'lim shaklida ishlaydigan mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari va OTMda kunduzgi bo'limda texnik mutaxassislar tayyorlashning an'anaviy tizimi bilan bog'liq holda ko'rib chiqishni davom ettiramiz. Ushbu yondashuvning qonuniyligi shundan iboratki, OTM bitiruvchisining oliy texnik ma'lumot to'g'risidagi diplomining bilim darajasi va shakllangan universal va kasbiy kompetensiyalari uchun DTSning malaka talablari bilan belgilanadigan qadriyatlarini birlashtirilgan va ta'lim shakllariga ko'ra diversifikatsiya qilingan. Shu sababli, sirtqi bo'lim talabalarini tayyorlash ko'p hollarda kunduzgi ta'lim shakli bilan bir xil o'quv rejalari, bir xil o'quv fanlari dasturlari, bir xil darsliklar va o'quv qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Biroq, oliy ta'limning kunduzgi va sirtqi tizimlarining maqsadlari bir xilligiga qaramay, ular "avtoritar ta'lim - o'z-o'zini o'rganish" didaktik aloqasidagi akademik ta'lim va talabalarining mustaqil ishi vaqti nisbatida tubdan farq qiladi" [5] va o'quv faoliyati subyektlari (OTM, o'qituvchilar, tyutorlar) va ta'lim subyektlari (sirtqi bo'lim talabalarini) o'rtasidagi kommunikativ aloqalar ta'minlanadi [4].

Masofaviy ta'limning birinchi xususiyati sirtqi bo'lim talabalarini uni mehnat faoliyati bilan birlashtirishi bilan bog'liq, ikkinchisi - talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi kommunikativ aloqa ma'lum telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi.

Talabalarni masofaviy o'qitish jarayonining komponentlari va xususiyatlari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari tasvirining ko'proq obrazli bo'lishi uchun biz uni 1.1-rasmda ko'rsatilgan grafik shaklida taqdim etamiz. Ushbu rasmda masofaviy ta'lim jarayoni (1), [1,2] ta'riflariga muvofiq, ikkita asosiy xususiyat/belgilar bilan ifodalanadi: o'rganishni mehnat bilan birlashtirish (2) va masofaviy ta'lim (3).


O'z navbatida, bu ikki asosiy xususiyat o'qitishning o'ziga xos pedagogik texnologiyalari, metodlari va vositalaridan foydalanishni taqozo etadi va masofaviy ta'lim tizimiga eksklyuziv xususiyatlarni beradi. Eng muhim o'ziga xos xususiyatlardan ba'zilari quyidagilar:

- sirtqi bo'lim talabasining o'quv faoliyati uchun vaqt tanqisligi (4), yuqori intensiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi (8) [2];
- sirtqi bo'lim talabalarining o'quv faoliyati uchun maxsus vaqtinchalik reglamentlar (5), talabalarga psixo-fiziologik yukni oshiradi va natijada ularni o'qitishda sog'liqni saqlashni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish zaruratini oshiradi (9) [3];
- sirtqi bo'lim talabasining maxsus ijtimoiy va didaktik maqomi, bu uni "kattalar o'rganuvchi shaxs" (6) [3,4] deb hisoblash va shunga mos ravishda o'z faoliyatida individual va talabaga yo'naltirilgan yondashuvdan to'g'ri foydalanish imkonini beradi (10) [1, 2, 4];
- haqiqiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati (7), bu OTMning temir yo'l transporti korxonalarini bilan tashkiliy-metodologik integratsiyalashuviga bo'lgan ehtiyoj va ehtiyojni keltirib chiqaradi (11) [2,3].

1.1-rasmdagi grafikning pastki qismida (3) raqami ostida sirtqi bo'lim talabalarini uchun masofaviy ta'lim shakli keltirilgan bo'lib, u bir qator xususiyatlar bo'yicha kunduzgi ta'limdan sezilarli farq qiladi. O'ziga xoslik, birinchi navbatda, o'quv jarayoni subyektlarining (12) pochta aloqasi, elektron pochta, internet kanallari, simli va sun'iy yo'ldosh aloqalari orqali aloqa qilish metodlari va vositalaridan foydalanishda, an'anaviy to'liq ta'lim tizimida bunday muloqot bevosita shaxslararo muloqot shaklida amalga oshiriladi. Bu o'ziga xoslik ixtisoslashtirilgan o'quv-uslubiy majmualarni (14), multimedia o'quv qo'llanmalarini, o'quv fanlarining modul dasturlarini, nazorat topshiriqlarini, bilim va kompetensiyalarni shakllantirish monitoringi bo'yicha testlarni va boshqa didaktik ishlanmalarni o'z ichiga olgan axborot-ta'lim portallarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishni taqozo etadi.

Masofaviy ta'lim tizimining yana bir xususiyati shundaki, hududiy masofada joylashganligi va kunduzi ish joyida bandligi tufayli sirtqi bo'lim talabasi deyarli o'qituvchi bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega emas va shuning faoliyati faqat mustaqil ravishda, o'z-o'zini boshqarish rejimida o'z-o'zini o'rganish bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi [220]. Bu holat sirtqi bo'lim talabalarida o'z mustaqil ta'lim faoliyatini o'z-o'zini tashkil etish/o'zini o'zi boshqarish, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Shunday qilib, sirtqi bo'lim talabalarining o'quv jarayonining asosiy maqsad va vazifalari bilan bir qatorda, o'zlarining mustaqil ishlari orqali o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish yoki (agar ular allaqachon ma'lum darajada shakllangan bo'lsa) yanada rivojlantirish zarurati tug'iladi [24, 25, 298] yoki (talabalarga chet tillarini o'rgatish amaliyotida qo'llanilganidek) o'z-o'zini o'qitish strategiyalarini rivojlantirishni talab qiladi [3]. Talabalarining sirtqi ta'limning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy, eng muhim omil - bu ularning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishi uchun o'qish vaqtining yetishmasligidir. Bu omil, bir tomondan, oliy ta'limning

DTSlarining kadrlar tayyorlash mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablari bilan, ikkinchi tomondan, cheklangan 5 yillik o'qitish muddati bilan, ishlab chiqarishdagi mehnatini OTM ta'limi bilan birlashtirgan shaxsning cheklangan psixofiziologik imkoniyatlari bilan obyektiv ravishda belgilanadi.




1-rasm. Masofaviy ta’lim jarayonining komponentlari o’rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari grafigi

Inson hayotining barcha turlarini uyg’un qondirish uchun zarur bo’lgan vaqt balansining tahlili, ishlab chiqarishdagi ishni OTMda o’qish bilan birlashtirgan holda pedagogik tajriba-sinov ishlari bilan tasdiqlangan (aniqlovchi eksperimentida 450 dan ortiq respondent ishtirok etgan). Toshkent transport universitetining 1-4-kurs sirtqi talabalarining aloqa vositalari shuni ko’rsatdiki, o’rtacha sirtqi talaba (sanitariya-gigiyena meyorlari, psixofiziologik va sog’liqni saqlash cheklovlariga rioya qilgan holda) aslida tegishli mutaxassislik bo’yicha kunduzgi o’quvchiga qaraganda ta’lim faoliyati uchun 1,5 - 1,8 baravar kam vaqtga ega [1,3]. Masalan, “Temir yo’l qurilishi, temir yo’l va temir yo’l inshootlari” mutaxassisligi bo’yicha muhandislar tayyorlash o’quv rejasida kunduzgi bo’lim talabari uchun 7222 soat, shundan auditoriya mashg’ulotlari uchun 3652 soat, mustaqil ishlash uchun 3570 soat belgilangan. Xuddi shu mutaxassislik bo’yicha sirtqi bo’lim talabari uchun o’quv rejasida o’quv yilida atigi 200 soat auditoriya mashg’ulotlari (5 yillik o’qish muddati uchun 1050 soat) va mustaqil ish uchun 3900 soat belgilangan. Hatto sirtqi bo’lim talabasining rejadagi o’quv yuklamasi ham kunduzgi bo’lim talabari yuklamasidan 1,45 barobar kam

ekanligini ko'rish qiyin emas. Yuqorida qayd etilgan aniqlovchi pedagogik tajriba sinov ishlariga ko'ra sirtqi bo'lim talabalarining o'rtacha kunlik vaqti bor-yo'g'i 3150 soatni tashkil etadi, ya'ni ularning real o'quv yuklamasi kunduzgi bo'lim talabalarining o'quv yuklamasidan 1,7 marta kam (1.2-rasm).

Shuni esda tutish kerakki, sirtqi ta'lim joriy etilishining boshida bu muhandislik lavozimlarida ishlaydigan mutaxassislar - amaliyotchilarning malakasini oshirish shakli, o'z kasbi bo'yicha qo'shimcha nazariy bilimlarni o'zlashtirish usuli sifatida ko'rib chiqilgan. O'tgan asrning 70-yillariga qadar OTMlarning sirtqi bo'limlariga qabul qilish talabgorning kasbiy faoliyatining predmeti - amaliyot va tanlagan muhandislik mutaxassisligining fan sohasiga qat'iy muvofiq amalga oshirilgan. Shubhasiz, ushbu toifadagi talabalar uchun 5 yillik o'qish davrida ta'lim dasturlarini yuqori sifat darajasida muvaffaqiyatli o'zlashtirish mumkin bo'ldi. Hozirgi vaqtda sirtqi ta'limda deyarli hech qanday cheklovlar mavjud bo'lmaganda, ishlab chiqarishda ishlaydigan sirtqi bo'lim talabalarining katta qismi OTMda o'zlashtirgan mutaxassislik profilidan tashqarida tahsil oladi. Shunday qilib, teshiruvchi pedagogik tajriba-sinovga ko'ra, Toshkent transport universitetida sirtqi fakulteti talabalaridan (142 nafar respondent) faqat 17% muhandislik lavozimlarida, 36% - texnik lavozimlarida, 28% - master lavozimda ishlaydi, qolganlari (19%) ular o'zlashtirgan muhandislik mutaxassisliklari profiliga mos kelmaydigan ishchi lavozimlarda ishlaydi [...].



2-rasm. Asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun vaqt miqdori (soatlarda): kunduzgi (a) va sirtqi (b) talabalar uchun rejalashtirilgan, haqiqiy (v) - sirtqi bo'lim talabalarini uchun (aniqlovchi pedagogik tajriba-sinov bo'yicha)

Ko'rinib turibdiki, sirtqi bo'lim talabalarini o'rtasida obyektiv ravishda mavjud bo'lgan o'quv vaqti tanqisligi sharoitida ularning asosiy ta'lim dasturlarini samarali o'zlashtirishi va buning natijasida yuqori darajada umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarning tegishli klasterlarini shakllantirishda darajasi yuqori intensiv pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llagandagina amalga oshishi mumkin. Mahalliy va ilg'or xorijiy pedagogika arsenalida bunday innovatsion texnologiyalar mavjud bo'lib, ularni masofaviy ta'lim jarayoniga, o'rganilayotgan va o'zlashtirilgan fan sohasiga, o'quv faniga, o'quv faoliyati turiga moslashtirish orqali muvaffaqiyatli qo'llash mumkin [1, 5].

Xulosa: Masofaviy ta'lim jarayoni va kunduzgi bo'lim talabalarini o'qitish jarayoni o'rtasidagi yana bir muhim farq shundaki, sessiyalararo vaqtlarda (va bu o'quv yilining ko'p qismi) sirtqi bo'lim talabalarini OTMdan tashqarida o'qituvchilarsiz, sof mustaqil tarzda o'qishlari kerak. Ushbu obyektiv mavjud voqeliklar, bir tomondan, qo'shimcha ravishda, sirtqi

bo'lim talabalarining mustaqil o'quv ishlari orqali o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi boshqarishga o'rgatishini, ikkinchi tomondan, sirtqi bo'lim talabalarini ta'minlashni o'z ichiga olgan muammolar va ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллина О.А. Мониторинг качества профессиональной подготовки. //Высшее образование в России, 1998, №3. - С.35.
2. Абульханова-Славская К.А. Российский менталитет: кросс-культурный и типологический подходы. Российский менталитет. - М., 1997. С. 7-37.
3. Агеева В.А. Психологические аспекты оценки персонала // Экономика железных дорог. - 2004. №10. - С. 59-63.
4. Алексеева М.М. Культура экономической организации И Соц.-полит. журн. - 1995. - №1. - С.130-140.
5. Алиева С.В. Инновационная управленческая культура - основной ресурс общества //Государственная служба. - 2005. - № 3.
6. Анисимов О.С., Деркач А.А. Основы общей и управленческой акмеологии. - ИМ., 1995.

ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Razzoqov I.D., Davronova M.I., Davronova F.I.

Qarshi davlat universiteti

razzoqov_79@mail.ru

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. Iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek, ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda.

Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, sifatli ta'lim va xizmatlar deganidir. "Raqamli" atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan

axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadi qo'yilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Yurtimizdagi nufuzli xususiy o'quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta'limni yo'lga qo'yimoqda. Bu jarayonning o'zi ham mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta'limni "raqamlashtirish" muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir [2]. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta'sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma'ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Raqamlashtirish yo'nalishi bo'yicha faollashtirish barcha biznes tuzilmalarida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarida "tajovuzkor", ayniqsa iqtisodiy samarasi topilgan joylarda, barcha darajalarda qo'llab-quvvatlanmoqda. Iqtisodiyotda ro'y berayotgan jarayonlar dinamikasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha takliflarni tahlil qilish va ishlab chiqishda ta'lim hamjamiyatining faol pozitsiyasini talab qilmoqda.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?

Birinchiidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhiki aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining so'ngi yutuqlarini o'zlashtirishga shartsharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchiidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, media studiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani ta'lim muassasalarida qo'llash. Uchinchiidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam

integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va mul'timediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish. Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferentsaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish. Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim.

Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz. Alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog'liq, ya'ni ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o'qish bilan yakunlashgacha. Biz ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir.

Natijada o'qish jarayoni yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar - bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bir tomondan muayyan qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarsada boshqa tomondan turli yutuqlarni qo'lga kiritilishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon induvidial salohiyatli o'quvchilarning yanada rivojlanishi holatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020 y.
2. Abdullayev M., Saidahrar, G., & Ayupov, R. Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari. 2020 y.

BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA ENERGETIKA KASBIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTR TA'MINOTI FANINING AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAMDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

S.M.Aliqulova

“TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiya instituti.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak energetiklarni zamon talablari asosida tayyorlash elektr ta'minoti fanini o'qitish sifatiga bog'liq, elektr ta'minoti fanining asosiy vazifalaridan biri aniq bir kasb bo'yicha talabalarda shakllantirilishi kerak bo'lgan kasbiy

ko'nikmalar asosini tashkil etuvchi bilim, ko'nikmalar va malakalar tizimini hosil qilishdan iborat. Mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarning amaliy faoliyati uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Bunda elektr ta'minoti fani mazmuni, o'qitish maqsadi va vazifalari, metodlari, shakllari, vositalari, o'tkazilish joyi, jihozlanishi, ular uchun ajratilgan vaqt bo'yicha boshqa fanlardan farqli bo'ladi, chunki elektr ta'minoti fani bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda doimo ushbu sohaga tegishli moddiy-texnik baza, o'quv-axborot ta'minoti va malakali professor-o'qituvchilarlar bilan ta'minlash ta'limda ustuvor vazifadir.

Elektr ta'minoti fanini o'qitishda texnikaviy faoliyatlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunda professor-o'qituvchilar fanni o'qitish jarayonida uning zamonaviyligiga e'tibor berishi ya'ni, har bir fan mazmuniga mos materiallarni saralash va tanlash lozim.

S.Yu.Ashurova o'z tadqiqotlarida texnika oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni modulli texnologiyalar asosida o'qitish masalalarini yoritib bergan.

G.V.Yeldashevaning "Masofaviy ta'lim orqali umumkasbiy fan professor-o'qituvchilarlari malakasini oshirishning o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish" mavzusidagi dissertasiya ishida maxsus fan professor-o'qituvchilarlari masofaviy malakasini oshirishning o'quv-uslubiy ta'minoti tarkibiy qismlari aniqlangan va asosiy talablar yoritib berilgan.

K.M.Umatalievaning tadqiqot ishida umumkasbiy fanlar professor-o'qituvchilarlarini malakasini oshirishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari o'rganilgan

D.Tojiboevaning "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida energetika fanlaridan dars o'tishda qo'llaniladigan mavjud metodlar dars o'tishni tashkil etish va uni takomillashtirish, talabalarda energetika fanlardan dars o'tish malakasini hosil qilish kabilar misollar bilan asoslagan.

Qo'llanmada ma'ruza matnini tayyorlash namunalari va seminar dars o'tishning uslubiy ko'rsatmalari berilgan. Qo'llanma energetika fanlaridan dars o'tishni tashkil etish va o'qitishda hozirgi zamon interaktiv metodlaridan keng foydalanishni o'rganishda yordam beradi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida elektr ta'minoti fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Chunki innovatsion ta'lim bo'lajak mutaxassislarni o'z kasbiy tayyorgarligida, ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarishda ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalar, texnikaviy, texnologiya boshqaruvi va mutaxassislikka oid bo'lgan yangiliklarni joriy etish jarayonini amalga oshiradi.

Q.T.Olimov mutaxassislik fanlarini mazmun, mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. O'quv materialida texnikaga bog'liq masalalar yoritilgan mutaxassislik fanlari. Bularga mahsulot ishlab chiqarish va mehnat jarayonida ishlatiladigan mashinalar va uskunalarning tuzilishi, ishlash prinsipi, ta'mirlanishi hamda ishlatish qoidalari, ularning konstruksiyalarini takomillashtirish, hisoblash, loyihalash, avtomatlash-tirish; mehnat vositalari, moslamalar, asboblari va ular qismlarining tuzilishi; mehnat ob'ektlari hisoblangan mashina va uskunalarni o'rnatish, yig'ish, ta'mirlash, sozlash metodlari va usullari; mexanizm va detallarni qayta tiklash hamda ta'mirlashning zamonaviy usullari, avtomatik tizimlar va eksperimental qurilmalar tuzilishlari va ishlash tartiblari yoritilgan o'quv materiallari kiradi.

2. O'quv materiallarida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq masalalar yoritilgan mutaxassislik fanlari. Bularga alohida mutaxassislikning butunligini tavsiflaydigan texnologik va mehnat jarayonlari, texnologik jarayonlarni loyihalash va kompleks mexanizasiyalashtirish, avtomatlashtirish, ishlab chiqarish korxonalarini loyihalash, yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, nazorat qilish va boshqarish tavsiflari; ilmiy tadqiqot ishlari va tajribalar olib borish, xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va gigienasi hamda mehnat qonunchiligi asoslari kiradi.

3. O'quv materialida xom-ashyo materiallariga bog'liq masalalarni yorituvchi mutaxassislik fanlari. Bularga ishlab chiqarishda qo'llaniladigan turli materiallar va xom ashyolarning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlari, mexanik-texnologik xossalari eksperimental aniqlash va tayyorlanish texnologiyasini yorituvchi o'quv materiallari kiradi. Shuningdek xom ashyo materiallariga ishlov berishdagi jarayonlar, hisoblashlar va eksperimental izlanishlarni yo'naltirgan o'quv materiallarni o'z ichiga oladi.

4. Ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiyoti to'g'risida o'quv materiallarini o'zida qamrab olgan mutaxassislik fanlari. Ushbu guruhga barcha mutaxassislik bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashda o'rganiladigan (ishlab chiqarish, mehnatni tashkil etish va iqtisodiyot asoslari) o'quv materiallari, xo'jalik va ishlab chiqarishni tashkil etish, yuritish, boshqarish, axborot texnologiyalari, ilg'or uslublarni qo'llash va boshqalarni kiritish mumkin.

Maxsus fanlar professor-o'qituvchilarlaridan yuksak mahorat, kasbiy bilim va tajriba talab etiladi. Shuning uchun ham elektr ta'minoti fanini o'qitishda endi ish boshlagan professor-o'qituvchilar (yoxud ishlab chiqarish ta'limi ustasi)ning faoliyati tajribali ustoz nazoratida bo'ladi. Elektr ta'minoti fanini o'qitishda professor-o'qituvchilarning o'quv-metodik ta'minotining yuqori darajada bo'lishi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunda o'quv-metodik ta'minot, professor-o'qituvchilarning ko'p yillik tajribasi, yangi adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar asosida shakllantiriladi. Elektr ta'minoti fani bo'yicha zamonaviy o'quv-metodik majmualar yaratish o'qitishning didaktik ta'minotini mustahkamlashda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etishda, nazariy va amaliy mashg'ulotlarning uzviyligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha xorijiy tajribalarga nazar solsak, hozirgi vaqtga kelib ko'plab Yevropa mamlakatlarida ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ularda oliy ta'lim tizimiga aniq standart talablarining qo'yilishi, maqsad, vazifalar asosida talabalarni elektirk kasbiga oid kompetensiyalarga safarbar etish bilan birga ta'lim sur'atini ma'lum darajada jadallashtiradi. Ularda faollik, mustaqil fikrlash, ijod qilish va yangi bilimlarni bilish faoliyatini rivojlantiradi. Yevropa mamlakatlarida ta'limning davlat va nodavlat sektorning faolligini oshirish alohida ahamiyat berilgan.

Kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning omillaridan biri ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishidir. Shu jihatdan ham Buyuk Britaniyada ilmiy ishlarni bajarish uchun alohida maqsadli mablag'lar ajratilgan. Bu ma'lum darajada professor-o'qituvchilar hamda talabalarni ilmiy ishlardagi ishtiroki va kasbiy faoliyatini yuqori darajaga ko'tarishga olib keladi. Buyuk Britaniyada "Ta'lim sifati" agentliginig xulosasiga ko'ra, "Texnika oliy ta'lim muassasalari"da ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyo mamlakatlarining deyarli barchasida "Texnika oliy

ta'lim muassasalari"da ta'lim sifati ko'rsatkichlari bevosita ular tayyorlagan kadrlar saviyasi va ularning jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlash talablariga javob berishi bilan baholanadi. Ushbu masala doim dolzarb bo'lib kelgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tayyorlangan kadrlar, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissalar u yoki bu davlatni rivojlanish darajasini belgilaydi. Demak, "Texnika oliy ta'lim muassasalari"ga qo'yilgan talablar, ulardagi ta'lim jarayonining sifati va yakuniy natijalarining saviyasi bilan baholanadi. Bunda ta'lim oluvchining bilim darajasi, ta'lim beruvchining kompetensiyasi va ushbu jarayonni tashkil etishning moddiy-texnik, o'quv-uslubiy va me'yoriy-xuquq bazalari asosiy omillar bo'lib hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsiyaviyligi mamlakat xalqaro raqobatbardoshligining asosiy omili bo'lib, uni universitetlar va davlat-xususiy sheriklik doirasidagi tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmi vositasida ta'minlash mumkin. Globallashuv sharoitida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish strategiyasini shakllantirish orqali sohani takomillashtirish, jumladan, korporativ-klaster yondashuvi doirasida boshqaruvning innovatsion shakllarini tashkil etish, xorijiy OTMlar ishtirokini kengaytirish, maqsadli jamg'arma (endaument fond)larni shakllantirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, xususiy-davlat sherikligi doirasida tadbirkorlik tuzilmalarini jalb etish lozim. Milliy ilmiy-ta'limiy innovatsion klasterlar yaratish orqali O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish kun tartibidagi masaladir. Klaster deganda sanoat korxonalarini bilan birlashtirilgan va ular bilan hamkorlikda turli darajada o'zaro ta'sir qiluvchi ta'lim va ilmiy muassasalar majmuasini tushunish maqsadga muvofiq. Klasterning innovatsionligi uning tuzilmasida ko'zga tashlanadi. Tuzilma tarkibiga ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, texnologiyalar transferi markazlari, ilmiy laboratoriyalar, texnoparklar, qayta tayyorlash markazlari, korxonalar kiradi. Ilmiy-ta'limiy innovatsion klasterlarni yaratishning o'ziga xos xususiyatlari turli darajadagi raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, shuningdek, yuqori malakali ishchilar nufuzini oshirishni nazarda tutadi. Institutlar, oliy o'quv yurtlari va ishlab chiqarish majmualarining ilmiy, o'quv va ishlab chiqarish faoliyatini integratsiyalash jarayoni innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida kasbga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda umumkasbiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayt etish mumkin:

- Professor-o'qituvchilarlarining pedagogik faoliyati sifati monitoringini olib borish, muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishning izchil tizimini ishlab chiqish va joriy qilish;

- Elektr ta'minoti fanlarning metodik ta'minotini yaxshilash, ta'lim muassasalarini kasbga doir zamonaviy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar bilan boyitish;

Xulosa qilib aytganda xalqaro ta'lim tizimi sub'ektlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy aloqalarni kengaytirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligidagi o'ziga xos ustunliklarni yaratish vazifasi turibdi. Bu sa'y-harakatlar xalqaro loyiha va dasturlarda, xorijiy OTM va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan qo'shma ilmiy-ta'limiy klasterlar doirasida tijoriy aloqalar o'rnatish kabilarni ko'zda tutadi. Zotan xalqaro ta'lim klasterlari muayyan

tarmoq doirasidagi mahalliy va xorijiy korxonalar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va oliy o'quv yurtlari majmuasi bo'lib, ularning maqsadi milliy va xalqaro mehnatda raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ilmiy va ta'lim makonida xalqaro faoliyatni kengaytirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv -uslubiy majmua. (Tuzuvchilar: N.A. Muslimov, M.Usmonboyeva, M.Mirsoliyeva) T.: 2016 y. 227 bet.
2. V.Karimova Psixologiya. O'quv qo'llanma. -T.: 2002.
3. K.D.Olimov "Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar" moduli bo'yicha o'uv -uslubiy majmua. 2015Y. 81 bet
4. E.M.Murtazayev., T.G.Abdiyev, Sh.U Xazratkulova., O.U.Eshmanov, N.O'.
5. Sarmonov Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Qarshi:, Intellect» nashriyoti, 2022. – 247 b

DASTURLASH TILLARI VA TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNING AHAMYATI

Sa'dullayev Avaz Akmal o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- 1.o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;
- 2.test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;
- 3.mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- 4.o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Multimedia dasturiy vositalari dasturiy mahsulotlarning nisbatan yangi sinfi hisoblanadi. U ma'lumotlarni qayta ishlash muhitining o'zgarishi, lazerli diskning paydo bo'lishi, ma'lumotlar tarmoqli texnologiyasining rivojlanishi natijasida shakllandi. Sun'iy intellekt tizimlari. Bu sohada izlanishlarni to'rt yo'nalishga bo'lish mumkin:

— ijodiy jarayonlarni imitatsiya qiluvchi tizimlar. Ushbu yo'nalish kompyuterda o'yinlarni (shaxmat, shashka va h.k.), avtomatik tajriba qilishni va boshqalarni amalga oshiradigan dasturiy ta'minotni yaratish bilan shug'ullanadi;

— bilimlarga asoslangan intellektual tizimlar. Ushbu yo'nalishdagi muhim natijalardan biri ekspert tizim- laming yaratilishi hisoblanadi. Shu tufayli sun'iy intellekt tizimlari ma'lum va kichik sohalaming eksperti sifatida tan olinishi va qo'llanishi mumkin;

— EHMLaming yangi arxitekturasini yaratish. Bu yo'nalish sun'iy tafakkur mashinalari (beshinchi avlod EHMLari) ni yaratish muammolarini o'rganadi;

— intellektual robotlar. Bu yo'nalish oldindan belgilangan manzil va maqsadga erisha oladigan intellektual robotlar avlodini yaratish muammolari bilan shug'ullanadi.

Hozirgi paytda dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalarini yaratish bilan bog'liq yo'nalish tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunday uskunaviy vositalar dasturlar yaratish va sozlash uchun quvatli hamda qulay vositalarni tashkil etadi. Ularga dasturlar yaratish vositalari va Case texnologiyalar kiradi. Dasturlar yaratish vositalari. Ushbu vositalar dasturlar yaratishda ayrim ishlab chiqarish avtomatik ravishda bajarishni ta'minlovchi dasturiy tizimlarni o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- kompilyator va interpretatorlar;
- dasturlar kutubxonasi;
- turli yordamchi dasturlar.

Kompilyator dasturlash tilidagi dasturiy mashina kodidagi dasturga aylantirib beradi. Interpretator yuqori darajadagi dasturlash tilida yozilgan dasturning bevosita bajarilishini ta'minlaydi. Dasturlar kutubxonasi oldindan tayyorlangan dasturlar to'plamidan iborat. Dasturlar yaratish vositalariga Makroassembler MASM, Visual C++ for Windows Professional Edition kompilyatori, Visual Basic for Windows va boshqalar kiradi. Amaliy dasturiy ta'minot foydalanuvchi aniq bir vazifalari (ilovalari)ni ishlab chiqarish va bajarish uchun mo'ljallangan. Amaliy dasturiy ta'minot tizimli DT, xususan, operatsion tizimlar boshqariluvchi ostida ishlaydi. Amaliy DT tarkibiga quyidagilar kiradi:

- turli vazifalardagi amaliy dasturlar paketlari;
- foydalanuvchi va AT umumiy ish dasturlari.

Amaliy dasturlar paket (ADP)lari sinfiga quyidagilar oiddir:

- matnli (matnli prosessorlar) va grafik muharrirlar;
- elektron jadvallar
- ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT);
- integratsiyalangan paketlar;
- CASE-texnologiyalar;
- eksport tizimlar kobiklari va sun'iy intellekt tizimlari.

Odatda, dasturiy ta'minot bilan tanishishni amaliy dasturlarning ish toifasidan boshlanadi va kompyuter tizimi bilan o'zaro aloqaning birinchi amaliy ko'nikmalarini hosil qilinadi. Grafik muharrirlari. Bu grafik tasvirlarni yaratish va ishlov berish uchun mo'ljallangan dasturlarning juda keng toifasi (sinfi)dir. Ushbu toifaga rastr muharrirlari, vektor muharrirlari va uch o'lchamli grafika (3D-muharrirlari)ni yaratish va ularga ishlov berish uchun ishlatiladigan dasturiy vositalar kiradi. Rastr muharrirlari grafik ob'ektlar yorug'lik hamda rang xususiyatlariga ega bo'lgan rastrni tashkil etuvchi ya'ni nuqtalar kombinatsiyalari shaklida qo'llanadi. Bunday yondashuv grafik tasvir ko'plab yarim tonlarga ega bo'lganida va ob'ektni tashkil qiluvchi elementlar (unsurlar) haqidagi axborot, ularning shakli to'g'risidagi xabar- larga qaraganda muhimroq bo'lgan hollarda samarali. Bu fotografik

va matbaa tasvirlari, ularning retushi (chiziqlari va aksini to'g'rilash) uchun fotoeffektlar va badiiy kompozitsiyalar (kallajlar) yaratish uchun qulay. Rastr muharrirlari bilan yangi tasvirlar yaratish imkoniyatlari cheklangan va har doim ham qulay emas. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi. Ma'lumotlar bazasi deb jadval tuzilmalarga tushirilgan ma'lumotlarning katta to'plamlariga aytiladi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar: ma'lumotlar bazasini bo'sh (to'latilmagan) tuzilmasini yaratish; uni to'ldirish vositalarini yoki boshqa bazaning jadvallaridan ma'lumotlar importini taqdim etish; ma'lumotlarga yo'llash, ulardan foydalanishni osonlashtirish imkonini ta'minlash, shuningdek, izlash va filtrlash (saralash, tozalash) vositalarini taqdim etish. Ma'lumotlar bazalarini boshqarishning ko'pgina tizimlari ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga ishlov berish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Natijada, ma'lumotlar asosida ma'lumot bazalarining yangi jadvallarini yaratish mumkin. Tarmoq texnologiyalarining yoyilishi munosabati bilan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlaridan butun jahon kompyuter tarmog'ining serverlarida joylashgan uzoqlashtirilgan va taqsimlangan resurslar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lish ham talab qilinadi.

Ekspert tizimlarini qo'llash ilmiy-texnik faoliyatning bilimlar muhandisligi deb ataluvchi alohida sohasiga bog'liqdir. Bilimlar muhandislari bular ekspert tizimini ishlab chiqaruvchilar (dasturchilar) va fan-texnikaning mukammal sohalaridagi yetakchi mutaxassislari o'rtasidagi bo'g'in sifatida qaraluvchi, alohida malakali mutaxassislardir. HTML muharrirlari (Web-muharrirlari). Bu o'zida matn va grafik muharrirlarining xususiyatlarini birlashtiruvchi muharrirlarning alohida toifasidir. Ular

Passiv himoya qilish vositasi sifatida zaxira nusxalari olishga foydalaniladigan dasturlar ishlatiladi. Ko'pincha ular arxiv dispetcherlari (arxivatorlari)ning bazaviy xususiyatlariga ega bo'ladi. Faol himoya vositalari sifatida antivirus dasturiy vositalari qo'llaniladi. Ma'lumotlarni ruxsat olmay ularga qo'llash, ularni ko'rib chiqish va o'zgartirishdan himoya qilish uchun kriptografiyaga asoslangan maxsus tizimlardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sa'dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). The essence of new pedagogical terms during the reforms implemented in the field of education. "Science Shine" International scientific journal, 14(1).
2. Isomiddinova, N. M. (2024). Principles of Organization and Development of Continuing Education. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(3), 285-288.
3. Sa'dullayev, A. A. o'g'li. (2023). An effective way to detect computer network anomalies. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 401-404.
4. Sa'dullayev, A. A. o'g'li. (2023). Types of computer networks and their analysis. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 13-16.
5. Norboboyeva, M. I. (2024). Traditional and modern approach to education process. Golden brain, 2(7), 17-21.
6. Sa'dullayev, A. A. o'g'li., & Norboboyeva, M. I. (2024). Traditional and modern approach to education process. Golden brain, 2(7), 17-21.
7. Sa'dullayev, A., & O'ktamova, S. (2024). Iqtisodiyotda aktdan foydalanish tamoyillari. Ilm-fan va ta'lim, (6 (21)).

THE POWER OF AUTOMATION: UNLEASHING THE POTENTIAL OF AUTO MOUSE CLICKER

Karabayev Ibragim Turdiyevich
Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li
Termiz State University of Engineering and Agrotechnology

In today's fast-paced digital world, where time is of the essence, finding ways to streamline tasks and increase productivity has become crucial. Whether you're a gamer looking to optimize your gaming experience, a software developer seeking to automate testing processes, or a professional aiming to simplify repetitive tasks, an auto mouse clicker can be a game-changer.

An auto mouse clicker is a software tool that automates mouse clicks and movements, allowing users to record and replay actions with precision and efficiency. By eliminating the need for manual input, an auto mouse clicker can save valuable time and effort, enabling users to focus on more important aspects of their work or leisure activities.

The applications of auto mouse clickers are diverse and span across various fields. Gamers can utilize them to automate repetitive actions in games, such as farming resources or performing monotonous tasks. Software developers can benefit from auto mouse clickers by automating testing processes, simulating user interactions, and ensuring the accuracy and consistency of their software. In the business world, auto mouse clickers can be employed for data entry, form filling, web scraping, and other repetitive tasks, enhancing productivity and reducing the risk of errors.

In this article, we will delve into the concept of auto mouse clickers, exploring their applications, benefits, and how they can revolutionize your workflow. Whether you're a seasoned user or new to the world of automation, this article will provide valuable insights into the power of auto mouse clickers and how they can unlock new levels of efficiency and effectiveness in your daily tasks.

Understanding Auto Mouse Clicker

An auto mouse clicker is a software tool designed to automate mouse clicks and movements. It allows users to record a series of mouse actions and replay them at a later time, eliminating the need for manual input. This automation can be incredibly useful for tasks that involve repetitive clicking or complex sequences of actions.

The functionality of an auto mouse clicker typically involves two main components: recording and playback. During the recording phase, the software captures the user's mouse movements, clicks, and other actions, creating a script or macro that represents the sequence of events. This script can then be saved and executed later during the playback phase.

Auto mouse clickers offer a range of customization options to tailor the automation to specific requirements. Users can adjust parameters such as the interval between clicks, the duration of each click, and the precise coordinates on the screen where the clicks should occur. This flexibility allows for fine-tuning the automation to match the desired outcome.

The applications of auto mouse clickers are diverse and cater to various industries and user needs. Gamers, for instance, can utilize auto mouse clickers to automate repetitive tasks in games, such as grinding for resources, leveling up characters, or performing specific

actions. This automation can save significant time and effort, allowing gamers to focus on more enjoyable aspects of gameplay.

In the realm of software development, auto mouse clickers can be invaluable for automating testing processes. By simulating user interactions, developers can ensure that their software functions correctly under various scenarios. This automation not only saves time but also improves the accuracy and consistency of testing procedures.

Auto mouse clickers also find applications in the business world. They can be used for data entry tasks, where repetitive clicking and form filling are required. Additionally, auto mouse clickers can assist in web scraping, extracting data from websites automatically. These tools can significantly enhance productivity by reducing manual effort and minimizing the risk of errors.

In conclusion, an auto mouse clicker is a powerful software tool that automates mouse clicks and movements. It offers customization options, making it adaptable to various tasks and industries. Whether you're a gamer, a software developer, or a professional seeking to streamline repetitive tasks, an auto mouse clicker can be a valuable asset, saving time, improving accuracy, and boosting productivity.

Applications of Auto Mouse Clicker

Auto mouse clickers find applications in various fields. Gamers can use them to automate repetitive actions in games, such as farming resources or leveling up characters. Software developers can automate testing processes by simulating user interactions. In the business world, auto mouse clickers can be used for data entry, form filling, and web scraping. They can also assist individuals with disabilities by reducing the need for manual mouse movements.

Benefits of Auto Mouse Clicker

Increased Efficiency: One of the primary benefits of using an auto mouse clicker is the significant increase in efficiency. By automating repetitive tasks that involve mouse clicks, you can save a substantial amount of time and effort. Instead of manually performing the same actions over and over again, the auto mouse clicker can execute them with precision and speed, allowing you to focus on more important aspects of your work or leisure activities. This increased efficiency can lead to higher productivity and improved overall performance.

Accuracy and Consistency: Manual mouse clicks can be prone to errors, especially during long and repetitive tasks. With an auto mouse clicker, you can ensure precise and consistent actions every time. The software executes the recorded mouse clicks exactly as they were recorded, eliminating the risk of human error. This accuracy and consistency can be particularly beneficial in tasks that require a high level of precision, such as data entry or software testing. By reducing the chances of mistakes, an auto mouse clicker can help maintain the quality and integrity of your work.

Multitasking and Simultaneous Actions: Auto mouse clickers enable users to perform multiple actions simultaneously. You can automate clicks on different parts of the screen or execute complex sequences of actions with just a few clicks. This capability allows for efficient multitasking, as you can automate various tasks and let the auto mouse clicker handle them simultaneously. For example, you can automate clicks on specific buttons while

simultaneously typing or interacting with other applications. This feature can significantly enhance your productivity by saving time and enabling you to accomplish more in less time.

Customization and Flexibility: Most auto mouse clickers offer customization options, allowing you to adjust the speed, interval, and duration of clicks. This flexibility ensures that the automation aligns with your specific requirements. You can fine-tune the settings to match the desired outcome and optimize the automation process. For instance, you can adjust the click interval to simulate human-like behavior or set specific delays between clicks to accommodate the response time of certain applications. Customization options also enable you to adapt the auto mouse clicker to different applications and tasks, making it a versatile tool for various industries and purposes.

Repetitive Strain Injury Prevention: Constant manual mouse clicking can lead to repetitive strain injuries (RSIs) such as carpal tunnel syndrome. By using an auto mouse clicker, you can reduce the strain on your hand and wrist, minimizing the risk of RSIs. The automation of repetitive clicking tasks allows for better ergonomics and can contribute to maintaining a healthier and more comfortable work environment. By reducing the physical strain associated with repetitive clicking, an auto mouse clicker promotes better long-term health and well-being.

Time-Saving and Productivity Boost: Automating repetitive tasks with an auto mouse clicker can save a significant amount of time. Whether it's filling out forms, clicking through menus, or performing monotonous actions, the automation process can be completed in a fraction of the time it would take to do manually. This time-saving benefit allows you to allocate your valuable time and energy to more important and meaningful tasks, ultimately boosting your productivity and efficiency.

References

1. N.R. Yusupbyekov, R.A. Aliyev, A.N. Yusupbyekov, R.R. Aliyev Intelligent management systems and decision-making. Textbook for technical schools. "Uzbekistan National Encyclopedia" state scientific publishing house. Tashkent - 2015. 572b.
2. Abdukadirov A., Karaboyev I.T., Esonov H.M. Digital control systems. Study guide. Termiz publishing center. Termiz-2024.160b.
3. Esonov H.M. Providing intellectual operational mechanisms of management. Monograph. Termiz publishing house. Termiz-2024.160b.

TA'LIM JARAYONIDA ADAPTATSIYANING ZAMONAVIY TUSHUNCHALARI

D.I.Muqumova

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalar
muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, dotsent

d.mukimova.1975@mail.ru

Nasirullaeva D.X

Toshkent INXA universitetining Iqtisodiy prognozlashtirish va
moliyaviy rejalashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi

d.nasirullayeva@inha.uz

Oliy o'quv yurtida ta'lim olish talabalarning salomatligi, ruhiy va fiziologik moslashuvchanligiga yuqori talablar qo'yadi. P.A. Baygujin (2012) ma'lumotlariga ko'ra, pedagogika oliy o'quv yurtida o'qiyotgan talaba qizlarning o'quv-kasbiy faoliyati sharoitlari mehnatning uchinchi darajadagi zo'riqishiga mos keladi. Shuningdek, oliy o'quv yurtida ta'lim olish davrida talabalar bir qator nospesifik (ekologik, iqlim-geografik) va spetsifik (yosh o'zgarishlari, axborot va emotsional yuklamalar, harakatsiz turmush tarzi) omillar ta'siriga duch kelishadi, bu esa ularning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Agadjanyan N.A., 2006; Sevryukova G.A., 2012; Kazin E.M., 2013).

N.A. Agadjanyan (2003) adaptatsiya haqida keng qamrovli tasavvurni beradi: "Adaptatsiya – mavjud bo'lish sharoitlariga moslashish, tirik moddaning asosiy xususiyatlaridan biri – shunchalik keng qamrovli, ki u hayot tushunchasi bilan bir xil deb hisoblanadi" (Agadjanyan N.A. va hamkasblari, 2003).

Zamonaviy inson doimiy o'zgarib turadigan tabiiy-iqlim, antropogen, ijtimoiy va boshqa muhit omillari majmuasiga doimiy ravishda moslashishi kerak (Agadjanyan N.A., Polunin I.N., 1997; Gubareva L.I., 2001; Sevryukova G.A., 2012; Gubareva L.I., Prasolova O.V., 2013).

Shuning uchun hozirgi kunda adaptatsiyani jarayon, natija va funksional holat darajasi sifatida ko'rib chiqiladi (Gubareva L.I., 2001; Drujilov S.A., 2002 va boshqalar).

Biologiyada adaptatsiyani organizmlarning mavjud bo'lish sharoitlariga moslashuv jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi, bu jarayonda organizmning muayyan muhitda yashash qobiliyatini oshiradigan eng foydali belgilar va xususiyatlar shakllanadi (Agadjanyan N.A. va hamkasblari, 2006).

S.A. Drujilov "adaptatsiyani jarayon sifatida ko'rib chiqishda uning vaqt xususiyatlari, adaptatsiya bosqichlari, ularning davomiyligini ko'rib chiqiladi", ya'ni adaptatsiya jarayonini yagona mantiqiy va vaqt ketma-ketligiga bog'laydigan elementlarni ko'rib chiqiladi (Drujilov S.A., 2002).

Amerikalik fiziolog W.B. Kennon (1929) ning "adaptatsiya" atamasini birinchi bo'lib taklif qilgan ishida tashqi muhit omillarining ta'siriga nisbatan adaptiv reaksiyalarning xususiyati va spektri, bir tomondan, ta'sirning o'ziga xos xususiyatlari (tabiat, miqdor, omillarning kuchi, ularning ta'sir davomiyligi) bilan, ikkinchi tomondan, organizmning dastlabki funksional holati va bu ta'sirga bir vaqtning o'zida reaksiya qiladigan adaptatsiya tizimlari soni bilan belgilanadi.

Ular tomonidan taklif etilgan "gomeostaz" va "gomeostatik tartibga solish" atamalari adaptiv – moslashuvchan xulq turlarini tavsiflashda qo'llaniladi.

Masalan, adaptiv xulqning passiv va aktiv shakllarini ajratib ko'rsatib, N.A. Agadjanyan va hamkasblari (2003) "aktiv adaptatsiyaning biologik ma'nosi o'zgargan tashqi muhitda yashash imkonini beradigan gomeostazni o'rnatish va saqlab qolishdan iborat" deb ta'kidlaydilar (Agadjanyan N.A. va hamkasblari, 2003).

Atrof-muhitning muhim komponentlari o'zgarganda, organizm o'z funksiyalarining ba'zi parametrlarini ham o'zgartirishga majbur bo'ladi, ya'ni gomeostaz yangi darajaga, ma'lum sharoitlarga mos keladigan darajaga o'zgaradi, bu esa adaptatsiyaning asosi hisoblanadi.

A.B. Georgievskiy (1989)ning fikricha, "adaptatsiya – organizm tizimlari tomonidan tashqi va ichki muhit ta'sirlarini aks ettirishning o'ziga xos shakli bo'lib, u bilan dinamik muvozanat o'rnatish tendensiyasidan iborat" (Adaptatsiya fiziologiyasi, 2010).

Organizmning uni o'rab turgan muhit bilan dinamik muvozanati adaptatsiya jarayonining natijasi hisoblanadi.

Adaptatsiya tizimining ichki va tashqi muhit o'rtasidagi dinamik muvozanatni ta'minlashda nerv va endokrin tizimlari, qon aylanish, nafas olish, ajratish, termoregulyatsiya tizimlari ishtirok etadi, ularning ketma-ket jalb etilishi organizmni muhit talablariga mos keladigan yangi faoliyat darajasiga o'tkazadi.

Tashqi omillarning organizmga ta'siri reflektor yo'l bilan – markaziy nerv tizimi orqali, shuningdek, gumoral yo'l bilan – uning suyuq muhitlari orqali amalga oshiriladi. Adaptatsiya tizimlari faoliyatining o'zgarishi har qanday stress-omilga nisbatan birinchi reaksiya hisoblanadi.

Nerv-gumoral tartibga solish mexanizmlari organizmning yangi sharoitlarda mavjud bo'lishning dastlabki bosqichlarida muhit stress-omillariga nisbatan tizimli adaptatsiya darajasini ta'minlaydi, biroq u energiya jihatdan foydali emas (Sevryukova G.A., 2012). Shuning uchun uzoq muddatli surunkali stress sharoitida organizm mazkur sharoitlarga mos ravishda metabolizmni qayta tashkil etishga qaratilgan, barqaror va ishonchli to'qima mexanizmiga o'tadi.

Inson adaptatsiya jarayonlarini o'rganish stress haqidagi tasavvurlar bilan chambarchas bog'liq. Bu esa stressni organizmning o'ziga qo'yilgan talablarga nisbatan nospesifik reaksiyasi – umumiy adaptatsiya sindromi sifatida belgilashga asos bo'ldi (Selye H., 1946, 1951).

Adaptatsiyaning nospesifik komponentlarini o'rganishni kanadalik olim G. Sele (Selye H., 1946) nomi bilan bog'laydilar, shu bilan birga, bu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlarni amerikalik olim U. Kennon (Cannon W.B., 1929) (gomeostaz va gomeokinez haqidagi ta'limot, moslashuvchan reaksiyalarda vegetativ nerv tizimining roli), rus olimi L.A. Orbeli (1934, 1949) (simpatik nerv tizimining adaptatsiya-trofik roli haqidagi ta'limot) amalga oshirgan.

G. Sele tomonidan birinchi bo'lib aniqlangan umumiy adaptatsiya sindromining bosqichlari (xavotir, chidamlilik, tushkunlik) hech kimda shubha uyg'otmaydi. Biroq L.X. Garkavi va hamkasblari (1990), L.X. Garkavi (2006) nospesifik adaptatsiya reaksiyasining rivojlanishida ta'sir etuvchi omilning miqdoriy o'lchovining muhim ahamiyatini ta'kidlaydilar: biologik faollik darajasiga ko'ra turli miqdordagi ta'sir etuvchi omillarning ta'siriga javoban organizmda sifat jihatdan turlicha, standart adaptatsiya reaksiyalari rivojlanadi.

Masalan, ular zaif ta'sirlarga "mashq reaksiyasi", o'rtacha kuchli ta'sirlarga "aktivlashtirish reaksiyasi", kuchli, favqulodda ta'sirlarga "stress reaksiyasi" deb atashadi.

A.A. Viru (1981) stressni organizmning gomeostatik reaksiyalarni amalga oshirish uchun ijobiy fanni ta'minlash va organizmning himoya qobiliyatini safarbar qilish orqali umumiy nospesifik moslashuv mexanizmining kengayishi bilan xarakterlanadigan holat deb belgilaydi.

M.I. Mityushov (1976) stress reaksiyasini organizmning himoya kuchlarini safarbar qilish jarayoni, ya'ni moslashuvchan mexanizmlarni boshqarishning dastlabki bosqichi deb atash kerak, deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, olimlar o'tkir va surunkali stressni ajratib ko'rsatadilar. L.I. Gubareva (2001, 2005) ma'lumotlariga ko'ra, surunkali stress sharoitida "ekologik adaptatsiya tizimi" deb ataladigan yangi funksional tizim shakllanadi. Mazkur tizimning elementlari soni va funksional hamda morfologik o'zgarishlar xususiyati atrof-muhitning yangi omillari majmuasi, ularning ta'sir davomiyligi, jinsi va ontogenez davri bilan belgilanadi.

Biroq, og'ishlar xususiyatidan qat'i nazar, stress holatini o'zgargan atrof-muhit sharoitlariga optimal energiya tejovchi moslashuvni ta'minlaydigan, ekologik adaptatsiyaning yangi yaratilgan funksional tizimi tomonidan barqarorligi ta'minlanadigan o'ziga xos funksional holat deb hisoblash mumkin.

Energiya tejovchilik xulq strategiyasini o'zgartirish va yoki reproduksiyani pasaytirish orqali ta'minlanishi mumkin (Gubareva L.I., 2001, 2013, 2014).

Shunday qilib, adaptatsiya jarayoni vaqt funksiyasi bo'lib, turli bosqichlarda turli fiziologik tizimlar va mexanizmlar reaksiyaga kirishi mumkin (Sevryukova G.A., 2012; Shaxanova A.V., Glazun T.V., 2008). Eng kuchli faoliyat ko'rsatayotgan fiziologik tizim boshqa tizimlar hisobiga imtiyozli ta'minlanishni oladi (Gubareva L.I., 1999, 2001; Konovalova G.M., 2003).

Barqaror adaptatsiya bosqichining (N.A. Agadjanyan, 2003) yoki chidamlilik bosqichining (G. Sele, 1946, 1951, 1960) asosiy xususiyatlari: energiya va plastik resurslarni, immun tizimini safarbar qilishni ta'minlaydigan boshqaruv mexanizmlarining muvofiqlashtirilgan ishi.

Shu bilan birga, N.A. Agadjanyan va hamkasblari (2003), G.M. Konovalova (2011) "iqtisodiylikka qaramay – "ortiqcha" reaksiyalarni, demak, ortiqcha energiya sarflanishini o'chirish – organizmning reaktivligini yangi darajaga o'tkazish organizmga bepul berilmaydi, balki boshqaruv tizimlarining ma'lum zo'riqishi bilan kechadi" (Konovalova G.M., 2003), bu esa organizmning yangi sharoitlarda yashash qobiliyatini ta'minlaydi.

Bu zo'riqish "adaptatsiya narxi" deb ataladi (Gubareva L.I., 2001, 2013 a,b).

Bir qator mualliflarning fikricha, turli xil ta'sirlarga adaptatsiya "narxi" ishlab chiqarish va tashqi muhit omillariga moslashuvni ta'minlaydigan funksional tizimlarning dastlabki, joriy va chegaraviy holati o'rtasidagi nisbatning hayot faoliyati davomida qanchalik o'zgarishi darajasi bilan belgilanadi (Meerson F.Z., 1986; Balıkin va hamkasblari, 1998; Pavlov S.E., 1999; Gubareva L.I., Ponomareva T.Yu., 2013).

V.D. Sonkin (2002) adaptatsiya narxi – bu ta'sir etuvchi omilga moslashuv jarayonida organizmda yuzaga keladigan og'ishlarning miqdoriy ifodasi deb hisoblaydi. Adaptatsiya mexanizmlarining zo'riqish kuchi adaptatsiya narxini aks ettiradi va salomatlik darajasiga teskari proporsionaldir.

L.I. Gubareva ma'lumotlariga ko'ra, adaptatsiya "narxi" yuqori energiya va plastik sarflarni talab qiladigan funksiyalar – reproduksiya funksiyasini yo'qotish yoki ko'p psixoemotsional zo'riqishni talab qiladigan bilish, xotira funksiyalarini pasaytirish bo'lishi mumkin (Gubareva L.I., 2001, 2005, 2013; Gubareva L.I. va hamkasblari, 2002; Tolmacheva N.A., Gubareva L.I., 2003; Gubareva L. et al., 1997, 2000).

"Dezadaptatsiya" atamasi, insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonlarining buzilishini bildiradi, nisbatan yaqindagina mahalliy adabiyotda paydo bo'ldi. Bir qator

mualliflar "dezadaptatsiya"ga turli xil ta'riflar berishadi, bu "norma" va "patologiya" kategoriyalariga nisbatan dezadaptatsiya holatlarining roli va o'rnini baholashga bog'liq.

Masalan, T.G. Dichev, K.E. Tarasov (1976) dezadaptatsiyani patologiyadan tashqarida kechadigan va hayotning ma'lum odatdagi sharoitlaridan voz kechish va shu bilan birga boshqa sharoitlarga o'rganib qolish bilan bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqadilar. A.E. Lichko (1982) dezadaptatsiya ostida xarakterning kuchayishida kuzatiladigan buzilishlarni tushunadi. Yu.A. Aleksandrovskiy (1976) prenevrotik buzilishlarni, nevrotik holatlarni ruhiy dezadaptatsiyaning eng universal ko'rinishi sifatida baholaydi.

Fiziologik nuqtai nazardan dezadaptatsiyani organizmning muhit omillariga chidamliligining pasayishi sifatida ko'rib chiqiladi. G.A. Kuraev va hamkasblari (1996)ning fikricha, dezadaptatsiya – bu emotsional zo'riqish tufayli yuzaga keladigan va harakatda hamma ruhiy funksiyalarning, avvalo, emotsional reaksiyaning vaqtinchalik pasayishi bilan ifodalanadigan holat bo'lib, bu fiziologik nerv charchog'ining to'planishi va psevdoadaptatsiyalangan xulq belgilarining paydo bo'lishi mexanizmlari tufayli yuzaga keladi.

L.I. Gubareva (2001) dezadaptatsiya ostida organizmning turli faoliyat darajalarida – to'qima, organ, tizim, organizm darajasida namoyon bo'ladigan, adaptatsiya kasalliklarining rivojlanishiga, xulq strategiyalarining o'zgarishiga, ayrim funksiyalarning (reproduktiv, intellektual) o'chirilishi yoki pasayishiga olib keladigan o'zgarishlar majmuasini tushunadi.

N.A. Agadjanyan va hamkasblari (2003) dezadaptatsiya ikki mexanizmning: boshqaruv va metabolik mexanizmlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan charchoqda namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar.

Shu bilan birga, organizm dastlabki sharoitlarga qaytarilganda, u yangi omillarning ta'sirini boshdan kechirmaydi va uning tomonidan hosil qilingan barcha yangi xususiyatlar ko'p jihatdan asossiz bo'lib chiqadi, energiya sarflari esa ortiqcha bo'ladi.

Hayotiy hayotda biz adaptatsiya jarayonining yoki dezadaptatsiyaning buzilishini ko'proq kuzatamiz.

Readaptatsiyada "organizmda kuzatiladigan o'zgarishlar ikki yo'nalishda o'zgarishi mumkin: adaptatsiya qobiliyati pasayishi mumkin va uni keltirib chiqaradigan sharoitlarga qaytish organizm uchun zararli bo'lishi mumkin; adaptatsiya qobiliyati oshishi mumkin" (Ivanova N.A., 2002) va organizm darhol tiklanadi.

Birinchi holatda, organizmning yangi sharoitlarga moslashuvida adaptatsiya mexanizmlarining charchog'i, ikkinchi holatda esa ularning mashq qilinganligi asosiy rol o'ynaydi.

L.X. Garkavi va hamkasblari (1977-2008) stressga ta'sir etuvchi omillarga qaraganda kuchi past bo'lgan omillarning ta'siriga javoban organizmda shakllanadigan antistress reaksiyalarini o'rganishda, bu adaptatsiya reaksiyalari stressga reaksiyaning rivojlanishiga yordam beradigan omillarning zararli ta'siridan himoya qilish uchun qo'llanishi mumkin, degan xulosaga kelishadi.

Mashq reaksiyasi zaif, chegaraviy ta'sir etuvchi omillarga javoban, xotirjam kuchli aktivlashtirish reaksiyasi esa o'rtacha kuchli, mashq va stress o'rtasidagi qiymatga ega bo'lgan ta'sirlarga javoban rivojlanadi.

A.A. Viru (1981) ning fikricha, organizmda tayyor mexanizmlari mavjud bo'lgan tezkor adaptatsiya reaksiyalaridan farqli o'laroq, uzoq muddatli adaptatsiyaning shakllanishi

hujayraning genetik apparatini faollashtirishga qodir bo'lgan tezkor adaptatsiya mexanizmini ko'p marta, yetarli davomli qo'llashda sodir bo'ladi.

Bu adaptatsiya mexanizmining juda muhim tomoni.

Inson adaptatsiyasining asosida organizmning o'zini tashkil etish va o'zini tartibga solish jarayonlarini amalga oshirishga genetik dasturlangan qobiliyati yotadi, bu esa atrof-muhit sharoitlari bilan birlikda dominant ehtiyojlar (hayotiy va ijtimoiy) asosida shakllanadigan funksional tizimlar doirasida ishlaydigan organlar va tizimlarning optimal o'zaro ta'sirini belgilaydi (Kojin A.A., 2006; Sevryukova G.A., 2012).

"Uzoq muddatli", barqaror adaptatsiya "tezkor" adaptatsiyaga nisbatan muhitning mazkur omilga nisbatan organizmning samaraliroq reaksiyasi, aniq stress reaksiyasining yo'qligi va mazkur omil ta'sir etayotgan sharoitlarda normal hayot faoliyatining imkoniyati bilan xarakterlanadi. "Tezkor" adaptatsiyaning "uzoq muddatli" adaptatsiyaga o'tishi asosida nuklein kislotalari va oqsillar sintezining faollashuvi bilan ta'minlanadigan, muhitning mazkur omilga moslashuv uchun mas'ul bo'lgan funksional tizimda tarmoqlangan tuzilmaviy "iz" (adaptatsiya asosi) shakllanishi yotadi (Meerson F.Z., 1988).

XX-XXI asrlar chegarasida insonning genetik apparatiga ijtimoiy zo'riqish va psixoemotsional stresslarning ta'siri hamda psixoemotsional soha va inson xulqiga genetik ta'sirlarning teskari ta'siri haqida yangi ma'lumotlar olindi (Sologub Ye.B. va hamkasblari, 2000; Konovalova G.M., 2003).

Tajribalarda genom faoliyatini tashkil etishda markaziy nerv tizimi yetakchi rol o'ynashi, muhit talablariga muvofiq ushbu faoliyatni moslashtirishi tasdiqlanadi. Genetik tuzilmalar va markaziy nerv tizimini bog'laydigan moddiy bo'g'in gormonlar hisoblanadi. Hayvonlardagi tajribalarda psixoemotsional stress inson genlarining faolligini tartibga soluvchi muhim omil sifatida, antropogenezda ham, ontogenezda ham ishlay olishi ko'rsatilgan (Popova N.K., 2002).

Xulqning ko'p qismi bir qator genlar kompleksi tomonidan boshqariladi, ammo ularning soni oz bo'lishi ham mumkin. Masalan, hayvonlardagi tajribalarda motorli faoliyatga ta'sir etuvchi, motor neyronlarda degenerativ o'zgarishlarga olib keladigan atigi ikkita gen ajratib ko'rsatilgan (Schrack B. et al., 1997); xulqning agressivlik darajasini keskin oshiradigan to'rtta gen tavsiflangan (Tecott L.H., Barondes S.H., 1996).

Moslashuvchan reaksiyalarning psixologik va fiziologik komponentlarining o'zaro ta'siri va o'zaro ta'siri natijasida adaptatsiyaning ko'p darajali funksional tizimi shakllanadi.

Ushbu komponentlarning har birining hissasi adaptatsiyaning ikkita maqsadi – gomeostazni saqlab qolish va faoliyatning dolzarb vazifalarini bajarish o'rtasidagi nisbatni belgilaydi (Gubareva L.I., 2001; Solomon G.F., 1997).

G. Selening obrazli iborasiga ko'ra, ko'pgina kasalliklar stressga nisbatan noto'g'ri reaksiyadan boshlanadi. U nospesifik adaptatsiya mexanizmlarining muvozanati buzilishi asosida yuzaga keladigan kasalliklarni "adaptatsiya kasalliklari" deb atashni taklif qildi (Selye G., 1950, 1952).

Har qanday kasallikning boshlanishi, odatda, organizmning funksional zaxiralarining pasayishi bilan bog'liq. Zamonaviy o'quv muassasalaridagi intensiv axborot yuklamalari, ko'pincha psixoemotsional zo'riqishni keltirib chiqaradi, bu esa organizmning funksional zaxiralarining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin (Kaygorodova N.Z., 2004; Ayzman R.I.,

2006; Litvinova N.A., 2008; Ayzman R.I., Gerasyov A.D., 2012; Kazin E.M., 2013; Berg-Kelly, 2003).

Umuman olganda, adaptatsiya "narxi" ta'sir etuvchi omilning kuchi va davomiyligi hamda organizmning individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev, I. M. Osobnosti integratsii funktsionalnykh resursov legkoatletov-sprinterov 11-17 let s razlichnym urovnem sportivnoy kvalifikatsii: avtoref. dis. ... kand. biol. nauk: 03.03.01 / Abdullaev Isa Musapiroovich. – Krasnodar, 2015. – 24 s.

2. Averin, V. A. Lichnost studenta i uspehnost yego obucheniya v VUZe / V. A. Averin, L. P. Kozыrevskaya, V. F. Borщев, L. N. Granovskaya; pod red. V. V. Shkarina, V. A. Averina. – N. Novgorod: NNGU, 1991. – 126 s.

3. Vrajnova M.N. Sistema professionalnoy adaptatsii studentov texnicheskix vuzov v usloviyax vzaimodeystviya «vuz-predpriyatie» / MADI (GTU) – M.: Izd-vo OOO «Texpoligrafcentr», 2003g., 179 s

4. Malenkovich T. M. Tipologicheskie osobennosti dezadaptatsii studentov mladshix kursov I puti ix preodoleniya. MORF GOU VPO XGPU Teoriya i praktika spetsialnogo obrazovaniya. Xabarovsk, 2003. S. 14-18.

5. Rostovseva Ye.E., Kaznacheeva L.F., Shilyaeva N.V. Korreksiya narusheniy adaptatsii uchashixsya klassov kompensiruyushchego obucheniya // Mat-ly Regionalnoy nauchno-praktich. konf. \ "Psixofiziologicheskie aspekty adaptatsii i reabilitatsii\". g.Ekaterinburg, 30-31 marta 2000 g. - Yekaterinburg, 2000.

ZAMONAVIY O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ILM-FANNING DOLZARB MASALALARI

O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li
Toshpo'lotova Jasmina Nuriddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Zamonaviy o'qitish deb o'quv jarayonida yangi yondoshuvlar, metodlar va texnologiyalarni qo'llagan holda o'qitish usullariga aytiladi. Zamonaviy o'qitish o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar va hayotiy tajribalar bilan ham ta'minlashga intiladi. Zamonaviy o'qitish haqida Jon Deweygaeng mashhur fikrlarni bildirgan. U ta'limni faqat nazariy bilimlarni berish emas, balki o'quvchilarning tajribasi va faol ishtirokini o'z ichiga olishi kerakligini ta'kidlagan. Deweyning fikricha "O'rganish - bu tajriba jarayoni" va "O'qitish jarayoni orqali o'quvchilar o'zlarini, atrof-muhitni va jamiyatni anglashlari kerak". Bu yondashuv zamonaviy ta'limda interaktivlik, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish va individual yondashuvlarni rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Paulo Freire ham zamonaviy o'qitish haqida muhim fikrlarni aytgan. U "O'qitish - bu liberatsiya jarayoni" degan g'oyani ilgari surgan, ta'limning ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashdagi rolini ta'kidlagan. Ushbu fikrlar zamonaviy o'qitish jarayonining asosiy printsiplari va yondashuvlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy o'qitishda pedagogik texnologiyalar va ilm-fanning dolzarb masalalari o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Quyida ularning asosiy jihatlari keltirilgan:

Guruhli muhokamalar - o'quvchilar o'z fikrlarini almashish va yangi g'oyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Simulyatsiyalar - hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etadilar.

Onlayn ta'lim platformalari - masofaviy ta'limni qo'llash orqali har bir o'quvchiga o'z sur'atida o'rganish imkoniyati beriladi. Bu, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Gamifikatsiya - o'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali motivatsiyani oshirish va o'rganish jarayonini qiziqarli qilish.

Loyihaga asoslangan o'qitish - o'quvchilarni amaliy loyiha ishlari orqali muammolarni hal qilishga o'rgatish. Bu, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mobil ta'lim - mobil ilovalar va qurilmalar yordamida ta'limni yanada qulay va harakatda amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish.

Ilm-fanning dolzarb masalalari

Innovatsion yondashuvlar - ta'limda yangi metod va texnologiyalarni tatbiq etish zarurati, shuningdek, bu yondashuvlar o'quvchilarning o'zaro muloqotini kuchaytiradi.

Ijtimoiy va madaniy integratsiya - o'quvchilarda ijtimoiy adolat va madaniy xilma-xillikni tushunish qobiliyatini rivojlantirish. Bu, ta'lim jarayonida global muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Kiber xavfsizlik - onlayn ta'lim va raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq xavfsizlik masalalariga e'tibor qaratish.

O'qituvchilarning malakasini oshirish - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'qitish metodlarini yangilash uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish zarur.

O'quv dasturlarining yangilanishi - ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishiga mos ravishda o'quv dasturlarini doimiy ravishda yangilab borish.

Ushbu pedagogik texnologiyalar va ilm-fanning dolzarb masalalari zamonaviy o'qitishda innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim sifatini oshirishga va o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'limda pedagogik texnologiyalar va ilmiy usullarning o'zaro ta'siri ham imkoniyatlar ham muammolarni keltirib chiqaradi. Pedagoglarning doimiy malakasini oshirish, texnologiyani puxta o'ylash bilan bir qatorda ushbu dolzarb muammolarni samarali hal qilish uchun juda muhimdir.

Zamonaviy o'qitishda pedagogik texnologiyalar va ilm-fanning dolzarb masalalari psixologlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Ularning fikricha, o'qitish jarayonida quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

O'quvchilarni individual yondashuvi - pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Psixologlar har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berishni taklif etadilar.

Motivatsiya va qiziqish - o'quvchilarni o'qishga jalb qilish uchun motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Psixologlar, o'qituvchilarning o'quvchilarga qiziqarli va interaktiv materiallar taqdim etishlari zarurligini ta'kidlaydilar. Bu, o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Emotsional muhit - o'qitish jarayonida emotsional muhit ham muhimdir. Psixologlar,

ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, o'quvchilarning o'zini erkin his qilishlariga yordam beradi, bu esa o'z navbatida o'qish natijalarini yaxshilaydi.

Texnologiyalardan foydalanish - zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalan onlayn ta'lim platformalari va interaktiv vositalar, o'quvchilarning o'zaro aloqasini kuchaytirishi va o'qitish jarayonini qiziqarli qilishiga yordam beradi. Psixologlar bu texnologiyalarning qanday qilib to'g'ri qo'llanilishi muhimligini ta'kidlaydilar.

O'qituvchining roli - o'qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning psixologik holatini tushunib, ularga yordam beruvchi shaxs sifatida ham muhimdir. Psixologlar, o'qituvchilarning o'z o'quvchilariga nisbatan empatiya ko'rsatishlari va ularni qo'llab-quvvatlashlari zarurligini ta'kidlaydilar.

Kreativlik va tanqidiy fikrlash - zamonaviy ta'limda kreativlikni rivojlantirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish ham muhim. Psixologlar, o'quvchilarga muammolarni hal qilishda mustaqil fikrlashga imkon beradigan vazifalarni berishni tavsiya qiladilar.

Zamonaviy o'qitishda psixologlarning fikrlari pedagogik texnologiyalarni qo'llashda va o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan metodlarni tanlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўктамов, Мададjon, Жасмина Тошполотова, and Яйра Мусурманова. "Aniq fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish." *Новый Узбекистан: наука, образование и инновации* 1.1 (2024): 432-434.
2. Abdirozzoqov, Fayzulla, and Jasmina Tashpo'lotova. "methods of using the mytest program in the organization of final control processes for students of higher education institutions." *Молодые ученые* 2.8 (2024): 88-90.
3. Madadjon, O'ktamov. "pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining informatikadan axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi." *Academic research in educational sciences* 4.CSPU Conference 1 (2023): 275-281.
4. Jasmina Toshpo'lotova, and O'ktamov Madadjon. "Boshlangich talim yo'nalishi talabalarini informatika fanini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish." *PEDAGOGS* 51.1 (2024): 115-119.
5. Madadjon O'ktamov. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." *Science and Education* 2.12 (2021): 202-211.

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI TARAQQIYOTINING PEDAGOGIK OMILLARI

Jumamurodova Umida
Mahmudov Eldor,
Qarshiev Alfinbek
Muhitdinova Dilafuz,
Islomov Begzod,
"TIQXMMI" MTU

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-conli qarori oliy ta'lim tizimini

tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no -mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan. XX asrda ta'lim tizimida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim jarayonining markaziy figurasi - bu bola, ta'lim jarayonida asosiy qadriyat va markaziy shaxs ekanligini tan olindi. Dunyodagi o'zgaruvchan sharoit bilan bog'liq ravishda pedagogik usullar doimiy ravishda takomillashib boradi. Ko'p sonli xalqaro konferensiyalar, dolzarb

mavzular ko'tarilgan kongresslar bo'lib o'tmoqda. Umumiy ma'naviy taraqqiyot bilan bog'liq holda, ta'limda hali ham

"tabiatdan ajralgan" degan fikr mavjud.

O'zbekistondagi pedagogik islohotlarning umumiy mohiyati: bolalarni kuzatish, o'rganish va shu asosda pedagogik usullarni ishlab chiqish hisoblanadi. Uning natijasida o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Bolalarni o'z taassurotlarini qabul qilish orqali o'qitish jarayonida muhim o'rin beriladi, ya'ni birinchi navbatda ularning yetuklikning ma'lum bir bosqichini qisman mustaqil ravishda yengib o'tish qobiliyatiga e'tibor qaratiladi.

Ta'lim muassasalari o'quv dasturining mazmuni, barcha darajadagi o'quv dasturlari O'zbekistondagi jamiyatni aks ettiradi va har qanday millat bolalari shaxsiga

hurmat asosida ko'p madaniyatli

Vakolatlarni shakllantirishga mo'ljalangan.

Imkoniyati cheklangan bolalar maxsus ta'lim muassasalarida rivojlanishida sustkashlik yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalarni qabul qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Turli treninglar ularning individualligini hisobga olgan holdamalga oshiriladi. Shunday qilib, har bir bola o'z tezligida rivojlanadi. Respublika bo'yicha ushbu maktablarda o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi, ota-onalar bilan yaqin aloqada bo'lish, yosh avlod salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishga

alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday maktablarda kognitiv funksiyalarni rivojlantirishga ham alohida ahamiyat beriladi. Ushbu o'qitish metodikasi jismoniy rivojlanishida yoki o'zini tutishda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham yaxshi natija beradi.

Maktablarda yangi vazifa - pedagogika tomonidan ilgari surilgan o'qitish usullarini faollashtirish g'oyasini amalga oshirish turardi. Shunday qilib, maktablarda o'quv ishlarini tashkil etishning yangi tizimi amaliyotga joriy qilindi va o'qitishning

yangi usullari va shakllari taklif qilindi. Shu bilan birga, axloqiy tarbiya sohasi

bilan bog'liq bir qator muammolar paydo bo'ldi. Ayni paytda, ommaviy madaniyatning keng quloch yoyishi O'zbekiston ta'lim tizimida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va rivojlantirish muammosini yuzaga keltirdi. Asosiy qism. Bugungi kunda O'zbekiston ko'p asrlik juda boy pedagogik tajribaga ega hamda ta'lim tarbiya jarayonida ma'lum an'analar shakllangan. Ushbu tajriba puxta tahlil va tizimli pedagogik usullarni ishlab chiqishni talab etadi, chunki

bozor iqtisodiyoti hozirda maktab bitiruvchilariga nafaqat jamiyatda o'z o'rnini belgilashga, O'zbekistonni global ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, yangicha o'quv uslublarini izlash talabini qo'yadi.

O'zbekistonda ta'lim "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" ga asoslangan ilg'or yo'nalishlardan biri sifatida tasniflanadi. Ushbu tajriba empirik va nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni o'rganish va puxta tahlil qilish, pirovardida, mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qilishga, ushbu

sohadagi ilmiy faoliyatni tartibga solishga imkon beradi. Albatta, boshqa mamlakatlar ta'limiy qadriyatlarini, pedagogik tajribasini O'zbekiston ta'lim

tizimiga to'liq tatbiq etish imkoni yo'q. Har bir millatning o'z mentaliteti mavjud bo'lib, u umumiy ta'lim tizimiga bevosita ta'sir qiladi, ta'lim sohasidagi integratsiyaning global tendensiyalari tufayli bunday tadqiqotlar turli millatlarning bir-birini yanada yaxshiroq tushunishiga

yordam beradi. Mamlakatlardagi ijtimoiy iqtisodiy tendensiyalarning aksariyati umumiy, global xarakterga ega va dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoshlar ongiga bevosita ta'sir qiladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda olib borilgan qator islohotlar natijasida pedagogikaning asosiy konsepsiyalari shaxs va jamiyat rivojlanishi manfaatlarini hisobga olgan holda ta'limni demokratlashtirishga qaratildi. Pedagogika keng ma'lumotli va barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratildi. Shuningdek, ta'limining o'ziga xos xususiyati shundaki, o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha yagona tizim mavjud ammo o'qitish turli ta'lim muassasalarida farq qilishi mumkin. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ixtisoslik yo'nalishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi. Ta'lim muassasalarida asosiy vazifa - bolalarda amaliy tajribani shakllantirish va ularni hayotiy qiyinchiliklarni yengishda mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish, o'zining ichki qadriyati, qadr-qimmati va ijtimoiy ahamiyatiga ishonitirishdir.

Xulosa. Islohotlar natijasida, bir qator mavjud muammolarga qaramay, O'zbekiston dunyodagi eng yaxshi ta'lim tizimlaridan birini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Hozirgi vaqtda mamlakat ta'lim tizimining sa'y harakatlari olgan bilimlarini amalda qo'llay

oladigan har tomonlama barkamol shaxslarni tayyorlashga qaratilgan. Maktabdan tashqari guruhlarda ishlash keng tarqalgan.

Maktabning o'zi shu bilan haqiqiy hayotga yaqinlashadi. Ko'pgina ta'lim muassasalarida ta'lim bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitida bola shaxsiyatining individual xususiyatlarini hisobga olishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23-sentabr, O'RQ-637-son qarori bilan tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.

3. "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabrdagi PK- 3289-son qarori Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / T.: TDPU, 2005.

5. www.eduportal.uz -Xalq ta'lim vazirligining axborot ta'lim portal.
6. www.ziyonet.uz – Axborot ta'lim portal.

YER KADASTRINI YURITUSHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Urinov Jamol Chorshanbiyevich
Yuldosheva Yulduz Shuxrat qizi
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Insonlar yaralibdiki qadim zamonlardan suvga, yerga bo'lgan talab yuqori darajada bo'lgan. O'sha davrlardayoq yerga ishlov berilib har xil ekinlar ekilgan. Asta sekinlik bilan aholi ko'payib borib yerlarni o'lchash, chegaralar belgilashga bo'lgan talab ortib borgan. Aholidan soliq olish joriy etila boshlangan. Soliq olish uchun aholi punktlarining, har birining turar joylari miqdor va sifat ko'rsatkichlari aniqlanishi lozim bo'lgan. Shu tariqa kadastr yo'nalishi paydo bo'lgan.

Kadastr so'zi butun dunyoda keng tarqalgan bo'lib, faqat Skandinaviya davlatlari uning o'rniga "Reyestr" so'zidan foydalanishadi. Kadastr so'zini kelib chiqishini etimolog olimlar har xil tushuntiradi. Masalan fransuz etimologi Blondxeym "kadastr" so'zi girikcha "kadastikon" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "yozuv daftari" degan ma'noni bildiradi deb hisoblaydi.

Kadastr tushunchasining zamonaviy tarifi sifatida aytish mumkinki, kadastr-mamlakatimiz hududidagi tabiiy resurslar va inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarning joriy holatga oid ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va foydalanuvchilarga havola qilish tizimidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonuni mazmuni va mohiyati bilan mamlakatimizda Davlat kadastrlarini yuritish va yaratish tamoyillarini to'liq belgilab berdi.

Ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2005 -yil 16 -fevralda qabul qilingan davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqidagi 66-sonli qarori asosida Respublikamizda 21 ta davlat tarmoq kadastrlarini yaratish va yuritish bo'yicha tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar mas'ul etib tayinlangan.

Yer kadastrining vazifalaridan biri turli mulkchilik shakllarini va yer uchastkalarining fazoviy koordinata masalalarini hal qilishdan iboratdir. Yer kadastr obyektlarini fazoviy koordinatalarini aniqlashni ma'lum bir koordinata tizimi asosida muvofiqlashtirish bilan bir qatorda yer kadastr kartalari tuziladi. Hozirda bunday kartalarni yaratish, geografik axborot tizimlari negizida avtomatlashtirilgan xolda amalga oshirish, aniqlikni oshirish hamda tezkorlikni ta'minlaydi. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, GAT texnologiyalarining qo'llanilishi dastlab Minnesota shtatida yerlarning hisobini aniqlash maqsadida joriy qilingan, keyinchalik esa bu tizimni soliq ishlarini takomillashtirishda qo'llanildi. Shu tariqa GAT texnologiyalari rivojlana boshladi. Yer kadastr ishlarida GAT texnologiyalaridan foydalanishning dastlabki bosqichlarida rastrli formatlarda aks ettirilgan, hozirda esa bu tizim ikki rastrli va vektorli ko'rinishda ham olib borilmoqda.

Davlat yer kadastrini ishlarini yuritish va kartografik tadqiq qilishda GAT texnologiyasidan foydalanish bo'yicha V.P.Raklov, A.M.Berlyant, E.Yu.Safarov, T.V.Papaskiri, O.T.Kurakpayev, R.Turayev, M.Q.Sultonov, O.R.Allanazarov, R.Q.Oymatov, A.Inamov, K.K.Bekanov va boshqalar tomonidan o'tkazilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha yoritilgan. Mazkur mualliflar tomonidan geografik axborot tizimlaridan foydalangan holda, yer kadastrini ishlarini tashkil etish va yuritishda tuproq ma'lumotlarining kartografik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, yer to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish tizimini avtomatlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda yer kadastr kartalarini yangilash mexanizimini ishlab chiqish, geodezik, kartografik modellashtirilgan va yer kadastrining raqamli kartalari yaratilgan.

Davlat kadastrlari yagona tizimini GATga tegishli tematik qatlamlar davlat kadastrlarining har bir turi bo'yicha bazaviy kartografik asosdan foydalanib, obyekt turlari va axborot turlari bo'yicha, ArcGIS dasturiy ta'minotida (*.shp, *.gdb, *.mdb formatlarda) shakllantiriladi. Davlat kadastrlari yagona tizimini GAT bazaviy kartografik asosining tematik qatlamlari hamda davlat kadastrlarining tegishli GATlarini yuritish uchun zarur kartografik asoslar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan shakllantiriladi hamda davlat kadastrlarini yuritish bo'yicha vakolatli organlarga taqdim etiladi. Yuqoridagi tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar kadastr ob'ektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risida, shuningdek ularning holatidagi joriy o'zgarishlar haqidagi axborotlarni belgilangan tartib va muddatlarda Davlat kadastrlarining yagona tizimiga kiritish uchun taqdim etib borilsa, O'zbekiston Respublikasining tabiiy iqtisodiy salohiyatining yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta'minlashga mo'ljallangan ko'p maqsadli axborot tizimi o'z vaqtida yaratiladi. Bu ko'p maqsadli axborot tizimi davlat kadastrlarini yuritishda, kadastrga doir axborotni to'plashda va undan xalq xo'jaligining turli soxalarida foydalanishda keng imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritishning ayni paytda muhim va dolzarbdir.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda 2023-yil 1- yanvar holatiga ko'ra 15250,2 mingta davlat kadastrlari ob'ektlaridan 14 608,5 mingtasi (96%), 719 ming km obyektidan 505,5 ming km (70%) va 44,9 mln gektardan 41,7 mln gektari (93%) davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritilgan.

Xulosa. Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ishni bir muncha osonlashtiradi, kam vaqt saflanadi, qolaversa qidirilgan ma'lumotlarga ovvaragarchiliklarsiz bir necha daqiqada aniq, batafsil va qisqa javob topish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I. Ixlosov, D. Rizayeva. " Davlat Kadastr Asoslari" o'quv qo'llanma Toshkent " NIF MSH"-2020
2. B. Tursunov. Davlat kadastrlarini yuritishda zamonaviy texnologiyalarining ahamiyati.
3. G. Rajabova. S. Oltinov. Yer hisobi va davlat kadastrlari yagona tizimini rivojlantirish istiqbollari.

TALABALARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA TAHLILI

SH.N.Yangiyev

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
yangiyevshavkat@gmail.com

Kompetentli yondashuv muammosiga bag'ishlangan ilmiy nashrlarda “kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalarini ta'riflash eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

S.I.Ojegovning rus tili izohli lug'atida bu atamalar quyidagicha ta'riflangan:

“Kompetentsiya: 1) biror bir kishi juda yaxshi biladigan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi; 2) biror bir kishining vazifalari, huquqlari doirasi.”

“Kompetentlik biror bir soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli bo'lib hisoblangan kishining sifati”.

Kompetentlik (lotincha competens – tegishli, maxsus) – 1) aniq (ma'lum) ijtimoiy kasbiy maqomga ega bo'lgan kishining bilimi, ko'nikmasi va malakalarining uning bajaradigan vazifalari va hal etayotgan muammolari murakkabligining haqiqiy darajasiga moslik o'lchovi; “Kvalifikatsiya” tushunchasidan farqli ravishda ushbu tushuncha kvalifikatsiyani tavsiflovchi kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlashga qobiliyatlik, kommunikativ qobiliyatlik, o'qish ko'nikmasi, mantiqiy fikrlash, axborotni tanlash va foydalanish kabi xususiyatlarni (sifatlarni) tavsiflaydi; 2) boshqaruv organi, mansabdor shaxs vakolatlari, ular qaror qabul qilish mumkin bo'lgan masalalar doirasi. U yoki bu boshqaruv organi yoki shaxs vakolatlari doirasi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar (nizomlar, yo'riqnomalar va ustavlar) bilan belgilanadi.

S.V.Shilov kompetentsiyani o'qitish orqali o'zlashtirilgan bilimlar, tajribalar, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy qobiliyat sifatida ta'riflaydi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda, bugungi kunda ta'lim jarayonida faol qo'llanilayotgan ushbu tushunchalarni sharhlashda quyidagi xulosaga keldik: “Kompetentsiya” – ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning amaliyotda samarali qo'llanishi; “kompetentlik” esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqat.

“Tayanch kompetentsiya” tushunchasi XX asrning 90 yillarida YuNESKO tasarrufidagi xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan kiritilgan va shu vaqtdan boshlab oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlashga talablarni shakllantirishda qo'llanila boshlandi.

Ko'pchilik manbalarda “tayanch kompetentsiyalar” barcha kasb va mutaxassislar uchun umumiy bo'lgan kompetentsiyalar sifatida qaralgan. Ingliz tilidagi adabiyotlarda esa qaralayotgan tushunchaning quyidagi ikki varianti mavjud: key skills va key competences.

Odatda tayanch kompetentsiyalar deganda ta'limning umumiy mazmuniga tegishli kompetentsiyalar tushuniladi. A.V.Xutorskoy ularga qadriyatli ma'naviy, umummadaniy, o'quv bilish, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy mehnat va shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish kompetentsiyalarini kiritgan.

I.A.Zimnyaya birinchidan, tayanch kompetentsiyalarni guruhlash asoslarini ajratish va nazariy jihatdan asoslab berishga, ikkinchidan, ularning asosiy, zarur atamalari majmuini

aniqlashga va uchinchidan, ularning har biriga kiritiladigan kompetentsiya turlarini belgilashga harakat qilgan.

Tayanch kompetentsiyalar – insonning jamiyatdagi hayotiy faoliyatidagi dolzarb va istiqbolli ahamiyatga ega bo'lgan turli sohalariga tegishli bo'lgan masalalar, bilimlar, amaliy ma'lumotlar va faoliyat usullaridan iborat jarayon bo'lib, ularni o'zlashtirish bir tomondan insonning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlasi, boshqa tomondan, jamiyatning ma'lum bir sifatdagi inson resurslariga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qiladi. Tayanch kompetentsiya faoliyatning har bir sohasi uchun nima zarurligini ko'rsatadi, insonning o'zini o'zi belgilashini, ijtimoiy daxldorligini, fuqarolik pozitsiyasini va kasbiy darajada raqobatlashish qobiliyatini qo'llab quvvatlaydi. Oliy ta'lim muassasasida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida tayanch kompetensiyani shakllantirish masalasini hal etishga kompleks yondashish har qachongidan ham dolzarb masaladir, chunki talabalar institutlar (fakultetlar, kafedralar) va ma'ruzachilarning ma'lum bir ta'lim strategiyasini tanlaydilar. Shu sababli, O'zbekistonda barcha iqtisodiyot tarmoqlari uchun yuqori tajribali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga hamda yangi shartnoma asosida ishlashga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash shartlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ожегов С. И. Толковый словарь русского языка, 20-е изд., М., 2017,-1376 с
2. Шилов С. Агапов И.Г. Компетентный подход к образованию как необходимость// Мир образования-образование в мире. 2001. №4. С. 8-19.
3. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как результат личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. № 2. С. 58-64.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании // 2005.- №6. – С. 13-29.

ZAMONAVIY O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Gulamova Dilnoza Nizamitdinovna

Qarshi shahar 46-maktab, Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Rashidova Madina Azamat qizi

Qarshi shahar 9-DMTT ingliz tili o'qituvchisi

Mavzuning dolzarbligi.

Inson dunyoga kelibdiki, tashqi muhitdan, tashqi olamdan doimo nimadir bilish, nimadir o'rganish harakatida bo'ladi. Chaqaloqlik paytida qanday ovqat yeyish kerakligini, 2-3 yoshga to'lganda qanday yurish va yugurishni o'rganadi. Yosh qanchalik katta bo'lib boravergani sari o'rganigan narsalari inson uchun kam ekanligini biladi, natijada yanada ko'proq narsa o'rganishga harakat qiladi. Odamzot uchun eng asosiy va muhim bilimlarni beradigan joy — ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar.

Davlatning rivojlanishida va siyosiy ustuvor yo'nalishlarning mustahkamligini ta'minlashda xalq ta'limining o'rni va ma'suliyati asosiy ustundir. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy yoki boshqa sohalarda rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun eng asosiy vosita va manba bu - bilim hisoblanadi. Bilim esa asosan maktablarda, ta'lim muassasalarida qolaversa, oilada ham shakllantiriladi va mustahkamlanadi. Maktab - biror-bir sohada faoliyat yurituvchi yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashga zamin yaratadi[1].

Bo'lajak kadrlarni tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1) zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

2) ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

3) texnologik ta'lim bo'yicha elektron o'quv adabiyotlarni mobil uskunalarga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida fanlar kesimida o'quv-metodik majmualar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

4) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

5) nazariy va amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan (Hemis, Moodle kabi) hamda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.


Tadqiqot natijalari.

Maktablarda qog'oz bilan ishlashni kamaytirish va hujjatli ishlarni elektron ko'rinishga o'tkazish maqsadida kundalik.com tizimi ishlab chiqildi va joriy etildi. Bu tizim orqali maktab o'qituvchilari o'quvchilarning darsga qatnashish faolligiga qarab baholaydi, darsga kelmagan o'quvchini esa yo'q deb belgilab qo'yadi. Dars jarayoni davomida o'tilgan mavzuni hamda o'quvchilarga bergan topshirig'ini belgilab qo'yadi.



1-rasm. Kundalik.com tizimining tashqi ko'rinishi.

Bu tizim keyinchalik yangilanib, yanada imkoniyati kengaytirildi hamda e-maktab (elektron maktab) nomini oldi.



2-rasm. E-maktab tizimining ko'rinishi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi XXI asr — “Axborot texnologiyalari” asrida nafaqat maktablarda, balki barcha turdagi ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurdir. Raqamli texnologiyalar qog’ozli ishlarni kamaytirishga, vaqtni tejashga hamda ish unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azamat Maqsudovich To'rayev (Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi 71908-sonli harbiy qism harbiy xizmatchisi). Umumta'lim maktablarda ta'lim sifatini ta'minlash muammolari va yechimlari. Multidisciplinary Scientific Journal. January, 2023. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023 ISSN: 2181-1385

2. Orishev Jamshid Bahodirovich, Inoyatova Nafosat Anorboy qizi A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi, Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi, Jizzax, O'zbekiston. Texnologik ta'lim o'quv jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.

1-TARTIBLI CHIZIQLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR. BERNULLI VA KLERO TENGLAMALAR

Polvonov Xolbek Nematovich TATU Qarshi filiali
Optik Aloqa Tizimlari va Tarmoq Xavfsizligi kafedrasida katta o'qituvchisi.
polvonovxolbek12345@gmail.com

Ziyodullayev Temurbek Oybekovich TATU Qarshi filiali
Telekommunikatsiya Texnologiyalari yo'nalishii 3-bosqich talabasi.
temurbekziyodullayev9@gmail.com

"Tartibli chiziqdagi differensial tenglamalar" (ODE) biror funksiyaning o'ziga bog'liq yoki ko'rsatkichlar to'plamidan foydalanib yozilgan, y'oki turli turdagi umumiy harakatlarni ifodalovchi matematik tenglamalardir. ODE lar odatda qo'shimcha sharhlarda ko'rsatiladi: $F(x, y, y', y'', \dots, y^{(n)})=0$. Bu yerda $y = y(x)$ - biroq funksiya. $y, y', y'', y^{(n)}$ -y ning birinchi, ikkinchi. n-darajadli differensiallarini ifodalaydigan notatsiyalar. F - tenglama, y darajasidagi harakatlarni ifodalaydi. x - o'zgaruvchi, bunday ODE y'x funksiyasini yechimi uchun. ODE lar umumiy bir nechta xususiyatlar bilan ajratiladi: Tenglamada yotadi n-o'zgaruvchilarning darajasi. Agar ODE ning darajasi n bo'lsa, unga n ta boshlang'ich shart

(ya'ni, funksiya va uning $n-1$ differensiallarining qiymatlari) beriladi. Bernulli Tenglamasi: Bernulli tenglamasi quyidagi umumiy shaklda ifodalangan differensial tenglamadir: $y' + p(x) * y = q(x) * y^n$. Bu yerda n soni 0 va 1 dan turib, $p(x)$ va $q(x)$ – funksiyalar, y – bilinmagan funksiya, y' - uning birinchi differensial. Klara tenglamasi: Klara tenglamasi quyidagi shaklda ifodalangan differensial tenglamadir: $y = xy' - f(y')$. $p = y'$. So'ngra, y ni bu tartibdagi p ga o'tkazib chiqaramiz: $y = xp - f(p)$. Shu tartibdagi tenglamani yechish uchun integratsiya qilamiz. 1-tartibli chiziqli differensial tenglamalar, birinchi burchakli (yoki birlamchi) darajali chiziqli differensial tenglamalardir. Tenglama quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$y' = f(x, y)$ Bu yerda $y' = dy/dx$ ni, y esa $y(x)$ ni ifodalaydi. $f(x, y)$ funksiya esa x va y ni o'z ichiga oladi. 1-tartibli chiziqli differensial tenglamalar yechimlarini topish uchun, boshlang'ich shart, ya'ni $y(x_0) = y_0$, kerak bo'ladi. Bu shart yechimni aniqlovchi o'zgaruvchilarning qiymatlarini aniqlash uchun kerakli bo'ladi. Bu turdagi chiziqli differensial tenglamalarni yechish uchun aniq yechimlar kiritilgan ko'rsatkichlar, yani x, y qiymatlari bo'yicha yechimlar yig'indisini topish uchun bir nechta usullar mavjud. Bular orasida:

- Analitik yechimlar (tub yechimlar)
- Numerik yechimlar (soniy yechimlar)

$y' + p(x)y = q(x)y^n$ Bu yerda $p(x)$ va $q(x)$ funksiyalar x ni o'z ichiga oladi, n esa y ni ifodalaydi. n degani esa, o'nlik son bo'lib, $n \neq 0, 1$. Bernulli tenglamalari, linearni tenglamalar bilan bir xil ko'rinishda yozilyapti, ammo $q(x)$ funksiyasi yerdan qaytarilgan qiymat bo'yicha birdan bir farqli bo'lishi mumkin. Bernulli tenglamalari uchun yechimni topish uchun, avvalo tenglamani o'lchashga kirishimiz kerak:

- Agar $n \neq 1$ bo'lsa, tenglamaning har bir tomonini $y^{(1-n)}$ ga ko'paytiramiz.
- Quyidagi ko'rinishda yangi o'zgaruvchi uchun tanlov qilamiz: $v = y^{(1-n)}$
- Natijaviy chiziqli differensial tenglama quyidagicha ko'rinish oladi: $v' + (1-n)p(x)v = (1-n)q(x)$

- Quyidagi ko'rinishda har bir tomonni o'lchashga kirishimiz mumkin:
- Muammo hal etilganidan so'ng v ga qaytarib o'tamiz: $y = v^{1/(1-n)}$

$y'' + p(x)y' + q(x)y = f(x)$ Bu yerda $p(x), q(x)$ va $f(x)$ funksiyalar x ni o'z ichiga oladi, y esa ifodalaydi. Klara tenglamalari, 2-tartibli chiziqli differensial tenglamalar hisoblanadi va ikkinchi burchakda yoki y ning birinchi burchakda o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi. Bu tenglamalar eng ko'p ishlatiladigan chiziqli differensial tenglamalardan biridir. Klara tenglamalari yechimini topish uchun, avvalo tenglamani o'lchashga kirishimiz kerak:

Koeffitsientlar $p(x)$ va $q(x)$ ni aniqlashimiz. Almashtirish uchun yangi o'zgaruvchini tanlaymiz: $v(x) = y'(x)$. Natijaviy chiziqli differensial tenglama quyidagicha ko'rinish oladi: $v' + p(x)v + q(x)y = f(x)$. Tenglama o'ziga xos kvadratik tenglama quyidagicha ko'rinishda yoziladi: $(D^2 + p(x)D + q(x))y = f(x)$. "y' + y * tan(x) = x / cos(x)" tenglamani python dasturlash tili orqali yechimi from sympy import symbols, Function, tan, cos, Eq, dsolve, Derivative

```
# Muammoga oid simvollar
x = symbols('x')
y = Function('y')(x)
```



```

# Tenglama
diff_eq = Eq(Derivative(y, x) + y * tan(x), x / cos(x))

# Differensial tenglamani hal qilamiz
solution = dsolve(diff_eq)

# Natijani chiqaramiz
print(f'differensial tenglama natijasi : {solution}')

```

Bir differensial tenglamani Python dasturlash tili orqali grafigi chizildi. Dasturning kod qismi.

```

import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
from scipy.integrate import odeint
def differential_equation(y, x):
    return x / np.cos(x) - y * np.tan(x)
x = np.linspace(-np.pi/2 + 0.1, np.pi/2 - 0.1, 1000)
y0 = 0 # boshlang'ich qiymat
y = odeint(differential_equation, y0, x)
plt.plot(x, y)
plt.xlabel('x')
plt.ylabel('y')
plt.title("Chiziqli differensial tenglama__ y' + y * tan(x) = x / cos(x) ")
plt.show()

```

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.В. Глушаков и др. Язык программирования Python. Харьков «Фолио» 2001г.
- 2.S.L.Ibragimov, B.Y. Hayitov . Differensial tenglamalardan masalalar to'plami
3. www.mathsoft.com

НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Асроров Ойбек Асрор угли, Ассистент
Университет экономики и педагогики НОУ
AsrorovOybek@gmail.com

Использование новых педагогических и информационных технологий в физической культуре и спорте в современном образовательном процессе, обусловленное требованиями нашего мира. Национальная программа по подготовке кадров», создает необходимые условия и возможности для совершенствования образовательного процесса во всех звеньях образовательно-воспитательной системы. Современный подход к преподаванию любой дисциплины как в средней школе, так и в вузе заключается в построении качественного процесса на новой технологической основе и использовании прошлого опыта.

Общие принципы технологии обучения и преподавания были сформулированы К.Д. Ушинским, который считал, что главная задача учителя или преподавателя — организовать обучение таким образом, чтобы деятельность студента превращалась в самостоятельность. Проблемы активизации научно-исследовательской деятельности как инновационного повышения качества подготовки студентов обусловлены культурными и национальными тенденциями общественного развития в условиях глобализации, информатизации, появления новых технологий и формирования новых отраслей экономики; стратегическими ориентирами вузов в рамках изменений в образовании и повышения качества значимости самостоятельной подготовки активной познавательной деятельности каждого студента; ростом требований со стороны работодателей и потребностью студента как потребителя образовательных услуг, которому предстоит создавать и внедрять инновации.

Для организации учебного процесса по изучению педагогических дисциплин с использованием новых технологий и инноваций в обучении необходимо решить множество задач, связанных в первую очередь с обеспечением учебного процесса новейшей литературой и новыми средствами обучения. По нашему мнению, такой учебник может подготовить студент, используя опыт объединения модульных и компьютерных технологий. Современное учебное пособие объединяет как печатные материалы, так и материалы на электронных платформах. И те, и другие должны быть структурированы, содержать как основной информационный материал, так и дополнительный. Принципы создания такого пособия достаточно просты: весь материал делится на разделы и модули, определяются ключевые вопросы и ключевые слова, формулируются задания и контрольные задания. При создании учебников по предметам с использованием компьютерных технологий необходимо решить ряд вопросов, связанных с активным структурированием материала, использованием наглядных и практических средств наглядности. Подготовленный нами электронный учебник представляет собой комплекс множества взаимосвязанных структурированных дидактических единиц, представленных в цифровом и аналоговом виде, содержащих все компоненты учебного процесса.

Основу пособия составляет его интерактивная часть, которая может быть реализована. Она включает в себя:

1. электронный учебник,
2. электронный справочник,
3. компьютерную программу тестирования.

Выводы. Положительным моментом в оценке знаний студентов может стать внедрение в учебный процесс такой формы контроля, как тестирование. Тестирование является надежным, оперативным и достаточно объективным методом получения обратной связи в ходе обучения. Тестирование позволит выявить положительные стороны, экономя время на контроль знаний студентов, снижая субъективный фактор личных предпочтений преподавателя, дифференциацию оценок, снижая эмоциональную напряженность. Анализ многочисленных публикаций по использованию современных информационных технологий в данной области, а также опыт работы в высших и средних специальных учебных заведениях позволяет сделать

вывод о необходимости создания информационно-образовательных ресурсов и внедрения их в учебный процесс. Эффективным мы считаем преподавание дисциплины с использованием новых компьютерных технологий, что будет способствовать активизации познавательной деятельности студентов, внедрению современных методов контроля, оценки и мониторинга здоровья и физической подготовленности.

Использованная литература

1. Давыдова Л.Н., Различные подходы к определению качества образования / Л.Н. Давыдова // Качество. Инновации. Образование. – 2005. № 2. – С. 5-8.
2. Хазова С.А. Бгуашев А.Б. Актуальные проблемы и современное состояние научных исследований в сфере физической культуры и спорта. // Современные наукоемкие технологии. – 2016. – № 12-3. – С. 637-641.
3. Использование современных информационных технологий в теоретической и методико-практической подготовке студентов по физическому воспитанию / В. М. Богданов, В. С. Пономарев, А. В. Соловов // Материалы всерос. науч.-практ. конф. - СПб., 2000.

DISCUSSION OF THE PRACTICAL CONSEQUENCES OF THE EXISTENCE OF TOLERANCE IN FUTURE OFFICERS

Nazaraliyeva Marxabo Hayitboyevna
O'R QKA psixologiya va pedagogika kafedrasida, dotsenti
E-mail: nazaraliyevamargo@icloud.com

Ideological wars taking place in the world, interaction in a multinational society, conflicts between different beliefs are raising the issue of socio-psychological research of the problem of tolerance in an individual. In particular, the tactical actions of military officers are of great importance in this process, and the phenomena occurring at ideological outposts indicate the importance of constructive resolution of conflicts in their interpersonal relationships, the development of "colorful culture of the world, specific styles in the manifestation of personality and respect, acceptance and correct understanding of human individuality" [1].

N. K. Roerich, the upbringing of patience is the main condition for piety, self-rejection and self-rejection, he raised Uzi and uzga in love and recognition. N. K. Roerich expressed the opinion that influenced him by the form of his adjective as he advanced: "every person I meet needs me to feel pain and sadness. Shun is designed so that a person can have strong tolerant human qualities, respect him and achieve consensus". [2]. "The problem in the approach to the system of values is that the person manifests as masters, values and content, it is they who, on the one hand, determine the inner world of the individual, and on the other - the one that determines the true hulk of the individual, is motivational - controlling" [3] such an approach has a future, since tolerance allows.

The indicator is defined by the fact that the sense of ethnicity has positive associations with the criterion of the righteousness of life ($r=0.28$; $p \leq 0.01$). This state of affairs means that the perception, feeling of one's own origin, national affiliation of future office workers is in harmony with an understanding of the Justice of life, the magnetism of what is happening. The high level of confidence of

future office workers in the Justice of life is observed in harmony with his ethnicity, the strength of his national identity. The harmony of the sense of ethnicity in future offices with the righteousness of life leads, first of all, to the perception of the ethnic group in the prism of its own Justice, strengthening the social status of the individual, an authentic assessment of the professional and peer community, the emergence of a differential approach in interpersonal relationships in a unique way. As a result, the identity formation of tolerance to ethnic identity is observed in future offices. Another important aspect of our research lies in the fact that the use of one language or another in future offices has a positive connection with the righteousness of life ($r=0.21$; $p\leq 0.05$). The future Officer will be forced to establish a dialog with representatives of different nationalities from the point of view of his professional activities. As a result, the assimilation of various languages, their use in activities leads to the formation of a tolerant attitude towards the culture of representatives of the opposing nationalities in this language. This situation, on the other hand, shows the worldview of future office workers, the level of intellectualism, the way of life of peoples, relationships in the social layer, fairness in the system of society, bringing their culture to a deeper development. By using the languages of people of different nationalities, the system of concepts about the righteousness of life becomes more stable. Therefore, positive associations have been identified between these two phenomena.

A specific interesting case in our empirical result has been observed in the relationship between social tolerance and values. In this, too, social tolerance did not have significant links with the system of personality values in the 1st stage cadets. The main reason for this is when in the cadets of the 1st stage there is a situation of adaptation to extreme situations associated with the educational process. Because, according to the dynamics of the formation of a group of cadets assembled for one purpose from different regions, in this period it is the period when people are adapting to each other, to the environment, studying each other. Therefore, the degree of interaction of cadets with their groups is more aimed at affirming their individuality, and the level of social tolerance will not have led to insufficient activation of certain individual psychological characteristics in the system of personality values. However, in Phase 4 courses, social tolerance is defined as the positivity of the World ($r=-0.41$; $p\leq 0.10$), the controllability of life ($r=-0.42$; $p\leq 0.05$). In fact, social tolerance occurs when an individual harmonizes with a group, when "I" accepts "us", when the perception of people in the prism of social values, Masters, stereotypes is activated, and symbolizes the socio-psychological maturity of a person. The peculiarity of our results is that social tolerance has given an inverse correlation with certain aspects in the value system. In particular, the fact that in Stage 4 cadets social tolerance has an inverse correlation with the positivity of the world means that they are able to adequately perceive phenomena occurring in the environment, conflicts between nations or, conversely, interaction on the basis of critical thinking, not exaggerating the positive side of Group vocations, but also unleashing constructive criticism. The future Officer will be forced to establish a dialog with representatives of different nationalities from the point of view of his professional activities.

Conclusion. Based on the above data, it is established that there is a correlation between tolerance and base beliefs in prospective offices.

We would like to say that the feeling of national immunity has an important place in the offices, because this crisis means their harmony with the nation, the fate of the Motherland, the people, living with their fate, the responsibility to elat. Therefore, the inflexibility of the fate of the nation and the land in future offices, its progress, leads to the fact that people are perceived in a good, optimistic, kind and most basic humanistic way.

The National immunity of future offices will cause representatives of the nationality to be perceived as better than everyone else. The righteousness of life in future offices, whose national immunity is strongly developed, is characterized by the fact that progress in the land is built on its own criterion of Justice, harmonizes with a sense of pride. Therefore, positive associations have been identified among these phenomena.

References:

1. <https://www.asau.ru/en/news/social-work/2251-den-tolerantnosti>
2. Рерих Н.К. Мудрость в сказках и наставлениях // Серия «Жемчужины России». - М.: Амрита-Русь, 2009.
3. Рубцов А.В., Юдин Б.Г. Новые ориентиры гуманитарного образования. // Человек. 1995. № 2-4

O'LCHASH VOSITALARINING TURINI TASDIQDAN O'TKAZISH UCHUN SINASH, ATTESTATLASH VA KALIBRLASH.

Raximov Jo'ra Suyunovich-“TIQXMMI” MTU
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
Umumtexnik fanlar kafedراس dotsenti, juraraximov_1964@mail.ru

O'lchash vositalarini davriy qiyoslashni reglamentlovchi asosiy hujjat: O`z DSt 8.003:2005. Bu hujjat quyidagi asosiy qoidalarga tayanadi:

- mamlakatda o'lchashlar birliligini ta'minlashning eng muhim vositasi o'lchash vositalarini qiyoslashdir;
- qiyoslash bilan ishlab chiqarilgan va ta'mirlangan, xorijdan sotib olingan, ishlatilayotgan va saqlashga qo'yilgan barcha o'lchash vositalari qamrab olinishi kerak;
- qiyoslashda metrologik va texnik talablarga muvofiqligi tasdiqlangan o'lchash vositalargina qo'llanish uchun yaroqli deb tan olinishi mumkin;
- ishlatilayotgan o'lchash vositalarini qiyoslash davriyligi ishlatish sharoitlariga bog'liq va nosoz asboblarning o'z vaqtida aniqlanishini ta'minlashi lozim;
- qiyoslash maxsus tayyorlangan shaxslar tomonidan qiyoslash bo'yicha ilmiy-texnik hujjatlarga muvofiq bajariladi.

Ishlatilayotgan yoki saqlashga qo'yilgan o'lchash vositalar ma'lum qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqdan keyin davriy qiyoslashdan o'tkazilishi lozim. Qiyoslanishi lozim bo'lgan o'lchash vositalarining aniq ro'yxatlarini yuridik va jismoniy shaxslar – o'lchash vositalarining egalari tuzadilar. Qiyoslanishi lozim bo'lgan o'lchash vositalari ro'yxatlari Davlat metrologiya xizmati organlariga yuboriladi. Davlat metrologiya xizmati organlari metrologik qoidalar va meyorlarga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish chog'ida qiyoslanishi lozim bo'lgan o'lchash vositalari ro'yxatlarining to'g'ri tuzilganligini tekshiradilar.

O'lchash vositalarining har bir nusxasi davriy qiyoslashdan o'tishi lozim. Uzoq muddat saqlashga qo'yilgan o'lchash vositalar davriy qiyoslashdan o'tmasligi mumkin. Bir necha kattaliklarni o'lchash (qayta tiklash) uchun mo'ljallangan yoki bir necha o'lchash diapazonlariga ega bo'lgan, biroq kamroq sondagi kattaliklarni o'lchash (qayta tiklash) yoki kamroq sondagi diapazonlarda o'lchash uchun foydalaniladigan o'lchash vositalarni davriy qiyoslashni bosh metrolog yoki yuridik shaxs rahbarining qarori asosida faqat

qo'llanilayotgan sondagi kattaliklar va ishlatilayotgan diapazonlar uchun o'lchash vositalarining yaroqliligini aniqlab beradigan qiyoslash bo'yicha normativ hujjatlar talablari bo'yicha ruxsat etiladi. Bunga mos yozuv ishlatish hujjatlarida aks ettirilishi lozim.

Davriy qiyoslash natijalari qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqda amal qiladi. Birinchi qiyoslashlar o'rtasidagi oraliq asbob turini tasdiqlashda belgilanadi.

Davlat metrologiya xizmati organlari va yuridik shaxslar davriy qiyoslashlar natijalarini, qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni ularni qo'llanish xususiyatlarini hisobga olib, ularni tuzatish (o'zgartirish kiritish) bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishlari lozim. Qiyoslashlar orasidagi oraliqlarni aniqlashtirish Davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik shaxsning metrologik xizmati bilan kelishilgan holda o'tkaziladi. Tomonlar kelisha olmagan holda qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni o'zgartirish haqida xulosa chiqarishga imkon beradigan tadqiqotlar natijalari Davlat metrologiya markazlariga beriladi va ular tegishli xulosa chiqaradilar.

Davriy qiyoslash foydalanuvchi, Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazi yoki qiyoslash huquqi bo'yicha akkreditlangan yuridik shaxs hududida o'tkazilishi mumkin. Qiyoslash joyini o'lchash vositalarining foydalanuvchisi iqtisodiy omillar hamda qiyoslanadigan o'lchash vositalarini tashib keltirish imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlaydi.

O'lchash vositalarni ishlab chiqaruvchi yoki ta'mirdan chiqaruvchi, shuningdek, o'lchash vositalarini ishlatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar, o'lchash vositalarini tayyorlash, ta'mirlash yoki ishlatish joylarida, qiyoslash uchun maxsus qiyoslash qurilmalari, statsionar etalonlar talab qilinadigan hollarda tegishli qurilmalar va etalonlarga ega bo'lishlari va ularni Davlat metrologiya xizmati organlari ixtiyoriga berishlari lozim.

O'lchash vositalarini tayyorlash, ta'mirlash yoki ishlatish joylarida Davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan qiyoslashlarni amalga oshirish vaqtida yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilarga amal qilishlari kerak:

-Davlat metrologiya xizmatiga tegishli bo'lgan etalonlarni va yordamchi vositalarni zarur bo'lgan hollarda qiyoslash joyiga olib kelish va olib ketishni ta'minlashlari;

-qiyoslashni bajarish uchun zarur bo'ladigan xonalar va yordamchi xodimlarni ajratishlari;

-zarur hollarda Davlat metrologiya xizmatiga tegishli etalonlarni ularning tamg'asi ostida saqlab berishni ta'minlashlari;

-ko'chma qiyoslash laboratoriyasi tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan holda turish joyini berishlari hamda elektr, gaz va suv ta'minoti tarmoqlariga ulanishini, shuningdek, uning saqlanishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

O'lchash vositalari Davlat metrologiya xizmati organlari talabiga muvofiq qiyoslash uchun ochilgan holatda, texnik tavsifi, ishlatish uslubiyati, pasporti yoki so'nggi qiyoslash haqidagi guvohnomasi, zaruriy butlovchi qurilmalar bilan birga taqdim qilinishi lozim.

O'lchash vositalarini qiyoslash grafiklarini tuzish tartibi yuqorida sanab o'tilgan normativ hujjatlarga muvofiq ravishda belgilanadi, korxonada tomonidan ularning ishlatish sharoitlari va intensivligiga bog'liq ravishda doimiy shayligini hisobga olib tuziladi.

Fizik kattalik o'lchamining o'zgarish faktini bu o'zgarishni miqdoriy baholamasdan aniqlash uchun qo'llaniladigan o'lchash vositalari indikatorlar guruhiga kiritilishi mumkin va qiyoslanmaydi. Faqat indikator sifatida qo'llaniladigan o'lchash vositalarining old tomoniga

«I» (indikator) belgisi qo'yiladi. O'lchash vositalarini indikatorlar guruhiga metrologiya xizmatiga ega bo'lgan korxonalar (tashkilotlar) o'tkazishlari mumkin, bunda uning nizomi vazirlik (idora) metrologiya xizmati nizomi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, «O'zstandart» agentligi bilan kelishilgan bo'lishi kerak. Indikatorlar maqomiga o'tkazilgan o'lchash vositalari maxsus ro'yxatga kiritiladi va unda o'lchash vositalarining turi, zavod va ashyo nomeri (tartib raqami), ishlatish bo'yicha vazifalari tavsifi ko'rsatiladi. Indikatorlar sifatida qo'llaniladigan o'lchash vositalari ro'yxati nusxasini «O'zstandart»ning hududiy organiga topshiriladi.

Agar metrologik nazorat o'tkazish vaqtida o'lchash vositalari indikatorlar maqomiga noto'g'ri o'tkazilgan yoki ularning vazifasi ro'yxatda ko'rsatilganiga mos kelmasa, u holda o'lchash vositalari – indikatorlar ro'yxati bekor qilinadi, metrologiya xizmati o'lchash vositalarini indikatorlarga o'tkazish huquqidan ajraladi, o'lchash vositalari esa qiyoslashdan o'tkaziladi.

O'quv maqsadlarida (namoyish etish) qo'llaniladigan o'lchash vositalari davriy qiyoslashdan o'tkazilmaydi. Unga «O'» (o'quv) belgisi qo'yiladi. Boshqa maqsadlar uchun ular qo'llanilishi mumkin emas. Ularning sozligi tegishli qoidalar bilan nazorat qilinadi va o'quv jarayoni talablariga mos bo'lishi kerak.

Optimal qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni tanlash masalasi yetarlicha murakkab bo'lib, hali tugal hal qilinmagan. Bu oraliqning tanlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning xilmaxilligi bilan bog'liqdir. O'lchash vositalarining xatoligi ishlatilish jarayonida o'zgarib qolmaydi va ayrim hollarda ularning qiymatlari mazkur o'lchash vositalari uchun ruxsat etiladigan aniqlik sinfidan oshib ketishi mumkin.

Amaliyotda qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni aniqlashning bir necha usullaridan foydalaniladi. Bularning hammasi quyidagiga asoslanadi: o'lchash vositalari joriy xatoliklari o'zgarishining matematik kutilishi va dispersiyasi vaqt ichida o'zgaradigan tasodifiy nostatsionar jarayondir. Bu jarayonning parametrlari o'lchash vositasining faqat turiga emas, balki ishlatish sharoitlariga, ishlatilish intensivligiga ham bog'liqdir.

Qiyoslash oralig'ining qiymati ruxsat etiladigan ishlay qolish ehtimoligiga (metrologik yaroqlilik koeffitsiyentiga) ham bog'liqdir. Bu to'rtta asosiy omilni qiyoslashlar o'rtasidagi hisoblashda asos qilib olinishi mumkin. Ba'zi o'lchash vositalari uchun bu omillar bir xildir. Masalan, barcha ishchi etalonlar laboratoriya sharoitlarida, temperatura va namlik doimiy bo'lganida, silkinishlar, vibratsiyalar, tajovuzkor muhit bo'lganida ishlatiladi. Bu o'lchash vositalarini ishlatish intensivligi taxminan bir xil va faqat o'lchash vositalarining turiga bog'liq. Ishlay qolishning ruxsat etiladigan ehtimoligi ishonchlik ehtimoligining funksiyasi bo'lib, qiyoslash sxemasi bilan aniqlanadi. Shu sababli ishchi etalonlar uchun qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlar, bu vositalar davlat metrologiya organlarida yoki idoralar metrologiya xizmatlaridan foydalanishidan qat'iy nazar, mamlakat doirasida bir xil qilib belgilanishi mumkin.

Masalan, elektr kattaliklarining ishchi etalonlari uchun ushbu qiyoslash davriyligi belgilangan:

-o'lchash transformatorlari – 5 yilda 1 marta;

-sig'im, o'zgaruvchan tok induktivligi va sig'imi o'lchovlari – 2 yilda 1 marta;

-elektr kattaliklarining boshqa ishchi etalonlari – bir yilda 1 marta. Qiyoslashlar o‘rtasidagi oraliqning belgilash uchun boshlang‘ich asoslar, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, asbob turi, ishlatilish sharoiti, ruxsat etiladigan metrologik yaroqlilik koeffitsiyentidir.

Bu koeffitsiyent qiyoslashda yaroqli deb tan olingan o‘lchash vositalari sonining qiyoslangan o‘lchash vositalari jami soniga nisbatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘rayev M.U. Yo‘ldashev A.X. va boshqalar Standartlashtirish asoslari. T., «Barkamol fayz media», 2017. -312 b.
2. Nazarbayeva B.A. O‘lchash asboblarini konstruksiyalash (o‘.q) T., «Tafakkur avlodi», 2020. -392 b.
3. Mamajonov A.A., Sattorov M.O., Xakimov D.V. O‘lchash usullari va vositalari. T., «NIF MSH», 2020. -254 b.
4. Maxmonov U.A. Amirqulov U.O. Standartlashtirish, metrologiya va sifatni baholash. T., «Excellent Polygraphy», 2020.-293 b
5. Maxmonov U.A. Amirqulov U.O. Standartlashtirish, metrologiya va sifatni baholash. T., «VORIS-NASHRIYOT», 2019.-287 b.
6. Ismatullayev P.R., Qodirova SH.A., Metrologiya asoslari, T., «Asian Book House», 2020.-290 b.
7. Maxmonov U.A., Azizov R.Q. Metrologiya va standartlashtirish. T., «Adabiyot uchqunlari», 2018.-234 b.

REZBALI BIRIKMALARNING SODDALASHTIRILGAN TASVIRLARI


Raximov Jo‘ra Suyunovich

“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, dotsenti
juraraximov_1964@mail.ru

B. Suyunova- Termez Davlat Pedagogika Instituti 1- kurs magistranti,
F. Suyunova- Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti 2-kurs magistranti

Ajraladigan birikmalardan eng keng tarqalgani rezbali birikmalardir. Ularga boltli, shpilkali, va vintli biri kmalar kiradi. Bu birikmalarning detallari-boltlar, vintlar, shplkalar, gayka va shaybalarstandartda belgilangan ma’lum shakl, o‘lcham va shartli belgilarga ega. Bu belgilardan foydalanib, standartlar jadvallaridan mahkamlash detallarining o‘lchamlarini topish mumkin. Uning qanday qilinishi shponkalarni tanlash va boltni chizish misolida ko‘rsatiladi.

Ajraladigan birikmalar va ularning turlari



1-rasm. Boltli birikma.

Bunday birikma detallari – bolt, gayka va shayba 1-rasmda ko'rsatilgan.

Odatda, boltlar, gaykalar, shaybalar, shpilka va vintlarni maxsus zavodlar – metall buyumlari zavodlari tayyorlaydi. Bu zavodlar barcha korxonalarni shunday detallar bilan ta'minlaydi. Shuning uchun mahkamlash detallarining tasvirini asosan yig'ish chizmalarida ko'rish mumkin, chizmalarda ular boshqa detallar bilan biriktirilgan holda ko'rsatiladi.

Yig'ish chizmalarida boltli, shpilkali va vintli birikmalar nisbiy o'lchamlar bilan chiziladi.

Yig'ish chizmalarida mahkamlash detallarining o'lchamlari qo'yilmaydi. Birikmaga qanday bolt va shpilka kirganligini qanday bilish mumkin?

Bu haqdagi zarur ma'lumotlar yig'ish chizmalarida spetsifikatsiya yoziladigan belgilarda bo'ladi.

Bolt bir uchida rezba, ikkinchi uchida kallak bo'lgan sterjendan iborat. Bolt rezbasiga gayka burab, biriktiriladigan detallar bolt kallagi bilan gayka orasiga qisiladi, ba'zan gayka tagiga shayba – markazida silindrik teshik bo'lgan disk qo'yiladi.

Soddalashtirish quyidagilardan iborat. Bolt va gaykalarining olti yoqli va kvadrat kataklardagi, shuningdek, sterjendagi faskalar tasvirlanmaydi. Biriktiriladigan detallardagi bolt sterjeni bilan teshik orasidagi zazorni ko'rsatmaslikka yo'l qo'yiladi.

Gayka va shaybani tasvirlashda ko'rinmaydigan kontur chiziqlari chizilmasligiga e'tibor beramiz. Agar kesuvchi tekislik boltlarning o'qi bo'ylab o'tgan bo'lsa, yig'ish chizmasida boltlar kesmasdan ko'rsatiladi. Gayka va shaybalar ham kesmasdan tasvirlanadi. Gayka va bolt kallagini chizishda oltiburchaklikning tomoni rezbaning tashqi diametriga teng qilib olinadi. Shuning uchun bosh tasvirda gaykaning o'rta yog'i bilan bolt kallagini cheklovchi vertikal chiziqlar bolt sterjenini ifodalovchi chiziqlar ustiga tushadi.

Boltlar uchun rezbaning diametri va tipi, sterjenning uzunligi va standart nomeri ko'rsatiladi. "Bolt M12x1, 25x60" yozuvi \emptyset 12 mm bo'lgan metrik rezbani, bolt qadami 1,25 mm (mayda), sterjenning uzunligi 60 mm ekanligini bildiradi.

Gayka uchun rezbaning diametri va tipi ko'rsatiladi. "Gayka M16" yozuvi: diametri 16 mm li metrik rezbali gayka ekanligini bildiradi. Rezba yirik qadamli. Shaybalar uchun bolt diametri ko'rsatiladi. "Shayba 12" yozuvi diametri 12 mm li bolt uchun mo'ljallangan shaybani bildiradi.

Ko'p mashinalarni buyumlari (detailar) rezba yordamida biriktiriladi.

Rezba – bu silindrik yoki konus sirti bo'ylab tekis kontur vintsimon harakatidan hosil bo'lgan sirt. Tekis konturni bunday harakatidan vintli va silindirli yoki konusli sirtlar bilan chegaralangan va tegishli profil vinti turtib chiqqan joy (bo'rtiq, do'ng) hosil bo'ladi.


Silindr yoki konus turtib chiqqan joy bilan birga vint deyiladi.

O'quv chizmalarida talaba boltli birikma elementlarini nisbiy o'lchamlar bo'yicha amalga oshiradi.

Ikkinchi uchiga gayka buraladi, gaykaning tagiga shayba qo'yiladi. Shu tariqa ular (detal-1 va 2) ni bir-biriga qisib turadi. Detal 2 dagi teshikning diametri shpilka diametridan kattaroq bo'ladi.

Shunday qilib birikmalar to'g'risidagi chizmalarda faqat asosiy o'lchamlar qo'yiladi. Birikma detallarining o'lchamlari tegishli GOST dan olinadi.

Shpilkali birikma




2-rasm. Shpilkali birikma.

Shpilka yordamida detallarni biriktirish uchun detallardan biri(l) to'liq teshilmaydi ya'ni unga chuqurlikda teshik o'yiladi va unga metchik bilan rezba chiqarilgan bo'ladi(3-pacm).

Shpilkali birikma. Bunday birikma detallari: shpilka, gayka va shayba(3-rasm).

Shpilka ikki uchida rezbasi bo'lgan sterjendan iborat. Shpilka bir uchidagi rezbasining butun uzunligi bo'yicha detal 1 dagi bir tomoni berk rezbali teshikka burab kiritiladi.

Ikkinchi uchiga gayka buraladi, gaykaning tagiga shayba qo'yiladi. Shu tariqa ular (detal-1 va 2) ni bir-biriga qisib turadi. Detal 2 dagi teshikning diametri shpilka diametridan kattaroq bo'ladi.



3-rasm. Shpilkalar sxemasi

Shpilkaning ikkinchi uchiga gayka buraladi, gaykaning tagiga shayba qo'yiladi. Shu tariqa ular (detal-1 va 2) ni bir-biriga qisib turadi. Detal 2 dagi teshikning diametri shpilka diametridan kattaroq bo'ladi.

Shunday qilib birikmalar to'g'risidagi chizmalarda faqat asosiy o'lchamlar qo'yiladi. Birikma detallarining o'lchamlari tegishli GOST dan olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Xorunov «Chizma geometriya kursi» Toshkent, O'qituvchi – 1997
2. Sh.Murodov, L.Xakimov va boshqalar «Chizma geometriya» Toshkent, Iqtisodmoliya - 2006

3. Ruziev E.I. va boshqalar “Muxandislik grafikasini o‘qitish metodikasi” – Fan va texnika -2010

4. Sh.Murodov va boshqalar, Chizma geometriya – 2006, Iqtisodmoliya

5. G.Ya.Sodiqova, M.T.Nurullaeva “Chizma geometriya va muxandislik kompyuter grafikasi” fanidan ma’ruzalar matni, TKTI, 2009.

ZAMONAVIY O‘QITISHDA DUAL TA’LIMDAN FOYDALANIB MALAKALI MUHANDISLAR TAYYORLASH

I.N.Kodirov, f.m.-f.n., professor,
QarMII. kodirov@gmail.ru

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Prezident 20.06.2024 yilda “Muhandislik sohalaridagi kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan ustuvor vazifalar” masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida muhandislik sohalaridagi kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim faoliyatini yanada takomillashtirish borasida qilinadigan ishlarning eng muhimlari biri esa bu - barcha muhandislik oliygohlarining hamkor **korxonalarda kafedralarni ochilishi va ularda dual ta’lim** yo‘lga qo‘yilishi hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida dual ta’limni qo‘llanilishini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son qarori bilan professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlangan. Bundan tashqari, Respublikada qayta tiklanuvchi energiya manbailari yo‘nalishida malakali muhandis kadrlar tayyorlash borasida milliy reja, maxsus dastur ishlab chiqish, mazkur soha uchun oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida dual ta’lim tizimini qo‘llagan holda zamonaviy o‘qitishda dual ta’limdan foydalanib malakali muhandislar tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi [1,7-8].

Dualni ta’limni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar ko‘rib chiqildi va shu narsa ayon bo‘ldiki, dual ta’limning shakli har doim va har yerda ham joriy etishga mos kelavermasligi hamda ishlamasligi qayd etilgan [5-6]. Biroq, bugungi kunga qadar, dual ta’limning usullari va uni tashkil etishning metodologik asoslari va uslubiy tamoyillari kam o‘rganilgan va bu boradagi ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Ishlab chiqarish korxonalarining malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari va hajmini qondirish uchun oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining bilim va malakalarini oshirish uchun ta’lim tizimini yanada rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Rivojlangan va ilg‘or mamlakatlar tajribasini tahlil qilish natijalari (masalan Germaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Xindiston, Buyuk Britaniya, Braziliya, Rossiya, Malayziya kabilarni), shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoni va amaliyotning integratsiyasi korxonalarining turli xil sohalarida malakali mutaxassislarning yuqori sifat darajasida tayyorlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Dual ta’limni “kasbiy tayyorgarlik faoliyatda talabalarni kasbiy yo‘nalishlaridagi individual bilim va ko‘nikmalarining shakllanishini ta’minlovchi pedagogik faoliyat deb tassavvur qilish mumkin” [2]. Bunday holda, asosiy rolni bevosita amaliyot o‘ynaydi. L.V. Sidakova dual ta’lim tizimi “ta’lim muassasasining o‘qitish faoliyatini ishlab

chiqarish korxonalari faoliyati bilan kombinatsiyasini nazarda tutuvchi ta'lim tizim" ekanligini e'tirof etadi [3]. Mutaxassislar tayyorlashning dual ta'lim tizimini "oliy kasbiy ta'limning ish beruvchi ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi aniq muvofiqlashtirilgan, muayyan kasb-hunar bo'yicha talab qilinadigan malaka darajasiga ega bo'ladigan mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ta'lim tizimi" deb qarash mumkin [4].

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Dual ta'lim tizimi bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarish korxonalari uchun oliy ma'lumotli malakali muhandis-texnik kadrlarni tayyorlashda kasbiy tayyorgarlik muammosini hal qilishga imkon beradigan, moslashuvchan va samarali mexanizm hisoblansada, dual ta'limning o'ziga xos xususiyatlarga, afzalliklarga ega bo'lishi e'tirof etish bilan birga uning ko'pgina afzalliklarini va kamchiliklarini aniqlash imkoni bo'ldi (1-jadval):

Dual ta'limning afzalliklarini va kamchiliklarini

1-jadval

	Dual ta'lim afzalliklari	Dual ta'lim kamchiliklari
	Dual mutaxassislar tayyorlash tizimi an'anaviy ta'lim shakllari va usullarining kamchiliklarini bartaraf etadi, ya'ni nazariya va amaliyot o'rtasidagi farqni bartaraf etadi	Ta'lim tashkilotlarining o'quv dasturlari har doim ham korxonada bajariladigan ishlarning mavsumiy ketma-ketligiga mos kelvermaydi
	Amaliy qism nafaqat ta'lim muassasalarining ustaxonalarida, balki korxonalarda ham amalga oshiriladi. Ishchi dasturlarining mazmuni ta'lim muassasa va ish beruvchilar o'rtasida kelishiladi	Ta'lim tashkiloti ba'zan korxonadan tomonidan talab qilinadigan o'quv materialini taqdim etishga ulgurmasligi mumkin
	Ta'lim muassasa va korxonada o'rtasida yaqin munosabatlar paydo bo'lishi va rivojlanishi mumkin. Bitiruvchi ishga joylashganda, olingan bilimlarni darhol qo'llashi mumkin. Kasbni aniq tavsiflari, shu bilan bir qatorda tayyorgarlikning bir xil darajasini ta'minlaydi. Dual ta'lim tizimining mexanizmida mutaxassisning shaxsiyatiga ta'sir qilish, kelajakdagi xodimning yangi psixologiyasini yaratish.	An'anaviy ta'limda talabalar hohishiga ko'ra har doim ham mutaxassisligini o'zgartirishi yoki o'qishni to'xtatishlari mumkin, dual ta'limda esa vaziyat boshqacha. Agar talaba ushbu o'quv shakliunga mos kelmasligini yoki noto'g'ri mutaxassislikni tanlaganini tushunsa, talaba o'qishini to'xtatishi juda qiyin bo'lishi mumkin.
	Xodimlarni o'qitishning dual tizimi ishda bilim olish va malakaga ega bo'lish uchun yuqori motivatsiya yaratadi, chunki ularning bilim sifati ish joylarida o'z vazifalarini bajarish bilan bevosita bog'liqdir.	Dual ta'lim talabalari har semestrda imtihonlar bilan tugaydigan ma'ruzalarni va amaliyotni birlashtirishlari kerak. Boshqa talabalardan farqli o'laroq, ularda ikki semestr oralig'ida ta'til yo'q, faqat

		kompaniya ularga taqdim etadigan ta'lim (yiliga 25 dan 30 kungacha) bo'lishi mumkin
	Xodimlarni o'qitishning dual tizimi ishda bilim olish va malakaga ega bo'lish uchun yuqori motivatsiya yaratadi, chunki ularning bilim sifati ish joylarida o'z vazifalarini bajarish bilan bevosita bog'liqdir.	Korxonalarining o'qitishga tayyorligi doimiy yetarli emasligi - natijada ishlab chiqarishda o'quv joylari tashkil qilinmagan holatlar ko'p uchrashi
	Ishchi dasturlarining mazmuni ta'lim muassasa va ish beruvchilar o'rtasida kelishiladi. Ta'lim muassasa va korxonada yaqin munosabatlar paydo bo'lishi va rivojlanishi mumkin.	Dual ta'lim tizimining mexanizmida mutaxassisning shaxsiyatiga ta'sir qilish, kelajakdagi xodimning yangi psixologiyasini yaratish. Tegishli muassasalar rahbarlarining o'z xodimlarini amaliy o'qitishga bo'lgan qiziqish.
	Bitiruvchi ishga joylashganda, olingan bilimlarni darhol qo'llashi mumkin. Kasbni aniq tavsiflari, shu bilan bir qatorda tayyorgarlikning bir xil darajasini ta'minlaydi.	Korxonalarining o'qitishga tayyorligi doimiy yetarli emasligi - natijada ishlab chiqarishda o'quv joylari tashkil qilinmagan holatlar ko'p uchrashi

Dual ta'limni joriy etishda o'quv jarayoni talabalar guruhiga tayangan holda, shuningdek, dual ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlashning individuallashtirilgan tizimi foydalanish uchun ta'lim jarayonini individuallashtirish maqsadida masofaviy ta'limni qo'llash va bunda tarmoq ta'lim mexanizmlarini joriy etishga asoslangan holda tuzilgan. Oliy ta'lim tizimida dual ta'lim muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida ishtirok etuvchilar o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan dual ta'lim modelini ishlab chiqish taklif etiladi [6].

Ushbu modelning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: huquqiy, konseptual komponentlar, oliy ta'lim tashkilotlari uchun dual ta'limni joriy etish dasturi, hamda kadrlar komponenti. Har biri taklif qilingan elementlar o'zaro boshqasini e'tirof etadi. Bunda konseptual komponent texnologik, uslubiy, shaxsiy-natijaviy darajalari, mexanizmlari va talabaning o'qitish uchun motivatsiyaning bir qancha shartlari faoliyati bilan ifodalanadi.

Xulosa. Texnik oily ta'lim muassasalarida malakali muhandis kadrlar tayyorlashda dual ta'limining xususiyatlaridan foydalanish va dual ta'limni joriy etish jarayoni o'quv faoliyatini tashkil etishda zarur bo'lgan anchagina tub o'zgarishlarni amalga oshirishni; o'quv dasturining nazariy va amaliy qismlari adekvat almashtirish mexanizmlarini yaratish talab qiladi.

Dual ta'lim tizimi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash imkonini beruvchi, zamonaviy sharoitda bozor iqtisodiyotining turli sohalaridagi faoliyat olib borayotgan korxonalarida tomonidan talab qilinadigan mutaxassislar tayyorlashga samarali va moslashuvchan mexanizm hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarining malakali kadrlar tayyorlash tizimiga dual ta'lim tizimi tamoyillarini joriy etish eng samarali usul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori.

2. Kozlova S.A., Kulikova T.A. Doshkolnaya pedagogika. Moskva, 2000.

3. Sidakova L.V. Sushnost i osnovniye priznaki dualnoy modeli obucheniya. Obrazovaniye i vospitaniye. 2016; 2: 62 – 64.

4. Rastegayeva D.A., Filimonyuk L.A. osnovi realizatsii sistemi dualnogo obucheniya v professionalnoy podgotovke studentov organizatsiy visshogo obrazovaniya. Mir nauki, kulturi, obrazovaniya. 2017; 6 (67): 110 – 112.

5. Xaritonova N.D. Dualnaya sistema obrazovaniya v visshey shkole: effektivnost vnedreniya. Elektronniy nauchno-metodicheskiy jurnal Omskogo GAU. 2017; 3: 15. Available at: <https://elibrary.ru/item.asp?id=28889620>

6. Tereshenkova YE.V. Dualnaya sistema obrazovaniya kak osnova podgotovki spetsialistov. Nauchno-metodicheskiy elektronniy jurnal «Konsept». 2014; 4: 41- 45.

DISTANSION (MASOFAVIY) TA'LIM TEXNOLOGIYASI HAQIDA TUSHUNCHA

Suyunova Zamira Ibragimovna –
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Hozirgi kunda ixcham va arzon bo'lgan notebook, netbook, i-pad, i-phone va smartphone kabi axborot vositalari rivojlanmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonida bunday vositalardan foydalanishga bo'lgan qiziqish va talab ortib bormoqda. Masofaviy ta'lim esa aynan shu texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan jarayondir. Respublikamiz maktablarining internet tarmog'iga ulanishi mamlakatimizda masofadan o'qitish kurslarini tashkil qilish va o'tkazish imkoniyatini yaratdi. Masofaviy ta'lim texnologiyasi bu shaxs bilan mustaqil, lekin nazorat qilinuvchi belgilangan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muloqot qilish vositalari, shakllari va metodlari yig'indisidir. Uning asosiy bo'g'ini telekommunikatsiya vositalari va ularni yetkazuvchi vositalar hisoblanadi. Ulardan quyidagi o'qitish jarayonlarini ta'minlash uchun foydalaniladi:

- muhim, zarur o'quv va o'quv-metodik materiallar;
- o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida teskari aloqa;
- masofaviy ta'lim tizimida boshqariluvchi axborotlarni almashish;
- xalqaro axborot tarmoqlariga chiqish, shuningdek, xorijiy foydalanuvchilar bilan Masofaviy ta'lim tizimida bog'lanish.

Masofaviy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimi shakllaridan biri bo'lib, shaxsning ta'lim olish huquqini ta'minlab, ta'lim oluvchilarga mamlakatning ixtiyoriy hududida ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, bunday ta'lim shaxsga o'z ish faoliyatidan ajralmagan holda asosiy yoki qo'shimcha ta'lim olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, masofaviy ta'lim quyidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshiradi:

- jamiyatning savodxonlik darajasini va ta'lim sifatini oshirish;
- aholining ta'lim xizmatiga bo'lgan ehtiyojini qondirish;
- mamlakatning malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va hokazo.

Masofaviy ta'lim tizimi mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun quyidagi jarayonlarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi:

- ✓ ta'lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish;
- ✓ aholining ta'lim texnologiyalariga ehtiyojini shakllantirish;
- ✓ xalqaro aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'zgarishlarni amalga oshirish;
- ✓ ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida axborot almashish uchun sifatli, yangi texnik vositalarning paydo bo'lishi va tez rivojlanishi;
- ✓ ta'lim sohasida xalqaro integratsiyani o'stirish.

Masofaviy ta'limning ta'lim oluvchilar uchun qulayligi shundaki, ular bu tizimda ma'ruza va seminar shaklidagi mashg'ulotlarga muntazam qatnashmaydilar, o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtda, joyda va qulay darajada ishlaydilar hamda o'qiydilar. Har bir ta'lim oluvchi fanni o'zlashtirish va tanlangan kurslar bo'yicha zarur sinovlarni olish uchun qancha kerak bo'lsa, shuncha o'qishi mumkin. Masofaviy ta'lim tizimida o'qituvchiga bilish jarayonini muvofiqlashtirib borish, o'qitilayotgan fanni rivojlantirish va moslashtirish, individual o'quv rejalarini tuzishda maslahatlar berish, o'quv loyihalariga rahbarlik qilish va boshqa shu kabi vazifalar yuklatiladi. Ta'lim sifatini nazorat qilish masofadan tashkil etiladigan imtihonlar, suhbatlar, ijodiy ishlar, intellektual test tizimi orqali amalga oshiriladi. Masofadan o'qitishning o'quv jarayoni an'anaviy o'qitishdagi kabi Xalq ta'limi vazirligi (XTV) tomonidan tasdiqlanadigan o'quv reja va o'quv jarayoni jadvali hamda o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi. Ta'lim oluvchilarning egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarining nazorati o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatiladigan muddat va davrlarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Rasman nazoratning oraliq, yakuniy hamda bitiruv ishining taqdimoti turlari nazarda tutiladi. Lekin jarayonning borishiga qarab, tarmoqda kuzatishning ta'minlanishi sharti bilan kundalik, joriy va nazoratning boshqa turlarini qo'llashga ruxsat etiladi. O'quv jarayoni jadvali bo'yicha oraliq nazoratlar (asosan tarmoqda - test usulida, lekin kontakt sessiyalarda ham amalga oshirilishi mumkin) o'tkazilishi ta'minlanadi va har bir tinglovchining o'quv faoliyati tarmoqda kuzatib boriladi va monitoringi amalga oshiriladi. O'quv jarayoni jadvaliga rioya qilingan holda kontakt sessiyalar o'tkaziladi va ularda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkaziladi, kerakli konsultatsiyalar beriladi.

O'qish yakunida oraliq nazoratlardan muvaffaqiyatli o'tgan ta'lim oluvchilar yakuniy nazoratga qo'yiladi. Yakuniy nazoratdan tashqari bitiruv ishi taqdimoti o'tkazilishi maqsadga muvofiq (taqdimot tarmoq orqali ham bo'lishi mumkin). Ta'lim oluvchilarga kursni tamomlaganligi haqida tegishli hujjatlarni berish kabi tadbirlarni ham tarmoq orqali amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'limning joriy etilishi ta'lim sohasida yagona axborot makonini yaratish va ta'lim oluvchilarga axborotlarni tezkor yetkazish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va o'quv-moddiy bazalaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim oluvchilar bilimini xolisona baholash va ta'lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Kimki eskicha ishlasa, fan-texnika yangiliklaridan, Internet imkoniyatlari va yuksak texnologiyalardan ortda qolsa, uning kelajagi xam bo'lmaydi. Respublikamizda bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va Internet tarmog'ini rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti. Shunga ko'ra, ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida informatika va yangi axborot texnologiyalari fanlarining o'qitilishi - davr talabi bo'lib

qolmoqda.

Bu ta'lim turini paydo bo'lishiga asosiy sabab deb informatsion va kommunikativ texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va ular asosida prinsipial yangi ta'lim texnologiyalar (internet texnologiyalar) yaratilishini xisoblash mumkin. Internet texnologiyalardan foydalanish bizga o'quv materiallarni cheksiz va juda arzon tarkatish va ko'paytirish, xamda uni o'quvchilarga tezkor va aniq yetkazish imkoniyatlarini yaratib berdi. Shu bilan birga ta'lim interaktiv bo'lganligi sababli, o'quvchining o'z ustidan mustaqil ishlashning o'rni juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masofaviy ta'lim (MT) - bu o'qituvchi va o'quvchi bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli, axborot texnologiyalardan foydalanilgan ta'lim turi. Bu ta'lim turini bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lim tashkil kilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lim uchun mutaxasislar mavjudligi, ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Toshkent, 2020 y.
2. Omonova N.T., Xo'jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik, Toshkent, 2009 y.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. Darslik, Toshkent, 2005 y.
4. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent, 2004 y.

AXBOROT TA'LIM MUHITIDA MATEMATIK TA'LIMNI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA INDIVIDUALLASHTIRISH

Hasanov Navruzбек Raxmon O'g'li
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti magistri

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish va o'quvchilarni individual ehtiyojlariga mos tarzda o'qitish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Axborot texnologiyalari va dasturiy vositalarning rivojlanishi ushbu jarayonlarni optimallashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, matematik fanlarni o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanish ta'limni individuallashtirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Har bir o'quvchining bilim olish sur'ati, qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab moslashuvchan ta'lim tizimlarini joriy qilish orqali matematik bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish mumkin.

Matematik ta'limni axborot muhiti asosida tashkil etish nafaqat an'anaviy ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, balki ta'limni yanada jonli, interaktiv va o'quvchilar uchun qiziqarli qiluvchi innovatsion yondashuvlarni ham joriy etishga imkon beradi. Dasturiy vositalar va interaktiv platformalarning qo'llanilishi orqali ta'lim jarayonini individual darajada shakllantirish, har bir o'quvchining ehtiyojlari va bilim darajasiga mos keladigan ta'lim kontentini taqdim etish imkoniyati tug'iladi.

Ushbu bo'limda dasturlash muhitida individuallashtirish va individual individual ta'lim trayektoriyasi tushunchalari ko'rsatib o'tiladi, shuningdek, dasturlash muhitida ta'limning mavjud modellarini ko'rib chiqish va talabalarning dasturlash muhitiga jalb etilishini ta'minlovchi o'quv jarayonining geymifikatsiyasi taqdim etiladi.

Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta'limni modernizatsiyalash yo'nalishi talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturlash muhiti yordamida ta'lim jarayonini individuallashtirishni ta'minlashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlardan biri talabalarni individual ta'lim muhiti bilan ta'minlovchi individuallashtirilgan dasturlash o'quv kurslarini ishlab chiqish va qo'llash bo'lib, uning nazariy va amaliy materiali talabalarning individual xususiyatlariga qaratilgan.

Ta'limda individuallashtirish g'oyasi yangilik yemas. Pedagogikada individual yondashuv zarurligi haqida birinchi bo'lib Y.A. Komenskiy (1592-1670). asarlarida so'z yuritiladi. U "Buyuk didaktika" asarida o'zining individual xususiyatlarni hisobga olgan holda bir necha turdagi tarbiyalanuvchilarni aniqladi: "o'tkir zehni, bilimga intiluvchi va nuqsonlilar", "o'tkir zehnlilar bor, lekin sekin, garchi itoatkor bo'lsa-da, "bilim olishga intiluvchi, ammo shavqatsiz va o'jarlar ham bor", "ishda itoatkor va sustkash talabalar bor, ammo sekin va sustkash talabalar ham bor" kabi ikki guruhga ajratgan.

Xulosa

Axborot ta'lim muhiti va dasturiy vositalardan foydalanish bugungi kunda matematik ta'limni individuallashtirishning samarali vositasi sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga, bilim olish jarayonini shaxsiy qobiliyat va sur'atga moslashtirishga imkon beradi. Dasturiy vositalar, interaktiv platformalar va masofaviy ta'lim tizimlari yordamida har bir o'quvchi o'z bilimi va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar matematik tushunchalarni chuqurroq anglab, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo'ladilar.

Matematik ta'limda dasturiy vositalar asosida amalga oshirilgan individual yondashuv nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki ularning fanlarga bo'lgan qiziqishini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi orqali har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash va ta'lim sifati oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маркова, А.К. Формирование мотивации учения / А.К. Маркова, Т.А. Матис, А.Б. Орлов. – М.: «Просвещение», 1990. – 192 с.
2. Маскаева, А.М. Вариативное обучение как одно из направлений модернизации образования / А.М. Маскаева, Е.И. Санина // Преподаватель XXI века. – 2010. – №4. – С. 7-10.
3. Махмутов, М.И. Принцип профессиональной направленности обучения / М.И. Махмутов // Принципы обучения в современной педагогической теории и практике. – 1985. – С. 88-100.
4. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on Physics. Scientific Bulliten on Namangan State University: Vol.1:

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABLAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Tojiyev Panji Joyliyevich
DsC, texnika fanlari doktori, professor,
Raxmatova Salima Togaymuradovna
PhD, pedagogika fanlari doktori.
Termiz davlat pedagogika instituti,

Ma'lumki, multimedia texnologiyalaridan zamonaviy talablar darajasida ta'lim jarayonida foydalanish samarali natija beradi⁴. Uning samarasini izohlovchi sabablar—bu o'qitish vositasining yangiligi, videoqatorlar mosligi, tovush va matn hamohangligida kuzatish imkoniyatining mavjudligi (ham ko'rish, ham eshitish) va h.k. bo'lib, bularning hammasi “didaktikaning oltin qoidasi”ga mos keladi. Multimedia texnologiyalari tasviriy materiallarni boyitish, unikal videolavhalar va animasiyalar bilan to'ldirish, murakkab jarayonlar dinamikasini ko'rsatish imkonini beradi. Kompyuter texnikasi yordamida ko'plab ko'rgazma vositalarini (jadvallar, videofilmlar, slaydlar) elektron ko'rinishga keltirish, uzoq va kompakt holatda saqlash imkoni mavjud.

Biologiya darslarida talabalarni “darsni quvvatlash” dasturini mustaqil tayyorlash, mavjud elektron qo'llanmalar ssenariysini o'zgartirish va to'ldirish, ularni pedagogik amaliyotdan o'tkazishda tegishli talablarga muvofiq qo'llash borasida bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashga yo'naltirib boriladi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda, chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni avtomatlashtirish (axborotlashtirish) yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

a) ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirishning etakchi bo'g'inligini ta'minlash;

b) barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish (monitoring), resurs markaz tizimi;

v) axborotlashtirish sohalarida meyoriy bazalarni yaratish (koordinatsiyalar, metodlar, ilmiy-metodik birlashmalar va x.k.);

g) texnik ta'minotni — kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari (fotoapparatdan mikroskopgacha), ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;

d) telekommunikatsiya (xavo orqali, erning sun'iy yo'ldoshlari va boshqa aloqa kanallari) tarmoqlari;

ye) ta'minot resurslari (dasturiy ta'minot, internetdagi axborotlar majmui, ma'lumotnomalar va x.k.).

Axborot texnologiyasidan foydalanish va uni biror-bir sohaga tatbiq etish o'z ichiga qator vazifalarni oladi. Juyida axborotlashgan faoliyat obyektlari haqida gap yuritimiz.

Bunday obyektlarga sonlar (o'lchash va modellashtirish natijalari), matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, rasmlar, chizmalar va animatsiyalar, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) kiradi.

Foydalanuvchining mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga axborot obyektlarini yaratish, kerakli axborot obyektlarini izlash, axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko'rinishda tasvirlash, axborot obyektlarini (matn,

suhbat, rasm, o'yin va boshqa ko'rinishda) uzatish, modellashtirish, loyixalash, obyektlarni rejalashtirish va boshqalar kiradi.

Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi axborotlarni o'zlashtirishda kompyuter tizimining yordami benihoya kattadir. Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qati nazar, uni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:

Birinchiidan, o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart (an'anaviy) tizimga nisbatan o'quv jarayonini jadallashtirib, o'quvchida ilmga qiziqishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini o'stiradi, bilim berishga differensial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni engillashtiradi, o'quvchini o'quv jarayonining subyektiga aylantiradi.

Ikkinchiidan, yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish mumkin bo'ladi:

- muayyan predmetlarni o'qitishda kompyuter darslari;
- kompyuter darslari — ko'rgazmali material sifatida;
- o'quvchilarning guruhli va individual ishlarini tashkillashtirishda;
- o'quvchilarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;
- o'quvchini o'qishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini hal etishda va

x.k.

Ta'kidlash joizki, axborotlashtirishga, shuningdek axborot kommunikatsiya texnologiyalariga bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Biologiya darslarida talabalar biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish bo'yicha orttirilgan tajribalar, moddiy bazasi, didaktik xususiyatlari va ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi bilan tanishtirib borilmoqda. Shuningdek, biologiyadan elektron o'quv qo'llanmalar, Internet ta'lim resurslaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, elektron darsliklarni tahlil qilish va talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish maqsadida "Bilim olishning intellektual tizimini yaratish va joriy etish" amaliy tadqiqot doirasida muayyan ishlar amalga oshirildi⁵. Shuningdek, talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash hamda "darsni dasturiy quvvatlash" maqsadida quyidagicha topshiriqlar taqdim etiladi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalaniladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxatini to'ldirish.

2. Elektron darslik yoki o'quv-metodik qo'llanmalardagi (muayyan mavzular yoki yaxlit bo'lim bo'yicha) nazariy materiallar hajmi va ilmiyligini aniqlash.

a) matn hajmi, ilmiyligi, tushunarligi va suxandon nutqi ravonligi;

b) illyustrativ (tasviriy) materiallar (rasm, sxema, jadval, xarita, videolavha va animasiyalar) sifati, joylashtirilishi va ilmiyligi;

v) o'zlashtirish apparati (materiallarni mustahkamlash uchun test savollari banki, interfaol, muammoli vaziyatli, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari)ning ta'minlanishi;

g) qo'llanmalarda materialni bayon qilish mantiqi;

d) matn ma'lumotlarini videoqator va tovush bilan hamohang o'zaro muvofiq kelishi;

3. Qo'llanma muallifining metodik ko'rsatmalari bilan tanishtirish.

4. Dasturning texnik sifatini aniqlash:

a) qo'llanmani ishchi holatga keltirish tezligi;

b) qo'llanmada yo'naltiruvchi apparatning (kerakli ma'lumotni topishning qulayligi, o'quvchilarning noto'g'ri javobi yoki to'satdan bosib yuborilgan vaqtda avvalgi materialga qaytish imkoniyati va h.k.) sifati;

v) qo'llanmadan matnlarni, testlarni, illyustrasiyalarni qog'ozga chiqarish imkoniyati.

5. Qo'llanmaning didaktik qiymati haqida va ta'lim muassasalarida foydalanish imkoniyatlari to'g'risida xulosa yasash. Ta'limiy dasturlardan foydalanish bo'yicha shaxsiy metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish.

Biologiya darslari davomida talabalarda quyidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga alohida e'tibor berildi:

➤ multimedia taqdimotlar yaratish (ekranda tayanch tushunchalar, sxemalar, illyustrasiyalarni yoritish, ovoz berish va h.k.);

➤ ma'lumot va tasviriy materiallarni Internetdagi biologik saytlardan qidirish va ularning ilmiylikini baholash;

➤ raqamli fotoapparatlar, mikroskoplar, nusxa ko'chiruvchi va skayner qiluvchi texnikalar bilan ishlay olish;

➤ Elektron pochtdan foydalanish (uyda bajariladigan topshiriqlarni bajarishda foydalanilgan adabiyotlarga murojaat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilar va ota-onalar uchun ma'lumotlar va h.k.)

➤ Web saytlar yaratish.

Ma'lumki, izlanish ko'nikmalarisiz, talabalar tomonidan zaruriy ma'lumotlarni saralash va qo'llashda tarmoqli hamda multimediali texnologiyalardan foydalanishdagi psixologik qo'rquv va hadiklarni bartaraf etishga erishib bo'lmaydi.

Biologiya darslarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish oliy ta'lim tizimini axborotlashtirish talablariga muvofiq quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'qitishning shaxsga yo'naltirilganligi;

- ma'lumotlar bazasini ilmiy va kasbiy talablarga muvofiq interfaol egallashga erishish;

- talabalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- talabalarining mustaqil o'quv faoliyatiga, o'zaro bilimlarni o'rtoqlashish va hamkorlikka intilishlarini orttirish;

- multimedia texnologiyasining zamonaviy imkoniyatlari yordamida talaba faoliyati motivasiyasini orttirish;

- talabalarni o'qitishning axborot muhitini yaratish.

Va nihoyat, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarini orttirish natijasida talabalar yakuniy yuqori mahorat talab qiladigan ishlarni (kurs va bitiruv malakaviy ishlari) mustaqil ravishda multimediali ko'rinishda tayyorlash hamda nafaqat biologiya sohasida balki, axborot texnologiyalari sohasida ham etarli ma'lumotga ega bo'lgan bilimdon mutaxassis sifatida etishishga olib keladi.

Ilmiy-texnikaviy va axborot taraqqiyotining zamonaviy bosqichi zamonaviy jamiyat hayotining barcha qirralarida Internet texnologiyalarining faol tatbiq etilishi bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan ta'lim tizimi oldidagi vazifalar ham ahamiyatli darajada kengayadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni axborotlar majmuidan oqilona foydalanishga, zaruriy ma'lumot va ularning ishonchliligini baholashga, ulardan o'z bilim salohiyatini orttirish va mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yishga yo'naltirib borishi zarur.

Tajribalar umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilariga ham kompyuter savodxonligini orttirish, berilgan topshiriqlarni aniq va amaliy bajarish maqsadida mavzuga oid Internet ma'lumotlarini yig'ish, saralash, taqdimot holatiga keltirish kabi vazifalarni berish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi. Bu borada xususan, biologiya fanlaridan

o'quvchilarni kompyuter texnikasidan foydalanishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Uzlüksiz ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'quvchilarni yangi axborot texnologiya vositalaridan o'quv-bilish jarayonida samarali va ijodiy foydalanish imkoniyatini yuzaga keltirish, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bilan uzviy holda, talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyatida biologiya o'quv-laboratoriya xonalarining moddiy-texnikaviy bazasi, shu jumladan, kompyuter texnikasi jihozlari, Internet tizimi bilan mustaqil ishlay olishga tayyorlashdan iborat. Biroq, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining barchasida ham moddiy-texnik baza talab darajasida emas, ba'zilarida esa mavjud imkoniyatlardan foydalanish uchun pedagogik kadrlar salohiyati etarli emas.

O'tkazilgan pedagogik amaliyot davomida talabalar bilan biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha olib borilgan darslarimiz mobaynida muayyan mavzular bo'yicha taqdimotlar tayyorlash, Internet saytlaridan ma'lumotlar qidirish, taqdimotlarni tayyorlashda foydalanilgan manbalarga bog'liq saytlarni ko'rsatish, olingan ma'lumotlarni ilmiyligi va ishonchligiga baho berish, biologik xatoliklarni ko'rsatish zarurati bo'lganda texnik nosozliklarning mavjudligi, belgilangan maqsadga erishishni ta'minlashga to'sqinlik qilishi aniqlandi.

Tahsil oluvchilarning faoliyat ko'rinishlaridan yana biri ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, mustaqil ta'lim olish qobiliyatini, yangi bilimlarni egallash hamda axborot madaniyatini tarbiyalash orqali loyihalash metodi asosida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishdan iborat⁶. Bu esa o'z navbatida bilimlarni amaliy tajribalar orqali amalga oshirish, ta'lim jarayonini amaliy-yo'naltirilganlik, tatbiqiylik asosida yo'lga qo'yishni talab etadi. Mazkur jarayonda fan asoslarini o'rganish, texnika va san'at namunalariga erishish ahamiyatga molik hisoblanadi. Loyihalash metodi ayni vaqtda ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Jamiyatda turli sohada kuchli bilim salohiyatiga ega, bilim olishga ishtiyoqmand, o'z bilim doirasini doimo kengaytirib, to'ldirib boradigan savodxon kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. М.: Изд-во МОУ ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех», 2007. 616 с
2. G.S.Ergasheva, M. Fayzieva. Biologiyada axborot-kommunikatsion texnologiyalar. Elektron darslik. № DGU 03058. Toshkent 24.02.2015 y.
3. Sh..S.Sharipov, M.Aripov, U.Sh.Begimqulov va boshq. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti" Monografiya. "Fan nashriyoti" Toshkent 2011. 72-b.
4. Федоров А.В. Медиаобразование: творческие задания для студентов и школьников//Инновация в образовании. 2006. № 4. С.175-228
5. G.S.Ergasheva, M. Fayzieva. Biologiyada axborot-kommunikatsion texnologiyalar. Elektron darslik. № DGU 03058. Toshkent 24.02.2015 y.
6. Huppert J., Lomask, S. M., & Lazarowitz, R. (2002). Computer simulations in the high school: students' cognitive stajes, science process skills and academic achievement in microbiology. *International Journal of Science Education*, 24 (8), 803-821
7. Тогаймурадовна Р.С. Роль иммерсивных технологий в совершенствовании профессионально-методической подготовки учителей биологии //Техасский журнал мультидисциплинарных исследований. – 2024. – Т. 28. – С. 1-3.

⁶ Huppert J., Lomask, S. M., & Lazarowitz, R. (2002). Computer simulations in the high school: students' cognitive stajes, science process skills and academic achievement in microbiology. *International Journal of Science Education*, 24 (8), 803-821

8. Рахматова С., Давронова Н. Мактаб биология дарсларида лаборатория машгулотларини ташкил этиш //Биология замонавий тенденциялари: муаммолар ва ечимлар. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 798-801.

9. Рахматова С. Биология фан ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятга методик тайёргарлигини таъминлашнинг айрим масалалари //Academic research in educational sciences.–2021.–Т.2.–№.11.–С.

RAQAMLI PLATFORMALAR VA DASTURIY VOSITALAR ORQALI MAKTAB TA'LIMIDA INDIVIDUAL O'QITISH TEXNOLOGIYALARI


Mahmudov Shohruh Mirzo Shuhrat o'g'li
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti magistri

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning roli tobora oshib bormoqda. Xususan, maktab ta'limida individual o'qitish texnologiyalarini samarali joriy etishda raqamli platformalar va dasturiy vositalar katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu vositalar o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etishga imkon yaratadi. Shu tariqa, individual yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Raqamli platformalar orqali individual o'qitish texnologiyalari nafaqat ta'lim jarayonini shaxsiylashtirishga xizmat qiladi, balki har bir o'quvchining bilim darajasini aniq monitoring qilish, ularning bilim olish sur'atlarini boshqarish va o'zlashtirishda individual yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli vositalar ta'limning turli bosqichlarida o'quv materiallarini moslashtirilgan shaklda yetkazishga imkon beradi.

Tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda dasturiy vositalarning xilma-xilligi, qo'llanilish sohaslarining kengayib, soat sayin yangilanib va rivojlanib borayotganligi sababli pedagogdan matematikadan ta'lim jarayonida zamonaviy dasturiy vositalarni qo'llash uslublarini uzluksiz ravishda o'zlashtirib borishni taqozo qiladi.

Umumiy holda o'quvchilarga matematikadan ta'lim berish jarayonida foydalaniladigan dasturiy vositalarni quyidagicha klassifikatsiyalarga ajratish mumkin (1-rasm).



1.1-rasm. Dasturiy vositalar klassifikatsiyasi

Pedagogik dasturiy vositalarga virtual laboratoriya ishlanmalari, simulyatorlar, elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, ta'lim saytlari va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Matematik dasturiy paketlardan asosan hodisa va jarayonlarni matematik modellashtirishda, yaratilgan modelning dasturini tuzishda hamda murakkab matematik hisoblashlarni amalga oshirishda foydalaniladi. Dasturlash tillari esa barcha sohalarida keng imkoniyatlarga ega bo'lib ulardan ta'lim jarayonida foydalanish yuqori saviyali maxsus texnik bilimlarni talab qiladi.

Ushbu pedagogik dasturiy vositalar ta'lim jarayonida matematikaga doir laboratoriya va amaly mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Bundan tashqari dinamik, fizik jarayonlarni modellashtirish, elektr zanjirlarni modellashtirish, jarayonlarni virtual loyihalashtirish imkoniyatlari ham mavjud.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalar va dasturiy vositalar maktab ta'limida individual o'qitish texnologiyalarini samarali amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vositalar o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishga, shuningdek, bilim olish sur'atlarini kuzatish va boshqarishga imkon yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qilishi va ta'limni shaxsiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 5330600-Dasturiy injiniring bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. O'zR OO'MTV №603, 24.08.2017. 11-b.
2. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A., Inoyatov U.I. Yuzlikayeva E.R., Sharipov Sh.S. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi: "Islom Karimov modeli" – O'zbekiston mustaqilligining yuksak yutug'i va natijasi. / O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2013. – 234 b.
3. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. Diss. ... p.f.d. DSc. – T.: - 2017. – 335 b.
4. Himmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. DSc dissertatsiyasi avtoreferati – T.: - 2018. –22b.

ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ СТРЕССА ДЛЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В УСЛОВИЯХ БОЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ.

Равшанов Шерзод Тахирович
Академия Вооруженных Сил Республика Узбекистан
кафедра военной психологии и педагогики,
подполковник, начальник цикла военной психологии

Стресс (от англ. *stress*– нагрузка, напряжение; состояние повышенного напряжения) – совокупность неспецифических адаптационных реакций организма на воздействие различных неблагоприятных факторов-стрессоров, нарушающее его гомеостаз, а также соответствующее состояние нервной системы организма (или организма в целом).

Стресс в бою и операции включает весь спектр физиологических и психических (интеллектуальных и эмоциональных) стрессов, возникающих в результате столкновения с опасностями и сложностями в ходе боя и выполнения других военных задач.

Исторически, в рамках военных операций армии США, реакция на боевой стресс является причиной до половины потерь в бою, в зависимости от сложности условий.

Сегодня любой участник боевых действий в районе военного конфликта подвержен угрозе нападения со стороны противника вне зависимости от того, проходит он службу в боевых подразделениях или в подразделениях обеспечения. Простое нахождение в опасной зоне подвергает военнослужащих множеству стрессов. В мирное время, также как и во время войны, эффект стресса в бою испытывается всеми военнослужащими во всех видах военных действий – на учениях, в ходе направления и пребывания в районе военного конфликта, миротворческих и гуманитарных операций, при выполнении задач, которые могут сопровождаться применением оружия массового поражения, в том числе химического, биологического, радиационного и ядерного оружия.

Важно понять, что опыт участия в боевых действиях влияет на всех военнослужащих и отражается на всех их действиях в течение службы. Военнослужащие находятся в постоянной готовности к участию в боевых действиях, к подверженности длительным и тяжелым нагрузкам в ходе боевой учебы, к отрыву от семьи и близких. Эти стрессы наиболее сильны в период боевых действий, но часто начинают проявляться уже с получением информации о предстоящем направлении в опасную зону (район военного конфликта). Последствия стресса, полученного в ходе боевых (военных) действий, часто делятся и после их окончания и возврата к повседневной жизнедеятельности.

Тщательные исследования, проведенные исключительно в сфере психического здоровья и социального благополучия военнослужащих и членов их семей в период крупных военных операций, крайне редки, и большинство исследований по выявлению влияния боевых действий на здоровье проводились среди ветеранов ВС США уже после того, как их военная карьера была завершена. Однако стрессы, вызванные направлением в зоны военного конфликта, часто вызывали проблемы со здоровьем в последующем. Исследования обнаружили, что влияние сильных боевых стрессов сказывается на последующем развитии ряда психических заболеваний. Другие исследования документировали связь между стрессами, формирующимися в результате направления в район военного конфликта, и развитием психических нарушений, развитием посттравматических стрессовых нарушений, депрессии и злости. И хотя доклады о выявлении симптомов боевого стресса сразу же после возврата из района конфликта могут быть немногочисленны, исследования обнаружили, что проявление данных симптомов повышается через 3-6 месяцев после возвращения. В целом, приблизительно от 20% до 30% военнослужащих ВС США, возвратившихся после участия в боевых (военных) действиях, докладывали о существенных психических нарушениях.

Стрессы в боевых (военных) действиях имеют множество возможных источников, включая одиночные события, которые потенциально могут существенно повлиять на военнослужащего или подразделение, многократные события и продолжительное нахождение под их воздействием в связи с продолжающимися боевыми (военными) действиями в условиях враждебного окружения. Влияние таких стрессов сказывается до, в ходе и после собственно военных (в том числе миротворческих) операций и выполнения задач. Иногда стрессы связаны с одиночными экстремальными или множественными психотравматическими событиями. Психотравматическое событие – это событие, в результате которого военнослужащий или группа военнослужащих испытывают интенсивное чувство страха, ужаса, беспомощности или безнадежности, которое кажется и воспринимается как угроза собственной безопасности или стабильности «своего миропорядка». Чувство вины, злорадия, печаль, изменения в восприятии окружения, потеря веры являются последствиями психотравматического события. Суммарный эффект различных стрессов в бою и боевых (военных) действиях ведет к нарушениям в поведении (см. табл. 1).

Таблица 1.

Примеры стрессов в бою и боевых (военных) действиях.

Стрессы в бою	Стрессы в боевых (военных) действиях
<ul style="list-style-type: none"> • Ранения • Убийство противника • Свидетельство смерти человека • Смерть членов группы • Травмы, связанные с потерями конечностей 	<ul style="list-style-type: none"> • Продолжительное нахождение в сложных природных условиях, таких как чрезвычайная жара или сильный холод • Снижение качества жизни и возможности контактов в течение продолжительного времени • Продолжительное разделение с системами поддержки, такими как семья • Подверженность потенциальным угрозам получения серьезных психических травм в ходе выполнения задач, таким как наблюдение смерти нескольких членов группы (части) при выполнении задач

Хотя многие стрессы в ходе боя являются результатом нацеленных действий противника, направленных на ликвидацию, ранение или деморализацию военнослужащих, есть и другие стрессы, которые связаны с природными условиями, такими как чрезвычайная жара или холод, повышенная влажность или плохое качество воздуха, с принятыми командирами и начальниками неверными предположениями и решениями (например, о боеспособности группы, совершаемом маневре, времени начала боевых (военных) действий, планом медицинского и тылового обеспечения и др.). Хороший военный руководитель поддерживает уровень стресса в ходе боевых (военных) действий в пределах терпимого минимума и подготавливает личный состав психически и физически к устойчивости к стрессам. Однако в некоторых случаях, чрезвычайный стресс может повлиять на способности принимать оптимальные и обдуманые решения, как командиров, так и подчиненных,

что ведет к не реализации имеющихся возможностей, а в худшем случае - увеличению потерь и не выполнению поставленной задачи.

Некоторые из потенциально наиболее сильных стрессов имеют межличностную природу и возникают в результате конфликта в подразделении или «на домашнем фронте». Чрезмерная реакция на такие стрессы может привести к причинению вреда самому себе (как в случае с военнослужащими, которые совершают суицидальную попытку при получении негативной информации из дома) или другим (как в случаях расстрела военнослужащим своих коллег в связи с предполагаемой несправедливостью). Данные стрессы должны быть своевременно выявлены, и, по возможности, взяты под контроль либо ослаблены, в том числе путем принятия мер по изменению негативных условий сложившейся обстановки (экстремальной ситуации).

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Johnson SJ, Sherman MD, Hoffman JS, et al. American Psychological Association Presidential Task Force on Military Deployment Services for Youth, Families and Service Members. The Psychological Needs of US Military Service Members and Their Families: A Preliminary Report. Washington, DC: APA; 2007.
2. Hoge CW, Castro CA, Messer SC, McGurk D, Cotting DI, Koffman RL. Combat duty in Iraq and Afghanistan, mental health problems, and barriers to care. N Engl J Med. 2004.
3. Boscarino JA. Diseases among men 20 years after exposure to severe stress: implications for clinical research and medical care. Psychosom Med. 1997.
4. Hoge CW, Castro CA, Messer SC, McGurk D, Cotting DI, Koffman RL. Combat duty in Iraq and Afghanistan, mental health problems, and barriers to care. N Engl J Med. 2004.
5. Jordan BK, Schlenger WE, Hough R, et al. Lifetime and current prevalence of specific psychiatric disorders among Vietnam veterans and controls. Arch Gen Psychiatry. 1991.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗРАБОТКИ МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В РАМКАХ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ: СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Рашидова Наргиза Рашид кизи
Академия Вооруженных Сил Республика Узбекистан
кафедра военной психологии и педагогики,
преподаватель военной педагогики

Современная образовательная среда характеризуется динамичными изменениями, требующими от педагогов не только глубоких предметных знаний, но и развитых лидерских компетенций. Лидерство в образовании - это не просто позиция, а комплексный набор навыков и качеств, позволяющих эффективно управлять учебным процессом, мотивировать коллег и учеников, а также внедрять инновации. В связи с этим возникает острая необходимость в разработке и внедрении механизмов развития лидерской компетентности в рамках повышения квалификации учителей.

• Развитие лидерской компетентности в образовании связано с концепциями трансформационного лидерства, расположенного лидерства и командного лидерства. Трансформационное лидерство: основано на создании вдохновляющей и

мотивирующей среды, позволяющей ученикам и коллегам достигать высоких результатов. Трансформационные лидеры не просто управляют процессами, а вдохновляют и мотивируют окружающих, формируя общую визию и ценности.

- **Расположенное лидерство:** фокусируется на создании благоприятной атмосферы для сотрудничества и совместной работы. Такое лидерство предполагает распределение ответственности и власти между всеми членами коллектива, что способствует более эффективному решению проблем и достижению общих целей.

- **Командное лидерство:** основано на идее, что лидерство не принадлежит одному человеку, а распределено между всеми членами коллектива. В этом случае, каждый член коллектива вносит свой вклад в достижение общих целей, используя свои сильные стороны и компетенции.

Традиционные подходы к повышению квалификации учителей не всегда учитывают необходимость развития лидерских компетенций. Существующая система часто фокусируется на профессиональном развитии учителя как исполнителя, а не как лидера. В результате, многие педагоги не имеют возможности развивать лидерские навыки, необходимые для эффективного управления учебным процессом и взаимодействия с коллегами, учениками и родителями.

Разработка комплексного механизма развития лидерской компетентности должна быть основана на системном подходе. Он должен включать в себя следующие ключевые элементы:

- **Определение ключевых компетенций:** Идентификация и описание ключевых навыков, знаний и качеств, необходимых лидерам-педагогам.

- **Разработка учебных программ:** Создание учебных программ и модулей, ориентированных на развитие этих компетенций и включающих теоретические знания, практические упражнения, имитационные игры и возможности наставничества.

- **Практическое применение:** Предоставление учителям возможностей для практического применения полученных знаний и отработки лидерских навыков в реальных рабочих ситуациях.

- **Оценка и обратная связь:** Разработка и внедрение системы оценки для отслеживания прогресса учителей и предоставления им целенаправленной обратной связи.

- **Поддержка и наставничество:** Обеспечение учителям доступа к поддержке и наставничеству со стороны опытных лидеров-педагогов.

Внедрение механизма развития лидерской компетентности в рамках повышения квалификации учителей обеспечит:

- **Повышение качества образования:** Лидеры-педагоги способствуют созданию благоприятной среды для обучения, повышению мотивации учеников и улучшению результатов обучения.

- **Инновации и профессиональный рост:** Механизм поддерживает инновации в преподавании, поощряет профессиональный рост учителей и создает культуру непрерывного обучения.

- **Привлечение и удержание лучших кадров:** Лидерские возможности делают профессию учителя более привлекательной и помогают удерживать лучших специалистов в системе образования.

Разработка и реализация механизма развития лидерской компетентности в рамках повышения квалификации учителей является критически важным шагом на пути к созданию более эффективной и инновационной системы образования. Системный подход, основанный на теоретических знаниях и практических методиках, позволит формировать новое поколение педагогов-лидеров, способных вдохновлять и вести за собой коллег и учеников на пути к успеху. Современная образовательная среда находится в постоянном движении, требуя от педагогов не только глубоких предметных знаний, но и развитых лидерских компетенций. Лидерство в образовании - это не просто позиция, а комплексный набор навыков и качеств, позволяющих эффективно управлять учебным процессом, мотивировать коллег и учеников, а также внедрять инновации. В условиях стремительно меняющегося мира, где востребованы креативность, гибкость и способность к адаптации, необходимость в лидерстве среди учителей приобретает особую значимость.

Существующие системы повышения квалификации учителей, зачастую, не уделяют достаточного внимания развитию лидерских компетенций. Традиционные подходы фокусируются на углубленных знаниях предмета и методиках преподавания, не учитывая важности развития лидерских качеств. В результате, многие учителя не имеют возможности и не обладают необходимыми навыками, чтобы эффективно руководить учебным процессом, мотивировать коллег и учеников, а также вносить инновации в свою работу.

Чтобы успешно решить проблему недостаточной подготовки педагогов к лидерской деятельности, необходимо разработать и внедрить комплексный механизм развития лидерской компетентности в рамках повышения квалификации учителей. Этот механизм должен быть основан на системном подходе и включать в себя следующие ключевые элементы:

1. Определение ключевых компетенций:

- Проведение глубокого анализа лидерских компетенций, необходимых для успешной работы педагога в современных образовательных учреждениях.

- Разработка четкого списка ключевых навыков, знаний и качеств, которые помогут учителю эффективно вести учебный процесс, мотивировать коллег и учеников, внедрять инновации и создавать благоприятную атмосферу в образовательной среде.

2. Разработка учебных программ:

- Создание специальных учебных программ и модулей, ориентированных на развитие лидерских компетенций.

- Использование различных методов обучения: теоретические лекции, практические упражнения, имитационные игры, кейсы, а также работу в группах.

- Важным элементом учебных программ должно стать наставничество. Опытные лидеры-педагоги могут делиться своим опытом, предоставлять учителям индивидуальную поддержку и направляющую обратную связь.

3. Практическое применение:

- Предоставление учителям возможности применить полученные знания и навыки в реальных рабочих ситуациях.

- Это может быть реализовано через проекты, программы взаимопомощи между учителями, а также через проведение педагогических консультаций и вебинаров с опытом практики.

- Важно обеспечить учителям безопасную среду для эксперимента и ошибок, где они могут пробовать новые подходы и получать отзывы от коллег и учеников.

4. Оценка и обратная связь:

- Разработка системы оценки и обратной связи, которая поможет отслеживать прогресс учителей в развитии лидерских компетенций.

- Оценку можно проводить как через анкетирование и тестирование, так и через наблюдение за учителями в рабочей среде.

- Важно предоставить учителям регулярную обратную связь, которая поможет им идентифицировать свои сильные стороны и области для улучшения.

5. Поддержка и наставничество:

- Предоставление учителям возможности получить поддержку и наставничество со стороны опытных лидеров-педагогов.

- Менторы могут помогать учителям решать проблемы, делиться своим опытом и предоставлять им индивидуальную поддержку в процессе развития лидерских навыков.

Внедрение механизма развития лидерской компетентности в рамках повышения квалификации учителей будет способствовать достижению следующих целей:

- **Повышение качества образования:** Лидеры-педагоги способствуют более эффективному и мотивирующему учебному процессу, улучшению результатов обучения и повышению уровня образования в целом.

- **Инновации и профессиональный рост:** Механизм стимулирует учителей к внедрению инноваций, повышает их профессиональную компетентность и создает атмосферу непрерывного обучения.

- **Привлечение и удержание лучших кадров:** Возможность развития лидерских компетенций делает профессию учителя более привлекательной и помогает удерживать лучших специалистов в системе образования.

Разработка и внедрение механизма развития лидерской компетентности в рамках повышения квалификации учителей является стратегически важным шагом в развитии современной системы образования. Системный подход, основанный на современных концепциях лидерства, практических методиках обучения и наставничестве, поможет формировать новое поколение педагогов-лидеров, способных вдохновлять и вести за собой коллег и учеников на пути к успеху.

Использованные литературы

1. "Leadership for Learning: Developing School Leaders for the 21st Century" by Stephen D. Brookfield and Michael Quinn Patton (2012)
2. "The Leader's Guide to School Improvement: Practical Strategies for Leading Change" by Michael Fullan (2010)
3. "Developing Teacher Leadership: A Guide for Schools and Districts" by Peter C. Hallinger and Barbara J. Murphy (2014)
4. "Leadership in Education: A Guide to Effective Practice" by Neil L. Armstrong and Michael D. Senge (2017)
5. "Transformational Leadership: A Critical Review of the Literature and Implications for Educational Practice" by James V. H. Murphy and M. D. Senge (2008) - Journal of Leadership Studies
6. "Distributed Leadership: A Review of the Literature and Implications for Educational Practice" by Neil L. Armstrong (2013) - International Journal of Leadership in Education
7. "Team Leadership in Schools: A Review of the Literature and Implications for Educational Practice" by John H. Hattie (2013) - Educational Leadership
8. "Developing Teacher Leadership: A Case Study of a School-Based Professional Development Program" by Barbara J. Murphy (2015) - International Journal of Educational Leadership
9. "The Impact of Teacher Leadership on Student Achievement" by Peter C. Hallinger (2017) - Journal of Educational Administration
10. "Developing Teacher Leadership: A Framework for Action" by Stephen D. Brookfield (2018) - The Educational Forum

MUNOZARA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA UNING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Abdullayeva Ranajon Matyoqubovna, dotsent, ps.f.n.
Atamuratova Anaxon Hamdambek qizi, talabasi
Nizomiy nomidagi TDPU

Ta'lim sifati - ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, material texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi. Ta'lim sifati -inson hayot-faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Oliy ta'limda ta'lim sifati - ta'limning maqsad va vazifalari hamda ta'lim tizimining aniq standartlari, ta'lim muassasalari, o'quv dasturlari va fanlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali, ko'p darajali dinamik tushunchadir.

Hozirgi kunda mahsulot sifati, texnika va texnologiya sifati, sifatni boshqarish tizimi sifati kabi atamalar o'z o'rnini hayot sifati tushunchasiga bermoqda. Hayot sifatining asosiy mezonini - ta'lim va tarbiya sifatidir.

Talaba uchun qancha sharoit yaratilmasin, unga yetarli bilim berilmasa, o'qituvchining bilimi talabani qoniqtirmasa, uning fanga bo'lgan qiziqishi susayadi, iqtidor alangasi so'nadi. Shunday ekan, oliy ta'lim islohotlarining bugungi bosqichida e'tiborimiz markazida turishi lozim bo'lgan eng muhim yo'nalish - ta'lim sifatini yaxshilashning shartlaridan biri bo'lgan pedagog kadrlarni tanlash tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishdir.

Bilim sifati - o'quv jarayonini tugatgandan so'ng olingan bilimlarning fundamentalligi, yuqoriligi va ish jarayonida qanchalik kerakligi bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya sifati o'ta muhim, muammoli va dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, boshqa barcha ijtimoiy masalalar, siyosiy muammolar va iqtisodiy ko'rsatkichlar aynan ta'lim sifati darajasiga bog'liq holda rivojlanadi. Qolaversa, ta'lim sifati davlat va jamiyat taqdirini, butun insoniyat taqdirini belgilab beradi. Shu sabab ham ta'lim sifatini -hayot sifati deb izohlash xato bo'lmaydi. "Ta'lim sifati" atamasi quyidagi omillarga bog'liq holda turlicha ahamiyat kasb etadi: oliy ta'lim ishtirokchilarining manfaatlari; kirish ma'lumotlari, ta'lim-tarbiya jarayonlari, chiqish ma'lumotlari, maqsad va vazifalar kabi tushunchalarning o'zaro nisbati; baholanadigan akademik sohaning xususiyatlari yoki tavsifi; oliy ta'limning tarixiy rivojlanish davri.

Shuningdek, ta'lim sifati atamasi quyidagi turli darajadagi aniqlanishlarga ham ega: sifat - eng yuqori ko'rsatkich sifatida; sifat - maqsadga to'liq erishilgan faoliyat shaklida; sifat - yaxshilangan va takomillashtirilgan faoliyat shaklida.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislik yo'nalishidan kelib chiqqan holda dars sifatini oshirishning eng samarador usullari ishlab chiqilib amalga tatbiq etilmoqda. Ulardan eng samarali natijaga olib keladigan usul - bu munozara usuli bo'lib hisoblanadi.

Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, uning nomini rus tilida «mozgovaya ataka», inglizchasiga «brain storming» deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning aniq analogik tarjimai yo'q, lekin uni "miyaga xujum" yoki "fikrlar to'qnashuvi", "fikrlar jangi maydoni" deb atash mumkin. Metodning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr qo'yilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa», lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa ko'proq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq bo'lgan sharoitlarda qo'l keladi. Ya'ni, bunda «erkin assotsiatsiyalar»ga imkon beriladi va oxir oqibat guruhning o'zi ma'lum ratsional "mag'izni" ajratib oladi. Bu usulni birinchi marta amerikalik olim A.Osborn 30-yillardayoq taklif etgan va bu usul yordamida yirik loyihalarni rejalashtirish va oldindan uning natijalarini bashorat qilishda ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. Lekin keyinchalik mutaxassislar uni faqat nostandart, o'ziga xos yechimi bo'lgan vazifalarni muhokama qilgandagina qo'llash mumkin, degan fikrni bildira boshladilar. Birok to'g'ri tashkil etilgan breyshtormingning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Jumlalar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.

2. Har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir.

3. Mantiqiy fikrlardan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq.

4. Fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi.

5. Bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular - muallifsizdir.

6. Fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ta'kidlangan guruh katta bo'lgan sharoitda bahs uyushtirishda ham generator, ya'ni fikrlarni birlamchi jamlovchilarga ushbu usulda ishlashga imkon berish tajribada yaxshi natija beradi. Chunki o'tkazilgan tekshiruvlar va ko'plab sinov mashg'ulotlarining ko'rsatishicha, aynan shu guruhda breynshtorming usulining qo'llanilishi turli-tuman va qarama-qarshi fikrlarning bayon etilishiga sharoit yaratadi. Aks xolda muhim muammolar bo'yicha munozarani boshlash va unda fikrlar rang-barangligiga erishish juda qiyin bo'ladi. Bu usul ayniksa, kattalar auditoriyasida juda yaxshi samara beradi.

Bahsda ishtirok etish va undan manfaatdorlik hissi har bir ishtirokchida shakllanishi shart va bunda boshlovchi - o'qituvchining roli katta. Amaliy mashg'ulotlarni bahs-munozara shaklida o'tkazilishi o'quvchi-talaba-tinglovchilarga oldindan aytilishi va ularning tayyorgarlik ko'rishlari uchun savollar berib qo'yilishi maqsadga muvofikdir. Bahs ishtirokchilari hayajonlanmasliklari uchun mashg'ulot boshlanishidan avval ularning o'zlarini erkin tutishlari uchun ayrim yengillashtiruvchi mashqlar, boshqacha qilib aytganda, psixogimnastik mashqlar o'tkazish tavsiya etiladi. Masalan, ana shu maqsadda o'tkaziladigan psixogimnastik mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Pedagog guruhni aylana shaklida turishlarini va a'zolari navbatma-navbat o'rtaga chiqib, guruh bilan xohlagan tarzda, lekin samimiy salomlashishni so'raydi. Keyin guruhdan kimning salomi ko'proq yoqqanini so'raydi.

2. Guruh a'zolari o'qituvchi atrofida yarim aylana shaklida turishadi. Navbat bilan guruh a'zolari o'rtaga chiqib, xoxlagan a'zo bilan so'zsiz, lekin ochiq yuz bilan mimika vositasida salomlashishi va biror fikrni bildirishi so'raladi.

3. Hamma doira shaklida o'tiradi va o'qituvchi olib kelgan koptok navbat bilan muloqot katnashchilariga otiladi, faqat kimga otilsa, o'sha odamning kuchli, yaxshi bir sifati aytilib, so'ngra yana otiladi. O'qituvchi koptokning albatta har bir kishiga tegishini nazorat qiladi.

Bu kabi mashqlar munozara katnashchilari o'rtasida o'zaro tanglikning bo'lmasligi va o'z fikrini bayon etayotganda o'qituvchidan tortinmasligi uchun o'ziga xos trening hisoblanadi.

Pedagog munozarani boshlar ekan, ishtirokchilar ongiga quyidagilarni yetkaza olishi kerak: a) mashg'ulot har bir ishtirokchiga albatta foydali bo'ladi va ular bir-birlariga yordam berish uchun kelganlar; b) munozara o'zaro muloqotning bir shakli bo'lib, har bir ishtirokchi bir-biriga ochiq va samimiy munosabatda bo'lsin; v) munozara ishtirokchilarning o'zaro tajribalarini almashinishlari uchun qulay sharoitdir; g) fikr bayon etishda kerak bo'lsa tavakkal qilaylik, lekin indamaslik shiorimiz bo'lmasin; d) munozara paytida ko'p yozish shart

emas; ye) agar biror narsa tushunarli bo'lmasa, uni so'rashdan tortinmang; j) bilgan bilimlarimizni bir-birimizdan ayamaymiz, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo'lsinlar, «yashiringan bilim - bilim emas» ligini unutmaylik!

“Tarmoqlar” (Klaster) metodi talabalarni bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. Talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul bilan mavzuni chuqur o'rganishdan avval ularning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'rganuvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. “Klaster” metodi aniq ob'ektiv yunaltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan boqliq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

“Klaster” metodi puxta o'ylangan usul bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

“Bumerang” texnologiyasi bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. «Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi hamda g'oya va fikrlarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni; bo'lajak iqtisodchilarda jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, xushfe'llik, o'zгалar fikriga hurmat, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatini samarali bo'lishiga qiziqish, o'zini xolis baholash kabilar.

“Veer” texnologiyasi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi va ularning har biri alohida muhokama etiladi. «Veer» texnologiyasi tanqidiy, tahliliy, aniq va mantiqiy fikrlarni rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari va fikrlarini yozma va og'zaki shaklda bayon etish hamda himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu texnologiya mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin: bilimlarni erkin faollashtirishda; mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetishda; yakunlash bosqichida olingan bilimlarni tartibga solishda qo'llash mumkin.

Umuman oliy ta'limda sifatni ta'minlashda albatta talabaga berilayotgan bilim darajasi muhimdir. Buning uchun auditoriyani boshqaruvchi pedagog pedagogik texnologiyalarni to'liq o'zlashtirgani holda har bir dars mashg'ulotiga mos va xosinigina tanlay olishi hamda auditotiyaning o'zlashtirish darajasini doimo hisobga olib borishi lozimdir. Ana shundagina

qo'llaniladigan usullar samarali natijani beradi va uning hayotiyligi ta'minlanadi. Talaba olkiy ta'limda o'qishi mobaynida barcha pedagogic texnologiya usullarini o'zlashtirishi hamda hayotga to'g'ri tadbiri qila olishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayzullaeva D. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2013. 142 b.
2. Golish L.V. va boshqalar. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishning usul va vositalari. O'quv-amaliy qo'llanma. Toshkent. 2018. 62 b.
3. Raximov O.D. Ta'lim sifati va hayot sifati. //O'quv uslubiy qo'llanma, 2015y., 8- b.
4. Abdullaeva R.M. Ta'lim va xayot sifatining kasb tanlashga bog'liqligi. Maktab va hayot. Ilmiy metodik jurnal. №3 (175) / 2023. 11-13 b.
5. Khimmataliev D.O., Khakimova M. F., Hkamidov J., Abdullaeva R.M. Improving the professional competence of professional teachers. Journal of Critical Reviews, Vol.7, ISSUE, 11, 2020, 1131-1137 p.
6. Abdullaeva R.M. Requirements for choosing a profession. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.269 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. 2150-2153.

DARSDA TA'LIM MAQSADLARINI TO'G'RI BELGILASHNING AHAMIYATI

Abdullayeva Ranajon Matyoqubovna, dotsent, ps.f.n.
Nurmamatova Sevara Sobir qizi, Baratova Hulkar Panji qizi, talaba
Nizomiy nomidagi TDPU

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizasiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda. Mutaxassislar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o'zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Har bir mamlakat, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi oldida, odatga ko'ra, quyidagi vazifalar turadi:

- aholini ta'lim bilan qamrab olishni oshirish, uning savodxonlik darajasini ko'tarish va bu jarayonni davlat tomonidan doimiy qo'llab - quvvatlash;
- iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida zarur bo'lgan malaka va kasbga ega, shuningdek, o'z ichki kuchlarining sifatini muttasil oshirib borishga qodir mutaxassislarni tayyorlash;
- ta'lim va tarbiyaning sifatini oshirish;
- qashshoqlikning ta'sirini bartaraf etish;
- shaxsni har tomonlama uyg'un tarbiyalash va unda milliy mustaqillik g'oyalarini shakllantirish;
- ta'lim olishda jinsiy, irqiy va milliy xususiyatlarga ko'ra kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish;

-muqobil davlat ta'lim va tarbiya muassasalarini rivojlantirish, ushbu sohada raqobatni kuchaytirish;

-ta'lim jarayoniga byudjetdan tashqari mablag'larni va investitsiyalarni jalb etish.

Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning bugungi bosqichida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondashuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbiiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim.

Har qanday mutaxassislik fanlarini o'qitishda bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini belgilash yo'llari quyidagi qismlarga bo'linadi:

1. *Bilishlikka oid* (tanish bo'yicha harakatlanish)
2. *Tartiblilikka oid* (algoritm, namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish)
3. *Ijodiy fikrlovchilikka oid* (evristik harakatlarni tanlash)
4. *Ijodkorlikka oid* (harakatlarni izlash)

1. Bilishlikka oid (tanish bo'yicha harakatlanish) ta'lim maqsadlarini belgilashda maqsad va natijalari shakllantirilishi hamda o'quv faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha bo'ladi:

Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish.

Natijalar: - (ma'lum, tanish narsani o'zgartirishsiz, umumiy taxminlarni) tushuntiradi, aytadi, sanab o'tadi;

- (o'z so'zlarida) qaytarib beradi;
- tashqi belgi va xususiyatlari bo'yicha biladi, taniydi;
- (so'zma-so'z) yozadi.

Baholash mezonlari: axborotni xatosiz qaytaradi, tiklaydi.

Ushbu natijalarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi harakatlarining tavsifi:

Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari bo'yicha faoliyatlarini tashkillashtiruvchi, axborot manbai bo'ladi.

Ta'lim oluvchilar: axborot - retseptiv (qabul qilish) faoliyatini amalga oshiradi: eshitadi, kuzatadi, o'quv axborotini **eslab qoladi** va **xatosiz qayta tiklaydi**.

2. Tartiblilikka oid (algoritm, namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish) ta'lim maqsadlarini belgilashda maqsad va natijalari shakllantirilishi hamda o'quv faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha:

Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o'xshashlik bo'yicha qo'llash, harakatlarni tartib bo'yicha bajarish malakalarini shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash).

Natijalar: -asosiy fikrni ajratadi;

-baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi; tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi.

Baholash mezonlari: o'quv faoliyat yo'llarini biladi, bor bilimlarini o'zgartiradi va ularni tanish sharoitlarda qo'llaydilar: namuna, o'xshashlik bo'yicha bajaradi.

Ushbu natijalarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi harakatlarining tavsifi:

Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi.

Ta'lim oluvchilar: (namuna) ketma-ketlik bo'yicha reproduktiv (qayta tiklash) faoliyatni amalga oshiradi: bilimlarni ongli o'zlashtiradi, ularni mustahkam eslab qoladi va qo'llaydi: o'xshash holatda harakatlarni asos bilan namunali o'rganganliklari bo'yicha ta'lim beruvchi rahbarligi ostida bajaradilar.

3. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash) ta'lim maqsadlarini belgilashda maqsad va natijalari shakllantirilishi hamda o'quv faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha:

Ta'lim maqsadi: shaxsiy faoliyat tartibini tashkil etish va shu bo'yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Natijalar: -shaxsiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkillashtiradi;

-kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo'llaydi va yangidan hosil qiladi;

-yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi; sinaydi;

-bilim va malakalarni yangi holatlarda tanish va nostandart topshiriqlarni, muammoli holatlarni yechish uchun qo'llaydi;

Baholash mezonlari: yangi holatda faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi, yangidan hosil bo'lgan bilimlari asosida harakatlarni bajaradi, shaxsiy faoliyatini mustaqil tuzadi.

Ushbu natijalarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi harakatlarining tavsifi:

Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini yo'naltiradi.

Ta'lim oluvchilar: ijodiy fikrlovchilik turidagi natijaviy ijodiy faoliyatni amalga oshiradi: mustaqil tuzilgan tartib bo'yicha mustaqil izlanish va bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni yangidan hosil qiladi va ularni yangi holatda qo'llaydi

4. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash) ta'lim maqsadlarini belgilashda maqsad va natijalari shakllantirilishi hamda o'quv faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha bo'ladi:

Ta'lim maqsadi: muammoni mustaqil ajratish va yechish qobiliyati, tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish).

Natijalar: -muammoni mustaqil ajratadi va uni hal etish yo'lini topadi;

-tadqiqot ob'ekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, tajriba o'tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo'llash chegarasini aniqlaydi.

Baholash mezonlari: tadqiqotchilik turdagi maqsadlar faoliyatini amalga oshiradi, tizimli yondashish yo'llariga ega, tahlil qilish malaka va ko'nikmalarni namoyish etadi.

Ushbu natijalarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi harakatlarining tavsifi:

Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarga maslahat beradi.

Ta'lim oluvchilar: tadqiqotchilik turdagi mahsuldor faoliyatni amalga oshiradi.

Umuman, ta'lim jarayonida har qanday fanni talabalar tomonidan mustahkam o'zlashtirilishiga erishish uchun pedagog tomonidan darsning maqsadini to'g'ri belgilash va unga monand natijalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Natijaga erishish uchun tanlanadigan pedagogik texnologiya usullari ham aynan ularga mos bo'lishi lozim. Demakki, pedagog va talabalar tomonidan fanning o'zlashtirilishida teng faollik ta'minlanishi va pedagogik texnologiya usullari yetarlicha o'zlashtirili lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khimmataliev D.O., Khakimova M.F., Beknazarova Z.F., Abdullayeva R.M., Minlishev R.Z. Formation of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019. 422-424.
2. Fayzullaeva D. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi.- T. 2013. 142 b.
3. Abdullayeva R.M. Specific Aspects of Using Digital Technologies in Improving the Quality of Life. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. ISSN: 2835-3579. Volume : 2 Issue: 10/ 2023. 603-607.
4. Abdullayeva R.M. Oliy ta'lim sifati ko'rsatkichlarining psixologik talqini. "Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali. Volume 2, ISSUE 8, 2024. August. ResearchBib Impact Faktor: 9.654/2024. 59-70 b.

SIFATLI VA SAMARALI TA'LIM TIZIMINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Jo'raqulova Dildora Ziyadullayevna dotsent, ps.f.n.
Xurramov Asilbek Laziz o'g'li, talaba
Nizomiy nomidagi TDPU

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas.

So'nggi yillarda pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash ularning samaradorligini va kelajakda ulardan foydalanishni aniqlashga nisbatan katta ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimini amaliyotga joriy etish dolzarb jarayon hisoblanadi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim tizimini isloh qilish, sifatli ta'lim tuzilmasini yaratish, uzluksiz ta'limni yangi samarali jarayonga aylantirish masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'qituvchilar va o'quvchilarga kerakli natijaga erishishda yordam beradigan turli xil o'qitish usullari, yondashuvlari va vositalarini ifodalaydi.

So'nggi yillarda maktablardagi ta'lim tizimini sifatli va samaradorligini shakllantirish asosida O'zbekiston chet el ta'lim tizimidan andoza olgan holda shakllanmoqda. Shu qatorda biz finlar tajribasiga asoslanmoqdamiz.

Finlyandiyada ta'limning asosiy maqsadi – ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar barcha bolalar uchun sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, ularni jamiyatning faol fuqarolari sifatida voyaga etkazish va mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat. Mamlakatda bepul maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim barcha uchun kafolatlangan.

Finlyandiya ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta'lim: erta bolalik ta'limi va parvarishi hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan maktabgacha ta'lim (7 yoshgacha);
2. Umumiy o'rta ta'lim: boshlang'ich va tayanch o'rta ta'lim;
3. O'rta-maxsus ta'lim: umumiy o'rta-maxsus ta'lim yoki kasbiy ta'lim va tayyorgarlik;
4. Oliy ta'lim;
5. Katta yoshlilar uchun ta'limning barcha bosqichlari.

Finlyandiya maktabgacha ta'lim bepul taqdim etiladi va barcha bolalar uchun majburiydir. Maktabgacha ta'lim bolalarda bilim olish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularni keyingi bosqich – umumta'lim maktablariga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablari 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarni boshlang'ich (1–6 sinflar) va tayanch o'rta ta'lim (7–9 sinflar) darajasida qamrab oladi. 1–6 sinflarda o'quvchilar pedagogikaga ixtisoslashgan o'qituvchi (sinf rahbari)dan, 7–9 sinflarda ixtisoslashtirilgan fan o'qituvchilaridan saboq oladi. Umumta'lim maktablarida ta'lim olish majburiy bo'lib, odatda, bolalar 7 yoshga to'ladigan yildan o'qishga qabul qilinadi.

Boshlang'ich va tayanch o'rta ta'lim bepul.

Umumta'lim maktabini tamomlagan o'quvchilar ikki turdagi o'rta-maxsus ta'limdan birini tanlashi mumkin. Umumiy o'rta-maxsus ta'lim, odatda, o'quvchilarni muayyan kasbga emas, universitetlarga tayyorlashga ixtisoslashgan. Kasbiy ta'lim va tayyorgarlikni tanlagan o'quvchilar esa muayyan kasb-hunarga o'rgatiladi.

Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyat siri bir qator omillarga va uning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq.

Quyida ularni biz uchun muhim bo'lgan umumta'lim maktablari kontekstida ko'rib chiqamiz.

Tenglik tamoyili

Finlyandiya ta'lim tizimi barcha uchun teng ta'lim imkoniyatlarini taklif etishga qaratilgan. Mamlakatda ta'lim sohasi mutaxassislari tomonidan ta'limdagi eng asosiy ustuvorliklar belgilab olingan bo'lib, bu ta'limga jamiyatdagi tengsizlikni muvozanatlashtirib turuvchi vosita sifatida qarash, o'quvchilarni ta'lim jarayonida bepul ovqat, tibbiy xizmat, psixologik maslahat xizmatlari bilan ta'minlash hamda individual tarzda yo'naltirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, tegishli qonunchilikka muvofiq, zaruratga qarab o'quvchilar maktabga qatnash uchun transport vositasi yoki turar joy bilan ta'minlanishlari mumkin. Bundan tashqari, o'quvchi maktab hududida, dars yoki boshqa o'quv mashg'ulotlari vaqtida, maktabga ketayotgan yoki qaytayotgan paytda, yotoqxonada jarohatlangan taqdirda davolash xizmatlari bepul amalga oshiriladi.

Shunisi e'tiborliki, Finlyandiya deyarli barcha maktablar davlat maktablari hisoblanadi va ularga hukumat tomonidan teng miqdordagi moliyalashtirish mablag'lari ajratiladi. Muayyan fanlarni chuqurlashtirib o'qitish yoki muayyan fanlarga ixtisoslashgan alohida maktablar tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanmaydi.

Har bir o'quvchi o'ziga xos iqtidorga ega, deb qaraladi va individual o'quv rejasi asosida o'qitiladi va baholanadi. O'quvchilar bir-biriga solishtirilmaydi. Bu o'quvchilarning stresslardan holi tarzda bilim olishiga zamin yaratadi.

O'qitish va sog'lomlashtirish

Ta'lim jarayonida ham o'qituvchilar, ham o'quvchilarning jismoniy va ruhiy zo'riqishlardan holi bo'lishini ta'minlashga xizmat qiluvchi boshqa omillar ham mavjud:

- Maktabda darslar nisbatan kechroq – ertalabki 09:00–09:45 dan boshlanadi, bu o'quvchilarning tiniqib uxlashi, dars vaqtida o'zini uyquchan his qilmasligi va mashg'ulotlarda tez toliqib qolmasligiga yordam beradi;

- Darslar va tanaffuslar davomiyligi uzoqroq, fin maktablarida o'quvchilar bir o'qish kunida o'rtacha 3 tagacha fan o'qiydi va o'rtacha 5 soat vaqt o'tkazadi, darslar orasidagi nisbatan uzoqroq davom etuvchi tanaffuslar ularga tamaddi qilib olish, dam olish, vaqtichog'lik qilish va biroz toza havo olishga imkon yaratadi;

- Fin o'quvchilari dunyo bo'yicha maktabdan tashqari uy vazifasiga eng kam – o'rtacha yarim soat vaqt sarflaydigan o'quvchilar sifatida e'tirof etiladi;

- O'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun standartlashtirilgan imtihonlar o'tkazilmaydi (universitetlarga kirish maqsadida ixtiyoriy ravishda topshiriladigan Milliy kirish imtihonlari bundan mustasno), har bir o'quvchiga individual yondashiladi va undagi shaxsiy o'sish individual xususiyatlariga ko'ra baholanadi, boshqa bolalar bilan solishtirilmaydi. Fin maktablarida asosiy urg'u bolani imtihonlarga emas, mustaqil hayotga va real voqelikka tayyorlashga qaratiladi.

E'tiborli jihatlaridan yana biri shundaki, mamlakatda milliy darajadagi tayanch o'quv dasturi fin maktablarida asosiy e'tiborni o'quvchining ta'lim olishi hamda salomatligiga qaratishni nazarda tutadi. O'quv mashg'ulotlari o'quvchining mustaqil faoliyati hamda o'qituvchi, boshqa bolalar va o'qitish muhiti bilan o'zaro aloqasiga qaratilgan ta'lim konsepsiyasiga asoslanadi. Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan yuqori sifat va erta yoshdan tashxislash tamoyili hech kim o'zlashtirishda orqada qolmasligini kafolatlaydi.

Shu jihatdan Finlyandiya va O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'ziga xos farqli xususiyatlarga e'tibor qaratsak

Finlyandiya maktablari:	O'zbekiston maktablari:
O'quvchilar 7 yoshga to'ladigan yildan qabul qilinadi	O'quvchilar 7 yoshga to'ladigan yildan qabul qilinadi
Boshlang'ich ta'lim 1–6 sinflar, tayanch o'rta ta'lim 7–9 sinflarni o'z ichiga oladi	Boshlang'ich ta'lim 1–4 sinflar, tayanch o'rta ta'lim 5–9 sinflarni o'z ichiga oladi
O'rta-maxsus ta'lim umumiy o'rta-maxsus yoki kasb-hunar ta'limi shaklida olinishi mumkin	O'rta-maxsus ta'lim umumiy o'rta-maxsus yoki kasb-hunar ta'limi shaklida olinishi mumkin

Darslar ertalabki 09:00–09:45 dan boshlanadi	Darslar asosan 08:00 dan boshlanadi
Barcha o‘qituvchilar magistr darajasiga ega bo‘lishlari shart	Respublika bo‘yicha maktablarda faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilarning aksariyati – 89,3 foizi oliy ma‘lumotga, 2,6 foizi tugallanmagan oliy ma‘lumotga va 8,1 foizi o‘rta maxsus ma‘lumotga ega.
O‘qituvchilar faoliyati baholanmaydi va hech qanday tekshiruvlardan o‘tkazilmaydi	O‘qituvchilar har besh yilda majburiy (yoki o‘z ixtiyoriga ko‘ra navbatdan tashqari) attestasiyadan o‘tkaziladi va toifalarga ajratiladi
O‘quvchilar akademik natijalarini baholash faqatgina 6 va 9-sinfni tamomlayotgan vaqtda amalga oshiriladi	O‘quvchilar bilimni baholab borish va ularni sinfdan-sinfga ko‘chirish uchun bosqichli nazorat imtihonlari va yakuniy attestasiyalar o‘tkaziladi
Bitta sinfdan o‘quvchilar o‘rtacha soni 19–20 nafar	Bitta sinfdan 35 nafardan ko‘p bo‘lmagan o‘quvchilar qamrab olinishi mumkin
Muayyan fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish yoki muayyan fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yo‘l qo‘yilmaydi, alohida imtiyoz va nufuzga ega bo‘lgan maktablar mavjud emas, deyarli barcha maktablar davlat maktablari hisoblanadi	Respublika bo‘ylab jami 298 ta nodavlat umumta‘lim muassasalari, bundan tashqari, iqtidorli va iste‘dodli bolalar uchun Prezident maktablari va ixtisoslashtirgan maktablar faoliyat yuritadi

Zamonaviy ta‘lim sifatini ta‘minlashda albatta o‘quvchiga berilayotgan bilim darajasi muhimdir. Buning uchun o‘quv mashg‘ulotlari o‘quvchining mustaqil faoliyati hamda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan olib borayotgan o‘qitish muhiti bilan o‘zaro aloqasiga asoslanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta‘lim tizimini samarali va sifatli rivojlantirish har birimizning oldimizda turgan asosiy jarayonlardan biridir. Bu borada biz bir yoqadan bosh chiqarib farzandlarimiz kelajagi uchun xissa qo‘shmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. O‘zbekiston. 2017-y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 24- sentabr.
3. J.G‘.Yo‘ldoshev, F.Yo‘ldosheva, G.Yo‘ldosheva “Interfaol talim-sifat kafolati” Toshkent-2008-yil.

4. Джуракулова Д.З. // Влияние психологического насилия в семье на формирование деструктивного поведения подростков // Вестник Интегративной Психологии, 2024 Выпуск 33, часть 2.

УДК. 634.63

ZAYTUNNI YASHIL QALAMCHALARIDAN KO'PAYTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

E.B.Jurayev

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, dotsenti

Yer yuzasidagi o'simliklarni tarqalish ko'lami va genetik potensialini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlangan qonuniyatlar asosida saqlab qolish hayotiy muhitning barqarorligini ta'minlaydi. O'simliklarni madaniylashtirish, iqlimlashtirish, hosildorligini oshirish, qolaversa ilmiy tadqiqotlarda seleksiya materiallari sifatida foydalanishda mevali daraxtlarning yovvoyi turlari, nav va shakllari, ularni yashash muhitini o'rganish, saqlash va ko'paytirishga qiziqish ortib bormoqda.

Fundamental adabiy manbalarga e'tibor qaratilganda Ch.Darvin [2] yuksak o'simliklar evolyutsiyasida ularni tabiatda mustahkam mavjudligini va yangi maydonlarni o'zlashtira olish qobiliyatini shakllanishida murakkab va turli vegetativ usullardan foydalanilgan.

M.L.Reva [3] vegetativ ko'payishga qobiliyati har bir o'simlikni irsiyatida evolyutsion taraqqiyot davomida shakllanadi va mustahkamlanadi, u turni tabiatda saqlanishi va hayotini davom etishida ko'pgina faktorlar ta'sir etadi. Ayniqsa, daraxt va buta o'simliklarni vegetativ ko'paya olishi, turli organlarida mustaqil yosh o'simlik shakllantira olishi, hayotiy shakllari va o'sish dinamikasini noqulay sharoitlarda o'zgartira olish qobiliyatlari o'simlik turini yuqori moslashuvchan ekanligini bildiradi. Yangi turlarni paydo bo'lishi yoki hayotiy shakllarini o'zgartirishida ekologik omillar ta'siri yuqori bo'ladi.

Mamlakatimizda ham o'simliklarni genetik resurslarini saqlab qolish, tiklash ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, qolaversa oziq-ovqat xavfsizligi va aholini turmush darajasini yanada yuqori ko'tarish, aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ustivor vazifaga aylanmoqda. Shunday mahsulotlardan biri zaytun plantatsiyalarini yaratish va qayta ishlashni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Inson organizmi uchun juda foydali bo'lgan zaytun yog'iga bo'lgan talab ortib borayotganligi, chetdan kelayotgan maxsulotni tannarxi yuqori bo'lganligi bois, o'zimizda bu ekin maydonlarini kengaytirish uchun zaytunni sovuqqa chidamli navlarini tanlash, seleksiya ishlarini olib borish, maxsulotni qayta ishlash infrastrukturasi vujudga keltirish, qolaversa ilmiy tadqiqotlar o'tkazish lozim bo'ladi.

Tadqiqot joyi va usullari. Ilmiy tadqiqotlarimizni Akademik M.Mirzayev nomidagi "O'zbekiston bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti"ning Surxondaryo filiali Bandixon tajriba xo'jaligining tajriba maydonchasida 0,1 ga maydonda mamlakatimizga introduksiya qilingan stress omillarga bardoshli "Nevaldilyo", "Gemlik", Nikitskaya I-II, Kryn'skaya-172, Arbekino navlaridan yetishtirilgan 1-2 yillik ko'chatlari hamda shaxsiy tomorqa xo'jaliklaridagi 5-6 yillik (onalik) daraxtlari ustida fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar olib borilmoqda. Vegetativ yo'l bilan ko'chat tayyorlashning yangi innovatsion usullari yaratilmoqda. Bunda maxsus mikroiklimi boshqariladigan inshoot (issiqxona) tashkil

etilgan, unda zaytunni yashil qalamchalaridan resurstejamkor texnologiyalar yordamida intensiv usulda bir yilda o'z ildiziga ega bo'lgan ko'chatlar tayyorlanmoqda bunda (M.T.Tarasenko) [4,5] va (X.Ch.Buriyev va boshq.) [1] tomonidan yaratilgan uslublardan foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalari. Ma'lumki, zaytunni vegetativ yo'l bilan ko'paytirish urug'idan ko'paytirishga nisbatan qisqa muddat talab etganligi bilan ajralib turadi. Bunda urug'idan yetishtirilgan ko'chatlar o'zoq muddatni talab etadi (10-12 yil) qimmatli xo'jalik-biologik belgilari yo'qoladi.

Tadqiqotlarimizda sovuqqa chidamli, yog'lilik darajasi yuqori, navlik va xo'jalik-biologik belgilariga ko'ra ota-onalik o'simliklardan deyarli farq qilmaydigan, genetik bir xil klon-ko'chatlar yetishtirish qisqa vaqt oralig'ida (1 yilda) kam harajatli va tannarxi past, genetik sof, o'z ildiziga ega bo'lgan intensiv usulda ko'chatlarni yetishtirish dolzarb masada hisoblanadi.

Tajriba maydonchasida mikroiklimi boshqariladigan inshootda zaytunni yarim yog'ochlashgan novda qalamchalarni, har-xil substratlarda, optimal ekish muddatlari va sxemalarini, suv-fizik xususiyatlarini, mikroiklimini o'rganish bo'yicha har-xil variantlarda tajribalar o'tkazildi. Bunda maxsus inshootda sun'iy ravishda mayda dispers suv beriluvchi qulay sharoit yaratildi, havo harorati, namligi, yorug'ligi o'simliklarni oziqlantirishni boshqarish, har-xil substratlarda ko'chatlarni tayyorlash va 10 oyda standart ko'chat olish imkonini berdi, bunda inshootning har bir kvadrat metridan umumiy qabul qilingan texnologiyalarda 100-120 donani bu yangi texnologiyada esa 400 dona ko'chat tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ldik.

Qalamchalar zaytunni ona daraxtidan gullagandan so'ng (iyun, iyul) oylarida yetilgan, sog'lom, kasallik va zararkunandalardan zararlanmagan daraxtlardan o'tkir bog' qaychisi yordamida novda po'stlog'ini zararlansdan kesib olindi, yashil qalamchalar tayyorlandi va maxsus issiqxonaga har-xil muddatlarda o'tqazildi.



IMK(indolilmoy kislotasi)ning ishchi eritmasida ishlov berilgan zaytunning yosh qalamchalari

Qalamchalar kesib olingan novdalarning o'rta qismidan tayyorlandi, novdalarning quyi va ustki qismlarida to'liq shakllangan kurtaklari oz bo'ladi. Qalamchalarni tayyorlashda quyi qismidan kesish kurtak ostidan, yuqorisi esa kurtak ustidan 1-1,5 sm yuqorisidan kesib olindi va 100 donadan bog'landi va IMK(indolilmoy kislotasi 5l/5mg) ishchi eritmasiga 3-3,5 sm pastki qismiga har xil variantlarda (6,10,14,18 soat) mobaynida solib qo'yildi. Bunda yashil qalamchalarning ildiz tizimi har xil zamburug' kasalliklaridan holi bo'ladi va ekilgandan keyin ildizi qisqa muddatda yaxshi rivojlanadi bu esa yuqori miqdorda ko'chat yetishtirish imkoniyatini beradi. Ishlov berilgan qalamchalar maxsus inshootdagi har-xil substratlarga

vertikal holda (quyi bazal qismi 3-4 sm chuqurlikda) 5x5, 10x10, 15x15 sm bo'lgan ekish sxemada ekildi.

Olib borgan kuzatuvlarimizdan ma'lum bo'ldiki, ichki to'qimalarda meristematik xujayralar yaxshi rivojlandi, yon ildizlar hosil bo'ldi. Zaytun qalamchalarini yuqori regeneratsion xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. Novda qalamchalarini ildiz oldirishda regeneratsiya jadalligi, qalamchanning yer ustki qismidan novdalar, yer ostki qismidagi kallyusdan va kurtaklardan ildiz hosil bo'lishi, fiziologik nuqtayi nazardan qalamchada qutblilik xususiyati, qalamchanning quyi qismida ildizlar shakllanishi uchun zarur metabolitlar to'planishda murakkab fiziologik jarayonlar yuz berishi aniqlandi.

Qalamchalar har-xil substratlarga ekilganda ildiz olish jarayoni (kallyus hosil bo'lishi) qalamcha quyi qismining yo'g'onlashuvi bilan kechadi va u novdaning quyi zararlangan qismini tiklaydi. Uning to'qimalari avval aylanma shaklda paydo bo'ldi, keyinchalik o'sish natijasida novdaning ko'ndalang kesimini butunlay qamrab olganligi aniqlandi. Kallyusda asosan kraxmal to'planishi va kambiy faoliyati hisobiga rivojlanishi, qalamchani quyi qismida kallyusni o'sish davomiyligi, shakli, qalamcha yo'g'onligi va uzunligiga, aniqrog'i qalamchadagi oziq moddalar miqdoriga chambarchas bog'liq ekanligi, qalamcha o'lchamlari qanchalik katta bo'lsa, kallyus hosil bo'lishi to'laqonli amalga oshishi ma'lum bo'ldi. Yangi hosil bo'lgan kallyus ildiz vazifasini bajarmaydi, aksincha u himoya funksiyasiga ega bo'lib, vaqtinchalik oziq moddalar saqlanuvchi qismi hisoblanib keyinchalik ildizlar rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zaytunni yashil qalamchalarida yon ildizlar paydo bo'lishi kallyus bilan bog'liq ekanligi, ildizlar qalamcha kambiyasida shakllanib, barg kurtagi yonidan po'stloqni yorib o'sib chiqishi, bir yillik ildiz olgan ko'chatlarning ildiz tizimi 10-15 sm gacha uzunlikda, 1,8-2,5 sm diametrdagi, yarim yog'ochlashgan yashil qalamchalarini to'g'ri tanlanishi va to'g'ri uslub asosida bajarilganda bir yilda ko'plab standart ko'chatlar yetishtirish imkonini berdi. Tayyor bo'lgan bir yillik standart ko'chatlar kuzda 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan, borona qilingan, ariqlar olingan plantatsiyalarga birinchi 4-5 haftada tuproq namligi 45-60 % miqdorda, ildiz shakllangandan so'ng 30-35 % miqdorda ushlab turilganda kurtaklar o'sishi, novdalar shakllanganligi ildiz olish jarayoni faollashganligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Буриев Х.Ч. Жураев Э.Б. “Мевали ва резавор мевали ўсимликлар билан тажрибалар ўтказишда ҳисоблар ва фенологик кузатувлар меъодикаси”. Услубий қўлланма. - Тошкент. 2014.-54.б.
2. Дарвин Ч. Происхождение видов. -М.: Изд-во АН СССР. 1939, -83с.
3. Рева М.Л. Вегетативное размножение древесных растений в естественных условиях УССР. Автореферат дисс... доктора биол. наук. -Киев, 1968. -39с.
